O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - INSON – JAMIYAT – DAVLAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLUVCHI ASOSIY QONUN: ILMIY TAHLIL VA AMALIY YECHIMLAR

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

2024-yil 6-dekabr

TOSHKENT

“Yangilangan Konstitutsiya - inson – jamiyat – davlat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun: ilmiy tahlil va amaliy yechimlar”. // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent., 2024, 531 b.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professor-o‘qituvchilari, sohaviy xizmatlar, respublikamizning yetakchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Yangilangan Konstitutsiya - inson – jamiyat – davlat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun: ilmiy tahlil va amaliy yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari asosida inson huquqini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va ularning yechimini topish maqsadida tayyorlangan maqolalar joy olgan.

To‘plam doktorantlar, magistrlar, tinglovchi-kursantlar, talabalar, professor-o‘qituvchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari hamda ushbu muammoga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni va keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi uchun mualliflarning mas’ulligi belgilangan.

Mas’ul muharrir:

Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor, polkovnik.

Tahrir hay’ati:

Turg‘unov O.K.	O‘zb.Res. JXU boshlig‘ining O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, yu.f.d. professor, podpolkovnik;
Zulfiqarov Sh.X.	O‘zb.Res. JXU boshlig‘ining Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, yu.f.d. professor, mayor;
Usmonov M.B.	Yuridik fanlar doktori, professor;
Nuridullayev A.A.	O‘zb.Res. JXU Davlat-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, yu.f.n., dotsent, mayor;
Xomidov E.O.,	Yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent, mayor;
Yuldashov S.O.	Yu.f.f.d.(PhD);
Olimjonov X.M.	Yu.f.b.f.d. (PhD), mayor;
Giyasov B.H.	Yu.f.b.f.d. (PhD), kapitan.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024

KIRISH

Assalomu-alaykum hurmatli anjuman qatnashchilari!

Sizlarni O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida o‘tkazilayotgan **“Yangilangan konstitutsiya - inson – jamiyat – davlat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun: ilmiy tahlil va amaliy yechimlar”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ko‘rib turganimizdan xursandmiz.

O‘zbekiston Respublikasida bugungi kun yangi islohotlar bosqichida inson huquqlarini himoya qilish, uning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash eng ustuvor, birinchi darajali, davlat siyosati darajasidagi masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqi oliy qadriyat sifatida o‘rnatilganligini amalda ta’minlash bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqini ta’minlashga bag‘ishlangan yangidan yangi qonunlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim, tadbirkorlik, davlat xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan yuzlab Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi.

Ushbu masalaga to‘xtalib, Yurtboshimiz “erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarimiz yangi pog‘onaga ko‘tariladi. Bu borada, millati, tili va dinidan qat’iy nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratiladi”, deb ta’kidlagan edi.

Yurtboshimizning inson qadrini ulug‘lovchi xalqparvar davlat barpo etish g‘oyasi yangilangan Konstitutsiyamizga ham to‘la singdirildi. Chunonchi, yangilangan Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosining taqiqlanishi, hech narsa inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi belgilandi.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqini ta’minlashga bag‘ishlangan normalar uch baravarga ko‘paytirilib, ularning ijrosini amalga oshirish huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan chuqur bilim, kuch va amaliy ko‘nikmalarning shakllanishini talab etadi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilandi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida belgilandi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar doirasi kengaydi. Birinchi marta har kimning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, murojaat etishga haqliligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha’ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishining oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi belgilandiki, bularning hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni o‘z orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo‘ydi.

Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Tariximizda ilk bor O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman, davlatning ijtimoiy sohadagi

majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshirdi.

Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi.

Aholi kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi ham nazarda tutildi. Umuman, Konstitutsiyada aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar 4 barobar ko‘paytirildi. Bu aholi sog‘lig‘ini ishonchli muhofaza etish hamda onalar va bolalar o‘limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Har kim ta’lim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, davlat maktabgacha ta’lim va tarbiya’ni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlashi, umumiy o‘rta ta’limning majburiyligi, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida ekanligi, ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta’lim va tarbiyaning ta’minlanishi, fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqliligi, oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga egaligi, O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etilishi, davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi mustahkamlandi.

Davlat bebaho tabiiy boyliklarimizni ko‘paytirish, asrab-avaylash va atrof-muhit musaffoligini saqlash choralarini ko‘radi. Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar belgilandi.

Konstitutsiyaning bir qator normalarida “har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi (49-modda), fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburligi (62-modda), mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi kerakligi (66-modda), davlat yoshlarning ekologik huquqlari

himoya qilinishini ta’minlashi” (79-modda) tahriridagi normalarning joy olganligi davlat tomonidan aholining ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilishidan dalolat beradi.

Konferensiya materiallari to‘plamining signal nusxasi chop etildi, ushbu mavzuda yana diqqatga sazovor maqola tezislari taqdim etilsa, uni ushbu to‘plamga qo‘shishga tayyormiz. konferensiya materiallari asosida tayyorlangan takliflar, albatta, tegishli davlat hokimiyati organlariga taqdim etiladi.

Konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman!

YOSHLARNING AXBOROT MADANIYATINI OSHIRISH – DAVR TAQOZOSI

Mamayusupov S.D.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosari.

So‘nggi yillarda axborot bilan bog‘liq munosabatlar tobora takomillashib, axborotni manbalari son va sifat jihatdan tobora rivojlanib bormoqda. Yangilangan konstitutsiyasining 33-moddasida “...har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi” – deb belgilab qo‘yilgan[1].

Amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida mamlakatimizda axborot texnologiyalari jadal rivojlantirilib, barcha sohalarga faol tatbiq etilmoqda. Bularning natijasida shu yilning o‘tgan davrida raqamli xizmatlar hajmi 21 trillion so‘mdan oshdi, yil yakuni bilan 43 trillion so‘mga yetishi kutilmoqda. Sohada 367 million dollarlik xizmatlar eksport qilindi. IT-park rezidentlari 577 taga ko‘payib, 2 mingtadan oshdi. Ularda ishlayotgan yoshlar soni esa 32 mingtaga yetdi[2].

Yuqoridagi raqamlardan ham ko‘rinib turibdiki, jamiyat axborotlashgani, sohalarning raqamlashgani sari axborot madaniyatiga bo‘lgan ehtiyoj ham tobora ortib boraveradi. Shu jihatdan o‘sib kelayotgan yosh avlodning axborot

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145

[2] Sun’iy intellekt va startap loyihalarni rivojlantirish bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi. https://president.uz/uz/-lists/view/7464.

madaniyatini shakllantirishda tegishli jihatlarni inobatga olish muhim ahamiyatga egadir.

Aslini olganda, yoshlarning axborot madaniyatiga erishishi uchun ulardan, birinchi navbatda, axborot savodxonligi ham talab qilinadi. Axborot savodxonligi “Axborotga bo‘lgan ehtiyojni his qilish, uni topish, unga baho berish va undan samarali tarzda foydalanish” uchun kerak bo‘ladigan malakalar to‘plami sifatida ta’riflanadi[1]. “Axborot savodxonligi” tushunchasini birinchi marta P.Zurkovskiy XX asrning 70-yillarida ish va kundalik hayotda muammolarni hal qilishda axborot resurslaridan to‘g‘ri foydalana olgan insonga nisbatan ishlatgan: “Axborot resurslarini o‘z hayot faoliyatida to‘g‘ri tatbiq qila olgan odamlarni axboriy savodxon, deb atash mumkin”.

Ma’lumki har bir jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo‘lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Xususan, axborotlashtirish va istiqbolli axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat tejamkorligini oshirishni, ilmiy bilimlar va ilg‘or texnologiyalar jamiyatda jadal tarqalishini, jamiyat intellektuallashuvi umumiy darajasini oshirishni ta’minlashi kabi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda axborot makoni uchun kurash va insonga axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatishning avj olishi kabi alohida xavfni ham yuzaga keltiradi.

Mazkur sohani tahlil qilar ekanmiz avvalo axborot madaniyati tushunchasiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Axborot madaniyati keng ma’noda etnik va milliy madaniyatlarning o‘zaro ijobiy ta’sirini, shuningdek, insoniyatning umumiy tajribasida yuzaga keladigan tamoyillar va real mexanizmlar majmuidir. Tor ma’noda esa qo‘yilgan maqsadga erishadigan samarali axborot faoliyati uchun bilim va ko‘nikmalar majmuini anglatadi.

Axborot madaniyatini inson faoliyatini axborot bilan ta’minlashga qaratilgan umumiy madaniyatning ajralmas qismi sifatida ko‘rish mumkin. Axborot madaniyati axborot jarayonlarini tashkil etishning erishilgan darajalarini va dunyoni yaxlit tasavvur qilishni, uni modellashtirishni va shaxs tomonidan qabul qilingan qarorlar natijalarini oldindan ko‘rishni ta’minlaydigan ma’lumotlarni yaratish, to‘plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish va foydalanish samaradorligini aks ettiradi[2].

Axborot madaniyati quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan yaxlit tushuncha sifatida shakllanadi:

audiovizual madaniyat;

mantiqiy madaniyat;

semiotik madaniyat;

[1] Key Enn Kassel va Uma Xayrmat. XXI asrda ma’lumot va axborot xizmatlari: ikkinchi tahrir. – Toshkent: Baktria press, 2014. – B.325. 13.

[2] Davenport, T. H. (1994). Saving IT's Soul: Human-Centered Information Management. Harvard Business Review, 72(2), 119-131.

konseptual va terminologik madaniyat;
texnologik madaniyat;
muloqot madaniyati;
tarmoq madaniyati;

Bugungi kunda shaxs axborot psixologik xavfsizlikni ta’minlanganlik darajasini sotsiologik o‘rganish, yangi konsepsiyalar bilan boyitish bugungi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi uchun o‘ta muhim vazifa hisoblanadi. Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning ma’naviy olami daxlsizligini asrash ko‘pchilikni o‘ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo‘yish yoki axborot olishni ta’qiqlash bilan muammo hal bo‘lmaydi.

Ma’lumki, hozirgi zamon yoshlarining hayotiy tushuncha va tasavvurlarini, asosan, internet shakllantirmoqda. Bu esa ta’lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo‘ymoqda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o‘zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu o‘rinda axborot madaniyati deyilganda ta’lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigan axborotga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga qa-ratilgan bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalarning tizimlashtirilgan yig‘indisi tushuniladi. Shuning uchun ham mazkur muammo faqatgina ma’lum bir davlat chegaralaridan chiqib, global xarakterga ega bo‘ldi.

Kompyuterlar, ularning tarmoq va tizimlari, ulkan hajmdagi axborot resurslaridan oqilona foydalanishda, ayniqsa, axborot madaniyati fenomenining global ahamiyatini anglash talab etiladi. Axborot madaniyati fenomeni axborotlashtirish asriga o‘tishning universal ijtimoiy muhim kategoriyasi sifatida xizmat qiladi. Texnika va texnologiyaning rivojlanishi, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi, o‘z navbatida, jamiyatning axborot madaniyatiga ega bo‘lishi – bu har bir insonning o‘zligini anglashida, sotsiumdagi o‘rni va vazifasini bilishida katta ahamiyatga egadir.

Axborot olish, uzatish hamda ko‘nikmalarini shakllantirish – kompleks hal qilinishi lozim bo‘lgan ko‘pqirrali muammo. Axborot madaniyati axborotga nisbatan munosabat, dunyoqarashni shakllantirish metodologiyasini yaratishi, aholiga axborotlashgan jamiyatning falsafasini tushuntirishi, axborot oqimi orasidan zarur axborotni tanlab olish ko‘nikmalarini shakllantirishi jihatidan muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning axborot madaniyati darajasi aynan ma’lumotlardan foydalanish nuqtasida shakllanadi, bu vazifani kutubxonalar bajaradi va aynan shu o‘rinda mediakompetentlilikni va axborot madaniyatini rivojlantirish samaradorligi faoliyatiga yo‘l ochadi.

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish g‘oyat xilma-xil sharoitda kechadi. Shu jihatdan milliy taraqqiyot manfaatlarimizga mos yo‘lni tanlab olish uchun quyidagi mezonlarga amal qilish maqsadga muvofiq:

axborot olish va uni tasarruf etishda axborotning mazmun-mohiyatiga, uning haqiqiy ekanligi, qaysi omillarga asoslanganligi va qanday maqsadda tarqatilayotganligi g‘oyasiga asoslanganligiga e’tibor qaratish;

axborotning qanday natija berishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uni tahlil qilish, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlab, so‘ngra muayyan bir xulosaga kelish;

axborotga ongli, yuksak tafakkur bilan yondashgan holda olish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda axborot madaniyatini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki, axborot oqimining jadal o‘sib borishi, taqdim etilayotgan axborotlar orasidan kerakli, zaruriy va foydalilarini ajratib olish murakkab jarayondir. Buning uchun har bir shaxs mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng, axborotlar ummonidan o‘zi uchun kerakligini ajratib olish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim. Axborot madaniyatini shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud bo‘lib, ular orasida yuqorida ko‘rib o‘tganimiz “axborot savodxonligi”dan keyin eng muhimi bu kishilarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145

2. Sun’iy intellekt va startap loyihalarni rivojlantirish bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi. https://president.uz/uz/lists/view/7464.

3. Key Enn Kassel va Uma Xayrmat. XXI asrda ma’lumot va axborot xizmatlari: ikkinchi tahrir. – Toshkent., Baktria press, 2014. – B.325. 13.

4. Davenport, T. H. (1994). Saving IT's Soul: Human-Centered Information Management. Harvard Business Review, 72(2), 119-131.

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI KONSTITUTSIYASI – MOL-MULK DAXLSIZLIGINING MUSTAHKAM KAFOLATI

Ganiyev M.J.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosari.

Barchamizga ma’lumki, 2023 yilning 30 aprel kuni respublikamizda o‘tkazilgan referendumda 90 foizdan ortiq halqimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni qabul qilinishi qo‘llab quvvatladilar.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xalqimizning ko‘p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgan bo‘lib, bu eng avvalo mamlakatimizda inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishning kafolati hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Avvalo, inson, uning haq huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining

eng ustuvor maqsadi bo‘lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi hamda “Davlat – inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor”[1].

Konstitutsiyaning qabul qilinishi demokratik davlat qurishning barcha sohalaridagi munosabatlarni va milliy qonunchiligimizning barcha yo‘nalishlarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatli davlat qurish yo‘llarini keng ochib berdi”, deb ta’kidlagani yana bir bor mamlakatimiz buyuk kelajak sari dadil qadamlar tashlayotganini ifodalaydi.

Davlatning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida mamlakatda ishlab chiqarish korxonalarini ortib borishi, ishchi o‘rinlarini yaratilishi va fuqarolar bandligini ta’minlash, hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda mol-mulk daxlsizligi kafolatlanganligi va hususiy mulkni doimiy ravishda davlat himoyasida bo‘lishi kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Shu bois Bosh qomusimizda “Jamiyat va shaxs”ga bag‘ishlangan alohida bo‘lim shakllantirilgan bo‘lib, unda Jamiyatning iqtisodiy negizlarini huquqiy jihatdan belgilovchi prinsiplar alohida bobda ko‘rsatib o‘tildi[2].

Konstitutsiyamizning 65-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi” hamda “Xususiy mulk daxlsizdir” deb belgilab qo‘yilganligi, mamlakatimizda mulk egasining huquqlari va mulkni dahlsizligini ta’minlash davlat uchun ustuvor ahamiyatga ega ekanligini va doimiy davlat himoyasida bo‘lishini ifodalaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni bilan xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlari tartibga solingan.

Jumladan, mazkur qonunning 2-moddasida ham “Hususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidadir. Davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta’minlash va uning ko‘paytirilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi” deb belgilab qo‘yilgan[3].

Bundan ko‘rinib turibdiki, davlat bosh islohotchi sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki daxlsizligini ta’minlash va himoya qilish funksiyasini bajaradi.

Davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan ob’ektlar daxlsizligini ta’minlash bo‘yicha munosabatlari 2022 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solingan.

“Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga muvofiq qo‘riqlanadigan ob’ektlar tarkibiga – belgilangan tartibda qo‘riqlashga olingan jismoniy va yuridik shaxslarning binolari, imoratlari, inshootlari, ularning hududlari, joyning uchastkalari, transport vositalari, transportda tashiladigan yuklari, pul mablag‘lari, moddiy boyliklari va boshqa mol-mulki, shuningdek jismoniy shaxslar kiradi.

Shuningdek, mazkur qonunning 4-moddasida qo‘riqlash faoliyatining asosiy vazifalari sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini hamda ob’ektlarini tajovuzlardan himoya qilish, qo‘riqlanadigan ob’ektlar hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga chek qo‘yish hamda yuridik shaxslarning qo‘riqlanadigan ob’ektlarida nazorat-o‘tkazish va ob’ektning ichki rejimlarini ta’minlash kabi vazifalar belgilab qo‘yildi.

“Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash faoliyati sohasidagi vakolatlari belgilab berildi. Unga ko‘ra, Milliy gvardiya qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi hamda davlat ob’ektlarini, o‘ta muhim, toifalangan ob’ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shuningdek xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalarini qo‘riqlashni amalga oshiradi[4].

Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan normalardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qo‘riqlash bosh boshqarmasi jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki hamda fuqarolar xonadonlarini qo‘riqlash va himoya qilish vazifasini bajarib kelmoqda.

Obyekt va xonadonlarni qo‘riqlashda asosan jismoniy va texnik qo‘riqlash turlaridan foydalanilmoqda. Qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan ilg‘or xorijiy tajribalar va zamonaviy tahdidlardan kelib chiqib, qo‘riqlash faoliyati tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy qilinib kelinmoqda.

Qo‘riqlash sohasida amalga oshirilayotgan har bir islohotlarning zamirida ham eng avvalo inson qadr-qimmati, fuqarolarga qulayliklar yaratish va ularning mol-mulklarini ishonchli qo‘riqlovini ta’minlash kabi ustuvor vazifalar turibdi.

Shu bois ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risda”gi PQ-4997-sonli qarorida ob’ektlarni qo‘riqlash tizimi “Yuqori sifat va qulay narx” tamoyili asosida amalga oshirilmoqda[5].

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiyamizning 68-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deb belgilab qo‘yilgan[6].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 noyabrdagi 930-sonli qarori bilan Milliy gvardiya Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan ob’ektlar ro‘yhati tasdiqlangan.

Bugungi kunda ushbu ro‘yxatga ko‘ra, respublikamizdagi 100 dan ortiq yirik neft-gaz va gaz kondensati konlari, qimmatbaho metallar konlari, suv ta’minoti ob’ektlari, davlat muzeylari, muzey-qo‘riqxonalar, tarixiy va madaniy meroslar saqlanadigan joylar, arxeologik qazilma joylari Qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanib kelinmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasida mol-mulk daxlsizligini ta’minlash prinsiplari va uning huquqiy asoslari eng avvalo Konstitutsiyamizda aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lib, uning ijrosini ta’minlash maqsadida bir nechta qonunlar va qarorlar qabul qilingan.

Jismoniy va yuridik shaxslaring mol-mulki doimiy ravishda davlat himoyasida bo‘lib, ularning ishonchli qo‘riqlovini ta’minlash tegishli davlat tuzilmalari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”. Toshkent. “O‘zbekiston” – 2021. 67 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://constitution.uz/uz/-clause/index.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risda”gi PQ-4997 sonli qarori, https://lex.uz/docs/5300150.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, https://lex.uz/docs/6066682.

5. O‘sha joyga qarang.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://constitution. uz/uz/clause/index.

INSON HUQUQINI TAKOMILLASHTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Rustambayev M.X.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist.

Inson huquqini ta’minlash va uni himoya qilish kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida eng asosiy va bosh masalalardan biri bo‘lib kelgan. Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotida inson huquqi muhim ahamiyat kasb etib, u demokratik huquqiy

davlatning eng muhim belgisi, davlatning qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos mezon hisoblanadi.

Shu sababdan, umumtan olingan xalqaro hujjatlar va umuminsoniy qadriyatlar talablaridan kelib chiqqan holda inson huquqini tartibga solishga mamlakatimizda alohida e’tibor qaratilmoqda. Asosiy qonunimizda inson huquqlariga sodiqlik, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishi, fuqarolar tinchligini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, uning 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi[1], deb o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Bosh Qomusimiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to‘la mos holda, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab berdi. Insonning ma’naviy kamol topishi va har tomonlama uyg‘un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi”[2].

Yurtboshimiz tomonidan inson huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirishning yangi yo‘nalishlari belgilab berildi. Bular: inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozimligi, odamlarning sudma-sud sarson bo‘lib yurishiga barham berish uchun adolatli hukm va qaror chiqarish bo‘yicha viloyat sudlarining vakolati, mas’uliyatini oshirish kerakligi, tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvini eshitish va mulkni xatlashga sanksiya’ni prokurordan sudga o‘tkazish muhimligi, mulk huquqini cheklashga oid har qanday harakat faqat sud orqali bo‘lishi zarurligi, tergov shaxsni ayblash uchun emas, jinoyatni fosh etish orqali haqiqatni aniqlash uchun ishlashi kerakligi, sudda ishlarni ko‘rishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusini shakllantirish lozimligi, odil sudlovni ta’minlashda himoyachining huquqlari kengaytirilishi, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ma’muriy sudlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish kerakligi va h.k.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqini ta’minlashga bag‘ishlangan normalar uch barovarga ko‘paytirilib, ularning ijrosini amalga oshirish huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan chuqur bilim, kuch va amaliy ko‘nikmalarning shakllanganligini talab etadi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilandi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida ko‘rsatildi.

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Xususan, O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlandi. O‘lim jazosini taqiqlashni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, shaxsni sudning

qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi belgilandi[3]. Ya’ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgandir. Bu orqali xalqaro e’tirof etilgan “Xabeas korpus” institutini qo‘llash ko‘lami yanada kengaydi.

Ilk bor shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik (xalqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukut saqlash huquqi berildi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar doirasi kengaydi. Birinchi marta har kimning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, murojaat etishga haqliligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha’ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin

emasligi[3] belgilandiki, Bularning hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni o‘z orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo‘yadi.

Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanib, tariximizda ilk bor Asosiy qonunda O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Ma’lumotlarga qaraganda o‘tgan yili mamlakatimizda 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratib berilgan bo‘lsa, bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilish marrasi olingan. Yaqin 2-3 yilda esa bu raqamni 200 mingga yetkazish ustida ishlanmoqda.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi.

Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar belgilandi. So‘nggi uch yilda qurilishlardan norozi bo‘lib, aholidan 15 mingta murojaat kelib tushgan, sudlar tomonidan birgina Toshkent shahrida 200 dan ortiq qurilishlar to‘xtatib qo‘yilgan, avtomobillar soni 1,3 millionga ko‘payib, 3,6 millionga etgan, har yili atmosfera havosiga 2,2 million tonna sanoat va transport ishlanmalari chiqarilayotgani ham ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. Asosiy qonunimizda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi belgilandi. Aholimiz va kelajak avlod uchun ekologik toza hududni saqlab qolishning konstitutsiyaviy kafolatlari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim olish huquqi va imkoniyati yanada kengaytirildi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat’iy belgilab qo‘yildi. Ma’lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017 yilgacha oliygohlarda o‘qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o‘zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga yetdi. Magistratura uchun esa grantlar soni 5 baravar

ko‘paydi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi ham belgilandi.

Konstitutsiyada davlatning o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Bu qoidalar mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o‘qituvchilarning professional o‘sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro‘sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta’lim berish, barkamol voyaga yetkazish ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish esa davlatning burchi sifatida o‘rnatildi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan dunyo davlatchiligi amaliyoti va tajribasida uchramagan, kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun butunlay yangi hisoblangan "inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar davlat" barpo etish g‘oyasi ilgari surildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "inson qadri uchun" g‘oyasi ilgari surilar ekan, uning mazmuni va asosiy belgilari sifatida har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish, sifatli ta’lim olish zaruriyati ko‘rsatib berildi. Shuni aytish kerakki, inson qadri ulug‘lanadigan ijtimoiy xalqparvar davlatni barpo etish yangi O‘zbekistonni shakllantirishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yangi O‘zbekistonning belgilari sifatida har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan, odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan, hamma uchun adolatni so‘zsiz ta’minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida teng bo‘lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlat ko‘rsatib berildi. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g‘amxo‘rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat tushuniladi.

Ayniqsa, keyingi olti-yetti yilda amalga oshirilayotgan tub islohotlar - davlat organlari va mansabdor shaxslarning amalda chinakam xalqqa xizmat qilishi, Xalq qabulxonalari orqali xalqning dardi va muammolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilishi, mavjud muammolarning joyida hal etilishi, davlat xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalqqa xizmat qilishi tamoyilining amaliyotga to‘la

joriy etilishi O‘zbekiston chinakam inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar, ijtimoiy, demokratik, dunyoviy davlat barpo etish yo‘lida ekanligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi //Xalq so‘zi, 2016 yil 9 dekabr;

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent., O‘zbekiston, 2023;

3. Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/ 0241-son.

KONSTITUTSIYA MENIKI-SENIKI-BARCHAMIZNIKI

Turg‘unov O.K.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari y.f.d., professor, podpolkovnik.

Jahon hamjamiyatida O‘zbekistonning roli va o‘rni tobora oshib borayotgan sharoitlarda mamlakat Konstitutsiyasi ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash ishida, asosiysi, mamlakatning izchil iqtisodiy rivojlanishi va xalq farovonligi oshishida real huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Konstitutsiyasi mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin juda qisqa muddatlarda ishlab chiqilgani va qabul qilinganini alohida ta’kidlash joiz.

“Konstitutsiya” deganda biz ong-u tafakkurimizning muayyan mustahkam prinsiplaridan kelib chiqadigan va ijtimoiy farovonlik maqsadlariga yo‘naltirilgan, jamiyat rioya qiladigan aniq va yagona tizimiga solingan qonunlarning, qoida va odatlarning mujassamligini tushunamiz.

Xalqimiz konstitutsiyaviy islohotlardan katta o‘zgarishlarni kutayotganligi sir emas, albatta. Buning isboti sifatida loyiha bo‘yicha o‘tkazilgan umumxalq muhokamasi jarayonida aholidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushganligi ham fuqarolarimiz ushbu masalaga juda katta qiziqish va e’tibor bilan yondashganligidan yaqqol dalolat beradi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ustida ishlashda senatorlarimiz ham faol ishtirok etdilar. Xususan, 19 nafar senatorlarimiz Konstitutsiyaviy komissiya tarkibida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ustidagi ishlarda bevosita qatnashdilar. Xabaringiz bor, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasida,

yetuk olimlar, jamoatchilik, xalqaro va xorijiy ekspertlar ishtirokidagi muhokamalarda har tomonlama tahlil qilindi va maromiga yetkazildi.

Xususan, loyihani tayyorlashda va takomillashtirishda 400 dan ortiq xalqaro hujjatlar, 190 ga yaqin mamlakatlar konstitutsiyalari puxta o‘rganildi, xalqaro ekspert va mutaxassislar ishtirokida bir necha bor muhokama qilindi, shuningdek respublikaning turli hududlarida keng jamoatchilik vakillari ishtirokida jami 20 mingga yaqin muhokamalar tashkil etildi. Loyiha 10 ga yaqin xorijiy va xalqaro, shu jumladan lingvistik, yuridik, gender-huquqiy, korrupsiyaga qarshi, jamoatchilik hamda inson huquqlari bo‘yicha normalarga muvofiqligi yuzasidan ekspertizalardan o‘tkazildi. Xalqaro ekspertlar ham mazkur loyiha xalqaro huquqning umume’tirof etilgan barcha qoidalarini o‘zida mujassam etganligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo‘yicha referendumni tayinlash va uni o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Qarorda mazkur qarorning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash uchun uni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga yuborish tartibi ham belgilangan edi. Shunga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud o‘z majlisini o‘tkazib, yuqoridagi qarorni Konstitutsiyaga muvofiq deb topdi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasida mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolatlar o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbekiston “huquqiy davlat” degan konstitutsiyaviy tamoyil muhrlandi.

Bu barchaning qonun oldida tengligini va qonundan hech kim ustun emasligini ta’minlash, sudlar tomonidan adolatli qarorlar qabul qilish, umuman olganda davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi uchun mustahkam poydevor bo‘ladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida ilgarigi “davlat-jamiyat-inson” tamoyilini “inson-jamiyat-davlat” deb o‘zgartirish, ya’ni eng avvalo inson manfaatini har narsadan ustun qo‘yishni maqsad qilgan.

Xususan, unda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash–davlatning oliy majburiyati etib belgilandi va shu munosabat bilan inson huquqlari kafolatlari jiddiy ravishda kuchaytirildi. Loyihaga asosan insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi hamda qonunlar, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilab berdi.

Inson va davlat organlari o‘rtasidagi yuzaga kelgan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta’sir choralari maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi kerakligi belgilandi. Bu normalar huquqni qo‘llash faoliyatida inson manfaatlari ustuvor bo‘lishini amalda ta’minlashga xizmat qildi.

Navoiy shahridagi Navoiy viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazida “Ayoli e’zozlangan yurt” ma’naviy-ma’rifiy tadbiri o‘tkazildi.

Mazkur tadbirda Navoiy viloyat sudi sudyasi G.Xudayberdiyeva qatnashib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson-jamiyat-davlat eng avvalo inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy majburiyati etib belgilanganligi va shu munosabat bilan inson huquqlari kafolatlari kuchaytirilganligi, inson va davlat o‘rtasidagi yuzaga kelgan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta’sir choralari maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi kerakligi belgilanganligi haqida fikr bildirdi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi huquqiy demokratik kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimizning tinch, obod va farovon hayotini ta’minlash, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish, milliy qonunchilik tizimini shakllantirish hamda mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.[1]

O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning erkinlik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasidir. Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga taya’nilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o‘zbek xonliklari, xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan. Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan. 1990-yil mart oyi Mustaqilligimiz e’lon qilinishidan bir muncha vaqt oldin, o‘n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasida sobiq ittifoq tarkibidagi respublikamizda Prezidentlik boshqaruvi joriy etildi, davlat ramzlari haqidagi masala muhokama qilinib, bu borada maxsus komissiya tuzildi. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor ana shu sessiyada ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun O‘zbekiston Oliy Kengashi Mustaqillik deklaratsiyasini e’lon qildi. Deklaratsiyaning 8-bandida O‘zbekiston “o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o‘zi ta’sis etadi” degan qoida mustahkamlangan bo‘lsa, Deklaratsiyaning 12-bandida ushbu hujjat respublikaning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lajagi qayd etildi. O‘shanda bunday mazmundagi hujjat sobiq ittifoq hududida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda qabul qilingan edi. O‘sha kuniyoq Oliy Kengash qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom

[1] Gulnafis Xudayberdieva Navoiy viloyat sudi sudyasi “Konstitutsiya-yangi tamoyillar va islohotlar”

Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a’zoni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi.

1991-yil 31-avgust Oliy Kengash O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida Bayonot qabul qildi. Bayonotda ta’kidlandiki, “Bundan buyon O‘zbekiston Respublikasi hududida respublika Konstitutsiyasi va qonunlari shak-shubhasiz ustun deb e’tirof etiladi”. Shu kuni “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Undan bo‘lajak Konstitutsiyaning o‘zak qoidalarini o‘zida aks ettirgan bir qator muhim moddalar joy oldi. Jumladan, mazkur Qonunga muvofiq: “O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy-davlat va ma’muriy hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi” (3-modda); “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O‘zbekiston Respublikasi davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi” (5-modda). 1992-yil 26-sentabr Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi tayyor bo‘ldi. Uning ustida taxminan ikki yil davomida ishlandi. Loyiha shu kuni umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Loyiha e’lon qilingach, Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Fuqarolarimiz bildirgan takliflar soni 5 mingdan oshib ketdi.

1992-yil 21-noyabr Loyiha ikkinchi marta umumxalq muhokamasi uchun gazetalarda chop etildi. Shunday qilib, huquqiy presedent – ikki bosqichli umumxalq muhokamasi yuz berdi. Ushbu holat, bir tomondan, muhokama ishtirokchilarini faollashtirish uchun qudratli rag‘bat vazifasini bajargan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Asosiy Qonunimizning xalqchilligini ta’minladi. 1992-yil 8-dekabr Oliy Kengash sessiyasiga muhokama qilish uchun kiritilgan Konstitutsiya loyihasiga 80 ga yaqin o‘zgarishlar, qo‘shimchalar taklif etildi va aniqliklar kiritildi. Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o‘zgartishlar kiritilgach, Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Konstitutsiyamizning xususiyatlari Suveren O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishining quyidagi sakkizta muhim xususiyati bor. O‘zbekistonda istiqlolga erishilgach, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy maqsadi etib belgilangan. Bundan 20 yil avval qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ushbu muhim vazifalarni hayotga tatbiq etishda mustahkam asos bo‘lib xizmat qilayotir. Unda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilangan. Prezidentimiz Islom Karimov

ta’kidlaganidek, Konstitutsiyamiz Asosiy Qonunimiz qabul qilinishi bilan biz O‘zbekiston kelajagini, yangitdan barpo etilayotgan davlatimizning chuqur mazmuni, ma’no va mohiyatini, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar va ma’naviy taraqqiyotning, yurtimiz qiyofasini, uning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni va nufuzini tubdan o‘zgartirib yuborgan mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilishning pirovard maqsadlarini aniq-ravshan belgilab oldik.

Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi – ulkan tarixiy ahamiyatga ega noyob hujjat bo‘lib, unda suveren davlat va adolatli jamiyatni shakllantirishning muhim asoslari, inson huquqlariga, demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqlik, fuqarolar tinchligi hamda millatlararo totuvlikni ta’minlash mustahkamlangan. Uning qoidalari mamlakatimizda bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlarni ortga qaytarib bo‘lmasligi, ularni jadal va barqaror rivojlantirish hamda kelajakda davlatimizni ravnaq toptirishni kafolatlaydi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining g‘oya va normalarida xalqimizning ko‘p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir. Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko‘plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg‘or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume’tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta’minlash va himoya qilish mexanizmini o‘zida mujassam etgan. Konstitutsiyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligimizning barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti Konstitutsiya normalariga muvofiq 7 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 600 dan ziyod qonunni qabul qildi, 200 dan ortiq ko‘p tomonlama xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi va shu tariqa Asosiy Qonunimizni amalga oshirishning yaxlit huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning samaradorligini vaqt o‘zi ko‘rsatib turibdi va bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” prinsipiga muvofiq, yuksak demokratik talablar va xalqaro huquq standartlariga mos milliy saylov tizimi yaratilgani ta’kidlandi. Ko‘ppartiyaviylik asosida muntazam o‘tkazilayotgan saylovlar mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolarning saylash va saylanish huquqi kafolatlanganining yorqin ifodasi bo‘lib, bu ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini, jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirishga xizmat qilayotir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari faoliyati uchun huquqiy sharoit hamda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bunga haqiqiy demokratiyaning muhim asosi sifatida qaraladi.

Shuning bilan birga, mamlakatimizda respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, milliy va diniy adovatni

targ‘ib qiluvchi jamoat birlashmalarini tuzilishi man etilgan. Sud-huquq tizimini erkinlashtirish borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakatimizning demokratik qadriyatlar tarafdori ekanining yorqin ifodasidir. Sud hokimiyati mustaqilligi ta’minlandi, sudlar ixtisoslashdi, kassatsiya instituti isloh qilindi, ishlarni qayta ko‘rib chiqishning apellyatsiya tartibi, yarashuv instituti joriy etildi, sud amaliyotining barcha bosqichlarida tomonlar tengligi kafolatlandi. Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erki, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas tabiiy huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular huquqiy jihatdan kafolatlangan. Inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklari sohasida Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g‘oya va qoidalarini o‘ziga singdirgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi to‘g‘risidagi moddasini bajarish doirasida 2008 yilning 1 yanvaridan mamlakatimizda o‘lim jazosi bekor qilindi, qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazildi. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish jarayoni davom ettirilmoqda. O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, qo‘llab-quvvatlash hamda himoya qilish borasida katta tajriba to‘plangan. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi tashkil qilindi, bu boradagi ishlar samaradorligi Asosiy Qonunimiz normalarining so‘zsiz bajarilishiga asoslangan. Mustaqil bo‘lgan bu institutlar bir-birini takrorlamasdan jamiyatimizda qonun ustuvorligi, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilish prinsiplariga rioya etilishiga xizmat qilayotir. Mamlakatimizda axborot sohasini bosqichma-bosqich demokratik isloh etish, bu jarayonning qonunchilik asoslarini takomillashtirish, fuqarolarning fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini to‘liq amalga oshirish, islohotlarning oshkoraligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash borasida aniq maqsadli kompleks ishlar amalga oshirildi. Natijada O‘zbekistonda faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko‘payib, bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan qariyb 1250 ta ommaviy axborot vositalarining aksariyati nodavlat hisoblanadi.

Ayni paytda davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan vazifalarga binoan mamlakatimiz parlamenti yangi qonunlar ishlab chiqmoqda, amaldagi qonunlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritmoqda. Bular, o‘z navbatida, axborot sohasini yanada demokratlashtirish, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakatimizda davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Bu prinsip hayotda ham o‘z ifodasini to‘liq topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 6 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Ularga davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida katta yordam ko‘rsatilmoqda. Birgina 2012 yilda ushbu maqsadlarga Davlat budjetidan 6 milliard so‘m ajratildi. O‘zbekistonda Asosiy Qonunga binoan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini isloh etish va demokratlashtirish siyosati milliy iqtisodiyotimizni jadal, barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini muntazam oshirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Hattoki, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ham o‘tgan yillardagi kabi O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari kamida o‘rtacha 8,2 foizni tashkil qilgani shundan dalolat beradi. Konstitutsiyaning qat’iy amal qilayotgani sharofati bilan mamlakatimizda kuchli, raqobatbardosh, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tarkib topdi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi jadal rivojlanmoqda.

Bugungi kunda ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotga qo‘shayotgan hissasi 54 foizdan ortib borayotir, ichki va tashqi bozorda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar barpo etilib, yangi ish o‘rinlari ochilmoqda, aholi daromadlari oshmoqda. Tarixan qisqa muddat ichida bunday ulkan iqtisodiy muvaffaqiyatlarga mamlakatimiz Konstitutsiyasining iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va ustuvor bo‘lib, davlat himoyasida ekanini kafolatlaydigan normalarining samarali amalga oshirilishi tufayli erishdik. Xorijlik ekspertlar mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo va dinlararo totuvlikni saqlash hamda mustahkamlash istiqlol yillarida O‘zbekiston erishgan eng muhim yutuq ekanini yakdillik bilan qayd etmoqda. Bu Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi borasida mustahkamlangan prinsipga qat’iy rioya etilayotganining bevosita natijasidir.[1]

Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki yangi konstitutsiyamiz davlatimizning huquqiy poydevori xalqimizning demokratik yo‘lidagi katta qadam va ahamiyatli ustuvor qadam bo‘lib xizmat qiladi xususan barcha olib borilayotgan islohotlar zamirida xalqimizning kelajak avlodlarimizning hayotidagi zamin bo‘lib xizmat qiladi.

[1] www.meningkonstitutsiyam.uz internet portalidan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gulnafis Xudayberdiyeva Navoiy viloyat sudi sudyasi “Konstitutsiya-yangi tamoyillar va islohotlar”.
2. www.meningkonstitutsiyam.uz internet portalidan.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA: INSON- JAMIYAT-DAVLAT O‘RTASIDAGI O‘ZARO UYG‘UNLIKNI TA’MINLOVCHI ASOSIY MANBA!

Zulfiqarov Sh.X.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, yu.f.d., professor, mayor.

Mamlakatda fuqarolar olib borilayotgan islohotlarga o‘z qarashlarini, fikr va mulohazalarini erkin bildirishlari tabiiy. Qayd etish lozimki, Konstitutsiyaviy yangilanishlarga hamma ham birdayin munosabatda bo‘lishmaydi, ba’zilar xayrixoh, ba’zilar esa e’tirozli fikrlarini ilgari surishmoqchi bo‘lishadi. Darhaqiqat, har kimning zikri, fikri o‘zgacha. Hozirgi kunning dolzarb masalasi ham yangi tahrirdagi konstitutsiyaning kelgusidagi amalda ijrosi qanday bo‘lar ekan, degan turli fikrlar maydoni bilan boyigan desak yangilishmagan bo‘lamiz. Konstitutsiya nima uchun kerak, tabiiy savol?- Konstitutsiya orqali davlat o‘z boshqaruvini engillashtiradi, ya’nikim inson, jamiyat, davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar umumlashadi hamda huquqiy tartibga solinadi.

Nazarimizda, Konstitutsiya doimiy o‘zgarishda, yangilanishda bo‘lishi lozim. Agarda u hayotiy munosabatlardan ortda qoladigan bo‘lsa, o‘zining yuridik kuchi va ta’sirini ham yo‘qotadi. Darhaqiqat, har bir fuqaromiz bilishi lozimki konstitutsiya uning hayotida to‘siq bo‘ladigan muammolarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri hal qiladigan, uning huquq va erkinliklarini ta’minlab beradigan, uning haqiqiy ma’noda huquqiy himoyachisi bo‘ladigan Asosiy qonun ekanligini anglashlari lozim. Konstitutsiyadan eng avvalo, har bir fuqaroning o‘zi bevosita manfaatdor ekanligi, uning har bir qoidasini bilishi va tushunishi kelajakda har qanday yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni engib chiqishida asosiy ko‘makchi bo‘lishini his qilishlari lozim.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyo Konstitutsiyalari doimiy yangilanishlar mavjida rivojlanib boradi, muhim hayotiy munosabatlarni, insonlarning yangi huquq va majburiyatlar tizginini tartib solib boradi. Shu o‘rinda, AQSh Mustaqillik deklarasiyasi asoschilaridan biri Tomas Djeffersonning qiziq bir mulohazasi diqqatimizni e’tiborga tortadi, ya’ni uning taxminicha har 19 yilda konstitutsiyalar o‘zgarishi kerak, negaki shu vaqt orasida qariyb aholining yarim qismi yangilanadi va amaldagi konstitutsiya uning

qiziqishlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Nima deya baholaysiz, xulosa chiqarish o‘zingizdan!

Tahlillar shuni ko‘rsatiyaptiki 10 ta davlatda doimiy tarzda konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib borilmoqda. Bularga: Meksika, Yangi Zelandiya, Braziliya, Shveysariya, Avstriya, Isroil, Chili, Kolumbiya, Gruziya hamda Hindiston davlatlaridir. Deyarli, hozirgi kunda konstitutsiyasi o‘zgarmay qolgan davlatlar deyarli uchramaydi.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya 1992 yilda qabul qilinganidan buyon unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning qariyb barchasi asosan davlat va jamiyat qurilishi, jumladan Parlament, Prezident, Hukumat faoliyati, saylov tizimi, mahalliy boshqaruv, sud va boshqa organlar faoliyatiga taalluqli bo‘lgan.

Qayd etish lozimki, yangi tahrirda qabul qilinishi kutilayotgan konstitutsiya O‘zbekiston tarixida ilk bora referendum yo‘li bilan qabul qilinishi nazarda tutiliyapti. Ya’ni, demokratiyaning eng yuqori ko‘rinishi bo‘lmish xalqning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi, fuqarolarning o‘z ovozini erkin bildirish orqali amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, Konstitutsiyaning moddalari amaldagi 128 tadan 155 taga ko‘payib, normalari 275 tadan 434 taga oshgani, ya’ni, Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilangani, konstitutsiyaviy qonun loyihasini yangi tahrirdagi Konstitutsiya sifatida qabul qilish uchun barcha asoslar etarli ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim deb o‘ylayman.

O‘z navbatida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilishi taklif etilayotgan normalarning yarmidan ko‘pi insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Endi kirish so‘zdan keyin bevosita 30 aprel sanasiga qo‘yilgan yangi tahrirdagi konstitutsiya matnida belgilangan normalarning yuridik jihatlariga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, bu ko‘plab huquqiy asoslar bilan boyitilganligining guvohi bo‘lamiz. Konstitutsiya matnining Muqaddima qismida, inson huquq va erkinliklari, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat, adolatli jamiyat, insonparvar demokratik davlat, xalqaro huquqning umume’tirof etilishi kabi yuridik mohiyatni anglatuvchi qoidalarga ko‘zimiz tushadi.

Davlatning asosiy o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlaridan biri ham huquqiy mohiyatni maqsadga singdirishdir!

Mamlakatni demokratik yangilash, inson huquqlari va erkinliklari ishonchli himoyasining eng muhim kafolatlari sifatida Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlashning konstitutsiyaviy mexanizmlari sezilarli darajada mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida[1], davlatning asosiy maqsadiy yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan norma keltiriladi, ya’ni davlatning huquqiy davlat ekanligi. Huquqiy davlat degani bu – Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga asoslangan davlatdir. Huquqiy davlatda mansabdor shaxslar hokimiyatni xohlaganicha o‘zlashtira olmaydi, o‘zi bilganicha qarorlar qabul qila olmaydi. Bunda barcha davlat organlari faqat qonunda belgilangan vakolatlardan kelib chiqib harakatlanadi.

Huquqiy davlatda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi ta’minlanadi. Ko‘plab xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida huquqiy davlat tushunchasining bevosita mustahkamlanganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, Rossiya, Ozarbayjon, Portugaliya, Qozog‘iston, Fransiya, Turkiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida huquqiy davlat, qonun ustuvorligiga rioya etish kabi qoidalar bevosita mustahkamlangan.

Huquqiy davlatning shakllanganini quyidagi belgilar bilan izohlashimiz mumkin:

birinchidan, konstitutsiya va qonunning ustunligi; *ikkinchidan,* inson huquq va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta’minlash; *uchinchidan,* fuqaro va davlatning o‘zaro mas’ulligi; *to‘rtinchidan,* amalda hokimiyatlar bo‘linish prinisipining ta’minlanishi; *beshinchidan,* sudlarning mustaqilligi; *oltinchidan,* huquqiy ong va madaniyatning yuqori darajada ekani va boshqa belgilarni qo‘rsatib o‘tish mumkin.

Bizning nazarimizda, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 15-moddasida belgilangan, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi va mamlakatning butun hududida qo‘llanilishi normasi huquqiy davlatning muhim va asosiy ko‘rinishlaridan biri desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi masalasi konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim va dolzarb vazifasi hisoblanadi. Negaki, konstitutsiyada mavjud bo‘lgan normalar jamiyatdagi muhim muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solsagina, inson manfaatlariga xizmat qilsagina, uning yuridik kuchi, ta’siri seziladi va e’tirof etiladi. Konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim maqsadlaridan biri ham xalqning konstitutsiyaga bo‘lgan ishonchini kuchaytirish hamda konstitutsiyaviy yo‘l bilan ularning hayotiy masalayu, muammolarini hal etishdir.

Konstitutsiyaning mamlakat hayotida bevosita amal qilishini uchta xususiyatga qarab baholashimiz mumkin. *Birinchidan,* fuqaroning konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklaridan to‘g‘ridan - to‘g‘ri foydalanishi; *ikkinchidan,* barcha subyektlarning konstitutsiyada belgilangan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “Adolat” milliy huquqiy axborot tizimi, 2023 y. – B.4.

talab va majburiyatlarga rioya qilishi*; uchinchidan,* vakolatli davlat organlarining konstitutsiyaviy normalarini qo‘llashi va ijrosini ta’minlashi lozim, ayniqsa sud organlarining roli keskin kuchayishi lozim.

Bu esa, fuqarolarimiz uchun o‘z huquqlarini bevosita himoya qilish imkoniyatini beradi; sudlar inson huquqlarini himoyasiga oid muayyan ishlarni ko‘rayotganda konstitutsiyadagi inson huquqlariga oid normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini yaratadi; barcha darajadagi davlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari o‘z faoliyatida inson huqulariga bevosita amal qilishi qoidasiga rioya qilish shartligi mas’uliyatini his qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida, fuqaro va davlat o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, insonning huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipi, qonunchilikdagi noaniqlar inson foydasiga hal etilishi kabi muhim qoidalar tizimlashtirilgan holda belgilandi. Bu nihoyatda muhim qoidalar hisoblanadi, ya’ni inson huquq va erkinliklarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mansabdorlar shaxslar tomonidan o‘z faoliyatida inson huquq va erkinliklarga rioya qilish va uni himoya qilish oliy maqsadga ko‘chayotganligi, so‘zimizning ayni isboti bo‘layotganligidan dalolat beradi.

Misol tariqasida, Germaniya Konstitutsiyasining 1-moddasida aytiladiki, quyida, ya’ni keyingi moddalarda sanab o‘tiladigan asosiy huquqlar qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati uchun bevosita amal qiladigan huquq sifatida majburiydir, deb belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, fuqarolarning asosiy shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini nazarda tutadi.

Mazkur moddagi yangi normalar davlat organlari, mansabdor shaxslar qarorlari va faoliyatida qo‘llanilgan huquqiy ta’sir choralari ko‘zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va etarli bo‘lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug‘dirmasligi, kimgadir ortiqcha majburiyat yoki xarajat yuklashi mumkin emasligi, insonlarga moddiy va ma’naviy ziyon etkazilmasligini oldini olishga xizmat qiladi

Huquqiy davlatda barcha munosabatlar aniq qoidalar bilan tartibga solingan bo‘lishi kerak. Ammo hayotda shunday vaziyatlar yoki holatlar vujudga kelishi mumkinki, davlat va inson o‘rtasidagi ayrim munosabatlarning echimi qonunchilikda ko‘rsatilmagan yoki noaniqliklarga sabab bo‘lishi aniq. Mana shunday holatlarda muammo kimning foydasiga va qanday tartibda hal etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida belgilanganidek, “Inson bilan davlat

organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinadi”[1].

Deylik, Soliq kodeksining o‘zida muayyan bir masala yuzasidan turlicha norma belgilangan bo‘lishi yoki tadbirkorlikka oid bitta qonunda boshqa norma, ikkinchi qonunda boshqacha norma belgilangan bo‘lishi mumkin. Bunday nomuvofiqlikni, tabiiyki, soliq organi davlat foydasiga, fuqaro esa o‘z foydasiga talqin qilinishini xohlaydi. Konstitutsiyaga kiritilayotgan norma esa shunday nomuvofiqliklar davlat emas, inson foydasiga hal etiladi, degan qat’iy normani aniq-ravshan mustahkamlaydi.

Amaldagi konstitutsiyamiz normalariga e’tiborimizni qaratsak, ko‘p qoidalar umumiy tarzda ifodalanganligini ko‘ramiz. Ya’ni, fuqarolarning o‘z huquqlarini amalga oshirishda, himoyalashda aniq belgilangan qoidalarni kamroq uchratish mumkin. Shu maqsadda ham, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga tegishli normalarni kiritishning hayotiy zarurati paydo bo‘ldi. Misol tariqasida, O‘zbekistonda o‘lim jazosini taqiqlash; “Miranda qoidasi”ni qo‘llash, ya’ni, shaxsni ushlash chog‘ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shartligi; shaxs sudning qaroriga qadar ko‘pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi; inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi; mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish kabi yangi normalarni ko‘rsatib o‘tish lozim. Bu normalar so‘zsiz, fuqaroning kunlik hayotida duch keladigan muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishga qaratilgandir. Shu maqsadda ham mazkur muammolarning echimini konstitutsiya darajada mustahkamlab qo‘yilishi, nihoyatda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda sudlanganlik fakti nafaqat unga, balki uning oila a’zolari, qarindoshlari hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatish holatlari ba’zan uchrab kelmoqda edi. Hech bir holatda inson o‘zining yaqinlari yo‘l qo‘ygan xatolar uchun javob berishi mantiqan oqlab bo‘lmaydigan holatdir! Shu maqsadda ham mazkur salbiy illatning oldini olish maqsadida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 28-moddasida[1], shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi kerakligi, qat’iy belgilab qo‘yildi.

Yoki bo‘lmasa, ilgari propiska deganda ko‘pchiligimizning yodimizga ish topa olmagan va chet elga ketgan minglab malakali kadrlar, o‘z uylarini boshqa odamlarning nomlariga rasmiylashtirgan fuqarolar, propiska uchun tuzilgan soxta nikohlar, qonunni chetlab o‘tish bilan bog‘liq korrupsiya hodisalari keladi. Buning orqasida qanchadan qancha iqtidorli kadrlar o‘z qobiliyatini ko‘rsatolmay, o‘z kasbiy xohish istagidan chetda qolib ketgan. Shu maqsadda

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “Adolat” milliy huquqiy axborot tizimi, 2023 y. – B.13.

[1 1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “Adolat” milliy huquqiy axborot tizimi, 2023 y. – B.18.

ham mazkur illatlar umuman bo‘lmasligin kafolatlash maqsadida ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 32-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda bo‘lib turgan har bir shaxs respublika hududi bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash huquqiga egaligi belgilab qo‘yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 47-moddasi ikkinchi qismi bilan uy-joy mulkdorlariga nisbatan 2 turdagi muhim konstitutsiyaviy kafolat belgilandi: sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda teng qiymatda kompensasiya olish kafolati. Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz mahrum etilishiga yo‘l qo‘yilmasligini anglatadi. Teng qiymatda kompensasiya olish deganda mulkdorga olib qo‘yilgan mol-mulkka teng qiymatli mol-mulk berilishi va uning ko‘rgan boshqa zararlari to‘lanishi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan etkazilgan zarar to‘la hajmda qoplanishini tushunishimiz zarur. Demak, endi davlat istalgan tadbirkor yoki fuqaroning mulkini “snos” bahonasida buzishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlat ehtiyoji uchun olinishi ko‘zda tutilgan hududlar esa mulk egasi rozi bo‘lgan va kompensasiya to‘liq qoplab berilgandan keyingina buzilishi nazarda tutilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning beshinchi bo‘limida ham yangi normalar bilan uyg‘unlashgan o‘zgarishlar amalga oshirildi:

Ta’kidlash lozimki, inson huquq va erkinliklari bilan ko‘plab normalar mustahkamlash mumkindir, ammo mazkur huquqlarni ta’minlash hamda kafolatlash albatta davlat orgalarining zimmasiga katta mas’uliya va javobgarlikni yuklaydi. Shu maqsadda, shunga mos tarzda davlat organlarining vakolat va funksiyalarini muvofiqlashtirish, kengaytirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etdi. *Bu o‘zgarishlarni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:*

Birinchidan, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ma’muriy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, parlamentning yuqori palatasi – Senat faoliyati takomillashtirildi, shuningdek parlamentning quyi palatasi – Qonunchilik palatasining vakolatlari kuchaytirildi. Ta’kidlash lozimki, bu normalar, Qonunchilik palatasi va Senatining mas’uliyati sohalarini ajratish, ularning faoliyatidagi parallellikni va bir-birini takrorlashni istisno etish maqsadida kiritildi. Ilgari Konstitutsiyada Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 ta vakolatdan iborat bo‘lsa, yangi tahrirdagi tuzatishlarga ko‘ra ularning soni 12 taga oshdi. Senatning mutlaq vakolatlari amaldagi 14 tadan 18 taga ko‘paydi. Mazkur o‘zgarishlarni quyidagi ba’zi bir misollarda ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash Qonunchilik palatasining mutlaq vakolati sifatida mustahkamlandi; Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish; Vazirlar Mahkamasining har yilgi ma’ruzasini eshitish; Bosh vazirning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risidagi hisobotini eshitish va boshqa vakolatlar Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari

sifatida belgilandi. Senatning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyasi kuchaytirildi. Xususan, Bosh prokuror va Hisob palatasi raisi Senat ma’qullaganidan keyin, Davlat xavfsizlik xizmati raisi esa, Senat bilan maslahatlashilgandan keyingina Prezident tomonidan tayinlanish tartibi joriy etildi. Senat a’zolari soni 100 nafardan 65 nafargacha optimallashtirilib, ular 14 ta hududdan teng miqdorda 4 nafardan Jo‘qorgi Kenges va mahalliy Kengashlar majlislarida deputatlar orasidan saylanadi, Senatning 9 ta a’zosi bevosita Prezident tomonidan tayinlanishi kabi yangi qoidalar shular jumlasidandir.

Ikkinchidan, Hukumatning Oliy Majlis va Prezident oldidagi mas’uliyatini kuchaytirish hisobiga Vazirlar Mahkamasining mas’uliyat va javobgarligi sezilarli darajada kuchaytirildi, Hukumatning maqomi o‘zgardi, parlament quyi palatasining Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki kengaytirildi. Endilikda, Bosh vazir nomzodi Prezident ko‘rib chiqishi uchun parlamentga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy norma bekor qilindi hamda mazkur qoida o‘rniga ilg‘or xorijiy amaliyotni inobatga olgan holda, Bosh vazir va Hukumat a’zolarini Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin Prezident tomonidan tayinlash tartibi o‘rnatildi.

Bu erda, Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan quyi palatadagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng taklif etilishi belgilandi.

Shuningdek, Hukumat zimmasiga ijro etuvchi hokimiyat organlari ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta’minlash, davlat xizmatlarining sifati va qulayligini oshirish, aholini, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash vazifalari konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlandi*(115-modda)*.

Konstitutsiyaviy islohotlarda muhim bir konseptual o‘zgarishga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, endilikda viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari mahalliy Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi to‘g‘risidagi norma qat’iy belgilab qo‘yildi[1]. Endilikda, mahalliy hududlarda ikkita alohida mustaqil tuzilmaga bitta shaxsning rahbarlik qilishiga konstitutsiyaviy jihatdan chek qo‘yildi.

Uchinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaviy normalar bilan sudyalar mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning konstitutsiyaviy asoslari Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada mustahkamlandi. Sudyalar daxlsiz va muayyan ishlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “Adolat” milliy huquqiy axborot tizimi, 2023 y. – B.91.

bo‘yicha hisobdor bo‘lmasligi, davlat sudyaning va uning oila a’zolarining xavfsizligi ta’minlanishi belgilanmoqda *(136-modda).*

Alohida qayd etish lozimkki sudlarning faoliyatini moliyalashtirish faqat davlat budjetidan amalga oshirilishi hamda u odil sudlovni to‘liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta’minlashi kerakligi to‘g‘risidagi norma *(140-modda)* va boshqa muhim bo‘lgan qoidalar mustahkamlab qo‘yilmoqda.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga taalluqli masalalar doirasi kengaytirilmoqda va aniqlashtirilmoqda, uning sudyalari faoliyatining kafolatlari kuchaytirilmoqda. Endilikda, Konstitutsiyaviy sudga referendumga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berishi vakolati belgilanmoqda. Bu albatta, Konstitutsiyaviy sud faoliyatidagi mas’uliyatning oshayotganligidan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, Konstitutsiyaga advokatura institutiga bag‘ishlangan va advokatlar faoliyatining kafolatlarini mustahkamlovchi alohida bob kiritildi *(XXIV bob)*. Kelgusida advokatlar faoliyatini mustaqil va erkin tarzada faoliyat olib borishini yanada mustahkamlash borasida quyidagi yangi normalar mustahkamlab qo‘yildi: Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanishi *(141-modda)*; advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi; advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanishi; advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘ladi va qonun bilan muhofaza qilinishi *(142-modda)*. kabi muhim qoidalardir. Albatta, mazkur yangi kafolatlovchi normalar advokatlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi desak, yangilishmagan bo‘lamiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bu konstitutsiyaviy o‘zgarishlar olib borilayotgan islohotlarning boshlanishi, eng muhimi bu yangi qoidalar inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri tartibga solishda o‘z kuchi va salmog‘ini ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Qolaversa, xalqimizning konstitutsiyaviy islohotlarga bo‘lgan ishonchini yanada orttirib borish zarur. Demakki, konstitutsiyamizning tegishli normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi, bu konstitutsiyamizning majoziy ma’noda kuchsizlanishiga emas, aksincha, konstitutsiyamizning yanada takomillashuviga, xalq manfaatlarining kafolatlanishiga hamda insonlarning hayotiy zarurati aks etishiga xizmat qiladi.

KONSTITUTSIYA – INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATIDIR

Eshmatova F.F.
Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman).

Inson qadri – har bir davlatning poydevori va uning mustahkamligi belgisidir. Bugungi Yangi O‘zbekiston inson qadrini ulug‘lash va qonun ustuvorligini ta’minlash va adolatni qaror toptirishni o‘zining bosh mezonlari sifatida belgilagan.

Qayd etish lozimki, umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson, uning hayoti, sha’ni va qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan demokratik davlatni, boshqacha aytganda, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish uchun mustahkam zamin yaratdi. Shuningdek, mamlakatimizning kelgusida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va sud-huquq sohalarini barqaror rivojlantirishning huquqiy asoslarini hamda jamiyat va davlat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Yangilangan Konstitutsiyada O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi belgilab qo‘yildi.

Davlatning buyukligi uning o‘z fuqarolariga, ayniqsa, himoyaga muhtojlariga ko‘rsatadigan munosabatida aks etadi. O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e’lon qilib, barcha fuqarolarning xususan, yordamga muhtoj va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan sharoitlarni yaratishga intilmoqda. Shu maqsadda davlat pensiya tizimi, ishsizlik nafaqalari, tibbiy xizmatlar, ta’lim va ijtimoiy himoya dasturlarini rivojlantirib, aholi farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan islohotlarni amalga oshirmoqda.

Yangilangan Konstitutsiyaning asosiy g‘oyasi insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha’ni va qadr-qimmatini amalda oliy qadriyat darajasiga olib chiqish, ilgari mavjud bo‘lgan “davlat – jamiyat – shaxs” paradigmasini “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirishdan iborat bo‘ldi. Qolaversa, unda inson huquqlariga oid normalar 3,5 barobarga oshib, 50 dan ortiq normalarda o‘z ifodasini topdi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyaning qoidalarini o‘zida mujassam etdi.

Bosh qomusimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari, xususan qonunlardagi noaniqliklarning inson foydasiga hal etilishi, advokatlar maqomi tergovchi va prokuror maqomiga tenglashtirilishi kabi samarali islohotlar yangi konstitutsiyaviy huquqiy makonning barpo etilishiga olib keldi.

Shuningdek, Konstitutsiyada o‘lim jazosi qat’iy taqiqlanishining belgilanishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga insonparvarlik g‘oyalariga sodiqligini namoyon qila oldi. Konstitutsiyada xalqaro institutlar – “Miranda qoidasi” va “Xabeas korpus” tamoyillariga qat’iy rioya qilinganligini alohida ta’kidlash mumkin.

“Miranda qoidasi”ga ko‘ra shaxsni ushlab turish chog‘ida uning huquqlari hamda ushlab turish asoslari unga tushunarli tilda bayon qilinishi, shuningdek gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlashi huquqidan foydalanish mumkinligi Bosh qomusimizning katta yutuqlaridan biri bo‘ldi.

Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz bo‘lib, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish barcha davlat organlari va idoralarining, fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy vazifalaridan biridir. Asosiy Qonun bilan mamlakatimizda inson huquqlari bilan shug‘ullanuvchi milliy institutlar qatorida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) institutining vakolatlari va vazifalari kengaytirildi.

Xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar maqomi va kafolatlari aniqlashtirilib, Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashishi, davlat esa milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoit yaratishi belgilab qo‘yilgan.

Asosiy Qonunning 55-moddasida har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi, har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.

Ma’lumki, fuqarolar o‘z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzayotgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarning harakatlari yoxud harakatsizligi ustidan Ombudsmanga murojaat qilishlari mumkin.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) aholi murojaatlarini fuqarolar qabuli, sayyor qabullar, pochta, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, www.pm.gov.uz internet portali, ombudsman.uz sayti va mobil ilovasi hamda “Ombudsman quti”lari orqali qabul qilmoqda. Murojaat mazmunidan kelib chiqib, o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar joyiga chiqib o‘rganilmoqda hamda ta’sir choralari kiritilib, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklanmoqda.

Vakilga yuborilayotgan murojaatlar statistikasi o‘sish dinamikasini ko‘rsatmoqda. Ombudsman nomiga 2022 yilda 17761 ta murojaat kelib tushgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 18622 tani tashkil etdi. 2024 yilning 9 oyida esa 14172 ta murojaat qabul qilindi. Birgina, mehnat huquqlarini tiklashga oid murojaatlarning ko‘rib chiqilishi natijasida 2021 yilda 10 nafar, 2022 yilda 13 nafar va 2023 yilda 38 nafar, 2024 yilning 9 oyligida 50 nafar fuqaro ishga tiklandi. 2023 yilda Ombudsman tomonidan fuqarolar hamda mahkum (mahbus) va ularning yaqinlari manfaatida jami 2 mlrd.150 mln.so‘m undirilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024 yilning 9 oyligida 2 mlrd.414 mln. so‘mni tashkil etdi.

Ta’kidlash lozimki, Ombudsmanga yuborilayotgan murojaatlar muntazam ravishda tahlil qilinib, aholi muammolarini tizimli ravishda hal etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Chunki, inson huquqlari himoyasiga oid eng samarali takliflar aynan Ombudsmanning murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha kundalik amaliyotida, odamlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, sud hokimiyati va ekspertlik hamjamiyati bilan bevosita hamkorligida shakllanadi. Bu borada yechimini kutayotgan muammolar ham aynan shu jarayonda yuzaga chiqadi.

Bosh qomusimiz fuqarolarning Ombudsmanga qilgan murojaatlarida ko‘tarilgan muammoli masalalarni ko‘rib chiqish, chuqur tahlil qilish va tizimlashtirish orqali “xalq ovozi”ni qonunchilik takliflari orqali xalq noiblariga yetkazish imkoniyatini berdi. Ya’ni, Konstitutsiyaning 98-moddasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakiliga (ombudsmanga) qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish huquqining berilishi belgilandi.

Xususan, joriy yilning iyul oyida Ombudsman tomonidan fuqarolardan kelayotgan murojaatlarni tahlil qilish asosida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasiga oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan farzandning o‘qishi uchun bankdan olingan ta’lim kreditini ota-onaning doimiy daromad manbai bo‘lmaganligi sababli ularning o‘rniga doimiy ish joyiga ega bo‘lgan boshqa farzandlari (aka-uka va opa-singillarining) tomonidan so‘ndirilishini ta’minlovchi qonun loyihasi tayyorlanib, qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritildi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim jihatlaridan biri, unda ilk marotaba ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning huquqlari mustahkamlanib qo‘yildi. Xususan, Qomusimizning 28-moddasiga muvofiq “Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega” ekanligi o‘z aksini topdi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining 2020 yildagi Milliy strategiyasida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil

26 iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Ma’lumki, qiynoq holatlarini aniqlash va uning oldini olish, u bilan bog‘liq murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish maqsadida Ombudsman huzurida Qiynoqlarni aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlari tashkil etilgan.

Ombudsman va Jamoatchilik guruhlari tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga (43 ta jazoni ijro etish koloniyalari va 11 ta tergov hibsxonalari) muntazam ravishda monitoring tashriflari amalga oshirilmoqda. Monitoring tashriflarida u yerda saqlanayotgan shaxslarga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi, inson sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi, qiynoq holatlariga yo‘l qo‘ymaslik masalalari o‘rganib borildi.

Raqamlarga nazar solsak, 2021 yilda 177 marotaba, 2022 yilda 381 marotaba monitoring tashrifi amalga oshirilgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 603 marotabani tashkil etdi. Natijada qiynoqqa solish holatlarining oldini olish bo‘yicha parlament va jamoatchilik nazorati o‘rnatilishiga erishildi. Monitoring tashriflari davomida aniqlanayotgan kamchiliklar yuzasidan tahliliy ma’lumot va axborotlar, xulosa va taqdimnomalar hamda talabnomalar tayyorlanib, mutasaddi vazirlik va idoralarga ko‘rib chiqish uchun yuborilmoqda. Bundan tashqari, ushbu monitoring natijalari Ombudsmanning Oliy Majlis palatalariga taqdim etadigan yillik axborotida ham aks etmoqda.

Ta’kidlash lozimki, qiynoq holatlarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida Ombudsman boshchiligida amalga oshirilgan monitoring tashriflari natijasida yildan yilga harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalardagi sharoitlar, mahkum va mahbuslarga bo‘lgan munosabat xalqaro me’yorlarga muvofiqlashtirildi. Ushbu penitensiar muassasalarga o‘rnatilgan “Ombudsman quti”lari orqali mahkum va mahbuslarning Ombudsmanga murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Ularning murojaatlari maxfiyligi saqlangan holda hech qanday to‘siq va ovoragarchiliksiz Ombudsmanga yetkazilib, ularni hal etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilmoqda. Qayd etish lozimki, mahkumlarni Ombudsmanga “Ombudsman qutisi” orqali murojaat etish huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga katta e’tibor qaratilgani, ayniqsa, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar huquqlarining mustahkamlanishi mamlakatimizda insonparvarlik va adolat tamoyillari ustuvorligi yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va parlament nazoratining o‘rnatilishi, Ombudsman faoliyatining

kuchaytirilishi inson huquqlari himoyasiga bo‘lgan e’tiborning amaldagi ifodasi hisoblanadi.

Aminmizki, Konstitutsiyada belgilangan barcha qoidalar kelgusida davlatimiz va jamiyatimizning barqaror rivojlanishini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ta’minlanishini kafolatlaydi hamda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning chinakam huquqiy poydevori ekanligini namoyon etadi.

Umuman olganda hamda Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda “yangilangan Konstitutsiya biz uchun bu yo‘lda ulkan ishonch, kuch-g‘ayrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi”[1]. Ushbu qoidalar kelgusida davlatimiz va jamiyatimizning barqaror rivojlanishi, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ta’minlanishi, demokratik huquqiy davlat barpo etishning chinakam huquqiy poydevori ekanligini namoyon etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.

Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2023 yil 8 dekabr, 262-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5163-sonli Qarori.

ПРАВО НА ЖИЗН КАК КОНСТИТУЦИОННАЯ СЕННОСТ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ГОСУДАРСТВ

ТҲЕ РИГҲТ ТО ЛИФЕ АС А СОНСТИТУТИОНАЛ ВАЛУЕ ОФ ДЕМОСРАТИС СТАТЕС

Шаганян А.М.

Уральский юридический институт МВД России
Началник кафедры конституционного права кандидат юридических наук, доцент полковник политсии.
Электронная почта:
Ша-аннета@маил.ру 8-903-992-3-79.

Аннотатсия: человек, гражданин, права человека, право на жизн, сенност, государство, демократия.

Ключевые слова: в стате рассматривается неотчуждаемое право на жизн, как одна из конституционных сенностей любого демократического государства. Провозгласҳая, человека, его права и свободы как выссҳую сенност, в том числе право на жизн, государства гарантируют путем

создания соответствующих условий их надлежащую, достойную и реалную реализатсию.

Абстраст: ман, ситизен, ҳуман ригҳтс, ригҳт то лифе, валуе, стате, демосрасӥ.

Кейwордс: тҳе артисле сонсидерс тҳе иналиенабле ригҳт то лифе ас оне оф тҳе сонститутионал валуес оф анӥ демосратис стате. Прослаиминг тҳе ҳуман беинг, ҳис ригҳтс анд фреедомс ас тҳе ҳигҳест валуе, инслудинг тҳе ригҳт то лифе, Статес гуарантее тҳеир пропер, десент анд реал реализатион бӥ среатинг аппроприате сондитионс.

В перечне защищаемых правом благ любого демократичного государства положения о человеке являются первичными и наделяются качеством выссҳей сенности. Право на жизн закреплено в Конституции Российской Федератсии с общепризнанными принципами и нормами международного права (ст.20 Конституции РФ) [1].

Содержание права на жизн состоит в конституционном предписании о том, что никто не может быт лисҳен жизни произволно. Право на жизн включает в себя защиту от убийства, насилия и других форм причинения вреда жизни человека. Оно также означает обязанност государства и других структур обеспечит безопасност и здорове граждан, предотвращат преступления и обеспечиват доступ к медитсинскому обслуживанию и другим основным услугам.

Признание человека выссҳей сенностю на конституционно уровне является основой внедрения в правоприменителную деятелност принципов приоритета прав человека.

Част 2 Конституции Российской Федератсии содержит нормы, в соответствии с которыми регулируется порядок и условия применения смертной казни в Российской Федератсии. Аналогичные положения содержатся и в Конституции Республики Узбекистан [2].

Российская Федератсия и Республика Узбекистан гарантируют право на жизн следующим общим перечнем мер, далеко не являющимися исчерпывающими.

Посредством разработки и принятия актов выссҳей юридической силы - законов, устанавливаются соответствующие нормативные предписания, направленные на реализатсию и защиту права на жизн.

Функсионирование органов государственной власти, в том числе силовых структур, обеспечивающих законност и порядок в обществе, предотвращающих и пресекающих преступления, включая убийства и другие формы насилия. Политсия, судебная система и другие правоохранителные органы функсионируют на основе принципа уважения и соблюдения прав человека.

Защита граждан от экстремистской и террористической деятелности. Государство принимает меры для предотвращения и пресечения террористических актов, осуществляет контрол за экстремисткими организатсиями и усиливает меры безопасности для защиты граждан.

В области сотсиалной поддержки государствавнедряют сотсиалные программы и услуги, которые способствуют поддержке и улучсҳению качества жизни граждан, включая здравоохранение, медитсинскую помощ, предоставление жиля и другие доступные услуги. Посредством соответствующих органов государственной власти проводится профилактическая работа по предотвращению смертелных случаев и заболеваний, обеспечивается перманентный мониторинг состояния здоровя населения и предоставляется средства и возможности для своевременной диагностики и лечения различных заболеваний.

Все эти меры в совокупности направлены на создание условий для достойной и реалной реализатсии права на жизн граждан Российской Федератсии и Республики Узбекистан.

Законодателство насҳих государств, развивая положения Основных законов стран о высҳей сенности человека, его прав и свобод состоит из множества нормативных предписаний, конкретизирующих и детализирующих различные аспекты множества элементов, составляющих структуру неотъемлемого права человека на жизн.

Список исползуемой литературы:

1. Конституция Российской Федератсии : [Электронный ресурс] : УРЛ:ттпс://право.гов.ру/прохй/ипс/?досбодй=&нд=102027595&йсслид=м45ҳw8зкн095097 (дата обращения: 01.12.2024).
2. Конституция Республики Узбекистан : [Электронный ресурс] УРЛ : ҳттпс://лех.уз/досс/64451 (дата обращения: 01.12.2024).

KONSTITUTSIYA – JAMIYAT VA TABIAT HIMOYASI YO‘LIDAGI HUQUQIY ASOS

Nuridullayev A.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedra boshlig‘i, y.f.n., dotsent.

2023-yilda xalqimizning yuksak siyosiy-huquqiy ongi va tafakkuri natijasi o‘laroq qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mamlakatimizni kelajak istiqboli va kelgusi taraqqiyot vektori aniq belgilab berildi.

Asosiy Qonunimizda “shaxs – jamiyat – davlat” tizimining huquqiy maqomi belgilangan bo‘lib, birinchidan, milliy davlatchilik tajribamiz va qadriyatlarimiz, ikkinchidan, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasi va uchinchidan, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan zamonaviy norma va tamoyillari mujassam etilgan.

Konstitutsiyamizda davlatimiz ekologik siyosatining asosiy yo‘nalishlari, fuqarolar va yuridik shaxslarning ekologik huquq va majburiyatlariga oid qoida-talablar ham mustahkamlangan. Xususan, Asosiy Qonunimizdagi[1] ekologik normalarni quyidagicha guruhlashtirishimiz mumkin bo‘ladi:

Muqaddimada davlatchilik mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi sakkizta element ko‘rsatilgan bo‘lib, shundan beshinchi aynan ekologiya masalasi ekanligi bu ham ushbu masalaning ushbu Konstitutsiya qabul qilinayotgan vaqtdagi, ya’ni yaqin o‘tmishda naqadar dolzarb ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi.

So‘ngi yillarda global iqlim o‘zgarishi fonida barcha davlatlarda sanoatning rivojlanishi va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini keskin oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta’sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Mulkdor va xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda tadbirkorlar tomonidan aholining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini olib bormoqdalar. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning 66-moddasida mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi kerakligi haqidagi qat’i konstitutsiyaviy norma mustahkamlangan. Ushbu normaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mulkdorning mulkiy huquqlarini kafolatlaydi, ikkinchidan, mulk egalarining har qanday ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini ekologik normativ va standartlar doirasida amalga oshirish majburiyatini belgilaydi. Bu esa o‘z navbatida, “yashil iqtisodiyot” tizimini shakllantirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Umuman, muqaddimadagi bunday chaqiriq, da’vat ekologik muammolarni oldini olish, tabiiy resurslarning xilma-xilligini ta’minlash va atrof tabiiy muhit holatini yaxshilash orqali hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi davlatning strategik maqsad va vazifalarini ifodalaydi.[2]

Xususan, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi.

Ma’lumki, BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning 25-sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida[4] 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlaridan iborat dasturiy hujjat qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro hujjatni amalga oshirish bo‘yicha faol ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli qarori bilan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik tahdidlarning markazida albatta, Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq murakkab vaziyat yotadi. Mintaqadagi ekologiya tizimini yaxshilash, biologik xilma-xillikni tiklash, cho‘llanish jarayonlarini oldini olish va aholining ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash hamda iqlim o‘zgarishlariga moslashish kabi dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarni tashkil etadi.

Xususan, Konstitutsiyamizda davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida tabiiy resurslarning maqomi haqidagi normalar mustahkamlangan.[5]

Ma’lumki, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, Konstitutsiyamizning 68-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb mustahkamlandi va davlat ekologik siyosatining muhim strategiyasi belgilab berildi.

O‘z navbatida, ushbu muhim konstitutsiyaviy normaning amalga oshirish mexanizmlari bevosita O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlarida belgilangan.

Asosiy qonunimizning 79-moddasi[6] birinchi qismida davlat yoshlarning boshqa huquqlari qatorida ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi belgilab qo‘yildi. Bu esa, o‘z navbatida, aholimizning eng faol qatlami hisoblangan yoshlarga nisbatan davlat siyosatining asosiy yunalishlari sifatida ularning ekologik huquqlarini yana bir bor quvvatlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat organlarining huquqiy maqomiga alohida e’tibor qaratilgan. Ma’lumki, Vazirlar Mahkamasi mamlakatimizda ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning 115-moddasida hukumatimizning jamiyat va davlat hayoti uchun zarur bo‘lgan eng muhim yunalishlari qatorida quyidagi ekologiya sohasidagi vakolati mustahkamlangan: “Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi”.

Ushbu norma ekologiya sohasidagi qonunchilik hujjatlari va davlat dasturlari qoida-talablarining ijrosini ta’minlash samaradorligini oshirishga, shuningdek, barqaror ekologik rivojlanish maqsadlariga erishish yulidagi xalqaro hujjatlarning zamonaviy tamoyil va talablarini amaliyotimizga qo‘llash mexanizmini rivojlanishini ta’minlaydi.

Mamlakatimiz davlat boshqaruvi tizimida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda muhim faoliyatni amalga oshiradi. Aynan 123-moddada viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining muhim vakolatlari qatorida ekologiya sohasidagi vakolatlari quyidagicha belgilangan: “Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish”.

Ushbu muhim norma atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashdek muhim vazifalarni mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklash orqali joylarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli a’zosi sifatida ekologiya sohasida o‘nlab xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilib, bir qator muhim majburiyatlarni amalga oshirish yuzasidan milliy dastur va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirmoqda. Ushbu majburiyatlar o‘z navbatida, fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta’minlash, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish hamda ekologik muhitga yetkazilayotgan salbiy oqibatlarni kamaytirish asosida iqlim o‘zgarishlarining ta’sirini yumshatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasidagi nutqida “Iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib bormoqda, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirmoqda. Bularning asoratlarini Markaziy Osiyoda o‘tkir his qilmoqdamiz. Iqlim muammolari aholimizning turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarishda yangi to‘siqqa aylanmoqda”, deb e’tirof etdi.

O‘zbekiston Respublikasi ekologiya sohasidagi muhim xalqaro konvensiya va kelishuvlarni ratifikatsiya qilib, bu borada keng ko‘lamli iqtisodiy-ijtimoiy va tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, Parij bitimi doirasida mintaqada havo haroratining jadal o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolishga erishishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlarni qat’iy olib borish

va 2030-yilgacha havoga issiqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga kamaytirishga erishish lozim. O‘z navbatida “yashil” energetika ulushini 40 foizgacha oshirish, elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablarini yaratishga ustuvorlik beriladi. Shuningdek, “Yashil makon” umummilliy dastur asosida ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish orqali iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarni kamaytirish va boshqalar.

Mamlakat rahbari tomonidan 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi[7] davlat siyosatining ekologik barqarorlikka erishish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini ekologik normativ-standartlar asosida modernizatsiya qilish tizimidagi muhim qadamlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ekologik barqarorlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish barchamizning mas’uliyatimizdir. Bu borada davlat organlari, nohukumat tashkilotlar va har bir fuqaro o‘z hissasini qo‘shishi lozim. Faqatgina birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali biz ekologik muvozanatni saqlab, kelajak avlodlarga sog‘lom va barqaror hayot uchun zamin yaratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi “Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 458-son Qarori // https://lex.uz/mact/-6162576
3. Alimardon F. “Barqaror ekologik rivojlanishning konstitutsiyaviy kafolatlari” // https://huquqburch.uz
4. UN summit “Make the sdgs a reality” https://sustainable-development.un.org/post2015/summit
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son Farmoni // https://lex.uz/docs/-4574008
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 79-modda // https://lex.uz/docs/-6445145
7. Urunov B. “2025 yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” // https://uza.uz/oz/posts

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOLA HUQUQLARIGA OID XALQARO MAJBURIYATLARINING BAJARILISHI MASALALARI

Xolmamatov X.Sh.
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi Inson huquqlari sohasidagi Tahlil va tadqiqotlari bo‘limi bosh mutaxassisi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida bolalarga alohida e’tibor qaratish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu ma’noda, bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish – bolalar kelajagi uchun qo‘yilgan mustahkam poydevor hisoblanadi.

Darhaqiqat, bola huquqlarini ta’minlash masalasi O‘zbekiston uchun doim ustuvor maqsadlardan biri bo‘lgan. Aholisining 40 foiziga yaqin qismini bolalar va yoshlar tashkil qilgan O‘zbekiston uchun bola huquqlarini har jihatdan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, birinchi bo‘lib 1992 yil 9 dekabrda inson huquqlari sohasidagi xalqaro konvensiyalarning ichida Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilishi buning yaqqol namunasidir.

O‘zbekiston Respublikasi 2008 yil 11 dekabrda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga doir “Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokol”ni, 2008 yil 12-dekabrda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga doir, “Bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokol”ni ratifikasiya qildi.

Hozirgi kunda BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning murojaat qilish jarayonlariga taalluqli 3-Fakultativ protokoliga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi masalasi ekspertlar darajasida o‘rganib chiqilib, mazkur hujjatga qo‘shilish bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirar ekan, “hech bir bola e’tibordan chetda qolmaydi” degan tamoyilga amal qilmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, «Inson qadri uchun» g‘oyasi hamda “hech kimni orqada qoldirmaslik” tamoyiliga muvofiq o‘tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida mamlakatimiz Asosiy qonuniga bolaning huquq va manfaatlarini ta’minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi ilg‘or normalar kiritildi, milliy qonunchilik bola huquqlariga doir xalqaro normalarga to‘la-to‘kis muvofiqlashtirilmoqda. Xususan, O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan

to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha kafolatlar kuchaytirildi, bu borada davlatning majburiyatlari kengaytirildi.

Bola huquqlarini ta’minlashning kafolatlariga qaratilgan konstitutsiyaviy normalar fuqarolarimizning takliflari asosida, milliy va xalqaro tajriba, ekspertlarning fikrlarini, shuningdek, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada aks ettirilgan xalqaro standart – “bolaning eng yaxshi manfaatlari” prinsipini hisobga olgan holda kiritildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bola huquq va manfaatlarini yanada takomillashtirishga oid o‘ndan ortiq chora-tadbirni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Yosh avlodning barkamol va etuk shaxslar bo‘lib shakllanishida ta’lim va tarbiyaning, oila hamda katta avlod vakillarning o‘rni muhim. Inson huquqlari, xususan, bola huquqlari madaniyatini ta’lim va tarbiya jarayonida shakllantirish maqsadida O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari sohasidagi ta’lim bo‘yicha Jahon dasturida faol ishtirok etmoqda.

Mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta’minlashga doir 50 ga yaqin qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, ular asosida bolalarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. Qabul qilinayotgan qonunlar “Bolaning eng yaxshi manfaatlari” prinsipini hayotga joriy qilishga qaratilmoqda.

2020 yil 22 iyunda tasdiqlangan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasining qator bandlari bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Unda bolalar himoyasiga doir ustuvor yo‘nalishlar va bolalar manfaatlarini birinchi navbatda ta’minlash prinsipini qonunchilik va amaliyotga yanada samarali joriy etish hamda Bola huquqlari bo‘yicha vakilning huquqiy maqomi va faoliyatini takomillashtirish belgilandi.

2020 yilda “Bola huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Unga muvofiq, bola o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so‘rab davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqliligi, vakolatli organlar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal etishda uning fikrini, yoshidan qat’i nazar, ko‘rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi belgilandi.

2021 yil 7 dekabrdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, 13 yoshga to‘lgan shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishi bekor qilindi. Jinoiy javobgarlikka tortish 14 yoshdan boshlanishi belgilandi.

Voyaga etmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilishda pedagog bilan bir qatorda psixolog ham qatnashishi belgilandi.

Sohadagi islohotlarni muvofiqlashtirib borish maqsadida mamlakatimizda Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili lavozimi joriy qilindi hamda uning huzurida Bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha jamoatchilik kengashi tuzildi. Shuningdek, joriy yilning 29 fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bola huquqlari bo‘yicha vakil BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasi va bola huquqlari masalalari bo‘yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi.

Bundan tashqari, aholi o‘rtasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari masalalari bo‘yicha huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga ko‘maklashish kabi ko‘pgina muhim vazifalar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi minbaridan turib O‘zbekistonda majburiy va bolalar mehnatining har qanday shakllariga barham berish eng ustuvor vazifalardan biri deb e’lon qilindi. 2021 yilda BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida majburiy va bolalar mehnatiga barham berish ustuvorligi yana bir bor ta’kidlandi. Mamlakatda majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashishning tashkiliy mexanizmlari yaratildi. Bolalar mehnatiga barham berishning qonunchilik asoslari kuchaytirildi. Jumladan, 2018-2021 yillarda tegishli kodeks va qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, bolalar mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaslik to‘g‘risidagi talablarni buzish uchun ma’muriy va jinoyat javobgarlik kuchaytirildi.

Mamlakat o‘zining xalqaro majburiyatlariga, jumladan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasiga muvofiq qabul qilingan majburiyatlarga sodiqdir. Mazkur siyosatni takomillashtirishda BMT konvensiyaviy organlari, YuNISEF va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Konvensiya qoidalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasiga Konvensiyaning bajarilishi to‘g‘risida doimiy ravishda hisobotlar ham taqdim etib bormoqda.

Bugungi kunga qadar, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya bajarilishi yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasiga 5 ta davriy hisobot taqdim etildi.

Xabaringiz bor, 2022 yilning 29 avgust – 23 sentyabr kunlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining 91-sessiyasida bo‘lib o‘tdi.

Mazkur sessiya davomida, ya’ni 31 avgust – 1 sentyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini bajarilishi yuzasidan Beshinchi davriy hisoboti ko‘rib chiqildi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi tomonidan tayyorlangan O‘zbekistonning Beshinchi davriy hisoboti 2013 yildan 2017 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan, ushbu ma’ruzani tayyorlashda 30 dan ortiq davlat organlari hamda 20 dan ortiq fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etgan.

BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining 91-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi delegasiyasi a’zolari Konvensiya qoidalarining moddama-modda amalga oshirilishi, O‘zbekiston qonunchiligiga kiritilgan so‘nggi o‘zgarishlar, jamiyatda bolalarni mavqeini yuksaltirish borasida erishilgan yutuqlar haqida batafsil ma’lumot berdi.

Xususan, Bolalarni kamsitmaslik sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishi, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan erta nikohga oid masalalar va oilaviy munosabatlarda, siyosiy va jamiyat hayotida, ta’lim, bandlik, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro hamkorlik sohalarida hamda bolalarni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ham batafsil ma’lumotlar berildi.

Bundan tashqari, sessiya doirasida bola huquqlariga oid kitoblar, risolalar, jurnallar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ko‘rgazmasi tashkil etildi, mazkur ko‘rgazma davomida Ko‘mita a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining bola huquqlarini ta’minlash borasidagi ustuvor yo‘nalishlari bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldilar.

Muhokama davomida, Ko‘mita a’zolari Bolalar ishlari bo‘yicha milliy komissiya tomonidan bolalarni himoya qilishning milliy mexanizmi yaratilganini olqishladi hamda bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish jarayonini ijobiy baholashdi.

Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning 91 sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini bajarilishi yuzasidan Beshinchi davriy hisobotini ko‘rib chiqish yakunlari yuzasidan taklif va tavsiyalarini taqdim etdi.

Ko‘mitaning yakuniy mulohazalarida 52 ta bandga birlashgan jami 100 ta taklif keltirilgan. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bolalarning ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini va bolalarning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikni yanada takomillashtirish hamda iqlim o‘zgarishi sharoitida bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha takliflar bildirilgan.

2024 yil 21 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekistonning Beshinchi davriy ma’ruzasi yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori qabul qilindi.

Milliy harakatlar rejasi jami 100 ta banddan iborat. Unda ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, mavjud holatni tahlil qilish va sosiologik tadqiqotlar o‘tkazish, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, tegishli institutlarni tashkil etish, ularning moddiy-texnika bazasini kuchaytirish, xodimlarning malakasini oshirish, aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Milliy harakatlar rejasida belgilangan chora-tadbirlar bolaning qarashlarini hurmat qilish, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish, oilaviy muhitdan mahrum bo‘lgan bolalarning himoyasini ta’minlash, nogironligi bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bolaning ta’lim olish, dam olish va madaniy faoliyatda ishtirok etish bo‘yicha huquqlarini ta’minlash va boshpana izlayotgan va qochqin bolalar huquqlarini himoya qilish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan. Unda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunga raqamli muhitda bolalarning shaxsiy daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, “Zo‘ravonlikning barcha turlaridan bolalarni himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Etim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihalarini qabul qilish ham nazarda tutilgan.

Milliy harakatlar rejasining tegishli bandlari bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Birinchidan, Inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytirish maqsadida inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarni ratifikasiya qilishning maqsadga muvofiqligi masalasi bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Jami 5 ta xalqaro shartnomani ratifikasiya qilishning maqsadga muvofiqligini o‘rganish bo‘yicha vazirlik idoralar vakillaridan iborat tarkibda ishchi guruh tuzildi. Shuningdek xorijiy mamlakatlar xalqaro tajribasi va amaliyotini o‘rganildi. Bundan tashqari, soha bo‘yicha tegishli vazirlik, idora va tashkilotlardan ekspert xulosalari olindi.

Ikkinchidan, Milliy harakatlar rejasi ijrosi doirasida bola huquqlarini takomillashtirishga oid 2 ta strategiya va 3 ta qonun loyihasi hamda 1 ta Prezident qarori loyihasi tayyorlandi. Shuningdek 1 ta qonun qabul qilindi.

2024 yilda xalqaro hamjamiyat tomonidan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi qabul qilinganligining 35 yilligi keng nishonlanadi.

Bunda xalqaro, mintaqaviy va milliy tadbirlar o‘tkazish, inson huquqlari bo‘yicha axborot-ma’rifiy hamda ta’lim-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, shuningdek aholi, yoshlar va bolalar uchun darslik, qo‘llanma va boshqa adabiyotlarni tayyorlash muhim hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, mazkur sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi vazirlik, idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi qabul qilinganligining

35 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi qabul qilingan va belgilangan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan maqsad mamlakatimizda davom ettirilayotgan bola huquqlari sohasidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bolalar huquqlarini kafolatlash va ularni xalqaro standartlar va milliy mexanizmlar orqali amalga oshirish har bir bolaning adolatli va manfaatli rivojlanishini ta’minlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun bola huquqlari tom ma’noda himoya etiladigan va hurmat qilinadigan maqbul muhitni yaratish uchun faqat davlat tashkilotlarining bu boradagi faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatimizning ham barcha qatlamlarida doimiy sa’y-harakatlarni birlashtirish va o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish taqozo etiladi.

YOSHLAR EKOLOGIK HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Usmonov M.B.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori, professor.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda mamlakatimiz aholisining 64 foizini tashkil etuvchi yoshlar manfaatini konstitutsiyaviy darajada himoya qilish, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash bugungi kunda amalga oshirilayotgan tub islohotlarimizning markazida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Yoshlar normal va sog‘lom hayot kechirishlari, sog‘lom turmush tarzini amalga oshirishlari, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun ularni o‘rab turgan atrof tabiiy muhit - atmosfera havosi, suv, o‘simlik dunyosi, tuproq toza, ularning sog‘lig‘iga zararli ta’sir etmaydigan sifat va holatda bo‘lishi lozim.

Yoshlarning ekologik huquqlarini ta’minlash va barqaror rivojlanishni amalga oshirishda O‘zbekiston davlatining ekologik siyosati, atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirishga bag‘ishlangan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va ularning ijrosiga qaratilgan say-harakatlar ijobiy natijalarni berishi shubhasizdir.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-son farmoni asosida “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” [1] tasdiqlanib va unda iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallar, mahsulotlardan, ishlab chiqarish ob’ektlari va boshqa ob’ektlardan ustuvor darajada foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini takomillashtirish,

chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta’minlash vazifalari belgilab berildi.

Yoshlarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi, atrof tabiiy muhitni muhofaza etish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari, davlat organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari bilan bog‘liq vazifalar Konstitutsiya asosida tartibga solinishi lozim bo‘lgan eng muhim ijtimoiy munosabatlar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [2] yoshlarning ekologik huquqlarini tartibga solishda muhim va asosiy huquqiy manba hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni normalarida atrof tabiiy muhitni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, davlatning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik tizim barqarorligini va ularning muvozanatini ta’minlash funksiyasi, yoshlarning ekologik huquqlarini himoya qilish, korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari kabi huquqiy munosabatlar atroflicha tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining preambulasida dunyo konstitutsiyalari preambulasi amaliyotida uchramaydigan qoida, ya’ni “mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirish hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz” [3] tahriridagi norma o‘rnatilgan. Ushbu norma millatimizning ona tabiatga bo‘lgan e’tiborining yorqin ifodasi, unga Asosiy qonunning preambulasidanoq konstitutsiyaviy maqom berilishidir.

Ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qoidalarda tabiat ob’ektlariga nisbatan mulkchilik munosabatlarini aniq va mukammal, bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy tub islohotlar va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib belgilashga alohida ahamiyat berilgan. Aholi farovonligini ta’minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yoshlarning iqtisodiy huquqlarini ro‘yobga chiqarishning eng muhim shartlaridan biri er resurslariga nisbatan xususiy mulkchilikni o‘rnatish va huquqiy himoyasini ta’minlash hisoblanadi. Er resurslariga nisbatan xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim omillardan sanaladi.

Shu sababdan, Konstitutsiyada er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosiga umummilliy boylik sifatida davlat mulkchiligi o‘rnatilishi bilan bir qatorda tomorqa erlari, aholiga xizmat ko‘rsatadigan binolar (kafe, restoran, sartaroshxona, kichik ishlab chiqarish binolari, magazinlar joylashgan er uchastkalari) joylashgan er uchastkalari, chet

el elchixonalari joylashgan er uchastkalariga xususiy mulkchilikning belgilanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunonchi, Konstitutsiyaning 66-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yerdan oqilona foydalanish va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida xususiy mulk bo‘lishi mumkin” [4], mazmunidagi qoida o‘rnatilgan.

Mamlakatimizda davlatning ekologik nazorat funksiyasini kuchaytirish, iqtisodiyotning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini bartaraf etish kabi muammolarni hal etish yoshlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida “davlat fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlash va atrof muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishi, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishi”, tahriridagi qoidalar mustahkamlangan.

Bundan tashqari, yoshlarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi, atrof tabiiy muhitni muhofaza etish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari, davlat organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari bilan bog‘liq vazifalar Konstitutsiya asosida tartibga solinishi lozim bo‘lgan eng muhim ijtimoiy munosabatlar sirasiga kiradi.

Shu sababdan, Konstitutsiyaning bir qator normalarida “har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega (49-modda), fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart, tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi (61-modda), fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar (61-modda), mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar etkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak (66-modda), davlat yoshlarning madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi” (79-modda) tahriridagi normalarning joy olganligi davlat tomonidan yoshlarning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, yoshlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Yoshlar huquqi tizimida ularning ekologik xavfsiz yashash huquqi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlar favqulodda yuz berishi mumkin bo‘lgan halokat va hodisalardan, tabiiy ofatlardan, sog‘lig‘ini va mulkini yo‘qotishdan va boshqa shunga o‘xshash xavf-xatarlardan himoyalangan bo‘lishi lozim.

Yoshlarning sog‘lig‘i, yashashi va moddiy-ma’naviy barkamolligi ekologik barqarorlikka bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ekologik barqarorlikka tajovuz solayotgan manbalarning mavjudligi va ularning xavf-xatari yoshlarning ekologik xavfsiz yashash huquqini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash pirovard natijada yoshlarning ekologik xavfsiz yashash huquqini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Atrof tabiiy muhitni muhofaza kilish yoshlarning sog‘lom va qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlaydi. Bu huquqlar umumlashgan holda ekologik huquklar sifatida qaralib, u tabiat boyliklariga nisbatan yoshlarning yashashi uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlar manbai va yashash muhiti sifatida e’tirof etiladi.

Yoshlarning ekologik xavfsiz yashash huquqi yashash huquqining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning amalda ta’minlanishi yoshlar sog‘lig‘i va hayoti ekologik xavf-xatarlar natijasida yuz beradigan hodisa va halokatlardan himoya qilinganligini anglatadi.

Yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari tizimida ularning ekologik, ya’ni qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi muhim o‘rinni egallaydi. Qulay atrof tabiiy muhit deganda, tabiiy va tabiiy-antropogen ob’ektlarning barqaror hayotiyligini ta’minlashga xizmat kiladigan muhit tushuniladi. “Qulay atrof tabiiy muhit” atamasi o‘zida “sog‘lom atrof muhit” “xavfsiz atrof muhit” so‘zlarining ma’nosini to‘liq va aniq aks ettiradi. Shuning uchun yoshlarning ekologik huquqi xususida so‘z yuritilganda ekologik qonun hujjatlarida to‘g‘ri va ko‘p qo‘llaniladigan “qulay atrof tabiiy muhit” atamasini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi yoshlarning tabiiy huquqi sirasiga kirganligi uchun u ajratib bo‘lmaydigan, ya’ni uzviy huquq hisoblanadi.

Qulay atrof tabiiy muhitni sifati rasmiy ravishda tan olingan sanitariya-gigiena va ekologik normativlarning kompleks talablariga javob beradigan, yoshlar istiqomat qiladigan makon sifatida tavsiflash mumkin. Shunday ekan, yoshlarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi sanitariya-gigiena va ekologik normativlarning sifat va miqdor ko‘rsatgichlariga aniq rioya qilinishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Konstitutsiyada ijro organlarining ekologik funksiyasiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, unga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati

amalga oshirilishini ta’minlashi (115-modda), viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlari hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi (123-modda)” mazmunidagi qoidalarning o‘rin egallaganligi ham yoshlarning ekologik huquqlarini to‘la ro‘yobga chiqishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning eng samarali vositalaridan biri yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, jamiyat taraqqiyotining ma’naviy omillarini kuchaytirishdir. Har bir ota-ona farzandlarini tabiatni sevish, ardoqlash, erga, tuproqqa mehr qo‘yishga, o‘simligu-jonivorlarni ardoqlashga o‘rgatishni qonunlardan qo‘rqqanidan emas, balki yuksak ma’naviyat asosida yondoshish orqali hal etishlari kerak.

Oila, bolalar bog‘chasi, maktabdan boshlab ekologik ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor berilishi lozim. Toki bolalar go‘dakligidanoq tabiatga nisbatan bemehrlik og‘ir oqibatlarga olib kelishini tushunishi zarur.

Tabiatga mehri kuchli bo‘lgan yoshlarning o‘z xalqiga, Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati ham yuksak bo‘ladi. Qalbida mehr-shafqat, rahmdillik singari yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ustuvorlik qiladigan yoshlarlar tabiatdagi har bir mavjudod va hodisaga oqilona munosabatda bo‘lishga harakat qiladi. U daraxt shoxini sindirmaydi, axlat tashlab suvni iflos qilmaydi, havoning bulg‘anishiga yo‘l qo‘ymaydi, yam-yashil maysalarni payhon qilmaydi, aksincha bog‘lar yaratadi, obodonchilik ishlari bilan shug‘ullanadi, mehnati, aql-idroki va tafakkurini ona tabiatni muhofaza qilishga bag‘ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.10.2019 y., 06/19/5863/3979-son; 13.11.2020 y., 06/20/6110/ 1512-son; 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son;

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent., “O‘zbekiston”, 2023;

3. Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son;

4. Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARINI HUQUQLARINI KAFOLATLANISHI

Mirazov D.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti
“Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi boshlig‘i,
yu.f.d., professor.

Jinoyatdan jabrlangan shaxslarning huquqlarini muhofaza qilinishi masalasining aynan Asosiy qonunda mustahkamlanishi ahamiyati nimada? Avvalo, ta’kidlash zarurki, Konstitutsiya normalarining asosiy mazmuni - davlatning inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini tan olishi, ularga rioya qilishi va himoya qilishidan iboratdir. Shu sababli jinoyatdan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinishi davlat uchun nihoyatda muhim.

Xususan, aytish kerakki, jabrlanuvchilarning huquqlari faqatgina odil sudlov kafolatlangan, tortishuvga asoslangan sud protsessi uchun sharoit yaratadigan demokratik davlatdagina to‘liq kafolatlanishi mumkin. Shu sababli jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni davlat tomonidan qoplash mexanizmini takomillashtirish zarur.

Buning natijasida shaxs huquqlarini kafolatlovchi normativ-huquqiy baza takomillashtiriladi, fuqarolarning huquqiy ongi darajasi oshadi, ularda o‘z haq-huquqlarini anglash va ularni qonunan talab qilish ko‘nikmasi shakllanadi, bu esa o‘z navbatida, huquqni muhofaza qilish tizimi samaradorligini ta’minlaydi va shu bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni bartaraf etadi.

Albatta, mazkur qoidaning Konstitutsiyaga kiritilishi oddiy fuqarolarimiz uchun nima beradi, degan savol yuzaga keladi. Bu borada gapirganda jabrlanuvchilarni himoya qilish yuzasidan davlat siyosatining asosiy maqsadlariga to‘xtalib o‘tish joiz. Jumladan, bu borada davlat siyosati o‘z ichiga odil sudlovdan samarali foydalanish, jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy, psixologik, moddiy va ijtimoiy zararni qoplash, jinoyatlarning oldini olish va jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta’minlashni oladi.

Xususan, davlat organlari jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni aybdor shaxsdan undirish yuzasidan zarur choralarni ko‘radi. Lekin, afsuski, sud-tergov amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, hamisha ham bu choralar samarali yechim hisoblanmaydi. Ya’ni, sud qarori bilan yetkazilgan zarar qoplanishi aybdor shaxsga yuklatilsa-da, uning bunga sharoiti va real imkoniyati yo‘qligi sababli zarar qoplanishi muammo bo‘lib qoladi, buning natijasida jabrlanuvchi unga yetkazilgan zarar yetmaganidek, buning ustiga yana sansalorlik, noqulayliklar va ovoragarchiliklardan ham qiynaladi, zararni qoplatishga urinib ancha sarson bo‘ladi. Bu esa, albatta, fuqaroning odil sudlovga, va umuman olganda, davlat organlariga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazadi. Bunday vaziyatning samarali

yechimi – jinoyatdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni qoplanishi majburiyatini davlat o‘z zimmasiga olishi hisoblanadi!

Oddiy misolda tushuntiradigan bo‘lsak, mana masalan, “aliment to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyati” borasida shu yilning mart oyida davlat rahbari: 172 ming nafar ota o‘z farzandi uchun aliment to‘lamagani oqibatida bugungi kunda jami 115 mlrd so‘m qarzdorlik mavjudligini ta’kidladi.

Mazkur masalaning yechimi sifatida aytilishicha, endilikda alimentdan qarzdorlikni davlat to‘lab beradi, keyinchalik esa Majburiy Ijro Byurosi qarzni undirib oladi. Buning uchun «Aliment to‘lovlari» jamg‘armasi tashkil etilib, unga dastlab 50 mlrd so‘m ajratilgani ma’lum qilindi. Ya’ni, huquqiy-tashkiliy jihatdan davlat jinoyatdan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplashni o‘z zimmasiga olishi yuzasidan jarayon boshlandi, deb aytsak bo‘ladi. Davlatning fuqaro oldidagi mazkur majburiyati huquqiy tartibga solinishi natijasida jinoyatdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash choralarini ko‘rish majburiyatining davlat organlariga yuklatilishi mexanizmi shakllantiriladi.

Har bir shaxs davlat organlarining yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega”.

Xo‘sh ushbu qoidani kiritishdan maqsad nima? Bu norma inson huquqlarni himoya qilishga qanchalik xizmat qiladi?

Birinchidan, mazkur qoida inson huquqlari sohasida xalqaro tajribaga to‘liq mos keladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida har kim o‘z huquqlarining sud va vakolatli davlat organi tomonidan tiklanishiga haqli ekanligi ko‘rsatib. Mazkur qo‘shimchalar BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1985-yil 29-noyabr kuni 96 yalpi majlisida qabul qilgan Jinoyat va hokimiyatni suiiste’mol qilishdan jabrlanganlar uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari deklaratsiyasida yanada kengroq talqin qilingan. Unga ko‘ra jabrlanuvchilar odil sudlov orqali o‘z huquqlarini himoya qilishi, ularga nisbatan yetkazilgan zarar qoplanishi va huquqlarining tiklanishi, ijtimoiy yordam olishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, jabrlanuvchilarni himoya qilishga qaratilgan qoidalar Ozarbayjon, Armaniston, Chexiya, Gruziya, Baxrayn, Xorvatiya, Kuba, Ekvador, Yaponiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, RF, Slovakiya davlatlari konstitutsiyalarida o‘rin olgan. Demak, Konstitutsiyaga jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qoidalarning kiritilishi xalqaro andozalarga mos keladi.

Ikkinchidan, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish “inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari – oliy qadriyat” degan tamoyilni odil sudlov jarayonida samarali ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ma’lumki har qanday islohotlarning pirovard maqsadi inson qadrini yuksaltirish va e’zozlash hisoblanadi. Shu sababli jabrlanuvchilarning

himoyasi odil sudlov jarayonida ushbu tamoyilni amalga oshirishga imkon beradi.

Odil sudlov orqali o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish samarasi yildan yilga ortmoqda. Xususan, 2019-yilda ma’muriy sudlar tomonidan mahalliy hokimliklarning qarorlarini haqiqiy emas deb topish bilan bog‘liq 1255 ta, 2020-yilda – 1597 ta, 2021-yilda – 2184 ta, joriy yilning birinchi choragida esa 499 ta ariza qanoatlantirilgan. Bu esa mahalliy hokimiyatning noqonuniy qarorlaridan jabr ko‘rgan fuqarolarning huquqlari tiklanishiga ham sabab bo‘lgan. Jinoyat protsessida ham mazkur sohada muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, joriy yilning birinchi choragida 1009 nafar zo‘ravonlik va tazyiqdan jabr ko‘rgan ayollarning huquqlari sudda himoya qilingan bo‘lib, 571 ta jinoyat ishi doirasida 749 nafar shaxsga ayblov hukmi chiqarilgan.

Umuman olganda, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish odil sudlovga erishish sifatini oshirishga imkon beradi.

Uchinchidan, mazkur qoida mamlakatimizda jabrlanuvchilarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda sud va tergov jarayoni ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash yo‘nalishida muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan jabrlanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash, ularni, uy-joyni va boshqa mol-mulkni qo‘riqlash, jabrlanuvchilarga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish va boshqa xavfsizlik choralarini qo‘llash amaliyoti joriy etildi.

Bundan tashqari, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash mamlakat oldiga qo‘yilgan muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Binobarin, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy kafolatlari qayd etilgan ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida, aytish mumkinki, inson huquq va erkinliklari, xususan jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish huquqiy demokratik davlatning asosiy mezonlaridan biridir. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar jabrlanuvchilarning manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga, ularning huquqlari tiklanishiga va odil sudlovning ta’minlanishiga imkon beradi. Shu bilan birgalikda, Konstitutsiyaga yangi 30-modda ham kiritilgan bo‘lib unga ko‘ra quyidagi shaxsiy kafolatlar belgilangan.

Hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi 29-moddasida “Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yumshatish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga ega” degan yangi norma belgilandi.

Jumladan, sud-huquq tizimining asosiy maqsadlaridan biri bu – inson huquq va erkinliklarini himoya qilish. Shu sababli har qanday shaxsning, u jabrlanuvchi yoki gumonlanuvchi yoxud ayblanuvchi bo‘lishidan qat’iy nazar huquqlari himoya qilinishi va hurmat qilinishi lozim. Shu sababli ham deyarli barcha mamlakatlar Konstitutsiyalarida inson huquqlari, shu jumladan sud-huquq tizimida ularni himoya qilishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Asosiy Qonun loyihasi takomillashtirish doirasida Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan shaxsni afv etish yoki jazoni yumshatish to‘g‘risida iltimos qilish huquqini mustahkamlash taklif qilindi. So‘nggi yillarda bu amaliyot keng qo‘llanib kelinmoqda. Xususan, 2017-yildan afv etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21 ta Farmoni qabul qilingan bo‘lib, 5555 nafar mahkum afv etilgan. Afv etish jamiyat uchun qanchalik muhim?

Birinchidan, afv etish to‘g‘risida konstitutsiyaviy qoida inson huquqlarini hurmat qilish va insoniylik tamoyiliga asoslangan. Odil sudlov jarayonida inson huquqlarini hurmat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bejizga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham jinoiy jazoning asosiy maqsadlari sifatida mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish ko‘rsatilgan. Afv etish orqali davlat to‘g‘ri yo‘lga o‘tgan va tuzalgan shaxslarni kechiradi, ularni jamiyatga qaytarishga ko‘maklashadi. Binobarin afv etish orqali jinoyat yo‘liga adashib kirib kelgan shaxslarni tuzatish imkoniyati vujudga keladi. Har qanday holatda ham mahkum jamiyatning a’zosi ekanligini va u ham kechirilish huquqiga ega ekanligini esdan chiqarmaslik kerak.

Ikkinchidan, afv etish muayyan mahkumga nisbatan individual tartibda amalga oshiriladi. Afv etish jazodan to‘liq yoki qisman ozod etish yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirish yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan chora sifatida qo‘llanilishi mumkin. Amnistiyadan farqli o‘laroq afv etishda mahkumning shaxsi, xulq-atvori, mehnat va o‘qishga munosabati inobatga olinadi. Shu sababli afv etish har bir mahkumga nisbatan tegishli o‘rganishlarni amalga oshirgan holda amalga oshiriladi.

Uchinchidan, afv etish huquqi xalqaro hujjatlarda va ayrim rivojlangan mamlakatlar Konstitutsiyasida belgilangan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 6-moddasiga ko‘ra, o‘lim jazosiga hukm qilingan har bir kishi afv etish haqida yoki hukmni yumshatish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga egaligi, amnistiya, afv etish yoki o‘lim hukmini almashtirish barcha holatlarda hadya etilishi mumkinligi ta’kidlangan. Shuningdek paktning 14-moddasida sudning xatosi tufayli javobgarlikka tortilgan va keyinchalik afv etilgan shaxsga qonunga muvofiq kompensatsiya berilishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari afv etish to‘g‘risidagi qoidalar *AQSH, Fransiya, Shveysariya, Italiya, Islandiya* Konstitutsiyalarida belgilangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mazkur qoidadan ko‘zlangan asosiy maqsad – insonparvarlik tamoyiliga rioya etgan holda jinoyat yo‘lida adashgan shaxslarni axloqan tuzatish va jamiyatga qaytarish. Afv etish kechirimlilik hos bo‘lgan muhim vositalardan biri hisoblanib, jinoiy jazodan ko‘zlangan asosiy maqsadlarga samarali erishishga xizmat qiladi.

INSONPARVAR TAMOYILLAR ASOSIDA MEHNAT HUQUQINI TAKOMILLASHTIRISH: YANGI O‘ZBEKISTON YO‘NALISHLARI

Usmanova M.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi professori.

Mehnat qilish huquqi – insonning eng muhim tabiiy huquqlaridan sanaladi. Mehnat qilish huquqining amalda ta’minlanganligi shaxs mavqeining mustahkam bo‘lishi, uning nafaqat iqtisodiy jihatdan mustaqilligi, balki jamiyatdagi ijtimoiy mavqeining belgilanishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mehnat qilish huquqi va imkoniyati har bir insonga taqdim etilishi, uning uchun davlat va jamiyat tomonidan tegishli tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy chora-tadbirlar ko‘rilishi, unumli va sifatli mehnat qilish uchun sharoit yaratilishi lozim. Bunda davlat o‘zining qonunlari orqali fuqarolarining mehnat qilish huquqlarini e’tirof qilishi, ularni ro‘yobga chiqarilishi va samarali himoya etilishi uchun tegishli huquqiy kafolatlarni yaratib berishi lozim.

Konstitutsiya har qanday davlatning asosiy qonuni hisoblanib, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mehnat qilish huquqi har bir shaxs uchun kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlari demokratik, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asosan huquqiy tartibga solingan hamda bozor munosabatlari sharoitidagi zamon talablariga javob beradi. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat bo‘lib, unda O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida nazarda tutilgan “har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega” ekanligi haqidagi qoidani amalga oshirishga qaratilgan barcha munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar o‘rnatilgan.

O‘zbekistonda aholi bandligi darajasini oshirish, fuqarolarni ish va tirikchilik manbai bilan ta’minlash, ularga o‘z insoniy salohiyatlarini omilkorlik bilan ishga solganlari holda farovon va baxtli hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish ustuvor vazifaga aylangan. Xususan, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi[1](2021), “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi[2](2016), “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi[3](2019), “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi[4](2019), “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Majburiy mehnat va bolalar mehnati to‘liq bartaraf etildi. Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiya qabul qilindi. O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo etib saylangani yurtimizda olib borilayotgan siyosatning xalqaro miqyosdagi yuksak e’tirofidan dalolatdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalda taminlashga alohida e’tibor berilayotganligiga qaramasdan joylarda mehnat huquqlarining buzilish xolatlari mavjud.

O‘zbekistonda raqamlashtirish jarayonlarining mehnat sohasini qamrab olishi munosabati bilan yollanma mehnat amaliyotida yangicha yondoshuv va mexanizmlar, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘lllab-quvvatlash uchun sharoit yaratish, shuningdek, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilishning zamonaviy muammolari mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni davr talabiga moslashtirish vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda.

Yuqoridagi taxlillarga ko‘ra, bozor talablari va tamoyillarining ijtimoiy hayotimizga tobora chuqurroq singib borayotgani tufayli taraqqiyotimiz sur’atlarini kerakli darajada bo‘lishini ta’minlash uchun o‘zgartirish va yangilash jarayonlarini uzluksiz davom ettirish, oldimizda paydo bo‘layotgan muammo va vazifalarni o‘z vaqtida hal etishimiz, Yangi O‘zbekistonga hamda uning taraqqiyotiga javob beradigan yangi qoidalarni kiritish kerakligi, huquqiy islohotlarni ob’ektiv zarurat sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

Ijtimoiy himoya-davlatimiz tomonidan yuritilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lganligi sababli uning huquqiy asoslari ham ushbu ustuvorlikka to‘la mos bo‘lishi, mamlakatimizda yuz berayotgan

[1] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 y., 03/20/642/1396-son
[2] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)
[3] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son
[4] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/561/3680-son

barcha ijobiy o‘zgarishlar va erishayotgan yutuqlarimizni o‘zida aks ettirishi, eng muhimi, inson, uning huquq va manfaatlari har narsadan ulug‘ ekanligi haqidagi g‘oyalarimizga asoslangan bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bunday dolzarb masalalar va ularning echimlari mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash nihoyatda muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat huquqi insonning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, moddiy farovonligi va shaxsiy kamoloti uchun muhim omildir. Uning konstitutsiyaviy kafolati mehnat bozorining barqarorligini ta’minlashda, ijtimoiy tenglikni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat huquqini amalga oshirish uchun quyidagi mexanizmlar mavjud: Qonunchilik bazasi: O‘zbekistonning Mehnat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mehnat munosabatlarini tartibga soladi.

Sud himoyasi: Fuqarolar mehnat huquqlarini buzilishi hollarida sudga murojaat qilish imkoniyatiga egadirlar.

Ijtimoiy hamkorlik: Davlat, ish beruvchilar va kasaba uyushmalari o‘rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida maxsus choralar ko‘riladi.

Mehnat huquqi konstitutsiyaviy kafolatlarining samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi lozim:

- Mehnatga oid qonunchilikni doimiy takomillashtirib borish;
- Ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan dasturlarni qo‘llab-quvvatlash;
- Mehnat huquqlari to‘g‘risida aholini xabardor qilish tadbirlarini yanada kuchaytirish.

Konstitutsiyaviy kafolatlar va huquqiy mexanizmlarning uyg‘unligi orqali mehnat sohasidagi ijtimoiy adolat ta’minlanadi.

Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashib harakat qilishgina bizni nurli manzillarga etkazadi. Bu intilishlarning ulkan amaliy ishlarga aylanib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda har birimizning faol ishtirokimiz, chuqur mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashash bugun davr talabiga aylandi”[1].

[1]Sh.M.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.25- bet.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВ И СВОБОДРЕБЕНКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Пулатов Ю.С.
Профессор кафедры Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор.

***Обеспечение и защита прав, свобод и законных интересов ребенка, создание наилучших условий для эго полнотсенного физического, умственного и культурного развития являются обязанностю государства*.[1]**

Конституционно-правовые основы статуса ребенка отделно не закреплены в Конституции, а устанавливаются исходя из основных положений конституционно-правового статуса гражданина. Таким образом, конституционно-правовой статус ребенка - это совокупност прав, свобод, обязанностей ребенка и гарантий их реализатсии, установленные конституционным законодателством, а именно: Конституцией, законодателством Республики Узбекистан [2], а также другими нормативно-правовыми Республики Узбекистан.

В главах ИХ (Экономические, сотсиалные, культурные и экологические права) и ХИИИ (Семя, дети и молодеж) Конституции, в них понятия «ребенок» и «дети» употребляются толко в трех статях: ч. 3 ст. 42, которая запрещает отказыват женщинам в приеме на работу, уволнят с работы и снижат им заработную плату по мотивам, связанным с беременностю или наличием ребенка; ч. 2 ст. 44, запрещающей любые формы детского труда, представляющие угрозу здоровю, безопасности, нравственности, умственному и физическому развитию ребенка, в том числе препятствующие эму получат образование; ч. 2 ст. 78, устанавливающей право на содержание и воспитание детей до совершеннолетия. В осталных нормах ребенок подразумевается в качестве субъекта правоотношений и включается в термины «гражданин», «каждый». Следовательно, несовершеннолетний обладает всеми правами и свободами, присущими любому гражданину Узбекистана.

Из сказанного видно, что конституционно-правовой статус ребенка основывается не толко на обладании правами, но и обязанностями.

Важнейшей обязанностю гражданина является соблюдение Конституции и законов Республики Узбекистан. Данная обязанност зафиксирована в ст. 15 Основного закона. Помимо этого ст.

61 Конституции устанавливает, что каждый обязан оберегат историческое, духовное, культурное, научное и природное наследие народа Узбекистана; ст. 62 обязывает граждан бережно относится к окружающей природной среде; ст. 63 закрепляет обязанност платит установленные законы налоги и сборы.

Юридические гарантии как элемент правового статуса гражданина представляют собой все правовые средства, обеспечивающие осуществление и охрану прав и свобод человека. В первую очеред к ним относится конституционное закрепление принципа гарантии прав, который получает деталное обоснование в действующих отраслях отечественного права [3].

В понятие конституционно-правового статуса включается и институт гражданства.

Права и свободы традитсионно делятся на группы: личные, политические, экономические, сотсиалные и культурные.

Прежде всего, необходимо остановится на личных правах и свободах ребенка, посколку они принадлежат каждому с момента рождения, являются неотчуждаемыми и эстественными, связанными с индивидуалной, частной жизню каждого человека, независимо от наличия либо отсутствия гражданства. При этом осуществление данных прав и свобод не должно нарушат прав, свобод и законных интересов других лис, общества и государства – ч. 2 ст.21 Конституции Республики Узбекистан.

Таким образом, мы имеем следующую классификатсию личных прав и свобод ребенка:

1) право ребенка на жизн закреплено в ст.25 Конституции Республики Узбекистан и обеспечивается не толко Основным законом, но и иными нормативно-правовыми актами отраслевого законодателства. В том числе гарантии реализатсии права на жизн, которые закреплены в уголовном и уголовно-протсессуалном праве в виде запрета пыток и насилия, обеспечения права на охрану здоровя, на благоприятную окружающую среду и т.п.;

2) право ребенка на охрану чести и достоинства личности закреплено в ст.26 Конституции Республики Узбекистан (ч.1). Никто не может быт подвергнут пыткам, насилию, другому жестокому, бесчеловечному или унижающему достоинство человека обращению либо наказанию (ч.2). Никто не может быт подвергнут медитсинским и научным опытам без эго согласия (ч.3);

3) право ребенка на неприкосновенност жилища, частной жизни, личную и семейную тайну, защиту своей чести и достоинства, тайну переписки, телефонных переговоров, почтовых, электронных и иных

сообщений, неприкосновенност жилища закреплено в ст. 31 Конституции Республики Узбекистан. Никто не может быт подвергнут аресту, задержанию, заключению под стражу, содержанию под стражей или иному ограничению свободы иначе как на основании закона. Арест, заключение под стражу и содержание под стражей допускаются толко по решению суда. Без решения суда лисо не может быт задержано на срок более сорока восми часов.

4) право ребенка на свободу совести и вероисповедания закреплено в ст.35 Конституции Республики Узбекистан. Право ребенка на свободу вероисповедания нашло свое полное отражение в законодателстве [4], так, данное право ребенка защищается как от препятствия к эго осуществлению, так и от принуждения к приобщению к религии;

5) право ребенка на свободу мысли, слова и убеждений свободу массовой информатсии закреплено в ст.33 Конституции. Никто не может быт принужден к выражению своих мнений и убеждений и отказу от них. Свобода мысли неразрывно связана со свободой слова, что означает право человека озвучиват свои мысли публично.

Политические права и свободы ребенка:

1) право ребенка на объединение - ст. 39 Конституции Республики Узбекистан – право на участие в детских и юношеских общественных организатсиях (объединениях), при этом запрещено принуждение к вступлению в какое-либо объединение (организатсию) или пребывание в нем (ней);

2) право ребенка проявлят свою активност в форме митингов, собраний и демонстраций – ст. 38 Конституции Республики Узбекистан нелзя, т.к. это не предусмотрено законами Республики Узбекистан. Например, согласно ст. 9 Федеративного закона России «Об основных гарантиях прав ребенка», учащиеся, за исключением дошколных учреждений и учреждений началного образования, могут проводит во вне учебное время собрания и митинги по вопросам защиты своих нарушенных прав.

Сотсиалные, экономические и културные права и свободы ребенка:

1. Право ребенка на собственност закреплена в ст. 31 Основного Закона, свободное исползование своих способностей и имущества для предпринимателской или иной, не запрещенной законом, экономической деятелности закреплено в ст. 42 Конституции Республики Узбекистан. Согласно Гражданскому кодексу несовершеннолетний может заниматся предпринимателством в случае приобретения им полной дееспособности в результате эмансипатсии или вступления в брак до достижения 18 лет.

2. Право частной собственности ребенка закреплено в ст. 65 Конституции Республики Узбекистан. Ребенок вправе имет имущество в

собственности, однако в силу возраста владет, ползоватся и распоряжатся им несовершеннолетний может толко при приобретении достаточного объема дееспособности. Ребенок не может быт лишен своего имущества иначе как по решению суда.

3. Право ребенка на труд – ст. 42 Конституции Республики Узбекистан. По достижении 14-летнего возраста ребенок вправе по разрешению родителей в свободное от учебы время участвоват в общественно полезном труде, эсли он не запрещен эму по состоянию здоровя.

4. Право на сотсиалное обеспечение – ст. 46 Конституции Республики Узбекистан. Забота о детях, их воспитание – равное право и обязанност родителей.

5. Право ребенка на жилище – ст. 47 Конституции Республики Узбекистан включает в себя право на приобретение жилого помещения по различным основаниям, а также возможност стабилного ползования занимаемым жилым помещением.

6. Право на охрану здоровя – ст. 48 Конституции Республики Узбекистан и квалифитсированное медитсинское обслуживание.

7. Право на образование – ст. 50 Конституции Республики Узбекистан.

8. Право на свободу научного, технического и художественного творчества, право на ползование достижениями культуры - ст. 53 Конституции Республики Узбекистан.

Следует отметит, что понятие «ребенок» более эмкое, чем «несовершеннолетний». Эсли первое из этих двух понятий содержит характеристику весма важного этапа жизни человека, то последнее аксентирует внимание, прежде всего, на отсутствии у человека определенного качества, а именно на том, что лисо не достигло определенного возраста.

Возможно, в связи с этим понятием «несовершеннолетний» оперируют в первую очеред уголовное и гражданское право (т.э. соответствующее законодателство, в рамках которого существенное значение имеет такой формалный аспект, как возраст). Конституционное же право и семейное право предпочитают исползоват в первую очеред термин «ребенок».

Конечно, в современном Узбекистане имеются и другие слои населения, нуждающиеся в особенной охране прав и законных интересов: бездомные, престарелые, инвалиды и т.д. Однако очевидно, что дети нуждаются в приоритетной защите их прав, по крайней мере, по двум причинам: во-первых, дети в силу особенностей психического и физического развития требуют особого подхода, а в силу отсутствия

жизненного опыта и в определенной степени зависимого положения они не всегда сами самостоятельно могут обратится за помощю и защитой своих прав и законных интересов; во-вторых, благополучие и нормалное развитие детей определяют будущее нашей страны.

Использованная литература:

1. См.: ч. 2 стати 78 Конституции Республики Узбекистан //(www. лех. уз. Натсионалная база данных законодателства).

2. См.: Закон Республики Узбекистан от 7 января 2008 года. № ЗРУ – 139 «О гарантиях прав ребенка» // Ведомости палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2008 г., № 1, ст. 1; 2009 г., № 12, ст. 471.**Ошибка! Закладка не определена.**

3. Закон Республики Узбекистан от 13 марта 2020 года.

№ ЗРУ – 610 «О гражданстве Республики Узбекистан» // Натсионалная база данных законодателства, 14.03.2020 г., № 03/20/610/0299; 15.06.2021 г., № 03/21/696/0553.

4. См.: Закон Республики Узбекистан от 1 мая 1998 года,

№ 619-И «О свободе совести и религиозных организатсиях» (новая редакция) // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1998 г., № 5–6, ст. 99; Ведомости палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2008 г., № 12, ст. 640.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI ILM- FAN TARAQQIYOTI GAROVIDIR

Turayeva S.R.
Jamoat xavfsizlik universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi professori, t.f.d.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53- moddasida “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi” [1] deb, ko‘rsatilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida jamiyatning barcha sohalarida muhim natijalar qo‘lga kiritilmoqda. Xususan, har bir shaxsning ijod erkinligi Asosiy Qomusimizda kafolatlanmoqda. Fuqarolarning ushbu huquqi Konstitutsiyamizning “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari” 9- bobidan o‘rin olgan.

Davlatimizda insonning o‘z iqtidorini erkin namoyon etishiga, intellektual salohiyatini oshirishga qulay shart- sharoit yaratilgan. Ilm- fan va ijodning turli ko‘rinishlarini namoyon etish va qo‘llab quvvatlanmoqda. Bu kabi keng

qamrovli islohotlarning eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu – ilm-fan va ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 3 dekabrda bo‘lib o‘tgan Ilm-fan va innovatsiya’ni rivojlantirish borasida oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, tarmoq va hududlar oldidagi ustuvor muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishida shunday ta’kidladilar: “ – Bir narsani bilishimiz kerak: ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo‘ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz. Hisobot uchun emas, natija uchun ishlash kerak”. Darhaqiqat bugungi kunda dunyoning rivojlangan postindustrial davlatlarida asosiy rivojlanish yo‘li – ilm-fan va tadqiqotlarga asoslanib, eng asosiy kapital bilim hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda yurtimizda ilm-fan sohasini tubdan o‘zgartirish va modernizatsiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” 2019 yil 29 oktabr O‘RQ-576-son Qonuni qabul qilingan[4].

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktyabda qabul qilingan “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsad etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan tasdiqlangan 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi asosida mamlakatimizda ilm-fan va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan: 50-maqsad: “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish ko‘zda tutilgan. Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta’lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o‘tkazish mamallariga e’tibor kuchaygan. 52-maqsad: Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish. Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda so‘nggi, 5 yil ichida ilm-fan va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish borasida islohotlarni

jadallashuvini kuzatish mumkin. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrda “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim qadam bo‘ldi. Shaxslarning ijodiy aqliy faoliyat mahsulini “Intellektual mulk” tashkil etadi. Intellektual mulkka ixtirochilik va mualliflik obyekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san’at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san’ati, jumladan ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma’lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamalari va boshqa aqliy mulk obyektlariga kiradi. Hozirgi davrda intellektual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil dekabrda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a’zo bo‘ldi, 1993-yildan sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasiga qo‘shildi.[3] 2021 yil 20 avgustdagi “Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-709-son Qonun qabul qilindi. So‘nggi yillarda Intellektual mulk bo‘yicha qonunchilik borasida ham ayrim o‘zgarishlar yuz bermoqda . “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” gi 2006 yil 21 iyunda qabul qilingan O‘RQ-42-son Qonunning 35- moddasiga o‘zgartirishlar kiritildi. Ya’ni, Mualliflik huquqining amal qilish muddati “Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin etmish yil davomida amal qiladi, ushbu moddada va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno” deb belgilandi.

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalanish usulidan qat’iy nazar, tatbiq etiladi. Mualliflik huquqi biron-bir obyektiv shaklda bo‘lgan oshkor qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tatbiq etiladi. Ixtiro - yangilik yaratish, o‘ylab chiqarish bo‘lib, fan-texnika sohasida kashf etilgan, ijobiy samara beradigan yangilik, kashfiyotdir. Bunday ijod namunalarining saralangani jamiyat rivojiga tadbiq etiladi. Innovatsiya - texnika va texnologiyaning yangi turlari(avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar bo‘lib, har bir davrning o‘ziga has taraqqiyot ko‘rsatkichlarini anglatadi. Innovatsiyalarni rivojlantirish sohasida davlatni ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, modernizatsiyalashni va ilmiy asoslangan istiqbolli ishlanmalar asosida mahsulotlarni takomillashtirishni nazarda tutadi. Innovatsion salohiyat jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida imkoniyatlarni kengaytiradi, kapital va tabiiy resurslarni tejaydi. Ilm-fan taraqqiyoti hamda

inson kapitali faolligi qanchalik yuqori bo‘lsa, jamiyatda ham shuncha yuqori darajali innovatsion salohiyat vujudga keladi.

Harakatlar strategiyasi doirasida so‘ngi besh yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va natijadorligini oshirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi, jumladan 2017-2021 yillarda ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilab olindi, yagona davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi, 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi, innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab beradigan “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi.

O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida ayrim bo‘shliqlar bartaraf etildi, jumladan Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti va Kornell Universiteti tomonidan 2020 yil uchun tayyorlangan Global innovatsion indeksida O‘zbekistonning 131 dan ortiq dunyo mamlakatlari ichida 93 o‘rinni egalaganini keltirish mumkin, vaholanki avvalgi yillarda O‘zbekiston bo‘yicha ma’lumotlar shakllanmaganligi tufayli mazkur indeksni hisoblash imkoni bo‘lmagan[5].

Ijodning yana bir shakllaridan biri bu badiiy ijoddir. Badiiy ijod aholi ma’naviyatiga tez kirib borish, madaniy rivojlanishda alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy ijod – yuksak ma’naviy voqelikni aks ettiruvchi badiiy obrazlarni turli janr va ifodaviy uslubda yaratishga qaratilgan insonning aqliy faoliyatidir. Badiiy ijod adabiyot, me’morchilik, haykaltaroshlik, tasviriy va amaliy san’at, musiqa, raqs, teatr, kino va inson faoliyatining boshqa turlarini o‘z ichiga qamrab, dunyoni anglashning haqqoniy va majoziy shakllarini kashf etib namoyon qiladi. Badiiy ijodda muallifning muayyan jamiyat hayotining muayyan davri muammolariga nisbatan shaxsiy nazari, o‘ziga xos badiiy talqini, his-tuyg‘ulari o‘z ifodasini topadi. Ya’ni turli adabiyot va san’at asarida hayotning turfa ranglari hamda voqealari orasidan ibratli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lganlari tanlab olinadi va badiiy tahlil va tasnif etiladi. Badiiy ijod murakkab jarayon bo‘lib, inson faoliyatining idrok etish, baholash, qadrlash singari turlari bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Buning uchun ijodkor erkin xayol, keng qamrovli tafakkur, boy ramziy tasavvur, milliy ong va yuksak mahoratga ega bo‘lishi kerak. Badiiy ijod mahsulining dolzarbligi va ijtimoiy mohiyati ana shu bilan belgilanadi. Ijodning taraqqiy etishida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va madaniy-ma’naviy tafakkurning yuksalgan darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Bugungi kunda yurtimizda badiiy ijodning taraqqiy etishi uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Prezidentimizning “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlarida badiiy ijod va kitobxonlik madaniyatini faol qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekistonda madaniyat, san’at va jurnalistikani rivojlantirish uchun mablag‘ ajratish va yo‘naltirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunimizda milliy qahramonlarimiz, tarixiy shaxslarni, milliy g‘ururni uyg‘otishga sabab bo‘ladigan buyuk sarkardalarimizni ommaga tanishtirish uchun ular hayoti va faoliyati bilan bog‘liq badiiy filmlar, vatanparvarlik g‘oyalariga yo‘naltirilgan asarlar yaratish globallashuv davrida har qachongidan dolzarb masalaga aylandi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ijodkorlari hech qanday mafkuraviy tazyiqlarsiz, ijodning erkin tanlangan usullarida, so‘z erkinligi, tafakkur erkinligi kabi umuminsoniy demokratik tamoyillar asosida iqtidorini namoyon etish imkoniyatiga egadir. Bunday huquqlari konstitutsion mustahkamlab qo‘yilgan.

“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni bilan Nukus, Buxoro, Jizzax va Namangan shaharlarida Toshkentda barpo etilgan “Inno” innovatsion texnoparki shaklidagi zamonaviy infratuzilmaga ega texnoparklarni qurish nazarda tutilgan. Innovatsion texnoparklarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan: iqtidorli yoshlarni, shu jumladan talabalar, ilmiy xodimlar, professor-o‘qituvchilar tahliliy fikrlashi uchun zarur sharoitlar yaratish; yoshlarni innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, biznes-inkubatorlar va tajriba maydonchalari ishini tashkil etish, ularga moliyaviy, marketing, yuridik va konsalting xizmatlari ko‘rsatish orqali ko‘maklashish; tashabbuskor yoshlar tomonidan taklif qilingan startap loyihalarni rivojlantirish uchun yagona maydon tashkil etish;

startap loyihalarni amalga oshirishda ularni qisman moliyalashtirish asosida qo‘llab-quvvatlash va muassislar tarkibiga kirish[7].

Vazirlar Mahkamasining “Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparklari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilindi. Toshkent shahrida barpo etilgan “INNO” innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparki Namangan, Buxoro, Jizzax va Nukus shaharlarida 2023-2026 yillarda bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Bunda, 8 ta startap-akselerator, 4 ta biznes-inkubator, 4 ta ishlab chiqarish maydonlari, 12 ta kovorking markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Tashkil etiladigan Texnoparklar mahalliy budjet hamda O‘zbekiston ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘ldi. Texnoparklarga har yili “Bo‘lajak olim” tanlovi doirasida ajratiladigan mablag‘larning 30 foizdan kam bo‘lmagan

miqdori startap loyihalarni e’lon qilish, ko‘rib chiqish, tanlab olish va muvaffaqiyatli loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladigan bo‘ldi.

Xullas, bugungi kunda O‘zbekiston yoshlariga o‘z iqtidorlarini ijodning ilmiy, badiiy, texnikaviy turlarida erkin namoyon etishining qulay muhiti yaratildi. Mamlakatimizdagi barcha shaxslar o‘zlarining konstitutsion huquqidan foydalanish imkoniyatlariga sazovor bo‘lmoqdalar. Bu yo‘lda davlatning o‘zi moddiy , ma’naviy g‘amxo‘rlik qilishi ijodkorlik, ilm-fan sohasiga ko‘plab yoshlarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent., “Yuridik adabiyotlar publish”nashriyoti, 2023. -112 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 31.08.2024. // Prezident nutqi. uz.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” 2019 yil 29 oktabr O‘RQ-576-son Qonuni// Lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 30.10.2020// https://lex.uz/docs/5073447
6. Sharipov J, Xalbekov A. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ilm-fan va innovatsiyalarning o‘rni. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tahlili. 2023. 9 okt.
7. Vazirlar Mahkamasining 15.10.2022 yildagi “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 606-son qarori qabul qilindi. // https://www.norma.uz/uz/.

YANGI O‘ZBEKISTONNING –YANGI KONSTITUTSIYASI- YANGI SUD HOKIMIYATI QARORLARIDA INSON HUQUQLARI HIMOYASI

Tajiboyev M.M.
O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi mas’ul xodimi,
y.f.b.f.d.(PhD),dotsent.

“Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi!”[1]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘ttiz ikki yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, Asosiy qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va

[1] https://www.lex.uz/docs/7160383 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 oktabrdagi farmoyishi;

birdamlik kabi ezgu g‘oyalar atrofida fuqarolarni jipslashtirish, “Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi!» degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti joriy yilning 17 oktyabrdagi F-53-son farmoyishi[1] bilan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlangan bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish dasturi” tasdiqlandi.

Farmoyishning 3-bandida, Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi! degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o‘tilganligini yangilangan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va O‘zbekiston — 2030» strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari doirasida ochib berish maslasi ilgari surilgan.

Agar, Konstitutsiyamizni qabul qilinish jarayoniga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, 1992 yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish e’lon qilinganidan keyin, ishchi kommissiyaga aholimizdan 220 mingdan ortiq taklif kelib tushganligi, takliflar asosida Konstitutsiyaning 128 ta modda 155 taga moddaga ko‘payib, moddalardagi normalar 275 tadan 434 ta normaga ko‘payib, normalarning 65 foizi yangi tahrirda bayon etilganligini bot-bot gapirildi.

Xo‘p, normalar ko‘payganligi insonlarning huquq va erkinliklariga ta’siri bormi, degan savol paydo bo‘ladi. Haqaqatdan ham, umume’tirof etilgan Konstitutsiyalar normalarining 115 tasi inson huquqlariga bag‘ishlangan bo‘lsa, mamlakatimiz halqi tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyaning 125 ta normasi insonlar huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo‘naltirilganligi kuzatish mumkin.

Qolaversa, Konstitutsiyamizga butun dunyo e’tirof etgan “Xabeas korpus” va “Miranda qoidasi” tamoyillarining kiritilishi Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash kafolatlarini kuchaytirdi.

“Xabeas korpus” (lot. habeas corpus) – “tanani sudga keltirish”, ya’ni jinoiy ta’qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqi hisoblanadi.

“Miranda qoidasi” – ham, fuqaroni birinchi marta davlat organlari tomonidan biron bir ishga gumon qilinuvchi sifatida jalb qilayotganda, unga birlamchi huquqlari tushuntirib berilishi demakdir.

Shaxsni ushlash chog‘ida, uning Konstitutsiya va prosessual qonun hujjatlarida belgilangan huquqlari to‘g‘risida xabardor qilinishi, ya’ni “siz sukut saqlashingiz mumkin”, “ushbu ishda bizga aytayotgan har bir so‘zingiz sudda o‘zingizga qarshi dalil sifatida ishlatilishi mumkin”, “siz advokat xizmatidan

[1] https://www.lex.uz/docs/7160383 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 oktabrdagi farmoyishi;

foydalanish huquqiga egasiz, agar foydalanish imkoniyatingiz bo‘lmasa, davlat tomonidan sizga advokat beriladi”, kabi savollarga albatta javob olishi lozimligi nazarda tutiladi.

Normalarni kirish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, 1966 yil AQShda Miranda ismli shaxs qo‘lga olinadi, gumonlanuvchi sifatida uning birlamchi huquqlari tushuntirib berilmaganligi sababli, Amerika qo‘shma shtatlarning sudyalaridan biri Mirandaga nisbatan, aynan, uning huquqlari tushuntirib berilmaganligi uchun uni sud zalidan ozod qiladi. Shu bois, “Miranda qoidasi” xalqaro jinoyat prosessual huquqida me’yor sifatida e’tirof etilgan.

Mazkur qoidalarni mazmunini Konstitutsiyamiz[1]ning 27-moddasining ikkinchi qismiga, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega, hech kim qonunda asoslanmagan holda, xibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqda saqlanishi yoki qamoqqa olinishi va uni ozodligini boshqa tarzda cheklashga yo‘l qo‘yilmasligi, hamda ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga, shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart, degan normalar kiritilgan.

Umuman, olganda Halqaro e’tirof etilgan Konstitutsiyalarning normalarida inson huquqlariga taalluqli bo‘lgan 117 ta norma mavjudligi e’tirof etilgan bo‘lsa, bizning Yangi Konstitutsiyamizda esa inson huquq va manfaatlariga taalluqli 125 ta norma mavjudligi, unda “Inson qadri” qanchalik ulug‘langanligini anglash mumkin.

«Yangi O‘zbekiston — yangi sud» prinsipi doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun insonning qadr-qimmati ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz raxbari, Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan 2022 yil 20 dekabrdagi Murojaatnomasi[2]da “Eng avvalo, odamlarimizning joylarda sudma-sud sarson bo‘lib yurishlariga barham beriladi. Buning uchun adolatli hukm va qaror chiqarish bo‘yicha viloyat sudlarining vakolati ham, mas’uliyati ham oshiriladi”

Mamlakatimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlash, shuningdek odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi.

Xech kimga sir emas, Yurtimizda amalga oshirib kelinayotgan mazkur ishlarni zamirida mamlakatimizning Asosiy qonuni - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi turibdi va barcha sohalarni huquqiy asoslarini belgilab berish uchun qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning Dastur bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

[1] https://www.lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel
[2] https://president.uz/uz/lists/view/5774 O‘zekiston Respublikasi Prezidentining Murojaatnomasida

Zero, Konstitutsiyamiz normalarida, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinishi, birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emasligi, belgilab qo‘yilgan[1].

Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[2] qabul qilinishi, Yangi Konstitutsiyamizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi, jonajon Yurtimizda Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinishi[3] belgilandi.

Konstitutsiyamizda, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi haqidagi norma mavjud[4].

Mamlakatimizda Konstitutsiya va qonun ustivorligini ta’minlash vazifasi eng avvalo respublika sudlari zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, Yangi Konstitutsiyaning “Sud hokimiyati” deb nomlangan XXIII – bobini 11 ta moddasining 30 ta normasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining huquq va majburiyatlari, uning qarorlari barcha uchun majburiyligi, sudyaning va uning oila a’zolarining xavfsizligi, sudyani muayyan ishni ko‘rishdagi vakolatlari hamda sudlar faoliyatini moliyalashtirish kabi muhim masalalar mustahkamlangan.

Yangi Konstitutsiyada sudlar tomonidan odil sudlovni ta’minlashga qaratilgan oldingi Konstitutsiyada mavjud bo‘lmagan normalar kiritilgan.

Xususan, “O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi”[5], degan yangi norma kiritildi va u mamlakatimiz sudlariga berilgan vakolat boshqa biron-bir davlat organiga berilmaganligi anglatadi;

Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qayta saylanish huquqisiz, o‘n yillik muddatga saylanishi belgilandi[6];

“Fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli”ligi haqidagi

[1] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasi, 2-qismi.
[2] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel.
[3] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi.
[4] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi.
[5] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130-moddasi.
[6] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 132-moddasi.

norma kiritilib, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan huquqlari yanada kengaytirildi;[1]

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi va uning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan ikki muddatdan ortiq saylanish huquqisiz besh yillik muddatga saylanishi belgilandi;[2]

“Sudyalar muayyan ishlar bo‘yicha hisobdor bo‘lmasligi; “Davlat sudyaning va uning oila a’zolarining xavfsizligini ta’minlashligi; Sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to‘xtatib turishga, boshqa lavozimga o‘tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi hamda sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyani lavozimidan ozod etish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas”ligi haqidagi normalar kiritildi;[3]

“Sudlarning faoliyatini moliyalashtirish faqat O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan amalga oshirilishi hamda u odil sudlovni to‘liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta’minlashi kerak”[4], degan normani kiritilishi, sud korpusini yanada mustahkamlanishiga va biron bir idoraga muhtoj bo‘lmasligini kafolatlab qo‘ydi.

Konstitutsiyaning mazkur normalariga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kelajakda “Adolat qo‘rg‘onini” yanada mustahkam bo‘lishini, shuningdek sudga murojaat qilgan shaxslarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirishini ta’minlashligi shubhasizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 maydagi PF-67-son Farmoniga asosan “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora – tadbirlar Dasturi” tasdiqlab, uning bir nechta bandlarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatmalar berilgan edi.

Dasturda belgilangan barcha vazifalar so‘zsiz amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, yangi Konstitutsiya belgilangan normalar asosida amaldagi qonunchilikka tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kirtish haqidagi qonun loyihasi ishlab chiqilib qonunchilik tashabbusi asosida kiritildi. Tez kunlarda mazkur belgilangan vazifa yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining qonuni e’lon qilinishi kutilmoqda.

Sud hokimiyatining mustaqil holda ish yuritishiga va sudyalar muayyan ishlar bo‘yicha hisobdor bo‘lmasligiga oid konstitutsiyaviy kafolatlar yuzasidan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sud hokimiyatining

[1] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 133-moddasi.
[2] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 134-moddasi.
[3] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasi.
[4] https://lex.uz/docs/6445145 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 140-moddasi.

mustaqilligi kafolatlarini mustahkamlashga, sudlar faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilishga hamda yagona sud amaliyotini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi joriy yilning 14 avgustida O‘RQ-943-sonli Qonun[1] qabul qilindi.

Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni[2]ni 37-moddasi va 41-moddasiga ko‘ra, sudlar raislarining xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga axborot taqdim etishi haqidagi qoida bekor qilinib, sudlarning faoliyati to‘g‘risida jamoatchilikni har chorakda ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilib borish tartibi belgilandi.

“Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumi tomonidan so‘ngi 2 yilning o‘zida qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta’minlashga qaratilgan 20 tadan ortiq tushuntirishlar berilgan va berib borilmoqda.

Jumladan, sudlar tomonidan konstitutsiyaviy normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bir hilda qo‘llanilishi orqali inson huquqlariga oid kafolatlarni to‘laqonli ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 2023 yil 23 iyundagi 16-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarorda sudlar ko‘rib chiqilayotgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatning mazmunini baholashi va Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy asos sifatida qo‘llashi lozimligi nazarda tutildi.

Fuqarolarning odil sudlovdan foydalanish hamda davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatini kengaytirish maqsadida “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ma’muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2024 yil 16 yanvardagi O‘RQ-897-sonli Qonun qabul qilindi.

Unga ko‘ra davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma’muriy sudlarga murojaat qilishda davlat bojini fuqarolardan oldindan undirmasdan, ushbu bojni ishni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra aybdor tarafdan undirish

[1] https://lex.uz/docs/7063691 O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga sud hokimiyatining mustaqilligi kafolatlarini mustahkamlashga oid o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi

[2] https://lex.uz/ru/docs/5534923?ONDATE=14.08.2024%2000#edi7069265 O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni

tartibi belgilandi, shuningdek, davlat bojining ko‘rsatilgan stavkasi miqdori pasaytirilishi nazarda tutildi.

Mazkur Qonun davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma’muriy sudlarga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qildi.

Sud qarorlarini qayta ko‘rish tartiblarini xalqchil qilish, soddalashtirish, sudlarga murojaat qilishni erkinlashtirish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Fuqarolik, Iqtisodiy prosessual kodekslari, Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi hamda Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi Qonunlar qabul qilindi.

Mazkur Qonunlar bilan:

– tumanlararo, tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instansiyada ko‘rilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyasiya yoki kassasiya tartibida qayta ko‘rib chiqish;

– viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellyasiya yoki kassasiya tartibida ko‘rilgan ishlarni mazkur sudlarda taftish tartibida qayta ko‘rib chiqish;

- viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko‘rilgan ishlarni Oliy sudning sudlov hay’atlarida taftish tartibida qayta ko‘rib chiqish;

– yuqori instansiya sudlari tomonidan ishni yangidan ko‘rish uchun quyi sudlarga yuborish tartibini bekor qilish va ularga ish bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilish mas’uliyatini yuklashga doir prosessual normalarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur qonunlarning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, endilikda Oliy sud ishlarni taftish tartibida ko‘rishda faqatgina ishda mavjud dalillarni tekshirish bilan cheklanmay, to‘liq yoki qisman sud tergovini o‘tkazishga haqli ekanligi nazarda tutildi.

Ushbu prosessual bosqichlardan o‘tgan har qanday ish yuzasidan yakuniy qaror qabul qilinishi ta’minlanadi. Bu orqali esa, bir necha bor bekor qilinib, yillar davomida o‘z echimini topmaslik holatlariga chek qo‘yilmoqda.

Muhtasar qilib aytganda, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan har bir sud xodimi “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo‘naltirishi;

Adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, har

bir shaxs sud va sudyalar siymosida o‘zining ishonchli himoyachisini ko‘rishiga erishish[1];

sudlarning xolisligini amalda ta’minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish;

jonajon Yurtimiz, davlat nomidan sud qarorlarini qabul qilayotgan sudlar va sudyalarga, shuningdek, ularning qarorlariga nisbatan har bir fuqaroda, shu jumladan, barcha darajadagi mansabdorlarda hurmat ruhini shakllantirish;

sudyalik lavozimiga tayinlangan ham bir sudyalar bilim va malakalarini muntazam ravishda oshirib borishlari darkor.

Darhaqiqat, sud tizimini chinakam “adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirishda va sudlar xalqimizning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash uchun barcha “Sudyaning ongida adolat, tilida haqiqat, dilida poklik hukmron bo‘lishi kerak” degan hayotiy prinsipga qat’iy rioya etgan holda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga bor kuch-g‘ayratini safarbar etishi lozim.

O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARNING TARIXIY MAZMUNI VA YANGI KONSTITUTSIYADAGI O‘ZGARISHLARNING AHAMIYATI

Shadmanov E.Sh.
Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi dotsenti.

O‘zbekiston mustaqilligi va Konstitutsiyaviy tarixi ma’lum ma’noda umumiy va bir-birini to‘ldiruvchi jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanib ketganidan so‘ng O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qildi va bu davlat qurish jarayonining boshlanishi bo‘ldi. Birinchi Konstitutsiya 1992 yilda qabul qilingan va yangi respublikaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishini belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Konstitutsiya davlat suvereniteti, markazlashgan hokimiyat va milliy birlikni o‘zida mujassam qildi. Garchi u mamlakat boshqaruvining asoslarini yaratgan bo‘lsa-da, u asosan postsovet davlatlarining siyosiy tendentsiyalarini aks ettirdi, jamiyatni boshqaruv quvvati yuqori darajada ijro etuvchi hokimiyatda to‘plangan edi.

1992 yil Konstitutsiyasi: markazlashgan hokimiyat va cheklangan siyosiy erkinlik Konstitutsiyaning dastlabki tahriri prezidentga muhim vakolatlarga ega bo‘lgan prezidentlik tizimini o‘rnatdi va bu davlat tashkil topish davrida kuchli rahbarlik zarurligini aks ettirdi. Biroq, hokimiyatning bunday kontsentratsiyasi siyosiy erkinliklarning cheklanishiga, muxolifatning cheklanishiga va

[1] https://lex.uz/ru/docs/6358976 2023 — 2026 yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasidan.

pluralizmning etishmasligiga olib keldi. Siyosiy erkinlik qat’iy nazorat ostida bo‘lib, ijro hokimiyati ustidan bir nechta tekshiruvlar mavjud edi halos.

Konstitutsiyaviy islohotlar zarurati ichki va tashqi sharoitlarni o‘zgartirish, ya’ni keyingi 7-8 yillarga kelib O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muhiti o‘zgara boshladi, bu esa konstitutsiyaviy islohotlarni o‘tkazish zaruriyatini keltirib chiqardi. Iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish uchun ichki bosim kuchayib bordi. Tashqarida xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va turli inson huquqlari idoralari O‘zbekistonni demokratik jarayonlar va inson huquqlari himoyasini yaxshilashga, Respublikani jahon hamjamiyatiga integratsiya jarayonini tezlashishi va jahon taraqqiyotiga mos rivojlanish sur’atlarni ta’minlashga qaratilgan maqsadlarni belgilashi undadi.

2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning prezidentlikka kelishi bilan O‘zbekiston boshqaruvning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Shavkat Mirziyoyev islohotchi kun tartibini ilgari surish orqali avvalgi ma’muriy siyosatidan voz kechdi. Uning “Yangi O‘zbekiston” tashabbusi bilan bir qator huquqiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni ko‘zda tutgan bo‘lib, konstitutsiyaviy islohotlar asosiy o‘rinni egalladi. Yangi Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlarni davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, inson huquqlarini ta’minlash, aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash yo‘li sifatida keng ommaga taklif sifatida taqdim etildi.

Konstitutsiya matni olimlar yoki mutaxassislar tomonidan kabinetlarda yozilmadi. Balki, avval xalqimizning fikri, takliflari 2 bosqichda o‘rganildi, shundan so‘ng Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Avvallari Konstitutsiya qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo‘yilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki qabul qilingan Konstitutsiya xalq Konstitutsiyasi deb e’tirof etilishi o‘rinli, sababi Konstitutsiya loyihasida keng ommadan birinchi bosqichda 60 mingta va ikkinchi bosqichda 150 mingta takliflar kelib tushgan bo‘lib ularni har to‘rttadan bittasi Yangi Konstitutsiyada joy olgan.

Yangi Konstitutsiyaning eng e’tiborli jihatlaridan biri fuqarolar erkinliklarini himoya qilishning kengaytirilganligidir. So‘z, matbuot, yig‘ilishlar va uyushmalar erkinligi yanada aniqroq himoyalangan. Bu huquqlarning davlat tomonidan o‘zboshimchalik bilan cheklanishining oldini olishga qaratilgan qoidalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda yashovchi aholining millati, urf-odati va etnik kelib chiqishi xilma-xilligini e’tirof etgan holda vijdon va e’tiqod erkinligi tamoyilini ham mustahkamlaydi.

Yangi Konstitutsiya O‘zbekistonning etnik va madaniy xilma-xilligini tan olgan holda ozchiliklar huquqlarini himoya qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, gender tengligini rag‘batlantirishga aniq urg‘u berilgan. Xotin-qizlarning ta’lim olish, ishga joylashish va siyosiy ishtirok etishda teng huquqliligini kafolatlovchi konstitutsiyaviy qoidalar joriy

etildi. Islohotlar ijtimoiy adolat va inkluzivlikka intilish ortib borayotganini aks ettiradi.

O‘zbekiston Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va turli xalqaro shartnomalarning asosiy tamoyillarini integratsiyalashgan holda, xalqaro standartlarga muvofiq inson huquqlari normalarini ta’minlash majburiyatini oldi. Bu ichki qonunlarni inson huquqlari bo‘yicha global tizimlar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni anglatadi.

Yangi Konstitutsiya ijro hokimiyatini parlament(Oliy Majlisga) oldida hisobdorligini oshirish orqali jamoatchilik nazorati prinsiplarini ilgari surgan. Parlamentga (Oliy Majlisga) kengaytirilgan vakolatlar, jumladan, qonun ijodkorligi, budjetni tasdiqlash va hukumat nazoratidagi roli kuchaygan.

Yangi Konstitutsiyada siyosiy partiyalarning boshqaruv jarayonida rolini oshirish orqali siyosiy pluralizmni kuchaytirishga yordam beradi. Bunga partiyalar o‘rtasida raqobatni rag‘batlantirish, adolatli saylovlarni ta’minlash, siyosiy tizimni yanada ochiq va qamrab olishga qaratilgan islohotlar ham kiradi. Maqsad yanada raqobatbardosh siyosiy muhitni yaratishdir.

Yangi Konstitutsiyadagi asosiy islohot sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlashdan iborat. Bu qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Islohotlar ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlarning sud hokimiyati faoliyatiga aralashuvining oldini olish, shu orqali adolatli va xolis sudlovlarni kafolatlash chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Konstitutsiya ham qonunlarni Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish vakolatiga ega bo‘lgan Konstitutsiyaviy sudni tashkil etishni belgilab beradi.

Yangi Konstitutsiya O‘zbekistonning iqtisodiyotni liberallashtirish tamoyiliga asoslanganligini mustahkamlaydi. Xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qoidalar kuchaytirildi. Mamlakatimiz va xorijiy investitsiyalar uchun yanada qulay muhit yaratish orqali islohotlar iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni kuchaytirishga qaratilgan.

Yangi Konstitutsiya iqtisodiy islohotlardan tashqari ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot kabi muhim ijtimoiy xizmatlar kafolatlarini ham o‘z ichiga oladi. Hukumat endi Konstitutsiyaga muvofiq tibbiy yordam ko‘rsatish va fuqarolarning ta’lim olish huquqini ta’minlashga majburdir. Bundan tashqari, mehnat huquqlari mustahkamlanib, mehnatkashlar manfaatlarini xalqaro mehnat standartlariga muvofiq himoya qilish ta’minlandi.

Ekologik barqarorlikka oid global tahdidlarga javoban yangi Konstitutsiya tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish qoidalarini ham o‘z ichiga oladi. Bu iqtisodiy o‘sishni ekologik mas’uliyat bilan muvozanatlashda istiqbolli yondashuvni aks ettiradi.

РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА КАК ФАКТОР УКРЕПЛЕНИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ ОСНОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Махмудов Н.М.
Доктор экономических наук, профессор кафедры «Макроекономика» Ташкентского Государственного экономического университета.

Развитие туризма в Узбекистане становится все более актуалным в условиях глобализатсии и растущей конкуренсии на международном туристическом рынке. В этом контексте туризм рассматривается не толко как экономическая категория, но и как важный инструмент, способствующий укреплению конституционных основ страны. Туризм может способствоват формированию гражданской идентичности, патриотизма и сотсиалной ответственности, что является важным аспектом для устойчивого развития государства.

Туризм представляет собой систему перемещения людей с селю отдыха, познания, деловых поездок и других форм активности. В Узбекистане туризм включает в себя как внутренний, так и международный туризм, который имеет свои особенности и потенсиал.

Узбекистан, находяс на пересечении древних торговых путей, обладает богатым культурным наследием и историей, что делает эго привлекателным для туристов. Исторические города, такие как Самарканд, Бухара и Хива, привлекают внимание путешественников со всего мира.[1]

Современные тенденсии в развитии туризма в Узбекистане включают:

- ✓ увеличение количества международных авиарейсов;
- ✓ развитие инфраструктуры;
- ✓ программы по повышению квалификатсии работников туристической отрасли.

Конституция Республики Узбекистан закрепляет основные права и свободы граждан, включая право на отдых, получение информатсии и участие в культурной жизни. Туризм, как важный аспект жизни общества, непосредственно связан с этими правами.

Туризм также играет важную рол в формировании гражданской идентичности и патриотизма. Участие граждан в культурных и

[1] Туркменова А.Р. Исторические города Узбекистана как туристические объекты. Узбекистан и международный туризм, 1(1), 10-20. 2020..

исторических мероприятиях, связанных с туризмом, способствует укреплению чувства принадлежности к своей стране.[1]

Туризм является важным драйвером сотсиально-экономического развития страны. Он способствует созданию рабочих мест, привлечению инвестиций и развитию местной инфраструктуры. Развитие туризма оказывает положителное влияние на экономику Узбекистана. Туризм также способствует сотсиалной интегратсии и улучшению качества жизни. Он создает возможности для обмена культурным опытом и укрепления связей между различными этническими группами.[2]

В Узбекистане развиваются различные программы, направленные на продвижение туристического потенсиала. Например, программа "Мой Узбекистан" населена на развитие внутреннего туризма и привлечение молодежи к культурным традитсиям.[3]

Мировой опыт показывает, что страны с высокоразвитыми туристическими отраслями, такие как Испания и Италия, активно исползуют туризм как инструмент укрепления своей экономики и культуры

Развитие туризма в Республике Узбекистан является важным фактором укрепления конституционных основ страны. Туризм способствует формированию гражданской идентичности, улучшению качества жизни и экономическому развитию. Для достижения максималной эффективности необходимо продолжат развиват туристическую отрасл, интегрируя современные технологии и улучшая инфраструктуру.

Список литературы

1. Туркменова, А. Р. 2020). Исторические города Узбекистана как туристические объекты. Узбекистан и международный туризм, 1(1), 10-20.2020
2. Иванов, И. И. Конституционные права граждан на отдых и их реализатсия. Издателство "Юридическая литература".2019
3. Смирнова, Н. А. Туризм и формирование гражданской идентичности. Вестник Российской академии наук, 91(3), 234-240.2021
4. Голубева, М. Экономика туризма в Узбекистане: вызовы и возможности. Экономический журнал, 45(2), 55-67.2022
5. Петров, С. П. Сотсиалные аспекты развития туризма в современном обществе. Сотсиологический журнал, 45(6), 77-84. 2022
6. Жоҳнсон, М. Тоурисм анд Эсономис Девелопмент: Тҳе Глобал Перспестиве. Жоурнал оф Интернатионал Аффаирс, 72(1), 55-70. 2018

[1] Смирнова, Н. А. Туризм и формирование гражданской идентичности. Вестник Российской академии наук, 91(3), 234-240.2021

[2] Петров, С. П. Социалные аспекты развития туризма в современном обществе. Социологический журнал, 45(6), 77-84.2022

[3] Ахмедов, Т. (2023). Развитие внутреннего туризма в Узбекистане. Туризм и его рол в экономике, 2(1), 30-45.

7. Ахмедов, Т. Развитие внутреннего туризма в Узбекистане. Туризм и эго рол в экономике, 2(1), 30-45.2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI: FUQAROLAR O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINING JAMOAT EKOLOGIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHINING HUQUQIY POYDEVORIDIR

Utegenov O.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori v.b.
yuridik fanlar doktori.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta’minlashning omili sifatida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash hamda atrof muhitni muhofaza qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida hamda uni amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturlarida: «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash, atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish[1]; atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash[2]; ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartibga solish[3]; suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish[4]; tabiatni qayta tiklashga qaratilgan kompensatsiya mexanizmlarini keng joriy etish[5]» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish o‘z navbatida samarali ekologik siyosatni amalga oshirish bilan bir qatorda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning mohiyati, tavsifi va tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy mexanizmini qonunchilikda aniq belgilash orqali yanada takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda yuritilayotgan oqilona ekologik siyosat davlat va jamoatchilik tomonidan tabiatni muhofaza qilish va undan samarali foydalanilishini nazorat qilish, aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashga oid ekologik faoliyat amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Professor M.M.Mamasiddiqovning fikricha, ekologiya’ni muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash ishlarida fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari alohida o‘rin tutishini e’tirof etib o‘tadi[7].

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkiliy jihatdan davlat hokimiyatidan ajratilgan bo‘lsa-da, funksional ravishda ular o‘zaro bog‘liqdir. Ular iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik jihatdan umumdavlat siyosati o‘zagida harakat qiladilar, ayrim davlat vakolatlarini bajarishlari, davlat dasturlarini amalga oshirishda qatnashishlari mumkin[8].

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”[9] gi Qonunning 4-moddasida davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan normativ hujjatlarda, davlat dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini va fikrini inobatga olish, fuqarolarning va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik talablarining ijrosini ta’minlash, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish, davlat xizmatini ko‘rsatish, ijtimoiy sherikchilik bo‘yicha bajariladigan shartnomalar, loyihalar hamda dasturlarni bajarishga oid faoliyati jamoatchilik nazoratining obyekti sifatida belgilangan. Bunda, davlat ekologiya organlari “atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar faoliyatini cheklash, to‘xtatib qo‘yish, tugatish va o‘zgartirish” bo‘yicha qaror qabul qilayotganda jamoatchilik nazorati organlari, xususan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fikrini inobatga olishlari lozimligi belgilangan. Shuningdek, bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 17 mayda tasdiqlagan O‘zbekiston Respublikasida davlat yong‘in xavfsizligi nazorati to‘g‘risidagi nizomda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining “belgilangan tartibda obyektlar va aholi yashayotgan punktlarning yong‘in xavfsizligi holati, ularni nazorat qilish natijalari haqida jamoatchilikka axborot berib borish, yong‘inga qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, yong‘inning oldini olishga bag‘ishlangan adabiyotlar, plakatlar, bukletlar nashr etish”[10] vakolatlari belgilangan. “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunda “jamoatchilik ekologik nazorati natijalari belgilangan tartibda ma’lumotnoma yoki axborot tuzish orqali rasmiylashtirilishi mumkinligi, jamoatchilik ekologik nazoratining natijalari maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini va fuqarolarni jamoat ekologik nazoratining natijalari haqida xabardor qilish, tegishli davlat organlariga tabiatni muhofaza qilishga oid qonun talablarining buzilishi yuzasidan aniqlangan fakt bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish uchun takliflar kiritish kabi shakllarda ro‘yobga chiqarilishi”[11] belgilangan. Maxsus ekologiya qonunlarida aks etgan yuqorida aytib o‘tilgan ekologik vakolatlar “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”[12] gi Qonunda to‘liq aks etmagan yoki qonunchilikka muvofiqlashmagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida “shahar va qishloqlar qiyofasini o‘zgartirish, qurilish va obodonlashtirishga oid qarorlar dastlab o‘sha joydagi aholi o‘rtasida muhokama qilinishini va jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazilishi shartligi”[13] ni ta’kidlangan edi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizdagi ekologik muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining, xususan, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekologik - huquqiy vakolatlari ichida muhim bo‘lgan jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirish faoliyatining amaliy jihatlari va uning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish bugungi

davrning o‘z yechimini kutayotgan talablaridan biriga aylandi. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada rivojlantirish masalasi Prezident Sh.Mirziyoyev asarlarida ham dolzarb qilib ta’kidlanganligi bejiz emas[14]. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ekologik vakolatlari ichida ekologik ekspertizani amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan ham bunday ekspertizaning nazariy-huquqiy jihatlarini o‘rganish va uni amalda o‘tkazishni “jonlantirish” ning muhim zaruriyati mavjud.

Shuningdek, 2013 yil 27 dekabrda qabul qilingan “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi Qonunning 15 - moddasida “fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanish jarayonlari bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganishi hamda jamoatchilik ekologik ekspertizasini o‘tkazishi”[15] haqidagi qoida mustahkamlangan. Lekin, bu qonunlarda mazkur vakolatni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan qanday amalga oshirishi lozimligi xususida hech narsa deyilmagan. Binobarin, amaliyotda bu organlar tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha komissiyasi tashkil qilinishidan boshqa mexanizmlardan foydalana olmayaptilar.

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasi 2-qismida “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi va qonun bilan berilgan vakolatlarini tegishli hududda amalga oshirishi”[16] qayd etilgan. Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlardan farqli ravishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritadi hamda ular o‘zlariga berilgan vakolatlarni, jumladan ekologiya sohasiga oid vakolatlarini amalga oshiradi, shuningdek tegishli hududda milliy qadriyatlardan va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy muammolarni davlat organlarining aralashuvisiz mustaqil hal qiladi hamda tabiatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat organlariga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasi 2-qismida “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi va qonun bilan berilgan vakolatlarini tegishli hududda amalga oshirishi” qayd etilgan. Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlardan farqli ravishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritadi hamda ular o‘zlariga berilgan vakolatlarni, jumladan ekologiya sohasiga oid vakolatlarini amalga oshiradi, shuningdek tegishli hududda milliy qadriyatlardan va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy muammolarni davlat organlarining aralashuvisiz mustaqil hal qiladi hamda tabiatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat organlariga ko‘maklashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, atrof muhitni muhofaza qilishda, tabiat boyliklaridan samarali foydalanishda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari jamoat nazoratini amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

organlarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF–5308-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF–5635-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF–5953-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF–6155-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar // www.president.uz

7. Mamasiddiqov M.M. Mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlashda davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – T:, 2018 yil 6 may. B. 25.

8. G.R.Malikova, G.S.Ismailova. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunga sharh. T., O‘zbekiston, 2009.-B. 32.

9. www.Lex.uz

10. G.R.Malikova, G.S.Ismailova. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga sharh. T., O‘zbekiston, 2009.-B. 99.

11. “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi Qonunning 21,22-moddalari // www..Lex.uz

12. www.Lex.uz

13. 2019 yil 7 dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir” nomli ma’ruzasi // www.president.uz

14. Qarang: Prezident Sh.Mirziyoyevning 2016 yil 7 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” nomli ma’ruzasi // www.president.uz

15. O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi qonuni. www.Lex.uz

16. 2013 yildagi O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasi // www.Lex.uz

ОБНОВЛЕННАЯ КОНСТИТУСИЯ – ОСНОВНОЙ ЗАКОН, РЕГУЛИРУЮЩИЙ ОТНОШЕНИЯ ЧЕЛОВЕК – ОБЩЕСТВО – ГОСУДАРСТВО: НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

Кытайбекова М.С.

Магистрант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха Юридического факултета по направлению «Право государственного управления».

Конституция (лат. «*сонституцио*» - устройство, порядок) - Основной Закон государства. Термин «конституция» был известен эще в Древнем Риме (закон, известный как имперская конституция).[1] Он определяет структуру государства, систему правления и управления, их полномочия и порядок образования, избирателную систему, права и свободы граждан, отношения между обществом и личностю, а также судебную систему и отношения между государством и обществом. Конституция Республики Узбекистан является регулятором самых разнообразных сторон общественной жизни страны. Согласно Конституции Республики Узбекистан, в республике не может быт установлена какая-либо идеология, которая главенствовала бы в государстве. Конституцию Республики Узбекистан не случайно называют основным законом, потому что она является основным стержнем и головой вцех нормативно-правовых актов государства. При составлении подзаконного акта, законодател обращается не иначе как к Конституции, а для того, чтобы новая норма права никоим образом не противоречила уже

[1] Игор Кравец, Российский конституционализм: проблемы становления, развития и осуществления, 2005.,

существующему основному закону государства. Конституция занимает особое место среди вцех нормативно-правовых актов и это рол обусловлена, прежде всего, тем, что она устанавливает конституционно-правовые нормы общего характера, которые являются основополагающими для конституционно-правового регулирования, в то время как все другие источники основываются на конституционных нормах и детализирует их позитсии. Более того, конституция характеризуется широтой содержания своих норм, оказывающих воздействие на политическую, экономическую, сотсиалную и духовную сферы жизни общества. Установленные нормы в Конституции, составляют ячейку всей отрасли всего конституционно-правового регулирования общественных отношений, входящих в эё предмет.

30 апреля 2023 год был одним из значимых и исторических дней для всего народа Республики Узбекистан, так как в этот ден был проведён всеобщий референдум по принятию Обновлённой Конституции государства, которая отличалас от ранних протсессов принятия Конституции. Это обуславливается тем, что сначала в два этапа были изучены мнения и предложения нашего народа, и толко после этого был подготовлен проект Конституции, тогда как ранше при принятии Конституции разрабатывался проект, а затем выносился на обсуждение народа. На первом этапе для формирования проекта Конституции наши граждане внесли более 60 тысяч предложений, где приблизително каждый четвертый получил место в проекте. На втором этапе проект Конституции был вынесен на всенародное обсуждение. Через средства массовой информатсии, сети Интернет с проектом ознакомилис 5 миллионов жителей, выдвинуто более 150 тысяч предложений и мнений. Вместе с тем в ходе обсуждений с трудовыми коллективами, вузами, активистами махаллей и представителями интеллигенсии поступило около 10 тысяч дополнителных предложений. В настоящее время изучены международно-правовые акты и опыт более 190 стран, проект прошел 6 видов экспертиз. Всё это свидетелствует о том, что в обновлённой Конституции учтены интересы вцех слоев общества, все общество сплочено вокруг идеи построения Нового Узбекистана, наш Основной Закон в полном смысле слова стал Конституцией народа. Количество статей в Конституции увеличилос с 128 до 155, количество норм - с 275 до 434. То эст текст Основного закона увеличен почти на 65 протсентов и обновлен на основе предложений нашего народа.

В Конституции строго определено, что Узбекистан - суверенное, демократическое, правовое, сотсиалное и светское государство с республиканской формой правления.

Согласно стате 21 Конституции в обновлённой версии, ни на кого не может быт возложена обязанност, не установленная законодателством[1].

В обновляемой Конституции четко и лаконично определено права и обязанности каждого - с одной стороны, государства и системы эго органов, с другой стороны, человека, гражданина, общества. Никто не обязан выполнят какие-либо обязанности, за исключением установленных законом. Данная норма Конституции, будет способствоват далнейшему облегчению жизни простых людей путем реализатсии этих жизненных реалий. Конституция и законы возлагают на нас ряд обязанностей как граждан, людей, родителей, детей или обладателей спесиалной профессии. В частности, соблюдение законов, уважение прав других, уход за родителями и воспитание детей, охрана природной среды и исторических памятников, уплата налогов, защита Родины и другие. Новые нормы Конституции означают, что граждане и юридические литса не обязаны выполнят какие-либо другие обязанности, кроме обязателных, установленных Конституцией и законодателными актами, при этом государственные органы и их должностные литса не вправе возлагат на них дополнителные обязанности, не установленные законодателством. Это, в свою очеред, резко пресекает такие негативные ситуатсии, как возложение руководителем организатсии на сотрудника какого-либо не предусмотренного законом обязателства (например, подметат учителю улисы, проведение врачебной инвентаризатсии с выездом в махаллю).

Список исползованной литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан от 30.04.2023 г., ҳттпс://лех.уз/досс/6445147

2. Игор Кравес, Российский конституционализм: проблемы становления, развития и осуществления, 2005., ҳттпс://картаслов.ру/карта-знаний/Императорские+конституции#:~:тект=Термин%20«конституция»%20происходит%20от%20латинского,решениями%20сената%20важнейшими%20законодателными%20актами

[1] Конституция Республики Узбекистан от 30.04.2023 г., ст.4 ҳттпс://лех.уз/досс/6445147

KONSTITUTSIYADA MALAKALI YURIDIK YORDAM OLISH HUQUQINING KAFOLATLANASHI

Ishmuratov E.I.
Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi o‘qituvchisi,

Zakurllayev A.K.
“Jinoiy huquqiy fanlar” kafedrasi professori, y.f.d. professor.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 moddasiga ko‘ra har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega[1].

Shuning uchun ham 2023 yil 30-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyaga alohida bob sifatida (XXIV bob) “ Advokatura” deb nomlanuvchi bob kiritildi va advokaturaning vazifalari va huquqlarini belgilovchi 141-142 moddalarda o‘z ifodasini topgan[2].

Konstitutsiyaning 141 moddasida jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatishi, Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanishi, Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanishi ko‘rsatib o‘tildi.

Advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanadi. Advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi.(Konstitutsiyaning 142-moddasi)

Jinoyat-protsessual kodeksining[3] 24 moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyalanish huquqiga ega ekanligi, himoyalanish huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o‘ziga qo‘yilgan ayblovdan himoyalanish uchun

[1] [1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn]: rasmiy nashr – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 128 b.

[2] [2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn]: rasmiy nashr – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 128 b.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (2022-yil 1-iyungacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) –T., 2022 y.– 488 b. https://lex.uz/acts/111460.

qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lishiga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish majburiyati bilan ta’minlanishi belgilab qo‘yilgan.

Himoyachi gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir. Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo‘l qo‘yiladi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo‘yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi 2021-yil 18-fevraldagi O‘RQ-675-son[1] Qonuniga muvofiq JPK ning 39-[2] moddasi oltinchi qismiga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan yoki sudlanuvchidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan arizalar, tushuntirishlar yoki ko‘rsatuvlar olish mazkur jinoyat ishi o‘z yurituvida bo‘lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta’minlaydi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan tanlangan himoyachining yigirma to‘rt soat ichida ishga kirishish imkoniyati bo‘lmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tanlagan himoyachi istalgan vaqtda ishga kirishishga haqlidir.

[1] “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, https://lex.uz.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2023 yil 16 iyunida O‘RQ-848-sonli “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi [1]O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun qabul qilinishi munosabati bilan JPK ning 50 moddasiga qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur Qonunga ko‘ra davlat hisobidan yuridik yordam — bu ushbu Qonunda belgilangan tartib-taomillar va shartlarga muvofiq to‘liq yoki qisman davlat hisobidan ko‘rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordam ekanligi belgilab qo‘yildi.

Shuningdek Mazkur Qonun bilan Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatuvchi advokatlar reestri , “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi, “Yuridik yordam” axborot tizimi yaratilishi ko‘zda tutildi.

Qonunning 3-moddasida Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatuvchi advokatlar reestri deganda — davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida ushbu Qonunga muvofiq shartnoma tuzgan advokatlar haqidagi ma’lumotlar bazasi, “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi deganda — kam ta’minlangan deb e’tirof etilgan oilalar va shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi; kam ta’minlangan shaxs deganda — “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi vositasida kam ta’minlangan shaxs deb e’tirof etilgan shaxs; “Yuridik yordam” axborot tizimi deganda— tasodifiy elektron tarzda tanlab olish yo‘li bilan jismoniy shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishga advokatlarni jalb etish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan va davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan maxsus elektron axborot tizimi ekanligi belgilab qo‘yildi.

Qonunning 8 moddasiga ko‘ra Davlat hisobidan yuridik yordam faqat Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatuvchi advokatlar reestriga kiritilgan advokatlar tomonidan ko‘rsatiladi.

Qonunda qaysi jismoniy shaxslar davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi ham belgilab qo‘yildi. Mazkur Qonunning 9 moddasiga ko‘ra birinchisi- kam ta’minlangan shaxslar, agar ular fuqarolik ishlari bo‘yicha da’vogarlar yoki javobgarlar; ma’muriy ishlar bo‘yicha arizachilar; ma’muriy qamoq tarzidagi ma’muriy jazo nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar; jinoyat ishlari bo‘yicha gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, shuningdek mahkumlar bo‘lsalar; ikkinchi- ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslar, ularga “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq psixiatriya yordami ko‘rsatilayotganda; uchinchisi- o‘z huquqlari buzilgan, “Xotin-qizlar va

[1] “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, https://lex.uz.

erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxslar; to‘rtinchisi- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jinoyat ishi bo‘yicha advokat ishtirok etishi shart bo‘lgan taqdirda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bo‘lsa davlat hisobidan yordam ko‘rsatiladi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyachisi sifatida davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘radi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, sud esa ajrim chiqaradi va advokatning ishga kirishish vaqtini belgilaydi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi “Yuridik yordam” axborot tizimiga kiritiladi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokat “Yuridik yordam” axborot tizimi orqali avtomatik ravishda tanlanadi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e’tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak. “Yuridik yordam” axborot tizimi orqali tanlangan hamda tegishli ishda o‘zining ishtirok etishini tasdiqlagan advokat davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarorida yoki sudning ajrimida belgilangan muddatda ishga kirishishi shart. “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan hollarda advokat davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatlarning navbatchilik jadvaliga asosan ishda ishtirok etish uchun jalb qilinishi mumkin. Advokat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra yoki ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif qilingan yoxud JPK 50 moddasining uchinchi qismida belgilangan muddatda himoyachini taklif qilish huquqidan foydalanish niyati bildirilgan hollarda, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Himoyachining ishtiroki shart bo‘lgan holatlar ro‘yxati ham keyingi vaqtda kengaytirildi. Jumladan hozirgi vaqtda JPK ning 51-moddasiga ko‘ra quyidagi ishlar bo‘yicha himoyachining ishtiroki shart qilib belgilab qo‘yilgan. Jumladan, voyaga yetmaganlarning ishi bo‘yicha; soqovlar, karlar, ko‘rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy holati buzilganligi sababli o‘zini o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo‘yicha; sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo‘yicha; jazo

chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo‘yicha;shaxslarning manfaatlari o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo‘lgan ishlar bo‘yicha; davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar bo‘yicha;jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda; tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarda; sud tomonidan dastlabki eshituv o‘tkazilayotgan ishlarda;

o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlar bo‘yicha; shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, shuningdek qamoqda saqlash, uy qamog‘i muddatini uzaytirish masalasi ko‘rib chiqilayotganda;

aybiga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan ishlar bo‘yicha; apellatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalari sudi tomonidan ko‘riladigan ishlarda himoyachi ishtirok etishi shart.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ish yuritishning istalgan paytida himoyachidan voz kechishga haqlidir. Bunday voz kechishga faqat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining tashabbusi bilan va himoyachining ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan advokat taklif etish orqali ta’minlanadigan real imkoniyat mavjud bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi, bunda advokat o‘z himoyasi ostidagi shaxs bilan xoli uchrashganidan keyin himoyadan voz kechilganligini tasdiqlaydi.

Himoyachidan voz kechish jarayoni videoyozuv orqali qayd etilishi shart. Himoyachidan voz kechganlik haqida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek advokat, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan imzolanadigan bayonnoma tuziladi yoxud sud majlisi bayonnomasiga yozib qo‘yiladi. Videoyozuv materiallari bayonnomaga ilova qilinadi. Bunda himoyachining himoya ostidagi shaxs bilan xoli uchrashishi videoyozuv orqali qayd etilmaydi.

Biroq Jinoyat-protsessual kodeksning 51-moddasi birinchi qismining 1 — 4, 8, 8^3, 8^4 va 9-bandlarida nazarda tutilgan hollarda himoyachidan voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi[1].

O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, konstitutsiya va qonunlarimiz har bir shaxsga o‘z huquqlarini davlat tomonidan kafolatli himoya qilishini ta’minlab beradi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (2022-yil 1-iyungacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) –T., 2022 y.– 488 b. https://lex.uz/acts/111460.

FUQAROLARNING QONUN VA SUD OLDIDA TENGLIGINING KONSTITUTSIYAVIY TAMOYILI: TARIXI VA HUQUQIY TARTIBOTI

Inagamdjanova Z.F.
yu.f.d., professor,

Qo‘shayev N.M.
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yu.f.n., dotsen,mayor.

Kishilik jamiyati vujudga kelgan vaqtdan boshlab, insonlar tenglik haqida, davlatchilik munosabatlari kelib chiqqan vaqtdan boshlab esa, hurlik va ozodlik haqida fikrlay boshlaganlar. Tarixiy manbalarning ma’lumot berishicha, insonlar o‘rtasida lozim bo‘lgan tenglik gohida to‘liq, gohida faqat rasman, gohida ayrim tabaqa vakillari o‘rtasida, gohida barcha insonlarga tegishli bo‘lishi g‘oyalari ilgari surilgan.

O‘rta Osiyoga islom dini kirib kelguniga qadar asosiy ko‘pchilik insonlar e’tiqodiga aylangan zardushtiylik, manixeizm va mazdakiylik kabi din va g‘oyaviy oqimlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Qadimgi mutafakkirlar: yunon faylasuflari Protogor va Alkidamant ham barcha insonlarning teng bo‘lib tug‘ilganligi haqida fikr bildirgan. Tarixda farqli ravishda ma’lum bir aholi qatlamining boshqalardan ustun bo‘lishi lozimligi va boshqalarning ularga xizmat qilishi kerakligi to‘g‘risidagi turli qoidalarni asoslashga urinishlar ham bo‘lgan. Hattoki, diniy g‘oyalar va qarashlarda ham buni asoslashga harakatlar qilingan.

Xususan, Cherkov inkvizisiyasi g‘oyalarida, Avreliy Avgustin ta’limotida, nemis huquqshunosi Eyke fon Repkov qarashlarida ham odamlarni ijtimoiy jihatdan keskin farqlanadigan tabaqalashishning qonuniyligini isbotlab berishga harakat qilingan. Falsafa otasi deb e’tirof etilgan Aflotun ham insonlar o‘rtasida notenglik ularning tabiati bilan bog‘liqligini, ya’ni qul va varvarlarning kuchli jismoniy holati va kuchsiz aqli ularning boshqalar bilan teng emasligini ta’kidlagan.

Ijtimoiy tenglik, jamiyatda insonlar imkoniyatlarining tengligini ta’minlash maqsadida qo‘zg‘olonlar va boshqa faol harakatlar amalga oshirilgan. Masalan, bunga Qadimgi Rimdagi Spartak qo‘zg‘oloni, Muqanna qo‘zg‘oloni, Angliyadagi 1381 yilgi Uot Tayler qo‘zg‘oloni, Chexiyadagi Yan Gus harakati va boshqa ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

XVII asrda G‘arbiy Evropadagi inqilobiy harakatlar tenglik g‘oyasini yoqlovchilarning chinakam g‘alabasi deyish mumkin. Shu paytdan boshlab, siyosiy huquqiy ta’limotlar sohasidagi g‘oyalar dastlabki demokratiya qonunchiligini shakllantirishga asos bo‘ladigan individualizm va tenglikning

aniq ideologiyasini vujudga kelishiga olib kelgan. Bular tabiiyki, huquqda o‘z aksini topgan.

Shundan keyingi yirik nazariyotchilar Gugo Grosiy tabiiy huquq tushunchasi orqali tenglikni ta’minlash haqida fikrlar bildirgan bo‘lsa, Tomas Gobbs huquqiy tenglik atamasini keng qo‘llagan. Fransuz mutafakkiri Monteske erkinlik barchaga beriladigan huquq degan g‘oyani ilgari surgan va boshqa ko‘plab o‘sha zamon olimlari tomonidan insonlar o‘rtasida tenglik, birodarlik va erkinlik g‘oyalarining nazariy asoslari ko‘rsatib berilgan.

Nihoyat, fransuzlarning 1789 yil 26 avgustdagi “Inson va fuqarolarning huquqlari deklarasiyasi”da “insonlar huquqda teng va erkin bo‘lib tug‘iladilar va shunday bo‘lib qoladilar”, - degan qoida o‘z ifodasini topishi tufayli tenglik g‘oyasi yozma qonunchilik shakliga ko‘chgan.

Huquq manbalari tarixidagi keyingi hujjatlarda ham tenglik qoidalari bayon qilina boshlangan. Biroq insoniyat tenglikni ta’minlash asnosida ko‘plab inqirozlarni ham boshdan kechirgan. Barcha odamlarning bir-biridan farqli ravishda dunyoga kelishi va rivojlanishi, aql va tafakkurda, iste’dodda ham teng emasligini inobatga olish taqozo etilgan. XVIII asr Fransiya inqilobidan keyin vujudga kelgan Babuvistlar va sosializm utopiyasi tarafdorlari yo‘qlikka olib borsada, tenglikka erishmoq kerak, insonlar mulkida ham teng bo‘lishlari lozimligini, hattoki ularning aqliy darajasini ham tenglashtirishga erishish maqsadga muvofiqligini anglatadigan mafkurani shakllantirishga harakat qilganlar.

Keyinchalik birin-ketin o‘z siyosatini o‘zgartirib, sosializm mafkurasidan voz kechib borayotgan davlatlar va xalqlar tajribasi insonlarni moddiyatda va o‘y-fikrda teng qilib bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Insonlarning tengligi ularga bir xil huquqiy sharoit va imkoniyat, bir xil majburiyatning rasman belgilanganligini anglatishi umume’tirof etildi. Shuning uchun Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 7- moddasida “Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklarasiyaga zid bo‘lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir” deyildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi ikkinchi qismida ham “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e`tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat`i nazar, qonun oldida tengdirlar” deyildi.

Ushbu hujjatlardagi umumiy ma’noda qo‘llanilgan “qonun” so‘zi bilan qamrab olingan huquq oldidagi tenglikni ta’minlash qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilgan qoidalarni barcha shaxslarga birdek qo‘llashni talab etadi.

Tarixda insonlarning fuqaroviy mansubligi jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqei ularni tabaqalashtirishga, birining ikkinchisidan ustun qilib ko‘rsatishga asos qilinganlik hollari yuz berganligi uchun Konstitutsiyamizning 19- moddasida mazmunidagi qoida o‘rnatilib, u insonlarni tengligini e’tirof etishda bu va shunga o‘xshash holatlarga e’tibor berilmasligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qonun oldida tengligi qoidasi odatda, quyidagilarni qamrab oladi:

1) u nafaqat fuqarolarning, balki ular faoliyati natijasi bo‘lgan huquq subyektlari - yuridik shaxslarning (jamiyatlar, xo‘jalik shirkatlari, unitar korxonalar va b.) huquq oldida tengligi;

2) qonun oldida tenglik garchand konstitutsiyaviy g‘oya bo‘lsada, fuqarolarning nafaqat konstitutsiyaviy huquq va majburiyatda tenglikni, balki boshqa subyektiv huquqlarda ham tengligini anglatadi;

3) qonun oldidagi tenglik mas’uliyat va huquq buzilganda bir xil javobgarlikni nazarda tutadi

Konstitutsiyaning fuqarolarning qonun oldida tengligi qoidasi boshqa huquq sohalarida tamoyil darajasida e’tirof etiladi va ushbu qoidani turli huquq sohalarida yanada takomillashtirilgan holda bayon qilinganligini kuzatish mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 272-moddasida Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish barcha fuqarolarning jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, irqi, millati, tili, dini va e’tiqodidan qat’i nazar, qonun oldida va shu ishni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) oldida tengligi asosida ko‘rib chiqiladi” deyilgan.

Bu bilan qonun ishlarni ko‘ruvchi mansabdor shaxslarga hammaga bir xilda munosabatda bo‘lish, noxolislikka yoki bir shaxs manfaati yo‘lida og‘ish holatlariga yo‘l qo‘ymaslikka chaqiradi. Yoki shunday holatni O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksida ham kuzatish mumkin. Mazkur kodeksning 16-moddasida ko‘rsatilishicha, jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlov fuqarolarning, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

Bu kabi qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual kodeksining 8-moddasida, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 9-moddasida, Iqtisodiy prosessual kodeksining 7-moddasida ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 5-moddasida ham fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi,

e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Ter kodeksida yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligi, fuqarolik va tadbirkorlik sohasi qonunchiligida ham insonlarga teng huquq va erkinliklar berilganligi xususida qoidalar belgilangan. Qonun huquqlardan foydalanish imkoniyatini to‘liq yaratish maqsadida, turli sabablarga ko‘ra, o‘z manfaati va huquqlarini lozim darajada himoya qila olmaydigan ba’zi shaxslarga yoki xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq ba’zi kasb egalariga qo‘shimcha imtiyozlarni nazarda tutadi. Buni huquqni ko‘plab sohalarida uchratish mumkin. Misol uchun, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayollarga, voyaga etmaganlarga va oltmish yoshdan oshgan insonlarga nisbatan tayinlanmaydi. Ishga qabul qilinayotganda homilador ayollarga nisbatan dastlabki sinov belgilanmaydi va hokazo. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va xalqaro hujjatlarda belgilangan fuqarolarning qonun oldida tengligi qoidasini buzish huquqiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi, hattoki fuqarolarning qonun oldida tengligiga daxl qilish jinoyat sifatida ta’qib qilinadi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141- moddasi “Fuqarolarning teng huquqliligini buzish” deb nomlangan bo‘lib, unga ko‘ra, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘lishi belgilangan.

TIJORAT SIRINING MUHOFAZASI HAQIDAGI KONSTITUTSIYAVIY QOIDALARNING JINOYAT PROTSESSIDA TA’MINLANISHI XUSUSIDA

Qo‘shayev N.M.
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yu.f.n., dotsen,mayor,

Nurullayeva A.N.
O‘zbekiston Respublikasi *Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.*

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida “Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi” deyilgan. Tadbirkorlik erkinligining kafolatlaridan biri – tadbirkorlarning huquqlarini e’tirof etish, ta’milash va kafolatlash hisoblanadi. Tadbirkorlarning

huquqlaridan biri ularning tijorat siriga egaligi va uning muhofazasini talab qilishdir.

Tijorat siri - milliy qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlardan bevosita biznes manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lganidir. Tijorat sirining javobgarlik choralari bilan muhofazalanganlik darajasi boshqa sirlarga qaraganda, nihoyatda past, eng oxirgi o‘rinda turadi. Tijorat siriga tajovuz qilish boshqa huquqbuzarliklar yoki jinoyatlar bilan birga sodir etilmaganda, tijorat sirini necha marta, ishtirokchilar soni, ijtimoiy xavfliligi va boshqa javobgarlikni og‘irlashtiruvchi belgilar bilan sodir etilishidan qat’i nazar, faqat ma’muriy javobgarlikdan ortig‘ini keltirib chiqarmaydi. Buni Jinoyat kodeksining 191-moddasi (Qonunga xilof ravishda axborot to‘plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish)ni qo‘llab chiqarilgan sud qarorlarining tahlili ham tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda tijorat sirini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 11 sentyabrdagi “Tijorat siri to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, tijorat siri fuqarolik qonunchiligida kengroq talqinga ega ya’ni Fuqarolik kodeksida esa, u “xizmat va tijorat siri” deb ataladi (FK 98-modda). Ilmiy muomalada ish siri, ishlab chiqarish siri, sanoat siri, nou -xau* degan nomlar bilan ataladi.

Aslida shartli ravishda tijorat siri deb atalgan uchinchi shaxslarning erkin foydalanishidan ixotalangan axborotlar fan-texnika, texnologiya, raqamli dasturlar yaratish, sanoat ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiyot sohalariga hamda tijorat qimmatiga ega bo‘lgan boshqa sohalarga taalluqli bo‘ladi. “Tijorat siri to‘g‘risida”gi qonunda qanday ma’lumotlar tijorat siri bo‘lishi mumkinligi aniq belgilanmagan, bu tabiiy, aksincha tijorat siri hisoblanmaydigan – ochiq ma’lumotlar ro‘yxati keltirilgan.

Qonunning 5-moddasida tijorat sirini tashkil etishi mumkin bo‘lmagan ma’lumotlar sifatida: davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mol-mulkka doir huquqlar va bu huquqlar bo‘yicha bitimlar to‘g‘risidagi; yuridik shaxsning ta’sis hujjatlaridagi, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo‘jaliklari haqidagi yozuvlar tegishli davlat reestrlariga kiritilganligi faktini tasdiqlaydigan hujjatlardagi; tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjatlardagi; davlat unitar korxonasining, davlat muassasasining mol-mulki tarkibi to‘g‘risidagi va ular tomonidan tegishli budjet mablag‘laridan foydalanilishi haqidagi; atrof muhitning ifloslanishi, yong‘in xavfsizligining holati, sanitariya-epidemiologik va radiasiyaviy vaziyat, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi hamda ishlab chiqarish ob’ektlarining xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini, har bir fuqaroning va butun aholining xavfsizligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa

*Nou-xau - tijorat siriga taalluqli, aqliy faoliyatning natijasi sifatida ishlab chiqilgan patentlanmagan ma’lumotlar.

omillar haqidagi; xodimlarning soni va tarkibi, mehnatga haq to‘lash tizimi va mehnat sharoitlari to‘g‘risidagi, shu jumladan mehnatni muhofaza qilish, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklari ko‘rsatkichlari, shuningdek bo‘sh ish o‘rinlari bor-yo‘qligi haqidagi; ish beruvchilarning ish haqi to‘lash va ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorligi to‘g‘risidagi; qonunchilik buzilishlari va bunday buzilishlarni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish faktlari to‘g‘risidagi; davlat mulki ob’ektlarini xususiylashtirish bo‘yicha tanlovlarning yoki kimoshdi savdolarining shartlari haqidagi; notijorat tashkilotlar daromadlarining miqdorlari va tuzilishi, ushbu tashkilotlarning mol-mulki miqdorlari va tarkibi haqidagi, ularning xarajatlari, bu tashkilotlar xodimlarining (a’zolarining) soni va mehnatiga haq to‘lash, notijorat tashkilotning faoliyatida fuqarolarning tekin mehnatidan foydalanilishi to‘g‘risidagi; yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz ish yuritish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning ro‘yxati haqidagi; davlat statistika hisoboti sifatida taqdim etilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan.

Tijorat sirlari - konfidensial ma’lumotga bo‘lgan intellektual mulk huquqidir. Ular sotilishi yoki lisenziya shartnomasi bo‘yicha boshqalarga foydalanish uchun taqdim qilinishi mumkin bo‘lganligi[1] uchun o‘zining mulkdori uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Tijorat sirlari muhofazaning muhim shartlaridan biri ulardan boshqalarning foydalanishini cheklaydigan huquqiy, tashkiliy, texnik va boshqa chora-tadbirlar ko‘rilganligi hisoblanadi. Bu choralar marakkab bo‘lib ma’lumotni tijorat siri deb e’lon qilinish, tijorat siri rejimining o‘rnatilishi, uning mehnat munosabatida, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat organlari bilan munosabatlari sirlarni oshkor qilmaslik choralarini ko‘rish shartlari asosida tashkil etishini qamrab oladi. Buning murakkabligi va uni muhofazasini tashqil qilish uchun huquqiy, korporativ va iqtisodiy bilimlar talab qilinishi uchun insonlar ehtiyoj sezilgan barcha hollarda ham tijorat sirlarini rasmiylashtiravermaydilar[2]. Boshqa tomondan, yurtimizda tadbirkorlik sohasida hali tijorat siriga arzigulik olamshumul darajadagi intellektual faoliyat natijalari ko‘p bo‘lmaganligidan tijorat siriga arzigulik ma’lumotlar bo‘lsada, ularni muhofaza qilishning zamonaviy huquqiy vositalaridan foydalanish ommalashmagan. Biroq, bu tijorat sirini muhofaza qilishning jinoyat-prosessual jihatlarini o‘rganish zarurati yo‘qligini anglatmaydi.

Tijorat sirining huquqiy maqomi va undan jinoyat ishlarini yuritishda foydalanish borasida MDHga a’zo mamlakatlarning aksariyatida umumiy o‘xshashlik bor: tijorat sirining muhofazasi qadim tarixga ega emas; sobiq

[1] https://www.wipo.int/ru/web/trade-secrets/

[2] Biroq iqtisodiy qudratli davlatlarda tijorat siriga ega bo‘lish biznesning asosiy shartlariga aylanib ulgurgan. Masalan, 2012 yilgi ma’mumotlarga ko‘ra, Buyuk Britaniya 70% firmalar o‘zining tijorat siriga ega bo‘lgan // Economic Impact of Trade Secret Theft: A framework for companies to safeguard trade secrets and mitigate potential threats// veb manzil: https://www.innovation-asset.com/hubfs/blog-files/CREATe.org-PwC-Trade-Secret-Theft-FINAL-Feb-2014_01.pdf

sho‘roning ilk davrlarida “xalqdan o‘g‘rilangan pullarning sezgir joyi” deb qoralangan[1] va sovetlar davri uni inkor qilib kelgan; Ittifoq tarqab ketganidan keyin mustaqil davlat milliy qonunchiligi alohida qonunlar yoki normalar ko‘rinishi tijorat siri muhofazasi haqida qoidalar ishlab chiqilgan va bu qoidalarning tergov organlari vakolatini cheklaydiganlari amalda tan olinmasdan kelinmoqda yoki tergov idoralariga ham tijorat siri bilan hech qanday to‘siqlarsiz tanishish vakolati berilgan. Masalan, Armaniston JPKning 172-moddasida[2], Ozarbayjon JPK 201-moddasida[3], Moldova JPK 214-moddasida[4], RF Tijorat siri to‘g‘risidagi qonunining 6-moddasida[5], Tojikiston Respublikasi Tijorat siri to‘g‘risidagi qonuniing 6-madasida[6] tergov idoralarning tijroat sirini olishga yuridik vakolati borligi belgilangan. Ayrim davlatlar, Qirg‘iziston Tijorat siri to‘g‘risidagi qonuniing 11-modasida[7] tergov idoralari tomonidan so‘roq orqali, prokurorning sanksiya asosida tintuv qilish yo‘li bilan olinishi mumkinligi belgilangan. Belorus Respublikasida Tijorat siri to‘g‘risidagi qonunida[8] hattoki, tijorat sirini tashkil qiladigan ma’lumotlar tezkor-qiduv organlariga, soliq, bojxona organlariga ham beriganligi aniq bayon qilingan.

Jinoyat ishlarini yuritishda sir maqomida bo‘lmagan ma’lumotlardan farqli ravishda tijorat sirini mulkdorning roziligisiz jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan keyin olish mumkinligi RF va Ozarbayjon JPKlarida nazarda tutilgan.[9]

Biroq, tijorat sirini muhofaza qilish uchun ayrim xorijiy davlatlarda qonunchilik asoslari etarlicha ishlab chiqilgan. Masalan, tijorat sirini mulkdorining roziligisiz oshkor qilish Yaponiyada yirik jarimalarga sabab bo‘lsa, Germanida tijorat sirini buzish insofsiz raqobat deb topilib, uning uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.[10] AQShda tijorat sirini mulkdorning huquqlarini buzish o‘n yilga ozodlikdan mahrum qilishga yoki fuqaro tomonidan sodir etilganda yarim million dollargacha, yuridik shaxs tomonidan sodir etilgan besh million dollargacha jarima belgilanishi, agar xorijiy fuqaro yoki tashkilot manfaati uchun sodir etilsa, bundan ham og‘irroq jazolar nazarda tutilgan ekan[11].

---

[1] Смолкова И.В. Проблемы охраняемой законом тайны в уголовном процессе. Дисс д.ю.н., -Иркутск, 1998, 135-с

[2] http://www.parliament.am/legislation.php?ID=1450&lang=rus&sel=show#2

[3] https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420280#pos=3139;-20

[4] https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=3540;159

[5] https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_48699/9ed7907861c7502654eb143d9161d25f42da6490/

[6] https://andoz.tj/docs/zakoni

[7] https://cbd.minjust.gov.kg/38/edition/900262/ru

[8] https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=H11300016

[9] Юқорида бан қилинган тегишли манзиллар

[10] Сорокина А.Э. Охрана коммерческой тайны по законодателству зарубежных стран (на примере Великобритании и Германии) Вестник Московского университета МВД России, № 1. -Москва, 2013.

[11] https://www.cprspb.ru/bibl/opv/30.html

O‘zbekistonda jinoyat ishlarini yuritish jarayonida tijorat siridan foydalanish to‘g‘risidagi normalar MDHga a’zo mamlakatlar qonunchiligidagi qoidalardan uncha farq qilmaydi. “Tijorat siri to‘g‘risida”gi qonunining 15-moddasida dalat organlari tomonidan tijorat sirini uning mulkdoridan yoki konfidentdan* olishning ikki sharti ko‘rsatilgan: (1) ularning roziligi bilan va (2) ularning erkiga qarshi ravishda. Ushbu norma talabiga ko‘ra, davlat organi o‘z vakolati doirasida tijorat sirini taqdim qilishni talab qilsa, bu talab tijorat sirining mulkdori yoki konfident tomonidan tekinga ta’minlanishi lozim. Tijorat sirini taqdim etish tijorat sirining mulkdori yoki konfident tomonidan rad etilgan taqdirda, davlat organi uni sud tartibida talab qilib olishga haqli.

Biroq, “Tijorat siri to‘g‘risida”gi qonunning 15-moddasi ikkinchi va uchinchi qismidagi mazkur normalar davlat organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha vakolatlari oldida o‘zining yuridik ta’siriga ega emas. Boisi JPKning 36-moddasining to‘rtinchi qismida tergovchining, 38^1-moddasining to‘rtinchi qismida surishtiruvchining qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiyligi, 157-158-moddalarga ko‘ra, jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning olib qo‘yilishi, tintuv yo‘li bilan olinishi mumkinligi, 201-moddasiga ko‘ra, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning talabiga ko‘ra o‘z ixtiyorlaridagi hujjatlarni yoki o‘zlaridagi mavjud ma’lumotlar asosida maxsus tuzilgan hujjatlarni taqdim qilishlari shartligi belgilangan. Prokuratura to‘g‘risidagi qonunning 6-moddasida prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma’lumotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi o‘z vakolatlari doirasida qo‘yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiyligi belgilangan. Shunga o‘xshash vakolatlarining ichki ishlar organlariga berilganligi “Ichki ishlar organlari to‘g‘rsida”gi qonunning 10-moddasida, davlat xavfsizlik xizmatiga “Davlat xavfsizligi xizmati to‘g‘rsida”gi qonunning 22-moddasida, milliy gvardiya harbiy xizmatchisiga (xodimiga) berilgan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida belgilanganligini ko‘rish mumkin. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida jinoyat ishini yurituvchi boshqa organlarda ham shunday vakolat mavjud. Masalan, “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasiga ko‘ra, bojxona organlari o‘z vakolatlari doirasida moliya, bank va boshqa tashkilotlardan, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslardan eksport-import operasiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan axborot va hujjatlarni hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni olish huquqiga ega. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda va jinoyat-prosessual qonun hujjatlarida

* Konfident - tijorat sirini uning mulkdori bilan tuzilgan shartnoma asosida egalik qilishga va foydalanishga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

tijorat sirini olish, uni ko‘zdan kechirish, undan foydalanish bo‘yicha ushbu organlar faoliyatini cheklovchi qoida mavjud emas. Jinoyat ishlarini yuritishda, maqsadidan qat’iy nazar mulkdori tomonidan muhofaza qilish chora-tadbirlari ko‘rilgan tijorat sirini olish va uni o‘rganishda ushbu normalar qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, har qanday ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar esa, o‘zlaridagi ma’lumotlarni tergov organlari va sudlarga berishga majburdirlar. Jumladan, JPKning 118-moddasining birinchi qismida Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan aniqlanayotgan holatlar o‘zida davlat sirlarini yoki kasb sirini yoxud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoxud boshqa shaxslar hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettirganligini bahona qilib, guvoh va jabrlanuvchi ko‘rsatuv berishdan bosh tortishga haqli emas deyilgan.

Bunday qoidalarning mavjudligi tijorat sirlarining muhofazasi etarlicha ta’minlanmasligiga va buning oqibatida iqtisodiyot uchun muhim bo‘lgan tijorat sirlarini yaratilmasligi va ularning muhofazalanganilgiga ishonchning yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Nazarimizda tijorat sirlarining tashkil qiluvchi ma’lumotlarni olish va ulardan isbot qilish maqsadida foydalanish uchun suddan rozilik olish tartibi joriy qilinishi maqsadga muvofiq.

ADVOKATURA FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI VA KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Xayriyev N.I.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori (DSc),

Achilov A.T.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
y.f.b.f.d. (PhD).

Advokatura bugungi kunda ushbu institutni tasavvur qilgan shaklda kelib chiqishi Rim Respublikasi va qarama-qarshi adolat paydo bo‘lgan davrga tegishli bo‘lishi kerak. Taniqli rus advokatura tadqiqotchisi E.Vaskovskiy advokat jamoat arbobi ekanligini ta’kidlagan. Ushbu kasb jamoat lavozimi, advokatura esa jamoat huquqi institutidir. "Advocatus" atamasi lotincha "advocatio" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yordam so‘rash, sud himoyasi degan ma’noni anglatadi[1].

Advokatura davlatning huquqiy tizimining muhim elementidir. Ko‘pgina mamlakatlarda u mahalliy Adliya organlari yurisdiksiyasida bo‘lgan va qonun bilan tartibga solinadigan mustaqil professional hamjamiyatdir. Advokatlar

[1] “Организация Адвокатуры” Е.В.Васковский 1895 год.

sudda va boshqa yuridik organlarda mijozlarning vakili. Ular o‘z huquqlari va manfaatlarini himoya qiladilar, jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatadilar. Advokatura inson huquqlarini huquqiy himoya qilish va korrupsiyaga qarshi kurashda ham muhim rol o‘ynaydi. Advokatlar bir qator inson huquqlari tashkilotlariga a’zo bo‘lishlari va mansabdor shaxslar va boshqa shaxslarning noqonuniy harakatlariga qarshi kurashishlari mumkin.

So‘nggi yillarda yurtimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashning samarali institutlaridan biri sifatida advokatura roli va ahamiyatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Advokatura to‘g‘risida" gi Qonuniga muvofiq (1997 - yil 9-yanvarda kuchga kirgan) Advokatura-bu advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar va xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ixtiyoriy, professional birlashmalarini o‘z ichiga olgan yuridik institut[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi "O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"[2]gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 27 maydagi "O‘zbekiston Respublikasi advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"[3] gi qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 31 dekabrdagi "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida"[4]gi qonuni bilan "Advokatura to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni Advokatlar palatasiga bag‘ishlangan normalar bilan to‘ldirildi. Ular palataning huquqiy maqomini, unga a’zolik, huquq va majburiyatlarini, ushbu tuzilma faoliyatining asosiy vazifalarini belgilaydi.

Agar mamlakatimizda advokatura tizimining rivojlanishining 30 yillik tarixiga nazar tashlasak, u asta-sekin davlat tomonidan advokatlarning o‘ziga, ya’ni o‘zini-o‘zi boshqarish organiga o‘tkazilayotganini payqashimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahririda advokaturaga bag‘ishlangan alohida bob bilan to‘ldirildi. Asosiy qonunga ko‘ra, advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillariga asoslanadi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi. (XXIV-bob Advokatura, 141-modda). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 142-moddasiga asosan, advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni, https://lex.uz/docs/58372

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni, https://lex.uz/docs/1347567

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori, https://lex.uz/docs/1359517

[4] O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrdagi “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni, https://lex.uz/docs/1420409

oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanadi. Advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Aholiga yuridik yordam ko‘rsatish va advokatlik faoliyatiga ko‘maklashish imkoniyatini ta’minlash maqsadida davlat hokimiyati organlari advokatura mustaqilligining kafolatlarini ta’minlaydilar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda O‘zbekiston fuqarolariga yuridik yordam ko‘rsatuvchi advokatlar faoliyatini bepul moliyalashtiradi, shuningdek zarur hollarda advokatlik tuzilmalariga xizmat xonalari va aloqa vositalarini ajratadi. Shunday qilib, qonundan kelib chiqadiki, advokatura - bu jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishni professional asosda ta’minlashga chaqirilgan huquqiy institut.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi qarori bilan advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi[1]. Nizomga muvofiq advokatlik faoliyatini litsenziyalash quyidagi:

fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish;

ma’muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish ixtisosliklari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Har bir advokat tegishli mutaxassislikni mustaqil ravishda tanlash va u bo‘yicha malaka imtihonini topshirish huquqiga ega. Ariza beruvchi litsenziya olish uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak: O‘zbekiston fuqarosi bo‘lish, oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lish, yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lish, advokatlik tuzilmasida kamida uch oy stajirovka o‘tash, malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirish.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasining 19-maqsadi advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirishni nazarda tutadi[2]. Xususan:

Advokatura institutini to‘laqonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish.

Advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Advokat faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori https://lex.uz/docs/-6143599

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni https://lex.uz/ru/docs/-5841063

Advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish.

Bepul huquqiy yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanishni ta’minlash.

Rivojlangan demokratik jamiyatlarda advokatura yuqori darajadagi avtonomiyaga ega bo‘lib, advokatlarga hukumat va boshqa nufuzli kuchlardan mustaqil ravishda harakat qilish imkoniyatini beradi. Bu fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi va adolatni ta’minlaydi. Advokatlar mijozlar manfaati uchun ishlaydi. Shu bilan birga, ular tegishli kasbiy axloqiy darajaga ega bo‘lishlari va sud va jamiyat oldidagi majburiyatlariga rioya qilishlari kerak.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, advokatura - bu aholiga yuridik xizmat ko‘rsatadigan advokatlarning professional jamoasi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquq va erkinliklari, shu jumladan sudda huquq va erkinliklarni himoya qilish huquqi mustahkamlangan. Advokatlar sudda fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda yordam beradigan mustaqil mutaxassislardir. Asosiy qonun yuridik yordam olish huquqini kafolatlaydi va uning xizmatlarini olish tartibini belgilaydi. Shunday qilib, advokatura va Konstitutsiya fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlash va sudda ularning manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq.

Advokatura instituti, advokatlarning mustaqilligi va ularning o‘zini o‘zi boshqarish organi masalalari ijobiy o‘zgarishlarga muhtoj. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasida ham bu borada samarali takliflar mavjud.

Bizning fikrimizcha, kutilayotgan o‘zgarishlar sanoatning huquqiy bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi va uni keyingi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://lex.uz/docs/6445147

2. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni, https://lex.uz/docs/58372

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi "O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi farmoni, https://lex.uz/docs/1347567

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 27-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi qarori, https://lex.uz/docs/1359517

5. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrdagi "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonuni, https://lex.uz/docs/1420409

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Advokat faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori https://lex.uz/docs/6143601

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O‘zbekistonning 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida"gi farmoni https://lex.uz/ru/docs/5841077

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY TA’MINLANISHI

Ismoilov A.
O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Ma’muriy-xo‘jalik xizmati davlat muassasasi bosh konsulti.

O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblanadi va mamlakatda uni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining subyektlari deganda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan yoki xususiy tadbirkor sifatida ro‘yxatga olinib, faoliyat yuritishga ruxsat etilgan, o‘ziga xos mulkka ega bo‘lgan, o‘z nomidan mulkiy va mulkiy bo‘lmagan huquqlarga hamda majburiyatlarga ega bo‘la oladigan, sudda mustaqil da’vogar yoki javobgar bo‘la oladigan jismoniy va yuridik shaxslar tushuniladi.[1]

Korporatsiyalar singari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar (MCHJ) ham tashkiliy tuzilmadir. Korporatsiyadan farqli o‘laroq, MCHJ uni boshqarish va faoliyat yuritish bo‘yicha katta moslashuvchanlikka ega. Ya’ni, agar siz kapitalni jalb qilmoqchi bo‘lsangiz, bir nechta tavsiya etilgan ko‘rsatmalarga amal qilish oqilona bo‘ladi. MCHJning boshqaruv hujjati operatsion shartnoma deb ataladi. Ko‘pgina shtatlar MCHJdan operatsion shartnomaga ega bo‘lishini talab qiladi va har qanday holatda, MCHJning ikki yoki undan ortiq a’zosi bo‘lsa, operatsion shartnoma juda tavsiya etiladi. Bu egalari o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etishi mumkin. Operatsion shartnomasi MCHJ a’zolari o‘rtasida shaxsiy hujjatdir.[2]

MCHJning har bir a’zosi operatsion shartnomani imzolashi kerak, chunki u mohiyatan a’zolar o‘rtasidagi shartnomani ifodalaydi. MCHJda qarorlar a’zolar, bir yoki bir nechta menejerlar yoki boshqaruv kengashi tomonidan qabul qilinishi mumkin, ular korporatsiya direktorlar kengashi kabi ishlaydi. Agar MCHJ a’zolari tomonidan boshqarilsa, ular odatda ovoz berishadi. Yig‘ilishlar muntazam ravishda o‘tkaziladi va qaror qabul qilish jarayonida

hamma ishtirok etadi. Bir nuqtada, bu tizim noqulay bo‘lishi mumkin, ayniqsa a’zolar ko‘p bo‘lsa.

Agar qarorlar menejer yoki boshqaruv kengashiga topshirilsa, MCHJ a’zolari odatda qaror qabul qilishning barcha jarayonlarida qatnashmaydi. Menejerlar kompaniya’ni boshqaradi va a’zolar ko‘proq passiv rol o‘ynaydi. Ushbu tizim odatda a’zolar investor bo‘lgan va kompaniya faoliyatida faol rol o‘ynashni istamaganda qo‘llaniladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyatining subyektlari bo‘lishlari mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni[3] va boshqa qonunlarda belgilanganidek, tadbirkorlik faoliyatining subyektlaridan biri fuqarolardir. Fuqarolar tadbirkorlik faoliyatining subyekti hisoblanishi O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida[4] belgilab berilgan. Ushbu qonunning 5-moddasida ko‘rsatib o‘tilganidek, yuridik shaxs tashkil etmay ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar kichik va o‘rta tadbirkorlik subyekti bo‘lib hisoblanadilar.[5]

Tadbirkorlik faoliyati subyektlaridan biri shaxslar guruhining tadbirkorligidir. Birgalikdagi tadbirkorlik esa yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan fuqarolarning uyushmasidir. Bunday tadbirkorlik: er-xotinning oilaviy tadbirkorligi, yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo‘jaligi, oddiy shirkat shaklida olib boriladigan faoliyatdir. Bu xildagi tadbirkorlik shakllarini amalga oshirish faqat fuqarolarning mulki asosida iqtisodiy faoliyat yurgizishga asoslaydi. Birgalikdagi tadbirkorlikning afzallik tomoni shundaki, unga birlashgan fuqarolar faoliyati faqat bir maqsadga, xususan foyda olishni jamoa asosida tashkil etishga qaratilgan bo‘ladi.

Garchi ta’sis hujjatlarida kollegial ijroiya organi a’zolari o‘rtasida vakolatlar taqsimlanganligi va hatto kollegial ijroiya organi a’zolaridan birining mustaqil faoliyat yuritishiga imkon beradigan alohida vakolatlarga ega bo‘lgan bosh direktor etib tayinlanishi kamdan-kam uchraydi. Biroq, ikkinchisi to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki kollegial ijroiya organi kollektiv qarorlar qabul qilishni nazarda tutadi. Kollektiv ijroiya organining a’zolaridan biri, hammasi yoki bir nechtasi kompaniya nomidan ish yuritish va uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish huquqiga ega bo‘lib, jamiyatni imzolagan shaxsning vakolatiga ega. Ijroiya organi funksiyalarini yakka tartibda yoki birgalikda bajaruvchi jismoniy shaxs jamiyat xodimi bo‘lishi kerak. Agar ular xorijda rezident bo‘lsalar,

ishlash uchun ruxsatnoma olishlari va kamida vaqti-vaqti bilan O‘zbekistonda bo‘lib, kundalik mehnat vazifalarini bajarishlari nazarda tutilgan.

Kollektiv ijroiya organi. Agar kompaniyaning ijro etuvchi organi kollegial organ bo‘lsa, uni “boshqaruv”, “direktorlik” yoki “direktorlar kengashi” yoki boshqa tarzda atash mumkin. Ijroiya organi kollegial bo‘lsa, u barcha qarorlarni ovoz berish yo‘li bilan qabul qiladi. Garchi ta’sis hujjatlarida kollegial ijroiya organi a’zolari o‘rtasida vakolatlar taqsimlanganligi va hatto kollegial ijroiya organi a’zolaridan birining mustaqil faoliyat yuritishiga imkon beradigan alohida vakolatlarga ega bo‘lgan bosh direktor etib tayinlanishi kamdan-kam uchraydi.[6]

Ijrochi direktor jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish olib borish, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalash, bitimlar tuzish va shartnomalarni imzolash, jamiyat nomidan vakillik qilish uchun ishonchnomalar berish, korxona xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, xodimlarga nisbatan rag‘batlantirish choralarini qo‘llash va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash vakolatlariga ega.

Nazorat organi. Nazorat organi vositachi organ bo‘lib, u kundalik operatsiyalarni va kompaniyaning ijro etuvchi boshqaruvini amalga oshirmaydi, lekin muayyan dasturlarni, bitimlar toifalarini aniqlash kabi yuqori darajadagi ma’lum boshqaruv funksiyalarini bajaradi, ijro etuvchi organni va ichki boshqaruvni tayinlaydi. Bunday funksiyalarning barchasi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatlariga yaqinroqdir. Nazorat organining a’zolari hech qachon ijroiya organining vakolatlariga ega emaslar va kompaniya’ni uchinchi shaxslar oldida vakillik qilmaydilar. Agar kuzatuv kengashi a’zolari chet el fuqarolari bo‘lsa, ularda ishlash uchun ruxsatnoma bo‘lishi shart emas.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni liberallashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy qilishda asosiy kuch hisoblanadi. O‘zbekistonda esa, xususiy tadbirkorlik rivojiga katta e’tibor qaratilganligi va bu jarayon iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qilayotganligini yangi O‘zbekiston misolida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T.: “O‘zbekiston”. 1997-yil. 567-bet.
2. I.A.Karimov “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”. T.: “O‘zbekiston”. 1995-yil. 241-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/-2006789

4. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi 69-II-sonli Qonuni // https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/uz/uz/uz085uz.pdf
5. O‘zbekiston Respublikasining Korxonalar, Ijara, Mulkchilik to‘g‘risidagi qonunlari. T.: “Adolat”. 1997-yil.
6. N.T.O‘rmonov, A.R.Ismailov “Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot”. T.: “Iqtisodiyot”. 2019- yil. 254-bet.

MULKKA EGALIK QILISH HUQUQINING DAVLAT TOMONIDAN KAFOLATLANISHI

Shadmanov E.Sh.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori;

Irgashev D.I.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti.

Konstitutsiya O‘zbekiston bugungi kunda o‘zi tanlagan taraqqiyot yo‘lini jadal rivojlantirish maqsadida dadil qadamlar tashlamoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-huquqiy islohotlarning amaliy ifodasi o‘laroq, Asosiy qonunimiz bo‘lgan konstitutsiyamizning yangi tahrirda qabul qilindi. Bu shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy islohotlar erishilayotgan taraqqiyot natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun juda muhimdir, ya’ni, adolatli jamiyat va ijtimoiy-huquqiy davlat qurish yo‘lidagi ulkan qadamlardir.

Konstitutsiya har bir taraqqiy etgan davlatning negizi bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjati – mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi. Fuqarolarning barcha orzu-niyatlari, kafolatlangan huquqlari va hayotdagi oliy maqsadlari Konstitutsiyada to‘liq o‘zining ifodasini topmog‘i lozimdir.

Yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyamizga qadar ham fuqarolarimizning asosiy huquq va erkinliklari va mustaqil demokratik davlatimizning mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilib kelgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida inson qadrini ulug‘laydigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli islohotlar, bosqichma-bosqich yangilanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu borada boy milliy va xalqaro tajribalar to‘plandi.

Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar odamlarimizning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon jamiki sohalarda ustuvor ekanligini davlatimizning qat’iy qoidasiga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri barcha narsadan ulug‘dir” deb atalayotgan ezgu g‘oyasini hamda bunday ulkan ishlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan

“Inson-jamiyat-davlat” degan yondashuvni yangi Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangilangan Konstitutsiyada mulkchilik munosabatlarining shakllanishi bilan bog‘liq masalalarning ochiqlanishi, xususan mulkka egalik qilish huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi va aniq belgilab qo‘yilishi xalqimizning o‘z mulkini erkin tasarruf etishdagi duch kelayotgan mavjud muammolarning qonuniy bartaraf etilishiga zamin yaratdi. Jumladan, mulkdor o‘z mulki ishonchli himoya qilishini bilsa va his qilsagina investitsiya kiritadi, tadbirkor biznesini rivojlantirishga bor imkoniyatini safarbar qiladi. Chunki, mol mulkka egalik qilish fuqarolarning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari moddiy va ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi.

Lekin yaqin tariximizda ayrim mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning uy-joylarni buzish holatlari xalqimiz tilida “snos” deb nom oldi. Mazkur holatlar inson huquqlari va erkinliklarini qo‘pol ravishda buzib, O‘zbekistonning xalqaro imijiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bunday muammolarning mavjudligi natijasida “Huquq ustuvorligi” xalqaro reytingining “Hukumat sud qarorisiz va adolatli tovon pulisiz mulkni musodara qilmasligi” subindikatorida (2021 yil hisobotida) O‘zbekiston maksimal 1 balldan 0.25 ball bilan 139 ta mamlakat ichida 138-o‘rinni egallagan.1

Shuning uchun qonunchilikda huquqlardan foydalanish amaliyotidagi xususiy mulkni himoya qilish bilan bog‘liq mazkur muammoli vaziyatlar va bo‘shliqlarni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish va qonunchilikni takomillashtirish lozim hisoblanmoqda. Sababi, mulkiy-huquqiy munosabatlarni hamda mulkdorlar manfaatlarini samarali himoya qilish mexanizmlarini yaratmay turib, huquqiy demokratik jamiyat va barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan faoliyatni amalga oshirish mushkuldir.

Fuqarolarning mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etish mumkin emasligi bo‘yicha konstitutsiyaviy norma mulkchilik munosabatlarini huquqiy jihatdan kafolatlash, xususiy mulkning daxlsizligini kuchaytirishga katta turtki bo‘ldi.

Shak-shubhasiz, yangilangan Konstitutsiyada fuqarolarning mulki bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, aholining uy-joyga bo‘lgan huquqlari daxlsizligini kafolatlash bilan bog‘liq normalarning mustahkamlanishi ham xalqimiz, ham hayot zarurati hisoblanadi.

[1] https://kun.uz/news/2021/12/11/ozbekiston-mulk-daxlsizligi-taminlanmagan-davlatlar-ro‘yxatiga-kiritildi.

Xususiy mulk daxlsizligi hamda undan sud qarorisiz mahrum etilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi normalar Fransiya, Germaniya, Daniya, Indoneziya, Gruziya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham aks ettirilgan.

Xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, uni turli tajovuzlardan himoya qilish, xususiy mulkni saqlash va ko‘paytirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, mulkdorlarni qo‘llab-quvvatlashning eng muhim mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatimizda xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan yoki yaratgan o‘z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta’minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy negizlaridan biri hisoblanadi.

Bundan ko‘rinadiki, mulkdor qonun doirasida o‘z mulkiga o‘zi egalik qiladi, o‘zi foydalanadi va o‘zi tasarruf etadi. Bu mulkdorning konstitutsiyaviy huquqidir. Unga tashqi tomondan tazyiq o‘tkazishga, uning ichki ishlariga aralashishga, mulkini olib qo‘yishga hech kim haqli emas.

Bu esa tadbirkorlarga o‘z biznesi uchun bexavotir investitsiya kiritish, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko‘paytirish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyasining 65-moddasi mamlakatimizning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini belgilab beruvchi muhim jihat hisoblanib, mulkning daxlsizligi – xususiy mulkda ham, ommaviy mulkda ham mulkdorning o‘ziga tegishli mulkni faqat o‘zining manfaatlari yo‘lida hech qanday tashqi ta’sirlarsiz foydalanishi mumkinligini bildiradi.

MUROJAAT QILISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Yuldashov S.O.
Jamoat xavfsizligi universiteti“Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari” kafedrasi professori v.v.b., yu.f.b.f.d.

Bizga ma’lumki, davlatchilik tarixida har qanday mamlakatni boshqarish va idora etish, mustahkam va intizomli davlat barpo etishda murojaatlar institutiga bo‘lgan munosabat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, insonparvar demokratik huquqiy davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etishni ko‘zlagan har qanday davlat murojaatlar institutiga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni rivojlantirmasdan va takomillashtirmasdan o‘z maqsadiga erisha olmaydi.

Aslida, murojaatlar institutining shakllanishi insoniyat paydo bo‘lishi yoki ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaladi. Davlatchilik rivojining tarixiy

tajribasi jarayonida bu institut doirasi yanada kengayib, rivojlanib va takomillashib borgan.

Dunyo davlatchiligi tarixiga nazar tashlasak, murojaat qilish huquqi konstitutsiyaviy qoida sifatida ilk bor, 1789 yilda AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan birinchi o‘zgartirishda “...xalqning shikoyatlarini qanoatlantirish uchun iltimosnoma bilan hukumatga murojaat etish huquqini cheklovchi bironta ham qonun qabul qilishi mumkin emas”, deb belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu bilan “Konstitutsiya odamlarga xizmat qilishi kerak, odamlar konstitutsiyaga emas”[1;283], degan ulug‘vor g‘oya ustuvor ekanligi amalga mustahkamlandi.

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, kishilik jamiyatining turli bosqichlarida faoliyat ko‘rsatgan davlatlarda murojaatlar instituti o‘ziga xos ko‘rinishda rivojlanib va takomillashib borgan bo‘lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmiga qadar ijtimoiy munosabatlarning bu sohaga oid qoidalari ustunligi barcha davlatlar tomonidan umumiy holda tan olinmagan.

Ikkinchi jahon urushi natijalari xalqaro darajada inson huquq va erkinliklari, shu jumladan, murojaat qilish huquqini ta’minlash bo‘yicha burilish nuqtasi bo‘ldi. Xususan, 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi”ning 8-moddasida ilk bor, “Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega” [2;243], degan qoida belgilab qo‘yildi.

Bu esa, o‘z navbatida, mazkur xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan dunyo mamlakatlari zimmasiga inson huquqlarini muhofaza etish borasida muhim majburiyatlar yuklanishiga asos bo‘ldi.

Ushbu deklarasiya asosida 1966 yil 19 dekabrda qabul qilinib, 1976 yilda amal qila boshlagan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” va mazkur Paktga fakultativ protokolda belgilab qo‘yilgan [3;8] talablar inson huquq va erkinliklarining tarkibiy qismi bo‘lgan murojaat qilish huquqini nosudlov yoki ommaviy hokimiyat organlari tomonidan huquqiy muhofaza etishni ta’minlashning alohida institutini paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Xususan, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ning II qismi 2-moddasi 3-bandida ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar zimmasiga “huquqiy muhofaza talab qilayotgan har qanday shaxs uchun ana shunday muhofaza huquqi nufuzli sud, ma’muriy hokimiyat yoki boshqa qonunchilik hokimiyati tomonidan yo davlatning huquqiy tizimida nazarda tutilgan boshqa har qanday nufuzli organ tomonidan belgilab qo‘yilishini ta’minlash va sud orqali himoya imkoniyatlarini ko‘paytirish” [3;34-35] kabi majburiyat yuklatilgan.

Shu bois, mazkur xalqaro hujjatlar talablari asosida qabul qilingan O‘zbekiston SSRning 1978 yildagi Konstitutsiyasida ariza, taklif va shikoyat berish huquqi konstitutsiyaviy xususiyatga ega bo‘ldi. Chunki, ushbu Asosiy qonunning 35, 47 va 56-moddalarida murojaat qilish huquqining konstitutsiyaviy qoidalari mustahkamlab qo‘yildi [4;12-16]. Ammo, bu huquqiy normalarda davlat organlariga va sud organlariga murojaat qilish huquqi umumiy tartibda belgilangan.

Konstitutsiyada ko‘rsatilgan mazkur huquqiy normalarni amaliyotga tatbiq etish borasida maxsus qonunlar qabul qilinmagan. Biroq davlat organlariga murojaat qilish huquqiga doir ijtimoiy munosabatlar SSSR Oliy Soveti Prezidumining 1980 yil 4 martdagi “Grajdanlarning takliflari, ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida”gi 1662-X–son Farmoni [5;173-178] hamda huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish kafolati SSSR Oliy Sudi Plenumining 1986 yil 18 apreldagi “Grajdanlarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibini buzganlik va tanqid uchun ta’qib etganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi haqida qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 9-son Qarori[6;114-118] bilan tartibga solingan.

Shuni ta’kidlash joizki, mustabid tuzum konstitutsiyasida «inson huquqlarining cheklanganlik mohiyati siyosiy sohada: davlat va shaxs o‘rtasidagi siyosiy-huquqiy munosabatlarda davlat huquqi yuqori bo‘lib, inson huquqlari ikkinchi darajaga qo‘yilgan. Bu esa, siyosiy huquqlar cheklanganligini bildiradi. Davlat jamiyat hayotidagi muhim masalalarni o‘zi hal qilgan. Insonning davlat boshqaruvi ishlarida ishtirok etish, o‘z fikrini bildirishga e’tibor berilsa-da, asosiy hal qiluvchi hukmni davlat chiqargan. Buning natijasi xalqning o‘rni va rolini kamsitishga olib keldi. Konstitutsiya yagona hukmron partiyaning siyosiy dasturlari va mafkurasiga bo‘ysundirilgan edi» [7;30-31].

Mamlakatimiz mustaqilligimizning o‘tgan davri davomida davlatimiz tomonidan murojaat qilish huquqiga doir xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan barcha qoidalari ustunligi tan olinib, ushbu sohaga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari yaratildi va uni amalga oshirish mexanizmi shakllantirildi.

Xususan, murojaat qilish huquqi siyosiy huquq sifatida O‘zbekiston Respublikasining dastlabki Konstitutsiyasi II bo‘limining “Siyosiy huquqlar” deb nomlangan VIII bobini 35-moddasida alohida huquqiy norma sifatida belgilab qo‘yildi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 44-moddasida mazkur huquqni ta’minlash kafolati [8] nazarda tutilgan.

Ushbu Konstitutsiyaviy normalarni amaliyotga tatbiq etish borasida bir qancha maxsus qanunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 6 maydagi “Fuqarolarning murojaatlari

to‘g‘risida”gi 1064-XII son Qonuni [9], 1995 yil 30 avgustdagi “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi 108-I son Qonuni [10], 2002 yil 13 dekabrdagi “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirda qabul qilingan 446-II son Qonuni [11], 2014 yil 3 dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-378-son Qonuni [12], ular bilan ishlash tartibini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 martdagi «Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi 73-son Qarori shular jumlasidandir.

Biroq mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, jahon bozori kon’yukturasining o‘zgaruvchan tabiati, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi globallashuv jarayonini yanada tezlashtirdi.

Bu holat, barcha sohalar qatorida:

1) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va murojaatlar bilan ishlash tartibini belgilaydigan *qonunchilikni tubdan isloh* qilish;

2) bu huquq kafolatini ta’minlaydigan institusional tizimning mukammal mexanizmini ishlab chiqishni *ijtimoiy* va *ob’ektiv* zaruriyatga aylantirdi.

Xususan, O‘zbekiston hukumati portalida 2016 yil 25 sentyabrda joriy etilgan Bosh vazirning virtual qabulxonasi o‘sha yili 23 dekabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga aylantirilishi, 2017 yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, deb e’lon qilinishi munosabati bilan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni va shu hujjat asosida ishlab chiqilgan Davlat dasturida belgilab berilgan ustuvor vazifalar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining yangi bosqichini boshlab berdi.

Mazkur Dasturda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, yangi tahrirdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (11.09.2017 y.), mazkur qonun bilan ishlash tartibini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 7-son va 2018 yil 7 maydagi “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 341-son Qarorlari [13], Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi (25.01.2018 y.), «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni (08.01.2018

y.) va ushbu sohaga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ushbu huquqiy hujjatlar orasida “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu qonunda ommaviy hokimiyat organlariga murojaat qilishning mazmun-mohiyati aniq va ravshan qilib belgilab qo‘yilgan. Xususan, Qonunning 1-moddasida davlat organlari, tashkilotlar, ular mansabdor shaxslariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 40-moddasida **“**Har kim bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart”, degan qoida belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan murojaat qilish huquqi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida nazarda tutilgan **“**Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli etkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega”, degan norma bilan kafolatlab qo‘yilgan.

Muxtasar aytganda, murojaat qilish huquqi konstitutsiyaviy qoida sifatida belgilangan va fundamental qonun normalari bilan kafolatlangani holda, murojaat qilish huquqini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Teodor Ruzvelt. Liderlik qonunlari. –T.: «Sharq-ziyo zakovat», 2021.

2. Saidov A.X.Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. –T.: «Konsauditinform-Nashr» nashriyoti, 2006.

3. Inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro bill. –T.: «Adolat», 1992.
4. O‘zbekiston SSRning Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 1990.
5. SSSR Oliy Sovetining VEDOMOSTLARI.–Moskva: SSSR Oliy Soveti nashri, 1980 yil 12 mart, №11(2033).
6. Sbornik postanovleniy Plenuma Verxovnogo suda SSSR (1924-1986). –Moskva: Izdatelstvo “Izvestiya Sovetov narodnых deputatov SSSR”,1987.
7. Husanov O., Karimova O., Azizov H., To‘ychieva H., Karimov Z. Inson huquqlari. –T.: «Sharq», 1997.
8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 yil, № 5, 140-modda.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 yil, № 9, 183-modda.
11. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. –T.: «Adolat», 2010.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. –T.: “Adolat”, 2015.
13. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.

KONSTITUTSIYA - KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA MUSTAHKAM HUQUQIY ASOS

Nurmuhammedova G.B.
Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti, yu.f.f.d.(PhD), dotsent,

Kamilov M.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent, polpolkovnik.

Mazkur maqolada Konstitutsiyaning davlatning asosiy qonuni sifatida korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi huquqiy asoslarni shakllantirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Huquq ustuvorligi, oshkoralik, javobgarlik tamoyillari hamda ularning antikorrupsion siyosat yaratishdagi ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, huquq ustuvorligi, oshkoralik, javobgarlik, korrupsiyaga qarshi siyosat.

Korrupsiya muammosi hozirgi zamon jamiyatining eng jiddiy muammolaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari bilan jamiyat rivojiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Korrupsiyaning avj olishi fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi, boshqaruv

sifatini yomonlashtirishi va iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtirishi kabi salbiy holatlarga olib keladi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda nafaqat davlat, balki fuqarolik jamiyatining ishtiroki ham katta ahamiyat kasb etadi.

BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Konvensiyasining 8-moddasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida har bir ishtirokchi davlat, o‘z huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq, o‘zining ommaviy mansabdor shaxslarida boshqa fazilatlar qatori, poklik, halollik va mas’uliyatni rag‘batlantirish hamda ommaviy funksiyalarni to‘g‘ri, vijdonan va tegishli darajada bajarish uchun har bir ishtirokchi davlat o‘z institusional va huquqiy tizimlari doirasida axloq kodekslari yoki standartlarni qo‘llash”[1] larini tavsiya etgan.

Fuqarolik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Uning asosiy vakillari bo‘lgan jurnalistlar, jamoat tashkilotlari faollari, huquq himoyachilari va jamoat arboblari bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular korrupsiya faktlarini aniqlash va oshkor qilishda, ijtimoiy surishtiruvlar o‘tkazish orqali aholini xabardor qilishda muhim o‘rin tutishadi.

Bunday faoliyat ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, korrupsiya holatlari haqidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish, davlat organlarini mas’ullikka chaqirish va jamoatchilikning bu muammoga munosabatini shakllantirish bilan bog‘liq. Shuningdek, fuqarolik jamiyati tashkilotlari korrupsiyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirishga yordam beradigan takliflar ishlab chiqishda ham faol qatnashadi.

Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri bu – jamiyat va davlat hayotida qonun ustuvorligining so‘zsiz tan olinishi, jamiyat a’zolari o‘rtasida yuzaga keladigan barcha munosabatlarda qonunga itoat va hurmat ruhining mavjudligidir.

Oliy huquqiy kuchga ega bo‘lgan Konstitutsiya bevosita universal huquqiy hujjat sifatida davlat hududida vujudga keladigan huquqiy mezon va kerakli xulq-atvor namunasi, shuningdek subyektiv huquq va majburiyatlarning asosiy manbai hisoblanadi[30]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida “... davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”[2] deb belgilab qo‘yilgan.

Xususan, Konstitutsiyaning 36-moddasi “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi”[2] mazmuni bila to‘ldirilgan holda, jamoatchilik nazorati mexanizminiamalga oshirilishini Asosiy qonun darajasida mustahkamlandi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 36-moddasi ikkinchi qismi “Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi»[2] degan mazmundagi norma bilan to‘ldirildi. Bu esa, davlat hokimiyati organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish borasdagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qildi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining asosiy qonun darajasida mustahkamlanishi alohida diqqatga sazovor. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 13-bobi 69-75-moddalari fuqarolik jamiyati institutlari, ular faoliyatining kafolatlariga bag‘ishlangan. Mazkur o‘zgarishlarning ahamiyati nimada ko‘rinadi?

Birinchidan, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ilk bor “fuqarolik jamiyati institutlari” iborasi kiritildi (XIII bob).

Ikkinchidan, “jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari qatorida qayd etildi (69-modda).

Uchinchidan, Vazirlar Mahkamasiga fuqarolik jamiyati institutlarini, qo‘llab-quvvatlash choralarini amalga oshirish vazifasi yuklatildi (115-modda).

To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlariga O‘zbekiston Respublikasi budjetining shakllantirilishi va ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolati berildi (148-modda)”[2].

Alohida ta’kidlash joizki, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirishning Asosiy qonun darajasida mustahkamlanishi fuqarolik jamiyatining yanada rivojlanishiga, jamoatchilik nazorati subyektlari, jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, OAVning rolini oshirishga, ularnig faoliyatida yanada samaradorlikka erishishga huquqiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Konstitutsiya tamoyillari va antikorrupsion siyosat.

1. Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Konstitutsiyaning ustuvorligi (masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi).

- Konstitutsiyaviy normalarning korrupsiyaga qarshi kurashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri.

2. Oshkoralik tamoyili. Davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikning ahamiyati. Davlat budjeti va resurslarining oshkoraligini ta’minlashda jamoatchilik nazoratining o‘rni.

3. Javobgarlik va hisobdorlik tamoyili. Davlat organlarining xalq oldidagi mas’uliyati (masalan, Konstitutsiyaning 2-moddasi). Mansabdor shaxslarning o‘z faoliyati bo‘yicha hisob berish mexanizmi.

Konstitutsiyaviy normalarning korrupsiyaga qarshi kurashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri: Konstitutsiya davlat organlari va mansabdor shaxslarning

faoliyati uchun aniq chegaralar belgilaydi. Bu, o‘z navbatida, korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Konstitutsiyadagi norma va qoidalar qonunchilik bazasi uchun asos bo‘lib, korrupsiyaga qarshi choralarni aniqlash va ularni amalga oshirishdagi asosiy yo‘nalishlarni belgilaydi. Shu bilan birga, huquqbuzarliklar yuzasidan yuridik javobgarlik choralarini belgilashda ham Konstitutsiya asosiy manba hisoblanadi.

Davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikning ahamiyati: Demokratik jamiyatda davlat organlari faoliyatining oshkoraligi davlat boshqaruvining samaradorligini ta’minlashning muhim tamoyilidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etishi va uning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi ko‘rsatilgan. Bu esa faoliyatni oshkora tashkil etish zaruratini anglatadi.

Ochiqlik tamoyiliga amal qilish, shuningdek, davlat organlarining fuqarolarga o‘z qarorlari va harakatlari haqida ma’lumot berish majburiyatini anglatadi. Bu fuqarolarning davlat boshqaruvi jarayonida ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi, korrupsiya xavfini esa minimal darajaga tushiradi.

Davlat budjeti va resurslarining oshkoraligini ta’minlashda jamoatchilik nazoratining o‘rni. Davlat moliyaviy resurslarining boshqarilishida oshkoralikning ta’minlanishi korrupsiyaga qarshi samarali kurashning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Davlat budjeti va xarajatlari haqidagi ma’lumotlarning ommaviy ravishda e’lon qilinishi fuqarolarning ushbu jarayonlarni nazorat qilishini ta’minlaydi. Budjet oshkoraligi korrupsiya xavfini kamaytirish bilan bir qatorda, davlat resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Davlat organlarining xalq oldidagi mas’uliyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida davlatning xalq oldidagi mas’uliyati alohida ta’kidlangan. Bu tamoyil davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini jamoatchilik nazoratida ushlash imkonini yaratadi. Davlat faoliyatida javobgarlikning ta’minlanishi davlat xizmatlarining sifatini oshirish va korrupsiya holatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Mansabdor shaxslarning o‘z faoliyati bo‘yicha hisob berish mexanizmi. Hisobdorlik tamoyili davlat organlari va mansabdor shaxslarning o‘z faoliyati haqida axborot berish majburiyatini nazarda tutadi. Bu tamoyil korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki hisobdorlik mansabdor shaxslar tomonidan qonunbuzarliklarning oldini olishga va jamoatchilik oldida o‘z mas’uliyatini anglashga xizmat qiladi.

Mansabdor shaxslarning hisobot berish mexanizmining samaradorligi oshkoralikni ta’minlash va huquqbuzarliklarning barvaqt aniqlanishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishonchini oshirishga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Konstitutsiyaning antikorrupsion siyosat institutlarini shakllantirishdagi roli. Konstitutsiyaviy asosda tashkil qilingan mustaqil antikorrupsion organlar

korrupsiyaga qarshi kurash tizimining poydevori hisoblanadi. Bunday organlarning mustaqilligi qonun ustuvorligi tamoyilini ta’minlashga, shuningdek, siyosiy ta’sirlardan xoli bo‘lishga imkon beradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq, Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega va barcha qonunlar shu asosda qabul qilinishi lozim. Bu tamoyil mustaqil antikorrupsion organlarning tuzilishi va faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlash uchun zamin yaratadi.

Mustaqil antikorrupsion organlar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Korrupsiya holatlarini aniqlash va tahlil qilish;
- Davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish;
- Jamoatchilikni korrupsiyaga qarshi kurashga jalb qilish;
- Korrupsiyaga qarshi strategiya va dasturlarni ishlab chiqish.

O‘zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi kabi organlar tashkil etilgan bo‘lib, ularning faoliyati Konstitutsiyada belgilangan huquq ustuvorligi va oshkoralik tamoyillariga asoslanadi. Bunday organlarning kuchaytirilishi korrupsiyaga qarshi choralarni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Konstitutsiyaning 13 va 14-moddalariga muvofiq, insonning hayoti, erkinligi va sha’ni oliy qadriyat hisoblanadi. Bu tamoyillar sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi. Sud hokimiyati adolatni qaror toptirishdagi markaziy institut sifatida mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiya holatlarini ko‘rib chiqish va ularni qonuniy javobgarlikka tortish imkonini beradi.

Sudlar korrupsiyaga oid ishlarni ko‘rib chiqishda adolat prinsipiga amal qilishlari lozim. Buning uchun sudyalarning kasbiy malakasini oshirish, ularning mustaqilligini ta’minlash va ularning faoliyatini nazorat qilish mexanizmlari takomillashtirilishi zarur.

Sud hokimiyatining mustaqilligi nafaqat huquqbuzarliklarni aniqlashda, balki adolatli jazo tayinlashda ham katta ahamiyatga ega. Bu sud hokimiyatiga fuqarolar va jamoatchilikning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15 va 19-moddalariga muvofiq, inson huquqlari va erkinliklari Konstitutsiya bilan kafolatlanadi. Bu, shu jumladan, mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklar, suiiste’molliklar va noqonuniy harakatlarga qarshi huquqiy asos yaratadi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar Konstitutsiya va qonunlarga amal qilishi shart, ularning har qanday huquqbuzarligi uchun qonuniy javobgarlik belgilangan.

Konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar.

Mustaqil antikorrupsion organlarni mustahkamlash: Antikorrupsion organlarning Konstitutsiyadagi huquqiy maqomini yanada aniq belgilash zarur. Ularning mustaqilligi va faoliyatining samaradorligini ta’minlash uchun moliyaviy va huquqiy kafolatlar kuchaytirilishi kerak.

Sud tizimini takomillashtirish: Sudyalarning korrupsiyaga aloqador ishlarni ko‘rib chiqishdagi mustaqilligini ta’minlash va ularni o‘qitish dasturlarini yanada rivojlantirish lozim. Sud hokimiyatining mansabdor shaxslarga nisbatan xolisona qaror qabul qilishini kafolatlash zarur.

Qonunchilikda aniqlik va mantiqiy uyg‘unlik: Korrupsiyaga qarshi qonunlar Konstitutsiya bilan uyg‘unlashgan holda ishlab chiqilishi lozim. Huquqiy me’yorlarning ziddiyatlarini bartaraf etish, qonunlarni amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish: Fuqarolik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi ishtiroki va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Davlat organlarining faoliyati haqidagi ma’lumotlarning oshkoraligini ta’minlash, jamoatchilikka ochiq hisobot berish amaliyoti kengaytirilishi kerak.

Xalqaro standartlarni joriy qilish: BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda belgilangan prinsiplar milliy qonunchilikka integrasiya qilinishi lozim. Bu O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga va investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratishga yordam beradi.

Ta’lim va targ‘ibotni kuchaytirish:Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun ta’lim va targ‘ibot dasturlarini kuchaytirish lozim. Bunda Konstitutsiyaviy qonunlar va qoidalarning ahamiyatini tushuntirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish Konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishga yordam beradi, korrupsiyaga qarshi samarali tizim yaratish va O‘zbekistonning demokratik taraqqiyotini ta’minlashda muhim qadam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qarang: Конвенсия Организасии Объединенных Насий против коррупсии — Конвенсии и соглашения — Декларации, конвенсии, соглашения и другие правовые материалы
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
3. Qarang: Конституционное право России / отв. ред. А.Н. Кокотов, М.И. Кукишкин – М., 2003. – С. 23.

BOLALAR VA YOSHLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA KONSTITUTSIYAVIY QOIDALARNING AHAMIYATI

Ashurova N.O‘.

Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dosenti, yu.f.f.d.(PhD), dosent.

Voyaga etmaganlar, jamiyatdagi eng zaif toifalardan biri bo‘lib, ular alohida huquqiy himoyaga muhtojdirlar. Ayniqsa, jinoiy adolat tizimida ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar salbiy oqibatlarini kamaytirish va ularning ijtimoiy reabilitasiyasini ta’minlash huquqiy davlatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Internet manbalariga ko‘ra, dunyo miqyosida taxminan 250 million bola maktabga borish o‘rniga ishlamoqda[1]. Shulardan 5,7 million bola majburiy mehnatga jalb qilingan[2], 70 milliondan ortiq bola maktabga qatnamaydi, 1,8 million bola fohishalik yoki pornografiyaga jalb qilingan va 1,2 million bola odam savdosi qurboni bo‘ladi[3]. Bu raqamlar bolalarning huquqlarini himoya qilish va ularning farovonligini ta’minlash qanchalik muhim ekanligini aniq ko‘rsatadi.

Shuningdek, mamlakatimiz aholisining 36,6%ni (12,157,063 nafar) bolalar (0–18 yosh) tashkil qiladi, shundan 51,7% (6,279,778) o‘g‘il bolalar, 48,3% (5,877,285) qiz bolalardir. Bolalarning yosh bo‘yicha taqsimotiga ko‘ra, ularning 10,7% 0–4 yoshda, 9,6% 5–9 yoshda, 8,6% 10–14 yoshda va 7,7% 15–18 yosh oralig‘ida[4].

Bolalar va yoshlar har qanday jamiyatning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan guruhlardan biridir. Ular jamiyatning kelajakka qaratilgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotining asosiy kafolatchilari hisoblanadi. Shu sababli, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash davlat va jamiyat oldidagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[5]da bolalar va yoshlarning huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilishga oid kafolatlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, Konstitutsiyaning 76-80-moddalarida oilaviy munosabatlardan tortib, yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari bilan bog‘liq qoidalar aniq belgilab berilgan.

Oila, bolalar va yoshlarga oid konstitutsiyaviy normalar nafaqat ularning huquqlarini kafolatlaydi, balki ularning har tomonlama kamol topishi va rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish vazifasini ham o‘z zimmasiga oladi. Mazkur normalarning ijrosi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va yosh avlodning hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishga qaratilgan.

Ushbu maqolada Konstitutsiyaning 76-80-moddalari tahlili orqali bolalar va yoshlarning huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy kafolatlarning mazmuni, ahamiyati va ularning ijtimoiy-huquqiy mohiyati atroflicha yoritib beriladi. Shuningdek, ushbu qoidalarning amaliy hayotdagi tatbiqi, uni yanada takomillashtirish yo‘llari va xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

Har bir moddaning mazmuni alohida ijtimoiy qiymatga ega bo‘lib, bolalarning rivojlanishiga ko‘maklashish, yoshlarning intellektual va axloqiy kamolotiga erishish va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar bilan boyitilgan. Ushbu maqola ushbu qonunchilik asoslarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyatini yanada kengroq yoritishga qaratilgan.

Davlatning oilaning rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratishga bo‘lgan majburiyati Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan. Bu vazifa davlat tomonidan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Ijtimoiy kafolatlar: Oilaviy farovonlikni ta’minlash uchun ijtimoiy himoya tizimini yaratish va rivojlantirish.
- Iqtisodiy yordam: Oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar, jumladan, kam ta’minlangan va ko‘p bolali oilalar uchun subsidiyalar ajratish.
- Huquqiy himoya: Oilaning huquqiy kafolatlarini ta’minlash, jumladan, nikoh va oila munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlarni takomillashtirish.

Oilaviy munosabatlarning muhofazasi va mustahkamlanishi jamiyatda barqarorlikni ta’minlaydi, yangi avlodning axloqiy, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu boisdan, Konstitutsiyaning mazkur moddasi nafaqat milliy qonunchilik uchun muhim ahamiyat kasb etadi, balki jahon hamjamiyatida inson huquqlari va gender tenglik masalalariga oid xalqaro standartlarga muvofiqdir.

Ushbu normalarning amalga oshirilishi nafaqat davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalish, balki jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-huquqiy muvozanatni ta’minlovchi muhim shartdir. Oilaning mustahkamligi, uning huquqiy va ijtimoiy muhofazasi — nafaqat davlat, balki har bir fuqaro oldidagi ma’naviy va huquqiy mas’uliyatdir.

Ota-onalar va davlat bolalarning rivojlanishi uchun mas’ullikni birgalikda amalga oshiradigan asosiy subyektlar sifatida Konstitutsiyada belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida ota-onalarning farzandlar tarbiyasi va rivojlanishiga nisbatan majburiyatlari hamda davlatning bolalarga qaratilgan maxsus himoya siyosati aniq ifodalangan.

Ota-onalar farzandlarini:

- Tarbiyalash: Axloqiy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya berish;
- Ta’lim olishi: Bolalarga zarur bilim va ko‘nikmalarni olishga sharoit yaratish;
- To‘laqonli rivojlanishi: Jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanish uchun muhitni ta’minlash bilan bog‘liq mas’uliyatlarni o‘z zimmasiga oladilar.

Bu majburiyatlar farzandlar kamolotining asosiy poydevori bo‘lib, ularning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishiga imkon yaratadi. Ota-onalarning bu vazifalari bolalarning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda faol a’zo bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaning 77-moddasida davlatning quyidagi asosiy vazifalarini belgilaydi:

1. Etim bolalarni muhofaza qilish: Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun boquvchi shaxs rolini o‘z zimmasiga olish va ularning hayot sifatiga kafolat berish.
2. Bolalarning ta’lim olishini ta’minlash: Barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlari yaratish.
3. Rivojlanish uchun sharoit yaratish: Bolalarning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamoloti uchun ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy muhitni shakllantirish.
4. Xayriya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash: Jamiyatning etim bolalarga yordam ko‘rsatishdagi ishtirokiga ko‘maklashish.

Mazkur qoidalar davlatning ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiqligini namoyon qiladi. Etim va qaramog‘siz bolalarning manfaatlarini ta’minlash davlatning bevosita majburiyati sifatida qayd etilgan. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda tenglik va imkoniyatlarni kafolatlashda muhim o‘rin tutadi.

Har bir bolaning ijtimoiy himoyasi, ta’limi va rivojlanishi nafaqat ota-onalarning, balki davlat va jamiyatning umumiy vazifasidir. Ushbu majburiyatlarning samarali ijrosi bolalarning manfaatlarini himoya qilishda ishonchli huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida bolalarning qonuniy manfaatlari va teng huquqliligi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Bu modda nafaqat bolalarning asosiy huquqlari kafolatini belgilaydi, balki davlat tomonidan ularning manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning aniq yo‘nalishlarini ham ko‘rsatib beradi.

78-moddaga ko‘ra, bolalarning qonuniy manfaatlari quyidagi yo‘nalishlarda ta’minlanadi:

1. Jismoniy rivojlanish: Davlat bolalarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish uchun tibbiy xizmatlar, sport inshootlari va faoliyatlardan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

2. Aqliy rivojlanish: Bolalarning ta’lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratiladi, zamonaviy ta’lim standartlari va bilim berish tizimlari rivojlantiriladi.

3. Madaniy rivojlanish: Davlat bolalarning madaniy meros bilan tanishishi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratadi.

Umuman olganda, 78-modda bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda davlatning asosiy vazifalarini belgilab beradi. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan alohida muhofaza qilinar ekan, bu qoidalar jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va kelajak avlodning farovonligi uchun muhim huquqiy kafolat hisoblanadi. Davlatning bolalar manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan siyosati jamiyatda tenglik, adolat va barqaror rivojlanishni ta’minlaydigan muhim asosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish uchun mustahkam huquqiy asosni yaratadi. 76-80-moddalarda aks etgan qoidalar oilaning mustahkamlanishi, bolalar manfaatlarining ta’minlanishi va yosh avlodning rivojlanishi uchun muhim huquqiy va ijtimoiy kafolatlarni ta’minlaydi.

Bolalarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish mexanizmlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar.

birinchidan, bolalar va yoshlarni himoya qilishga qaratilgan qonunlarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.

ikkinchidan, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish.

uchinchidan, yoshlarning rivojlanishi uchun innovasion ta’lim va ijtimoiy dasturlarni yaratish.

to‘rtinchidan, etim va qarovsiz bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish uchun xayriya va davlat-hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish.

Bu qoidalarning amalga oshirilishi jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi va kelajak avlodning manfaatlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YUNISEF: Nizoli hududlarda maktabga bora olmayotgan 24 million bola bor (kun.uz)

2. Dunyoning eng qashshoq mamlakatlarida har 5 boladan 1 tasi majburiy mehnat bilan shug‘ullanadi - Xalq so‘zi (xs.uz)

3. Ismoilov I., Ziyodullaev M., Isroilova N., Azimova F. Voyaga etmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarning oldini olish: O‘quv amaliy qo‘llanma / Mas’ul muharrir I.Ismoilov. – T., 2011. – B-10.

4. Yodgorov X., O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosari, Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati raisi / Voyaga etmagan bolalar nega jinoyat sodir etmoqda? kun.uz / Jamiyat: 02.03.2018.

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son

BOLA SAVDOSI – JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDID

Yuldashev Sh.N.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi
katta o‘qituvchisi.

“Ayni vaqtda hozirgi murakkab zamon tinch osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta’minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda”.

Sh.M.Mirziyoyev

Bugungi kunda insoniyat kelajagi xavfsizligini ta’minlash, bola savdosiga qarshi kurashish yuzasidan xalqaro hamda davlatlar miqyosidagi milliy huquqiy ta’sir tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Statistika ma’lumotlar dunyoda bu borada ahvol og‘ir ekanligidan dalolat beradi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 21 million kishi majburiy mehnat qurboni hisoblanadi, ularning 30 foizga yaqini bolalardir. Ushbu statistik ma’lumotlar jinsiy ekspluatatsiyaga uchragan bolalarni ham o‘z ichiga olgan[1].

Bola savdosi, bolani tilanchilik qilish, noqonuniy yuklarni o‘tkazishda, terroristik faoliyatni amalga oshirishda foydalanish uchun shuningdek, porno biznes, fohishalik maqsadlarida, jangovar harakatlarda ishtirok etishligi uchun yoki tana a’zolarini transplantatsiya qilishda donor sifatida foydalanishda sotib olinmoqda. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, chet elga sotilgan bola 10 000 dollar yoki undan ko‘proq narxlanadi[2].

Shuningdek, bola savdosi bilan bog‘liq aniq raqamlarni belgilashning imkoniyati past bo‘lsada, aniqlangan odam savdosi qurbonlarining salmog‘ida bolalar 28 foizni, xotin-qizlar 71 foizni tashkil etishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisobotlarida qayd etilgan[3].

Yurtimizda bola huquqlarini ta’minlanish masalasi, mustaqillikning ilk yillaridan tartibga solina boshlandi. Mamlakatimizda bola huquqlarni himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda

[1] https://news.liga.net/society/news/torgovlya-detmi-oon-obnarodovala-shokiruyuschie-tsifry
[2] Смирнов Г.К., Щепилов О.О. Защита жертв торговли людми в уголовном судопроизводстве. Санкт Петербург 2009 г .С.7.https://russia.iom.int/sites/g/ files/tmzbdl1036-/files/ documents/criminal_ru.pdf
[3] Almost a third of trafficking victims are children: UNODC report. https://www.unodc.org/unodc/ru/frontpage/2016/ December/almost-a-third-of-trafficking-victims-are-children_-unodc-report.html

davlatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni ro‘yobga chiqarish maqsadida amaliy ishlar jadal olib borilmoqda. Bola kamolotiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Bola huquqlarini himoya qilish borasida qabul qilinayotgan hujjatlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Jumladan, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”1 deb nomlangan bobining 14-maqsadida, “Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilashda, bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash” vazifasini bajarish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030 Strategiyasi”ning 24-maqsadida, “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish borasida, jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish”2 vazifasi belgilandi. Strategiyaning 87-maqsadi esa, “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish”ni nazarda tutadi.

O‘zbekiston dunyoning eng rivojlangan, huquqiy – demokratik davlatlari safida o‘rin olishiga intilarkan, yutuqlarni o‘zlashtirish, olamshumul muvaffaqiyatlarga erishish yo‘lidan borar ekan, insoniyat uchun qabih, razil, jirkanch muammolarga ham “to‘qnashmoqda”. Ayniqsa, XX asrning oxirlarida yuzaga ko‘tarilgan ayol huquqlarini buzilishi, ayollar va bolalar savdosi, fohishabozlik muammolari shular jumlasidandir.

Tarixga nazar solsak, buyuk vatandoshimiz Abul-Fath Muhammad ibn Mahmud ibn Husayn ibn Ahmad Majduddin al-Ustrushaniy tomonidan XIII asrda “Bola Kodeksi”ni yaratgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning “Jomi’ ahkom as-sig‘or”[3] asari, jahon tarixidagi bolalar huquqi bo‘yicha dastlabki mukammal huquqiy manba hisoblanadi. Unda yetim bolalar huquqlari, bolalik va otalikni belgilash, bola tarbiyasi, bolaning ota-onasi oldidagi burch va majburiyatlar kabi masalalar atroflicha tahlil qilinib, islom huquqi asosida qanday yechimlar mavjudligi ko‘rsatib berilgan.

Bola huquqlari masalasiga tamal toshi aynan tarixiy Movarounnahr – bugungi O‘zbekistonda qo‘yilgani hamda islom huquqshunosligida G‘arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil avval bolalar huquqining to‘la-to‘kis o‘rganilib, hayotga tadbiq etilganidan darak beradi[4]. “Jomi’ ahkom as-sig‘or” asari dunyo tarixida bola huquqlariga bag‘ishlab yozilgan ilk huquqiy manba

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // https://lex.uz/docs/5841063

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413

[3] Jomi’ ahkom as-sig‘or. O‘zbekiston xalqaro islom Akademiyasi.- Toshkent.2021.

[4] Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-Toshkent.2021.B.68

ekanligini alohida qayd etish lozim. Bunday nodir asar olis tarixda ham yurtimizda zabardast ulamolar va fiqhshunos olimlarning turli huquqiy yo‘nalishlar qatorida bola huquqlariga, shu jumladan, uning tizimi, mohiyati, manbalari va rivojlanish bosqichlari mukammal o‘rganilganligini, o‘sha davrlarda ham shu zaminda yashagan insonlar, bolalarga alohida e’tibor qaratganligini tasdiqlaydi.

Bola savdosidan jabrlanganlarning manfaatlarini himoya qilish, g‘ayrihuquqiy majburlov ostida qolgan shaxslarni jazodan ozod qilish, yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni qoplash choralarni ko‘rish, sodir etilgan jinoyatni fosh etilishida hamkorlik qilgan shaxslar jazosini yengillashtirishda huquqiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirish, umum e’tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar, milliy qonunchilik hujjatlari hamda huquqni amaliyotda qo‘llash orqali yuzaga kelgan muammolarning yechimini topish, bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Bola savdosi yoki bolani ekspluatatsiya qilishni oldini oluvchi mexanizm, amaldagi jinoyat qonunchiligimizda aniq bayon etilmaganligi, bu kabi jinoyatlarni oldini olish tizimini isloh qilish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Odam savdosi sirasiga kiruvchi bola savdosi haqiqatda jirkanch axloqsizlikning namunasidir. Har bir inson ona Vatanning bir bo‘lagi hisoblanadi, bola savdosi jinoyatini sodir etgan kimsalarni esa vatanfurushlarga tenglashtirishimiz to‘g‘riroq bo‘ladi. Ushbu holatni teran anglagan jamoatchilik, jumladan inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar, butun dunyo xalqlari hamda davlat rahbarlari e’tiborini mazkur muammoga tortishga urinmoqdalar. Boladan ko‘r-ko‘rona voz kechish, undan predmet sifatida g‘arazli maqsadlarda foydalanish, sotish bugungi kun tartibidagi dolzarb muammoga aylanib bormoqda va unga qarshi kurashish ertangi salbiy oqibatlarni oldini olishda mustahkam qadam bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jinoyat transchegaraviyligini hisobga olsak, faqat bir davlat doirasida kurashib bo‘lmaydi. Bola savdosi masalasi insoniyatning ma’naviy, ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir etib, davlatlarda migratsiya jarayonlarining keskin o‘zgarishiga, xalqaro jinoyatchilikning o‘sishiga sabab bo‘ladi.

Bola savdosining ijtimoiy xavfi shundan iboratki, bola savdosi sodir etilganda, xavfsizlikka rahna soladi, umuminsoniy qadriyatlar, oilaviy munosabatlarni izdan chiqadi, bunday qilmishni sodir etilishi natijasida, voyaga yetmagan shaxs “narsa”, “tovar”ga aylanadi. Bolaning keyingi taqdiri, uning normal jismoniy, aqliy hamda axloqiy rivojlanishi xavf ostida qoladi.

Bola savdosi jamiyatdagi salbiy jarayonlarning mahsulidir. Uning ijtimoiy xavfliligi, hodisaning vujudga kelishi va sodir etilishi sabablariga qarshi kurashda alohida va samarali tizimini yaratish zaruriyatidan darak beradi.

Bola savdosi jinoyatini sodir etilishiga imkon beruvchi bir qator muammolarni keltirib o‘tishni joiz deb topdik. Jumladan:

Birinchidan, bugungi kun amaliyotida bola savdosi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi norma O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 135 moddasi 3- qismi “a” bandida, o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa – deb kiritilgan bo‘lib, sodir etilgan jinoyat uchun boshqa og‘irlashtiruvchi holatlar inobatga olinmagan. Taklif sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga bola savdosi va bolaga nisbatan ekspluatatsiya uchun javobgarlikni qamrab oluvchi moddani kiritish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, bolani hayotini xavf ostida qoldirib ovloq joylarga tashlab ketilganda, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 117 moddasi (Xavf ostida qoldirish) bilan kvalifikatsiya qilinmoqda. Bolani hayoti yoki sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yib, har qanday ovloq yoki tashlandiq joyga tashlab ketganlik uchun hozirgi, xavf ostida qoldirganlik yuzasidan javobgarlik ba’zi hollarda yetarli tarbiyaviy yoki profilaktik ta’siriga ega emasligi sababli, bu turdagi jinoyatlar uchun jazo tayinlashning ushbu mexanizmini qayta ko‘rib chiqish va kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.Taklif sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasiga qo‘shimcha va o‘zgartish kiritish taklif etiladi, shu bilan yuqori ijtimoiy zarar yetkazadigan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini kafolatlash, shuningdek jinoyat sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya qilish va hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek huquqbuzarning o‘zi va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish kabi jazo maqsadlarining bajarilishini ta’minlaydi deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, turli sabablarga ko‘ra boladan voz kechilib, uni ovloq yoki tashlandiq joylarga tashlab ketilganda, bolaning jinoyat qurboniga aylanishi yoki hayoti xavf ostida qolishi ehtimoli yuqori bo‘lib qolmoqda.

Ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqib, kelgusida bola jinoyat qurboni bo‘lib qolmasligi yoki uning hayoti xavfsizligini ta’minlash borasida, bolani tashlab ketish uchun tibbiy va boshqa jihatlar inobatga olinib, maxsus tayyorlangan, bola tashlab ketilganda maxsus xizmatlarga tegishli bildirish qo‘ng‘irog‘i yetkazadigan, turli kuzatuv vositalarsiz, tug‘ruqxona yoki boshqa davolash muassasalari, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassasalarga yaqin joylarda o‘rnatiladigan, bolani tashlab ketish uchun mo‘ljallangan quti Umid beshigi yoki xalqaro tajribada qabul qilingan Beby bokslar faoliyatini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz. Ushbu taklif joylarda faoliyat ko‘rsatayotgan “Inson” ijtimoiy markazlarining vakolatiga kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

To‘rtinchidan, qonunchilikda homilani huquqiy himoyalash masalasi o‘z aksini to‘liq qamrab olinmaganligi uni huquqiy himoya qilish borasida muammolarni yuzaga kelmoqda. Ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanuvchi bola savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarning homilaga nisbatan sodir etilishini

og‘irlashtiruvchi holat hisoblab, tegishli javobgarlik belgilashni hamda homila atamasi tavsifini qonunchiligimizda e’tirof etilishini lozim deb hisoblaymiz.

Jamiyatda o‘rnatilgan axloq-odob qoidalariga rioya qilmaslik, “ommaviy madaniyat”ning illatlari, fohishalik va jinsiy industriyaning boshqa ko‘rinishlari bola savdosi uchun yaxshigina muhit yaratadi. Ayrim mamlakatlarda fohishalikning qonuniylashtirilishi ham bola savdosining avj olishini osonlashtiradi. Iqtisodiy rivojlanmagan ayrim davlatlarda fohishalik fuqarolarning daromad manbai bo‘lganligi sababli, rasmiylar bunday g‘ayriijtimoiy hodisaga qarshi kurashda tegishli tashabbus ko‘rsatmaydi. Fohishalikdan katta foyda olish maqsadida, jinoiy unsurlar tomonidan ko‘p miqdorda sarmoya kiritadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, jinsiy munosabatlardan foyda ko‘rish jarayonida inson “tovar”ga bo‘lgan talab oshadi. Bolalar esa ushbu “bozorda” xaridorgir hisoblandi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, bugungi kunda bola savdosiga qarshi kurashish va bunday noxush voqealarni oldini olish global ahamiyat kasb etmoqda. Barcha davlatlarning o‘zaro hamkorligiga ehtiyoj tug‘ilib, bu borada davlatlararo va xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro mustahkam hamkorlik o‘rnatish hamda kuchlarni birlashtirish lozimligini taqozo etmoqda. Bu borada bola savdosiga qarshi kurashning xalqaro va milliy qonunchilik normalarini tartibga solinishi shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali vositasi hisoblanadi.

“YANGILANGAN KONSTITUTSIYA” RAQOBATBARDOSH TA’LIM TIZIMINING POYDEVORI

Baxranov Sh.T.

“O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi dotsenti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga taya’nib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suya’nib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz. Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to‘g‘ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo‘limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo‘llab-

quvvatlayotgani oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda.

Ma’lumki, keyingi besh yil davomida mamlakatimizda keng miqyosdagi demokrtaik o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston” degan tushuncha real voqelikka aylanmoqda. Ushbu ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tashabbuskori va ularning markazida turgan islohotchi da’vatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev nomi bilan bog‘liqligi hamda Konstitutsion mezonlar orqali tartibga solinganligi hech kimga sir emas. “Yangi O‘zbekiston”ning buguni hamda kelajakdagi taraqqiyotining tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ilmiy salohiyatli yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining [1] 41-moddasi “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”, 42-moddasi “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi” deb belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-106-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 7 avgustda ma’qullangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohasining huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga bergan javoblarida quyidagi fikrlarni bildirdi. “Imom Buxoriy bobomiz to‘plagan muborak hadislardan birida: “Yoshlikda o‘rganilgan ilim toshga o‘yilgan naqsh kabidur” deb aytiladi. Buyuk allomalarimiz ana shunday hikmatlarga amal qilib, ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirganlari va umumbashariy tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo‘shganlari tarixdan yaxshi ma’lum. Ana shunday qutlug‘ an’analarni davom ettirib, yurtimizda yangi xorazmiylar, farg‘oniylar, beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug‘beklar, Navoiylarni tarbiyalab yetkazish – nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimizdir. Biz bu yo‘lda katta ishlarni boshladik.

Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo‘lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygohlar soni 141 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasining filiallari ochildi. Holbuki, 2016 yilda respublikamizdagi oliygohlarning soni 77 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o‘sishga erishganimiz, hech shubhasiz, yoshlarimiz, butun jamiyatimizning intellektual salohiyatini oshirish, zamonaviy bilim, kasb-hunarlarga yanada yaqinlashtirish yo‘lidagi harakatlarimiz natijasidir”.

Darhaqiqat bugungi kunda mamlakatimiz miqyosida ustozlarga hurmat ularning obro‘-e’tibori va maqomini ko‘tarish, o‘quv dasturlari va metodikasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, maktabni ta’limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog‘lash, o‘qituvchilarni ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etib, o‘z ustida ko‘proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag‘batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma’naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda. Shunga munosib tarzda bugungi kun yoshlari o‘zlarining ilm-ma’rifati va yuksak intelekti bilan Ona-Vatanimizning nurliy istiqboli yo‘lida qo‘lni-qo‘lga berib bor imkoniyatlarini safarbar etmog‘i lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 2023 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” straregiyasi to‘g‘risida PF-158-son Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tararqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni

SUV BOYLIKLARINI MUHOFAZA QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Jumanov A.
Qoraqalpog‘iston davlat universiteti kafedra mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi suv boyliklarini muhofaza qilish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishda alohida o‘rin tutadi. Avvalo, Konstitutsiyasi har bir davlatning asosiy qonuni sifatida milliy qonunchilik tizimi, xususan, suv qonunchiligining shakllanishi va rivojlanishi uchun ham muhim huquqiy asos vazifasini bajaradi. Konstitutsiya oliy yuridik hujjat sifatida suv boyliklarini muhofaza qilish,

ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha munosabatlarni tartibga solishda boshlang‘ich va birlamchi huquqiy poydevor rolini o‘ynaydi.

Ekologiya huquqiga doir maxsus ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, “butun qonun hujjatlari, shu jumladan ekologik qonun hujjatlari shakllanishida ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi muhim qadam bo‘ldi. Ushbu hujjatning ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati beqiyos bo‘lib, Konstitutsiya boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega, O‘zbekiston hududida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi” [1].

Asosiy qonun normalarini tahlil qilish asosida suv munosabatlarini tartibga soluvchi umumiy konstitutsiyaviy normalar sirasiga demokratik huquq va erkinliklarning (xususan, suv resurslariga oid huquqlar ham) Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi, davlat o‘z faoliyatini [2] inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi (14-modda), Konstitutsiya va qonunlarning (xususan, suv qonunchiligi hujjatlari) ustunligi so‘zsiz tan olinishi, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar [3] o‘z faoliyatlarida qonunlarga rioya etishlari (15-modda) [4] kabilarni sanab ko‘rsatish mumkin.

Konstitutsiyaviy normalar talablari suv boyliklarini muhofaza qilishga doir huquqiy munosabatlarning asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillar asosida mamlakatimizda suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashda murim ahamiyat kasb etadi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 49-moddasiga ko‘ra, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi belgilangan bo‘lib, ushbu norma bevosita fuqarolarning suv boyliklaridan foydalanishi bilan bog‘liq munosabatlarga ham taalluqlidir. Ma’lumki, har bir insonni suv bilan ta’minlash uning iste’mol ehtiyojlarini qondirish uchun etarli va uzluksiz bo‘lishi lozim. Har bir inson tomonidan foydalinishga ruxsat beriladigan suv miqdori kuniga 50 litrni tashkil qilishi yoki u foydalanishi mumkin bo‘lgan eng minimal miqdorda (20 litr) bo‘lishi lozim. Shuningdek, insonning kundalik ehtiyojlarini qanoatlantirishga mo‘ljallangan suv inson salomatligi uchun har qanday xavf tug‘diradigan turli xil mikroblardan tozalangan bo‘lishi, maqbul ko‘rinish, hid va ta’mga ega bo‘lishi lozim. Insonning qulay suvga ega bo‘lish huquqini taminlashda ushbu konstitutsiyaviy norma muhim ahamiyat kasb etadi.

Suv boyliklarini muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini belgilab bergan konstitutsiyaviy normalar mazmunining tahlili mamlakatimizda suv resurslarining “umummilliy boylik” ekanligi, ya’ni yuridik ma’noda suv resurslari xalq mulkini tashkil etishi hamda ular nomidan faqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonunda belgilangan vakolatlari doirasida

ish yuritilishi; suv resurslaridan oqilona foydalanishning zarurligi, ya’ni suv resurslaridan ekologik normativ va standartlarga qat’iy rioya etgan holda foydalanish lozimligi; suv ob’ektlari va resurslari davlat tomonidan qo‘riqlanishi, ya’ni davlatning suv boyliklarini muhofaza qilishi orqali jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlari, shuningdek, ekologik huquq-tartibotga rioya etilishi; mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vazifasining mustahkamlanganligini ko‘rsatadi.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida suv va boshqa tabiiy resusrlarning konstitutsiyaviy va huquqiy rejimini belgilangan bo‘lib, uning umummilliy boylik ekanligi o‘rnatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan imperativ normalarning ilmiy va nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning 68-moddasi O‘zbekiston xalqining er va boshqa tabiiy resurslariga egalik qilishning huquqiy modelini belgilaydi, uning mohiyati shundan iboratki, mamlakat hududida joylashgan bu tabiiy muhit ob’ektlari umummilliy boylik hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “umummilliy” terminiga quyidagi izoh berilgan: “umummilliy (umum+milliy) butunicha millatga, shu millatdagi kishilarning barchasiga taalluqli, millat uchun umumiy” “Boylik” so‘zi esa quyidagicha izohlangan “mol-mulkning yig‘indisi, majmui” [5]. Bundan ko‘rinadiki, “umummilliy boylik” – bu muayyan millatga tegishli bo‘lgan va shu millat vakillarning barchasi uchun birdek taalluqli bo‘lgan mol-mulkning yig‘indisi sanaladi. Suv ham tabiiy resusrlarning boshqa turlari kabi millatning, yanada aniqroq aytganda xalqning mol-mulki hisoblanadi. Zero, Konstitutsiyaning 7-8-moddalarida belgilanganidek, “xalq davlat hokimiyatning birdan-bir manbai” sifatida “O‘zbekiston fuqarolaridan tashkil topishi”dan kelib chiqadigan bo‘lsak, umummiliy boylikning mulkdori ham O‘zbekiston xalqi hisoblanadi.

Garchi Konstitutsiyaning 68-moddasida tabiiy resurslarning huquqiy maqomiga belgilangan qoida ochiq-oydin ularga nisbatan mulkdor O‘zbekiston xalqi ekanligini nazarda tutmasada, bu holat moddaning mazmunidan umumiy ma’noda anglashiladi. Gap shundaki, “umummilliy boylik” to‘liq ma’noda huquqiy nuqtai nazar kasb etmaydi. Chunki, “milliy” so‘zi “xalqona, millatga tegishli, biror mamlakatga, davlat va uning aholisiga” [6] taallluqlilikni anglatishidan kelib chiqilsa, suv va boshqa tabiiy resurslarning mol-mulk ob’ekti sifatida kimga tegishliligi ayon bo‘ladi.

Bundan tashqari, yangilangan Konstitutsiyamizda fuqarolarning tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi lozimligi qat’iy mustahkamlangan. Chunonchi, uning 62-moddasiga binoan, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar. Ushbu norma suv boyliklariga ham tegishli bo‘lib, fuqarolar suvdan tejab-tergab, uni

asrab-avaylab, isrof etmasdan va ifloslanishiga yo‘l qo‘ymasdan foydalanishlari talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan suv munosabatlarini tartibga solishga bag‘ishlangan normalar suv qonunchiligini kodifikasiyalashda inobatga olinishi lozim. Umuman olganda, harakatdagi suv qonunchiligining tahlili uning konstitutsiyaviy normalarga muvofiqligini ko‘rsatadi, bu avvalo, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi va boshqa qonun hujjatlarining unga zid bo‘lishi mumkin emasligi talabidan kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi suv qonunchiligini rivojlanishi uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual qoida va tamoyillarni belgilab beradi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, konstitutsiyaviy normalarni bir xilda qo‘llashni ta’minlash maqsadida ularni amaldagi suv qonunchiligi hujjatlarida aniq ifodalash bo‘yicha tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, xususan, suv resurslariga nisbatan umummilliy boylik maqomini belgilash, ulardan oqilona foydalanish mezonlarini aniqlash, mahalliy davlat hokimiyati organlarining suv resurslarini muhofaza qilish bilan bog‘liq vakolatlarini alohida mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bu haqda batafsil qarang: Usmonov M.B. Tabiatni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari. –T.: TDYuI, 2002; Fayziev Sh.X. Atrof tabiiy muhit muhofazasi dastaklari. Respublikada ekologik xavfsizlikni ta’minlashning konstitutsiyaviy muammolari //Hayot va qonun. 1998. – №4. – B. 38-40; O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. –T.: O‘zbekiston, 2008. – B. 69-71;

2. ttp://uzmarkaz.uz/uploads/2020/06/2020202020.pdf http:// uzmarkaz.uz;

3. ttp://el.tfi.uz/imaGES/Manaviy_yuksalish_huquqiy_barkamollik_ d0d13. Pdf http://el.tfi.uz;

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.;

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “B” harfi // https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/;

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “B” harfi // https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/.

O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSIYANING SHAKLLANISH TARIXI

Rasulova N.S.
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi.

“Konstitutsiya” atamasi huquqiy tushuncha sifatida uzoq yillar davomida turlicha ma’nolarda qo‘llab kelingan. Aslida «constitutio» so‘zi lotincha bo‘lib, «Tizim, tartib o‘rnatish, tuzilish, tuzuk» degan lug‘aviy mazmunlarni beradi. Xozirgi paytda jaxonda 200 dan ko‘proq davlatning va 300 ga yaqin Federasiya subyektining Konstitutsiyalari amal qiladi. Zero, Sh.Mirziyoyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Konstitutsiya va qonun ustunligi tamoyili bu barqaror taraqqiyotning asosiy mezonidir[1].

Konstitutsiya deb – oliy yuridik kuchga ega, davlatning asosiy qonuni tushuniladi. Bu qonun davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, shaxs huquqiy holati asoslarini, hokimiyat organlari tizimi, tarkibi, tashkil bo‘lish tartibi, vakolatlari, o‘zaro munosabatlari, davlatning jamoat birlashmalari bilan munosabatlarining asoslarini belgilovchi normalar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Konstitutsiyaning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, u bo‘m-bo‘sh joyda yaqindagina paydo bo‘lib qolgan emas, balki jahon sivilizasiyasining tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanib kelgan. Tarix shundan dalolat beradiki, insoniyat o‘zining taraqqiyot bosqichlarida doimo muloqot qilish, birga yashash qonun-qoidalariga muhtoj bo‘lgan. Insonlar buning uchun zarur bo‘lgan qonun-qoidalarni ishlab chiqishga harakat qilganlar.

«Konstitutsiya» atamasi Qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Masalan, bundan 4000 yil avval Mesopotamiya podshohi Xammurapi yaratgan «Xammurapi qonunlari» to‘plami, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto», Yunonistondagi «Salon demokratiyasi» yuqorida aytib o‘tilgan qonun-qoidalarning eng mashhurlaridir. Amir Temur «Tuzuklari» Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizasiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Tuzuklarda davlat, uni idora etish, qonunchilik haqidagi ta’limot o‘z aksini topgan. Ushbu ta’limot Amir Temur saltanati mavqeining muttasil oshib borishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Temur davlati erishgan ulkan muvaffaqiyatlarning asosiy sabablaridan biri ham uning mamlakatda davlat ishlarini ushbu tuzuklar asosida olib borganligidir.

Turkistonda sovet hokimiyatchiligi kuch bilan o‘rnatilgach, RSFSR tarkibida Turkiston ASSR tuzildi. Shundan kelib chiqib RSFSR Konstitutsiyasi

[1] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi (07.12.2023)// prezident.uz/uz/lists/view/6917

andozasi asosida Turkiston ASSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Turkiston ASSR Konstitutsiyasiga koʻra ham siyosiy ham iqtisodiy boshqaruv Markazga boʻysundirildi. Turkiston ASSR, BXSR, XXSR Konstitutsiyalari oʻlkada soet boshqaruv tizimini oʻrnatilishida muhim rol oʻynadi.

Buxoro va Xorazm respublikalarining konstitutsiyalari "mustaqil davlat"ning asosiy qonuni boʻlishiga qaramasdan, bu hujjatlar bolsheviklar va Sovet Rossiyasi rahbariyatiga mintaqani sovetlashtirish jarayoniga "huquqiy asos" yaratib berdi. XXSRda 1920–1924 yillar oraligʻida jami 4 marta (1920, 1921, 1922, 1923 yillar) Konstitutsiya qabul qilingan boʻlsa, BXSRda 2 marta (1921, 1922 yillar) qabul qilingan. Bu Konstitutsiyalarda Turkiston komissiyasining tazyiqi bilan koʻplab moddalar majburan tiqishtirildi. Fuqarolarning saylov huquqlari ancha cheklandi. Faol va sust (passiv) saylov huquqi joriy qilinib, aholisining 10 ta kategoriyasi saylov huquqidan butunlay mahrum qilindi. Unga binoan, barcha savdogar, mulkdor va sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilindi. Ammo ishchi va kosiblarning saylov huquqi kengaytirildi. Shuningdek, bu konstitutsiyalarda avvalgi qonunlardan farqli ravishda, mamlakatni sosialistik qurilish yoʻliga oʻtishini qonun yoʻli bilan mustahkamladi, erning xususiy mulk ekanligi bekor qilindi, vaqf erlari butunlay tugatildi. Mavjud erlar umumxalq mulki deb e’lon qilindi, barcha vaqf mulklari maorif nozirligi ixtiyoriga berildi. Qozixonalar faoliyati taqiqlanib sovet sudlari tashkil qilindi. Ushbu konstitutsiyalar RSFSR ning Asosiy Qonunidan andoza olingan holatda yaratildi, mavjud boʻlgan koʻp moddalar deklarativ xususiyatga ega boʻlib, bu holat siyosiy jarayonlarga oʻz ta’sirini oʻtkazmasdan qolmadi.

SSSR tashkil etilgach, uning Konstitutsiyasiga koʻra, har qaysi ittifoqdosh respublika oʻzining "mustaqil" konstitutsiyasini saqlab qolishi va unga oʻzgartirish kiritishi mumkin edi. Har qaysi ittifoqdosh respublikaning SSSRdan ajralib chiqish va unga kirish "huquqi" e’tirof etildi. Biroq "mustaqil" respublikalar konstitutsiyasi va ularning "huquq"lari faqat deklarativ xarakterga ega boʻlib, SSSR amalda unitar davlat sifatida hokimiyatning totalitar avtoritar usulida boshqarilgan. Barcha davlat, sovet va xoʻjalik tashkilotlari kommunistik mafkura hukmronlik qilar, Sovet Ittifoqida yashovchi boshqa xalqlar singari oʻzbek halqining milliy urf — odatlari va an’analari inkor qilinib, barcha vositalar "yagona sovet xalqi"ni kommunistik onglilik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi.

Oʻzbekiston SSR birinchi Konstitutsiyasi 1927 yil 30/31 martda Sovetlarning 2-UmumOʻzbekiston s’ezdida qabul qilingan, 1927 yil 11 iyulda nashr etilgan va 17 bob, 114 moddan iborat boʻlgan va 10 yil davomida amal qilgan. Respublika Ittifoqda erkin chiqish huquqiga ega deb belgilab qoʻyilgan. Fuqarolarning huquqlari va burchlari umuman yozilmagan, aktiv va passiv saylov huquqi keltirilgan xolos.

1937 yil 14 fevralda qabul qilingan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi 40 yildan ortiq vaqt davomida amal qilgan. Ushbu Konstitutsiya 13 ta bob va 146 ta moddadan iborat bo‘lgan. Ushbu konstitutsiyaning tuzilishini ko‘radigan bo‘lsak, dastlab oliy hokimiyat organlari haqidagi boblar keltirilgan bo‘lsa, deyarli so‘ngida fuqarolarning asosiy huquqlari, burchlari hamda saylov tizimi o‘rin olgan. Butunittifoq Kommunistik partiyasi (bolsheviklar) mehnatkashlarning barcha jamoat va davlat tashkilotlarining "etakchi yadrosi"ning vakili deb e’lon qilindi (1924 yil Konstitutsiyasida bu partiya haqida hech narsa qayd etilmagan). Ushbu konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston SSR ishchi va dehqonlarning sosialistik davlati deb belgilab qo‘yilgan. Bu esa xususiy mulkning to‘la yo‘qotilib, barchasi davlat mulki ekanligini bildirardi. Stalin Konstitutsiyasi deb ham atalgan.

1927 yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSRning birinchi va 1937 yildagi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko‘chirma nusxasi edi. Chunki O‘zbekiston qog‘ozdagi «suveren» respublika bo‘lib, amalda Markazga tobe bir o‘lka edi, xolos. U o‘z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani itgafoq xukumatidan xoli, mustaqil hal eta olmasdi. Binobarin, respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat Markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto O‘zbekistonning ma’muriy-xududiy tuzilishiga oid masalalar ham ittifoq xukumati tasarrufida edi. Shunday qilib, qog‘ozda suveren respublika sifatida shakplantirilgan, xukmron sovet imperiyasi tarkibiga kirgan O‘zbekiston SSR amalda Markazga to‘la bo‘ysunuvchi, arzon xomashyo mahsulotlari etkazib beruvchi o‘lka bo‘lib qolaverdi.

1978 yil 19 aprelda SSSRning 1977 yildagi Konstitutsiyasi modeli asosida tuzilgan O‘zbekiston SSRning so‘nggi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu Konstitutsiya 11 ta bob va 183 ta moddadan iborat bo‘lgan. Afsuski, 1977 yilgi Konstitutsiya bilan qonuniylashtirilgan ko‘plab huquqlar, masalan, so‘z va matbuot erkinligi, o‘sha davrda mavjud bo‘lgan davlat tuzumi va bir partiyaviy siyosiy tizim sharoitida faqat deklarasiya bo‘lib qoldi. Uy-joy dasturi ham to‘liq bajarilmadi. Shunga qaramay, 1977 yilgi SSSR Konstitutsiyasi qonunni o‘z davrining huquqiy amaliyotiga yaqinlashtirdi.

Yuqoridagi konstitutsiyalar sinfiy mazmunga ega bo‘lib, ularda aholi ba’zi qatlamlarining fuqarolik erki cheklangan, ba’zi moddalari esa nomigagina amal qilgan. Mazkur konstitutsiyalar o‘zbek xalqining tarixiy ildizlariga suyanmagan, balki zo‘ravon Markazning manfaatlarini ko‘zlagan edi.

Mazkur konstitutsiyalarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Konstitutsiya sinfiy qarash va yondashuvlarni aks ettirar edi.

2. Inson huquq va manfaatlari davlat va jamiyat manfaatlariga buysundirilgan edi.

3. O‘ta mafkuralashtirilgan edi.

4. Milliy mustaqil davlat faoliyatiga yo‘l qo‘yilmagan edi.

Oliy Kengash qarori bilan 1990 yil 21 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a’zoni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi. Konstitutsiya loyihasi 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11- sessiyasi muhokamasiga kiritildi va yangi demokratik prinsiplarga mos Konstitutsiya qabul qilindi.

Xalqimiz tashabbusi bilan yaratilgan Konstitutsiya O‘zbekiston jamiyatining evolyusion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zaruriyatdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadam bo‘ldi.

2022 yil 25 iyunidan 5 iyulga qadar «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining umumxalq muhokamasi uchun qo‘yildi. Konstitutsiyaning bu matni olim-u mutaxassislar tomonidan faqat kabinetlarda yaratilmadi. Balki, dastavval ikki bosqichda xalqimizning fikri, takliflari o‘rganildi, shundan so‘nggina Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Avvallari esa Konstitutsiya qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo‘yilardi. Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Ushbu Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi etib belgilandi. O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etilishi va kafolatlanishi qayd etildi.

KONSTITUTSIYA – INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATI

Olimjonov X.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti yu.f.b.f.d.(PhD), mayor.

Rahmataliyev M.M.
JXU Maxsus fakultet talabasi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy ofitser kadrlar yurtimizdagi harbiy xizmatchilar umumiy sonining shunga e’tibor bering – atigi 0,6 foizini tashkil etardi. Ofitserlarni tayyorlash esa uchta harbiy bilim yurtida va bor

yo‘g‘i uchta harbiy mutaxassislik bo‘yicha olib borilar edi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida qo‘shimcha ravishda yangi, zamonaviy uchta harbiy ta’lim muassasasi tashkil etildi, kursantlarni o‘qitish tizimi esa ko‘p tarmoqli asosda yo‘lga qo‘yildi[1].

Prezidentimiz – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida “Keyingi paytlarda Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida so‘z yuritganda, Milliy gvardiya tashkil etilganini alohida ta’kidlash lozim. Ma’lumki, bu maxsus harbiy bo‘linma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilgan. Qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi muhim bo‘g‘inga aylandi va Qurolli Kuchlar tarkibiy qismlari bilan yaqin hamkorlik o‘rnatdi”[2].

1991 yilning 31 avgustida “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bu muhim hujjat respublikamizga o‘z harbiy siyosatini amalga oshirish huquqini berdi va mazkur qonun hamda “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi bayonot mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini tuzish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”[3].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 14 yanvar kungi qarori bilan respublikamiz hududidagi barcha harbiy qism va muassasalar O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga o‘tkazildi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlarimizning bosh huquqiy asoslari o‘z ifodasini topdi va u faqat davlatimiz suvereniteti hamda hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tashkil etilishi belgilab qo‘yildi.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 4 avgust kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi farmoni bu boradagi ezgu sa’y-harakatlarga poydevor qo‘ydi.

Istiqlol tufayli bugun davlatimiz o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega, erishilgan mustaqillik, ozodlik, erkinlik va tenglik kabi huquqlarimizni himoya qilishga qodir milliy armiyamiz bor.

Istiqlol yillarida Bosh qomusimiz va uning asosida O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va

harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi, Prezidentimiz qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va sohaga doir boshqa qonun hujjatlari qabul qilindiki, bu bilan Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilishi, tuzilishi va rivojlanishiga doir milliy qonunchilik bazasi shakllandi, armiyamizning huquqiy maqomi yanada mustahkamlandi.

Mustaqillik yillarida harbiy xizmatni takomillashtirish va isloh qilish bo‘yicha ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Yangi tahrirdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun bilan muddatli harbiy xizmatning 12 oy qilib belgilanishi, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat turi amalga kiritilishi, yiliga bir marotaba fevral-mart oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirish va uni o‘tab bo‘lgan fuqarolarni Qurolli Kuchlar rezerviga mart-aprel oylarida bo‘shatish tartibi joriy etilishi natijasida armiyamizdagi axloqiy-ruhiy va ma’naviy muhit tamoman yangilandi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga imtiyoz, imkoniyat va shart-sharoitlar ko‘lami ham tubdan kengaytirildi. Jumladan, muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt bo‘yicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar shahar yo‘lovchilar transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqiga ega. 2012 yil 31 may kungi qaror bilan muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan, harbiy qismlar qo‘mondonligining tavsiyanomasiga ega fuqarolarga barcha yo‘nalish va mutaxassisliklar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga kirishda qo‘shimcha ball shaklidagi imtiyoz belgilandi, harbiy xizmatchilarni farzandlarini imtiyozli umumiy kvotadan tashqari oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishlari uchun qo‘shimcha imtiyozlar berish, qo‘shimcha ballarni hisobga olgan holda tanlovdan o‘ta olmagan abituriyentlar respublikadagi boshqa oliy o‘quv yurtlariga belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Mustaqillik sharofati bilan bugun harbiy ta’lim muassasalarida harbiy-vatanparvar, sog‘lom fikr va hayotiy pozitsiyasiga ega, zamonaviy fikrlaydigan, har tomonlama yetuk, professional ofitserlar va yuqori malakali serjantlar yetishib chiqmoqda.

Hammamizga ma’lumki, vatanparvarlik dunyodagi eng oliy tuyg‘ulardan biri hisoblanadi. Vatanparvar insongina Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yurt tinchligiga xizmat qilishga o‘zining xayotini bag‘ishlaydi,o‘zining ma’naviy kamoloti uchun yuksak mas’uliyatni his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu

xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi. Darhaqiqat, bularning hammasi vatanparvarlik tuyg‘usida namoyon bo‘ladi.

Shuni aytish joizki, Ona Vatanimizning ravnaqi uchun O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi qaysi sohada ishlashi yoki qaysi kasbni egallashidan qat’iy nazar Mustaqilligimiz tinch va osuda hayotimizni ko‘z qorachig‘idek avaylab, uning buyuk kelajagi yo‘lida ongli ravishda sidqidildan xizmat qilsa, o‘zining Vatanga bo‘lgan muhabbatini namoyon qilgan bo‘ladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi zamonda, xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlariga mutlaqo zid bo‘lgan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo‘llar bilan singdirishga qaratilgan urinishlar kuchaygan, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun keskin kurash ketayotgan bir sharoitda, Vatan himoyasiga shay turgan yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarimizni hamkorlikda amalga oshirishimiz barchamizdan talab etiladi”.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan maqsad – jamiyatda yuqori ijtimoiy faollikni, fuqarolarni ayniqsa, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalari harbiy xizmatchilari, kursant va tinglovchilarni xavfsizlikni ta’minlash borasidagi mas’uliyati va javobgarligini oshirish, ularda vatanga va burchga sadoqat, mardlik, jasurlik, fidoyilik, halollik kabi insoniy fazilatlarni qaror toptirish va Vatan ravnaqi yo‘lida vijdonan xizmat qilishga safarbar etishdir[4].

Yurtboshimiz Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining yigirma besh yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan tabrigida: “Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish, harbiy shaharchalarda zamon talablarga javob beradigan ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Ana shu dasturlar doirasiga 15 mingdan ortiq harbiy xizmatchilar oilasi uy-joy bilan ta’minlangani, ayniqsa e’tiborlidir[1]”— deya alohida ta’kidlaganidan ham ijtimoiy himoya harbiy boshqaruv siyosatining doimiy va ustuvor vazifalaridan ekanini anglash qiyin emas.

E’tirof etish kerakki, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy muhofaza qilish masalasi birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Qonunchiligimizda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini xizmat turar joylari bilan ta’minlash, uy-joyni xususiylashtirish, uzoq muddatli ipoteka kreditlaridan foydalangan holda kvartiralar sotib olish va uy-joy qurish uchun yer uchastkalari ajratish, turar joyni ijaraga olganlik uchun har oylik pul kompensatsiyasi to‘lash va boshqa qator imtiyozlar hamda bunga doir huquqlarni amalga oshirish tartibi mustahkamlab qo‘yilgan.

Harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquq-tartibot va harbiy intizomni ta’minlashda qonunlarning

aniq va bir xilda ijro etilishiga erishish borasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan ham qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan tarbiyalash maqsadida umumiy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida, mehribonlik uylarida milliy armiyamiz qudrati va nufuzini, mardlik va fidoyilikni targ‘ib etuvchi mavzularda muntazam ravishda huquqiy soatlar va uchrashuvlar tashkil etib kelinmoqda.

Ayniqsa, xalqimiz hayotidagi muhim sanalar va bayramlar arafasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari tomonidan mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning ko‘nglini ko‘tarish, ularni qiziqtirgan va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan mavzularda targ‘ibot tadbirlari o‘tkazish, harbiy qism va muassasalarga, harbiy ta’lim muassasalariga “Ochiq eshiklar kuni” tarzida sayohatlar uyushtirish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari huquqiy bilimi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, huquqiy tarbiya ishlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilib, yangi qabul qilingan qonunlar, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar mazmun-mohiyatini ijrochilarga, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga hamda keng jamoatchilik e’tiboriga yetkazish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni va sohaga oid qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini ijrochilar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari o‘rtasida keng targ‘ibot qilish ishlariga doimiy e’tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari huquqiy savodxonligini yuksaltirish, ularda ogohlik va Vatan taqdiriga daxldorlik hissini yanada oshirish, tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida targ‘ibot tadbirlari keng yo‘lga qo‘yilgan.

Aytish kerakki, mustaqil ona-Vatanimizdagi tinch va osuda, xavfsiz va farovon turmushimizni, erkin va ozod hayotimizni asrash, buning uchun ogoh va xushyor bo‘lish har birimizning burchimizdir.

Davlatimiz xavfsizligini, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, ogohlik va hushyorlikni kundalik odatga aylantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biz boshimizdan kechirayotgan zamon barchamizdan avvalo ogoh va sergak bo‘lib yashashimizni, tinch va osuda hayotimiz uchun, musaffo osmonimizni himoyalash uchun kurashishimizni talab qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, mustaqilligimizni va tinchligimizni avaylab-asrash har birimiz uchun muqaddas burch va eng oliy saodatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil etilganligining yigirma besh yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigi. T.: 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. T.: 2018 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.– T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 43.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti
5. Jalolov Sh.R. “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash” nomli o‘quv qo‘llanmasi. T. 2018 B 7.

XUSUSIY MULK DAXLSIZLIGINING HUQUQIY KAFOLATI

Irgashev D.I.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi dotsenti.

O‘zbekiston bugungi kunda o‘zi tanlagan taraqqiyot yo‘lini jadal rivojlantirish maqsadida dadil qadamlar tashlamoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-huquqiy islohotlarning amaliy ifodasi o‘laroq, Asosiy qonunimiz bo‘lgan konstitutsiyamizning yangi tahriri qabul qilindi. Bu shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy islohotlar erishilayotgan taraqqiyot natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun juda muhimdir, ya’ni, adolatli jamiyat va ijtimoiy-huquqiy davlat qurish yo‘lidagi ulkan qadamlardir.

Konstitutsiya har bir taraqqiy etgan davlatning negizi bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjati – mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi. Fuqarolarning barcha orzu-niyatlari, kafolatlangan huquqlari va hayotdagi oliy maqsadlari Konstitutsiyada to‘liq o‘zining ifodasini topmog‘i lozimdir. Xususan, konstituysiyamizning 65-moddasida “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlanishi”[1] belgilab qo‘yildi.

Konstitutsiyamizga qadar ham fuqarolarimizning asosiy huquq va erkinliklari va mustaqil demokratik davlatimizning mustahkam huquqiy asosi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasi, 30.04.2023 y.

bo‘lib xizmat qilib kelgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida inson qadrini ulug‘laydigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli islohotlar, bosqichma-bosqich yangilanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu borada boy milliy va xalqaro tajribalar to‘plandi.

Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar odamlarimizning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon jamiki sohalarda ustuvor ekanligini davlatimizning qat’iy qoidasiga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri barcha narsadan ulug‘dir” deb atalayotgan ezgu g‘oyasini hamda bunday ulkan ishlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson-jamiyat-davlat” degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyada mulkchilik munosabatlarining shakllanishi bilan bog‘liq masalalarning ochiqlanishi, xususan mulkka egalik qilish huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi va aniq belgilab qo‘yilishi xalqimizning o‘z mulkini erkin tasarruf etishdagi duch kelayotgan mavjud muammolarning qonuniy bartaraf etilishiga zamin yaratdi. Jumladan, mulkdor o‘z mulki ishonchli himoya qilishini bilsa va his qilsagina investitsiya kiritadi, tadbirkor biznesini rivojlantirishga bor imkoniyatini safarbar qiladi. Chunki, mol mulkka egalik qilish fuqarolarning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Bu esa Konstitutsiyaning 66-moddasida quyidagicha belgilangan: “Mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak”.[1]

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari moddiy va ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi.

Lekin yaqin tariximizda ayrim mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning uy-joylarni buzish holatlari xalqimiz tilida “snos” deb nom oldi. Mazkur holatlar inson huquqlari va erkinliklarini qo‘pol ravishda buzib, O‘zbekistonning xalqaro imijiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bunday muammolarning mavjudligi natijasida “World Justice Project“ xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan tuziladigan “Huquq ustuvorligi” indeksida (2023 yil hisobotida) O‘zbekiston 140 ta mamlakat ichida 78-o‘rinni egallagan.[2]

Shuning uchun qonunchilikda huquqlardan foydalanish amaliyotidagi xususiy mulkni himoya qilish bilan bog‘liq mazkur muammoli vaziyatlar va bo‘shliqlarni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish va qonunchilikni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasi, 30.04.2023 y.
[2] https://senat.uz/oz/post/post-2468

takomillashtirish lozim hisoblanmoqda. Sababi, mulkiy-huquqiy munosabatlarni hamda mulkdorlar manfaatlarini samarali himoya qilish mexanizmlarini yaratmay turib, huquqiy demokratik jamiyat va barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan faoliyatni amalga oshirish mushkuldir.

O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi. Jumladan, “Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas”.[1]

Fuqarolarning mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etish mumkin emasligi bo‘yicha konstitutsiyaviy norma mulkchilik munosabatlarini huquqiy jihatdan kafolatlash, xususiy mulkning daxlsizligini kuchaytirishga katta turtki bo‘ldi.

Shak-shubhasiz, yangilanayotgan Konstitutsiyada fuqarolarning mulki bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, aholining uy-joyga bo‘lgan huquqlari daxlsizligini kafolatlash bilan bog‘liq normalarning mustahkamlanishi ham xalqimiz, ham hayot zarurati hisoblanadi.

Xususiy mulk daxlsizligi hamda undan sud qarorisiz mahrum etilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi normalar Fransiya, Germaniya, Daniya, Indoneziya, Gruziya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham aks ettirilgan.

Xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, uni turli tajovuzlardan himoya qilish, xususiy mulkni saqlash va ko‘paytirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, mulkdorlarni qo‘llab-quvvatlashning eng muhim mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatimizda xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan yoki yaratgan o‘z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta’minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy negizlaridan biri hisoblanadi.

Bundan ko‘rinadiki, mulkdor qonun doirasida o‘z mulkiga o‘zi egalik qiladi, o‘zi foydalanadi va o‘zi tasarruf etadi. Bu mulkdorning konstitutsiyaviy huquqidir. Unga tashqi tomondan tazyiq o‘tkazishga, uning ichki ishlariga aralashishga, mulkini olib qo‘yishga hech kim haqli emas. Bu esa tadbirkorlarga o‘z biznesi uchun bexavotir investitsiya kiritish, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko‘paytirish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyasining 65-moddasi mamlakatimizning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini belgilab beruvchi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasi, 30.04.2023 y.

muhim jihat hisoblanib, mulkning daxlsizligi – xususiy mulkda ham, ommaviy mulkda ham mulkdorning o‘ziga tegishli mulkni faqat o‘zining manfaatlari yo‘lida hech qanday tashqi ta’sirlarsiz foydalanishi mumkinligi bildiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati*:*

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30.04.2023 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA FAVQULODDA HOLAT REJIM SHAROITIDA ICHKI ISHLAR VA MILLIY GVARDIYA ORGANLARINING INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI CHEKLASH VAZIFALARINING AMALGA OSHIRISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Alimov G‘.A.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yu.f.n.

O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasining 15-moddasida “Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar” degan norma mustaxkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, 20-moddasida esa “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun etarli bo‘lishi kerak” deyilgan[1].

Shu munosabat bilan, bugungi kunning eng muhim muammolardan biri bu ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, va ularga rioya qilish bo‘yicha faoliyatida fuqaro, huquqlari va erkinliklarini ta’minlash masalasida yuridik fan va amaliyot oldiga shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatini o‘rganish zarurati bilan bog‘liq bir qator aniq vazifalarni qo‘yadi.

Inson hayoti va xavfsizligiga bevosita tahdid bo‘lgan sharoitda inson huquqlarini ta’minlash, mamlakat konstitutsiyaviy tuzumining zo‘ravonlik bilan o‘zgarishi tahdidi favqulodda qonunchilikni qo‘llashga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muayyan cheklashga, shuningdek inson huquqlarini himoya qilishni taqqazo etadi. Birinchisi, insonning, shaxsning huquqlari va erkinliklari eng zaif bo‘lgan bir paytda (qurolli isyon, ommaviy tartibsizliklar, terroristik harakatlar, ayniqsa muhim ob’ektlarni yoki ayrim hududlarni to‘sib qo‘yish yoki tortib olish, noqonuniy qurolli tuzilmalarni qo‘lga olishga oid faoliyatni) zo‘ravonlik harakatlariga barham berish bilan birga fuqarolarning hayoti va

xavfsizligiga, huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlarining normal faoliyatiga tahdid, shuningdek tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarni)nazarda tutadi. Ikkinchi yo‘nalish qonun va tartib maqbul darajada mamlakat ichida vaziyatni normallashtirishda davlat manfaatlarini aks ettiradi (fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish uchun chora-tadbirlar).

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ekstremal, xavfli elementlarni o‘z ichiga olgan quyidagi tushunchalar mavjud: favqulodda vaziyat, xavfsizlikka tahdid, favqulodda holat, harbiy holat, baxtsiz hodisa, urush holati, terroristik harakatlar va antiterror tezkor tadbirlari, sabotaj va boshqalar. Ko‘pincha bunday holatlar va harakatlar "xavfli (issiq) joylar"deb nomlanadi.

Sovet davri va undan keyingi MDH mamlakatlari yuridik fanlarida maxsus huquqiy rejim tushunchasi turli jihatlarda ko‘rib chiqilgan. Keling, boshqa olimlar tomonidan eng keng tarqalgan yondashuvlarni ko‘rib chiqaylik. Huquqshunos olim D.N. Baxraxning fikricha huquqiy rejim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning maxsus tartibini anglatadi. Ushbu tartib qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi va huquqiy, tashkiliy va maxsus usul va vositalar majmuini ifodalaydi. Ularning qo‘llanilishi o‘rnatilgan rejim yo‘naltirilgan ob’ektlarning to‘g‘ri ijtimoiy-huquqiy holatini va davlat apparati, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimiyat organlari elementlarining barqaror ishlashini ta’minlashga imkon beradi. [1].

Bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida (masalan,S. Z. Ilyasov[2], S. V. Pchelinsev[3], V. B. Rushaylo[4], va boshqalar) fikricha huquqiy rejim-bu davlat, jismoniy shaxslar va jamiyatlarning yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan vaqtinchalik chora sifatida turli sharoitlarda joriy etilgan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini cheklashga imkon beradigan davlat boshqaruvining o‘ziga xos shakli deb hisoblashadi. A.V. Malko va V. Yu. Uxovlar esa huquqiy rejimga xos bo‘lgan bir qator xarakterli xususiyatlarni keltirishadi. Xususan, bu rejimni o‘rnatish (mustaxkamlash) va uni ta’minlash uchun davlatning maxsus vakolatlarini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, uning belgilardan biri "vaqtinchalik va ma’lum davr chegaralar ichida muayyan subyektlar yoki huquq ob’ektlarini vakolatlarini ta’kidlab, ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohalarini o‘ziga xos tarzda tartibga solish maqsadining mavjudligi" [5], huquqiy rejimning muhim xususiyati uning maqsadi-barcha subyektlarning manfaatlarini qondirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlashdir degan fikrlarni bayon qilishadi.Bizning fikrimizcha A.V. Malko va V.Yu.Uxovlar tomonidan alohida huquqiy rejimlarga berilgan xususiyatlar, shu rejimlarning xususiyati va mohiyatini to‘liq qamrab olgan va bu ta’rifga berilgan tushunchaga qo‘shilamiz.

Tiyib turish va muvozanat mexanizmini yaratish va hokimiyatni suiste’mol qilishning oldini olish uchun, qonun chiqaruvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga vakolat berdi O‘zbekiston Respublikasida yoki uning

ayrim hududlarida urush yoki favqulodda holat joriy etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holatni joriy etish to‘g‘risidagi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabrdagi 737-sonli "Favqulodda holat to‘g‘risida" Konstitutsiyaviy Qonuniga[6] va 2022 yil 17 avgustdagi O‘RQ-790-sonli “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlariga[7] muvofiq kuchga kiradi.

Yuqorida keltirilgan qonunlarga binoan, favqulodda holat rejimini ta’minlash maxsus vakolati ijro etuvchi hokimiyat organlari sifatida - Milliy gvardiya, ichki ishlar organlari, Davlat xavfsizlik xizmati, favqulodda vaziyat vazirligi va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari belgilangan, shuningdek ularga yuklatilgan vazifalar: favqulodda holat, harbiy holat va huquqiy rejimni ta’minlashda ishtirok etish, terrorizmga qarshi tezkor tadbirlarni amalga oshirish, yana ular faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlar asosida mazkur organlar zimmasiga yuklatilgan.

Tadqiqotchi N. G. Yangol ta’kidlaganidek, favqulodda holat instituti xorijiy va mahalliy qonunchilikda etarli darajada shakllantirilgan bo‘lib, unda aholiga haqiqiy tahdid, hududiy yaxlitlik yoki boshqa tahdidlar (har bir davlat favqulodda choralarni joriy etish bo‘yicha o‘z maqsadlarini belgilaydi) mavjud bo‘lganda favqulodda holat e’lon qiladi [8].

Belgilangan Qonunchilik hujjatlarida huquqiy rejimning butun mamlakatda yoki uning alohida hududida joriy etish paytida favqulodda yoki harbiy holat sharoitida bir qator choralarini qo‘llashni nazarda tutadi. Konstitutsiyaviy qonun normalarida ichki ishlar va Milliy gvardiya idoralarining favqulodda holat rejimini ta’minlovchi subyekt sifatidagi o‘rni alohida ko‘rsatilmagan, biroq chora-tadbirlarning bajarilishini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan subyektlar harbiy holatning huquqiy rejimining ba’zilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ichki ishlar organlari vakolatlari sifatida, boshqalari esa bilvosita, yoki yordamchi (xavfsizlik) funksiya sifatida inson huquqlari va erkinliklarining ba’zi cheklovlarini qo‘llashda ishtirok etadilar. Favqulodda (harbiy) holat huquqiy rejimining asosiy chora-tadbirlari ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari komendantlik soati joriy etilishini ta’minlashda ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Bu erda ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qilish organi sifatidagi, uning asosiy vazifasi jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlash shakllaridan biri sifatida jamoat joylarida jamoat tartibini saqlashdir. Jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlash bo‘yicha ichki ishlar va Milliy gvardiya idoralari faoliyati amaliyotida favqulodda rejim sharoitida fuqarolarning hujjatlarini tekshirishning qonuniyligi haqida savol tug‘iladi, bu holat (masalan, nazorat punktidan o‘tish paytida hujjatlarni tekshirish) ushbu organlari xodimlari hujjatlarni majburiy tekshirish uchun qonuniy asoslar etarli

emaslar. Albatta “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi qonunning 13 moddasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning shaxsiy ko‘rigini, ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar tekshiruvini, ashyolarni, uy-joyni va transport vositalarini ko‘zdan kechirishni o‘tkazish” nazarda tutilgan bo‘lsada, biroq ushbu qonunda bunday tekshiruvlarni qaysi davlat organi tomonidan amalga oshirilishi aniq belgilab qo‘yilmagan, odatda bunday tekshiruvlarni tinchlik sharoitida ichki ishlar yoki milliy gvardiya organlari xodimlari amalga oshirishi xammaga ma’lum, ammo favqulodda holatlar sharoitida bunday tekshiruvlarni amalga oshiruvchi organ aniq belgilanishi joiz.

Nazarimizda amaldagi Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi yoki “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi qonunlarga favqulodda holatlarda bunday tekshiruvlarni ichki ishlar yoki milliy gvardiya organlari tomonidan amalga oshirilishi to‘g‘risidagi aniq qoidalar kiritilishi zarur.

Shunga ko‘ra, favqulodda hollarda ichki ishlar va milliy gvardiya xodimlari fuqarolar tomonidan norozilikni oldini olish va vaziyatdan chiqib ketish uchun va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rovni yoki qonun talablarini ixtiyoriy ravishda bajarishlari uchun ko‘proq fuqarolarning vaziyatni jiddiy ekanligini tushinishiga va huquqiy ongiga tayanishlari lozim. Shu bois ham ushbu qoida qonunchilikka ayrim tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali takomillashtirishni talab qiladi. Birinchidan, bizning fikrimizcha, tekshirish jarayonini alohida bandlarga ajratish kerak biror kishini yuzaki tekshirish va narsalarni yuzaki tekshirishni, transport vositalari, bagaj va yuklarni tekshirishdan ajratish joiz, ikkinchidan, ularni tekshirish asoslari ro‘yxatini kengaytirish lozim.



Olib borilgan tadqiqotlar natijasida favqulodda holatlar sharoitida inson huquqlarini cheklash institutining o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlash imkonini

berdi, Xususan, 2020 yilda COVID-19 infeksiyasining tez fursatda dunyo bo‘ylab tarqab ketishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida favqulodda vaziyat joriy etildi, shu favqulodda karantin choralari davrida jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar soni keskin kamayib ketganligi aniqlandi. Quyida COVID-19 infeksiyasi sabab respublikamizda joriy etilgan favqulodda vaziyat davrida jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi diagrammalarni keltirib o‘tamiz:



Ushbu diagrammadan ko‘rinib turibdiki favqulodda vaziyat rejimi amalda bo‘lgan 2020-yilda boshqa davrlarga nisbatan jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar soni keskin kamaygan. Bu ko‘rsatgichga ma’lum ma’noda inson huquqlarini cheklash bilan bog‘liq holatlar ta’sir ko‘rsatgan. Bir vaqtni o‘zida biz jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni sonini kamaytirish uchun inson huquqlarini cheklash lozim degan fikrdan yiroqdamiz[10].

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida (bundan buyon matnda - MJTK) favqulodda holatlarda xavfsizlik sohasida ma’muriy javobgarlikni belgilaydigan ayrim normalar mavjud. Bular sirasiga MJTKning 29-moddasi kiradi[11]. Ushbu moddaning dispozisiyasiga ko‘ra:Ma’muriy qamoqqa olish uch sutkadan o‘n besh sutkagacha muddatga, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun — o‘ttiz sutkagacha muddatga qo‘llaniladi. Ma’muriy qamoqqa olish jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, shuningdek harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig‘i tomonidan qo‘llaniladi. Ushbu sohadagi ma’muriy javobgarlikning asosiy maqsadi turli turdagi favqulodda holatlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq

bo‘lgan sharoitlarda xavfsizlikni ta’minlash, shuningdek favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish mexanizmini yaratish bo‘yicha ma’muriy-huquqiy chora-tadbirlar majmuini joriy etishni o‘z ichiga olgan favqulodda holatni joriy etishdir. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 9 yanvardagi O‘RQ-420-sonli “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi[12] qonuniga favqulodda holatlar sharoitida ichki ishlar organlarining xibsga olish qabulxonalarida alohida holat joriy etishni tartibga solish maqsadida uni yangi 10^1-modda “Maxsus qabulxonalarda alohida holat joriy etish” nomli norma bilan to‘ldirish to‘g‘risidagi takliflarni qo‘llab quvvatlaymiz. Unga ko‘ra Favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan, maxsus qabulxona joylashgan hududda favqulodda yoki harbiy holat joriy etilgan hollarda, urush davri mobaynida, ma’muriy qamoqqa olinganlar tomonidan guruh bo‘lib bo‘ysunmaslik, shuningdek ommaviy tartibsizliklar sodir etilganda maxsus qabulxonalarda alohida holat joriy etilishi mumkin.

Maxsus qabulxonalarda alohida holat tegishincha O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri (respublikaning barcha hududlarida joriy etishda), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar prokurorlari bilan kelishilgan holda alohida holat joriy etilishiga sabab bo‘lgan holat bartaraf etilgunga qadar joriy etiladi” degan.

Shu erda yana bir holatga izoh berib o‘tish joiz, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 29-moddasi dispozisiyasida favqulodda holat tartibi, shuningdek harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig‘i tomonidan belgilanadi-degan qoida kiritilgan, biroq 29-modda dispozisiyasida xarbiy komendant favqulodda holat subyekti sifatida ko‘rsatilmagan. Shu munosabat bilan ma’muriy qamoq jazosi qo‘llashga vakolatli bo‘lgan organlar qatoriga MJTKning 29-moddasi dispozisiyasi talablaridan kelib chiqqan holda yangi 10^1-moddaga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi qonunining 20-moddasiga (Hudud komendanti) harbiy komendatni ham qo‘shib qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lgan bo‘lardi.

Favqulodda holat huquqiy rejimi davrida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat xavfsizligi va tartibi sohasidagi yordamchi vakolatlariga quyidagilar kiradi: aholining hayotiy faoliyatini ta’minlaydigan infratuzilma ob’ektlari va maxsus himoya rejimi faoliyatini kuchaytirish. Boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan bir qatorda ushbu idoralar vakillari fuqarolardan ma’lum bir joyni tark etishni va ma’lum bir hududga kirishni cheklashni talab qilishga vakolatli. Ushbu turdagi ma’muriy va huquqiy cheklovlarning inson va fuqarolik huquqlari va erkinliklariga nisbatan qo‘llanilishi fuqarolarning

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan harakat erkinligi huquqini bilvosita cheklashiga olib keladi. Qo‘shimcha chora-tadbirlar qatoriga yana favqulodda holat rejimi sharoitida mulkni davlatning ehtiyojlari uchun majburiy begonalashtirishni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari bo‘linmalari, harbiy ma’muriyatlar yoki mahalliy hokimiyatlarning tegishli topshirig‘iga binoan, mavjud hisoblar va idoraviy ma’lumotlar bazalari ma’lumotlari asosida quyidagilarni taqdim etishi mumkin: fuqarolar va yuridik shaxslardan tegishli mol-mulkning muayyan davrda mavjud bo‘lishi, ularni qidirish, topish va hibsga olish va shunga o‘xshash narsalar mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar. Bunday holda, huquqni muhofaza qilish organining vakillari transport vositasining harakatlanishini cheklash yoki mulkga haqiqiy egalik qilishni cheklash kabi ma’muriy va huquqiy cheklovlarni qo‘llaydilar.

Tadqiqotchi A.V. Basovning ta’kidlashicha, ichki ishlar organlari tomonidan konstitutsiyaviy institut normalarini qo‘llash "fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishni cheklash" quyidagilar bilan bog‘liq huquqiy omillarga asoslanadi "qonuniy maqsadga intilish", "jamoat zarurati", "muhim maqsadga erishish uchun", "mutanosiblik", "mulohazakorlik", " huquq yoki erkinliklarni amalga oshirishga minimal darajada aralashish". Fuqaroga inson huquqlari va erkinliklarini cheklash ichki ishlar organlariga faqat bunday cheklash qilmish og‘irlik darajasiga mos darajada o‘lchash (proporsional) "sharti bilan ruxsat beradi[11] .

Shuning uchun, har qanday vaziyatda asos paydevori bo‘lgan asosiy konstitutsiyaviy prinsiplarni mensimaslik, demokratik, huquqiy davlatning mavjudligi, siyosiy, harbiy va boshqa maqsadga muvofiq zarurat bo‘lishiga qaramay, inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari buzish mumkin emas degan xulosaga kelish kerak. To‘g‘ridan - to‘g‘ri harakat normalarida qonun chiqaruvchi ikkita huquqiy rejimni-favqulodda holat va favqulodda vaziyat rejimini ajratib turadi, bu bizning davlatimizning huquqni muhofaza qilish organlari, shu jumladan ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari faoliyatiga ta’sir qiladi. Mazkur idoralar xodimlari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishda ma’muriy va huquqiy cheklovlarni qo‘llash ular oldiga qo‘yiladigan vazifalar va xizmat faoliyati davomida duch keladigan qiyinchiliklarga bog‘liq, bu holda ularni qo‘llashning qonuniyligi ham, ma’lum bir turni tanlash ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi.-T.2023.

2. Baxrax D.N., Rossinskiy B.V., Starilov Yu.N. Administrativnoe pravo Rossiyskoy Federasii: ucheb. - M.: Norma, 2004. - 766 s.

3. Ilyasov M-S.Z. Administrativno-pravovoe regulirovanie obщestvennыx otnosheniy pri vvedenii chrezvыchaynogo polojeniya v Rossiyskoy Federasii: dis. ... kand. yurid. nauk. - SPb., 2006. - 201 s.

4. Pchelinsev S.V. Problemы ogranicheniya prav i svobod grajdan v usloviyax osobыx pravovыx rejimov. - M.: Norma, 2006. - 480 s.

5.Rushaylo V. B. Administrativno-pravovыe rejimы. M.: Щit-M, 2000.- 263 s.

6.Malko A.V. Stimulы i ogranicheniya v prave: monografiya. - 2-e izd., pererab. i dop. - M.: Yurist', 2003. - 248 s.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021 y., 03/21/737/1163-son

8. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2022 y., 03/21/737/1163-son

9. Yangol N.G. Chrezvыchaynoe zakonodatelstvo i isklyuchitelnoe pravovыe rejimы: istoriya i sovremennost. - SPb.: SPbGUAP, SPbU MVD Rossii, 2000. - 406 s.

10. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 y., 3-son;

11. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 2-son, 24-modda;

12. Басов А.В. Понятие «ограничение» как юридическая категория: теоретический аспект // Административное право и процесс. 2023. № 1. S. 27-33.

INSON QADR-QIMMATI HAMDA HUQUQ VA ERKINLIKLARINI AKS ETTIRGAN KONSTITUTSIYA

Xotamov Sh.N.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,

Xudoyqulov Y.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, mayor.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan muhim islohotlarning pirovard maqsadi, inson, uning qadr-qimmati, farovon hayot kechirishini ta’minlashdir. Fuqarolik jamiyatining ajralmas jihatlaridan biri bu – albatta, shubhasiz inson haq-huquqlari va erkinliklarini kafolatlanishi hisoblanadi.

2022 yil 20 iyunda Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Ushbu uchrashuvda Prezidentimiz shunday deya

ta’kidlab o‘tdilar: “Barcha fuqarolarimiz kabi men ham bu muhim jarayonlarni diqqat bilan kuzatib boryapman. Aholimiz, jamoatchiligimiz vakillarining konstitutsiyaviy islohotlarga befarq bo‘lmasdan, o‘z taklif va mulohazalari bilan faol qatnashayotgani barchamizni quvontiradi. Albatta, konstitutsiyaviy islohotlarimiz Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masaladir”.

Ushbu uchrashuvda Prezidentimiz qisqa muddat ichida fuqarolarimizdan 48 ming 492 ta taklif kelib tushganligi va bu holat konstitutsiyaviy islohotlar ob’ektiv hayotiy zarurat sifatida kun tartibiga chiqayotganini, “Inson qadri uchun” g‘oyasini hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuvni Konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singdirib, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishimiz zarurligini alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Darhaqiqat, bugungi kunda tarixiy zaruriyatga aylangan Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida yangi g‘oyalarni Bosh Qomusimizning mazmun-mohiyatiga singdirish xalqimizning ehtiyoj va manfaatlari, xaq-huquqi va erkinliklari bilan bog‘liqdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan - “Inson qadri uchun” g‘oyasi Konstitutsiyaviy islohotlarning asosini tashkil etmoqda.

Inson haq-huquqlari va erkinliklari xalqaro me’yoriy-huquqiy xujjatlarda, shuningdek, dunyoning rivojlangan davlatlarining konstitutsiyalarida ham o‘z aksini topgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 1-moddasida, Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak deyiladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mazkur siyosiy islohotlarni dunyoning rivojlangan mamlakatlari Asosiy Qonunlariga qiyoslagan holda ularning inson huquqlarini ta’minlashga doir moddalarini o‘rganish o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Rossiya Federasiyasi Konstitutsiyasining 2-moddasida, “Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyatdir. Inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini tan olish, ularga rioya etish va himoya qilish davlatning burchidir” deyilsa, Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida, (1) Inson qadr-qimmati dahlsizdir. Uni hurmat qilish va himoya qilish har bir davlat hokimiyatining burchidir. (2) Shuning uchun nemis xalqi daxlsiz va ajralmas inson huquqlarini har bir insoniyat jamiyati, dunyodagi tinchlik va adolatning asosi sifatida tan oladi.

Shvesiya konstitutsiyasining 2-moddasida, Davlat hokimiyati barcha odamlarning qadr-qimmatini, har bir shaxsning erkinligi va qadr-qimmatini hurmat qilgan holda amalga oshirishi kerak

Moldova Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida, Moldova Respublikasi demokratik huquqiy davlat bo‘lib, unda inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, inson shaxsining erkin rivojlanishi, adolat va siyosiy plyuralizm oliy qadriyat hisoblanadi va kafolatlanadi.

Belorusiya Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida, Inson, uning huquqlari, erkinliklari va ularni amalga oshirish kafolatlari jamiyat va davlatning oliy qadriyati va maqsadidir.

Yaponiya Konstitutsiyasining 13-moddasida, Hamma odamlar shaxs sifatida hurmat qilinishi kerak. Ularning yashash, erkinlik va baxtga intilish huquqi, agar u jamoat farovonligini buzmasa, qonunchilik va boshqa davlat ishlari sohasida eng yuqori g‘amho‘rlikdir.

Ispaniya Konstitutsiyasining 10-moddasida, Inson qadr-qimmati va uning huquqlari dahlsizligi, erkin shaxs rivojlanishi, qonunlar va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish siyosiy tizim va ijtimoiy tinchlikning asosidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi deya belgilab qo‘yilgan.

Halqaro me’yoriy-huquqiy xujjatlar tizimi va dunyoning rivojlangan davlatlarining konstitutsiyalarini o‘rganish asosida quyidagi tarzda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 13-moddasiga taklif berish maqsadga muvofiqdir:

“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Mamlakatda inson qadri uchun tamoyili va demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Insonning demokratik huquq va erkinliklari xalqaro me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq keluvchi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan himoya qilinadi”.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda uyushqoqlik bilan amalga oshirilayotgan mazkur siyosiy jarayonlarda jamiyatimiz har bir a’zosining ishtiroki Baxtimiz Qomusi sanalgan Konstitutsiyaning hayotbahshligini belgilaydi. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlash to‘g‘rida ilgari surilgan takliflari tub negizida, avvalo inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek, olijanob maqsad mujassamdir.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – AMALIY TASHQI SIYOSAT VA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSI

Sattorov A.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti.

Dunyo mamlakatlarining tashqi siyosatidagi muhim vazifalari, maqsadlari va huquqi ushbu davlatning bosh qonuni – konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asosi konstitutsiyamiz moddalarida mustahkamlab quyilgan. Dunyo davlatlari konstitutsiyalari qatorida mamlakatimiz bosh qomusi o‘zining izchilligi va keng qamrovligi hamda aniqligi bilan afzallik jihatlariga ega. Huddu shuningdek, tashqi siyosat va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi huquqiy jihatlar ushbu hujjatda aks etgan.

Konstitutsiyaning muhim jihatlaridan yana biri u insoniyat aql dahosi kashf etgan demokratik tamoyillardan biri hokimyatlar taqsimlanishi prinsipini mustahkamlaydi. Shu asosda davlat hokimyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud idoralari o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishining oqilona konstitutsiyaviy mexanizmi shakllantirildi.

Mamlkatimiz bosh qonuni jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan xalqaro huquq tamoyil va qoidalariga mos darajada ishlab chiqilgan. O‘zbekiston xalqaro huquqning teng subyekti sifatida xalqaro munosabatlarga kirishadi. Konstitusyada O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida davlatlarning suverent tengligi, kuch ishlatmaslik yoki ishlatish bilan tahdid qilmaslik, chegalaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch siyosiy vositalar bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum etirof etilgan boshqa normalariga amal qilish zaminiga qurilgandir[1]. Shuningdek, ushbu huquqiy hujjatda respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkinligi ham ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda xalqaro munosabatlarning muhim subektiga aylanib o‘lgurdi. Mustaqil O‘zbekiston davlatini jahonning 130 ga yaqin davlati tan olib, ularning deyarli barchasi harkorlik va hamdo‘stlik aloqalarini mustahkamlab kelmoqda. Mamlakatimiz poytaxtida mustaqillikning ilk yillaridan jahonning qudratli davlatlari o‘z elchixona va vakolatxonalarini ochdi.

1992 yil 16 mart kuni AQSh davlati O‘rta Osiyo davlatlaridan birinchi bo‘lib yurtimizda o‘z elchixonasini ochdi va ikki davlat o‘rtasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston konstitutsiyamizda belgilab quyilganidek

bir qator ittifoq tashkilotlari bilan, hamdo‘stlik idoralariga to‘laqonli a’zo sifatida kira boshladi. Ana shunday nufuzli tashkilotlardan biri Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bo‘lib, uning tarkibida 1992 yil 26 fevral kunidan e’tiboran mamlakatimiz ishtirok eta boshladi. 1996 yil 21 iyun sanasida esa Italiyaning Florensiya shahridagi o‘zaro muloqot uchrashuvidan keyin O‘zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Mana shunday yirik tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatilishi va bu tashkilotlarga to‘laqonli a’zolikka kirish davlatimiz suverenitetini mustahkamlashga xizmat qildi.

2017 yildan e’tiboran mamlakatimiz tashqi siyosatida yangilangan O‘zbekistonning yangi tashqi siyosati namoyon bo‘la boshladi. Bugungi kungacha a’zo bo‘lmagan bir qator mintaqviy va xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Xususan, 2018 yil oktyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan davlatimiz mintaqaviy tashkilot Turkiy davlatlar Kengashi tashkilotiga tulaqonli a’zo sifatida qabul qilindi. Bugungi kunda tashqi siyosatda muhim, kun tartibidagi vazifalardan biri mintaqaviy tashkilot hisoblangan Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga to‘laqonli a’zo sifatida kirish masalasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti bir qator muhim davlat anjumanlarida ushbu masalaga to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ham bu masala xususida muhim ma’lumotlar keltirib o‘tdi.

Prezident yurtimiz tashqi savdosi xususida fikr yuritib, tashqi savdoga chiqadigan yuklarimizning 80 foizi Qozog‘iston, Qirg‘iziston Respublikasi va Rossiyaning tranzit yo‘laklari orqali o‘tishini bildirib o‘tgan edi. Shuning bilan birga, tayyor maxsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo‘yicha 80 foizi Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston xissasiga to‘g‘ri kelishi ta’kidlab o‘tildi [1].

Mana shunday omillar mamlakatimiz tashqi siyosati oldida o‘ziga xos integrasiyani amalga oshirish zaruriyatini taqazo etmoqda desak xato bo‘lmaydi.

Bozor munosabatlarida joriy qilinadigan o‘zgarish va yangiliklar birinchi navbatda xalqimizning turmush sharoitiga, ijtimoiy muammolariga engillik va farovonlik olib kelsagina ushbu tashkilotga a’zolik mamlakatimiz uchun naf olib kelishi mumkin. Mana shu jihatlarni inobatga olib davlat rahbari xalq vakillari bo‘lgan deputat va senatorlarimiz parlament palatalarida mazkur masalani atroflicha muhokama qilib, o‘z zimmalariga ma’sulyatni olgan holda, asoslangan xulosalarni aytishlari kerakligini ta’kidlab o‘tgan edi.

Albatta, har qanday xalqaro tashkilotning o‘z talab va shartlari bo‘lgani kabi EOII tashkilotiga a’zo bo‘lishlikning va uning faoliyati doirasida bo‘lishning o‘ziga xos talablari ham mavjud.

Agar EOIIga O‘zbekiston tulaqonli a’zo bo‘lib kirsa, horjdagi migrantlar mehnat patenti uchun to‘lovlardan qo‘tiladi. Lekin endi Rossiya fuqarosi yoki tashkilotga a’zo davlatlar fuqarolari singari qator soliqlarni to‘lashni boshlaydi. Birinchidan, bu jismoniy shaxslarning daromad solig‘i amaldagi stavkasi 13%. Misol uchun, 40 ming rubl daromadga ega migrant 5200 rubl soliq to‘laydi[3].

Bizning asosiy maqsadlarimiz va echilishi zarur bo‘lgan muammolar xususida Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining 2020 yil 20 yanvarda bo‘lib o‘tgan birinchi majlisida ham fikr yuritib “Bizning asosiy islohotlarimizga xalaqit bermasligi uchun integrasiyaning asosiy masalalaridan biri – bu bizning ko‘pgina odamlarimiz chet ellarda ishlashini hisobga olish darkor. Qo‘shni davlatlar Qozog‘iston va Rossiya bilan qanday hamkorlik qilishimiz kerak? Ko‘p odamlarimiz chet elda ishlayotgan bir paytda, bunga e’tibor bermasligimiz mumkinmi? Kimgadir yoqish –yoqmasligidan qat’i nazar, bu notug‘ri” deb aytib o‘tgan edi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida belgilanganidek tashqi siyosatning to‘laqonli a’zosi sifatida ushbu tashkilotga to‘laqonli a’zo bo‘lishi mumkin. Yoki uning talab va takliflarini o‘rganib chiqilgan holda unga umuan a’zo bo‘lmaslik huquqiga ham ega. Bosh qomusimizda belgilanganidek, respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlarga kirishi ham mumkin va aksincha bunday ittifoqlardan chiqib ketishi ham mumkin. Konstitutsiya tashqi siyosat bobidagi muhim huquqlarni belgilash bilan birga, bu borada qabul qilinayotgan har qanday qonun hujjatining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Kostitusiyasi. – T. O‘zbekiston. 2018. – 8 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2020 yil 25 yanvar. №18.
3. Rafiqov Q. Integrasiyalashuv jarayoni: to‘g‘ri yo‘lni tanlash. O‘zbekistonning Evroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kirishi xususida. // Xalq so‘zi. 2020 yil 29 yanvar, №21.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining 20 yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so‘zi. 2020 yil 21 yanvar.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTUTISIYAMIZDA INSON HUQUQLARI VA QADRI-QIMMATI TO‘LIQ KAFOLATLANGAN

Xotamov Sh.N.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoatxavfsizligi universiteti dotsenti.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklariga e’tibor berilishi barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda **“Inson qadri uchun”** degan ustuvor g‘oyadan kelib chiqib, biz, Yangi O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizasiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, shuningdek, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, ushbu yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas deb ehtirof etilgan.

Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish

uchun etarli bo‘lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Bizga ma’lumki Konstiusiyamizning 21-moddasida har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega ekanligi, hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas. Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur etkazmasligi shart. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkinligi hamda yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir deb mustahkam belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek Qomusimizning 26-moddasida insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emasligi zikr etilgan.

Undan tashqari inson tashqi muhitda bilib bilmasdan tartib intizomga roiya qilmasligi mumkin, ushbu holatlar ham Konstiusiyamizning 27, 28-moddalarida o‘z aksini topgan, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi asoslab qo‘yilgan.

28-moddada esa, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi, ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanishi, aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga

majbur emas. Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas deb qo‘yilgan.

Shuni alohida zikr etish joizku, Konstiusiyamizda insonning bir qator qonuniy huquqlari ham kafolatlangan. Jumladan, har bir shaxs jinoyat prosessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega bo‘lishi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to‘g‘risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so‘roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligi, qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi, jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni engillashtirish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga egaligi, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinishi, davlat jabrlanganlarga himoyalanishni va odil sudlovdan foydalanishni ta’minlaydi, ularga etkazilgan zararning o‘rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratilganligi asoslab qo‘yilgan.

Undan tashqari, hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emasligi, hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emasligi ham aytib o‘tilgan.

Yangi tahrirdagi Qomusimizda har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega bo‘lishi, har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega ekanligi. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi, har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo‘yishni va ko‘zdan kechirishni o‘tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi. Uy-joyda tintuv

o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi asoslangan.

Xatto insonning dahilsizligi va insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi ekanligiga alohida urg‘u berilib, davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi deb ehtrof etilgan.

Agarda insonning xaq huquqlari nohaq paymol etilgan bo‘lsa, bu ham Qamusimizda belgilangan moddolar bilan kafolatlangan. Yani, har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi. Har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli. Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli etkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega deb qo‘yilgan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- Toshkent., 2023y.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent., O‘zbekiston, 2019. – 508 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent., O‘zbekiston, 2019. – 400 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent., O‘zbekiston, 2020. – 454 b.

YANGI KONSTITUTSIYADA O‘ZBEKISTON IJTIMOIY DAVLAT DEB BELGILANISHINING ASOSIY KO‘RINISHLARI

Anarkulov A.D.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari,
i.f.f.d., (PhD), dotsent, polkovnik

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni, eng yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan maxsus normativ-huquqiy hujjat bo‘lib, unda davlatning siyosiy,

huquqiy va iqtisodiy tizimlarining asoslarini belgilab beradi. Konstitutsiya davlatning ta’sis etilishi nuqtayi nazaridan davlatni yaratishning asosiy maqsadlarini belgilaydi. Konstitutsiyada davlat va shaxsning huquqiy holatining asoslari, ularning huquq va majburiyatlari, davlat boshqaruv tizimi organlarini tashkil topishi, faoliyat ko‘rsatish tartibi, o‘zaro munosabatlari va vakolatlarini, shuningdek, shaxsning davlat hokimiyatiga nisbatan asosiy pozitsiyasini belgilovchi huquqiy normalar yig‘indisidir. Konstitutsiya’ni aholi va davlat o‘rtasidagi kelishuvi ya’ni ijtimoiy shartnoma sifatida namoyon bo‘ladi va bu davlatni shakllantirish tartibi, tamoyillari, hamda tomonlarning munosabatlarini belgilaydi.

Jahonda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlarning salbiy oqibatlaridan himoyalanish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash va globalizatsiya jarayonida munosib o‘rinni egalab turishimiz katta yutug‘imiz hisoblanadi. Respublikamizning erishgan taraqqiyot bosqichimiz iqtisodiy, siyosiy, huquqiy islohotlar natijasi hisoblanadi. Bu islohotlar orasida amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati yuksakdir. Respublikamizda 1992 yilda qabul qilingan Konstitutsiyada Sovet tizimidan ajralib chiqqan davlatimizni suverinitetini mustahkamlash, davlat boshqaruv tizimini asosini barpo qilish, turli xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni o‘rnatish, iqtisodiy erkinlikni ta’minlash va taraqqiyot yo‘lini belgilashga, davlatchilik asoslarini yaratishga xizmat qilgan bo‘lsada, bugungi kun taraqqiyot sur’atini ta’minlash, davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish va unda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, sifatini oshirish kabi maqsadlarga erishishda konstitutsiyaga keskin o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etdi.

Yangi Konstitutsiyani qabul qilish jarayoni oldingisiga qaraganda xalqni irodasini ifodalashi va xalq muhokamasi asosda bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Sababi Yangi Konstitutsiya loyihasi qabul qilingunga qadar 2 bosqichda xalq muhokamasiga qo‘yildi. Xalqimiz tomonidan berilgan minglab takliflar yangi Konstitutsiyada joy oldi.

Yangi Konstitutsiyada inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlar, jamiyat va shaxs, ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi, davlat hokimiyatining tashkil etilishi borasidagi o‘zgarishlar kiritgan holda oldingi Konstitutsiya matniga 65 foiz o‘zgarish kiritilgan. Bu o‘zgarishlarni asosi jamiyatda yashovchi fuqarolarni huquq va erkinligini ta’minlash bilan birga uning ijtimoiy manfaatlarini ustun qo‘yishga qaratilgan. Xususan Yangi Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekiston-boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb belgilangan.

Konstitutsiyaning 9-bobi. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquq deb nomlanib, unda fuqarolarning iqtisodiy faoliyatiga yarasha haq olishi,

davlatning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy ne’matlar bilan ta’minlashga oid moddalar berilgan. Jumladan 42-moddada har kim eng kam oylik maoshidan past bo‘lmagan miqdorda adolatli haq olish huquqi ega. Har kimning mehnati uchun kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish huquqi kafolatlangan. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi mustahkamlangan. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi belgilanmoqda. Shu bilan birga 43-moddada fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish choralarini ko‘rishi mustahkamlangan. 44-moddada bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi. Konstitutsiyaning 45-moddasida har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, boquvchisidan mahrum bo‘lganda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy yordamning miqdorlari eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan.

Yangi Konstitutsiyada har kim uy-joyli bo‘lish huquqi egaligi belgilanib qo‘yilgan. Har bir fuqaro, ayniqsa yosh oilalarning o‘z xonadoniga ega bo‘lishi, ijtimoiy barqarorlik va hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni oldindan va teng qiymatda qoplanishi ta’minlanishi kafolatlangan.

Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

Fuqarolarga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi bepul ko‘rsatiladi. Aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar 4 barobar ko‘paytirilgan. Bu onalar va bolalar o‘limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Aholimiz va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni saqlab qolish uchun konstitutsiyaviy kafolatlar yaratilmoqda

Yollanib ishlovchilarga har yilgi haq to‘lanadigan mehnat ta’tilidan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi mustahkamlanmoqda Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi. Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb

2 barobarga oshdi. Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga yetdi. Shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko‘paydi.

Yangi Konstitutsiyga kiritilgan o‘zgarishlar jamiyatda yashovchi shaxslarning huquq va erkinliklarni mustahkamlash, ularga davlat tomonidan ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy xizmatlarini oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin

KONSTITUTSIYA – ENG YUKSAK INSONIY QADRIYATLAR QOMUSI

Davletov O‘.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari, y.f.b.f.d. (PhD), dotsent podpolkovnik.

Konstitutsiya asrlar davomida shakllangan milliy g‘oya va sharqona qadriyatlar aks etgan oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan, huquqni hamma tarmoqlari uchun qonunchilik bazasi hisoblangan davlatni o‘ziga xos tanishtiruv hujjatidir.

Sir emas, o‘tgan davr ichida Konstitutsiyamiz jiddiy hayot sinovlaridan o‘tdi, halqimiz hayotida muhim bo‘lgan bu hujjatga kiritilgan 15 ta o‘zgartish va qo‘shimchalar asosida asrlar davomida yuz berishi mumkin bo‘lgan tengsiz o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Konstitutsiya jamiyat a’zolarini o‘zaro kelishib, tinch-totuv, bahamjihat yashashlarini ta’minlash uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, har qanday davlatning dunyo mamlakatlari orasidagi nufuzi, mavqei, obro‘-e’tibori va salohiyati iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti bilan bir qatorda, qonunchilik va ularni amalga tadbiq etish jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi hamda fuqarolarni mavjud qonunchilikka munosabati bilan ham belgilanadi.

Jamiyatni qonun boshqarmas ekan, boshboshdoqlik, firibgarlik, aldov, poraxo‘rlik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik, ta’magirlik va boshqa ko‘plab illatlar tomir otadi. Bunday jamiyatda adolat o‘rnatish qiyindan-qiyin masala bo‘lib qolaveradi. G‘arb jamiyati buni asrlar davomida boshidan kechirgan. Yakunda, qonun, qonun va yana qonun deb xulosaga kelgan.

Shu o‘rinda, Amir Temur o‘z tuzuklarida – davlatni boshqarish qoidalari majmuida – bunday bashorat qilgan edi: “Zaruriy tartibot va qoidalarga rioya qilish taqdirim va muvaffaqiyatlarimning negizi bo‘ldi”.

Florensiyalik yozuvchi, siyosatchi va huquqshunos olim Donte Aligeri shunday degan edilar: “Agar qonunlar bu qonun ostida bo‘lganlar baxt-saodatiga qaratilmagan bo‘lsa, ular nomigagina qonun hisoblanadi”. Zero, qonunlar odamlarning umumiy foydasi uchun ularni bir-biri bilan bog‘lashi

kerak. U yana jamiyat hayotini tartibga soladigan eng zarur vosita bo‘lishi kerakligini alohida uqdiradi. Huquqiy tartibot adolat bilan bog‘lanishi kerak.

Mamlakatimiz katta davlatga aylanayotganligi, aholimiz 2040 yilga borib 50 millionga yetishi, ularning yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etishi va ularga munosib sharoit yaratish, qolaversa boshqa ko‘pdan-ko‘p muammolar (barqaror iqtisodiyot, samarali boshqaruv, xavfsiz davlat va ijtimoiy kafolat) yechimi – eng yuksak insoniy qadriyatlar qomusi – O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi taqozo etdi.

Yangilanishning ijobiy tomonlarini quyida keltirilgan tahrirlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi matnida respublika so‘zi – 390/470, O‘zbekiston – 354/444, qonun – 210/294, davlat – 98/174, huquq – 90/156, Konstitutsiya – 70/97, fuqaro – 66/87, Prezident – 62/72, shaxs – 32/70, erkinlik – 27/35, xalq – 24/62, inson – 9/41, yoshlar – 1/6 marotaba qo‘llangan.

Tabiat qonun bilan yashar va yashnar ekan, inson ham qonun asosida kun kechirishga majbur. Chunki, inson ehtiyojlari cheksiz va behududki, agar yashashning maqbul qonun qoidalari ishlab chiqilmasa va unga amal qilinmasa, dunyoni jaholat egallaydi, odamlarning o‘rtasida vahshiylik kuchaygandan kuchayadi. Shunday ekan, qonun insonning istagidan qat’iy nazar uni tan olishga majbur qiladigan oliy kuch ekanligini unutmasligimiz kerak.

Inson huquqlari muammosi bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turayotgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida, aynan inson huquqlarining ta’minlanganlik darajasi bilan davlatning demokratik rivojlanganlik darajasi o‘lchanadi, inson huquqlari muayyan bir mamlakatda demokratik-huquqiy davlat barpo etish siyosatining o‘ziga xos parametridir. Zero, inson huquqlarini ta’minlash jamiyatning barcha jabhalardagi taraqqiyotning asosi, chunki inson huquqlari ta’minlangan jamiyatda raqobat muhiti paydo bo‘ladi, ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlar sur’atlari jadalashadi, pirovardida suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish bo‘yicha strategik maqsadga erishiladi.

Muxtasar aytganda, inson huquqlariga oid xalqaro prinsip va standartlarni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi yurtimizda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning barqaror huquqiy asoslarini yaratish bilan bir qatorda O‘zbekiston – boshqaruvning Respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi, unga ko‘ra, O‘zbekiston – huquqiy davlat sifatida – davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlashi, noaniqliklar inson foydasiga hal etilishi, insonning huquq va erkinliklari amalda kafolatlanishi, qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralar yetarli bo‘lishi, insonga majburiyat yuklatish mumkin emasligi, O‘zbekiston fuqarosi doimiy ravishda davlat himoyasida bo‘lishi, xorijdagi vatandoshlarga g‘amxo‘rlik qilinishi,

O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanishi, hech kim sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilmasligi, yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi, aybsiz insonlar jazoga tortilishi mumkin emasligi, sudlanganlik qarindoshlarga ta’sir qilmasligi, har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni himoya qilishi, propiska tizimi muammosiga barham berilishi, yoshlar huquqlari Konstitutsiyada kafotlanishi, nogironligi bo‘lgan shaxslar davlat himoyasiga olinishi, ijtimoiy xizmatlar davlatning majburiyati hisoblanishi, mol-mulkdan sudning qarorisiz mahrum etilishi mumkin emasligi, ishbilarmonlik muhiti ta’minlanishi, monopolistik faoliyat qonun bilan tartibga solinishi, yer xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi, parlamentning vakolatlari qayta ko‘rib chiqilishi, nazorat organlari ustidan parlament vakolati kengaytirilishi, ijro hokimiyati ustidan qonunchilik palatasi nazorati kuchaytirish, parlament tekshiruvi instituti mustahkamlanishi, sudyalar oliy Kengashi Senat tomonidan saylanishi, ish yurituvida sudyaning mustaqilligi kafolatlanishi, fuqarolarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi belgilanishi, advokatlar faoliyatining kafolatlarini mustahkamlanishi.

O‘zbekiston – ijtimoiy davlat sifatida – har kimning uy-joyga ega bo‘lishi, hech kim uy-joyidan sudning qarorisiz mahrum etilishi mumkin emas, kafolatlangan hajmda davlat hisobidan tibbiy yordam ko‘rsatilishi, har kim qulay atrof-muhitga ega bo‘lishi, ta’limga e’tibor va kafolatlar kengaytirilishi, davlat oliygohlarida davlat hisobidan o‘qish belgilanishi, bepul boshlang‘ich professional ta’lim berilishi, inkluziv ta’lim va o‘qituvchilarning qadr-qimmati Konstitutsiya bilan kafolatlanishi, oila rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi, farzandlar ta’lim olishi ota-ona majburiyatiga kiritilishi, bolalar mehnati taqiqlanib, ijtimoiy ta’minot olish kafolatlanishi.

O‘zbekiston – dunyoviy davlat sifatida – demokratiyaga zid bo‘lmagan holda tarixiy an’analar va jamiyat hayotining muhim sohalaridagi milliy xususiyatlarning saqlanishi, barcha fuqarolarning tengligiga asoslangan milliy siyosat olib borilishi, uning siyosiy mavqei iqtisodiy, ma’naviy va harbiy texnik imkoniyatiga, salohiyatiga mos bo‘lishi, fuqarolar ijtimoiy ongida demokratik tafakkurga amal qilinishi, mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borilishi, o‘z taraqqiyot yo‘lini mustaqil tanlashi va amalga oshirishi, o‘z qobig‘ida yashash mumkin emasligi qoidasiga tayanishi, ochiq demokratik davlat siyosatini yuritilishi qat’iy belgilandi.

Albatta, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida qadrlaydigan bosh qomus, davlatning asosiy hujjati. Unda, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida kafolatlanadi. Davlat boshqaruvi, hukumat organlari faoliyatining tartib-tamoyillari inson – jamiyat – davlat farovonligiga asoslanadi.

Shu nuqtai-nazardan, yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi

farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Biz buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda e’tibor qaratgan to‘rtta ustuvor yo‘nalish misolida ham kuzatishimiz mumkin. Bular:

birinchi yo‘nalish, inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari masalasi;

ikkinchi yo‘nalish, “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” g‘oyasi;

uchinchi yo‘nalish, Konstitutsiyada mahallaning maqomini hamda davlat organlarining bu boradagi vazifalarini aniq belgilash;

to‘rtinchi yo‘nalish, mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish, xalq hokimiyatchiligini kuchaytirish.

Bir so‘z bilan aytganda, inson huquqlariga oid xalqaro prinsip va standartlarni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi yurtimizda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning barqaror huquqiy asoslarini yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, asosiy qonunimiz o‘zida nafaqat xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettirgan, balki unda yangilikning eskilik ustidan, erkinlikni zo‘ravonlik ustidan, adolatning haqsizlik ustidan, taraqqiyotning tanazzul ustidan g‘alabasi muhrlangan. U tom ma’noda xalqimiz tafakkuri va ijodi mahsulidir. Muxtasar aytganda, inson huquqlariga oid xalqaro prinsip va standartlarni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va prinsiplari milliy qonunchilik negizini tashkil etdi hamda yurtimizda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning barqaror huquqiy asoslarini yaratishda mustahkam poydevor bo‘ldi.

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDA YANGILANGAN KONSTITUTSIYANING AHAMIYATI

Sirliyev E.N.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD).

“Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Sh.M.Mirziyoyev

Tarix saboqlaridan ma’lumki, har qanday ezgu niyat, orzu va maqsadning ro‘yobga chiqishi, avvalo, Alloh taborakka va taoloning inoyati va jamiyatdagi

mustahkam tinchlik va xotirjamlikka bog‘liqdir. Bu barcha zamonlarda o‘z isbotini topgan haqiqatdir.

Alloh insonni xalq qildi. O‘zi undan yaratgani va unga qaytaradigani yerga, zaminga, ona tuproqqa muhabbatni inson fitratiga qorishtirdi. Shayx Muhammad G‘azzoliy aytadilar: *“Bashar o‘z yeriga, garchi u tap-taqir sahro bo‘lsa ham qattiq bog‘lanadi. Vatanni sevish inson ruhiyatidagi asl tabiatdir. Ushbu tabiat vatanda yashashda huzur-halovat, undan uzoq bo‘linganda sog‘inch, hujum qilinganda mudofaa va kamsitilganda g‘azab hislarini paydo qiladi”* [7; 1-sahifa].

Istiqlol yillarida bosib o‘tgan shonli yo‘limizga nazar tashlab, ertangi kunimizga, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonchimiz yanada ortmoqda. Mamlakatimizni rivojlantirishning “Harakatlar strategiyasi”, “Taraqqiyot strategiyasi” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyalariga muvofiq barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirayotgan islohotlarimiz bu borada hal qiluvchi omil bo‘lmoqda.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan da’vatkor g‘oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Biz ayni shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta’minlash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo‘ymoqdamiz.

Mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasini bugun xalqimiz yurak-yuragidan his etmoqda.

Ayniqsa, yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbus hayotga samarali tatbiq etilmoqda. Yuqorida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning zamirida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jumladan, harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish masalasi yotadi.

Yoshlarning Vatan oldidagi harbiy majburiyatlarini sidqidildan sadoqat bilan ado etishlari uchun ularda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish ijtimoiy-psixologik mexanizmlari bilan birgalikda yoshlarga oid Davlat dasturlari, Farmonlar va Qarorlarda ham ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni [2; 38,97-maqsad], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni [3; 70,71-maqsad], 2017-yil 7-fevraldagi 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida PF-4947-son Farmoni [4; 4.5-bo‘lim], Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevralda 140-son “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik

ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori [5; 2,7-bob] hamda 2023-yil 29-iyun oyidagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-son Qarori [6; 1,6-bob] hamda boshqa me’yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uchun muayyan darajada zamin yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik mezonlaridan biri ta’lim-tarbiya jarayoni hisoblanadi. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni muayyan maqsadga yo‘naltirilgan tizim bo‘lib, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Barkamollikning muhim belgilaridan biri esa inson faoliyatida vatanga e’tiqodning namoyon bo‘lishidir. Bu borada yoshlarga ta’lim va tarbiya berishning asosiy omili bo‘lgan dars jarayonining ahamiyati katta. Ushbu asosiy omil orqali o‘quvchilar “Vatan”, “Vatanparvarlik”, “Ona-yurt”, “Istiqlol” kabi tushunchalarning mazmunini anglab, vatanga sadoqat, e’tiqod ruhida tarbiyalanib boradilar.

Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi muammosi zamonaviy voqelikda alohida ahamiyatga ega. Vatanparvarlik g‘oyasi barcha davrlarda nafaqat jamiyatning ma’naviy-axloqiy hayotida, balki faoliyatning boshqa ko‘plab jabhalarida: madaniy, mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma’rifiy va boshqa sohalarda ham alohida o‘rin tutgan. Bugungi kunda davlatimiz uchun vatanparvarlikdan muhimroq milliy g‘oya yo‘q va bu g‘oyani amalga oshirishning muhim vositasi, shuningdek, fuqarolik jamiyatini, etnik o‘ziga xoslikni shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasi yaxlitligi va birligini mustahkamlash vatanparvarlik tarbiyasidir.

Yuqorida keltirilib o‘tgan barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlarning fundamenti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan bo‘limining XI-bobida “Fuqarolarning burchlari” alohida ko‘rsatib o‘tilgan: 59-modda “Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradi”, 61-modda “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy-madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart” va 64-modda “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston respublikasining har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar belgilagan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” deya ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu moddalarda har bir O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan shaxslarning Vatan oldidagi burchlari to‘g‘risida ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Qonun bilan belgilangan burchlarni sadoqat bilan bajarishda shaxsning vatanparvarlik tuyg‘usi bilan birga takomillashgan ijobiy shaxsiy sifatlari alohida o‘rin egallaydi.

Yoshlarda axloqiy va vatanparvarlik qarashlarini rivojlantirishning asosiy ijtimoiy-psixologik mezonlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- ❖ yoshlarda yangi Konstitutsiya mazmun-mohiyati to‘g‘risida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- ❖ yoshlarni o‘z ona yurtining buguni va o‘tmishi bilan tanishtirish;
- ❖ yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda zamonaviy psixologik amaliyotda erishilgan yutuqlardan foydalanish;
- ❖ yoshlarda o‘z vataniga bo‘lgan yuqori darajadagi paraksik his-tuyg‘ularni takomillashtirish;
- ❖ o‘lkashunoslik faoliyati orqali yoshlarda vatanni qadrlash tuyg‘usini shakllantirish.

Har bir barkamol inson vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda mavlono Fuzuliyning, “mening bitta hayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo‘lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo‘lur edim”, deb aytgan so‘zlari har birimiz uchun bebaho o‘gitdir. Bu kabi o‘gitlar esa bizning jannatmonand diyorimizda tinch va farovon hayot kechirayotganimiz uchun shukronalar qilishga va shu barqarorlik va osoyishtalikni asrab-avaylash uchun barcha imkoniyatlarni tatbiq etishga undaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 2023 yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-son Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tararqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni
5. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevralda 140-son “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori
6. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyun oyidagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-son Qarori
7. O‘rinbayev R. “Vatanga muhabbat nozik tuyg‘u”. Maqola. – 2016 yil.

INSON VA FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHDA TEZKOR QIDIRUV FAOLIYATINING O'RNI

Payziyev A.M.
Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD), podpolkovnik,

Kamilov M.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining[1] 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi belgilab qo'yilgan.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2016-yil 1-noyabrda Andijon viloyati saylovchilari bilan o'tkazgan uchrashuvida: "Biz o'z faoliyatimizda qonun ustuvorligi, tartib intizom, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor beramiz. Yurtimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlatda adolat buzilishiga hech qachon yo'l qo'ymaymiz. Qonun va adolat himoyasi hokimiyatning barcha bo'g'inlari, eng avvalo davlat boshqaruv organlari, ayniqsa huquqni muhofaza qilish idoralarining birinchi darajali vazifasi bo'lib, ayni paytda butun jamiyatimizning kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etishi shart, deb hisoblaymiz"[2] deb ta'kidlab o'tgan edilar.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasini amalga oshirish borasida 2012-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi[3] qonuni qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonuni qabul qilinguniga qadar fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklashi mumkin bo'lgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining tezkor-qidiruv faoliyatidan boshqa barcha turlari qonunchilikda tartibga solingan edi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularni xodimlari faoliyatining shakl, vosita va usullari turli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan edi, bu esa tezkor-qidiruv faoliyatining ayrim institutlari bir xil tushunilmasligi va binobarin, bir xilda

[1] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn]: rasmiy nashr – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 128 b.
[2] Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat ilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Tashkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
[3] O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrdagi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-son Qonuni, https://lex. uz/mobileact/2107763

qo‘llanmasligiga olib kelar edi.

“Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi hozirgi sharoitda mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat barpo etilayotganligining amaliy ifodalaridan biridir, chunki tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifa va prinsiplari qonun darajasida tartibga solindi, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega organlar, ularning huquq va majburiyatlari belgilandi, vakolatlari va cheklovlari ajratildi. Bundan tashqari, tezkor-qidiruv tadbirlarining ro‘yxati, ularni o‘tkazish asoslari va shart-sharoitlari belgilandi. Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash masalalari qonun bilan tartibga solindi, mazkur faoliyatning qonuniyligi ustidan amalga oshiriladigan idoraviy va prokuror nazoratlari mustahkamlab qo‘yildi.

Ma’lumki, tezkor-qidiruv faoliyati ilgari jinoyatchilikka qarshi kurash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashning samarali va zaruriy vositasi bo‘lgan va shunday bo‘lib qolishi tabiiy.

Tezkor-qidiruv faoliyatida axborot olishning vosita va usullari o‘ziga xosligi, ko‘proq yashirin xususiyatga egaligi, tezkor-qidiruv tadbirlari, huquq va erkinliklarni cheklash bilan kechishi, jumladan, shaxslarning nooshkora asosdagi ko‘magidan foydalanilishi tufayli, huquqshunoslar, faylasuflar, siyosatchilar, huquq himoyachilari va oddiy fuqarolarning tanqidi, bahs-munozaralari va katta qiziqishi mavzui bo‘lib qolmoqda.

Buning asosiy sababi barcha sirli holatlar har doim ham qiziqish, shubha uyg‘otishi, tezkor qidiruv faoliyatida suiiste’molliklar uchun sharoit mavjudligi sababli inson huquqlarini himoyasi mavzusi nafaqat huquqiy, balki axloqiy baho obyektiga aylanadi.

Bu borada, fuqarolarni soxta dalillar, tuhmat va bo‘htonlar asosida javobgarlikka tortishdek hukm surib kelgan nomaqbul amaliyotga chek qo‘yishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar qilinganligini e’tirof etishimiz lozim.

Davlatimiz rahbari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yilning 13-iyunida Sud xodimlari bilan uchrashuvda sud-tergov sohasidagi mavjud kamchiliklar va nomaqbul usullarni tanqid qila turib, salbiy holatlarni bartaraf qilib, amaldagi qonunchiligimizda mustahkamlab qo‘yilgan sud ishlarini ko‘rib chiqishda sud tergovi davomida tekshirilgan va o‘z tasdig‘ini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi to‘g‘risidagi talablarni ilgari surgan edilar.

Buning amaliy natijasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud va tergov organlarining haqiqatni va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlash, shuningdek, qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror qabul qilish borasidagi mas’uliyatini oshirish maqsadida 2017-yilda 30-noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5268-sonli Farmonni[1] qabul qilinganligini e’tirof etish mumkin.

Mazkur Farmonda protsessual qonunchilikni jiddiy buzgan holda yoki noqonuniy uslublar bilan, shu jumladan, jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini ko‘llagan holda; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqini, shuningdek, tarjimon xizmatidan foydalanish huquqini buzgan holda; jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxsga huquq va majburiyatlarini tushuntirmaslik oqibatida uni chalg‘itgan holda, mazkur jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan protsessual harakatlarni o‘tkazish oqibatida, noma’lum manbadan yoxud jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo‘lmagan manbadan, dastlabki tergov jarayonida jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining sudda mavjud dalillar majmui bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatuvlaridan, mavjud dalillar majmui bilan tasdiqlangan hollardan tashqari, jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining taxmin, faraz yoki mish-mishlarga asoslangan ko‘rsatuvlaridan olingan hamda tegishli ravishda yuridik kuchga ega bo‘lmagan ma’lumotlardan jinoyat ishlari bo‘yicha dalil sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘zda tutilib, mazkur Farmon asosida jinoyat-protsessual kodeksi normalariga qo‘shimchalar kiritildi.

Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan 2018-yilda 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24-sonli “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi[2] Qarori qabul qilindi. Jumladan, ushbu Qaror bilan, agarda dalillar O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida nazarda tutilgan talablar buzilgan holda to‘plangan bo‘lsa, dalilning maqbul emas deb topilishiga asos bo‘lishi to‘g‘risida rahbariy tushuntirish berildi.

Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilda 10-avgustdagi №6041-sonli “Sud tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun uni ayblash taqiqlanishi belgilandi. Mazkur Farmon asosida O‘zbekiston

[1] “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, https://lex.uz.
[2] “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, https://lex.uz.

Respublikasining 2021-yildagi 18-fevraldagi O‘RQ-675-son Qonuniga muvofiq JPKning 81-88-moddalariga qo‘shimcha ravishda bandlar kiritildi.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarining eng muhim kafolati sifatida 2023-yil 30-aprelda Umumxalq Referundumi asosida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 31-moddasida “har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlarni sir saqlanishi huquqiga ega” ekanligi, ushbu huquqni cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi belgilab qo‘yildi. Shunga ko‘ra Konstitutsiyaning 16-moddasidan kelib chiqib, 2023-yil 1-maydan boshlab “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan shaxsning erkinliklari va shaxsiy daxlsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan tezkor qidiruv tadbirlari faqatgina sudning qarori asosida o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy asosi hisoblanadi. Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi haqidagi konstitutsiyaviy qoida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga bevosita aloqadordir. Chunki: birinchidan, jinoyat va jazoga oid siyosatning demokratizm va insonparvarlik ruhi singdirilgan, qonuniylikka qat’iy amal qilish bilan yo‘g‘rilgan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatining prinsiplari Konstitutsiya asosida shakllantiriladi;

ikkinchidan, u jamiyatni, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan asosiy qoidalarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar qonuniylikka rioya etishlari, jamiyat manfaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari qo‘riqlanishini ta’minlashlari shart. Mazkur qoidalarga davlat organlari, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolarning jamiyat va uning a’zolari manfaatlarini qo‘riqlashga xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy majburiyatlari sifatida qarash lozim. Ushbu qoidalar tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va ularning mansabdor shaxslariga ham taalluqlidir.

Konstitutsiyaning 19-moddasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, teng ekanliklari belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 25-35-moddalarida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklariga rioya etilishi kafolatlangan. Shubhasiz, ushbu qoidalar davlat organlari, jumladan, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatida ham qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonundan tashqari jinoyat-protsessual kodeksi ham tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy qoidalarini belgilovchi qonunchilik hujjatlari

hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan organlarga tergovga qadar tekshiruv organlari maqomi berilganligi qayd qilingan.

Jumladan, JPKning[1] 39^1-moddasi 2-qismiga ko‘ra “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar” zimmasiga zarur choralar ko‘rish vazifasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so‘ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko‘rish vazifasi yuklatiladi. Ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona xizmati organlari shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va ularning joylardagi bo‘linmalari shu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga haqli ekanligi belgilab qo‘yilgan.

“Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun asoslar keltirib o‘tilgan bo‘lib, bu belgilar bo‘lmaganida tezkor-qidiruv faoliyati amalga oshirilishi mumkin emas.

Jinoyat-protsessual kodeksi jinoyatni tergov qilishda tergovchi va tezkor xodimning hamkorlik qilish tartibi, dastlabki tergov o‘tkazilishi shart bo‘lgan jinoyatlar ro‘yxati, jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar, dalillarni to‘plash, tekshirish, baholash usullarini belgilab beradi.

“Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatida bir qator cheklovlar o‘rnatilgan bo‘lib, shulardan biri tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan fuqarolarni huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish va undash taqiqlangan edi.

Qonunchilikka kiritilgan qo‘shimchaga muvofiq JPKning 81-moddasi 3-qismida agar tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan bo‘lsa, ushbu kodeks normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyin, hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yoki tezkor-qidiruv tadbirida ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo‘lganligidan dalolat bersa, ushbu natijalar dalil sifatida tan olinishi mumkinligi va JPKning 88-moddasi 2-qismi 4-bandida esa isbot qilishda shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun uni ayblash taqiqlab qo‘yildi.

Qonunning bu talabi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (2022-yil 1-iyungacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) –T., 2022 y.– 488 b. https://lex.uz/acts/111460.

xodimlari tomonidan tezkor qidiruv tadbirlari obyektini nafaqat jinoyat, balki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar (huquqbuzarliklar)ga og‘dirish va undash ham man etiladi.

Masalan, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari yoki tezkor qidiruv tadbirida ishtirok etayotgan boshqa shaxslar tezkor qidiruv tadbiri obyekti bo‘lgan shaxsda ma’lum bir jinoyatni sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo‘lmagan holda, u g‘ayriqonuniy harakatlar sodir qilishga og‘diriladi va buning natijasida u shaxs jinoyat sodir qiladi.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda tadbir obyekti xatti-harakatini tanlash imkoniga ega bo‘lmaydigan sharoitlar yaratilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Agar shaxsda jinoyat sodir etish niyati bo‘lmasa, uni jinoiy harakatlarga undash yoki boshqa shaxsni keyinchalik fosh etish maqsadida uni muayyan jinoyatga jalb qilishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Buning ma’nosi shuki, jinoyat sodir etish tashabbusi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlaridan yoki ularga ko‘maklashuvchi shaxslardan emas, balki faqat tezkor-qidiruv tadbiri obyektidan kelib chiqishi lozim.

Agarda shaxsda jinoyat sodir qilish niyati bo‘lmasdan, u jinoyat sodir qilishga undalgan yoki og‘dirilgan bo‘lsa, bunday holatda shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Chunki, bunday tarzda dalil to‘plash Konstitutsiyaning 29-moddasi, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasi, JPKning 81, 88-moddalariga zid ravishda amalga oshirilgan hisoblanib, JPKning 95^{1}-moddasiga qo‘ra nomaqbul dalil hisoblanadi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 29-moddasida qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan.

Hozirda amal qilayotgan qonunlar hayotimizning huquqiy asosini tashkil etadi hamda kuchli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

KONSTITUTSIYA-SHAXSNING PROTSESSUAL HUQUQLARINI TA’MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATI

Payziyev A.M.
Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD), podpolkovnik,

Nazarova L.G.
Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi, katta o‘qituvchisi, y.f.b.f.d.(PhD).

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o‘zgarishlar, inson qadrini ulug‘lash va aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan barcha sa’y-harakatlar adolatli jamiyat va ijtimoiy davlat barpo etishga qaratilgandir.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar zamirida konstitutsiyamiz mustahkam poydevor ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Yangi O‘zbekiston – yangi islohotlar sharoitida inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi taraqqiyotimizning yuksalish mezonini belgilab beruvchi muhim omildir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hokimiyat bilan shaxsning o‘zaro munosabatlarini, davlat organlari tizimining faoliyat yuritishini, fuqarolarning huquqiy maqomini, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari holatini belgilovchi asosiy qoidalarni mujassam etgan asosiy qonundir. Yurtimizda inson qadrini ulug‘lashning mustahkam poydevori sifatida qaralayotgan yangi Konstitutsiyamiz normalari rivojlangan xorijiy davlatlar va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga to‘la mos desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, inson qadri, uning huquqlari ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan biron-bir jinoyatda gumon qilib ushlash, guvohlik qilish kabi huquqlarini ta’minlash mamlakatlarning bosh qonuni – Konstitutsiyalarida aks etganligini ko‘rish mumkin.

Jumladan: Singapur Konstitutsiyasining 6-moddasida “Agar shaxs hibsga olingan bo‘lsa, u hibsga olish sabablari to‘g‘risida imkon qadar tezroq xabardor qilinishi va o‘zlari tanlagan advokat bilan maslahatlashish va himoya qilish uchun ruxsat berilishi kerak. Agar shaxs hibsga olingan va ozod etilmagan bo‘lsa, u hech qanday sababsiz kechiktirmasdan va har qanday holatda 48 soat ichida sudya huzuriga keltirilishi kerak va sudyaning qarorisiz qo‘shimcha hibsga olinishi mumkin emas”;

Yaponiya Konstitutsiyasining[1] 31-moddasida “Hech kim hayotdan yoki ozodlikdan mahrum etilishi yoki qonunda belgilangan tartibdan tashqari hech qanday jazoga tortilishi mumkin emas”;

32-moddasida “Hech kim o‘z ishini sudda ko‘rish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas”;

33-moddasida “Hech kim hibsga olinishi mumkin emas, hibsga olish jinoyat sodir etilgan joyda amalga oshirilgan hollar bundan mustasno, sud hokimiyati vakolatli xodimining hibsga olish uchun sabab bo‘lgan jinoyat ko‘rsatilgan farmoyishi bundan mustasno”;

34-moddasida “Hech kimni zudlik bilan ayblash va advokat bilan maslahatlashish huquqi berilmasa, hibsga olinishi yoki qamoqqa olinishi mumkin emas. Xuddi shunday, hech kim tegishli asoslarsiz ushlab turilishi mumkin emas, bu haqda tegishli iltimosnoma bo‘lsa, qamoqqa olingan shaxs va uning advokati ishtirokida o‘tkaziladigan ochiq majlisda darhol xabar qilinadi”;

38-moddasida “Hech kim o‘ziga qarshi guvohlik berishga majburlanishi mumkin emas. Tazyiq, qiynoq yoki tahdid ostida, asossiz uzoq muddat hibsga olingan yoki qamoqqa olingandan keyin qilingan iqrorlik dalil sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Hech kimning aybiga iqror bo‘lishi unga qarshi yagona dalil bo‘lgan hollarda ayblanishi yoki jazolanishi mumkin emas”;

Germaniya Konstitutsiyasining 104-moddasida “Shaxsning erkinligi faqat parlament akti asosida va faqat unda ko‘rsatilgan rasmiyatchiliklarga rioya qilgan holda cheklanishi mumkin. Hibsga olinganlarga ruhiy va jismoniy shafqatsiz munosabatda bo‘lish mumkin emas. Ozodlikni cheklash muddatini qabul qilish va uzaytirish to‘g‘risida faqat sudya qaror qabul qilish huquqiga ega. Erkinlik sudyaning buyrug‘iga asoslanmagan holda cheklangan taqdirda, sudyaning qarori darhol olinishi kerak. Politsiya o‘z vakolatiga ko‘ra, hech kimni hibsga olingandan keyingi kunning oxirigacha uzoqroq ushlab turishi mumkin emas. Tafsilotlar qonun bilan tartibga solinadi. Jinoyat sodir etishda gumon qilinib, vaqtincha ushlab turilgan har bir shaxs ushlab turilgandan keyingi kundan kechiktirmay sudya huzuriga keltirilishi kerak, u ushlangan shaxsni ushlab turish sabablari to‘g‘risida xabardor qilishi, so‘roq qilishi va unga imkoniyat yaratishi shart. E’tirozlarini bildirish. Sudya darhol yo hibsga olish to‘g‘risida asoslantirilgan yozma qaror chiqarishi yoki qamoqqa olinganni ozod qilish to‘g‘risida buyruq berishi kerak. Sudyaning ozodlikni cheklash yoki uni cheklash muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarori to‘g‘risidagi har bir holat yuzasidan qamoqqa olinganning qarindoshi yoki uning ishonchli vakili darhol xabardor qilinishi shart”;

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 22-moddasida “Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn]: rasmiy nashr – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 128 b.

Qamoqqa olishga, qamoqqa olishga va qamoqqa olishga faqat sud qarori bilan yo‘l qo‘yiladi. Sud qaroriga qadar shaxsni 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emas”.

48-moddasida “Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam bepul taqdim etiladi.

Qamoqqa olingan, qamoqqa olingan, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxs ushlangan, qamoqqa olingan yoki ayblov e’lon qilingan paytdan boshlab tegishli ravishda advokat (himoyachi) yordamidan foydalanishga haqli”;

49-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir ayblanuvchi federal qonunlarda nazarda tutilgan va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan belgilangan tartibda uning aybi isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi.

Ayblanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas.

Shaxsning aybiga oid bartaraf etilmaydigan shubhalar ayblanuvchi foydasiga talqin etiladi”;

50-moddasida “Hech kim bir xil jinoyat uchun qayta hukm qilinishi mumkin emas.

Odil sudlovni amalga oshirishda federal qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir shaxs federal qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori sud tomonidan hukmni qayta ko‘rib chiqish, shuningdek avf etish yoki jazoni yengillashtirishni so‘rash huquqiga ega”;

Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasi 37-moddasida “Xitoy Xalq Respublikasi fuqarosining shaxsiy erkinligi daxlsizdir. Hech bir fuqaroni hibsga olish mumkin emas, bundan mustasno, xalq prokuraturasi yoki xalq sudining ruxsati yoki qarorisiz va qamoqqa olish jamoat xavfsizligi organi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Shaxsni har qanday noqonuniy ushlab turish, fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish yoki cheklash, fuqarolarni noqonuniy tintuv qilish taqiqlanadi” deb belgilab qo‘yilgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan mamlakatlar qatorida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham inson qadrini ulug‘lash, shaxsiy huquq va erkinliklar xalqaro huquq normalariga to‘la mos ravishda belgilab qo‘yilgan, jumladan, bosh qomusimizning 27-moddasida “Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart”;

28-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas”;

29-moddasida “Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi.

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to‘g‘risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so‘roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqiga,

shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga ega.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalanishni va odil sudlovdan foydalanishni ta’minlaydi, ularga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb belgilab qo‘yilganligini misol keltirish mumkin.

Ayni bu masalaga xalqaro huquq normalaridan ham to‘xtalib o‘tilgan, masalan, BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkda 1988-yil 9-dekabrda bo‘lib o‘tgan 76-yalpi majlisida tasdiqlangan “Har qanday shaklda ushlangan yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillarining to‘plami” muvofiq hech kim o‘z xohishiga qarshi guvohlik berishga majbur emasligini belgilash xalqaro umume’tirof etilgan huquq normalari o‘z aksini topadi. Ushbu hujjatga asosan har qanday shaklda ushlangan yoki qamoqqa olingan shaxsning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilish, huquqlarini amalga oshirish kabi prinsiplar belgilangan.

Shunday ekan mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlashning huquqiy kafolati rivojlangan xorijiy davlatlar va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga to‘liq mos qilishi hamda yurtimizda inson qadri ulug‘lanishidan dalolat beradi.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA HIMOYALANISH HUQUQINI KAFOLATI

Alimov M.I.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti
“Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
yu.f.b.f.d.(PhD), dotsent.

Malakali huquqiy yordamdan foydalanish huquqi shaxs huquqiy maqomining ajralmas qismi hisoblanib, nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquq normalari tomonidan ham kafolatlanadi. Ushbu huquqdan foydalanish jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan va ayblanayotgan shaxslarga zarur ekanligini alohida e’tirof etish kerak.

“Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasining 6-moddasiga muvofiq jinoiy qilmish sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxsga o‘zini shaxsan yoki himoyachi yordamida himoya qilish huquqiga egaligini belgilaydi[1]. Ushbu qoida Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 11-moddasida, shuningdek Fuqarolik va

[1] Международные конвенсии по защите прав человека и борбе с преступностю: Сборник международных договоров. – Т., 1995. – С. 234.

siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Paktning 2-moddasida ham qayd etilgan[1].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 29-moddasiga ko‘ra, har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi.

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlab turilganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Ya’ni, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi shaxsan o‘zi yoki himoyachi (advokat) yordamida himoyalanish huquqiga ega. Yuridik yordam ko‘rsatish, jumladan, jinoyat ishlarida himoya’ni amalga oshirish uchun davlatimizda advokatlik instituti faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq advokatlarning huquq va burchlari hamda ularning o‘z faoliyatlarini tashkil etish tartiblari belgilangan[2].

Mamlakatimizda mazkur huquqiy qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida – sud ishlarini yuritishda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab berilishi lozimligi sifatida, jinoyat ishlari bo‘yicha ish yurituvni tartibga soluvchi amaldagi jinoyat protsessual kodeksida esa – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarni himoyalanish huquqi bilan ta’minlash prinsipi tariqasida mustahkamlangan. Jumladan, jinoyat sodir etgan shaxslarga barcha huquqlari tushuntirilib berilishi va zimmasiga qo‘yilayotgan ayblovdan himoyalanishi uchun qonunda ko‘rsatilgan barcha vosita va usullardan foydalanishga haqiqiy imkoniyatlarning ta’minlanishi shartligi qonunan tartibga solingan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarga ko‘ra, *ayblov* – bu muayyan shaxsni jinoyat sodir etishda ayblanayotganligi yoki gumon qilinayotganligi haqida vakolatli organ tomonidan uni ogohlantirilishidir, shuningdek, bunday ogohlantirish gumon qilinuvchining maqomiga ta’sir etuvchi boshqa choralar shakliga ham ega bo‘lishi mumkin». Demak xalqaro huquqiy hujjatlar jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan har qanday shaxsga, shuningdek protsessual majburlov choralari qo‘llanilgan har bir gumon qilinuvchiga himoyachi xizmatidan foydalanish imkoniyati kafolatlanishini milliy qonunchilikda aks ettirilishini talab qiladi.

Umuman olganda, shaxsning o‘z huquqlarini shaxsan himoya qilish yoki himoyachining xizmatidan foydalanish huquqining qachon yuzaga kelishini belgilab olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu yerda qonun hujjatlarida

[1] Узбекистан и международные договора по правам человека. – Т. 1998. –С.9-16; –С. 440–465.

[2] O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. –№2. –50-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2009 –№39. – 423-modda.

qo‘llaniladigan advokat va himoyachi terminlarining o‘zaro nisbati va farqlarini aniqlab olishimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasining "Advokatura to‘g‘risida"gi qonuniga asosan, advokatura – huquqiy tizim bo‘lib, u advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. Advokatura O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi. Oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida advokat bo‘lishi mumkin[1]. Himoyachi esa – jinoyat protsessining ishtirokchisi hisoblanadi. Amaldagi jinoyat protsessual qonunchilikka asosan himoyachi gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirishga hamda ularga kerakli yuridik yorda ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir2. Jinoyat ishi bo‘yicha himoyachi sifatida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslardan tashqari maxsus ruxsatnomaga ega shaxslar, jamoat birlashmalarining a’zolari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarning yaqin qarindoshlari yoki boshqa shaxslar ham ishtirok etishi mumkin. Demak himoyachi jinoyat protsessining ishtirokchisi bo‘lganligi bilan advokatdan farqlanadi va o‘zining protsessual maqomiga, ya’ni huquq va majburiyatlariga ega, bu holat protsessual qonunchilikda ham aniq belgilangan.

Milliy protsessual qonunchiligimizga ko‘ra, himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi (JPKning 49-m., 3-q.).

Shunday qilib, milliy protsessual qonunchiligimiz jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni himoyalanish huquqi bilan ta’minlashi jihatidan xalqaro huquqiy standartlarga mos kelishini qayd etish joiz.

Shuningdek, “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to‘g‘risida xabardor qilinish, o‘ziga qarshi ko‘rsatma bergan guvohlar bilan yuzlashtirish, o‘z foydasiga ko‘rsatma berayotgan guvohlarning chaqirtirilishi huquqiga ega” degan kafolat mustahkamlandi.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur kafolat nimani anglatadi?

Jinoyat ishi yuzasidan dalillarni to‘plash, ularni baholash borasida gapirishdan avval jinoyat protsessining asosiy vazifalariga to‘xtalish muhim.

1 Rustambayev M.X. Sud va huquqni muxofaza qiluvchi organlar. –T., 2011. –B.294.
2 O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual kodeksi. – T., 2021.

Davlat jinoyat sodir etishni taqiqlar ekan, uni sodir etishga nisbatan o‘z munosabatini bildirib, maxsus mutasaddi subyektlarga - surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudga jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog‘liq barcha holatlarni aniqlash majburiyatini yuklaydi. YA’ni, davlat ularga vakolat berishi bilan birga, ulardan jinoyat hodisasi aslida qanday bo‘lganligini aniqlashni talab qiladi. Lekin ayni paytda ularning faollik chegarasini ham aniq belgilab, jinoyat protsess ishtirokchilaridan zo‘rlash, qo‘rqitish, huquqlarini cheklash va qonunga xilof bo‘lgan o‘zgacha choralar bilan ko‘rsatuvlar olishga urinishni taqiqlagan.

Jinoyatni ochish, ayblanuvchilarni fosh qilishda faqat va faqat qonuniy usullardan foydalanish mumkin. Aynan shuning uchun tergov organlari idoraviy yoki boshqa bir manfaatni ko‘zlab harakat qilmasligi, ayniqsa ayblov pozitsiyasida turmasligi, faqat ayblovchi dalillarni to‘plash bilan chegaralanmasligi zarur.

Jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqilishi zarur. Ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda shaxsni ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og‘irlashtiradigan holatlar birdek aniqlanishi va hisobga olinishi lozim.

Bu borada ta’kidlash joizki, aynan jinoyat protsessida shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish masalasi juda muhim. Sababi, aynan jinoyat protsessida insonga asossiz jismoniy yoki ruhiy tazyiq o‘tkazish xavfi katta. Shaxsga nisbatan protsessual majburlov choralarini qo‘llash vakolati berilgan mansabdorlarda ham insonga xos bo‘lgan kamchilik va illatlar kuzatilishi va ular ham fuqarolar bilan ishlash uslublarida xatolarga yo‘l qo‘yishi ehtimoli mavjud. Shu sababdan ham, qonun kimgadir emas, aynan mansabdor shaxslarga jinoyat protsessi ishtirokchilari bilan har qanday noprotsessual usulda muloqot qilishni, ya’ni o‘z hokimiyat vakolatini suiiste’mol qilishni qat’iyan taqiqlaydi.

Aytish kerakki, so‘nggi yillarda amaldagi qonunchilikka sud-tergov amaliyotida noqonuniy usullar qo‘llashni oldini olishga oid jiddiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, bu yo‘nalishdagi muhim islohot sifatida Jinoyat-protsessual kodeksiga dalillar nomaqbulligiga oid yangi alohida modda kiritilganini ko‘rsatish zarur. Mazkur qoidaga ko‘ra, qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo‘li bilan yoxud JPK talablari buzilgan holda olingan dalillar nomaqbul hisoblanadi. Nomaqbul dalillar yuridik kuchga ega bo‘lmay, ularni ayblov asosiga qo‘yish mumkin emas!

Alohida ta’kidlash zarurki, “jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llagan holda” olingan dalillar nomaqbul hisoblanib, ulardan jinoyat ishi bo‘yicha foydalanish qat’iy taqiqlanadi.

Noqonuniy usullardan foydalanish Jinoyat-protsessual qonuni bilan taqiqlangan bo‘lsada, afsuski, bugungi sud-tergov amaliyotida bunday holatlar hali hanuz kuzatilmoqda. Ilgari nomaqbul dalillar asosida ayblangan shaxslarga oid hukmlarning yuqori instansiyalarda qayta ko‘rilishi natijasida chiqarilayotgan ko‘plab oqlov hukmlari buning yaqqol isboti hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 29-moddasida nazarda tutilgan navbatdagi yangi kafolat quyidagicha: “Huquqbuzarliklardan va hokimiyatni suiiste’mol qilishdan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga odil sudlovdan foydalana olishini va yetkazilgan zarar kompensatsiya qilinishini ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki yangilangan konstitutsiya va amaldagi jinoiy-huquqiy normativ-huquqiy hujjat shaxsning jinoiy tajovuzlardan himoyalabgina qolmay uning huquq va manfaatlarini jinoyat protsessining ishtirokchilik shaklidan qat’iy nazar himoya qilinishini kafolatlaydi.

PROFAYLING TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Ikanov A.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i,
yu.f.b.f.d. (PhD).

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va muhim normalarning hayotga tatbiq etilishi, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida ham ana shu konstitutsiyaviy qoidalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi yurtimiz va jamiyatimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug‘lash borasida yangi davrni boshlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan inson hayoti muqaddas hisoblanadi. Zero, Konstitutsiyamizning 25-moddasida: “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir” – deb qayd qilingan[1].

Hozirgi zamon sharoitida xorijda qonun chiqaruvchilar, ilmiy jamoatchilik va amaliy xodimlar maxsus bilimlardan foydalanishning yangi

shakllarini jinoyatlarning oldini olish, fosh etish va tergov qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish va amaliyotga joriy etishga jiddiy e’tibor qaratmoqdalar.

Bizning fikrimizcha, ushbu sohada eng samarali chora-tadbirlardan biri bu “profayling texnologiyasi”ni qo‘llash hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili hozirgi vaqtda profaylingning mohiyati va metodologik asoslari to‘g‘risida yagona fikr mavjud emasligini, profayling borasida ham psixologik, ham kriminalistik, kriminologik jihatdan bir necha xil yondashuvlar mavjudligini hamda ularning aksariyati kamchiliklardan xoli emasligini namoyon qilmoqda.

Shuningdek, “profayling” tushunchasini ta’riflash bo‘yicha turli xil qarashlar mavjud. Xususan:

Profayling – amaliy psixologiya usullaridan foydalangan holda ehtimoliy xavfli shaxslar va vaziyatlarni aniqlash orqali noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish texnologiyasi hisoblanadi.

Profayling – bu ma’lum bir subyektning rejalashtirilgan jinoiy harakatini amalga oshirish ehtimolini aniqlash tizimi.

Bundan tashqari, olim O.A. Karpenkoning ta’kidlashicha [2], profayling tushunchasiga berilgan ta’riflar ichida eng batafsili psixologiya fanlari doktori M.R. Arpentevaning quyidagi ta’rifi hisoblanadi:

“Profayling – ob’ektning noverbal, verbal va subverbal xulq-atvorini baholashga asoslangan shaxs xususiyatlarini, yashirin motivlarni diagnostika qilish va xabar qilinayotgan axborotni baholash, vaziyat va munosabatlar, xatti-harakatlar, xulq-atvor va inson muloqotining rivojlanish ssenariylarini taxmin qilish bo‘yicha ijtimoiy-psixologik usullar majmuidir”.

Shuningdek, ilmiy doiralarda profayling texnologiyasini bir qancha turlari ajratib ko‘rsatiladi. Jumladan [3]:

– aviasiya ob’ektlaridagi profayling;
– temir yo‘l ob’ektlaridagi profayling;
– mehmonxona profaylingi;
– biznes-profayling;
– kriminalistik profayling;
– audit-profayling;
– kadrlar profaylingi;
– bank profaylingi;
– sug‘urta profaylingi;
– oilaviy profayling.

Operativ-qidiruv va tergov faoliyati uchun aynan kriminalistik profayling psixologik diagnostika qilish, bila turib yolg‘on ko‘rsatma berishning oldini olish, u yoki bu tergov harakatlarini amalga oshirishning taktik usullarini ishlab chiqish maqsadida juda dolzarb deb aytishimiz mumkin.

Mahalliy olimlardan farqli o‘laroq, xorijiy olimlar profaylingdan amaliy foydalanish yo‘nalishida uzoq vaqtdan beri samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar. Misol uchun J. Duglas ko‘rib chiqilayotgan texnologiyani ishlab chiqishning bayroqdorlaridan biri edi. O‘tgan asrning 70-yillari oxirida u AQSh federal tergov byurosida (FBI) bixevioristika (xulq-atvorning psixologik tahlili) bo‘limini tashkil etdi. Alohida ta’kidlash kerakki, u dunyoda birinchi bo‘lib qotillik bilan bog‘liq ishlarni tergov qilish amaliyotiga psixologiya usullarini joriy etgan[4].

J. Duglas “shaxsni – jinoiy profillash” tadqiqot dasturi doirasida kim va nima uchun qotillik jinoyatlarini sodir etayotganini aniqlashga harakat qildi. Uning tadqiqot ishi natijasida AQShda “profayler” atamasi hamda bu kasbning o‘zi paydo bo‘ldi.

J. Duglas profaylingni “shaxsning barcha psixologik xususiyatlarini identifikasiyalash jarayoni, u sodir etgan jinoyatlar tahliliga asoslangan shaxsning umumiy tavsifini tashkil etadi” deb ta’riflagan[5].

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda profayler kasbi yuridik jihatdan mavjud emas, shu bilan birga, profayler kadrlarning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, vazifa va funksiyalari, hisobdorligi va javobgarligi ishlab chiqilmagan hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llash vazifalarini amalga oshiruvchi “mutaxassis – profayler” kadrlarni tayyorlash tizimi joriy etilmagan

Shunday bo‘lsada, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023 yil 10 apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta’minlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida” 185-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta’minlash tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma”da:

“profayler poligrafologning taklifiga asosan tekshiruv davomida, o‘rganiluvchining xatti-harakatlarini kuzatish uchun” deb belgilangan (77-band. Psixofiziologik tekshiruv o‘tkazilayotgan xonada o‘rganiluvchi va poligrafologdan tashqari ishtirok etishi mumkin bo‘lgan mutaxassislar).

Umuman olganda, AQShda “kriminalistik profayler” degan kasb mavjud. Aksariyat hollarda kriminalist profaylerlar – bu Federal tergov byurosining amaldagi xodimlari bo‘lib, ular kasbiy tayyorgarlikdan o‘tadi (500 soatgacha), bunda profayling bilan shug‘ullanuvchi milliy va xalqaro tashkilotlarda doimiy malaka oshirish kurslaridan o‘tish majburiy shart hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida profayling texnologiyasidan foydalanish O‘zbekison Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan insonning yashash huquqini qonun bilan muhofaza qilinishini ta’minlash imkonini beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatiga jalb qilinadigan harbiy xizmatchi va xodimlarni hamda tergov va tezkor

bo‘linmalar xodimlarini profaylingdan foydalanishga o‘rgatish, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o‘quv jarayoniga profaylingdan amaliy foydalanish sohasida mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145

2. Karpenko O.A. Kriminalisticheskiy profayling: problemы primeneniya i puti resheniya // Vestnik Vostochno-Sibirskogo instituta MVD Rossii, №4, 2019. – S.178.

3. Xasanova R. Chto takoe profayling. 11.04.2024. https://sunmag.me/interesnoe/chto-takoe-profajling. html (murojaat sanasi 09.11.2024).

4. John Douglas. Profiling. https://criminalminds.fandom.com/ wiki/John_ Douglas (murojaat sanasi 09.11.2024).

5. Ressler R., BurGESs A., Douglas J. Criminal Profiling Research on Homicide. Unpublished Research Report. – N.Y., 1982. – 70 p.

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHLARI VA KONSTITUTSIYA: XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Elov A.A.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosh ilmiy xodimi, h.f.f.d (Phd).

Global iqlim o‘zgarishlari oqibatlari barcha mintaqalarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda, bu esa xalqlar hayoti va ayrim hollarda davlatlarning mavjudligi uchun xavflarni keltirib chiqarmoqda. Ko‘plab davlatlar iqlim o‘zgarishi xavf-xatarlarini bartaraf etishga qaratilgan konstitutsiyaviy normalarga asoslangan chora-tadbirlarni ko‘rmoqda.

Shu nuqtayi nazaridan, bugungi kunda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini milliy tajribada joriy qilish istiqbollarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqlim xavf-xatarlari nisbatan “yangi muammolar” qatoriga kirganligi va amaldagi konstitutsiyalar uzoq yillar oldin qabul qilinganligi sababli, ko‘plab davlatlar konstitutsiyalarida iqlim bo‘yicha maxsus konstitutsiyaviy normalar mavjud emasligini kuzatish mumkin.

Ushbu mavzuga oid tadqiqotlardan birida 11 ta davlat, jumladan Jazoir, Boliviya, Kot-d’ivuar, Kuba, Dominikan Respublikasi, Ekvador, Tailand, Tunis, Venesuela, Vetnam va Zambiya konstitutsiyalarida “iqlim normalari” mavjudligi aniqlangan. Jumladan, iqlimga oid konstitutsiyaviy normalar Lotin Amerikasi mamlakatlarining taxminan 45%da va Afrika davlatlarining 36% konstitutsiyasida belgilangan. Evropa va Shimoliy Amerika davlatlari konstitutsiyasida esa iqlimga oid normalar mavjud emas. Iqlimga oid normalar

mavjud bo‘lgan konstitutsiyalarning 63% so‘nggi 15 yilda qabul qilingan. Ushbu 11 ta davlat konstitutsiyasidagi iqlimga oid bandlarning 82% asosiy matnlarda va qolgan 18% esa kirish qismida bayon etilgan. Shuningdek, iqlimga oid normalarning 82% yumshatish, moslashish va chidamlilikni oshirishga bag‘ishlangan normalar hisoblanadi [1].

Mazkur davlatlar konstitutsiyasidagi normalarning aksariyatida iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish bo‘yicha davlatlarga majburiyatlar yuklangan. Jumladan, Ekvador Konstitutsiyasining 414-moddasida “Davlat issiqxona gazlari chiqindilarini, o‘rmonlarni kesish va havo ifloslanishini cheklash orqali iqlim o‘zgarishini yumshatish uchun tegishli va o‘zaro bog‘liq choralarni ko‘radi; o‘rmonlar va o‘simliklarni saqlash choralarini amalga oshiradi; va ushbu xavf ostida bo‘lgan aholini himoya qiladi” kabi rahbariy normalar belgilangan. Yoki, Zambiya konstitutsiyasida davlat “iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash mexanizmlarini yaratish va amalga oshirishni ta’minlaydi” deya qayd etilgan [1].

Shu kabi, Tunis konstitutsiyasi barcha fuqarolarga iqlimni muhofaza qilishda ishtirok etish huquqini kafolatlaydi, Venesuela konstitutsiyasida esa “aholining ifloslanmagan muhitda rivojlanishini ta’minlash, iqlim o‘zgarishlari oqibatlaridan himoya qilish davlatning asosiy burchi” ekanligi belgilangan [1].

Qolgan davlatlar konstitutsiyalarida atrof tabiiy muhitni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologiyaga ziyon yetkazmaslikka oid normalar belgilangan bo‘lib, mazkur normalar mamlakatlarning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishga nisbatan yondashuvini yo‘naltiruvchi keng qamrovli huquqiy asoslar hisoblanadi.

Masalan, Hindiston Konstitutsiyaning 47-moddasida davlatga ovqatlanish, turmush darajasi va sog‘liq sifatini oshirish majburiyati, 51-A(g)-moddasida fuqarolarga tabiiy elementlarni saqlash va yaxshilash vazifasi belgilangan [2]. Yoki, Belarus Konstitutsiyaning 44, 45, 46-moddalarida atrof-muhitni muhofaza qilishga doir bir qator normalar belgilangan [3].

Ko‘plab davlatlar amaliyotida iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va iqtisodiy o‘sish chora-tadbirlari bir-biriga zid kelib, iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi kuzatilmoqda.

Tayvanlik olim Chun-Yuan Lin fikriga ko‘ra, “fuqarolar iqlim inqirozini hal qilishini hukumatdan kutishsa-da, ular iqlimga do‘st bo‘lgan siyosat o‘zgarishlariga zid qisqa muddatli joriy ehtiyojlarni birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Masalan, odamlar qayta tiklanadigan energiyani qo‘llab-quvvatlamoqda, lekin elektr energiyasi narxining oshishiga va atom elektr stansiyalarining to‘xtatilishiga qarshi” [4].

Indoneziyalik iqlim faoli Belgis Laela Nur Habiba ham shaxsiy manfaatlar va kelajakka yo‘naltirilgan siyosat o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ta’kidlab, Indoneziya allaqachon iqlim o‘zgarishining sezilarli ta’sirini boshdan

kechirayotganligini, Jakartaning cho‘kib borayotgan poytaxtini ko‘chirish zarurligini ta’kidlagan holda, “parlament a’zolari ko‘pincha umumiy, uzoq muddatli manfaatlar emas, balki o‘zlarining moliyaviy maqsadlari yo‘lida harakat qilayotganligini” [4] ta’kidlaydi.

Biroq, o‘rganilgan konstitutsiyalardagi mavjud normalar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha choralar, iqlim siyosatini ishlab chiqish, qonunchilikni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga bevosita yo‘naltirilmagan.

Olimlarning fikriga ko‘ra, konstitutsiyaviy normalar quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim [5]:

– yumshatish: qayta tiklanadigan energiya va uglerod bozorlari kabi issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish yoki oldini olishga qaratilgan harakatlar;

– moslashuv: hozirgi va kelajakda iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga javoban ekologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy tizimlardagi muammolarni bartaraf etish. U atrof-muhitni tiklash, uylar qurish, infratuzilma va iqlim o‘zgarishi muammolarini hal qilish choralari;

– yo‘qotish va zarar: iqlim o‘zgarishi oqibatida ob-havoning yoki dengiz sathining ko‘tarilishi natijasida er va tirikchilik vositalarini yo‘qotishni qoplash va boshqalar.

Xulosa qilish mumkinki, ko‘plab davlatlar konstitutsiyasida tabiiy resurlardan foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlashga oid konstitutsiyaviy normalarning belgilanishi global iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda qabul qilingan konstitutsiyalarda esa iqlimga oid normalar kiritilmoqda.

Kelgusida mazkur norma ijrosini ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda qayta tiklanadigan energiya va uglerod bozorlari kabi issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish yoki oldini olish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini hal qilishda boshqaruvni yaxshilashga oid qoidalarni kuchaytirishga qaratilgan normalarning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karla Martinez Toral and others. The 11 nations heralding a new dawn of climate constitutionalism. 2 December, 2021 // https://www.lse.ac.uk-/granthaminstitute/news/the-11-nations-heralding-a-new-dawn-of-climate-constitutionalism/.

2. Climate Change and Constitutional Response. Ministry of New and Renewable Energy 26th November 2023. // https://legalaffairs.gov.in-/sites/default/files.

3. Конституция Республики Беларус 1994 года. (с изменениями и дополнениями, принятыми на республиканских референдумах 24 ноября

1996 г., 17 октября 2004 г. и 27 февраля 2022 г.) // ҳттпс://эталонлине.бй-/документ/?регнум=в19402875

4. Billie Phillips. Climate Change and Constitutions: Insights from Asia & the Pacific. June 20, 2024. // https://www.idea.int/news/climate-change-and-constitutions-insights-asia-pacific

5. CLIMATE CHANGE AND CONSTITUTIONS. The Eighth Melbourne Forum on Constitution Building in Asia and the Pacific. Jointly organised by International IDEA, Constitution Transformation Network and National Taiwan University College of Law Taipei, Taiwan, 23-24 May 2024. CONCEPT NOTE.

KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Zurapov A.U.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi i.f.b.f.d. (PhD).

Konstitutsiyaviy qonunchilikning manbalari qatorida Konstitutsiyani, konstitutsiyaviy qonunlarni, Konstitutsiyaning matnida tilga olingan organik qonunlar, konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish predmetiga oidmasalalar bo‘yicha qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar kiritilishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Ma’lumki, Jamiyatimizdagi ijtimoiy munosabatlarning muayyan qismi huquq vositasida tartibga solinadi. Ijtimoiy munosabatlar insonlar hamda ularning uyushmalari o‘rtasida birgalikdagi faoliyat jarayonida o‘rnatiladigan aloqalardir. Ana shu munosabatlarning eng muhimlari, ya’ni jamiyat ishlarini samarali boshqarish ushun davlat hokimiyatini tashkil qilish, davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar konstitutsiyaviy huquq yordamida tartibga solinadi.

1948 yil 10 dekabr kuni qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq, har bir inson jamiyat a’zosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta’minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsning erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga haqli.[1]

Konstitutsiyaviy huquqning manbalari yuridik adabiyotda ikki ma’noda talqin qilinadi: birinchisi – konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni yuzaga keltiruvchi kush, ya’ni muayyan siyosiy irodani o‘zida mujassam etgan davlat hokimiyati, ikkinchisi – mazkur normalarni ifodalovchi turli shakllardagi normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Ijtimoiy munosabatlar esa kishilarning iqtisodiyot, siyosat va madaniyat sohalaridagi aloqalari bo‘lib, ular muayyan qonuniyatlar asosida vujudga kelib, takrorlanib turadi, o‘zgaradi va rivojlanadi.

Mazkur munosabatlarning mazmunini, umumiy yig‘indisi jamiyatning tuzilishini tashkil etadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar yig‘indisini, ulardan eng muhimlarining tuzilish asoslarini tartibga solish Konstitutsiyaning, shuningdek, konstitutsiyaviy huquq sohasining predmetidir. Real konstitutsiyaviy munosabatlar konstitutsiyaviy huquq sohasining normalari ta’sirida qaror topadi, rivojlanadi va tartibga solinadi.

Aniq ta’rif beradigan bo‘lsak, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning amal qilishi natijasida vujudga keladigan, shakllanadigan va rivojlanadigan munosabatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardir, deb ataladi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar bu umumiy huquqiy munosabatlarning muhim turi ya’ni, tarkibiy qismi sifatida ular tavsiflanadigan barcha xususiyatlarga ega bo‘ladi. Dastlabki umumiy jihat shundan iboratki, huquqiy munosabat huquq normasi qo‘llanishi va amal qilishining natijasidir. Huquqiy munosabat subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar (subyektlar) o‘rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqadir. Bu umumiy nazariy jihatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning mohiyatini aniqlash va xususiyatlarini talqin etishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, fuqarolarga munosib turmush sharoitini yaratish, millatlararo totuvlikni ta’minlash va rivojlantirish, hokimiyat tizimini demokratlashtirish va fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylanib, “inson qadri uchun”[3] degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yildi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa turdagi huquqiy munosabatlardan ajralib turishi bilan farqlanadi;

birinchidan, ular konstitutsiyaviy huquq mavzuini tashkil qiluvchi alohida sohada vujudga keladi;

ikkinchidan, o‘z subyektlarining tarkibi bilan farqlanadi.

Xususan, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat subyektlari orasida shundaylari borki, ularni boshqa turdagi huquqiy munosabatlarda uchratmaymiz (masalan, xalq, millatlar, siyosiy partiyalar, saylovchilar va hokazo);

ushinchidan, konstitutsiyaviy huquq boshqa huquq sohalaridan serqirraligi, turli-tuman huquqiy munosabatlarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi;

to‘rtinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar aksariyat hollarda siyosiy munosabatlar va aloqalarning maxsus yuridik shakli sifatida maydonga chiqadi;

beshinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar jamiyatda siyosiy va davlat hokimiyati sohasidagi aloqalarni tartibga solishning huquqiy shakli hamda asosini tashkil etadi.

Vazifasi va maqsadiga ko‘ra, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar huquq o‘rnatuvshi va huquqni muhofaza etuvchi turlarga ajratiladi. Birinchi turida huquqiy munosabat qatnashchilari ixtiyoriy amalga oshiradigan huquq va majburiyatlar tushuniladi.

Ikkinchi turida esa muayyan huquqdan foydalanish va majburiyatlarni o‘tash orqali konstitutsiyaviy-huquqiy normada aks ettirilgan qoidani muhofaza qilish nazarda tutiladi.

Xususan, Konstitutsiyaning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi”, deb qayd etilgan.[2]

O‘zbekiston Respublikasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarni ularning obyekti va subyektlaridan kelib shiqib, quyidagi turlarga bo‘lishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplarini hayotga tadbiq etish natijasida paydo bo‘ladigan huquqiy munosabatlar;

fuqarolar huquqiy holatining asoslari hamda ularning konstitutsiyaviy huquq va burshlarining amalga oshirilishi natijasida kelib shiqadigan huquqiy munosabatlar;

jamiyat bilan shaxs o‘rtasida kelib shiqadigan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar;

ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi sohasida kelib shiqadigan huquqiy munosabatlar;

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etish, davlat organlari tizimini belgilash, ular faoliyatining prinsiplari, vakolatlari va davlat hokimiyatining amalga oshirilishi natijasida kelib shiqadigan huquqiy munosabatlar;

bevosita demokratiyani amalga oshirish natijasida kelib shiqadigan huquqiy munosabatlar.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar shu munosabatlarning ishtirokshilari orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari deb, ularning tomonlari sifatida ushbu munosabatlarda ishtirok

etuvshilarga aytiladi. Har qanday huquqiy munosabatlar huquq va majburiyat bajaruvshi eng kamida ikkita subyektdan tashkil topadi.

Konstitutsiyaviy huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etishining asosiy vositasi ishtirokshilarning huquqiy layoqatini va maqomini belgilash hamda huquqiy munosabat orqali ularning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdir. Konstitutsiyaviy huquq jismoniy shaxslarga va ijtimoiy tuzilmalarga umumiy huquqlar beradi, ya’ni ularning huquqiy layoqati va muomala layoqatini belgilaydi. Konstitutsiyaviy huquqda huquqiy layoqat va muomala layoqati odatda bir vaqtda vujudga keladi hamda o‘zaro birikib ketadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ularning aksariyati huquq subyektlarining nomma-nom individuallashtirilishini nazarda tutmaydi. Ya’ni konstitutsiyaviy huquqning hamma subyektlari (yoki ularning muayyan guruhi) konstitutsiyaviy munosabatlarning ishtirokshilari hisoblanadilar.

Yuqorida ta’kidlanganidek, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar ko‘pgina siyosiy munosabatlarning maxsus shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, jamiyatdagi qator ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, shaxsiy huquq va erkinliklar, mulkshilik munosabatlari va boshqalar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning obyekti hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning tabiati ular ishtirokshilarining subyektiv huquqi va yuridik majburiyatlarida o‘z ifodasini topadi. Subyektiv huquq shaxsga konstitutsiyaviy huquq normasida belgilangan doirada faoliyat ko‘rsatish vakolatini beradi.

U ushbu doirada o‘z manfaatlarini qondirish ushun xatti-harakatlarni erkin amalga oshira oladi, lozim bo‘lgan taqdirda boshqa shaxslardan, shu jumladan davlat idoralaridan o‘z foydasi ushun tegishli xatti-harakatlarni talab qila oladi. Bunda manfaatlar subyektiv huquqlar bilan uzviy bo‘ladi, albatta.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardagi subyektiv yuridik majburiyatlar huquq sohibiga lozim bo‘lgan xulq-atvor, xatti-harakatni sodir etishni qat’iy talab darajasida qo‘yadi. Ushbu munosabatlarda subyektiv huquqlar bilan yuridik majburiyatlar o‘rtasida shambarshas bog‘liqlik va aloqadorlik mavjud.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarda qatnashuvshi davlat idoralari, tashkilotlar, mansabdor shaxslarda aynan bir obyektga nisbatan ham huquq, ham majburiyat kelib shiqadi. Bunda subyektlar ham huquqdor bo‘lishlari, ham majburiyatni ado etishlari lozim bo‘ladi. Shunday vakolatlar ham borki, ular yo faqat huquq beradi, yo faqat majburiyat yuklaydi.

“O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti: ... qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish ushun Oliy Majlisga qaytarishga haqli”.

Konstitutsiyada mazkur vakolatning yuridik oqibati ifodalangan: “Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahrirda tegishlisha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunshilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida ushdan ikki qismidan iborat ko‘pshilik ovozi bilan ma’qullansa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ishida imzolanishi va e’lon qilinishi kerak”.

Bu o‘rinda birinshi holda huquq, ikkinshi holda majburiyat nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar jamiyatda davlat hokimiyatini amalga oshirish sohasidagi aloqalarni huquqiy tartibga solishning asosini tashkil etadi. Zero, ana shu huquqiy tartibga solish darajasida konstitutsiyaviy-huquqiy normalar ijtimoiy hayotga tatbiq etiladi va natijada maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy munosabatlar shakllantiriladi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat – konstitutsiya normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabat bo‘lib, uning mazmunini shu normada nazarda tutilgan subyektlar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar orqali yuz beruvshi yuridik aloqadorlik tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning tasnifi. Konstitutsiyaviy huquq mavzuining serqirra va rang-barangligi, normalarining turli yo‘nalishlarga oidligi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar xilma-xilligiga sabab bo‘ladi. Huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvshi eng keng tarqalgan asos huquq normasining amalga oshirilishidir. Huquq normasi asosida aniq konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar yuzaga keladi. Bu munosabatlarda ishtirokshilar hamda ularning o‘zaro huquq va majburiyatlari aniq ifoda etiladi.

Konstitutsiyaviy huquqning prinsip-normalari, ta’rif-normalari, maqsad-normalari asosida yana turli-tuman huquqiy munosabatlar kelib shiqadiki, ular orqali ushbu normalardagi qoidalar hayotga joriy etiladi. Bular umumiy xususiyatga ega huquqiy munosabatlar bo‘lib, bunda munosabat subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari aniqlashtirilmaydi.

Yuqoridagi nazariy mulohazani misol orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Aytilgan fikr O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini mustahkamlovshi prinsip-normalarning hammasiga tegishli. Xususan, davlat hokimiyati vakolatlarining bo‘linishi prinsipi nihoyatda murakkab huquqiy munosabatlar tizimi orqali o‘zining amaliy ifodasini topadi. Shunki, bu munosabatlarning subyektlari serqirra faoliyat sohiblari bo‘lmish qonun shiqaruvshi, ijro etuvshi va sud hokimiyati idoralaridir. Biroq bu boradagi barsha huquqiy munosabatlar o‘z ibtidosini yagona umumiy prinsip-normadan, ya’ni Konstitutsiyamizning 11-moddasidagi qoidadan oladi. Bu umumiy huquqiy munosabat bo‘lib, unda ishtirok etuvshi barsha subyektlar mazkur prinsipni amalga oshirishga mas’ul hisoblanadilar. Ushbu moddadagi qoidadan

kelib shiquvshi huquq va burshlar, vakolatlar shu konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatning mazmunini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning alohida turi sifatida muayyan huquqiy holatlarni ajratib ko‘rsatish lozim. Ular umumiy xususiyatga ega huquqiy munosabatlardan subyektlarining qat’iy belgilanganligi bilan farqlanadi. Ammo subyektlar huquq va majburiyatlarining mazmuni aniq belgilanmaydi, u bir qator konstitutsiyaviy-huquqiy normalar yig‘indisidan kelib shiqadi.

Masalan, bu toifa huquqiy munosabatlarga fuqarolik holati, deputatlik maqomi (huquqiy holati) kabilar kiradi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarni doimiy va muvaqqat turlarga ajratish mumkin. Doimiy huquqiy munosabatlarning amal qilish muddati odatda sheksiz bo‘ladi. Biroq ular ma’lum shart-sharoitlar ta’sirida o‘z harakatini to‘xtatishi ham mumkin. Xususan, fuqaroning o‘limi uning fuqaroligi bilan bog‘liq munosabatlarning tugatilishiga sabab bo‘ladi.

Muvaqqat huquqiy munosabatlar aniq konstitutsiyaviy qoidaning amalga oshirilishi natijasida yuzaga keladi. Huquqiy munosabatda nazarda tutilgan huquqiy majburiyatlar bajarilishi bilan bu munosabat tugaydi. Saylov kompaniyasi davridagi munosabatlar muvaqqat konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarga misol bo‘ladi.

Saylovshi bilan ushastka saylov komissiyasi o‘rtasidagi munosabatlar komissiyaning saylov byulletenini berishi hamda ovoz berish ushun sharoit yaratishi bilan tugaydi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning alohida turi moddiy va protsessual munosabatlardir. Moddiy munosabatlarda huquq va burshlarning mazmuni o‘z ifodasini topadi. Protsessual munosabatlar orqali esa huquqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishning tartibi (taomili) namoyon bo‘ladi.

Vazifasi va maqsadiga ko‘ra, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar huquq o‘rnatuvshi va huquqni muhofaza etuvshi turlarga ajratiladi. Birinshi turida huquqiy munosabat qatnashshilari ixtiyoriy amalga oshiradigan huquq va majburiyatlar tushuniladi.

Xulosa muayyan konstitutsiyaviy munosabatni tartibga soluvshi huquqiy norma qanday shaklda ifodalanishi, amalga oshishi ikkinshi darajali masala emas.Chunki bu yerda manbalar o‘rtasida ziddiyatlarni bartaraf eta oladigan qat’iy tartib bo‘lmog‘i kerak. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maqomini o‘zgartirish farmon yoki hukumat qarori bilan amalga oshirilmaydi. Bu Konstitutsiya yoki konstitutsiyaviy qonunning predmetini tashkil etadigan masaladir. Shu o‘rinda Jahon tajribasiga ko‘ra, hozirgi zamon demokratik jamiyatlarda davlat hokimiyati konstitutsiya yordamida institutsional legitimlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 yil 10 dekabr // https://constitution.uz/uz/paGES/humanrights
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent., “O‘zbekiston” NMIU. 2017 – B.16-17.
3. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz / Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 06.11.2021. // www.president.uz.

РАЗВИТИЕ ВОЕННОЙ РЕКРЕАТСИИ В КОНТЕКСТЕ УКРЕПЛЕНИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ ОСНОВ СТРАНЫ

Алимова Г.А.
Д.э.н., доцент, профессор кафедры «Экономических диссиплин».

В современных условиях развития общества и государства важност физической и моралной подготовки граждан становится все более актуалной. Военная рекреатсия как форма досуга, связанная с физической и психологической подготовкой, не толко способствует повышению боеготовности, но и укрепляет Конституционные основы страны, способствуя формированию патриотизма и активному участию граждан в жизни государства. сел данной стати — исследоват развитие военной рекреатсии в контексте укрепления Конституционных основ страны.

Военная рекреатсия включает в себя разнообразные мероприятия, направленные на физическую, психологическую и культурную подготовку как военнослужащих, так и гражданских лис. Она может включат в себя занятия спортом, участие в культурных мероприятиях, тренировки и выезды на природу. Важно отметит, что военная рекреатсия не ограничивается толко физическими упражнениями, но также включает элементы воспитания гражданственности и патриотизма.

Исторически военная рекреатсия имеет свои корни в военных лагерях и тренировках, где солдаты не толко готовилис к выполнению боевых задач, но и участвовали в культурных мероприятиях. Примером могут служит древнеримские легионы, которые активно исползовали спорт для повышения моралного духа солдат.[1]

Взаимосвяз военной рекреатсии и Конституционных основ.

[1] Кузнецов, А. В. Военная рекреация как инструмент воспитания патриотизма. Журнал военной науки, 4(2), 45-52.2019.

Конституция страны является основой правового государства и отражает основные принципы, на которых строится общество. Военная рекреатсия, в свою очеред, может укреплят эти принципы, способствуя развитию патриотизма, сотсиалной ответственности и гражданской активности.[1]

Патриотизм — это одно из основополагающих понятий, закрепленных в Конституции болшинства государств. Военная рекреатсия способствует развитию патриотических чувств, позволяя гражданам осознат свою ответственност перед родиной.

Участие граждан в мероприятиях, связанных с военной рекреатсией, укрепляет связ между военными и гражданскими обществами, что является важным аспектом для поддержания натсионалной безопасности и стабилности.2

Множество стран успешно внедряют программы военной рекреатсии. Например, в США существует программа «Сивилиан Милитарй Сооператион», которая способствует взаимодействию между гражданским населением и военными.[3] Подобные инитсиативы помогают укрепит связ между различными слоями общества и повышают уровен патриотизма.

Военная рекреатсия имеет болшой потенсиал для далнейшего развития. В условиях современных вызовов, таких как терроризм и киберугрозы, необходимо адаптироват программы военной рекреатсии к новым реалиям.

Развитие военной рекреатсии является важным фактором укрепления Конституционных основ страны. Она способствует формированию патриотизма, повышению физической и психологической подготовки граждан, а также укрепляет связ между военными и гражданскими обществами. В условиях современных вызовов необходимо продолжат развиват и адаптироват программы военной рекреатсии, интегрируя новые технологии и образователные подходы. Это поможет создат более устойчивое и безопасное общество.

Список литературы

1. Кузнесов, А. В. Военная рекреатсия как инструмент воспитания патриотизма. Журнал военной науки, 4(2), 45-52. 2019.

2. Иванов, И. И. Конституция и патриотизм: правовые основы. Издателство "Юридическая литература".2020.

3. Смирнова, Н. А. Современные практики военной рекреатсии в России. Вестник Российской академии наук, 91(3), 234-240. 2021.

[1] Иванов, И. И. Конституция и патриотизм: правовые основы. Издателство "Юридическая литература"2020.

[2] Смирнова, Н. А. (2021). Современные практики военной рекреации в России. Вестник Российской академии наук, 91(3), 234-240.

[3] Johnson, M. Civic-Military Relations: A Study of Citizen Engagement. Journal of International Affairs, 72(1), 55-70. 2018.

4. Жоҳнсон, М. Сивис-Милитарй Релатионс: А Студй оф Ситизен Энгагемент. Жоурнал оф Интернатионал Аффаирс, 72(1), 55-70. 2018.

5. Петров, С. П. Военное дело и гражданское общество: вызовы и возможности. Военно-исторический журнал, 45(6), 77-84. 2022.

DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Amaniyazova S.B.
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti v.b., y.f.b.f.d.(PhD).

Huquqiy, demokratik davlatda davlat organlari faoliyatining ochiqligi birinchi o‘rinda bo‘lib, aholining davlat organlari faoliyati haqida axborotdan erkin foydalana olish imkoniyatining mavjudligi, shuningdek, ular ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

Qonunchilik texnikasida ishlab chiqilayotgan qonun haqiqatdan ishlashi va amalda qo‘llanilishi uchun xorijiy tajribani ichki sharoitga moslashtirgan holda tadbiq etish orqali xorijiy qonunchilikning ilg‘or huquqiy echimlari davlatimiz qonun ijodkorligi amaliyotida, ularni tushunish va qayta ishlashda qo‘llanishi lozim deb o‘ylaymiz va shundan kelib chiqqan holda bu soha bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribaga nazar tashlasak, davlat organlari faoliyati ma'lumotlarning ochiqligi tamoyili birinchi marta 1776 yilda Shvesiyada “Nashrlar erkinligi to‘g‘risida”gi Qonunida aks ettirilgan bo‘lib, bu qonun 1949 yilda “Matbuot erkinligi to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgarttirilib, hozirda u Shvesiya Konstitutsiyasining ajralmas bir qismi sifatida mamlakatlarning barcha fuqarolariga bepul axborot olish erkinligini kafolatlaydi [1].

Yaponiyada 2001 yili 1-aprelda “Ma'muriy organlar tasarrufidagi ma'lumotlardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni [2] kuchga kirib, unga asosan, hukumat boshqaruvi ma'lumotlaridan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi Yaponiya qonun chiqaruvchisi tomonidan amalda cheklanmagan: har qanday shaxs davlat organlari rahbarlaridan o‘zlariga tegishli hujjatlarni bepul oshkora etishni talab qilish huquqiga ega. Bunda oshkoralik tamoyili qonun chiqaruvi va sud hokimiyati, davlat boshqaruvi tuzilmalarining ayrim qismlariga taalluqli emas.

Estoniyaning 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan «Ommaviy axborot to‘g‘risida»gi Qonuni [3] demokratik va ijtimoiy huquqiy davlat va ochiq jamiyat tamoyillari asosida jamoatchilikga va barcha shaxslarga umumiy foydalanish uchun mo‘ljallangan axborotdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek, aholiga davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni

amalga oshirishning huquqiy asoslarini jamlagan bo‘lib, qonunda fuqarolarga oshkora qilinmaydigan axborotlar ro‘yxati keltirilgan.

2001 yilda Finlandiyada esa dunyoda birinchilardan bo‘lib “Davlat boshqaruvida elektron xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonuni [4] qabul qilinib, ushbu Qonunning maqsadi davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, mas’uliyatliligini oshirishdan iborat bo‘lib, asosan Qonunda elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish bog‘liq huquqiy munosabatlar subyektlarining huquqiy maqomi to‘g‘risidagi normalar o‘rin olganligini ko‘rish mumkin.

Bosh vazir devoni o‘z veb-saytida vazirliklar tomonidan tayyorlanayotgan qonun loyihalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, parlament – Eduskunta [5] - qonun loyihalari va u tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar bilan veb-sayti orqali tanishish imkonini bersa, Finlandiya Adliya vazirligi veb-sayti orqali davlatning barcha qonunlari, qoidalari, huquqiy qarorlari va davlat shartnomalarini nazorat qilishlari mumkin. E’tiborlisi shundaki, davlat organlari saytlarida joylashtirilgan barcha materiallar, qonunlar va boshqa rasmiy hujjatlar fuqarolarga bepul taqdim etiladi.

Qozog‘iston Respublikasida 2015 yil noyabr oyida "Axborotga bo‘lgan huquq haqida" yangi Qonun qabul qilinib, unda davlat organlarining rasmiy internet resurslariga joylashtiriladigan axborotlar ro‘yxati va joylashtirish tartibining huquqiy asoslari aks ettirilgan. Masalan, ushbu Qonunning 16-moddasida internet-resurslariga axborot joylashtirish tartibi batafsil bayon etilgan bo‘lib, davlat organlari o‘z internet-resurslarida 15 yo‘nalish dagi axborotlar joylashtirilishi lozimligi aytilgan.

Mamlakatimizda esa O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni [6] ning 13-moddasida davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladigan axborotlar ro‘yxati va axborotga qo‘yiladigan talablar aks ettirilgan bo‘lib, xuddi shu huquqiy normalar Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 iyundagi 373-son qarori bilan Davlat organlari, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo‘yiladigan asosiy talablar 3-ilovada [7] tasdiqlanib, ushbu hujjatning 1-bob, 1-bandida ushbu organlarning rasmiy veb-saytlarida joylashtirilishi majburiy bo‘lgan axborotlar ro‘yxati keltirilgan.

Shu o‘rinda, ijro etuvchi hokimiyat organlarining ochiqligi mexanizmini ushbu organlarning rasmiy veb-saytlarini tahlil qila o‘tirib, tahlil natijasida qo‘yidagicha kamchiliklarni ko‘rish mumkin:

1. Ijro etuvchi hokimiyat organlari rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan ma’lumotlarning deyarli yarmi ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiqligini tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlari normalariga; saytning umumiy mazmuniga qo‘yiladigan texnik talablarga; jismoniy va yuridik shaxslarning davlat axborot resurslaridan

olinadigan ma’lumotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlandirishga javob bermaydi;

2. Ijro etuvchi hokimiyat organlarining rasmiy veb-saytlarining ma’lumotlar tarkibi tuzilishi etarlicha unifikasiyalanmagan;

3. Ma’lumotlar joylashtirilishida belgilangan muddatlarga rioya qilinmagan va ijtimoiy ahamiyatga ega ma’lumotlar to‘liq joylashtirilmagan, ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar eskirgan tahrirdagisi taqdim etilgan.

Qayd etish kerakki, yuqorida aytib o‘tilgan Qonunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash usullari bilan birga ushbu qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi 22-moddasida huquqiy asosini topgan. Ko‘rsatilgan qonunosti hujjatida esa davlat organlari rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladigan majburiy axborot ro‘yxati, rasmiy veb-saytlarni yuritish bilan bog‘liq bir qator majburiy funksiyalar aks ettirilgan bo‘lishi qaramay, majburiyat bajarilmagan taqdirda qo‘llaniladigan javobgarlik choralari bayon etilmagan, faqat rasmiy veb-saytga joylashtiriladigan axborotlarning ishonchliligiga tegishli organ rahbari javobgar ekanligi 3-bob, 16-bandida belgilab berilgan xolos.

Va shu o‘rinda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida “ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash amalga oshirilmaganda samarali javobgarlik choralarining etarli emasligi”ni ta’kidlagan I.A.Juravleva [8] ning fikriga qo‘shilgan holda qonunchilikdagi bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida “Ўzbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi”ning “Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik” deya nomlangan XVI bobiga, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining bajarilmasligi” natijasida kelib chiqadigan ma’muriy javobgarlik choralarini nazarda tutuvchi prim-moddani kiritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi deb hisoblaymiz.

Demak, raqamli davlatning shakllanishi va qonunlarning raqamlashtirish sharoitida o‘zgarishi - bu sezilarli siljishlar bo‘lgan so‘nggi o‘n yilliklarda kuzatgan yangi vaqt va yangi makon qurilishiga javob [9] dir. Albatta, bu hodisalar, bir tomondan, yangi imkoniyatlarni ochib beradi, ammo boshqa tomondan, ular asrlar davomida jiddiy o‘zgarishlarga duch kelmagan sohalarni o‘zgarttirishga majbur qiladi va bu navbatida jamiyatning barcha tahdid va xatarlarni ko‘ra olmasligi, shuningdek jamiyatning qabul qilmasligi kabi inqirozlar va Internet, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish borasida jiddiy xavflar va xavotirlar mavjud.

Bu esa o‘z navbatida davlatlarni zarur normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-texnik chora-tadbirlarini ishlab chiqish majburiyatini yuklaydi. Aytish kerak, raqamli asrda

axborot tahdidlariga ijro hokimiyati organlari tomonidan ham axborot ochiqligini ham axborot xavfsizligini ta’minlashni huquqiy tartibga solish, shuningdek, ijro hokimiyati organlari tizimini o‘zgarttirish, zarur normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish yo‘li bilan javob berishga majbur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. УРЛ:ҳттпс://лawбоок.онлине/конституционное-право-россии 1264/ зарубежнйий - опйит-регламентатсии-32284.ҳтм
2. УРЛ: ҳттпс://www.жапан.го.жп.
3. УРЛ:ҳттпс://www.легислатионлине.орг/довнлоад/ид/8381/филе/Эстониа_Публис%20Информатион%20Аст.
4. Дубровин Юрий Иннокентевич. Административно-государственные реформы в Финляндии // Власт. 2009. №5. //УРЛ: ҳттпс://сйберленинка.ру/артисле/н/административно-государственне-реформй-в-финляндии
5. УРЛ:ҳттпс://www.эдускунта.фи/ЭН/ПаГЭС/дефаулт.аспх/
6. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-369-сон 05.05.2014 йилда қабул қилинган. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 19-сон, 209-модда.
7. Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 15 июндаги 373-сон Қарори билан тасдиқланган “Давлат органлари, хўжалик бирлашмалари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимияти органларининг расмий веб-сайтига қўйиладиган асосий талаблар” 3-ИЛОВА//Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 16.06.2021 й., 09/21/373/0559-сон
8. Журавлева И.А. Совершенствование механизма открытости деятелности органов исполнителной власти. Автореферат диссертасии на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2013. С. 17.
9. Кириленко В.П., Фотопулу А. Проблемы сифрового государства в современном обществе // Эвразийская интеграсия: экономика, право, политика. 2019. № 2. С. 50.

O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI – MAMLAKATIMIZDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASHNING HUQUQIY POYDEVORI

Inagamova M.M.

Toshkent davlat transport universiteti dosenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda

ularning teng ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ularni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid yigirmadan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Xususan:

– mamlakatimizning Asosiy qonuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli bo‘lib, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashi[1];

– O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida[2] davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishi*;*

– O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuniga[3] muvofiq, xotin- qizlarga nisbatan jinsiy, jismoniy, iqtisodiy, ruhiy zo‘ravonlik va ularga nisbatan tazyiqlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasida davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reablitasiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga[4] asosan, xotin-qizlarining oilaviy turmush muammolarini bartaraf etishga ko‘maklashish, hayotiy haq-huquqlarini munosib himoya qilish, ularning maishiy zo‘ravonlik qurboniga aylanib qolishlarini oldini olish, hayotini qayta yo‘lga qo‘yishda moddiy va ma’naviy yordam berish, shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatish;

– 2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasida[5], irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta’minlash, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo‘yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish, oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a’zolarining mas’ulligini oshirish, erta

nikoh, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh, erta tug‘ruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish va boshqalar.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar doirasida xotin-qizlarning faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu barcha sohalarda namoyon. Masalan, siyosiy sohani olsak, O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga etib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 2017 yildagi 27 foizdan 35 foizga oshganligi, saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo‘lishi zarurligi belgilangan. Bugun yurtimiz davlat boshqaruvidagi ayollarning ishtiroki bo‘yicha dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida qizlarni ta’lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar borasidagi quyidagi fikrlari davlatimizda mazkur sohada amalga oshirilgan yangi yo‘nalish va kelajakka qo‘yilgan ulkan qadam desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, «Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz qo‘shimcha imkoniyat topib, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, xotin-qizlarimizning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratmoqdamiz va bu ishlarimiz albatta davom etadi. Chunki ayollarning, xususan, qiz bolaning o‘qib, oliy ma’lumotli bo‘lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi»[6].

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda kelajak tarbiyachilari bo‘lmish qizlar kamolotiga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda oliygohlarda ta’lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko‘pini qizlar tashkil etmoqda. Ehtiyojmand oilalarga mansub xotin-qizlar qo‘shimcha davlat granti bo‘yicha o‘qishga qabul qilinmoqda. Ular uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarning kontrakt pulini qoplab berish yo‘lga qo‘yilgan.

Yana bir muhim hujjat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichida ta’lim olayotgan xotin-qizlarni to‘lov kontrakt mablag‘larini to‘lab berish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi[7] qaroriga muvofiq, davlat oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hamda Bank-moliya akademiyasining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari qaytarish

shartisiz, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan qoplab berish amaliyoti joriy etildi.

Yurtimiz xotin-qizlari ilm-fanda ham katta natijalarga erishmoqdalar. So‘nggi etti yilda 5 ming 247 nafar ayollar ilmiy darajalar olgan. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta’lim olgan yoshlarning 47 foizini qizlar tashkil etgan.

Ayol zoti uchun eng ulug‘i - onalik baxti. Yurtimiz aholisi har yili qariyb 900 mingga ko‘paymoqda. Ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muqaddas burch.

Shu ma’noda, davlatimiz rahbari barcha ayollarga murojaat qildi.

“Biz ma’naviy tarbiya ishlarini endi mutlaqo yangicha usulda olib borishimiz kerak. “Ezgulik – shiorimiz, ma’rifat – qurolimiz” degan g‘oya asosida bu jarayonni avvalo oiladan, mahalladan boshlashimiz lozim. Zotan, hadisi sharifda aytilganidek, “Ota-ona o‘z farzandiga yaxshi tarbiyadan boshqa meros qoldirolmaydi”[8].

Mamlakatimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan e’tibor xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. Joriy yilda yurtimiz yana bir yirik anjuman – Osiyo xotin-qizlar forumiga mezbonlik qiladi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O‘zbekiston 2020 yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko‘rsatib kelgan.

BMT Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida 70-son rezolyusiyasi qabul qilinib, mamlakatimiz uchun dolzarb hisoblangan 16 ta milliy maqsadga erishish bo‘yicha 125 ta maqsadli vazifa hamda 206 ta indikator ishlab chiqilgan.

Xususan, barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad — Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, xotin-qizlarni huquq va manfaatlarini ta’minlashda davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan quyidagi tashkiliy ishlar muntazam amalga oshirilishi lozim: *birinchidan,* xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish; *ikkinchidan,* erkaklar va xotin-qizlarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlash; *uchinchidan,* xotin-qizlarga ish topishda ko‘maklashish, ularning tadbirkorligini rivojlantirish;

to‘rinchidan, oila a’zolarining huquqiy madaniyatini oshirish, ularda huquqbuzarliklarning oldini olish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.:2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 3 sentyabrdagi O‘RQ-562-son Qonuni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 16.12.2022 y., 03/22/809/1091-son; 12.04.2023 y., 03/23/829/0208-son
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tayziq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 2019 yil 3 sentyabrdagi O‘RQ-561-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/561/3680-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 10.12.2021 y., 03/21/736/1144-son; 12.04.2023 y., 03/23/829/0208-son; 19.10.2024 y., 03/24/977/0831-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reablitasiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021 yil 19 maydagi PQ-5116-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021 y., 07/21/5116/0471-son; 29.12.2023 y., 06/23/216/1008-son; 10.05.2024 y., 06/24/75/0335-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi 2021 yil 28 maydagi SQ-297-IV-son Qarori.
6. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadrini ulug‘lash avvalo azizu mukarrama ayollarni ulug‘lashdan boshlanadi. // Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan ma’ruza. T.: 2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichida ta’lim olayotgan xotin-qizlarni to‘lov kontrakt mablag‘larini to‘lab berish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2022 yil 15 avgustdagi 447-sonli Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.08.2022 y., 09/22/447/0741-son; 07.04.2023 y., 09/23/143/0199-son.
8. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadrini ulug‘lash avvalo azizu mukarrama ayollarni ulug‘lashdan boshlanadi. // Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan ma’ruza. T.: 2024

UCHUVCHISIZ UCHADIGAN APPARATLARINI QO‘LLASHNING SIYOSIY-HUQUQIY JIHATLARI HAMDA KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Qodirov T.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi yetakchi ilmiy xodimi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXVII-Mudofaa va xavfsizlik bobining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi” deb ko‘rsatilgan 152-moddasiga[1] asosan Mamlakatimizda UUA qo‘llash va undan himoya qilish masalalari bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa bundan texnologiyalardan faqat mudofaa va tinchlik yo‘lida foydalanishni nazarda tutadi.

Dunyo miqiyosidagi o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, BMT Nizomiga ko‘ra tashqi siyosatni amalga oshirish va nizolarni hal etishda urushdan vosita sifatida foydalanish taqiqlanadi. Kuch ishlatish yoki u bilan tahdid qilishdan tiyilish xalqaro huquqning imperativ normalari qatoriga kiradi. BMT Nizomi kuch ishlatishga faqat BMT Xavfsizlik Kengashi (XK) tomonidan ruxsat berilgandagina yo‘l qo‘yadi. Buning uchun BMT XK tinchlikka har qanday tahdid, tinchlikni har qanday buzilishi va agressiya akti mavjudligini aniqlashi lozim bo‘ladi[2]. BMT Nizomining asosiy maqsadlaridan biri suveren davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi. Davlatlar ichki ishlarini hal etishga tashqaridan aralashish huquqbuzar davlatga nisbatan BMT Nizomining 41 va 42 moddalariga muvofiq sanksiyalar qo‘llanilgan hollarni istisno etganda taqiqlanadi[3].

Kuch ishlatish yoki u bilan tahdid qilish taqiqlanganligiga qaramay, harbiy kuch ishlatish yangi dunyoviy tartibotni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda[4].

Bu borada ilmiy doira vakillari ham ikki guruhga bo‘linganligini ko‘rish mumkin. Birinchi guruhga mansub olimlar fikricha, biror davlatda keng miqyosdagi inson huquqlarining buzilishi holatlari kuzatilsa, ushbu davlatning ichki ishlariga aralashishni oqlash mumkin[5].

Xalqaro munosabatlarda inson huquqlari qanchalik darajada ustun mavqega ega bo‘lgan sari, ularning qo‘pol ravishda buzilishi bunday hollarni bartaraf etish uchun aralashishga jiddiy sabab bo‘ladi.

Bunday hatti harakatlarga qarshi bo‘lgan ilmiy doira vakillarining fikricha, inson huquqlarini himoya qilish maqsadida davlatlarning ichki

ishlariga har qanday aralashishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi va u yangi shakldagi mustamlakachilikni keltirib chiqaradi[6]. Ular zamonaviy xalqaro tartibotning suverenitet, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, xalqaro nizolarni tinch yo‘llar bilan hal qilish hamda davlatlarning suveren tengligi tamoyillariga asoslanishini va ularga rioya qilish barcha davlatlar uchun majburiy ekanligiga e’tiborni qaratadilar.

Ushbu tamoyillar BMT Nizomi (1945), Davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, ularning mustaqilligi va suverenitetini saqlash to‘g‘risidagi deklaratsiya (1965), Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi deklaratsiya (1970), Mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi deklaratsiya (1970), YeXHT Xelsinki yakunlovchi hujjati (1975), Davlatlarning ichki ishlariga aralashishga va intervensiyaga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi deklaratsiya (1981) va boshqa ko‘plab xalqaro huquqiy hujjatlarda qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Hozirgi kunda kuch ishlatish o‘z navbatida BMT Nizomining muhim normativ qoidalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, BMT XK tegishli rezolyusiyasiz suveren davlatning ichki ishlariga qurolli aralashuv agressiya akti sifatida baholanishi lozimligini ta’kidlaydi[7].

2001 yil 11 sentabr voqealaridan so‘ng terrorizm tahdidiga qarshi kuch ishlatishda o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, BMT XKning 1368, 1373-sonli Rezolyusiyalari, AQShning o‘zini mudofaa qilish huquqi doirasida kuch ishlatishining qonuniyligini tasdiqlab, UUA laridan terrorchilar hududlariga zarba berishda foydalanildi.

Biroq, halqaro huquqda UUA qo‘llash bo‘yicha aniq normalarni ishlab chiqilmaganligi bu yo‘nalishdagi faoliyat mavhumlik kasb etmoqda.

UUAdan foydalanishga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Huquqiy omil. UUA qo‘llashning xalqaro huquqiy normalari shakllanmaganligi.

Jumladan, bugungi kunda, UUAni oddiy qurol turi, maxfiy razvedka olib borish vositasi yoki aviatsiya sifatidagi qoidalar, hech qanday qonunchilikda belgilanmagan. UUA boshqaruvchi operator-uchuvchilar jangovar harakatlarning bevosita ishtirokchisi sifatida kombatant yoki nokombatant statusi ham belgilanmagan.

UUAni boshqa suveren mustaqil davlat hududida qo‘llash yoki boshqarish mexanizmidagi bo‘shliqlar mavjud.

Shu qatorda, hozirgi kunda yagona samoviy hududda UUA parvozini ta’minlovchi va tartibga soluvchi qonuniy hujjatlar hech qaysi davlatda mukammal ishlab chiqilmagan. UUAlarning davlat belgisi yoki ro‘yxatdan o‘tgan tanib olish belgisi, uchishga yaroqliligi va qanday balandlik yoki uzoqlikda uchish mumkinligi haqida, hali bir to‘xtamga kelinmagan.

Inson omili. Yo‘naltirilgan raketa zarbalari natijasida tinch aholi orasida qurbonlar sonini ortib borayotganligi.

2018-2023-yillarda UUAlardan foydalanadigan mamlakatlar soni 16 dan 50 tagacha o‘sdi, bu 155 foiz degani. Biroq, xuddi shu davrda bitta dron hujumini amalga oshirgan nodavlat guruhlar soni 6 tadan 91 taga ko‘tarilgan.

2023 yilning o‘zida UUA hujumlari sababli 3000 dan ortiq odam o‘lgan. Bu 2018 yilga nisbatan 168 foizga ko‘pdir. UUA hujumlari soni 2023 yilda 4957 ta bo‘lgan bo‘lsa 2018 yildagi 421 tani tashkil etgan.

Isroil, Falastin, Ozarbayjon, Armaniston, Ukraina, Rossiya, Yaqin sharq va Afrikaning ayrim davlatlarida bo‘lib o‘tayotgan qurolli to‘qnashuvlarda qo‘llanilgan UUA zarbasidan 10 mingdan ortiq tinch aholi qurbon bo‘lgan, bu “harbiy jinoyat” sifatida baholadi[8].

Geofizik omil. UUA bortidagi yuqori darajadagi qurilmalar orqali dasturlangan tartibda boshqaruv punkti bilan muntazam axborot almashinuvini amalga oshirishda ishonarli va mustahkam aloqa kanali kerak bo‘ladi. UUA xatosiz parvoz qilishiga tabiiy va texnogen omillar halaqit qiladi.

Texnik omil. UUA avtomatik tarzda yoki operator yordamida parvoz qiladi. Undagi bort mexanizmining ishdan chiqishi yoki shkastlanishi uning faoliyatini izdan chiqaradi. Uni parvoz vaqtida muammolarini bartaraf qilishni iloji yo‘q.

Shu boisdan, mamlakatimizda 2024 yilda UUA qo‘llash, boshqarish, undan himoyalanish masalalari bo‘yicha barcha meyoriy huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish, leberallashtirish, yengillashtirish, choralarni optimallashtirish borasida ishlar Oliy Majlisga muhokamga qo‘yilgani fikrimizning yorqin isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T-2023 yil.
2. BMT Nizomining 41-42 moddasi.
3. BMT Nizomining 2-7 moddasi.
4. BMT Nizomining 2-3-4 moddasi.
5. Annan K., Betatti M., Bler T., Kissinjer G., Mettyu J., Nay J., Robertson G., Smit M., Fergyuson N., Folk R., Fukuyama F., Xofmann S., G‘oliy B. kabi siyosiy va ilmiy doira vakillariining gumanitar intervensiya konsepsiyasini ma’qullagan fikrlari.
6. Bellami A., Bordachev T., Makfarley N., Malanchuk P, Ordjonikidze S., Fedorov A., Xomskiy N., Chandler D. “Gumanitar intervensiya konsepsiyasiga salbiy baho berganlar.
7. Morozov Yu., Glushkov V., Sharavin A. Balkanы segodnya i zavtra: voenno-politicheskie aspektы mirotvorchestva. - M.:, «Politika», 2001.B- 222.
8. OON: SShA narushili suverenitet Pakistana.// Istochnik: RBC. 16.03.2013.

9. O‘zbekiston Respublikasida mazkur jarayonlar Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 noyabrdagi 658-son “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori. https://lex.uz/ru/docs/-6284990/

FUQAROLIK SUD HUJJATLARINI KASSATSIYA INSTANSIYASIDA QAYTA KO‘RISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Shayzakov Sh.
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi markaz boshlig‘i, yu.f.f.d.(PhD), dotsent, mustaqil izlanuvchi.

Fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish va hal etish jamiyatda odil sudlovni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohada adolatli qaror chiqarish va har bir shaxsning qonuniy manfaatlarini himoya qilish Konstitutsiyaviy huquqning ustunliklaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik sud hujjatlarini kassasiya instansiyasida qayta ko‘rish instituti fuqarolarning huquqlarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlaydi, ularning manfaatlarini himoya qilishda muhim yuridik mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyatining mustaqilligi kafolatlangan bo‘lib, sud jarayonlarida adolat va qonuniylik tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolik ishlari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni qayta ko‘rish huquqi sud jarayonida adolatlilik va ishonchni oshiradi. Mazkur institut jamiyatda qonuniylikni ta’minlash, sud hujjatlaridagi xato va kamchiliklarni tuzatish, shuningdek, himoyalangan shaxslarning haq-huquqlarini to‘liq himoya qilishga qaratilgandir.

Kassasiya instansiyasida ishlarni qayta ko‘rish instituti huquqiy adolatning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘z navbatida sud-huquq islohotlarining rivojlanishiga yordam beradi. Qayta ko‘rish jarayoni orqali fuqarolar va boshqa manfaatdor shaxslar sud tomonidan qabul qilingan qarorlarning adolatliligiga bo‘lgan ishonchini oshiradi, bu esa huquqiy davlat qurishga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Fuqarolik ishlarini kassasiya instansiyasida qayta ko‘rish instituti nafaqat O‘zbekiston huquqiy tizimida, balki dunyoning ko‘pgina davlatlarida qonunchilikning ajralmas qismi sifatida paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan. Kassasiya instansiyasi sud qarorlarining adolatliligi va qonuniyligini qayta ko‘rib chiqish uchun xizmat qiladi va fuqarolarning haq-huquqlarini to‘liq himoya qilish maqsadida joriy etilgan.

Tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan, kassasiya instituti qadimdan mavjud bo‘lib, uning ildizlari Rim huquqiga borib taqaladi. Rim huquqida sud hujjatlarining adolatliligi va qonuniyligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilgan.

Zamonaviy huquq tizimlarida esa kassasiya jarayonining ahamiyati yanada oshib, uning doirasi kengaydi. Kassasiya instituti huquqiy tuzumda adolat va qonuniylikni ta’minlashga qaratilgan eng muhim vositalardan biridir.

Huquqshunos olim A.Abdullinning fikriga ko‘ra, kassasiya jarayoni sud hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishda juda muhim, chunki u sud tizimini rivojlantirish va qonuniylikni ta’minlashda o‘rin tutadi. Uning ta’kidlashicha, kassasiya instituti fuqarolarning sud tizimiga ishonchini mustahkamlashga yordam beradi[1].

Shuningdek, Yu.Tixomirovning ta’kidlashicha, kassasiya instansiyasida qayta ko‘rish instituti yuridik jihatdan adolatli qaror qabul qilish imkonini beradi, bu esa fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi muhim vosita hisoblanadi. Sud hujjatlarini qayta ko‘rish adolatni tiklash va qonuniylikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir[2].

Bundan tashqari, Fransiya, Germaniya, Angliya kabi rivojlangan davlatlarda kassasiya instituti ko‘p asrlardan beri rivojlanib, sud tizimida adolatni ta’minlashning muhim qismi bo‘lib kelgan. Xususan, Fransiyada kassasiya sudi umumiy sud tizimidagi eng yuqori sud bo‘lib, u fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hujjatlarini qayta ko‘rib chiqadi va shu orqali qonuniylikni ta’minlashga harakat qiladi.

Fuqarolik ishlarini qayta ko‘rish institutining nazariy asoslariga kelsak, uning maqsadi sud qarorlarining qonuniyligi va adolatliligini ta’minlashdir. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik ishlarini qayta ko‘rish Konstitutsiyada kafolatlangan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatganligi hisoblanib, uning asosiy vazifasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat.

Kassasiya jarayoni adolatlilikni ta’minlashdagi ahamiyati haqida gap ketganida, shuni ta’kidlash kerakki, fuqarolik ishlarini qayta ko‘rish, sud xatolarini tuzatish imkonini berib, sud tizimida adolatlilikning qonuniy kafolatini yaratadi. Ushbu institut fuqarolik ishlarida himoyalangan shaxslar uchun muhim huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qonun ustuvorligi, adolat va huquqiy himoyaning kafolatlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda sud hokimiyatining mustaqilligi ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mustaqil sud tizimi fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilishda kafolatlangan imkoniyatlarni ta’minlaydi.

Konstitutsiyaning sud hokimiyatiga doir moddalariga ko‘ra, har bir shaxs sud orqali himoya qilish huquqiga ega. O‘zbekiston Konstitutsiyasi

[1] Абдуллин А.И. Судебный прецедент в системе источников права Европейского Союза // Правовая политика и правовая жизн. 2012. № 2. С. 144-149.

[2] Монография «Юридический конфликт»: монография / О.А. Акопян, С.Б. Балхаева, А.А. Головина [и др.]; отв. ред. Ю.А. Тихомиров. – М. : ИНФРА-М: Институт законодателства и сравнителного правоведения при Правителстве РФ, 2017. – 312 с.

55-moddasida sud qarorlarining adolatliligi va qonuniyligiga ishonchni oshirish maqsadida sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining ahamiyatiga alohida urg‘u beriladi. Bu modda, shuningdek, sud ishlarini qayta ko‘rish jarayonida sudyalarning kasbiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan qonuniy kafolatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, qonun ustuvorligini ta’minlash uchun fuqarolik ishlarini kassasiya instansiyasida qayta ko‘rish instituti rivojlangan demokratik davlatlarda ham keng qo‘llaniladi. Masalan, AQShda Oliy sud fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda asosiy huquqiy manba hisoblanadi. AQSh Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxs adolatli sud orqali qonuniy himoya olish huquqiga ega va sud hujjatlarini qayta ko‘rish jarayoni orqali mazkur huquq ta’minlanadi[1].

Germaniyada esa kassasiya instituti inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish maqsadida kuchli konstitutsiyaviy huquqiy asoslarga ega. Germaniya Konstitutsiyasiga asosan, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish va sud xatolarini tuzatish kassasiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir. Bu jarayon orqali Germaniya sudlari qonun ustuvorligini ta’minlashga katta hissa qo‘shadi[2].

Boshqa davlatlar prosessual qonunchiligi va uning konstitutsiyaviy asoslari bilan qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakatda sud hujjatlarini qayta ko‘rish institutining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari mavjud va bu asoslar odil sudlovni ta’minlash maqsadiga yo‘naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham mazkur institutning huquqiy asoslari xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirilganini ta’kidlash mumkin.

Fuqarolik sud hujjatlarini kassasiya instansiyasida qayta ko‘rish jarayonida bir qator dolzarb muammolar mavjudligini ham ta’kidlash lozim. Ushbu muammolar asosan sud tizimidagi byurokratik to‘siqlar, huquqiy ta’minotning etishmovchiligi, sudyalarning ish yuklamasi va qaror qabul qilish jarayonidagi xato va kamchiliklardan iborat.

Kassasiya instansiyasida ishlarni qayta ko‘rish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri byurokratik to‘siqlardir. Sud tizimining ishlashi uchun kerakli huquqiy mexanizmlar mavjud bo‘lsa ham, qonun hujjatlari va me’yoriy hujjatlarning murakkabligi ishlarni qayta ko‘rish jarayonini sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Bu holat ko‘pincha ishlarni qayta ko‘rish muddatlarining cho‘zilishiga olib keladi, bu esa odil sud jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

[1] https://constitution.congress.gov/browse/

[2] https://www.bmi.bund.de/EN/topics/constitution/constitutional-issues/constitutional-issues. html#: ~:text=The% 20current%20version%20of%20the,the%20Federal%20Republic%20of%20Germany. &text=The%20Basic%20Law%20was%20adopted,the%20state%20until%20German%20reunification.

Nazarimizda kassasiya jarayonidagi byurokratik to‘siqlar sud tizimi samaradorligiga ta’sir qiladi. Shu sababli ham huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali sud hujjatlarini qayta ko‘rish sifatini yaxshilanishi mumkin.

Kassasiya instansiyasida ishlarni ko‘rib chiquvchi sudyalarning ish yuklamasi yuqoriligi sud qarorlarining sifatini pasaytirishi mumkin. Sud tizimida ishlaydigan sudyalar o‘rtasidagi yuklamani teng taqsimlash masalasi ko‘pchilik mamlakatlarda dolzarb muammolardan biridir. Sudyalarning yuqori ish yuklamasi ularning qaror qabul qilishdagi diqqat va e’tiborlarini salbiy ta’sir qiladi, bu esa xatolarga olib kelishi ehtimoli yuqoridir.

Sudyalarning yuklamasini optimallashtirish va sud hujjatlarini qayta ko‘rish jarayonida yuqori sifatli qaror qabul qilish uchun qo‘shimcha resurslar yaratish kerak. Shuningdek, kassasiya instansiyasining samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha sudyalar tayinlash yoki kassasiya sudlari bo‘yicha maxsus mutaxassislarni jalb qilish hamda bu institutga sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Qonunchilikni takomillashtirish kassasiya jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi paytda amaldagi qonunlar kassasiya jarayonini tartibga solishda ma’lum bir darajada samarali bo‘lsa-da, ularning ba’zi kamchiliklari mavjud. Xususan, sud hujjatlarini qayta ko‘rish muddatlari, kassasiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibi va qonunlarning sud jarayonida qo‘llanilishini takomillashtirish zarur.

Fuqarolik sud hujjatlarini kassasiya instansiyasida qayta ko‘rish jarayonini takomillashtirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

Kassasiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun qonunchilik bazasini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish orqali sud hujjatlarini qayta ko‘rish jarayonini tizimli tartibga solish mumkin. Bu ayniqsa, kassasiya shikoyatlari ko‘rib chiqiladigan muddatlar, shikoyat berish tartibi va sudda dalillar keltirish jarayoniga tegishlidir.

Xorijiy davlatlardagi kassasiya instansiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni qo‘llash sud hujjatlarini qayta ko‘rish jarayonining sifatini oshirishda katta yordam beradi. Masalan, Fransiyada kassasiya sudlari yuqori samaradorlik bilan ishlab, har bir sud hujjati bo‘yicha ilmiy tahlil va mulohazalar asosida qaror qabul qiladi.

Ayrim yuridik manbalarda, Fransiya va Germaniyadagi kassasiya jarayonining tartibi va mukammal nazorat mexanizmi boshqa mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi haqida fikrlar yuritiladi.

Shu bilan birgalikda, sudyalarning malakasini oshirish kassasiya jarayonining samaradorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Sudyalarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash, ularning ish yuklamasini optimallashtirish va

murakkab huquqiy masalalar bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilish orqali kassasiya jarayonini yaxshilash mumkin. Sudyalarning malakali va etuk bo‘lishi sud hujjatlarini qayta ko‘rish jarayonida yuqori sifatli qarorlar qabul qilinishiga yordam beradi.

Yoki, sud hujjatlarini qayta ko‘rish jarayonini yanada tez va samarali qilish uchun elektron hujjat aylanmasi va avtomatlashtirilgan tizimlarni yanada takomillashtirish, bu orqali fuqarolar sud jarayonida qatnashmay turib ham o‘z shikoyatlarini ko‘rib chiqish jarayonini onlayn kuzatish imkoniyatiga to‘liq ega bo‘lishlari lozim.

Fuqarolik sud hujjatlarini kassasiya instansiyasida qayta ko‘rish instituti jamiyatda adolat, qonuniylik va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning asosiy kafolatlaridan biridir. Sud tizimida adolatli qarorlar qabul qilishni ta’minlash, ishlarni xolisona qayta ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lish fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Kassasiya jarayoni jamiyatdagi huquqiy ustuvorlikni ta’minlash va sud xatolarini bartaraf etishning muhim mexanizmi bo‘lib, u orqali huquqiy adolatga erishish yo‘llari kengayadi.

Ushbu maqolada kassasiya institutining O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy huquqiy asoslari, uning nazariy va amaliy xususiyatlarining ba’zi jihatlari ko‘rib chiqildi.

Bizningcha, fuqarolik sud hujjatlarini qayta ko‘rish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- Qonunchilikni takomillashtirish orqali kassasiya jarayonini yanada soddalashtirish;
- sudyalarning malakasini oshirish va kassasiya jarayonidagi muvozanatni to‘g‘ri taqsimlash;
- elektron hujjat aylanmasi va avtomatlashtirilgan tizimlarni yanada takomillashtirish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kassasiya jarayoni fuqarolik ishlarida huquq va adolatni ta’minlashning muhim bosqichi hisoblanadi. Sud tizimidagi islohotlar va zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, shuningdek, huquqiy asoslarni takomillashtirish sud tizimini yanada samarali va shaffof qilishga yordam beradi. Kassasiya institutining yanada rivojlanishi, qonun ustuvorligiga asoslangan jamiyat barpo etish yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘lib, bu nafaqat fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, balki jamiyatda adolatlilik va huquqiy tuzumni rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi.

INSONNING SOG‘LIQQA BO‘LGAN HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Yusupova F.O‘.
Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi, y.f.b.f.d. (PhD).

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqliligi. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘rishi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi ko‘rsatilgan.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tarifiga ko‘ra "Sog‘liq" — bu faqat kasallik va zaiflik yo‘qligi emas, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlikning to‘liq holati. Sog‘lig‘ini saqlash esa insonlarning ushbu farovonlik holatini ta’minlash, kasalliklarning oldini olish va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda sog‘liqni rivojlantirishni nazarda tutadi[1].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) sog‘liqni saqlash sohasida xalqaro huquqiy asos va standartlarni belgilashga qaratilgan bir qator asosiy hujjatlar ishlab chiqan. 1948 yilgi Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti Nizomi bu tashkilotning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanadi uning asosiy maqsadi "insonlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlash" deb belgilangan.

2030 yilgacha erishiladigan 17 maqsad ichida JSST sog‘liqni saqlash sohasiga oid 3-maqsadni qo‘llab-quvvatlaydi: "Sog‘lom turmush tarzini ta’minlash va barcha yoshdagi insonlar uchun farovonlikni oshirish."[2] Bu maqsad yuqumli va surunkali kasalliklar bilan kurashish, ruhiy sog‘liq, dori vositalariga kirish imkoniyatini kengaytirish, onalik va bolalik salomatligini ta’minlash kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi xalqaro hujjatlardan kelib chiqan holda sog‘lig‘ini saqlash bu insonning o‘z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlash va kasalliklarning oldini olish uchun amalga oshiradigan barcha chora-tadbirlari va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning yig‘indisidir. Sog‘lig‘ini saqlash quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Profilaktik tibbiy xizmatlar: kasalliklarni oldini olish, vaksinatsiya, sog‘lom turmush tarzi, oziqlanish va jismoniy faollikni targ‘ib qilish. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash: sog‘lom muhit, toza suv va sifatli oziq-ovqat

manbalarini yaratish. Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan sog‘liqni saqlash borasidagi targ‘ibot va axborot ishlarini amalga oshirish.

Malakali tibbiy xizmat bu kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olish uchun kerakli bilim, malaka va tajribaga ega mutaxassislar tomonidan taqdim etiladigan, yuqori sifatli, xavfsiz va samarali tibbiy yordamdir. Malakali tibbiy xizmatning asosiy xususiyatlari:

Tibbiy mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalari: xizmat malakali shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlari tomonidan ko‘rsatilishi. Yuqori sifatli uskunalar va dori-darmonlar: zamonaviy tibbiyot texnologiyalari va sifatli dori vositalaridan foydalanish. Davolash jarayonida yuqori xavfsizlik: tibbiy xizmat ko‘rsatilayotganda bemor xavfsizligiga qat’iy rioya qilish. Davolash va profilaktika yondashuvlari: bemorlarning ehtiyojlariga mos, individual yondashuv va kasalliklarning oldini olish choralarini ko‘rish[3].

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot sohasida axborot telekommunikasiya texnologiyalardan foydalanish teletibbiyot va uning sifatli xizmatlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega, chunki mamlakatimiz aholisi yildan-yilga oshib bormoqda va mavjud sohalardagi rivojlanish ham ortomoqda fuqarolarning axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivojlanishi bo‘lgan talablari va sifatli tibbiyot texnologiyalaridan foydalanish aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda juda katta imkoniyat yaratadi. Lekin bu an’anaviy tarzda tibbiyot muassasalarga borgan holda tibbiy xizmatlardan foydalanishga to‘sqinlik qilmasligi lozim balki ushbu xizmatlarni yanada samarali ishlashiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, teletibbiyot xizmatlaridan foydalanish, albatta, tibbiyotga kiritilgan innovatsiyalarning o‘sishi bilan bog‘liq sohalarning butun majmuasini rivojlantirishga, raqamli iqtisodiyotni kuchaytirishga imkon beradi.

JSSTning 2016-yilgi hisobotiga ko‘ra, JSSTga a’zo davlatlarning 57% sog‘liqni saqlash sohasida teletibbiyot bo‘yicha o‘z strategiyalarini amalga oshirib kelmoqda [4].

M.A.Gerasimenko, I.N.Moroz, T.B.Kalinina, V.Ch.Mojeyko “sog‘liqni saqlash sohasida teletibbiyot texnologiyalarining rivojlanishi nafaqat aholiga tibbiy yordamning mavjudligi va sifatini oshirishga balki soha mutaxassislarining kasbiy darajasini oshirishga xizmat qiladi”[5] deb fikr bildirishgan.

R.N. Amonov ta’kidlab o‘tganidek, “mamlakatimizning mustahkam va barqaror sog‘liqni saqlash tizimini malakali shifokorlar, zamonaviy tibbiyot uskunalari va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Barcha sohalar kabi sog‘liqni saqlash tizimida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash natijasida samaradorlik, barqarorlik, tezkorlik va aniqlik singari sifatlarga erishish mumkinligini jahon tajribasi ko‘rsatmoqda”[6].

Bizning fikrimizcha, sog‘liqni saqlash sohasida teletibbiyot xizmatlaridan foydalanish avvalo insonning sifatli tibbiy xizmatga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda yordam beradi undan tashqari, masofaviy tibbiy xizmat ko‘rsatishda asosiy urg‘u bemorlarning ma’lumotlarini xavfsizligiga qaratilgan bolishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Всеобщая декларасия прав человека- Принята резолюсией 217 А (ИИИ) Генералной Ассамблеи ООН от 10 декабря 1948 года ҳттпс://www.ун.орг/ру/документс/десл_сонв/десларатионс/деслҳр.штмл
2. Глобалная стратегия в области сифрового здравоохранения на 2020-2025 гг. [Глобал стратегй он дигитал ҳеалтҳ 2020-2025]. Женева: Всемирная организасия здравоохранения; 2021 г. Лисензия: СС БЙ-НЙ-СА3.0 ИГО.
3. World Health Organization – seventy-third world health Assembly WHA 73(28) Global strategy on digital health session, 13 november 2020 https://apps.who.int/gb/ebwha/pdf_files/WHA73/A73(28)-en.pdf
4. Document WHA58.28 eHealth https://apps.who.int/gb/ebwha/ pdf_files/WHA58/WHA58_28-en.pdf
5. М.А.Герасименко,1 И.Н.Мороз,1 Т.В.Калинина,2 В.Ч.Можейко- Современные информасионно-коммуникасионные технологии в деятелности врача, Вопросы организасии и информатизасии здравоохранения №3 2015
6. Amonov R.N. Yagona elektron tibbiy karta axborot tizimini joriy etish afzaliklari va muammolar //science anf education.-2020.t.1.-№2.-b.26.

KONSTITUTSIYANI YANGILASHNING IJTIMOIY ZARURIYATI

Otayev O‘.M.
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli
katta o‘qituvchisi, podpolkovnik.

Konstitutsiya *(lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk)* – davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. Dunyo mamlakatlari orasida birinchi Konstitutsiya 1787 yilda AQShda qabul qilingan.

So‘nggi olti yilda erishgan yutuqlarimizni (xususan iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so‘z va e’tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarni olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit, debitor-kreditor

masalalaridagi muammolar hal qilingani, qo‘shnilarimiz bilan oramizdagi 25 yillik “muzlar erigani” va b.) ortga qaytmasligini ishonchli Konstitutsiyaviy himoyasini ta’minlash, ushbu erishilgan yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz emin-erkin foydalanishi uchun, ularni albatta Konstitutsiyada muhrlab qo‘yishimiz zarurligi. Dunyoda kundan-kunga yangi-yangi sinovlar, xavf-xatar va tahdidlar paydo bo‘layotgani; bugungi ziddiyatli jarayonlar, iqtisodiy qarama-qarshiliklar qachon va nima bilan tugashini bashorat qilib bo‘lmasligi; ayrim davlatlarning dunyo xaritasida qolish-qolmasligi savol ostida qolayotganligi; jahonda 100 million aholi o‘z hayotini saqlash uchun, boshqa yurtlarda boshpana izlab yurgani; oziq-ovqat yetishmasligi, energiya resurslari tanqisligi, pandemiya kabi global muammolar rivojlangan davlatlar aholisini ham jiddiy o‘ylantirib qo‘yayotganligi va bularning barchasi bizga ta’sir ko‘rsatishi, Mintaqamizdagi vaziyat ham bizni tashvishga solayotganligi, yonimizda qariyb 50 yillik notinchlik davom etayotganligi, Mamlakatimiz katta davlatga aylanayotganligi, aholimiz 2040 yilga borib, 50 millionga yetishi, ularning yarmidan ko‘pi yoshlar bo‘lishi, ularga munosib sharoit qilib berish uchun, barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozimligi. Bularning barchasi uchun mustahkam huquqiy poydevor zarur bo‘lishi, Yangi O‘zbekistonga yangilanayotgan Konstitutsiya kerakligini ko‘rsatayotganligi.

Konstitutsiya matni olimlar yoki mutaxassislar tomonidan kabinetlarda yozilmadi. Balki, avval xalqimizning fikri, takliflari 2 bosqichda o‘rganildi, shundan so‘ng Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Avvallari Konstitutsiya qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo‘yilgan.

-birinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasini shakllantirish uchun odamlarimiz 60 mingdan ziyod takliflar berdi. Ushbu takliflarning har to‘rttasidan bittasi loyihadan joy oldi;

-ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali loyiha bilan 5 million aholimiz tanishib chiqib, 150 mingdan ortiq takliflarini bildirdi.

Shu bilan birga, mehnat jamoalari, oliygohlar, mahalla faollari va ziyolilar bilan bo‘lib o‘tgan muhokamalarda ham yana 10 mingta qo‘shimcha taklif kelib tushdi. Konstitutsiyadagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni, Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilandi. O‘zbekiston – ijtimoiy davlat deb belgilandi. Ijtimoiy, bu – insonga e’tibor va g‘amxo‘rlik, degani. Davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobarga ko‘paytirilayapti. Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi.

Ma’lumot uchun: o‘tgan yili mamlakatimizda 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratib berilgan. Bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilish

marrasi olingan. Yaqin 2-3 yilda bu raqamni 200 mingga yetkazish ustida ishlandi.

Hyech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi. Aholini kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi ham loyihaga kiritildi. Umuman, loyihada aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar 4 barobar ko‘paytirildi.

Ma’lumot uchun: Bunda, joriy yilda “Kafolatlangan xizmatlar paketi” qayta ko‘rib chiqilib, 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to‘liq qamrab olinadi. Ko‘p uchraydigan 20 turdagi kasalliklar bo‘yicha birlamchi bo‘g‘indagi bepul analiz turlari – 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar – 10 tadan 20 tagacha, dorilar – 64 tadan 90 taga oshiriladi.

Ijtimoiy davlatga xos bunday yondashuv ta’lim sohasi bo‘yicha ham ko‘pgina modda va normalarda o‘z ifodasini topdi. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi. Fuqarolarning oliygohlarga davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat’iy belgilandi. Ma’lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017 yilgacha oliygohlarga kirish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o‘zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga yetdi. Shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko‘paydi.

Fuqarolarning bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi belgilandi. Nogironligi bor bolajonlarimizga o‘z tengdoshlari bilan bir xil ta’lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratildi. Shuning uchun, bunday imkoniyatlar inkluziv ta’lim sifatida Konstitutsiyaga kiritildi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi Konstitutsiyaviy mustahkamlandi. Endi, farzandlar tarbiyasi, ularga ta’lim berish, barkamol voyaga yetkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning burchi sifatida belgilandi.Har kimning mehnati uchun hyech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish huquqi kafolatlandi.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi mustahkamlandi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini

kamaytirish taqiqlanishi belgilandi.Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi mustahkamlandi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda rag‘batlantirishi qayd qilindi. Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan to‘laqonli rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi belgilandi. Har kim ishsizlikda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga egaligi mustahkamlandi.Pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emasligi belgilab qo‘yildi. Bu degani, 2 million 200 ming ehtiyojmand oilalar davlatdan kafolatli moddiy yordam oladi. Bu – jami oilalarning 25 foiziga to‘g‘ri keladi, ularga har yili 11 trillion so‘m ajratiladi. Konstitutsiyada 18 milliondan ortiq yoshlar masalalariga ham alohida e’tibor berildi. Konstitutsiyada yoshlar masalalari bo‘yicha alohida bob kiritilayotgani ham bejiz emas.

Shuningdek, davlat: yoshlar huquqlari himoyalanishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirishni kafolatlayapti, yoshlarda qadriyatlarimizga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllanishiga g‘amxo‘rlik qilishi belgilanayapti.

Bundan tashqari, yoshlarning ta’lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo‘lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning Konstitutsiyaviy majburiyati sifatida kiritilayapti.Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilandi. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining hayoti sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘rishi mustahkamlandi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2023. – Lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., «O‘zbekiston», 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., «O‘zbekiston», 2017. –
4.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2023. – Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. – T., 2023. – Lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.– T., 2023. – Lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar

profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2014. – № 20. – 221-m.

9. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2016.– № 38.– 438-m.

KONSTITUTSIYA — MAMLAKAT FAROVONLIGINING HUQUQIY KAFOLATI

Beysenov K.S.
Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi.

2023 yilning 30 apreldagi referendumda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonuni 1 maydan kuchga kirdi.

Jarayonlarning eng boshidan xalq fikri, xohish-istagiga tayanilgani katta ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish ishlari qariyb bir yil davom etgan bo‘lsa, shu vaqt ichida yurtdoshlarimiz bunga befarq bo‘lmadi, o‘z faolligini namoyon etdilar. Shu yurtda istiqomat qilayotgan har bir inson loyiha bo‘yicha o‘z munosabatlarnii, fikrlarini va takliflarini berishi uchun keng maydon yaratildi. Takliflar esa shunchaki qabul qilinmadi, balki aksariyati inobatga olinib, qonun loyihasiga kiritildi.

Raqamlarga murojaat etadigan bo‘lsak, umumxalq muhokamalarida 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushgan bo‘lsa, ularning har to‘rttasidan bittasi loyihadan joy olib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65 foizga yangilandi va yangilangan Bosh qomusimiz xalq Konstitutsiyasiga aylandi. Ayniqsa, xalq hokimiyatini kuchaytirish, parlamentning roli va mas’uliyatini oshirish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish kabi qator normalar kiritilgani ayni muddao bo‘ldilar.

Nihoyat, referendum sanasi kelib, xorij davlatlari ham jarayonni kuzatib bordilar. Aytish lozimki, respublikamizda ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta’minlash borasidagi ishlar kengayib bormoqdalar. Buni referendum o‘tkazish chog‘ida ham ko‘rdik, hatto, ushbu jihat xalqaro kuzatuvchilar tomonidan e’tirof etildilar[1].

Birgina Jizzax shahri misolida oladigan bo‘lsak, referendum uchastkalarida kechayotgan jarayonlar bilan tanishish asnosida tojikistonlik xalqaro kuzatuvchilar Viktor Kim va Rustam Haydarov yaratilgan sharoitlarni yuksak baholadi. Ular rivojlanishni maqsad qilgan har qanday mamlakat

[1] https://uza.uz/uz/posts/konstituciya-mamlakat-taraqqiyoti-va-zhamiyat-farovonligining-huquqiy-kafolati_481597

insonlarning erkin va farovon hayotini kafolatlaydigan Konstitutsiyani qabul qilmog‘i lozimligi, O‘zbekiston Respublikasi bu yo‘lda dadil qadam tashlayotganligini e’tirof etdi.

Referendum davomida xorijlik kuzatuvchilar tomonidan jarayonga xolis baho beriladi, yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar aytilib, jarayon yakuni bo‘yicha xulosa va takliflar taqdim etiladi. Kelgusi siyosiy tadbirlarni amalga oshirishda ushbu xulosa va takliflar muhim hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro kuzatuvchilarning fikrlari referendumning qonuniyligi xalqaro miqyosda tan olinishiga va davlatning imidjiga ta’sir etadi. Bugungi kunda siyosiy jarayonlarni kuzatish va monitoring ishlarini olib borish bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Evropa Kengashi, Evropa Ittifoqi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Parlamentlararo Assambleyasi (MDH PA), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) kabi ko‘plab xorijiy institutlar mavjud. Respublikamizda tashkil etilgan referendum esa dunyo talablari asosida o‘tkazilganini xorijlik kuzatuvchilar ham tasdiqladi.

Hech shubhasiz bu katta va mas’uliyatli jarayon, xalq ovozining ifodasi ekanini har birimiz his etib turibmiz. Fuqarolar o‘z kelajagi, yanada farovon hayoti uchun ovoz berdi. Zero, yangi Konstitutsiyada aholini qiynab kelayotgan dolzarb masalalalar, muammolarga aniq echimlar kiritilgan. Ulardan biri aholi bandligi va bunda gender tenglikni ta’minlash bilan bog‘liq.

Tan olishimiz kerak, bugungacha xotin-qizlarni ayrim tashkilotlarga ishga qabul qilishda “yozilmagan qoidalar” to‘sqinlik qilar edilar. Endilikda, bunday holatlarga chek qo‘yiladi. Jumladan, Yangi Konstitutsiyaning 42-moddasida: “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish ta’qiqlanadi”, deb belgilab qo‘yildi. Bu jamiyatimizda ayollar va erkaklar teng huquqliligi, har bir shaxs eng kam ish haqi olganda ham munosib hayot kechirishi va eng asosiysi, mehnat sharoiti talab darajasida bo‘lgan holatda ishlashini ta’minlashi shubhasiz[1].

Yangidan qabul qilingan Konstitutsiyamizning 43-moddasida esa “Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish,

[1] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent., 2023y.

shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag‘batlantiradi” deyilgan. Bu ham aholining ijtimoiy himoyasi yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Xo‘sh, yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan nimalar kutilyapti?

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutida ta’lim sohasida faoliyat yuritganim bois, mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayogan hech bir islohot meni befarq qoldirmaydi. Shuning uchun yangi Konstitutsiyadagi ta’lim, ilm-fan yo‘nalishi, mehnat munosabatlariga doir kiritilgan o‘zgarishlardan, ayniqsa, quvondim. Ular jamoatchilik uchun ham kutilgan yangiliklardan bo‘ldilar.

Davlatimiz rahbarining “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”, degan ta’kidi bugungi zamonaviy hayotni ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmasligini yaqqol namoyon etadi. Zero, dunyoning eng etakchi davlatlari ham mamlakatning kelgusi ravnaqiga ta’limni rivojlantirish orqaligina erishish mumkinligini inkor etmayapti.

Bugun respublikamizda istiqbolli ta’lim texnologiyalari, yangi axborot-kommunikatsiya vositalari, innovatsion pedagogik echimlar va ijtimoiy texnologiyalardan keng foydalanish talabi ortmoqda. O‘z navbatida, oliy ta’lim muassasasalariga yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar, qo‘yilayotgan talablar ham ko‘payib boryapti. Chunki ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish kabi yo‘nalishlarda ish olib borish ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Ushbu jarayonda esa ta’lim olish, o‘qituvchi nufuzi, ilm-fan, badiiy ijod erkinligining ta’minlanishi maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’lim muassasalari haqida gap ketganda, Prezidentimizning “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga to‘xtalmaslikning imkoni yo‘q. Boisi, qarorga ko‘ra, 2022 yil 1 yanvardan boshlab 35 ta etakchi davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berildi. Bu mamlakatimiz ta’lim tizimida kutilmagan yangilik bo‘ldi. Yangi Konstitutsiyaning 51-moddasida ham oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga egaligi alohida ta’kidlangan.

Bu jihat kelgusida oliy ta’lim ravnaqini ta’minlash, fuqarolarning oliy ma’lumot olishga imkoniyati kengayishining yorqin namunasidir[1].

Konstitutsiyamizning 52-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi[2]. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”, deya mustahkamlanishi jamiyatimizda ham sharafli, ham mashaqqatli kasb egalarining mehnatiga munosib baho berilishining yorqin isboti, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘qituvchilarga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘lish, ularga jismoniy shikast etkazish holatlari urchib turgani bor haqiqat. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida salbiy dunyoqarashning shakllanishiga, ilk saboqlarni o‘rgatgan ustozga nisbatan bepisandlik bilan qarashga tutrki bo‘layotgani ham bor gap. Endilikda, Konstitutsiyamizda o‘qituvchilar alohida e’tirof etilgani jamiyatimizda bu holatlarning oldini oladi.

Ushbu moddalarning kiritilishi, o‘z navbatida, har bir ta’lim sohasi xodimi – pedagoglarga faxr-iftixor bag‘ishlagan bo‘lsa ajab emas. Chunki ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi.

Yana bir masala – mualliflik huquqini himoya qilish. Ayniqsa, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bu yanada dolzarblik kasb etadilar. Masalan, Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va iqtidorli talabalari tomonidan ko‘plab texnik ishlanmalar, ixtirolar yaratilgan. Ularning ayrimlari amaliyotga tatbiq etilib, patent olingan, mualliflik huquqi berilgan. Ammo amalda bu borada ko‘plab muammolar yuzaga kelib turadi. Ayniqsa, oxirgi yillarda jamiyatimizda mualliflik huquqlarining buzilishi holatlari ko‘paygani ham aniq echimlarni taqozo etayotgan edi.

Avvallari texnikaning murakkabligi, jarayonning mashaqqatliligi hamda olingan nusxaning tannarxi ancha qimmatga tushishi tufayli mualliflar va qonuniy ishlab chiqaruvchilar huquqlarining buzilishi deyarli kuzatilmas edi. Bugunga kelib esa zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ma’lumotlarni ko‘paytirish va tarqatish jarayonini o‘ta oson va arzon ishga aylantirib qo‘ydi. Garchand, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunida ushbu noqonuniy xatti-harakatlarga ta’rif berilib, jazo qo‘llanilgan bo‘lsada, sohada kamchiliklar hamon mavjud edi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son Qarori.
[2] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent., 2023y.

Yangi Konstitutsiyamizning 53-moddasida intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi mustahkamlangani esa turgan gapki, ushbu kamchiliklarni bartaraf etadi. Shuningdek, davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi ham alohida ta’kidlangan. Demak, yangi normalar barcha sohalarni taraqqiy ettirishga xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, yangilangan Konstitutsiya jamiyatimiz hayotining barcha yo‘nalishlarini kompleks tartibga solish hamda mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo‘lida eng muhim huquqiy poydevor bo‘lishi barobarida, jamiyatni taraqqiy ettirishga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to‘laqonli ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Uning ishlab chiqilib, qabul qilinishida yoshlarning faol ishtirok etgani kishini yanada quvontiradilar. Bu yoshlar mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini tuygan ekan, kelajakda O‘zbekiston Respublikasi rivojiga munosib hissa qo‘sha olishlariga aslo shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2023y.

2. O‘ZBEKISTON Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI– MAHKUMLARNING ERKINLIKLARI VA HUQUQLARINING KAFOLATI

Beysenov K.S.
Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi,
Xojibekov Z.N.
Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi.

Asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo‘limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi.

Sh.M.Mirziyoyev

Inson huquqlari - insoniyat paydo bo‘lgandan buyon turli darajalarda, mutafakkirlar va faylasuflarning bahs-munozarasi mavzusi bo‘lib kelgan. Uning huquqiy manbalari juda qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Hozirgi zamon Inson huquqlariga oid qonunchilik 3 bosqichga bo‘lib o‘rganiladi.

Birinchi bosqich, 1789 yilda qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari fransuz Deklarasiyasidan boshlanib to birinchi jahon urushiga qadar davrni o‘z ichiga oladi. Inson huquqlari qonunchiligi birinchi bosqichida shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi; shaxs daxlsizligi, xususiy mulk, saylov huquqlariga oid masalalar asosiy o‘rin egallagan.

Inson huquqlarining ikkinchi bosqichi XX asrning 1 yarmini o‘z ichiga oladi. Bunda insonning mehnat qilish huquqi; dam olish huquqi; ijtimoiy yordam olish huquqi qonunchilikni asosiy mavzusi bo‘lgan.

XX asrning 2 yarmi Inson huquqlariga oid qonunchilikning uchinchi bosqich davri hisoblanadi. Bu davrda inson huquqlari himoyasiga oid yaratilgan qonunlar inson huquqlari qonunchiligining “yangi avlod” davri deb nomlanadi. Uchinchi bosqich qonunchiligi markazida insonlarni tinch yashash huquqi; sof va toza atrof muhitga ega bo‘lish huquqi; axborot olish huquqiga katta e’tibor qaratilgan.

Mantiqan ketma-ketlikdan kelib chiqilsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Inson huquqlariga oid qonunchilik tizimini uchinchi bosqichida yaratilgan Konstitutsiyalar qatoridan o‘rin olgan. Shu nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak, biz yuqorida aytib o‘tgan inson huquqlarining barchasi Konstitutsiyamizda o‘z aksini topgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi[1].

Mahkumlar qonunlarda belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo‘ladilar va majburiyatlarni bajaradilar. Mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquqlar, erkinliklarga ega bo‘lishlari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin.

Mahkumlarning huquqlari va majburiyatlari muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mahkumlarning huquqiy holatini mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida bu muhim masalalarga alohida oltita moddadan iborat bob ajratilgan bo‘lib, unda mahkumlarning huquqiy holatining umumiy masalalari tartibga solingan. Bundan tashqari jazoning turi va qanday ekanligiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining Maxsus qismida ham bu masala yanada aniqlashtirilgan. Bunday yondashuv O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi munosabati bilan inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlarning e’tirof etilishi va ularni hayotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq. Hozirgi kunda mahkumlarning huquqiy holati va ularning asosiy huquq va majburiyatlari qonun osti normativ hujjatlarda emas, balki qonun darajasida mustahkamlangan. Mahkumlar huquqiy holatining qonun darajasida belgilab olinishi alohida ahamiyatga ega

[1] https://uza.uz/uz/posts/konstitutsiya-inson-u-u-va-erkinliklarining-kafolati-04-12-2019

masalan, birinchidan, mahkumlik holatini qonun darajasida belgilanishini ta’minlasa, ikkinchidan, ularning manfaatlarini himoya qilish uchun zarur hisoblanadi, uchinchidan esa, qonun ustuvorligini kafolatlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda tekshiradilar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga muvofiq mamlakatdagi davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning bo‘linishi prinsipiga asosan qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatiga ajratilgan[1].

Konstitutsiyaning 105-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi[2].

Prezidentning topshirig‘iga binoan davlat hokimiyati va boshqaruvining tegishli organlari, shuningdek mansabdor shaxslari zikr etilgan muassasa va organlar faoliyatini tekshirishlari mumkin. Shuningdek, Prezident davlatning ichki siyosatini, shu qatorda jinoyat-ijroiya siyosatini belgilab beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga muvofiq Prezident amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnomalar kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi[3]. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Boshqa funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda Oliy Majlis Senati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qiladi. Oliy Majlis deputatlari, qonun chiqaruvchi organ xodimi sifatida, ijro etuvchi organlarga nisbatan, demak, uning tarkibiy qismi hisoblanadigan jazoni ijro etish muassasa va organlarga nisbatan muayyan nazorat qilish funksiyalariga ega[4].

Xususan, Oliy Majlis deputati Hukumatning har qanday a’zosiga rasmiy talab bilan murojaat qilishi mumkin, bundan tashqari u davlat hokimiyati va fuqarolarning mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlarning rahbarlari va Qurolli kuchlar boshliqlarining boshqa mansabdor shaxslari bilan zudlik bilan qabul qilinishi, ulardan zarur bo‘lgan ma’lumot va hujjatlarni olish huquqiga ega.

Mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 9-moddasiga asosan quyidagi huquqlarga ega:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 11-modda.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 105-modda.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 109-modda.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 95-modda.

jazoni o‘tash tartibi va shartlari to‘g‘risida, o‘z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish;

jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma’muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga o‘z ona tilida yoki boshqa tilda taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish;

o‘z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olish. Murojaat etilgan tilda javob berishning iloji bo‘lmagan taqdirda javob O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida beriladi. Javobni intizomiy qismga jo‘natish va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs murojaat etgan tilga tarjima qilib berish jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ tomonidan ta’minlanadi;

tushuntirish berish hamda yozishmalar olib borish, zarur hollarda tarjimonning shu jumladan surdotarjimonning xizmatidan foydalanish;

o‘quv, badiiy va boshqa xil axborot materiallaridan foydalanish;

sog‘lig‘ini saqlash, shu jumladan tibbiy xulosaga ko‘ra ambulatoriya-poliklinika va stasionar sharoitda tibbiy yordam olish;

ob-havo sharoiti yo‘l qo‘ysa, ishdan bo‘sh vaqtida toza havoda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish;

jazoni ijro etish muassasasining psixologik xizmat ko‘rsatish xodimlari tomonidan ko‘rsatiladigan psixologik yordamni olish. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning psixologik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishi faqat ularning roziligi bilan amalga oshiriladi;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq xavfsiz mehnat sharoitiga ega bo‘lish, dam olish, ta’tilga chiqish, shuningdek mehnatiga haq to‘lanishi;

ijtimoiy ta’minot, shu jumladan qonunchilikka muvofiq pensiya olish.

Mahkum ajnabiy fuqarolar shuningdek o‘z davlatlarining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari bilan, O‘zbekiston Respublikasida diplomatiya va konsullik muassasalari bo‘lmagan mamlakatlarning fuqarolari esa, ularning manfaatlarini himoya qilishni o‘z zimmasiga olgan davlatning diplomatiya vakolatxonalari bilan aloqa qilib turish huquqiga ega.

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlarida hamda referendumda ishtirok etish huquqiga ega.

Mahkumlarning huquqlarini ro‘yobga chiqarish tartibi ushbu Kodeks, boshqa qonunchilik bilan belgilanadi[1].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. 9-modda.

Mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 10-moddasiga asosan mahkumlar advokatlardan malakali yuridik yordam olish huquqiga ega. Yuridik yordam olish uchun advokatlar bilan xoli uchrashuvlar mahkumlarga ularning arizasiga yoki advokatning iltimosnomasiga ko‘ra beriladi.

Advokat bilan uchrashuvni mahkumning o‘zi rad etganligi sababli advokatning mahkum yuridik yordam olishi uchun u bilan uchrashuv berilishi to‘g‘risidagi iltimosnomasini qanoatlantirish rad etilganligi advokat mahkum bilan xoli suhbatlashganidan keyin tasdiqlanishi kerak, bu haqda bayonnoma tuzilib, u mahkum, advokat va jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatining vakili tomonidan imzolanadi.

Mahkumlarning advokatlar bilan uchrashuvlari ushbu Kodeksda belgilangan uchrashuvlar soni hisobiga kirmaydi, bunday uchrashuvlar soni va muddati cheklanmaydi.

Yuridik yordam ko‘rsatilayotganda advokat quyidagi huquqlarga ega:

jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatining, prokurorning, sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat berish;

jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatidan ma’lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so‘rab olish.

Mahkumlarning advokatlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 10-moddasida ta’kidlab o‘tilganlardan tashqari mahkumlar advokatlardan *malakali yuridik yordam olish huquqiga* ega.

Yuridik yordam olish uchun advokatlar bilan holi uchrashuvlar mahkumlarga ularning arizasi yoki advokatning iltimosnomasiga ko‘ra beriladi.

Advokatga mahkum bilan uchrashuv order yoki advokat guvohnomasi asosida beriladi. Advokat bilan uchrashuvni mahkumnining o‘zi rad etganligi sababli advokatning mahkum yuridik yordam olishi uchun u bilan uchrashuv berilishi tug‘risidagi iltimosnomani qanoatlantirish rad etilganligi advokat mahkum bilan holi suhbatlashgandan keyin tasdiqlanishi kerak, bu haqda *bayonnoma*tuzilib, u mahkum, advokat va JIEM ma’muriyatining vakili tomonidan imzolanadi.

Mahkumlarning advokatlar bilan uchrashuvlari Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan uchrashuvlar soni hisobiga kirmaydi, bunday uchrashuvlarning soni va muddati cheklanmaydi.

Mahkumlar *shaxsiy daxlsizlik xukuqiga* ega. Qamoq jazosiga, intizomiy qismga jo‘natish va ozodlikdan mahrum etilgan shaxsning xavfsizligiga tahdid yuzaga kelganda kelgan taqdirda u o‘z shaxsiy xavfsizligini ta’minlash haqida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. 10-modda.

iltimos bilan jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organning har qanday mansabdor shaxsiga murojaat etishga haqli.

Jazoni ijro etish muassasasi yoki organining boshlig‘i yoki ushbu muassasa va organlarning har qanday mansabdor shaxslari darhol mahkumning shaxsiy xavfsizligiga bo‘lgan taxdidni bartaraf etish yuzasidan zarur choralarni ko‘radi .(O‘zR JIK 11-moddasi)[1].

Jazoni o‘tash joylarida mahkumlarning vijdon erkinligi kafolatlanadi. Vijdon erkinligi - fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir[2].

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimiz. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bobi, 13-moddasida O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va Qonunlar bilan himoya qilinadi” deyilgan. Demak, tom ma’nodagi demokratik davlat deganda inson huquqlari va erkinliklari ta’minlanishi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2023y.

2. O‘ZBEKISTON Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “ 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGILANGAN KONSTITUTSIYASIDA INSON – TABIAT –JAMIYAT MUNOSABATLARINING AKS ETISHI

Shoimov N.B.
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti katta o‘qituvchisi, yu.f.n., dosent

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992 yil 8 dekabr kuni o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan edi. Bundan farqli o‘laroq, mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahriri 2023 yil 30 aprelda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida — to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan qabul qilindi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. 11-modda.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. 12-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 8 may kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan Yangilangan Konstitutsiyani hayotga joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni muhokama qilish jarayonidagi so‘zlagan nutqida yangilangan Konstitutsiyamizda barcha qatlam manfaatlari inobatga olinganligi, uni ishlab chiqishda aholi faol ishtirok etganligi hamda referendum orqali qabul qilinganligi ushbu hujjatning chinakam xalq Konstitutsiyasi bo‘lganidan dalolat ekanligini aytib: “Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo‘lgan davrda o‘tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol ishtirok etdilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo‘ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, “inson – jamiyat – davlat”, degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz”, – deya ta’kidlaganidek, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o‘zidir.

Asosiy qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi haqiqiy ma’noda jamiyatimiz hayotining barcha sohalari kabi, ekologik sohada, ya’ni atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi salomatligini himoyalash, fuqarolarning ekologik huquqining mavjudligi va ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasida davlatimizning erishgan katta yutug‘i bo‘ldi.

Darhaqiqat, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnoma bo‘lib, unda mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga, atrof-muhit musaffoligini saqlashga, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi va bu bo‘yicha qator normalar o‘z aksini topdi.

Chunki, hozirgi kunda inson – tabiat –jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni saqlash va unga rioya qilish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, fan va texnikaning rivojlanishi, demografik holatning o‘sishi, ya’ni jahonda insoniyat turmush tarzining takomillashib borishi ekologiyaga bo‘lgan munosabatlarning ahamiyatini oshirmoqda. Shu bois, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirish hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlash bugun hayotimizning eng zarur qismiga aylandi.

Shu boisdan ham, Konstitutsiyamiz muqaddimasida davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillardan biri bu — hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglash

shuningdek, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini saqlashga qaratilganligidir [1].

Hozirgi vaqtda ko‘pgina rivojlangan davlatlar, global iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda, o‘z Konstitutsiyalariga maxsus ekologik bo‘limlarni kiritmoqda. Jumladan, dunyoning 100 dan ortiq davlati Konstitutsiyalarida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ehtiyojlariga javob beradigan ekologik huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari mustahkamlangan [2].

O‘zbekiston Respublikasi yangilangan Konstitutsiyasining tahlili atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni ko‘paytirish va ulardan oqilona foydalanish, aholi salomatligini saqlash, har kimning qulay atrof-muhitga va bu haqda ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi mavjudligi, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy boyliklarni hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash masalalari alohida e’tiborga loyiqligi, uning “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar”deb nomlangan IX bobi, muqaddimasi hamda bir qator (49, 62, 66, 68, 79, 115, 123-m.m.) moddalarida ekologik normalar o‘z aksini topganligi va yanada kuchaytirilganini ko‘rsatdi.

Xususan, Asosiy qonunimiz ekologik xavfsizlikning amaldagi kafolati ekanligi ayniqsa uning quyidagi moddalarida yaqqol ko‘rinib turadi:

birinchidan, 49-moddasiga muvofiq, Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi” - deb qayd etilganligi har kimning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi mavjudligini va uning holati haqida ishonchli axborot olish huquqiga egaligini, davlat esa fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlashi va bu sohada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi hamda orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishida;

ikkinchidan, 62-moddasiga binoan, «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar» deb ko‘rsatilganligi davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy masalasi bo‘libgina qolmasdan, balki ekologik siyosatining negizini tashkil etishi hamda butun jamiyat a’zolariga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida katta mas’uliyat yuklatilganligida;

uchinchidan, 66-moddasiga asosan, «Mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar etkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak» deya uqdirilganligi mulk egasiga o‘ziga tegishli mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanish va tasarruf etish huquqi berilganligi va shu bilan bir vaqtda mulkdorning o‘z mol-mulkidan foydalanishi jarayonida boshqa shaxslar, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi hamda atrof muhitga zarar etkazmasligi shartligida;

to‘rtinchidan, 68-moddasiga binoan esa, «Er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Er qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin» deb ta’kidlab o‘tilganligi tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining asosiy belgilaridan biri bo‘lgan tabiiy resurslarning ajralmasligi belgisiga mos ravishda tabiatda barcha boyliklar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ekanligi va bu bog‘liqlik tabiatdagi o‘zaro mutanosiblikni saqlashida, bu tabiiy resurslarning umummilliy boylik bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish shartligida hamda ularni muhofaza qilish maqsadida ekologiya sohasiga oid qonunlar, ya’ni “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1992 y.) [3], “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi (1993 y.) [4], “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1996) [5], Er kodeksi (1998) [6], “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi (2004) [7], “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi (2013 y.) [8], “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (2016 y.) [9], “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (2016 y.) [10], “O‘rmon to‘g‘risida”gi (2018 y.) [11], “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi (2020) [12] va boshqa shu kabi ekologik qonunchilik hujjatlarining to‘liq ijro etilishini ta’minlash lozim ekanligida, chunki tabiat ob’ektlarining birontasiga etkazilgan zarar boshqalariga ham albatta o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishida.

beshinchidan, 79-moddasiga binoan, davlat yoshlarning barcha huquqlari kabi, ekologik huquqlarini himoya qilinishini ta’minlashi, 115-moddasiga asosan esa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni

saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash ekanligi hamda 123-moddasiga asosan, hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlaridan ekanligi qayd etilganligida.

Qisqasi, mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy tizimlarni, ularning biologik rang-barangligini hamda o‘zini o‘zi tiklash qobiliyatini saqlash va qayta tiklash, tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanishni ta’minlash, tabiatdan foydalanishni boshqarishning samarali iqtisodiy metodlarini joriy etishni davom ettirish, atrof muhitning ifloslanish darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni saqlashni ta’minlashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish, ekologik ilm-fanni rivojlantirish, ekologik bilimlarni keng targ‘ib qilish, shuningdek ekologik madaniyatni oshirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirish borasidagi tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi davlatimiz erishgan buyuk yutuq sifatida – uzoq davrga mo‘ljallangan hujjatdir hamda yuqoridagi tadbirlarni to‘liq amalga oshirishda, ya’ni bugungi kunda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda albatta dasturilamal vazifasini o‘tashi muqarrardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023.
2. Akmal Saidov. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati // https://constitution.uz/uz/paGES/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 1-son, 38-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 07.02.2024 y., 03/24/904/0102-son; 30.08.2024 y., 03/24/951/0673-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 5-son, 221-modda; 04.11.2022 y., 03/22/800/0990-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son; 18.01.2024 y., 03/24/898/0046-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 2-son, 52-modda; 07.02.2024 y., 03/24/904/0102-son.
6. O‘zbekiston Respublikasining Er kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 82-modda; *10.10.2024 y., 03/24/973/0800-son.*

7. O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005 y., 1-con, 1-modda; 30.08.2024 y., 03/24/951/0673-son.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-son, 688-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; 07.02.2024 y., 03/24/904/0102-son.

9. O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 38-son, 440-modda; 30.08.2024 y., 03/24/951/0673-son.

10. O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 38-son, 439-modda; 30.08.2024 y., 03/24/951/0673-son.

11. O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2018 y., 03/18/475/1078-son; *07.06.2022 y., 03/22/775/0477-son.*

12. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 144-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 29.04.2021 y., 03/21/688/0394-son.

YANGI KONSTITUTSIYA — INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING ASOSIY KAFOLATI

Xojibekov Z.N.
IIV Malaka oshirish institute Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi,

Raximov Sh.K.
IIV Malaka oshirish institute Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi.

Yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadamdir.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi.

Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida belgildi. Bu hol davlat

organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatishiga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiya qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan bayram tabrigida so‘zlagan nutqida: **“Konstitutsiyamizda qat’iy belgilab qo‘yilganidek, insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz bo‘lib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarimizdan biridir”**-deya ta’kidlagani yurtimizda shaxsning huquq va erkinliklari Konstitutsiya bilan mustahkamlanganligiga dalolatdir [3].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai” [2], degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan.

- Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston — inson sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo‘lishi;
- xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; “odamlar tashvishi bilan yashash”, xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi;

barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [4].

Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak!

Yuqorida aytib o‘tilgan moddaning ikkinchi bandi birinchi qismida belgilab berilgan O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilishi to‘g‘risidagi norma ham aytib o‘tilgan fikrlarning tasdig‘idir. Hech shubhasiz, ushbu normalar mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda xalqimiz xohish-irodasi va insonlarning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa’y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi.

O‘zbekiston tomonidan imzolangan ko‘plab xalqaro hujjatlarda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari ta’minlanishi belgilangan. Xususan,

Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasining 29-moddasida “Har bir inson o‘z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo‘lishini hamda hurmat qilinishini ta’minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak” [1].– deya belgilangan.

Xulosa o‘rnida, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat’iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi [4].

Yurtimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolar, ayniqsa, yosh avlodni ularga hurmat ruhida tarbiyalash inson manfaati, huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, hayotimizning erkin va obod, turmushimizning yanada farovon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e’lon qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023 yil. –7-bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiya qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan bayram tabrigida so‘zlagan nutqida. 2023 yil 7 dekabr.

4. https://constitution.uz Saidov A. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya - inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati maqolasi. 2023 yil.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI TA’LIM OLISHNING BOSHLANG‘ICH ASOSI

Raximov Sh.K.
IIV Malaka oshirish institute Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi.

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, ta’lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e’tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Ta’lim har qanday mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan muhim omildir. Shu bois, Konstitutsiyaning 50-moddasida davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari

rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha davlatning majburiyatini belgilovchi norma mustahkamlandi.

Mamlakatimizdagi ta’lim turlari tizimida umumiy o‘rta ta’lim markaziy o‘rinni egallaydi. Maktab har bir insonning barkamol va bilimli shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 50-moddasida;

“Har kim ta’lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.

Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiya’ni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” [2] -deb davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim olishni kafolatlashi bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim majburiy ekanligi haqida norma belgilandi.

Mazkur yangi normaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, intellektual avlod asri bo‘lgan XXI asrda ilm-ma’rifatsiz har qanday jamiyat, iqtisodiyot barqaror rivojlana olmaydi. Shu sababli, har bir insonning ta’lim olish huquqini ta’minlash oila, jamiyat va davlatga muayyan majburiyatlarni yuklaydi;

ikkinchidan, O‘zbekiston tomonidan imzolangan ko‘plab xalqaro hujjatlarda umumiy o‘rta ta’lim majburiy ekanligi belgilangan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasining 26-moddasida “Har bir inson ta’lim olish huquqiga ega. Ta’lim olishda hech bo‘lmaganda boshlang‘ich va umumiy ta’lim tekin bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich ta’lim majburiy bo‘lishi kerak” [1].– deya boshlang‘ich ta’lim majburiy bo‘lishi belgilangan. Zero, umumiy o‘rta ta’limning majburiyligini belgilash orqali aholining savodlilik darajasini yuksaltirish jahonda tan olingan usuldir;

uchinchidan, maktabda o‘qishning majburiy ekanligini bajarmaganlik uchun qonunchiligimizda ota-onalar uchun javobgarlik belgilangan. Xususan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasida bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaganlik uchun ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar uchun ma’muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Bu voyaga yetmaganlarning o‘z vaqtida va sifatli ta’lim olishlarini, ota-onalarning ta’limga oid majburiyatini ta’minlashga qaratilgandir. Shuningdek, ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari va yaqinlarining mas’uliyatini oshirish bilan birga, ertamiz egalari bo‘lgan yoshlarning maktabda puxta bilim olib, hayotda o‘z o‘rnini topib el-yurt koriga

yaraydigan munosib farzand bo‘lib yetishishi uchun muhim huquqiy kafolat bo‘lib hisoblanadi [5].

Ta’kidlash joizki, umumiy o‘rta ta’limning majburiy ekanligiga oid normalar Italiya, Bolgariya, Vengriya kabi mamlakatlar Konstitutsiyalarida mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyundagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy komissiyasi a’zolari bilan uchrashuvda quyidagilarni ta’kidladi: “Ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdir” [3].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun ta’lim muassasalarida inkluziv ta’lim tashkil etiladi, degan qoidani Asosiy qonunimizga kiritishni taklif qilgan edi. Ayni maqsadda, yangilangan Konstitutsiyamizning 50-moddasida ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi, degan muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi norma mustahkamlandi.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar sirasiga jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar kiradi.

Xulosa shuki, inson kapitali sifatini oshirmasdan turib, keyingi iqtisodiy o‘sishni ta’minlash qiyin kechadi. Shu bois, zarur kuch va resurslarni ta’lim sifatini oshirishga, malakali kadrlar tayyorlashga yo‘naltirish nafaqat bugun, balki ertaning ham ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Shu boisdan ham, har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo‘ldagi ulug‘vor maqsad va vazifalarini, avvalo o‘z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Bunga esa, aslo shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e’lon qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023 yil. –32-bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy komissiyasi a’zolari bilan uchrashuvdagi nutqidan. 2022 yil 20 iyun

4. https://president.uz

5. https://konstitutsiya.gov.uz

JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBINI TA’MINLASH BORASIDAGI AYRIM YO‘NALISHLAR BO‘YICHA KOSTITUTSIYA VA MILLIY QONUNCHILIK TIZIMI

G‘iyosov B.H.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, (PhD).

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi adolatlilik, odillik, halollik, oshkoralik prinsiplari asosida Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi[1]ga taya’nib, davlat va jamiyatda inson qadr-qimmati va huquqlarini qaror topishini qo‘zlagan holda qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari, xozirgi va kelajak avlod oldidagi ma’suliyat, fuqarolarning jamiyatda munosib hayot kechirish, milliy totuvligimiz va tinchligimizni ta’minlash yo‘lida qabul qilinib, muqaddima, olti bo‘lim, yigirma yetti bob va bir yuz ellik beshta moddadan iborat ekanligi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida “Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, “inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo‘lib qoladi”,[2] degan oliyjanob so‘zlari Konstitutsiyamizning qudratini anglatadi.

Inson huquqlarini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri ekan, ushbu vazifani to‘laqonli ado etishning bir tomoni jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasiga borib taqaladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi vaqtda dunyoda turli kuchlar o‘rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchaymoqda, resurslar uchun shafqatsiz kurash ketmoqda. Mintaqamizdagi tinchlik va xavfsizlikka nisbatan yangi-yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda”,[3] deya ta’kidlagani huquqni muhofaza qilish organlarining oldiga fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlashda ma’suliyat bilan burchni ado etish lozimligi bilan bir qatorda, zamonaviy xavf va tahdidlarni oldini olish uchun puxta tayyorgarlik ko‘rish kerakligini anglatmoqda.

Hozirgi kunda ommaviy madaniyat, internet, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy xarakterlari rivojlanishi bilan bir qatorda, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning zamonaviy ko‘rinishlari ko‘paymoqda. Misol uchun, milliy mentalitetimizga o‘zaro kelishmovchiliklar va buning natijasida kelib chiqayotgan turli-tuman huquqbuzarliklar, yangi turdagi jinoyatlar sodir etilmoqda. Bularning aksariyati zamirida shaxsiy va moddiy manfaat borligi achinarli albatta. Shuning uchun, xozirda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini faqatgina jazo choralarini kuchaytirish bilan

emas, balki jamiyatni ijtimoiy-iqsodiy, ma’naviy hamda ruhiy jihatdan yuksaltirish orqali hamda davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini buzmagan holda ish orqali samarali ta’minlash mumkin.

Bu kabi jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi masalalarini chuqur chuqur tahlil qilib hamda boshqa davlatlarning Konstitutsiyasidan farqli ravishda urf-odat va taomillarimizga tayangan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 14 bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlanganligi, oila esa jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda oila, bolalar va yoshlar jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi, shuningdek Konstitutsiyaviy normalarga ko‘ra, nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishi,[4] yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda qayd etilgani mazkur masalada milliy qadriyatlarga hurmat munosabatining qay darajada yuksak ekanligini ko‘rsatadi.

Yana aytish mumkinki, jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun asosiy e’tibor mamlakat yoshlarining ijtimoiy-ma’naviy holati bilan ham bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etar ekan, bu yo‘nalish alohida ahamiyat kasb etishi tabiiy albatta. Bu esa, jamoat xavfsizligi masalaning ijrosini ta’minlash uchun avvalambor tegishli davlat organlari va mas’ul mansabdor shaxslar tomonidan aholining yosh qatlamiga ta’lim va tarbiya berish jarayoniga alohida e’tibor berish lozimligini anglatadi. Bu borada Konstitutsiyamizda ham alohida normalar mavjud bo‘lib, unga ko‘ra ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdir ekanligi,[5] farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’iy nazar, qonun oldida tengligi, shuningdek bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlat uchun majburiyat sifatida belgilanganligi,[6] yuqorida keltirib o‘tgan fikrimizni amalda isbotlaydi.

Ma’lumki, yurtimizda ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash hamda bolalarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunarga yo‘naltirish kabi masalalar kelajakda ishsizlikning oldini olishga muayyan darajada xizmat qiladi. Mamlakatda ishsizlikning kamayishi esa, o‘z navbatida huquqbuzarliklarning sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Bu masalaga Prezidentimizning avval boshdanoq alohida to‘xtalgani bejizga emas. Ya’ni, 2019-yilning 19-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish

ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga katta ahamiyat berilgani hamda ushbu tadbirda davlat rahbari yoshlar yo‘nalishidagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus[7]ni ilgari surgani mazkur yo‘nalishning dastlabki islohotlaridan biri bo‘lib xizmat qildi.

Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq Konstitutsiyaviy normalarning boshqa tomoniga ham e’tibor berish zarur. To‘g‘ri, inson huquq va erkinliklarini, shuningdek uning qonuniy manfaatalarini ta’minlash va ularni o‘z vaqtida samarali tarzda ro‘yobga chiqarish davlat organlarining asosiy vazifasidir. Ammo, inson va fuqarolar ham jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishining kichik ishtirokchisi ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Ya’ni, Konstitutsiyaviy qoidaga binoan, inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Jumladan, insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.[8]

Ushbu yangi norma endilikda nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari vakillari, balki keng jamoatchilik, borinki oddiy fuqaroning ham davlat va jamiyat manfaatlarini asrab-avaylashga birdek javobgar ekanligini Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yish bilan birga, fuqarolarda amaldagi qonunlarga xurmat munosabatini yanada oshirishga xizmat qildi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Milliy qonunchiligimizdagi jamoat xavfsizligi va tartibini saqlashga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek amaldagi qonunchilikka kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar mazkur sohani ilg‘or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga imkon yaratibgina qolmasdan, balki yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan bu kabi normalarning davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida to‘g‘ri tatbiq etilishi uchun ham poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilagn adabiyotlar ro‘yxati:

1. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi // https://constitution.-uz/uz/paGES/humanrights
2. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz”. 06.11.2021-yil // https://president.uz/uz/lists/view/4743
3. Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishdi. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi. № 223 (479), 07.11.2021-yil. 1-2-betlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 76-modda // https://lex.uz/docs/6445145
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 77-modda. 1-qism. // https://lex.uz/docs/6445145
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 77-modda. 2-qism. // https://lex.uz/docs/6445145
7. Isoqova G. “Besh muhim tashabbus yoshlarga qanot”. ijtimoiy-siyosiy gazetasi. 18.12.2020-yil // https://yuz.uz/news
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 21-modda. 1-qism. // https://lex.uz/docs/6445145

CONSTITUTIONAL FOUNDATIONS FOR ENSURING THE RIGHTS OF WITNESSES IN PRETRIAL PROCEEDINGS

Badalboyev F.Y.
Of the Republic of Uzbekistan Deputy head of the organizational department of the Ministry of Internal Affairs, Head of the Legal Support Department.

As stated in the preamble of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan, this Constitution was adopted and proclaimed by the people of Uzbekistan, acknowledging our high responsibility to present and future generations for the establishment of a humane democratic state and an open and just society, where human life, freedom, honor, and dignity are considered the highest values. It also aims to ensure a decent life for citizens, inter-ethnic and inter-confessional harmony, and the well-being and prosperity of our multi-ethnic native Uzbekistan.[1]

In criminal procedural legislation, the right of witnesses to participate in investigative actions refers to the right of an adult person who is not interested in the outcome of the case in which they are involved. This person can be invited by the investigator or prosecutor to participate in conducting investigative actions or to confirm the results of other procedural actions as a witness. After being explained their rights and obligations in the process of conducting the investigative action, they are entitled to observe the process of the investigative action. Upon completion of the investigative action, they can familiarize themselves with the protocol of the investigative action, provide comments and observations that should be included in the protocol, and confirm the protocol with their signature.[2]

The right of witnesses to file statements and comments on their participation in investigative actions, which should be included in the protocol, is the right of the investigator, the investigator, and the prosecutor to familiarize themselves with the protocol of the investigative action after the completion of

the investigative action, explain to them the content of the investigative action and their rights and obligations under Article 74 of the Criminal Procedure Code, and express their complaints and comments to them when they are involved as witnesses to conduct investigative actions or confirm the results of other procedural actions. The witnesses can give their own opinions and comments on the investigative action conducted through this right.[3]

The right to familiarize oneself with the protocol of the investigative action in which he participated is understood as the right to familiarize oneself with the protocol of the investigative action in which he participated, according to the Criminal Procedure Code, after the completion of the investigative action with his participation, the investigator, the investigator, and the prosecutor, who are involved in the conduct of investigative actions as impartial, provide a protocol confirming the results of this investigative action. After the witnesses familiarize themselves with the protocols of each investigative action, a corresponding record is made about their acquaintance with it, which is confirmed by the witnesses' signature.[4] In most cases, the investigator, the investigator, the prosecutor confirms the witnesses with their signature to the protocol of investigative actions conducted with their participation before the start of the investigative action, and then carries out the investigative action. In fact, in accordance with the requirements of the Criminal Procedure Code, the investigating officer, the investigator, and the prosecutor, after the completion of the investigative actions, are required to determine the nature of this investigative action present the protocol to the witnesses and sign it.

The right of witnesses to appeal against the actions and decisions of the investigator, investigator, prosecutor means that they can appeal against the actions and decisions of the investigative actions only when conducting investigative actions with their participation. It should be taken into account that witnesses can only appeal against investigative actions and decisions made with their participation.

The specificity of witnesses as participants in the criminal process means that the rights of witnesses involved in the case as participants in the criminal process have several differences and similarities compared to the rights of other participants. For example, according to Article 72 of the Criminal Procedure Code, an interpreter involved in the case as a participant in the criminal process can ask questions to the participants in the process in order to clarify the translation. As a participant in the criminal process, the witnesses have no problem with the participants in the process the witnesses have the right to familiarize themselves only with the protocols of the investigative action in which they participated, and to make statements and comments that should be included in it.[5]

Another distinguishing feature of the opponents from the participants in the criminal process is explained by A. Saydov and A. Sh. Umarkhanov in their textbook, that when conducting investigative actions in criminal cases, the opponents invited by the investigator-investigator do not require the necessary knowledge to participate in the conduct of investigative actions, they do not engage in any professional activities in conducting investigative actions.

For example, an expert participating as a participant in a criminal case requires special knowledge in the field of science, technology, and art necessary for issuing a conclusion, and as a result of this knowledge, he conducts expert examinations.

This is also the peculiarity of the rights of witnesses involved in the conduct of investigative actions in criminal cases.

If a person who participated in the conduct of investigative actions as an intermediary appeals against the results of the investigative action conducted with their participation by one of the parties in the judicial process, the court hearing the case may summon the intermediaries to the court and interrogate them as witnesses on the results of the investigative action conducted with their participation.

The law does not specify that specialists, translators, who are other participants in the criminal process, are interrogated as witnesses in any investigative action or any other procedural actions conducted with their participation. This is also a distinguishing feature of witnesses from other participants in the criminal process - specialists and translators. Thus, if it is established that the witnesses participate in the stage of investigation of criminal cases, that is, at the stage of inquiry and preliminary investigation, they participate in the status of witnesses in the next investigation of this case may also participate as a witness in their actions or in the trial phase.[6]

Before the start of the investigative actions, the investigator, the prosecutor must explain their rights to the witnesses and confirm the protocol with their signature. Studies of investigative practice show that inquiry officers, investigators, and prosecutors are unable to adequately explain their rights and obligations to witnesses in a way that witnesses understand. At the same time, due to the insufficient level of legal knowledge of most individuals involved in the case as witnesses, there are many cases of their refusal to participate as witnesses. However, the Criminal Procedure Code does not provide for the mandatory involvement of witnesses in the case, the investigator, the investigator cannot force the witnesses to participate because they refuse to participate as witnesses, but it is sufficient to state that assisting the investigative bodies in collecting and verifying evidence is the civic duty of every citizen.[7]

For this reason, when involving the witnesses in each case, the investigator, the prosecutor should explain their rights sufficiently and explain that they should participate only as witnesses in the case, as a result of which they will not have any legal consequences, and that it is the duty of every citizen as a citizen of the Republic of Uzbekistan to help the bodies of inquiry and investigation to uncover crimes and bring the guilty to justice within the framework of the law.

References:

1. The Constitution of the Republic of Uzbekistan in the new edition https://lex.uz/docs/6445145

2. Criminal Investigation and Trial: Problems and Solutions // New Codes of the Republic of Uzbekistan: Theory and Practice: Materials of the Scientific and Practical Conference - T., 1994.

3. Sh.Kh. Inomjanov. Problems of presenting and using evidence in criminal proceedings. Monograph. -T.: TDYUI publishing house. 2006. -179 p. 453-454;

4. Semensov V.A. Investigative actions in pre-trial proceedings (general provisions of theory and practice). - Tashkent, 2020. - P. 173.

5. Bykov V.M. Institut ponyatyx v ugolovnom processe Rossii // Ugolovnoe pravo. - 2022. - No. 3. - S. 74. 12.

6. Umarkhanov A.Sh. Participants in the criminal process. Textbook. Academy of the Ministry of Internal Affairs T: 2012 18 p.

7. Semensov V.A. Investigative actions in pre-trial proceedings (general provisions of theory and practice). - Tashkent, 2020. - S. 177.

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA KONSTITUTSIYANING O‘RNI

Atamirzayev I.X.
Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti dekan o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Bugun jamiyat taraqqiyotida fuqarolarning, ayniqsa, yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishning hozirgi bosqichida fuqarolarning huquqiy madaniyatiga bo‘lgan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Huquqiy madaniyat shaxsning siyosiy faolligi, demokratik islohotlarga intiluvchanligi, chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim etukligining ko‘rsatkichidir.

Huquqiy davlat va demokratik odil jamiyatni barpo etish jarayoni ommaning nafaqat siyosiy faolligi, uyushqoqligi, hamjihatligiga, balki huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyati darajasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va erkinlashtirish, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilash vazifasi kishilarning dunyoqarashi, ongu tafakkuri, siyosiy-huquqiy saviyasi, madaniyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishni, huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini takomillashtirishni talab etmoqda.

Huquqiy ong va madaniyat jamiuat huquqiy tizimining zaruriu tarkibiu qismidir. Huquqiy tizimning samarali harakati uuksak huquqiy ong va madaniuatga tauanadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniuatni uuksaltirish masalasi huquqiy demokratik davlatda doimo ustuvor vazifa hisoblanadi. Huquqiy madaniuat jamiuatdagi turli xil hauotiu jarauonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvshi, fuqarolarning, barsha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko‘maklashuvshi, jamiuatning uaxlitligi hamda batartibligini ta’minlovshi va mustahkamlovshi omildir.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniuatni uuksaltirib borish huquqiy davlatshilikni qaror toptirishning, mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniulikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz rahbari Oliu Majlisga Murojaatnomasida ham ijtimoiy rivojlanish sohasidagi ulkan insonparvarlik va bunuodkorlik vazifalarini belgilar ekan, oldimizga qo‘ugan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz ushun kush-quvvat manbai bo‘ladigan milliu g‘ouani rivojlantirishimiz zarur, deb alohida e’tirof etdi. Milliu g‘ouani omma ongiga singdirish, ma’naviy tarbiuani kushautirish, albatta, huquqiy madaniuatni uuksaltirishni ham nazarda tutadi.

Bu maqsadga erishish ushun, – dedi Prezident, – birinshi navbatda, barsha darajadagi rahbarlar va xalq deputatlari, barsha uetakshilar o‘z faoliuatini tanqidiu tahlil, qat’iu tartib-intizom va shaxsiu javobgarlik asosida tashkil etishlarini bugun hauotning o‘zi talab etmoqda. Jamiuatimizda shundau huquqiy madaniuati shakllantirish kerakki, unga muvofiq Konstitutsiua va qonunlarga rioua qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiuat emas, balki kundalik qoida va odatga aulanishi shart.

2019-yil 9-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiuatda huquqiy ong va huquqiy madaniuatni uuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va auni vaqtda “Jamiuatda huquqiy madaniuatni uuksaltirish Konsepsiua”si tasdiqlandi.[1]

Farmonda mamlakatimizda so‘nggi uillarda huquqiy madaniuatni aholi ongiga singdirish, uni rivojlantirish sohasida qaror topgan tizimning samarasiz

ekanligi, unda namouon bo‘lauotgan kamshilik va muammolarga e’tibor qaratildi. Auniqsa, hozirgi globallashuv, ilmiu-texnika taraqqiuoti davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniuatini uuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirshan vositalaridan, xorijiu davlatlarning bu boradagi ijobiu tajribalaridan uetarli darajada foudalanilmauotganligi tanqidiu baholandi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniuatini uuksaltirishga doir ishlar samaradorligini uanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siuosiu o‘zgarishlar bilan uug‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviu usullarini joriu etish, shuningdek, aholini, auniqsa, uoshlarni zararli axborotlardan himoua qilish bo‘uisha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish lozimligi ta’kidlandi.

Farmonda “Yuksak huquqiy madaniuat - mamlakat taraqqiuoti kafolati” degan konseptual g‘oua asosida aholining barsha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, uuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hauotda qo‘llau olishlari ushun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi.

Huquqiy ong va madaniuatni uuksaltirmasdan turib, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiuati barpo etib bo‘lmasligini o‘z vaqtida anglagan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda taraqqiuotning dastlabki bosqishlaridan boshlab ushbu masalaga davlat siuosatining muhim uo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida aholining huquqiy ongi va madaniuatini shakllantirishning ilk bosqishida bu uo‘nalishdagi islohotlarni huquqiy ta’minlashga alohida uondashildi va ushbu maqsaddan kelib shiqib, huquqiy madaniuatni yuksaltirishning huquqiy bazasi uaratildi hamda amaliuotga joriu etilmoqda.

Huquqiy ong huquqiy tizimning muhim tarkibiu qismi hisoblanadi. Huquqiy ongning shakllanishini ijtimoiy ong shakllanishidan auri holda tasavvur qilish mumkin emas. Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir shakli hisoblanib, nisbatan mustaqildir. Huquqiy ongning ilmiu-nazariu tahliliga oid o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarga qaramasdan hanuzgasha huquqshunos olimlar uning tushunshasi bo‘uisha uakdil fikrga kelmaganlar.

“Huquqiy ong, – deb ta’kid etadi, X.T.Odilqoriuev, – ijtimoiy ongning bir shakli hisoblanib, nisbatan mustaqildir. Huquqiy ong jamiuat a’zolarining huquqqa, qonunga nisbatan munosabati hamda davlat mexanizmi faoliuati xususidagi tasavvurlari, qarashlari, ta’riflar, his-tuug‘u va kaufiuatlarining mujassam ifodasidir”[2].

Yoki, “huquqiy ong – huquqni anglash demakdir, odamlarning ham amaldagi huquqqa, ham ularning o‘zlari istagan huquqqa munosabatini ifoda etadigan tasavvur va his-tuug‘ularning mujassamidir»[3]. Amaldagi huquqni

ma’qullash uoki ma’qullamaslik, zaruriu huquq qandau bo‘lishi, u qandau prinsiplarni shakllantirilishi kerakligi haqidagi tasavvur aunan huquqiy ongda namouon bo‘ladi. Huquqiy ong, tarkibiu tuzilishiga ko‘ra murakkab hodisa sifatida, huquqni bilishni, huquqiy mafkurani, huquqiy psixologiuani, huquqiy uo‘nalishni o‘z ishiga oladi[4].

Bizning fikrimizsha, huquqiy ong – ijtimoiy ongning bir shakli bo‘lib, insonlar ongida huquq to‘g‘risidagi qarashlar, g‘oualar, fikrlar, tushunshalar va tasavvurlarning aks etishidir.

Huquqiy ongning shakllanishi huquqiy madaniuat rivojining asosidir. Huquqiy ong huquqiy madaniuatning zaruriu elementi sifatida ifodalanadi. Qashonki, kishilar ongida huquqiy qarashlar, bilimlar, tasavvurlar shakllanib amaliu faoliuatga ijobiu tarzda uo‘naltirilsa, huquqiy madaniuatga aulanadi. Huquqiy madaniuatni uuksaltirish mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ugan buuuk maqsadlarga erishishning zaruriu sharti hisoblanadi. Shu o‘rinda, “huquqiy madaniuat o‘zi nima?” – degan savol tug‘ilishi tabiiu.

Huquqiy madaniuat ijtimoiy madaniuatning bir shakli bo‘lib, huquqni bilish, unga og‘ishmau rioua etish va o‘zgalarning huquq va erkinliklariga hurmat munosabatida bo‘lishda ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir. “Madaniuat inson faoliuatining ham mahsuli, ham sifat ko‘rsatkishidir. Shu bilan birga insonning o‘zi ham, pirovard natijada madaniuat mahsulidir. Xatto autish mumkinki, madaniu muhit qandau bo‘lsa, inson ham shundau shakllanadi»[5]. Demak, huquqiy madaniu muhit insonlar huquqiy ongini shakllantirish bilan birga ularni huquq asosida harakatlanishining bosh mezonidir. «Huquqiy madaniuat deganda, – prof. Z.M.Islomov e’tirofisha, – huquqiy bilim andozalari va uning tabiatini, huquqiy tizim bahosini, shuningdek huquqiy xatti-harakatlar sohasini tartibga soluvshi ijtimoiy qadriuatlar, normalar, an’ana va andozalar mazmun mohiuatini tushunish kerak»[6].

Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi va huquqiy madaniuatning uzviuligini quuidagi fikrlar ham tasdiqlaudi: «huquqiy madaniuat deganda jamiuatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioua qilmaganlarga murosasiz bo‘lish, qonunga itoatkorlik darajasi tushuniladi»[7].

Huquqiy madaniuat umumiu madaniuatning bir shaklidir. U huquqiy borliqqa nisbatan ma’naviy va moddiu qadriuatlardan tashkil topadi. Bunda huquqiy madaniuat huquqiy hodisalarda mavjud bo‘lgan ilg‘or, ijtimoiy foudali va qadrli jihatlarnigina o‘zida mujassam etadi. U nafaqat natija, shu bilan birga faoliuat usuli hamdir. Shu ma’noda huquqiy madaniuat tafakkur shakli, xulq – atvor normalari va talablari sifatida shaxsning huquqiy faoliuatiga, ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvida huquqiy ong va huquqiy madaniuatning o‘rni beqiuos. Huquqiy ijtimoiylashuv jarauoniga huquqiy faollashuvning bir ko‘rinishi sifatida baho bersak, ular huquqiy madaniuatning tarkibi sifatida namouon bo‘ladi. Shunki, ko‘plab uuridik adabiuotlarda «huquqiy faollik» huquqiy madaniuatning tarkibi sifatida e’tirof etiladi[8][1]. Bulardan shundau xulosaga kelish mumkinki, huquqiy ijtimoiylashuv va huquqiy madaniuat o‘zaro uzviu bog‘liq tushunshalar hisoblanadi hamda bir-biriga doimo ta’sir etgan holda shakllanadi.

Huquqiy madaniuatning istiqbolni belgilash funksiuasi bo‘lg‘usi fuqarolik jamiuati va huquqiy davlatning huquqiy-mafkuraviu modelini uaratishni nazarda tutadi. U huquqiy kamolot modelida namouon bo‘ladi. Ilmiu adabiuotlarda, umuman, huquqshunoslikda «huquqiy kamolot» modeli mavjudligini uoki kelgusida shakllanishi zarurligini Z.M.Islomov asoslashga harakat qiladi. Olimning «huquqiy kamolotning uaxlit, tizimlashgan konsepsiuasi»ni uaratish haqidagi nazariu fikrlari huquqiy madaniuatning istiqbolni belgilash funksiuasiga taalluqlidir. Olim ushbu konsepsiuaning taxminiu mezonlari sifatida quuidagilarni ko‘rsatadi:

1. Milliu huquqiy mafkura ijtimoiy-siuosiu parokandalikka olib keladigan g‘oualar negizida uaratilmasligi kerak.

2. Huquqiy mafkura o‘tmish tarixiu tajribasi ushun hamisha oshiq bo‘lishi lozim.

3. Shaxs va jamiuat manfaatlari o‘rtasida ustunlik maqomlarini o‘rnatish emas, balki oqilona uzviulik munosabatini qaror toptirish zarur. Shaxsning kamolotga erishishi, huquq, majburiuat va bursh uug‘unligining ta’minlanishi insonning jamiuatga, uning madaniuatiga bevosita integratsiualashuvi orqaligina ro‘u beradi.

4. Huquqiy mafkura O‘zbekistonning mustaqilligi va uning himouasi, bu jarauonda davlat rolining kushauishi tamouillariga suuanishi zarur[9].

O‘zbekiston Respublikasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniuatini uuksaltirish borasida amalga oshirilauotgan tadbirlar bugungi huquqiy modernizatsiua sharoitida uangi bosqishga ko‘tarilishi darkor.

Xulosa qilib autganda, huquqiy ong va madaniuatni uuksaltirish islohotlarning barsha bosqishlarida o‘z dolzarbligini uo‘qotmaudi. Hozirgi huquqiy modernizatsiua davrida ham aholining huquqiy madaniuatini uuksaltirish hamda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga Yangi taxrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz mo‘tadil muhit uaratib, uning to‘g‘ri va samarali shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

[1] Qarang: Saburov N. Shaxs siyosiy-huquqiy faolligi - fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili. Yurid.fan.doktori... Avtoref. –Toshkent, 2011. – B. 23.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y., 06/19/5618/2452-son, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son

2.Odilqoriyev X.T. Mustaqillik va huquqiy qadriyatlar. Huquq-Prava-Law. 2001. №3. –B. 4-5.

3.Xalilov E.X. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o‘rni. –T.: 2001. –B. 12.

4.Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T., 2002. 228-237-betlar; Cherdansev A.F. Teoriya gosudarstva i prava. Ychebnik dlya vuzov. M., 2000. –S.

5.Mustaqillik ilmiy-ommabop lug‘at. // A.Jalolov va K.Xonazarovlar umumiy taxririda. –Toshkent. «Sharq» 2000 yil. –B. 104.

6.Islomov Z.M. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat // Huquqiy ongdan – yuksak huquqiy madaniyat sari. Ilmiy-amaliy konferansiya materiallari to‘plami.–Toshkent. TDYuI. 2006. –B. 40.

7.Tadjixanov U.T., Saidov A.X. Huquqiy madaniyat nazariyasi. T.1. – Toshkent. «O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi» nashriyoti. 1998. – B. 45.

8.Saburov N. Shaxs siyosiy-huquqiy faolligi - fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili. Yurid.fan.doktori... Avtoref. –Toshkent, 2011. – B. 23.

9.Islomov Z.M. Islohotlar samarasi huquqiy ong darajasiga bogliq. // Huquqiy madaniyat — demokratik istiqbol omili. 1999. – B. 50.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA — FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATI

Ikramov A.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.

O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi barqaror taraqqiyoti, xalqimiz farovon hayotining mustahkam huquqiy asosi va ishonchli kafolatidir. Bosh qomusimizda ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etilib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Xususan, inson manfaati har narsadan ustun qo‘yilishi e’tirof etildi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilandi. Bular, inson sha’ni va qadr-

qimmati daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi, inson va davlat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta’sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi kerakligi va boshqalarda o‘z aksini topdi.

Shuningdek, insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati eng ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi. Jumladan, Konstitutsiyamizda hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi hamda shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi qat’iy belgilandi.

Bundan tashqari, shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi konstitutsiya doirasida mustahkamlandi.

Bu kabi normalar shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shartligini bildirib, tergov va surishtiruv organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish yoki qamoqda saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgandir.

Konstitutsiyada shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik, sukut saqlash huquqi berildi[1]. Ya’ni, xalqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi” fuqarolarning o‘z huquqlarini himoya qilishning zamonaviy usuli sifatida Asosiy qonunda o‘z ifodasini topdi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etilgan. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi mustahkamlanib, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalar jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha’ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishining oldini oladi.

Yana bir muhim norma — agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin

emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, insonning ajralmas huquqlardan biri – o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqidir. Bu huquq umume’tirof etilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Shu norma Konstitutsiyamizning 55-moddasida ham belgilanib, har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi e’tirof etildi.

Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqaro o‘z buzilgan huquq va erkinliklarini, o‘zgalar huquqlarini buzmagan holda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Bunda fuqaro tomonidan o‘zini himoya qilishda qo‘llaniladigan usullar yoki choralar qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo‘lishi lozim.

Shuningdek, fuqaro O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqliligi belgilangan. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanishini ta’minlashning huquqiy kafolatidir[2].

Bundan tashqari, shaxsga davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lganidan so‘ng, xalqaro organlarga murojaat etish huquqining berilayotganligi O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu qoidalar inson huquqlari ustuvorligini ta’minlaydi, davlat idoralarining o‘z vazifalarini inson huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan dabiyotlar ro‘yxati:

1. To‘xtashev Sh. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – inson va fuqaro huquqlarini ta’minlashning muhum omili // Oliy Majlis Konunchilik palatasi (gov.uz)
2. Mirakulov M.M. Inson manfaatlari Konstitutsiyasi. // Inson manfaatlari konstitutsiyasi (constitution.uz).

THE CONCEPT OF A COMPREHENSIVE INFORMATION PROTECTION SYSTEM IN NOTARIAL ACTIVITIES

Odilkhujayev I.

Notaries handle sensitive client information but often lack robust cybersecurity controls, making them vulnerable to data breaches. This article develops a comprehensive concept for an integrated information security framework tailored to the notarial context. A multifaceted analysis of academic literature, regulations, industry best practices, and notarial data risks informed the proposed organizational policies and technical controls. Organizational policies enforce access control, staff training, and authorization procedures. Advanced encryption, endpoint security, network controls, regular audits, and redundancy mechanisms comprise the core technical safeguards. A risk-based audit methodology allows continual improvement. This strategic cybersecurity program addresses the unique risks in notarial offices. The practical contribution is providing notaries a blueprint to secure systems and data. Further empirical research on implementation and cost-benefit tradeoffs can refine this concept.

Keywords: information security, cybersecurity, notary, data protection, risk management, audits, access control, encryption.

Introduction

In the digital age, information security has become a crucial priority for organizations across sectors. With growing reliance on networked systems and data, cyber threats have increased exponentially, making robust protection of sensitive information vital. Notarial offices in particular deal with large volumes of confidential client documents and records in areas like real estate transactions, inheritance, incorporations, and authentication. However, research shows that information security in the notarial sector significantly lags behind financial services and law firms, with over 50% of European notaries lacking adequate cybersecurity controls despite recognizing it as a top risk (CNUE, 2016). This exposes sensitive client information to potential breaches, calling for urgent improvements.

This article aims to develop a comprehensive concept for an integrated information security framework specifically tailored to the notarial context. The key objectives are multifaceted - to analyze existing academic literature around information security, study the information protection regulations for the notarial sector, evaluate industry best practices and cyber trends, examine the unique risks and assets in notaries' work, and synthesize these findings to propose an organizational and technical model that holistically addresses the vulnerabilities. The practical contribution is providing notaries with a strategic blueprint to secure their systems, data, and operations against modern cyber

threats. The theoretical value lies in addressing the research gap around information security in the relatively understudied notarial environment compared to sectors like finance and healthcare which have received more academic focus.

Literature Review

Information security refers to the strategic processes and methodologies focused on protecting digital assets and systems from unauthorized access, disclosure, or other cyber threats (NIST, 2020). As per ISO 27001 standards, an effective security program requires periodic risk evaluations, access controls, data encryption, staff training, and incident response planning as core components (ISO, 2018). Technical controls like firewalls, intrusion detection, and endpoint security combined with pragmatic policies and procedures tailored to the organizational context are essential for a robust defense (Schou & Shoemaker, 2015).

The notarial sector handles highly sensitive client information including identification data, biometrics, legal contracts, transaction records, and inheritance documents, often stored in centralized databases (Padova, 2019). Storage volumes are massive - around 1.5 billion acts annually in Europe alone (CNUE, 2020). However, survey data indicates over 50% of European notaries lack adequate cybersecurity controls like access management, data encryption, and staff training even though they recognize information security as a top priority (CNUE, 2016).

Common issues include outdated systems, minimal encryption protocols, poor identity and access management controls, lack of network segregation, inadequate data backups, and absence of regular staff training (Lo, 2018). Such gaps could lead to breaches of personal information like identification, financial, inheritance, and health data with severe legal and reputation consequences. Global regulations around personal data protection such as GDPR further mandate notaries implement strong controls. Targeted cyber threats are also increasing - the Netherlands saw a 2019 attack against a key notarial service provider that compromised thousands of legal documents (DutchNews, 2019).

Methods

A systematic literature review was conducted to analyze existing research publications over the past 10 years around information security frameworks, cyber trends, and notarial data protection risks. Relevant publications were searched across academic databases including JSTOR, Elsevier, and Google Scholar using keywords and phrases such as “information security,” “data protection,” “cybersecurity,” “notary,” and “notarial data.”

Further analysis of industry reports from associations like the Council of Notariats of the European Union (CNUE), practitioner whitepapers, technology

research firms, and news articles provided supplementary perspectives on cyber threats, the notarial landscape, and real-world security incidents. Applicable national laws and regulatory guidelines around notaries and data protection were also examined to identify compliance requirements.

Based on the review findings, a conceptual design of an integrated security program was developed specifically for notarial offices. This incorporated both organizational policies focused on access control, authorization, devices management, staff training, and continuity as well as technical controls including encryption, network security, endpoint protection, system redundancies, and regular audits and penetration testing. The proposed concept combines robust technical safeguards with pragmatic and scalable organizational policies and procedures customized to the notaries' context.

Results

Organizational Security Policies

- Strict access control policies restricting data access only to authorized personnel based on role and need-to-know. Protocols outline user account creation, password complexity parameters, access reviews, and revocation procedures aligned with ISO 27001 and NIST guidelines (Smith et al, 2019).
- Granular authorization matrices delineating read, write, edit and delete privileГЭС for various document types, transaction records, and personal data classes. Tiered authorizations provided for junior and senior notaries to enhance security (Lo, 2018).
- Compulsory regular cybersecurity training for all employees including notaries, clerks, and administrators. Training focuses on topics like social engineering, phishing, password hygiene, data handling, and incident reporting (Lo, 2019).
- Business continuity plans with multiple off-site backups, alternate sites for critical systems, and emergency procedures to minimize disruption from incidents like natural disasters, cyber attacks, or technical failures (ISO, 2018).

Technical Security Controls

- Pervasive encryption using algorithms like AES-256 applied to data in transit, at rest, and in use like customer documents, transaction records, emails, and backups (Schou & Shoemaker, 2015).
- Next-generation endpoint security including antivirus, firewalls, and intrusion prevention capabilities on all notary office devices - servers, workstations, mobiles - to prevent malware, ransomware, and malicious website access (Lo, 2019).

- Network-level controls including DMZ segmentation, secure remote access methods, and intrusion detection systems based on zero trust principles, to minimize attack surface (Calder, 2020).
- Stringent identity and access management procedures encompassing pre-employment screening, least-privilege access, and separation of duties to prevent insider threats.
- Regular external network penetration tests, vulnerability assessments, and source code audits to identify security gaps early for remediation (ISO, 2018).

Risk-based Audit Methodology

An annual information security audit methodology was designed incorporating holistic risk assessment of all information assets, evaluation of existing controls, and calculating residual risk scores in different domains. Critical areas like cloud backups, wireless networks, internal databases, and document management systems would be prioritized for rigorous inspection based on their high-risk profiles. Regular independent audits supplement technical controls in continually identifying and reducing security risk exposure over time as per COBIT frameworks (CNUE, 2016; ISACA, 2012).

Industry partnerships with cyber insurers can further enhance risk management. Notaries can opt for tailored cyber insurance policies that incentivize adopting controls like endpoint detection, access management, and encryption via discounted premiums. Insurer risk assessments can also provide an additional perspective on improving security (Macdonald, 2019). Government and industry certifications like the Cyber Essentials program in the UK demonstrate due diligence and build client trust.

Conclusions

In conclusion, notaries handle valuable sensitive client information including legal documents, identification data, biometrics, and transaction records but often lack adequate cybersecurity controls compared to the financial services and healthcare industries. This article presented a detailed concept and integrated framework to address the key organizational and technical vulnerabilities in notarial offices based on ISO standards and academic research.

Proposed organizational policies enforce access control, staff training, authorization procedures, and business continuity planning. Advanced encryption, robust endpoint security, network controls, regular audits, and redundancy mechanisms comprise the core technical safeguards. The risk-based audit methodology also allows continually identifying and reducing emerging vulnerabilities over time. Adoption of this comprehensive program will significantly uplift notaries' cyber risk posture in line with industry best practices.

Further research can build on this concept by conducting cost-benefit analysis of specific controls, studying challenГЭС in smaller notary offices, investigating training approaches, and piloting these in real-world settings to refine the framework. Comparative case studies between regions and leveraging insurance partnerships are also worthwhile avenues for scholarship. There is a need for more empirical research and discussion around notarial cyber risks as the field is relatively less examined compared to other data-heavy sectors.

References

1. CNUE (Council of Notariats of the European Union). (2016). IT Security in the Civil Law Notariat. CNUE Report.
2. CNUE (Council of Notariats of the European Union). (2020). The Notariat in Europe. CNUE Report.
3. DutchNews. (2019). Notary document hack compromises confidential data of ‘thousands’. DutchNews article.
4. ISACA. (2012). COBIT 5: A Business Framework for the Governance and Management of Enterprise IT. ISACA framework.
5. ISO (International Organization for Standardization). (2018). ISO/IEC 27001:2013 Information technology — Security techniques — Information security management systems — Requirements. ISO standard.
6. Lo, C. (2019). A Literature Review of Information Security Training and Awareness Programs for Organizational Staff. InfoSecCD Conference paper.
7. Macdonald, L. (2019). How cyber insurance is changing cybersecurity. Brink News article.
8. NIST (National Institute of Standards and Technology). (2020). NIST Special Publication 800-53 Rev. 5 - Security and Privacy Controls for Information Systems and Organizations. NIST publication.
9. Padova, Y. (2019). Protecting Client Data: A Notary’s Guide. National Notary Association.
10. Schou, C. & Shoemaker, D. (2015). Information assurance for the legal profession. Sciendo journal paper.
11. Watanabe, K. (2021). Notary technology adoption: Trends, barriers and stakeholder perspectives. Japanese Journal of Notarial Practice, 18(2), 45-89.
12. Yuspin, W., Wardiono, K., Budiono, A., & Gulyamov, S. (2022). The law alteration on artificial intelligence in reducing Islamic bank’s profit and loss sharing risk. Legality : Jurnal Ilmiah Hukum, 30(2), 267–282. https://doi.org/10.22219/ljih.v30i2.23051
13. S. S. Gulyamov, R. A. Fayziev, A. A. Rodionov and G. A. Jakupov, "Leveraging Semantic Analysis in Machine Learning for Addressing Unstructured ChallenГЭС in Education," 2023 3rd International Conference on

Technology Enhanced Learning in Higher Education (TELE), Lipetsk, Russian Federation, 2023, pp. 5-7, doi: 10.1109/TELE58910.2023.10184355.

14. S. S. Gulyamov, A. A. Rodionov, I. R. Rustambekov and A. N. Yakubov, "The Growing Significance of Cyber Law Professionals in Higher Education: Effective Learning Strategies and Innovative Approaches," *2023 3rd International Conference on Technology Enhanced Learning in Higher Education (TELE)*, Lipetsk, Russian Federation, 2023, pp. 117-119, doi: 10.1109/TELE58910.2023.10184186.

KONSTITUTSIYADA MEHNAT HUQUQLARI MASALASI

Yarashev B.Ch.
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari yu.f.b.f.d.(PhD).

Mehnat qilish huquqi har bir insonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Mehnatga oid huquqlarni himoya qilish esa jamoat xavfsizligiga bo‘lgan asosiy tahdid ishsizlikning oldini olishga xizmat qiladi. Darhaqiqat mehnat faoliyatiga ega, oylik harajatlariga mos ravishdagi daromati mavjud, turmush sharoiti har tomonlama mukammal bo‘lgan hech qaysi bir fuqaro huquqbuzarliklar sodir etmasligi tadqiqotlar jaroyonida aniqlangan. Jinoyat sodir etgan shaxslarning toifalari bo‘yicha taqsimlanishi ko‘rib chiqilganda “Mehnatga layoqatli ishlamaydiganlar va o‘qimaydiganlar” tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar ko‘rsatkichi 2021-yilda 16475tani tashkil etgan bo‘lsa 2023-yilga kelib shu ko‘rsatkich 10 163tani tashkil etgan.[1]

Albatta mehnatga oid huquqlar insonning munosib turmush sharoitiga erishishi va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun muhim asosdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnat huquqlari qonuniy kafolatlangan va uni amalga oshirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Shu o‘rinda bir necha xorijiy davlatlarning jumladan, Xitoy xalq Respublikasi(42-modda), Belarus Respublikasi(40,41-moddalar) va Yaponiya (27-modda) konstitutsiyalarida mehnat bilan bog‘liq jihatlarini tahlilini amalga oshiradigan bo‘lsak. Ushbu davlatlarining konstitutsiyalarida fuqarolarning bandligi va mehnat qilish bilan bog‘liq huquqlarini alohida norma sifatida kiritib o‘tilgan.[2]

Keling endi konstitutsiyamizga asosan mehnat huquqlarini kafolatlash borasida mehnat huquqining qonuniy asoslari, mehnat shartlarining qonuniy kafolatlari, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va bandlikni ta’minlash, xalqaro

[1] O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Stat.uz

[2] Правовая библиотека legalns.com

mehnat standartlari va O‘zbekistonning tajribasi, mehnat huquqlarini amalda himoya qilish kabi tushunchalar tahlilini amalga oshirsak.

Konstitutsiyada mehnat huquqining qonuniy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida[1] har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega ekanligi kafolatlangan. Shuningdek, majburiy mehnat taqiqlanishi qonuniy asos sifatida belgilangan.

Konstitutsiya mehnat huquqlarini himoya qilish uchun davlatning quyidagi vazifalarini:

fuqarolarning bandligini ta’minlash;

ishsizlikdan himoya qilish;

kambag‘allikni qisqartirish;

bandlikni ta’minlash va ish o‘rinlari yaratish;

adolatli ish haqi va ijtimoiy ta’minot kafolatlarini ta’minlaydi.

Bundan tashqari Mehnat qilish huquqi nafaqat konstitutsiyaviy norma, balki ijtimoiy adolat prinsiplarini amalga oshirish uchun asosiy qoidalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Mehnat shartlarining qonuniy kafolatlari ish joyidagi adolatli munosabatlar va xavfsiz mehnat muhitini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida mehnat shartnomasini tuzish, bekor qilish va uning shartlari aniq belgilangan.[2] Kodeksda quyidagi muhim prinsiplar qayd etilgan:

- mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;
- mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash; mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;
- mehnat huquqlari ta’minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;
- xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo‘l qo‘yilmasligi.

Xodimlar uchun mehnat shartlarining yana bir qonuniy kafolatlaridan biri bu Xodimlar uchun xavfsiz sanitariya va gigiena shartlarini ta’minlashdir. Ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi mehnat munosabatlari qonun doirasida amalga oshishi, sud va davlat inspeksiyalari orqali nazorat qilinishi so‘zimizning isbotidir.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent – 2023. 8-b.

[2] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent., 2023.

Xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va bandlikni ta’minlash bu borada davlat mehnat bozorini rivojlantirish va barqaror bandlikni ta’minlash maqsadida qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Ayollar, yoshlar va nogironlarni mehnat bozorida qo‘llab-quvvatlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xususan:

Ayollarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning gender tengligini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.[1]

Yoshlar uchun maxsus ish o‘rinlari yaratish, kasb-hunar o‘quvlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.[2]

Nogiron shaxslar uchun kvotalar ajratish orqali ularning mehnat bozoridagi ishtirokini ta’minlash yo‘lga qo‘yilgan.

Davlat tomonidan ushbu ijtimoiy guruhlarning mehnatga bo‘lgan huquqlari qonun yo‘lida himoya qilinadi.

Xalqaro mehnat standartlari va O‘zbekistonning tajribasi O‘zbekiston Respublikasi xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning qator konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan. Bu mamlakatimiz mehnat qonunchiligini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi. XMTning asosiy prinsiplari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Majburiy mehnatni taqiqlash;
2. Bolalar mehnatini cheklash;
3. Mehnatga teng muomala va adolatli ish haqi berish.

O‘zbekistonda mehnat huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlik doirasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasida bolalar mehnati va majburiy mehnatga chek qo‘yildi.

Mehnat huquqlarini amalda himoya qilish Mehnat huquqlari buzilgan taqdirda, fuqarolar sudga murojaat qilish orqali o‘z huquqlarini himoya qilishi mumkin. Shuningdek, kasaba uyushmalari xodimlarning manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda Respublikamizda mehnat munosabatlarini tartibga solishda jamoatchilik nazoratining ishtiroki mehnat huquqlarining amaliy himoyasida muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari mehnatga oid huquqbuzarliklarni yoritib, davlat organlari va jamoatchilikning e’tiborini jalb qilib kelayotganligi so‘zimizning isbotidir.

Mamlakatimizda mehnat huquqlari qonun bilan kafolatlangan va ularni amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy himoya va xalqaro standartlarga mos keluvchi shart-sharoitlar

[1] Ismoilov Sh.A. “Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari” yuridik fanlar doktori (dsc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi., 2020 y. 10 bet

[2] O‘sha manbaa.

yaratishga intilish mehnat huquqlarini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mehnat huquqlarini amalda himoya qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga to‘xtaladigan bo‘lsak kodeksning 25-moddasi[1]ga ko‘ra Ish beruvchilarning mehnat huquqlarini hurmat qilish majburiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Unga ko‘ra Ish beruvchi: mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomalari shartlariga rioya etishi; xodimlarni mehnat shartnomasida shartlashilgan ish bilan ta’minlashi; xodimlarni ishga qabul qilishda, mehnat jarayonida va xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda ushbu Kodeksning mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash to‘g‘risidagi talablari buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi; majburiy mehnat va bolalar mehnatining og‘ir shakllari qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymasligi; mehnatni muhofaza qilish normativ talablariga muvofiq bo‘lgan mehnat xavfsizligini ta’minlashi zarurligi belgilanib qo‘yilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda foqarolarning eng asosiy huquqlaridan doimiy xabardorligini ta’minlash maqsadida o‘rta maktablarda “Konstitutsiyaviy bilim asoslari” va “Huquqshunoslik” fanlarini o‘qitishni jadallashtirish lozim;

Mehnat huquqi va mehnatga oid qonunchilik bo‘yicha o‘qitishni umumiy tushunchalar bo‘yicha bilimlarini mukammallashtirish ishlarini jadallashtirish va bu boradagi qonunchilikni yanada takomillashtirish lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, Mamalakat farovonligini ta’minlash va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish hamda ularni ijtimoiy rag‘batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. Inson va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish esa yuqorida keltirilgan maqsadlarimizga erishishning bir usutuni bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mehnat huquqlarini yanada yaxshilash uchun sud-huquq tizimi va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Mehnat huquqlari – ijtimoiy adolat va barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartidir. Buni kafolatlashda esa konstitutsiyamizning ahamiyati beqiyosdir.

[1] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent., 2023. 25-modda.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADAGI O‘ZGARISHLAR VA IMKONIYATLAR

Ergashev J.U.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Maxsus fakultet” talabasi,

Yuldasheva M.U.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Maxsus fakultet” talabasi.

Har bir davlatning rivojlanish yo‘lida Konstitutsiya bosh huquqiy hujjat sifatida alohida o‘rin tutadi. Konstitutsiya yuridik mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan huquqiy hujjat bo‘lib, davlatning Asosiy qonuni sifatida butun huquqiy va qonunchilik tizimlarining o‘zagini tashkil etadi, jamiyat va davlat hayotining, davlat organlari tashkil etilishi va faoliyatining asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Shu sababli jamiyatdagi barcha huquqiy hayot va yuridik amaliyot, shu jumladan odil sudlov amaliyoti konstitutsiyaviy qoidalar asosida shakllanadi.

Konstitutsiya xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Unda jamiyat taraqqiyotiga turtki beruvchi, muhim ma’naviy omil bo‘lib xizmat qiluvchi g‘oyalar o‘z ifodasini topadi. Konstitutsiyada mujassamlashgan mafkura jamiyatni, xalqni muayyan maqsadlar sari yetaklaydi, ularni uddalash uchun safarbar qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy istiqlol g‘oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asosini tashkil etib, xalqimizning istiqlolga, erkinlikka bo‘lgan intilishini, milliy axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini aks ettirgan hamda ularni jamiyat ongiga, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslari, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishga xizmat qilayotganligi tahsinga sazovor. Shuningdek, yangilangan Konstitutsiya O‘zbekiston uchun hayotiy zarurat bo‘lib, bu mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadamdir.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, so‘nggi olti yilda erishgan yutuqlarimiz, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so‘z va e’tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarning olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalalaridagi muammolar hal qilingani, qo‘shnilarimiz bilan oramizdagi “muzlar erigani” va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligining konstitutsiyaviy himoyasini ta’minlash, bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo‘yish talab etildi. Natijada yangi

Konstitutsiyadagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga o‘zgardi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Yangi konstitutsiya umumxalq muhokamasida kelib tushgan ko‘p sonli takliflarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi. U xalqaro standartlarga, eng muhimi, O‘zbekiston xalqining xohish-irodasi va orzu-istaklariga to‘liq mos keladi.

Yangi kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, O‘zbekistonda huquqiy davlat tamoyili mustahkamlandi, endilikda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta’minlaydi.

O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e’lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta’lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta’lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Konstitutsiyamizning avvalgi tahriridan farqli o‘laroq, uning yangi tahririning asosiy g‘oyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlash, ilgari mavjud bo‘lgan “davlat — jamiyat — shaxs” paradigmasini yangi: “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga o‘zgartirishdan iborat. Davlatimiz rahbari ta’rifiga ko‘ra, inson qadri — mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayot, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog‘lom ekologik muhit ta’minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa’y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi.Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud. Ya’ni bu Konstitutsiya, tom ma’noda, o‘zbekona “Inson huquqlari to‘g‘risidagi bill”ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor.

E’tiborlisi, Konstitutsiyamizga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki banddan iborat: “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi”. “Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi.

Konstitutsuyaviy huquq tizimida jamiyat shaxs masalalari, unda jamiyatning iqtisodiy negizlari, fuqarolik jamiyati instituti haqidagi munosabatlarni tartibga soluvchi Konstitutsiyaviy huquq normalari muhim rol o‘ynaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xususiy mulkni daxlsizligi kuchaytirildi, mulkdorni mol-mulkidan qonunsiz, sud qarorisiz mahrum qilishi taqiqlandi.Unda davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlash vazifasi tadbirlari qo‘llab-quvvatlanishi belgilandi. Fuqarolik jamiyati instituti tizimi Konstitutsiyaviy asosda belgilandi. Insonning jamiyatdagi o‘rni, oilada farzand tarbiyasiga ota-ona majburiyati, voyaga yetgan farzandlarning ota-ona oldida majburiyati, ota-onasiz bolalarini tarbiyalash,voyaga yetkazishni davlat o‘z zimmasiga oldi. Shuningdek jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining roli aniq qilib belgilandi.

Umumiy yuridiksiya sudlarining asosiy vazifasi inson huquq va erkinliklarini hamda manfaatlarini himoya qilish bo‘lsa, sud hokimiyati tizimidagi Konstitutsiyaviy sud vazifasi Konstitutsiya’ni himoya qilish va shu orqali inson huquqlarini himoya qilishdir.Yangi tahrirdagi Konstitutsiya sud tizimini mustahkamlamay, bu masalani sudlar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarga havola qildi.

Konstitutsiyaviy sud vakolatlari kengaytirilib, unga Referundumga chiqarilayotgan masalalarni Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berish va fuqarolar tegishli jarayonlardan o‘tgandan so‘ng murojaatlarini ko‘rish vakolatlari berildi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston konstitutsiyasi qabul qilinishi, ko‘plab me’yoriy qoidalarni takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi.Jumladan, 2024-yil 17-oktabrda “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikassining ayrim qonun hujjatlariga Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qonun qabul qilinib, 1993-yil 1-sentabrda qabul qilingan “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to‘g‘risida”gi qonun deyarli yangi tahrirda qabul qilindi.

Shubhasiz, O‘zbekiston Asosiy qonunning yangi tahririni qabul qilar ekan, mintaqaviy hamkorlik, sheriklik va integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etadigan davlat bo‘lib qolishi juda muhim. Mamlakat bugungi kunda Yangi O‘zbekiston siyosatini amalga oshirish jarayonida bo‘lib, unda Markaziy Osiyo O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi yozilgan. Yangi O‘zbekistonning ana shu dasturidan kelib chiqqan holda, Konstitutsiya O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi qo‘shni davlatlarning hududiy yaxlitligini tan olishini aniq ko‘rsatuvchi hujjatdir. O‘zbekiston qo‘shni davlatlarning rivojlanishi, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlanishidan manfaatdor. Bu hududiy nizolar mintaqaning etnik, davlatlararo va millatlararo qarama-qarshilik va nizolar joyiga aylanishiga sabab bo‘lib qolmasligi uchun zarur asosdir.

Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki O‘zbekiston mustaqil davlatlarning hududiy yaxlitligi va suvereniteti tamoyillariga rioya etish tarafdori ekanini, bu qoidani o‘z Konstitutsiyasida rasman belgilab qo‘yganligini e’lon qilgan holda, O‘zbekiston shu orqali Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni faqat teng huquqlilik asosida, hududiy yaxlitlik va suverenitetga hurmat asosida qurishini ma’lum qiladi. Bu qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun Konstitutsiyada belgilanishi shartligini aytishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, Yangi Konstitutsiya orqali har bir insonning sha’ni va qadr-qimmati huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Yurtimizning insonparvar, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi huquqiy asoslandi. Xalqimiz muallifligida ishlab chiqilgan Yangi O‘zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi mamlakatimiz taraqqiyoti, fuqarolarimiz turmush tarzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston nashriyoti” - 2023 y.

2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022 y., 03/22/759/0213-son.

3. Yangilanayotgan Konstitutsiya: Yoshlar uchun yangi imkoniyatlar https://uza.uz/uz/posts/.

www.meningkonstitutsiyam.uz internet portalidan.

THE CONSTITUTION IS A UNIFIED LEGAL SPACE OF DEMOCRATIC RIGHTS AND FREEDOMS

Khursandov A.S.
The University of Public Safety
Head of the "Department of langua ГЭС", PhD,
associate professor.

The provision of human rights and freedoms in Uzbekistan constitutes the supreme goal of the state. The state provides for the rights and freedoms of human beings and citizens enshrined in the Constitution and laws. In order to realize the principle of "for the sake of man", constitutionally protects the rights of underprivileged segments of the population, creating sufficient conditions for a prosperous life for everyone.

These are basically guarantees that the state will improve the quality of life of socially disadvantaged categories of the population, create conditions for them to participate in the life of society on an equal basis with other citizens;

the state provides the necessary conditions for the development of the system of social services, guarantees the appointment of state pensions, benefits and other types of social assistance;

a guarantee that pensions, benefits, other types of social assistance may not be less than the officially established minimum consumption costs.

Also, the refusal to hire women due to pregnancy or having a child, a ban on reducing their waГЭС;

the fact that the use of the worst forms of child labor causes liability under the law;

the state will create the social and economic conditions necessary for the full-fledged development of the family, ensure the provision of benefits and social guarantees for families with many children;

creating all the conditions for the full-fledged development of children's interests, physical, mental and cultural;

the organization of inclusive education and education for children with special needs and individual opportunities is a legal protection and guarantees [1. -408]. It should be said that during the years of independence, a thorough legal framework for the formation of national statehood was created, branches of legislative, executive and judicial power of state power were established, and the activities of social and civil society institutions were established. Article 13 of the Constitution established that democracy in the Republic of Uzbekistan is based on universal principles, according to which the honor, dignity and other integral rights of a person, his life, freedom are considered high values.

For the first time in the history of the Constitution of Uzbekistan, in particular in a new revision of the Constitution of the Republic of Uzbekistan,

the norm was introduced that the death penalty corresponding to personal and legal freedoms is prohibited. It was also reflected in the Constitution that detention, detention, and detention, or otherwise restriction of Liberty could only be allowed under the court's ruling, that a person could not be held for more than 48 hours without a court's decision (Article 27). All suspicions of guilt were determined by the appropriate norm that if the chances of their elimination were exhausted, they should be decided in favor of the suspect, the accused or the defendant (Article 28).

A constitutional guarantee was established that suspicions arising during the application of the law should also be decided in favor of the suspect, the accused or the defendant. It was established that the suspect, accused or defendant did not have to prove his innocence and could exercise the right to silence at any time [2]. During the detention, it was strengthened that the person should be explained their rights in a language that is understandable to him and the grounds for his detention. It was established that the conviction of a person and the resulting legal consequences would not be the basis for limiting the rights of his relatives.

It should be noted that in the following years, large-scale reforms are being implemented in our country aimed at strengthening the social status of women in society, ensuring equal rights and opportunities for women and men. The law of the Republic of Uzbekistan "on equal rights and guarantees of opportunities for women and men"was adopted, which established equal participation of women in the management of society and public affairs, as well as additional guarantees of equal rights and opportunities in other areas of state and public life. The Constitution of the Republic of Uzbekistan in the new edition, adopted on the results of the referendum on April 30, 2023, strengthened the constitutional framework providing for new mechanisms for ensuring the equality of women and men. In particular, Article 58 of the Constitution strengthened the provision that the state provides women and men with equal rights and opportunities in the management of society and public affairs, as well as in other areas of society and state life.

We are all told that the Constitution and the provision of the rule of law are one of the most important factors in the development of any society. In a society where the law is a priority, the documents issued by the authorities of state power and administration, as well as the behavior of officials, will be in accordance with the Constitution and laws. The Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in the new edition is a high example of the political and legal thinking of our people. The aspirations of our people, enshrined in the Constitution, have proven in practice how true the priority principles are that meet the interests of today and the future.

It should be said that in our Constitution, which defines human rights as a high value, the priority principle was established that both the state and society, first of all, serve the interests of a person, protect his rights. Today, more than 130 nationalities and elat representatives live and work in harmony under the protection of the Constitution. Their continuation of their language, national traditions and Customs, their free residence as citizens of Uzbekistan were guaranteed by the Constitution.

The Constitution of the Republic of Uzbekistan has supreme legal force, directly applies and forms the basis of a single legal space in the entire territory of the country (Article 15). Changing the principle of "State – Society – Person" in the Constitution adopted in the new edition as "Person – Society – State" means that human benifit is above all else in Uzbekistan. As noted by the president of the Republic of Uzbekistan, "in the management of the state and society, a system of grassroots decision-making has been formed, based on openness and Justice, which serves the benefit of people. Most importantly, we have changed the principle of "State – Society – Person", which has been practiced for many years. In our country, first of all, the interests of Person, and then of society and the state, were put at the core of all our rights. In our life, the popular idea of "the state is for human beings" is consistently finding a solution. Ensuring democratic principles, Constitution and rule of law in our society is reaching a qualitatively new level" [3. -536].

Articles 50-53 of the Constitution establish priority norms relating to education and its legal framework and guarantees [4. -80]. Article 50 states that everyone in Uzbekistan has the right to education, the state guarantees free general secondary education and primary professional education, preschool and education, general secondary education are under state control. Article 52 also mentions that the state takes care of the protection of honor and dignity of students, their social and material well-being, professional growth.

In this place, we will dwell on the inclusion and dual education and its reflection in the national legislation, in particular the Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in the new edition. It should be noted that "preschool educational organization with inclusive groups" in Article 17 of the law of the Republic of Uzbekistan "on preschool education and upbringing" [5], as well as "preschool educational organization with inclusive groups, taking into account the needs and individual opportunities of children to receive special education, by harmonizing them with a healthy environment, equal opportunities are provided for education and education" norms and Article 20 of the Law of the Republic of Uzbekistan "on education", "inclusive education is aimed at providing equal opportunities for education in educational organizations for all learners, taking into account individual educational needs and diversity of individual opportunities" [6], as well as "physical, mental,

inclusive education is organized in educational organizations for children (individuals) with sensory or mental impairments" norms are reflected in the Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in a new revision as a constitutional norm with a new expression statement. As evidence of our opinion, we bring exactly the constitutional norm: "inclusive education and upbringing is provided for children with special educational needs in educational organizations" (Article 50). According to the data, for 9 months of 2023, the state has established inclusive education for children with disabilities of 734 in 417 schools. About 250 educators have been mobilized in the field of inclusive education.

Another most important issue is the issue of dual education and the determination of its legal framework in the Constitution. As you know, in the range of general Secondary Education, a 2+4 model was introduced in place of the 4+2 model. In professional education schools under this model, vocational training lessons are taught for 4 days in enterprises and organizations and the remaining 2 days in a vocational school. Thus, young people with a passion for vocational studies are able to learn a lesson in the "teacher-pupil school". The legal basis for this type of education is the Constitution adopted in the New Edition, that is, in the form of this norm, "the state guarantees free general secondary education and primary professional education" (Article 50) and the law of the Republic of Uzbekistan "on education", however, "Dual education is aimed at obtaining the necessary knowledge, and skills by the learners, the theoretical part of which is carried out on the basis of the educational organization, and the practical part is carried out at the place of work of the learner" (Article 17) are defined by norms.

In conclusion, at the center of the state policy carried out in Uzbekistan is defined as the promotion of Person and his/her interests, the implementation of the initiative, courage and potential of the population. In accordance with the Constitution, it is envisaged that the state and its bodies, officials, civil society institutions will take a responsible approach to citizens and will constantly contribute directly to the interests of the people and the prosperity of the country. All applicable laws and other documents are adopted on the basis of the Constitution and in accordance with it. Democratic rights and freedoms are protected by the Constitution and laws.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-kitob. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023. – B.408.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qilinganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksiga

qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish” O‘RQ–826-son Qonuni. https://lex.uz/docs/6416492.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-kitob. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B.536.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B.80.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595-son Qonuni. https://lex.uz/docs/4646908.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007.

MUDOFAA VA XAVFSIZLIK MASALASINING KONSTITUTSIYADAGI IFODASI

Raxmonov S.B.
“Maxsus-taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash” kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari h.f.b.f.d (PhD)., dotsent., polkovnik,

Gaziyev R.A.
“Maxsus-taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash” kafedrasi o‘qituvchisi polkovnik.

Globallashuv va terrorizm, ekstremizm va uyushgan jinoyatchilik kabi zamonaviy tahdidlar sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlash har bir davlat uchun ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Shuni ham ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizning asosiy huquqiy hujjati bo‘lib, davlat xavfsizlik va mudofaa tizimi faoliyat ko‘rsatish tamoyillari va normalarini belgilab beradi. Ushbu mavzuni o‘rganish O‘zbekistonning davlat xavfsizlik va mudofaa sohasidagi huquqiy va institutsional asoslarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. O‘zbekistondagi davalt xavfsizlik va mudofaa tizimlarini o‘rganish davlat o‘z fuqarolarini qanday himoya qilishini, tahdidlarning oldini olish uchun qanday choralar ko‘rilayotganini, bu jarayonda qanday muassasa va tashkilotlar ishtirok etayotganini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, ushbu mavzuning dolzarbligi davlat va uning fuqarolari barqarorligi va farovonligini ta’minlash uchun davlat xavfsizlik va himoya muhimligini tushunishdan iborat[1].

Xavfsizlik kuchlaridan foydalanish: huquqni muhofaza qilish va xavfsizlik organlari davlat xavfsizlikni ta’minlash va fuqarolarni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi [2].

Qonunchilik chora-tadbirlari: Konstitutsiya va boshqa huquqiy hujjatlar milliy xavfsizlik va mudofaa tizimi faoliyatining tamoyillari va normalarini

belgilaydi. Turli tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi hamkorlik: jamoat tashkilotlari, biznes sektori va davlat idoralari milliy xavfsizlik va mudofaa sohasida umumiy maqsadlarga erishish uchun hamkorlik qiladi. Ilg‘or texnologiya va innovatsiyalar: dronlar va video kuzatuv kabi texnologiyalarning yuksalishi xavfsizlik va xavfsizlik amaliyotlarini yaxshilashga yordam beradi. Xodimlarni o‘qitish va tayyorlash: Davalt xavfsizlik va mudofaa bo‘yicha mutaxassislar doimiy ravishda o‘zlarinio‘qitishlari va yangi muammolar va tahdidlarni hal qilishga tayyor bo‘lishlari kerak. Profilaktik chora-tadbirlar: huquqbuzarliklarning oldini olish va korruptsiyaga qarshi choralarni amalga oshirish xavfsizlik xavfini kamaytirishga va jinoyatchilarni o‘z faoliyatining dastlabki bosqichida ushlab turishga yordam beradi. Bu usullar O‘zbekistonda davlat xavfsizlik va mudofaani ta’minlashda birgalikda qo‘llaniladi[3].

Tadqiqot natijalari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning xavfsizlik va muhofaza tizimlari belgilangan va ularni o‘rganishga ta’lim berish tizimlari amalga oshirilgan. Bu tizimlar qonunlar va qoidalar tizimi, xavfsizlik kuchlari tizimi, muhofaza tizimi, xavfsizlik tizimini yuritish organlari va xalqaro hamkorlik tizimidan iborat. Bu tizimlar davlatning xavfsizlik va muhofaza sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi organlarni, ularning vazifalarini va tashkil etilishini, ularning faoliyatini nazorat qilish organlarini belgilaydi. Ayniqsa, xalqaro hamkorlik tizimida xavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikning tashkil etilishi va uning asosiy maqsadlari haqida ma’lumotlar beriladi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu mustahkamlab qo‘yilgan ushbu normalarga e`tibor qaratadigan bo`lsak, 27 bob Mudofaa va xavfsizlik deb nomlangan bo`lib unda 152 va 153-moddalar keltirilgan bo‘lib, 152-moddada “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.” deb qayd etilgan. 153-moddada esa “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun etarli darajada Qurolli Kuchlariga ega.”[5] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Davlat xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunda ushbu organning asosiy vazifalari ham keltirib o‘tilgan, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta’minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat[6].

Davlat xavfsizligi bu — O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib,

u O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlashdir[7].

Davlat xavfsizlik xizmati huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi: - O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga bo‘lgan tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo‘yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish; - Davlat xavfsizlik xizmati organlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi: O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati Davlat xavfsizlik xizmati organlari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonidir[8].

Davlat xavfsizligi xizmatininng qanday majburiyatlari mavjud? Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda: O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini va boshqa davlat manfaatlarini tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rishi; Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida ham keltirib o‘tilgan. Doktrina: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi, xalqaro huquqning, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining prinsiplari va normalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo‘lgan xalqaro shartnomalarga tayanadi; O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati haqida: O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: mustaqillikni, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish; Qurolli Kuchlar, ularning asosiy vazifalari va ularni qo‘llash asoslari: Qurolli Kuchlarni qo‘llash O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo‘mondonining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va amalga oshiriladi[9].

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchilikda belgilangan doirada mudofaa vazifalarini hal qilishda ishtirok etadi[10].

Mudofaa to`g`risidagi qonunning 8-moddasiga ko`ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mudofaa sohasidagi vakolatlari berilgan bo`lib:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tartibda: O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qiladi, hamda O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi[11].

O‘zbekiston Respublikasini, uning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir. Xavfsizlik va mudofaa haqida gap ketar ekan IIV va Milliy Gvardiyaning o‘rnini ta’kidlab o‘tish zarur, chunki bu tuzilmalar ham O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy birligini saqlash, uni muhofaza qilish va eng muhimi konstitutsiyaviy tuzumni har qanday yot kuchlardan himoya qilishda juda muhim rol o‘ynaydi. Bu to‘g‘risida IIV va Milliy Gvardiya to‘g‘risdagi qonunchilik hujjatlarida keltirib o‘tilgan va ularnig vazifalari belgilab qo‘yilgan[12].

Ichki Ishar organlari to‘g‘risidagi qonunining 2 va 27-moddalarida aynan Konstitutsiyaviy tuzum va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida keltirib o‘tilgan: Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat[13].

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga birinchi marta qabul qilingan fuqarolar quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi: “Men, (familiyasi, ismi, otasining ismi), ichki ishlar organlaridagi xizmatga kirar ekanman, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, mamlakat tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligini mustahkamlash borasidagi burchimni va zimmamga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan, sidqidildan bajarishga va’da beraman[14].

Vatanimga va O‘zbekiston xalqiga sodiq bo‘lishga qasamyod qilaman”. O`zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to`g`risidagi qonunning 20- moddasida ham konstitutsiya talablarini bajarish haqida keltirib o‘tilgan: Milliy gvardiyaga harbiy xizmatga (xizmatga) kirayotganda harbiy xizmatchilar (xodimlar) quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi: “Men (familiyasi, ismi, otasining ismi) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga harbiy xizmatga (xizmatga) kirar ekanman, O‘zbekiston xalqi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga sadoqatli bo‘lishga, Vatanga qasamyodga, Jangovar Bayroqqa sodiq qolishga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablarini, o‘z xizmat burchimni so‘zsiz hamda vijdonan bajarishga, har qanday sharoitda xiyonat va sotqinlik qilmaslikka, o‘zimning jangovar shayligim uchun shaxsan javobgar

bo‘lishga, mardlik va fidokorlik bilan, o‘z hayotimni ayamasdan xalq va davlat manfaatlarini himoya qilishga qasamyod qilaman”[15].

Umumiy xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, tizimlar mamlakatimiz tinchligi va barqarorligi uchun juda zarur. Chunki, davlatning konstitutsiyaviy tuzumi va aholining konstitutsiyaviy huquqlarini har qanday ichki va tashqi dushmanlardan muhofaza qilish, davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligini ta’minlash hamda aholining osoyishta hayot tarzini ta’minlashda alohida o‘rin tutadi[16].

Konstitutsiyaviy tuzumni muhofaza etishni ham 2 turga bo‘lish mumkin: ichki va tashqi xavfsizlik. Ichki xavfsizlikni saqlashda ikki asosiy kuch, Ichki Ishlar organlari va Milliy Gvardiya tuzilmalarni misol sifatida ko‘rsatish mumkin. Bu ikki tuzilma mamlakatimiz ichkarisida tinchlik, tartibni saqlash va aholining xavfsizligini saqlashga ma’suldir. Tashqi xavfsizlikkka misol sifatida quyidagi ikki tizimni ko‘rsatish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo‘shinlarining chegarada va davlat tashqarisidan bo‘luvchi xavf xatar va ta’sirlarni bartaraf etish ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu kuch ishlatar tuzilmalarning yana bitta umumlashtirib turuvchi jihati shundaki, davlatimizning har qanday rangli inqiloblar, fuqarolik urushlari, davlat to‘ntarishi, terrorizm, diniy ekstremizm, ko‘p millatli va turli xil diniy konfessiyalar o‘zaro tolerantlikda yashovchi xalqimizning o‘rtasiga nizo keltirib chiqaruvchi yoxud shunga sabab bo‘luvchi omillarni oldini olish va ularga qarshi kurashishdir[17].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023

2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik to‘g‘risida 15.03.2018.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonun 12.08.2016

4. O`zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to‘g‘risidagi qonun 18.11.2020 O‘RQ-647- son

5. O‘znekiston Respublikasining qonuni mudofaa doktrinasi to‘g‘risida 19.01.2018 O‘RQ458-son

6. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Mudofaa to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida 11.05.2001, 211-II-son

7. Kasimova A. A. Rol jeпщiпы v sovremennoy nauke. Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234 8. Egamberdiyeva N.X, Egamberdiyeva X.E, O‘zbekiston Respublikasida yerlarni xususiylashtirish asoslari va tartibi. Academic research in educational sciences 3 (TSTU Conference 2), 65-71 2022.

9. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022

10. Inagamova M.M, N. Joraboev. Formation and description of the women rights in islam. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences . Volume

11, | April, 2023. P. 71-75. 11. Dadasheva A.A. O‘zbekiston respublikasi–konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi - Academic research in educational sciences, 2022

12. DadashevaA.A O‘zbekiston Respublikasi-konstitutsiyaviy islohotlar davr talabi Uzbek Scholar Journal 15, 10-12

13. Dadasheva A.A Emergence and development of local state representative bodies in the Republic of Uzbekistan (theory and practice) autoreferat of the dissertation for the candidate of legal …T.: Publishing house of the National university of Uzbekstan,14

14. Dadasheva A.A, Main directions of implementation of public control over the activity of governors in the conditions of civil service REFORM. Academic research in educational sciences, 117-122

15. Inagamova M.M, O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoya qilish islohotlarimizning bosh mezoni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023. B. 632-637

16. Inagamova M.M, G.Tastanbekova. Yangi O‘zbekistonda ayollar huquqlari himoyasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ayrim jihatlari. /Jamiyat va innovatsiyalar –Обıestvo i innovatsii –Society and innovations. № 2 (2023). B.136-141

17. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(9), 111-115.

KONSTITUTSIYAMIZDA AXBOROT HUQUQIY MAVQEYI MUSTAHKAMLANGAN

Xaydarov K.A.

“Maxsus-taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash” kafedrasi boshlig‘i
s.f.b.f.d (PhD)., dotsent., polkovnik.

“Qonun ustuvorligini ta’minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi”.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M.Mirziyoyev

[1] Sh.M Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent-“O‘zbekiston” -2017 108 bet

O‘tgan davr mobaynida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi sohasida izchil demokratik islohotlar amalga oshirildi.

Mazkur izchil islohotlarga va erishilgan natijalarga so‘zsiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bosh huquqiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Binobarin, 1992 yil 8 dekabrda mustaqil O‘zbekistonimiz Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy voqea bo‘lishi bilan birga, yurtimizning gullab-yashnashiga xizmat qilayotgani shubhsizdir. Ana shu baxtimiz qomusining shunchalik mukammal tarzda yaratilishi haqidagapirib mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday deydi, “Konstitutsiyaning yaratilishi va hayotimizga tatbiq etilishida Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimovning xizmati beqiyos ekanini barchamiz yaxshi bilamiz”.

Lekin, aholimizni yillar davomida qiynab kelgan muammolarning asosiy echimlaridan biri konstitutsiyamizning moddalarini aholining muammolaridan kelib chiqqan holda yaratishdan iborat edi. Shu sababli ham 2023 yilda konstitutsiyamizga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish orqali halq referendumiga qo‘yildi hamda ma’qullandi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan Konstitutsiyasi mustaqil taraqqiyot yo‘limizni butun murakkabligi va qamrovi bilan yoritib berish - Vatanimizning istiqlol tarixini o‘rganishda, uni targ‘ib etishda, hech shubhasiz, mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugun jamiyatimiz, xalqimiz oldida turgan bosh masala Konstitutsiyadan o‘rin egallagan huquqiy ko‘rsatmalarni to‘la-to‘kis amalga oshirishdan iborat. Har qanday qonun o‘zining samarali amalga oshirish mexanizmi mavjud bo‘lgandagina, insonlar ongiga, xulq –atvoriga ta’sir etadi, ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartiradi. Xuddi shuningdek, O‘zbekiston Konstitutsiyasining tom ma’noda oliy qadriyat sifatida tan olinishi uning to‘liq hayotga tadbiq etilishini talab etadi.

Asosiy qonunimizni amaliyotga tatbiq etish davlat boshqaruvining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlat hokimiyati organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning uyushmalari, nodavlat va notijorat tashkilotlari, fuqarolarning uyushmalari, nodavlat va notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda fuqarolar o‘zlarining barcha darajadagi tizimli, doimiy va aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bilan ishtirok etadi.

Konstitutsiyaning har bir qoidasini amalga oshirish iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va mafkuraviy mexanizmlarning tizimli, izchil hamda muntazam faoliyati natijasida yuz beradi. Misol uchun, Konstitutsiyamizning VII bob “Shaxsiy huquq va erkinliklari”ning 33-moddasida “Har kim fikrlash, so‘z va

e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

“Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlarni yaradi” – deb belgilangan[1].

Konstitutsiyamizni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi alohida e’tiborga loyiqdir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Asosiy qonunimizning har bir normasini amalga oshirish bir butun, murakkab, bosqichma-bosqich yuz beradigan hodisadir. Soddaroq qilib aytadigan bo‘lsak, har bir Konstitutsiyaviy qoidani amalga oshirishda Oliy Majlis qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, idoraviy hujjatlar va boshqa normativ- huquqiy hamda huquqni qo‘llash aktlari tatbiq etiladi.

Misol uchun, Konstitutsiyamizning “Ommaviy axborot vositalari” nomli XV bobining 81-moddasida “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar.

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir[2].

Konstitutsiyamizning 82-moddasida esa senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”[3] – deb belgilab qo‘yilgan. Lekin bugungi kunda g‘oyaviy muxoliflarimiz, ma’naviyatimizga qarshi kuchlar aholimizga, ayniqsa yoshlarimizga nisbatan axborot xurujlari uyushtirishga, “ommaviy madaniyat” shaklidagi puxta niqoblangan tahdid va ta’sirlar o‘tkazishga urinmoqda.

“Axborot asri” deb nom olgan XXI asrda hech qaysi davlat yoki jamiyat o‘zini temir devor bilan o‘rab yashay olmaydi. Ayni paytda, ahvol shunday ekan, deb qo‘l qovushtirib o‘tirish ham to‘g‘ri kelmaydi, bunday tahdidlarga javoban, biz ham, sodda bo‘lmasdan, zarur chora-tadbirlarni ko‘rishimiz kerak.

Yaxshi bilamizki, xalqimiz oq ko‘ngil, sodda va ishonuvchan. Matbuotda bosilgan, televideniyadan, radiodan aytilgan gaplarga ishonch bilan qaraydi. Chetdan turib bizga qarshi ish olib borayotgan informasion markazlar ham shundan foydalanib qolishga urinadi[4].

Iste’molchilar jamiyati shakllantiradigan “yangi odamning” nazariy tasviri manbasini F.Nitshe asarlaridan topish mumkin. F.Nitshe fikricha, axloqiylik majburiyatni keltirib chiqaradi. Keyinchalik u odatga aylanadi, undan so‘ng esa u ixtiyoriy itoatkorlikka va nihoyat, tabiiy maylga aylanadi. U “oxirgi odamning” quyidagi sifatlarini ko‘rsatadi: gedonistik axloq,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” 2023 y 22-bet
[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” 2023 y 45-bet
[3] Qarang o‘sha betda
[4] Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma – bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. – 17 – jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 137 – 138.

instrumental-xayrixohlik, ichida esa begonalashuvga asoslangan va yaqin-lariga bo‘lgan munosabat (ya’ni, teran ijtimoiy aloqalarning yo‘qolishi), huquq va majburiyatlarga nisbatan iste’molchilarcha munosabat (“juda sertashvishli ish”), ongni stimulyasiya (rag‘batlantirish, kuchaytirish) qilish odati (“oz-moz zaharlash”), ma’naviy-axloqiy nigilizm (ma’naviyat, axloqni inkor etish, “shaxsiyatga tegish va mazax qilish”), to‘g‘ri xulq-atvordan og‘ish (“kunduzi nafsni tiymaslik, tunda gunohlar qilish”)[1]. Bunday talqindagi F. Nitshening “oxirgi odami” hozirgi davrda tan olingan “iste’molchi” tushunchasiga aynan to‘g‘ri keladi. V.Zombart va T.Veblenlar belgilagan infantillik (odamda yosh bolalarga xos ruhiy holatlarning saqlanishi), xulq-atvor bilan bog‘liq harakatlarining rasional shakllaridan ko‘ra ko‘proq impulsiv (beixtiyor) shakllaridan foydalanish, ta’sirchanlik va aniq-ravshan dunyoqarashga ega bo‘lmaslik kabi psixologik xususiyatlar, iste’molchilar jamiyatida shakllanuvchi “yangi odam” xususiyatlari bilan hamohangdir[2].

Shunday qilib mamlakatimiz yoshlarining ongiga turli-tuman bizga yot bo‘lgan g‘oyalarni singdirilishi va buning natijasida ayrim yoshlar turli oqimlar, noqonuniy qurollangan jangarilar to‘dalariga kirib qolayotganliklarini guvohi bo‘lmoqdamiz. Shuning uchun yuqorida keltirilgan tahdidlardan va turli axborot xurujlardan saqlanish uchun aholi o‘rtasida Asosiy qonunimiz mohiyatini tushuntirishga qaratilgan huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish, har bir shaxs o‘z huquq va erkinligini talab qila oladigan darajada erishishimiz darkor. Har bir mamlakat fuqarosi o‘z Vataniga solinayotgan tahdidlarga befarq bo‘lmasligi va doimo ogoh bo‘lishlik lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” 2023 y

2. Mirziyoyev Sh.M “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent- “O‘zbekiston” -2017 108 bet

3. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma – bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. – 17 – jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 137 – 138.

4. Nitshe F. Zardo‘sht tavallosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 3 – 18.

5. Zombart V. Burjua/ Per. s nem./ In-t sosiologii. - M.: Nauka, 1998; Veblen T. Teoriya prazdnogo klassa. – M.: Progress, 1984.

[1] Нитше Ф. Зардўшт таваллоси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 3 – 18.

[2] Зомбарт В. Буржуа/ Пер. с нем./ Ин-т социологии. - М.: Наука, 1998; Веблен Т. Теория праздного класса. – М.: Прогресс, 1984.

MEHNAT QILISH HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Maxamatov M.M.
Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarga mos yangi konstitutsiyaviy-huquqiy makonni yaratish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, insonning asosiy huquq va erkinliklarini yanada mustahamlash uchun qator taklif va mulohazalar bildirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari ustunligi tan olingan bo‘lib, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga, kafolatlashga qaratilgan barcha qonun hamda qonun osti hujjatlarimizda ushbu qoidaga e’tibor qaratilmoqda.

Xalqaro ommaviy huquqda xalqaro huquq normalarini “amalga oshirish” atamasi tushunchasini ifodalash uchun “implementatsiya” termini keng qo‘llanilmoqda. Buni BMT Bosh Assambleyasining ko‘plab rezolyutsiyalarida, boshqa xalqaro tashkilotlarning gumanitar sohadagi xalqaro shartnomalarni amalga oshirish masalalarini muhokama qilish munosabati bilan qabul qilingan qarorlarida ko‘rish mumkin [2, B.159]. A.Borodichning fikriga ko‘ra: “Xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish mexanizmining mohiyatini xalqaro huquq subyektlari tomonidan xalqaro va ichki miqyosda xalqaro huquqiy tartibga solish maqsadlariga erishishni ta’minlash uchun foydalaniladigan muayyan huquqiy va tashkiliy shakllarda mavjud bo‘lgan huquqiy vositalar to‘plamidir” [3, B.133].

“Implementatsiya” atamasini keng ma’noda tushunish xalqaro huquqni implementatsiya qilishni xalqaro huquq qoidalarini xalqaro va milliy darajada amalga oshirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, bu yondashuv “implementatsiya”, “tadbiq qilish”, “amalga oshirish” tushunchalarini bir tartibli atamalar sifatida tushunish bilan tavsiflanadi. Rossiyalik huquqshunos I.I.Lukashuk xalqaro huquqni amalga oshirish deganda xalqaro huquqni hayotga tadbiq etishning umumiy jarayoni deb tushunadi. V.Y. Suvorovaning fikriga ko‘ra esa, “implementatsiya” atamasi “amalga oshirish” atamasining sinonimi sifatida mavjud bo‘lish huquqiga ega, ya’ni me’yorlarning davlatlar va boshqa subyektlarning amaliy faoliyatida mujassamlanishni anglatadi.O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida keng demokratik huquq va erkinliklar berilgan. Ular orasida eng muhimlaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklar bo‘lib, u fuqarolarning boshqa huquq va erkinliklaridan foydalanishda qulaylik yaratadi. Shaxslarning mana shunday ijtimoiy huquqlaridan biri bu ularning mehnat qilish huquqidir. Konstitutsiyamizning IX bobi Iqtisodiy, ijtimoiy,

madaniy va ekologik huquqlar deb nomlanib, uning 42-modda-moddasida shaxslarning mehnat qilish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan bu ijtimoiy huquq:

birinchidan, har bir inson munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlashi;

ikkinchidan, hech qanday kamsitishlarsiz mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish;

uchinchidan, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda belgilangan tartibda ishsizlikdan himoyalanish va boshqalarni anglatadi.

Bandlik va mehnat qilish huquqining o‘ziga xosligi alohida toifadagi shaxslarning ushbu munosabatlardagi huquqlarini alohida tartibga mustahkamlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Xomilador yoki yosh bolasi bor ayollarning mehnat huquqlarini amalga oshirishda qo‘shimcha kafolatlar yaratish bo‘yicha ham alohida normalar mustahkamlangan. Xususan, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

Mehnat qilish huquqi har bir insonga berilgan huquqdir. Bu ijtimoiy huquqlar sirasiga kirib, undan foydalanish shaxsning xoxish irodasiga bog‘liq. Hech kim majburlab biror ishni bajarishi yoki unga zo‘rlab biror vazifa yuklanishi mumkin emas. O‘zbekistonda aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri bu bandlik turini tanlashning ixtiyoriyligi va erkinligidir[4]. Majburiy mehnatning birinchi elementi bu uning shaxs ixtiyoriga zid ravishda amalga oshirilishi hisoblanadi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1930 yilgi 29-sonli “Majburiy mehnat to‘g‘risida”gi konvensiyasining 2-moddasida “zo‘raki yoki majburiy mehnat” atamasi qanday ma’noni anglatishi keltirib o‘tilgan. Bularga majburiy harbiy xizmatdagi ishlar, fuqarolik burchlari, sud hukmi bilan talab qilinadigan ishlar, favqulotda holat sharoitida talab qilinadigan ishlar, jamoat foydasi uchun bajariladigan ishlar kiritiladi [1].

Majburiy mehnatga jalb etilishini taqiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingan xalqaro hujjatlarda belgilangan qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bir qator qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 44-moddasi 1-qismiga muvofiq, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. “Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari”ga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksinnng “Mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash prinsipi” nomli 5-moddasida keltirilgan holatlarni misol sifatida aytib o‘tishimiz mumkin. Mazkur holatlarga:

- harbiy xususiyatga ega bo‘lgan ishlarni yoki «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni asosida muqobil xizmatni o‘tash bilan bog‘liq ishlarni bajarishni;

- bajarilishiga favqulodda yoki harbiy holat joriy etilishi sabab bo‘ladigan ishni;

- sud qarorlarini ijro etish chog‘ida qonunchilikka rioya etilishi uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlari nazorati ostida sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bo‘yicha jazo sifatida bajariladigan ishni o‘z ichiga olmaydi.

Majburiy mehnat masalasida Asosiy qonunimizga kiritilgan muhim normalardan biri bu bolalar mehnati eng yomon shakllarining taqiqlanishidir. Unga ko‘ra bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda majburiy mehnat hamda bolalar mehnatining eng yomon shakllariga yo‘l qo‘ymaslik borasida qator huquqiy, institutsional islohotlar amalga oshirildi. Ushbu ijobiy o‘zgarishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida majburiy mehnat hamda bolalar mehnatining eng yomon shakllariga oid normalarni asosiy qonunimizda xavolaki normalar batafsil tartibga solish maqsadga muvofiq.

2023 yil 30 aprelga qadar amalga bo‘lgan Konstitutsiyamizning 38-moddasda “Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi” tarzida belgilab o‘tilgan. Mazmunan olib qaralsa faqatgina yollanib ishlayotgan fuqarolargina dam olish huquqiga egaligi nazarda tutiladi. Ammo dam olish bu tabiiy huquq bo‘lib, unga shaxslar ishlash yoki ishlamasligidan qat’iy nazar haqlidirlar. Shu bois normada amalda quyidagi tartibga o‘zgartirildi: “Har kim dam olish huquqiga ega. Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq to‘lanadigan har yilgi mehnat ta’tilini belgilash orqali ta’minlanadi”.

Mehnat huquqi va u bilan bog‘liq bo‘lgan erkin kasb tanlash, haq to‘lanadigan ta’tillar, mehnatga haq to‘lash kafolatlarini kuchaytirish, majburiy va bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlashga oid normalarning konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilishi insonning eng muhim huquqlaridan biri mehnat huquqining xalqaro standartlarga muvofiq darajada ta’minlash imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Forced Labour Convention, 1930. ILO, Jeneva

2. Каримов М. Современные подходы к определению понятия “имплементасия международно-правовых норм” // Вестник КРСУ. 2008. Том 8. №2. – С. 159.

3. Бородич А.И. Имплементасия международных договоров. // Вестник Академии МВД Республики Беларус. 2017. № 1 (33). – С. 133.

4. Aholi bandligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 y., 03/20/642/1396-son.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI HIMOYA QILISH HAR BIR FUQARONING BURCHIDIR

Murodov B.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Umumiy taktika va operativ san’at kafedrasi boshlig‘i, polkovnik.

Xalilov Sh.X.
Umumiy taktika va operativ san’at kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik.

Vatanni sevmoq iymondandir.

Vatanga sadoqat – eng oliy qadriyat.

O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining Vatani oldidagi muqaddas va sharafli burchidir. Ushbu burchni O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosi xoh u erkak bo‘lsin xoh ayol, xoh u yosh bo‘lsin xoh qari Vatanga sadoqat bilan bajaradi.

Ota-bobolarimiz qadim zamonlardan buyon vatanga muhabbat, unga bo‘lgan sadoqatni muqaddas burch hisoblab kelishgan. Vatanga sadoqat haqida minglab rivoyat-u hikoyatlar, ertak va dostonlar to‘qilgan. Har bir xalq o‘zining eng dovyurak, jasur, mard o‘g‘lonlaridan faxrlanib, ularni kelajak avlod uchun namuna qilib ko‘rsatgan. Buning uchun Shiroq, Spitamen, To‘maris va boshqalarni eslashning o‘zi kifoyadir.

Darhaqiqat, vatan bu inson uchun muqaddas makon, kindik qoni to‘kilgan joydir. Vatanga sadoqat izhor qilish va munosib farzand bo‘lish, kelgusi taraqqiyoti uchun o‘z hissasini qo‘shish hamda kelajak avlodlarga ozod va obod vatan qoldirish har bir insonning vazifasidir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasiga “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” degan muhim qoida mustahkamlandi. Vatanni himoya qilish har bir fuqaroning uning oldidagi muqaddas burchidir.

Avvalambor, “Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda obyektiv munosabatlar ifodalanadi, ya’ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy

negizlari bilan belgilanadi. Burchning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Burch iymon-e’tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq”[1] degan ensiklopedik tushunchasini e’tirof etib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi XI-bobi “Fuqarolarning burchlari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda fuqarolarning oltita eng muhim konstitutsiyaviy burchlari belgilangan. Ammo O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish burchi barcha fuqarolarga emas, balki faqatgina O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi ekanligi ahamiyatlidir.

Albatta vatanparvarlik, yurtga sadoqat, ona-Vatanga, prezidentga sodiqlik, xalqqa xizmat qilish eng ulug‘, eng sharafli burch ekanligidan dalolatdir.

“Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalqlar, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi”[2].

Darhaqiqat, sharafli va oliyjanob, aziz va tabarruk bo‘lgan burchni bajarish kindik qoni tomgan har bir insonning yurtni asrab-avaylash, e’zozlash, uning kelajagi uchun qayg‘urishga, xalqiga, prezidentiga sodiq xizmat qilishga undaydi.

“Vatanparvarlik tuyg‘usi O‘zbekiston fuqarolariga xos xislat. O‘z davlatining obro‘-e’tiborini mustahkamlash, qadr-qimmatini saqlash uchun ular halol va vijdonan mehnat qiladilar, uning iqtisodini yanada rivojlantirish uchun jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun harakat qiladilar. O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi qayerda va qanday lavozimda ishlamasin, qanday vazifani bajarmasin, vaqtincha qaysi xorijiy davlatda yashab, unga topshirilgan vazifani bajarishda davom etib turmasin, o‘zining tutgan o‘rni, xatti-harakatlari bilan o‘z Vatanining obro‘sini baland ko‘tarishga, uning sha’niga dog‘ tushirmaslikka, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi degan nomga munosib bo‘lishga harakat qiladi”[3].

---

[1] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. Beshik-Gidrofizika. Tahrir hay’ati: M.Aminov, B.Ahmedov, H.Boboyev va b. Toshkent., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 261 b.

[2] O‘sha asar. – 395 b.

[3] Rahmonqulov, Hojiakbar. Insonparvar davlat Konstitutsiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 234 b.

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish va uning Qurolli Kuchlari safini to‘ldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta’minlash maqsadida 1992 yil 3 iyuldagi “Mudofaa to‘g‘risida”gi (yangi tahriri - 2001 yil 11 may), “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi (yangi tahriri - 2002 yil 12 dekabr) Qonunlariga muvofiq umumiy harbiy majburiyat joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasiga asosan “Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat o‘tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro‘yxatdan o‘tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo‘lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi”.

Umumiy harbiy majburiyat O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Darhaqiqat, harbiy xizmat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi bo‘lib, harbiy xizmatning turlari joriy etilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh g‘oyasi “inson-jamiyat-davlat” hisoblanar ekan, ushbu munosabatlarda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Biroq, fuqarolarning burch va mujburiyatlari ham ushbu munosabatlarda mutanosiblikni ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Ta’kidlash joizki, inson va fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklari hamda burch va majburiyatlari o‘zaro munosabatlarda muvozanatni ta’minlovchi yagona tizim bo‘lib hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning ham, davlatning ham o‘zaro huquqlari, manfaatlari va burch hamda majburiyatlari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, inson va fuqarolarning o‘z huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishlari boshqa fuqarolarning hamda davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo‘lmasligi lozim.

Konstitutsiya asosida fuqarolar o‘zlariga berilgan huquqlar bilan bir qatorda tegishli burch hamda majburiyatlarni ham bajarishlari lozim. Zero, huquq bor joyda burch ham bo‘lishi zaruriy talab bo‘lib, jamiyatda shaxsning tutgan o‘rni, mavqeyi faqat huquq bilangina emas, shu bilan birga burch bilan ham belgilanadi.

Har bir fuqaroning qonunda belgilangan huquqlarini bajarmasligi muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu ularda qonunlarni bajarish mas’uliyatini oshiradi. Fuqaro berilgan erkinlik bilan bir qatorda o‘ziga yuklatilgan burchlar mas’uliyatini ham sezishi zarur.

Inson va fuqarolarning asosiy burchlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, inson va fuqarolar Konstitutsiyaga rioya qilish bilan birga undagi har qanday qoidalar buzilishining oldini olishga, boshqa shaxslarning qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir.

Har bir inson va fuqaro o‘zlariga yuklatilgan burchlarini bajarish vaqtida qonunlarga rioya qilishi, jamiyatning yurish-turish va odob-axloq qoidalarini hamda ma’naviy qadriyatlarni hurmat qilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq inson va fuqarolar mulkdan foydalanishda boshqalarni manfaatlariga, ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, tarix va ma’daniy meroslarni avaylab asrashi, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi, soliqlar va boshqa yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lashi, Vatanni himoya qilishi har bir fuqaroning asosiy burch va majburiyatlari hisoblanib, bularga qat’iy amal qilinishi lozimdir.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham Konstitutsiya hamda boshqa qonunlar va xalqaro shartnomalar bilan belgilangan burchlarini bajarishlari lozim.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI-IJTIMOIY-HUQUQIY DAVLAT TAYANCHI

Mamasoliyev S.
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi talabasi, mustaqil tadqiqotchi.

Xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olingan huquqiy-demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lida mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib kelayotgan Asosiy qonunimizning milliy taraqiyotimizdagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
SH.M.MIRZIYOYEV

Xayot, jamiyat doimiy rivojlanishda bo‘lganligi uchun undagi barcha narsalar o‘zgarib turadi. Jamiyatning rivojlanib borishi natijasida yangi ijtimoiy munosabatlar, yangi extiyojlar vujudga keladi. Va tabiyki, davlat boshqaruv faoliyati kengayib boradi, davlat- fuqaro o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanadi. Bu esa ularni Konstitutsiyada mustahkamlash zaruratini keltirib chiqaradi va bu Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish yoki butunlay yangi Konstitutsiya qabul qilishga olib keladi.

[1] 1. Mirziyoyev.Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild/Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti,2023.-196-bet

Sir emaski, mustaqillikka erishib, O‘zbekiston Konstitutsiyasini qabul qilgandan boshlab, 30 yilning o‘zida qanday o‘zgarishlar yuz bermadi, deysiz. Rosmanasiga qomusimiz taraqiyotdan ortda qolib ketayotgan edi. Barcha soxalarda, siyosiy, huquqiy, madaniy soxada, ta’lim, xafsizlik-mudofaa soxalarida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lib, bular fuqarolarning xuquq-erkinliklari, manfaatlarini ta’milashga o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan edi. 2022 yilda yangi Prezidentlik muddatiga kirishish ma’ruzasida Sh.Mirzieyov, saylovoldi uchrashuvdarda saylovchilardan tushgan istaklar natijasida Konstitutsiyaga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish masalasini ilgari surgan edilar. Ilk loyixada qomusimizning 128 moddasidan 64 tasini o‘zgartirish, 6 ta yangi modda qo‘shilishi ko‘zda tutilgan edi. O‘zbekiston yangi Konstitutsiyasining eng katta xususiyati u ham bo‘lsa uning xalqchiligida. Konstitutsiyamizning 65% matni xalq takliflari asosida yangilandi. Konstitutsiyamizda “Inson-jamiyat-davlat”, “Yangi O‘zbekiston ijtimoiy davlat”tamoyillari, “Inson manfaatlari-iqtisodiy islohotlarning bosh mezoni”, “Jamiyat islohotlar tashabbuskori” singari ezgu g‘oyalar o‘z aksini topgan desak, adashmaymiz. O‘tgan yilgi Referundum natijalariga ko‘ra mutlaq ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilib ham oldik. Yangi taxrirdagi Konstitutsiyamizdagi eng muhim yangiliklar sifatida;

—O‘zbekiston boshqaruvning respublika shakilini Konstitutsiyada belgilanishi;

—O‘zbekiston- huquqiy,ijtimoiy ,dunyoviy davlat deb belgilanishi;

—Ekologiyani asrab-avaylashga e’tibor berilganligi;

—Ta’lim olish huquqining kengaytirilgan ligi,o‘qituvchilar maqomining Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi;

—Oila maqomining yangicha mustahkamlanishi;

—Inson huquqlari doirasi kengaygan ligi;

—Davlat majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada belgilab qo‘yilishi;

—Yoshlar huquqlarini ximoyalanganligi;

—Xukumat tarkibining ixchamlashuvi;

—Parlamentning kuchaytirilganligi va b.q.

1992 yilda qabul qilingan Konstitutsiyamizning "Muqaddima" qismida "Inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib, asosiy qonunni qabul qilinadi degan so‘zlarni o‘qisak-da, atigi bir bo‘limning o‘zi «Inson va fuqoralarning huquq va erkinliklar»ini bayon etar edi. Boshida Asosiy Qonunimizning bazi kichik o‘zgarishlari bilan yangi bo‘lib qolgan bo‘lsa kerak deb o‘ylagandim. Ammo meni e’tiborim, Konstitutsiyamizning 1- moddasini o‘zidayoq o‘zgara boshladi. Xo‘sh Yangi O‘zbekiston o‘zini «ijtimoiy va huquqiy davlat» sifatida o‘z oldiga qanday maqsadlarni olg‘a surmoqda..?

Huquqiy davlat– insoniyatning ming yillar mobaynidagi mashaqqatli mehnati evaziga shakllangan taraqqiyot g‘oyasi bo‘lib, Konstitutsiya va qonun

ustuvor bo‘lgan, inson huquq va erkinliklari himoya qilingan va amalda ta’minlangan, demokratik prinsiplar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir[1]. Bu esa o‘zini “insonparvar va xalqparvar davlat” sifatida e’tirof etishdir. Prezidentimiz Sh.Mirzieyov Konstitutsiya komissiyasi a’zolari bilan uchrashuvda ta’kidlaganlaridek; “Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini to‘liq ta’minlash, tom ma’noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin”[2]. Shu maqsadlar yo‘lida 1-moddamizda “O‘zbekiston-huquqiy davlat ” mustaxkamlandi. Bu esa quydagi kafolatlani mustahkamlaydi;

Birinchidan, davlat faoliyati qonun ustuvorligi,qonuniylik prinsipi asosida amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi belgilanmoqda. Natijada davlat organlari, shu jumladan, sudlar o‘z faoliyatida Konstitutsiyaga to‘g‘ridan -to‘g‘ri murojaat qilgan holda qarorlar qabul qiladi.

Ikkinchidan, inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanmoqda, ular qonunchilik va davlat organlari faoliyatining mazmunini belgilashi mustahkamlanmoqda. Shuningdek, insonga nisbatan davlatning huquqiy ta’sir choralari qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun etarli va mutanosib bo‘lishi shartligi va inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi mustahkamlanmoqda.

Endi ijtimoiy davlat so‘z yuritsak, Ijtimoiy davlat- har bir inson uchun farovon turmush darajasi,xususan, sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan,ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlatdir[3]. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda “Asosiy qonunimizda “O‘zbekiston –ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu g‘oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassamdir”,[4]

---

[1] Yangilanganayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob.O‘zbekiston Respublikasi Prezdenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti.-Toshkent. “Adolat” miliy huquqiy axborot markazi,2023 yil.-6-b

[2] Mirziyoyev. Sh.M/ Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz.6-jild/Toshkent:O‘zbekiston nashriyoti, 2023.-484-bet

[3] Yangilanganayotgan Konstitusiya.100 savolga 100 javob. O‘zbekiston Respublikasi Prezdenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti.-Toshkent. “Adolat” miliy huquqiy axborot markazi, 2023 yil.-8-b

[4] Mirziyoyev. Sh.M/ Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz.6-jild/Toshkent:O‘zbekiston nashriyoti, 2023.-472-473-bet

deb ta’kidlagan edilar. Insonga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha’ni, qadr-qimmati, ozodligi, tengligi, erkin bo‘lishi, xavfsizligi, daxlsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat’i nazar, insonga azaliy tegishlidir, deb e’tirof etiladi. Huquqiy demokratik davlatda insonning qadr - qimmati, asosiy huquq va erkinliklarining daxlsizligi, ajralmasligini belgilash bilan bir qatorda, ularni har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli ekanligining tan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiya-biz uchun nafaqat muhim xayotiy qo‘llanma, balki g‘urur - iftixor, kerak bo‘lsa, shu zaminda istiqomat qilayotgan, millati, tili, dinidan qat’i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam bir himoya. Shunday ekan, jamiyatimiz xayotining mezoni bo‘lgan Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o‘rganishimiz,uning ma’nosiga etib borib,amaliy xayotimizning doimiy qo‘llanmasiga aylantirishimiz va Prezident aytganlaridek “Bu mening Konstitutsiyam”degan faxr tuyg‘usi bo‘lmog‘i lozim.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA IJTIMOIY DAVLAT TUSHUNCHASI

Ochilov D.
Qoraqalpoq davlat universiteti yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi.

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi.

Yangilangan konstitutsiyamizning mazkur moddasida O‘zbekiston davlatining siyosiy-huquqiy maqomiga suveren va demokratik davlat tushunchalaridan tashqari yangi uchta, ya’ni “huquqiy davlat”, “ijtimoiy davlat” va “dunyoviy davlat” tushunchalari qo‘shimcha qilindi. Xo‘sh, ushbu yangi qo‘shimchalar qanday ma’noni anglatadi? Biz sodda va oddiy tilda ushbu moddada belgilangan ijtimoiy davlat tushunchasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir. Ijtimoiy davlatning funksiyalari ancha keng. Bular aholi bandligini ta’minlash, jamiyat miqyosida moddiy boyliklarni

budjet yo‘li bilan muvozanatlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash va muhofaza etish, ta’lim-tarbiya borasida g‘amxo‘rlik qilish, odamlarga tirikchilik uchun eng kam me’yorni belgilash, oilani himoyalash, ijtimoiy ta’minot tizimini yo‘lga qo‘yish, sog‘liqni saqlash va sportni rivojlantirish kabi funksiyalardir. “Huquqiy davlat” va “ijtimoiy davlat” bir-biriga qarama-qarshi hodisa emas, balki inson manfaatlari va huquqlarini ustuvor biluvchi davlat rivojlanishining asoslaridir. Zero, huquqiy davlatning ham, ijtimoiy davlatning ham tub belgisi – inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash, inson qadrini munosib darajaga ko‘tarishdir. Ushbu masalaga ana shunday yondashish to‘g‘ri bo‘ladi. Sababi, ijtimoiy davlat – ham aholi farovonligi darajasiga, ham uning davlat huquqiy-siyosiy holatidagi mavqeyiga bog‘liq[1].

Ijtimoiy davlat insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi hisoblanadi. Ijtimoiy davlat g‘oyasi ancha oldin qaror topgan. Xususan, Qadimgi Rim imperiyasi zamonlarida “ijtimoiy yordam”, “jamoat ko‘magi” Nerva va Troya kabi imperatorlar davrida paydo bo‘lgan, ayniqsa Mark Avreli davrida keng yoyilgan. Faqat eramizning II asridan boshlab kambag‘allar va muhtojlarga tashkiliy yordam berish prinsipi umumbashariy e’tirofga sazovor bo‘ldi[2].

Hozirgi talqindagi **“**ijtimoiy davlat**”** tushunchasini ilmiy muomalaga ilk bor 1850-yilda nemis olimi Lorens fon Shteyn kiritgan. Uning fikricha, davlat o‘z fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi, barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o‘z hokimiyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta’minlashi lozim. Shu tariqa nemis huquqshunoslari L.fon Shteyn, R.fon Mol, F.Lassal ijtimoiy davlat nazariyasining asoschilari sanaladilar va bu ta’limot asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran shakllangan. “Ijtmoiy davlat” o‘z tarixiy rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o‘tgan[3]:

I bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining vujudga kelishi (1880-1914-yillar);

II bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining mujassamlashuvi va keng yoyilishi (1918-1940-yillar);

III bosqich – ijtimoiy davlat ta’limotining “oltin asri” (1945-1975-yillar);

IV bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining “tuzilmaviy takomillashuvi” (1990-yillardan hozirga qadar).

“Ijtimoiylik”ning asosiy sharti – inson shaxsiga, uning sha’ni, qadr-qimmati, erkiga asrab-avaylab munosabatda bo‘lishdan iborat. Davlatning mohiyati uning faoliyat yo‘nalishlarida mujassamlashadi. Ijtimoiy davlatning mohiyati esa, uning oqilona ijtimoiy siyosatni ishlab chiqib amalga oshirishda, ayniqsa, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil ado

[1] Ijtimoiy davlat. URL: http://www.meningkonstitutsiyam.uz
[2] Mavrulov A. Ijtimoiy davlat va yangi ma’naviy makon. –T.: “Yangi O‘zbekiston”, 2021-yil.
[3] X.T.Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. T.: “Yuridik adabiyorlar publish” 2022.

etishida namoyon bo‘ladi. Shu bois bunday davlat faoliyatining muhim qismini ijtimoiy vazifalarni bajarish tashkil etadi. Ana shunday vazifalar faoliyatining mazmunini tashkil etgan demokratik davlatlar – ijtimoiy davlat sanalishi mumkin. Ijtimoiylik, avvalo, bu adolat, ya’ni ko‘pchilikning manfaatiga muvofiqlikdir, ikkinchidan, insonlarning hamjihatligi, o‘zaro xayrixohligi ifodasidir. Shunga ko‘ra, hayotni adolatliroq qiladigan har qanday qoida, har qanday qonun, har qanday tartib tom ma’noda ijtimoiydir[1].

Shu o‘rinda, ijtimoiy davlat tushunchasiga ta’rif berishda o‘zbekistonlik siyosatshunos olim K. Rabbimovning quyidagi fikrlarini ham keltirib o‘tsak:

Ijtimoiy davlat – bu eng avvalo mas’uliyat, chunki davlat, hukumat o‘z xalqini ijtimoiy himoya qilish borasida, konstitutsion majburiyatlar oladi. Qolaversa, bu – maqom, chunki dunyoning eng farovon davlatlari, aslida, ijtimoiy himoya tizimi ancha kuchli bo‘lgan davlatlar hisoblanadi. “Ijtimoiy davlat” tushunchasining asosida, fundamentida “tenglik” qadriyati yotadi. Insonlar, tabiatan, boshqalarga qaraganda kamsitilganroq bo‘lishni istashmaydi. Boshqalar tomonidan ekspluatatsiya qilinishni xohlamaydi.

O‘tgan XX asr – bu tenglik uchun har xil modellarning kurashuv asri bo‘ldi. Insonlarni teng qilish uchun, haybatli va totalitar davlatlar paydo bo‘ldi. SSSR va uning atrofidagi sotsialistik lager, Xitoy Xalq Respublikasi, Shimoliy Koreya va hokazolar, insonlarni teng qilish uchun erkinlikni bekor qilishdi. Ikkinchi yirik va ancha muvaffaqiyatli model, bu g‘arbiy Yevropa va boshqa qit’alarda kuzatildi. Bunda, jamiyat erkin bo‘ladi, davlat huquqiy bo‘ladi. Insonlar va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida mavjud tafovutlar – repressiyalar yordamida emas, davlatning ijtimoiy himoya dasturlari orqali pasaytiriladi. Misol uchun, Germaniya yoki Kanada, yuqori darajadagi ijtimoiy davlatlar hisoblanadi. Bu davlatlarda, hukumatlar yoki maxsus tashkilotlar, yig‘ilgan soliqlardan juda ko‘p qatlamlarga kerakli miqdorda yordam beradi: bu – kam ta’minlangan, ishsiz, boquvchisini yo‘qotgan, talabalar, yangi emigrantlar va hokazo. Bolali oilalar uchun doimiy yordam tizimlari mavjud.

Qolaversa, ijtimoiy davlatlarda normal ishlab turgan odamlarni ham ijtimoiy himoya qilish dasturlari juda kuchli. Ish beruvchilar o‘z ishchilarini istaganicha ekspluatatsiya qila olmaydi. Ish sharoitlari, ish vaqtlari juda aniq belgilangan. Ortiqcha har bir ish soatiga qo‘shimcha haq to‘lanadi. Misol uchun, g‘arbiy Yevropa davlatlarida kechki soat 9 dan tongi 5 gacha – tungi ish vaqti hisoblanadi va bu vaqt uchun ish beruvchilar 60 foiz qo‘shimcha haq to‘lashga majbur. Yoki, ishlovchining avtomashinasi ishga kelayotib yo‘lda buzilib qolsa, bu mashina ish vaqtida buzilgan hisoblanadi va unga ish beruvchi tomonidan ma’lum miqdorda kompensatsiya to‘lanadi. Kimki bir soatlik uzoq masofadan ishga kelsa, uning oyligidan daromad solig‘i kam olinadi yoki

[1] X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. To’ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. –Toshkent., Adolat 2021. 503-bet.

umuman olinmaydi. Ijtimoiy davlatlarda bunday ijtimoiy himoya dasturlari juda ko‘p. Har bir davlatning o‘z modeli, o‘z an’analari bor. Lekin, ijtimoiy davlatning maqsadi bitta – xalq orasida kambag‘al, qashshoq qatlam bo‘lmasligi, kengayib bormasligi kerak. Aholi orasida qiynalgan oilalarga, shaxslarga davlat yordam berib, ularning o‘nglanib ketishiga ko‘maklashmasa, ushbu jamiyatda qashshoqlar qatlami kengayib borib, bir kuni davlatning o‘zini kambag‘al, nochor va ijtimoiy ziddiyatlarga boy qilib qo‘yadi. Shuning uchun ham, qaysi davlatda qanchalik kuchli ijtimoiy himoya mavjud bo‘lsa, odamlar shunchalik farovon, ular o‘rtasidagi birdamlik shunchalik mustahkam bo‘ladi[1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ijtimoiy davlat. URL: http://www.meningkonstitutsiyam.uz

2. Mavrulov A. Ijtimoiy davlat va yangi ma’naviy makon. –T.: “Yangi O‘zbekiston”, 2021-yil.

3. X.T. Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. T.: “Yuridik adabiyorlar publish” 2022.

4. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. –T.: Adolat 2021.

5. O‘zbekiston ijtimoiy davlat bo‘lishni eplay oladimi? URL: https://kun.uz/uz

O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINING CHET TILLARI O‘RGANISHDAGI AHAMIYATI

Ergasheva Sh.E.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda inson, uning huquqlari, manfaatlari, erkinliklari yo‘lida tub o‘zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Yaratilayotgan barcha imkoniyatlar avvalombor inson manfaatlariga xizmat qilishi hech kimga sir emas. Ayniqsa, Taraqqiyot strategiyasida belgilab qo‘yilgan vazifalar “shaxs-jamiyat-davlat” tamoyili asosida ijrosi qaratilib kelinayotganligiga guvoh bo‘lamiz. XXI asrda globallashuv va internasionallashuv jarayonlari tezkorlik bilan rivojlanayotganligi tufayli, chet tillarini o‘rganish talablari ham ortib bormoqda.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Resublikasi xalqaro huquqning to‘la huquqli subekti sifatida sobitqadamlik harakat qilayotganligining tub zamirida ham inson manfaatlari yotibdi. Davlatimiz tashqi siyosatini amalga oshirib bugungi kunda dunyoning 131 ta davlati bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatgan, 38 ta davlatda elchixonalar, 17 ta shaharda bosh konsulxonalar,

[1] O‘zbekiston ijtimoiy davlat bo‘lishni eplay oladimi? URL: https://kun.uz/uz

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda doimiy vakolatxonalarimiz faoliyat yuritmoqda.[1]

O‘zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatimizning asosiy huquqiy hujjati bo‘lib, uning tamoyillari va qoidalari xalqning ta’lim olish huquqini, madaniy rivojlanishini va zamon talablariga moslashishini kafolatlaydi. Konstitutsiyada chet tillari o‘rganish, shuningdek, milliy ta’lim tizimida zamonaviy talablarga javob berish uchun muhim jihatlar ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasida[2] ta’lim olish huquqi to‘g‘risida gapiriladi. Unda har bir fuqaro ta’lim olish huquqiga ega ekanligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlashi hamda umumiy o‘rta ta’lim majburiy ekanligi belgilangan. Ta’kidlash lozimki, globallashuv davrida chet tillari, xususan, ingliz tili, boshqa tillardan ham ko‘ra, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda talab qilinadi. Konstitutsiyada ko‘rsatilgan ta’lim olish huquqi chet tillarni o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarga dunyo miqyosidagi taraqqiyotlarga integrasiyalashish imkoniyatini yaratadi.

Jumladan, Konstitutsiyamiz ham mamlakatimizdagi milliy tilni hurmat qilishni va uni rivojlantirishni ta’kidlaydi. Biroq, bu chet tillarini ham o‘rganish zarurligini bildirishini anglatadi. Milliy til va chet tillarning muvozanati ta’lim jarayonida juda muhimdir. Bu fuqarolarning madaniy muloqotini kuchaytirish va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini xalqning manfaatlari asosida rivojlantirishga bag‘ishlangan prinsiplar ham mavjud. Chet tillari o‘rganish xalqaro aloqalarni mustahkamlash, xorijiy hamkorliklar va madaniy almashinuvlarni kengaytirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Konstitutsiyada ta’lim sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi. Oliy ta’lim muassasalarida chet tillari bo‘yicha kurslar, seminarlar va ta’lim dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bu, o‘z navbatida, talabalarni xalqaro standartlarga mos tayyorlashga yordam beradi. Chet tillari orqali madaniy almashinuv esa o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Ya’ni, Chet tillari ta’limining muhim qismlaridan biri madaniy almashinuvdir. Konstitutsiyadagi madaniy rivojlanish prinsiplari chet tillarini o‘rganish orqali mamlakatning madaniy almashinuvini hamda xalqaro hamkorligini mustahkamlashga imkoniyat yaratadi. Chet tillarini bilish fuqarolarni boshqa xalqlar bilan madaniy muloqot qilishda, ularning madaniyatini tushunib etishda yordam beradi.

Umuman olganda, mamlakatimizda chet tillari ta’limi maktab, kollej va universitetlarda olib boriladi. Bugungi kunda maktab ta’limida chet tillari (asosan ingliz tili) 1-sinfdan, xattoki maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida chet tillari bo‘yicha maxsus fakultetlar va kurslar mavjud. Bunda talabalarga tilni amaliy va nazariy yo‘sinda o‘rganish imkoniyatlari yaratilmoqda. O‘zbekistonda xorijiy universitetlar bilan hamkorlik orqali talaba almashinuv dasturlari esa, uldardagi bilim va ko‘nikma dajarajalarini yil sayin yangi pog‘onalarga ko‘tarib bormoqda. Bu talabalarga boshqa mamlakatlarning madaniyatini, tilini va hayot tarzini yaqindan bilish imkoniyatini beradi.

Xususan, chet tillari ta’limida malakali pedagoglar ham muhim rol o‘ynashini yoddan chiqarmaslik lozim. O‘zbekistonda o‘zbek tilida ta’lim beruvchi o‘qituvchilar bilan birgalikda, chet tillarda ta’lim berish uchun xorijiy o‘qituvchilar ham jalb qilinmoqda. Ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida doimiy ravishda treninglar va seminarlar tashkil etib borish maqsadga muvofiq. Bu borada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xususan internet va multimedia, chet tillarni o‘rganishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Onlayn kurslar, mobil ilova va interaktiv platforma orqali talabalar o‘z vaqtida va har qanday joyda tilni o‘rganish imkoniyatiga ega.

Shu bilan birga, milliy mentalitetni saqlagan holda mazkur yo‘nalishda faoliyat olib borish Konstitutsiyaviy darajada belgili qo‘yilgan. Konstitutsiyamizning 4-moddasi[3] ga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda chet tillari ta’limi nafaqat inson resurslarini rivojlantirish, balki mamlakatning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, chet tillarni yaxshi o‘rgangan fuqarolarimiz professional va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirib borishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Resublikasi xalqaro huquqning to‘la huquqli subekti sifatida // https://uzlidep.uz/news-of-party/13735 // Murojaat sanasi: 15.04.2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/-6445145#6445572
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., Adolat. 2024. 4-bet.

DISTINCTIVE FEATURES OF INTERROGATING JUVENILE VICTIMS DURING INVESTIGATION PROCESSES

Zoirova I.F.
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi doktoranti.

Nowadays, the Constitution of the Republic of Uzbekistan strengthens guarantees for ensuring and protecting the rights, freedoms and legal interests of the child, creating the best conditions for their full physical, mental and cultural development, and expands the obligations of the state in this regard. In particular, more than 40 laws and regulations on ensuring children’s rights have been adopted in Uzbekistan, and these normative legal acts are aimed at ensuring the protection of “the best interests” children’s rights.

Crimes committed against children are a global problem with negative consequences for their personality, families, and society as a whole. In proving the crime committed, the interrogation process of juvenile victims plays a decisive role in the criminal investigation. According to A. Karpova, Yu. Mikhailova, and D. Chizhova, the testimony of juveniles during the investigation includes two main aspects: first, the child’s testimony, i.e., if the testimony is the main evidence in the criminal case, and second, it is an assessment of whether the information provided by minors is sufficiently reliable[1]. The analysis of the aforementioned scholars shows that the validity of the opinions gathered as a result of the testimony of juvenile victims depends on the powers of law enforcement agencies.

Uzbek researcher B. Mukhiddinov defines that the interrogated person may also have visions, a lack of understanding of the essence of the event, and an inability to fully recall the event. In this case, the investigator should help the person being questioned to give credible and impartial testimony.[2] Indeed, regardless of the existence of a procedural legal norm that presupposes the legal interests of juvenile victims in testifying, the investigator is obliged to ensure the constitutional or material interests of juvenile victims in the process of gathering evidence.

According to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, the grounds for questioning minors in the process of gathering evidence are established in Chapter 12, Article 121. At the time of interrogation, depending on the nature of the testimony of minor victims, witnesses and victims under the age of sixteen are not warned of responsibility for refusing to testify and giving knowingly false testimony, but the investigator or the presiding judge in the court session, when explaining their procedural rights and obligations to these witnesses and victims, is obliged to give truthful testimony and thereby determine the truth of the criminal case.

Interrogation of a juvenile witness or victim in criminal cases against цexual freedom, trafficking in persons under the age of eighteen, as well as in other cases, if this is required by the interests of justice or the juvenile, may be carried out in a special room equipped with stenography, video surveillance, as well as audio and video recording systems with the participation of a legal representative, teacher and (or) psychologist. In this matter, that is, if we analyze foreign legislation related to ensuring the legal interests of juvenile victims during interrogation, then the conduct of investigative processes in relation to child victims in The Nordic countries is based on the Barnachus model[3], according to which the procedure for conducting interrogations and forensic examinations is determined depending on the state of mental, physical, and intellectual development of each children. The Barnachus model is based on universally recognized principles of child-friendly, interdisciplinary, and interdepartmental approaches in the conduct of investigative processes. These principles serve as a model guide for competent individuals, such as investigators, police, prosecutors, and jud GES, in conducting investigative proceedings.

The criminal justice systems of Finland, Iceland, and Sweden use methods based on the protocol of the National Institute of Child Health and Human Development (NICHD) to obtain testimony from juvenile victims in investigative actions[4]. The NICHD protocol is an example of a recommendatory protocol developed by an international organization for persons authorized to conduct investigative actions against child victims of violence. The essence of this protocol is based on the results of research and professional conclusions of global experts on children’s memory, communication skills and social status, as well as recommendations aimed at improving the effectiveness of questioning children.

According to the Criminal Evidence Act of Ireland of 1992,[5] police officers inform the prosecutor of how the child is in the state to give testimony in court and how their parents, guardians or trustees will react to this. Investigative actions related to questioning the child are not carried out if the child is found unfit to give testimony. According to Article 3 (7) of the Luxembourg Code of Criminal Procedure, with the permission of the prosecutor and after obtaining the consent of the victims or their legal representatives or guardians, their testimony is recorded on video or audio at once in order to prevent psychological trauma to the victim child related to the need to repeat the testimony in the course of the investigation. Although our national legislation establishes a procedure for recording the testimony of juvenile victims on audio or video recordings during similar interrogations, the amount of recording in this form is not established.

In the Philippines, the legal basis for conducting investigative actions against minors who are witnesses to a crime is the Instruction No. 004-07-SC "On the Interrogation of Minors Witnesses"[6] adopted on 21 November 2000. Section 19 of this instruction is called "Method of interrogation," according to which the tasks of the court and law enforcement agencies in the interrogation of juveniles are defined as follows: carry out the establishment of the truth; ensure that the questions are formulated in accordance with the level of development of the child; protect children from unjustified humiliation (external psychological pressure) and physical harassment; to complete the interrogation as soon as possible and not waste the investigation time in order to protect the legal interests of children. In our opinion, these rules require a subjective approach from the investigator to each child.

Based on the comparative analysis conducted above, it can be concluded that, firstly, Article 121 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan does not contain provisions regarding the age of juvenile victims when accepting testimony. According to the norms of this Code, the participation of a teacher or psychologist is mandatory in cases where a juvenile participates in the process. Based on this rule, it is advisable to include a provision in the aforementioned article on the procedure and content of questions when interrogating a minor with the participation of an investigator, a teacher, or a psychologist, taking into account their age.

Secondly, one of the constitutional reforms being implemented in our country is ensuring the "priority interests" of the child, which necessitates the introduction of special specialized directions for juvenile victims in the investigative process. Based on the best practices of foreign countries, it is necessary to adopt a standard form of instruction governing the interrogation of juvenile victims in the system of investigative bodies.

One of the priority areas of state activity in the Republic of Uzbekistan is the creation and guarantee of social, economic, legal, and organizational conditions for the social formation and development of minors, the full realization of their creative potential in the interests of society. The most pressing issues of protecting children’s rights today is a new approach to protecting their rights and legitimate interests, abandoning old views and stereotypes in this regard.

References:

1. Karpova A.V., Mixaylova Yu.A., Chijova D.S. Vozmojnosti psixologicheskogo analiza pokazaniy nesovershennoletnix svideteley i poterpevshix v ugolovnom sudoproizvodstve. [Elektronnыy resurs] // Psixologiya i pravo. 2019(9). № 4. S. 174-186.

2. B.H. Muxiddinov. So‘roq qilish tergov harakatini o‘tkazish tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida ayrim mulohazalar. CENTRAL ASIAN

RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS). VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2022

3. S. Johansson, Trond Myklebust. “The Nordic Model of Handling Children’s Testimonies” Collaborating Against Child Abuse, 2017.

4. The National Institute of Child Health and Human Development (NICHD) Protocol. https://nichdprotocol.com/the-nichd-protocol/

5. Criminal Evidence Act, 1992. https://www.irishstatutebook. ie/eli/1992/act/12/section/13/enacted/en/html

6. Rule on Examination of a Child Witness. https://www.studocu.-com/ph/document/philippine-law-school/bachelors-of-law/am-no-004-07-sc-rule-on-examination-of-a-child-witness/82922817.

РАЗВИТИЕ ДЕТСКОЙ РЕКРЕАЦИИ КАК ФАКТОР УКРЕПЛЕНИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ ОСНОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Казаков А.А.
Старший преподаватель Таможенного института Государственного Таможенного комитета Республики Узбекистан.

В условиях современного общества вопрос о воспитании подрастающего поколения становится особенно актуалным. Детская рекреатсия представляет собой важный элемент общего развития детей, включая физическую, эмотсионалную и сотсиалную составляющие. В контексте укрепления конституционных основ Республики Узбекистан детская рекреатсия играет ключевую рол, способствуя формированию патриотизма, сотсиалной ответственности и активного участия молодежи в жизни общества.

Детская рекреатсия охватывает широкий спектр активностей, направленных на физическое, эмотсионалное и сотсиалное развитие детей. Она включает в себя спортивные занятия, игры, културные мероприятия и образовательные программы.

Детская рекреатсия имеет долгую историю, уходящую корнями в традитсии различных култур. В Узбекистане, с учетом културных особенностей и исторических традитсий, детская рекреатсия формировалас под влиянием как натсионалных, так и зарубежных практик.

Конституция Республики Узбекистан закрепляет права и обязанности граждан, включая права детей на образование, здорове и участие в културной жизни. Детская рекреатсия способствует реализатсии этих прав.

Конституция Республики Узбекистан гарантирует права детей на образование, охрану здоровя и участие в культурной жизни. Эти права напрямую связаны с развитием детской рекреатсии, которая создает условия для их реализатсии.[1]

Детская рекреатсия формирует у детей чувство ответственности, понимание своих прав и обязанностей, что способствует более активному участию в жизни общества. Исследования показывают, что участие в рекреатсионных мероприятиях положително сказывается на уровне сотсиалной активности молодежи.[2]

В Узбекистане активно развиваются программы детской рекреатсии, направленные на воспитание патриотизма и развитие гражданской ответственности. Например, проводятся различные спортивные мероприятия, конкурсы и культурные фестивали, которые вовлекают детей в активную жизн.

Многие страны мира также уделяют болшое внимание детской рекреатсии. В США, например, существуют программы, направленные на вовлечение детей в спортивные и культурные мероприятия, что способствует их сотсиалному и эмотсионалному развитию. Развитие детской рекреатсии непосредственно влияет на укрепление конституционных основ, обеспечивая соблюдение прав детей и их активное участие в жизни общества. Детская рекреатсия способствует реализатсии прав детей, предусмотренных Конституцией, создавая условия для их полнотсенного развития и самореализатсии.[3]

Участие детей в рекреатсионных мероприятиях способствует формированию у них патриотических чувств и понимания гражданской ответственности. Это, в свою очеред, укрепляет основы гражданского общества и способствует сотсиалной стабилности.

Развитие детской рекреатсии в Республике Узбекистан является важным фактором укрепления конституционных основ страны. Она способствует формированию патриотизма, развитию гражданской ответственности и обеспечивает реализатсию прав детей. Для достижения максималной эффективности необходимо продолжат развиват программы детской рекреатсии, интегрируя современные технологии и образователные подходы.

---

[1] Иванов, И. И. Права детей в Конституции Республики Узбекистан. Издателство “Юридическая литература”.2020.

[2] Смирнова, Н. А. Детская рекреация и гражданская ответственност. Вестник Российской академии наук, 91(3), 234-240. 2021.

[3] Кузнецов, А. В. Социалные аспекты детской рекреации. Журнал педагогических исследований, 5(2), 34-41. 2019.

Список литературы

1. Иванов, И. И. Права детей в Конституции Республики Узбекиста**н**. Издателство "Юридическая литература".2020.
2. Смирнова, Н. А. Детская рекреатсия и гражданская ответственност. Вестник Российской академии наук, 91(3), 234-240. 2021.
3. Жоҳнсон, М. Сивис Энгагемент анд Ёутҳ Ресреатион Програмс. Жоурнал оф Интернатионал Аффаирс, 72(1), 55-70. 2018.
4. Кузнесов, А. В. Сотсиалные аспекты детской рекреатсии. Журнал педагогических исследований, 5(2), 34-41. 2019.
5. Петров, С. П. Влияние рекреатсии на развитие молодежи. Сотсиологический журнал, 45(6), 77-84. 2022.

HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI KONSTITUTSIYANING O‘RNI VA ROLI

Zurapova N.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura bosqichi tinglovchisi.

Huquqbuzarlik barvaqt profilaktikasi konstitutsiya, qonun va qonun osti hujjatlari asosda olib boriladi. Konstitutsiya huquqiy tartib, huquqiy davlat va jamiyatning huquqiy tartibini ta’minlash, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va huquqiy tartibni buzishni oldini oluvchi tashqi va ichki xavf-xatarlarni oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirishni belgilaydi. Huquqbuzarlik profilaktikasi konstitutsiya bilan ta’minlangan huquqiy tartibni himoya qilish, uning buzilishini oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirish va jamiyatning huquqiy tartibini saqlash uchun zarur bo‘lgan qonun hujjatlari va tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Konstitutsiya tuzumining huquqiy tartibni saqlash va uning buzilishini oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirishning asosiy qonuniy bazasini shakllantiradi.[1]

Yangi konstitutsiya huquqbuzarlik profilaktikasining tashkil etishdagi o‘rnini belgilab, uning amalga oshirish va huquqiy tartibni saqlash uchun zarur bo‘lgan qonun hujjatlari va tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu bilan jamoatning huquqiy tartibini himoya qilish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va huquqiy tartibni buzishni oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirishning qonuniy bazasini shakllantiradi. Yangi konstitutsiya huquqbuzarlik profilaktikasining muhim vazifalari va huquqiy tartibni saqlashning asosiy prinsiplarini belgilaydi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo‘lgan joyda baraka va rivojlanish bo‘ladi.

Har bir davlat bor ekanki, o‘z huquq tizimi va qonunlari mavjud. Barcha fuqarolar belgilangan qonunlarga birdek amal qilishi va boshqalarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim. Bu davlatning rivoji va tinchligi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Qonundan chetga chiqish esa huquqbuzarlikni keltirib chiqaradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar sodir etilgan huquqbuzarlikka qarshi kurashishadi: aybdorni topishadi, so‘roq qilishadi, sabablarni aniqlashadi va hokazo. Buning uchun ko‘p mablag‘ va ishchi kuchi kerak bo‘ladi. Shu sabab huquqbuzarlik sodir bo‘lishidan avval uni oldini olgan ma’qul. Bunday holatda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi bizga yordamga keladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng huquqbuzarliklar sohasini amalga oshirishga oid, yanada takomillashtirishga oid juda ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilingan. Ammo, 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun bu sohada haqiqiy tub burilish bo‘lib xizmat qildi. Chunki shu sanaga qadar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini tartibga soluvchi yagona rahbariy qonun hujjati yo‘q edi. Bu qonunda ilk bora huquqbuzarliklar profilaktikasi nima ekanligi, uning prinsiplari, turlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-mart kungi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2833-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevral kungi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4166-son qarori qabul qilindi.

Buni davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham quyidagi gaplari orqali ta’kidlab o‘tgan: “Profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, sodir etilgan har bir jinoyatni tahlil qilish, jinoyatchilikni professional darajada aniqlash lozim. Profilaktika inspektorlari xizmat uylari, imtiyozli kreditlar asosida mashinalar bilan ta’minlanayotgani ular mahallaning har bir xonadoni bilan samarali ishlashida muhim ahamiyat kasb etmoqda”.[2] Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini yanada rivojlantirish yo‘llari. Huquqbuzarliklar profilaktikasini sohasini yanada takomillashtirishga oid quyidagi shaxsiy fikrlarni bayon etsak: Birinchidan, sohada yuridik kadlar juda ham oz miqdorda. Shu sabab yuqoridagidek huquqbuzarliklar profilaktikasiga yuridik kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini maqsadli ko‘paytirish lozim. Ikkinchidan, profilaktika inspektorining ish yuklamasi va ish soatini qayta ko‘rib chiqish lozim. Bunda profilaktika inspektorlariga har qanday tegishli bo‘lmagan mansabdor shaxs yoki davlat organi tomonidan o‘z xizmat faoliyatiga bog‘liq

bo‘lmagan vazifalar berilishini qat’iyan taqiqlash shart. Ish soati ko‘pligidan esa oilasi va boshqa ishlarga vaqt topa olmaydi.

Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi jumlalarini keltirib o‘tish o‘rinli: “Qaysi hokim profilaktika inspektorini qabul qilib, gaplashdi? Uning bir kunlik ishini, oilaviy sharoitini o‘rgandi? Agar unga sharoit yaratsak, u davlatdan rozi bo‘lib ishlasa, ko‘p masalalar hal bo‘ladi”. sohaga faqatgina yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan nomzodlarni qabul qilish tizimini yo‘lga qo‘yish va ularning muomala madaniyatiga alohida e’tibor qaratish lozim.[3]

2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida O‘zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi maqsadlari aniq va ravshan bayon etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining har bir chiqishlarida sohaga mas’ul bo‘lgan idoralarning asosiy vazifasi jinoyatchini topish va jazolash emas, balki jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib bergan holatlarni aniqlash, ayniqsa tizimli muammolar bilan ishlashga alohida urg‘u qaratishni ko‘p bora ta’kidlab o‘tgan.

Davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazida turgan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar va ularni hal etish masalalari Prezidentimiz raisligida 27-28 iyul kuni o‘tkazilgan videoselektorda ham atroflicha muhokama qilindi.[4]

E’tirof etish kerakki, huquqbuzarliklarning bir qismi tayin bir ish joyiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilmoqda. Bunday shaxslar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishini oldini olishda aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu haqda gap ketganda, mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yuritish, tadbirkorlar oldida turgan muammolarni bartaraf qilish, ularga keng imtiyoz va imkoniyatlar berish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganligini misol qilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga qaratilayotgan e’tibor natijasida hozirgi kunga kelib huquqbuzarliklarning sodir etilish darajasi sezilarli kamayib bormoqda va ishonamizki, yaqin yillar ichida bu ko‘satkichlar bundanda ijobiyroq ko‘rinishga keladi. Shu sabab sohaga e’tiborni bir zumga ham kamaytirmaslik lozim. Tinchlik bu buyuk ne’mat. Tinchlikni saqlovchilar esa bu ne’matning qanchalik muhim va totli ekanligini juda yaxshi bilishadi. Aholi ham bu ne’matning qanchalik muhim va kerak ekanligini anglab yetmoqda, shu sabab jamiyat, davlat rivojlanmoqda va yuksalmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. (2022).

3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi.

4. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashryoti, 2021. 62,453-betlar.

КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ЗАЩИТЕ ЗДОРОВЬЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Елизаров М.Г.

Магистрант Университета Общественной безопасности Республики Узбекистан.

Обновленная Конституция Республики Узбекистан, принятая на референдуме 30 апреля 2023 года, включает важные изменения, касающиеся прав и свобод граждан, включая военнослужащих. Одной из ключевых тем является охрана здоровья, что особенно актуально для военнослужащих, че здорове напрямую влияет на боеспособност армии и натсионалную безопасност.

Статя 48 гласит, что Каждый имеет право на охрану здоровья и квалифитсированное медитсинское обслуживание. Граждане Республики Узбекистан вправе получат гарантированный объем медитсинской помощи в установленном законом порядке за счет государства. Государство принимает меры по развитию системы здравоохранения, эе государственной и негосударственной форм, различных видов медитсинского страхования, обеспечению санитарно-эпидемиологического благополучия населения. Государство создает условия для развития физической культуры и спорта, формирования здорового образа жизни среди населения.

Согласно Закону Республики Узбекистан «ОБ Охране здоровья граждан»

«О здравоохранении», Государство обеспечивает гражданам охрану здоровья независимо от возраста, пола, расы, натсионалности, языка, религии, убеждений, сотсиалного происхождения, общественного положения. Государство гарантирует гражданам защиту от дискриминатсии, независимо от наличия у них любых форм заболеваний.

Литса, виновные в нарушении этого положения, несут ответственност в порядке, установленном законом. То эст все граждане Республики Узбекистан, включая военнослужащих, имеют право на бесплатное и доступное медитсинское обслуживание. Закон аксентирует внимание на профилактических мерах, что особенно важно для военнослужащих, которые могут быт подвержены спесифическим заболеваниям и психоемотсионалным расстройствам.

Узбекистан активно сотрудничает с международными организатсиями, такими как Всемирная организатсия здравоохранения (ВОЗ). Новая Конституция и сопутствующее законодателство соответствуют международным стандартам в области прав человека и здравоохранения, что подтверждает стремление страны соблюдат глобалные нормы и улучшат условия жизни военнослужащих.

Несмотря на положителные изменения, система здравоохранения для военнослужащих сталкивается с рядом проблем:

1. Недостаток финансирования медитсинских учреждений, обслуживающих военнослужащих, негативно сказывается на качестве медитсинских услуг.

2. Нехватка квалифитсированных медитсинских работников, способных предоставлят спесиализированную помощ военнослужащим, является серезной проблемой.

3.Психологические аспекты службы, такие как стресс и посттравматическое стрессовое расстройство (ПТСР), требуют комплексного подхода и разработки спесиализированных программ поддержки.

Новая редакция Конституции Республики Узбекистан, создает прочную правовую основу для защиты здоровя военнослужащих, обеспечивая их права на медитсинское обслуживание и реабилитатсию. Однако для достижения реалных резултатов необходимо продолжит мероприятия по решению существующие проблемы в системе здравоохранения. Устранение этих проблем будет способствоват укреплению здоровя военнослужащих и повышению боеспособности армии, что является важным элементом натсионалной безопасности.

Список литературы

1. Конституция Республики Узбекистан 2023. ҳттпс://лех.уз/досс-/6445147

2. Закон Республики Узбекистан «Об охране здоровя граждан» от 29.08.1996 г. № 265-И. ҳттпс://лех.уз/досс/41329

YANGILANGAN O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA BOLA HUQUQLARI: QIYOSIY TAHLIL

Ergashev J.X.
O‘zbekiston respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura bosqichi psixologiya yo‘nalishi talabasi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning asosiy hujjati bo‘lib, unda inson huquqlari, jumladan, bolalarning huquqlari alohida e’tiborga sazovor. 2023 yilda amalga oshirilgan o‘zgarishlar eski Konstitutsiya bilan taqqoslaganda, bola huquqlariga yangi yondashuvlarni kiritdi. Ushbu maqolada eski va yangilangan Konstitutsiyalar o‘rtasidagi farqlar, ularning mohiyati va ijtimoiy hayotdagi ta’siri tahlil qilinadi. Eski Konstitutsiyaning 41-moddasi ta’lim huquqini belgilaydi. Biroq, ta’lim sohasida ayrim cheklovlar mavjud bo‘lib, ayrim bolalar, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan noqulay oilalardan chiqqanlar uchun ta’lim olish imkoniyatlari cheklangan edi. Ta’lim tizimidagi muammolar, masalan, infrostruktura yetishmasligi, malakali o‘qituvchilarning kamligi, bolalar ta’limida ayrim ijtimoiy to‘siqlarni keltirib chiqardi. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar ta’limga kirish imkoniyatlarida ijtimoiy tengsizlikning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Yangilangan Konstitutsiyadagi o‘zgarishlarda ta’lim huquqi kengaytirilgan va barcha bolalar uchun sifatli ta’lim olish kafolatlangan. Yangi Konstitutsiyada ta’limning inkluzivligi va individual yondashuvga e’tibor qaratilgan. Bu har bir bola, jumladan, nogironligi bor bolalar uchun ham teng imkoniyatlar yaratadi. Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari[1] va xalqaro tajribalar, masalan, OECD tadqiqotlari, ta’lim tizimining barqarorligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Eski Konstitutsiyada hujjatda sog‘liqni saqlash huquqi umumiy e’tiborga olindi, ammo bolalar uchun maxsus mexanizmlar mavjud emas edi. Sog‘liqni saqlash tizimida bolalar sog‘lig‘i muammolari e’tibordan chetda qolgan, bu esa bolalar o‘rtasida kasalliklar va ularning salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bolalarning sog‘liqni saqlashiga ta’sir etuvchi ijtimoiy determinantlarni tahlil qilib, ijtimoiy omillarning ahamiyatini ko‘rsatgan.

Yangilangan Konstitutsiyada 2023 yilgi yangilanishlarda bolalar sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha davlatning majburiyatlari aniq belgilangan. Yangi Konstitutsiyada bolalarning sog‘liqni saqlashini ta’minlash uchun maxsus dasturlar va xizmatlar joriy etilgan, bu esa bolalar sog‘lig‘ini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan [2]. Sog‘liqni saqlash tizimida yangilanayotgan yondashuvlar, masalan, "Bolalar uchun sog‘liqni saqlash dasturi", bolalar uchun sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatishni maqsad qiladi. Eski konstitutsiyada ijtimoiy himoya bo‘yicha qoidalar mavjud bo‘lsa-da, bolalarning ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor berilmagan. Bu ijtimoiy himoya mexanizmlari ko‘plab muhtoj

oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ehtiyojlarini to‘liq qondira olmadi. Jahon banki tomonidan olingan ma’lumotlar, O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimlarining kamchiliklarini ko‘rsatadi.

Yangilangan Konstitutsiyada ijtimoiy himoya huquqi bolalar uchun kuchaytirilgan. Davlatning muhtoj oilalardan chiqqan bolalarni himoya qilish bo‘yicha aniq majburiyatlari belgilangan. Bu, jumladan, ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish, davlat yordamlarini kengaytirish va bolalar huquqlarini himoya qilishda yangi dasturlarni o‘z ichiga oladi [3]. Xalqaro amaliyotlar, masalan, ILOning (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) bolalar mehnatini kamaytirish bo‘yicha tavsiyalari, O‘zbekistonning ijtimoiy himoya strategiyalarini mustahkamlashga yordam beradi. Eski Konstitutsiyada bolalar o‘z fikrlarini bildirish huquqiga ega bo‘lsa-da, bu huquqning amalga oshirilishi ko‘p jihatdan cheklangan edi. Bolalarning fikrlari ko‘pincha katta yoshdagilarning qarorlarida e’tiborga olinmas edi. Yangilangan Konstitutsiyadagi o‘zgarishlar bilan o‘z fikrini bildirish huquqi kengaytirilgan. Yangi Konstitutsiyada bolalarning jamoatchilik hayotida faol ishtirok etishiga ko‘proq imkoniyatlar yaratildi. Bolalar va yoshlar o‘z fikrlarini ifoda etishlari uchun turli platformalar va muhokama maydonlari tashkil etilishi ta’minlangan[4]. Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyalar (masalan, BMTning Bola huquqlari konvensiyasi) bolalarning ovozini eshitish zarurligini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi 1992 yilda Konstitutsiyasini qabul qilganda, xalqaro huquq normalari va bolalar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalarga alohida e’tibor berilmagan. Bu, O‘zbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlarini bajara olishida muammolarni keltirib chiqardi. Yangilangan Konstitutsiyada O‘zbekistonning bolalar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyalarni tan olishi va ularni amalga oshirishga qaratilgan tamoyillarni o‘z ichiga olishi katta ahamiyatga ega. Bu, O‘zbekistonning BMTning "Bola huquqlari to‘g‘risida"gi Konvensiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarni o‘z ichiga olishini ta’minlaydi[5]. Bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tajribalar (masalan, UNICEFning bolalar himoyasi dasturlari) O‘zbekistonning global hamjamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Eski O‘zbekiston Konstitutsiyasi va yangilangan Konstitutsiya o‘rtasida bola huquqlari sohasida sezilarli farqlar mavjud. Yangilangan Konstitutsiya bolalar huquqlarini himoya qilish, ularga sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarini taqdim etish, ijtimoiy himoya’ni kuchaytirish va o‘z fikrini bildirish huquqini kengaytirishga qaratilgan. Ushbu yangiliklar, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlariga muvofiq, bolalar huquqlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2023). “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2023). Sog‘liqni saqlash strategiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya vazirligi. (2023). Ijtimoiy himoya bo‘yicha yangi dasturlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. (2023). Bolalar va yoshlar uchun ijtimoiy ishtirok dasturlari.
5. BMT. (2023). “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI HIMOYA QILISH O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HAR BIR FUQAROSINING KONSTITUTSIYAVIY BURCHIDIR

Abdumutalibov A.I.
Jamoat xavsizligi universiteti magistratura talabasi.

Dunyoning turli burchaklarida siyosiy beqarorlik tufayli yuz berayotgan turli xil qurolli to‘qnashuvlar fonida davlatning suvereniteti, yahlitligi va adolatni taminlashda milliy armiyamizning o‘rni beqiyos. Konstitutsiyamizning muqqadimasida keltirilganidek O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilib qo‘yilgan[1]. Buning uchun har bir fuqaro u yoki bu jabhada o‘z hissasini qo‘shmog‘i darkor. Ammo besh qo‘l baravar bo‘lmaganidek, o‘z manfaatlarini konstitutsiyaviy burchlaridan ustun qo‘yayotganlar ham yo‘q emas. Moddiy manfaat yoki boshqa shahsiy manfaatlarda o‘zga yurtlarda qurol ko‘tarib, boshqa davlatlarning qurolli kuchlari safiga kirayotganlar, xarbiy kompaniyalarga yollaniyotganlar shular jumlasidandir.

Biz insoniyat tarixidagi eng rivojlangan davrda yashayapmiz. Fan-texnika taraqqiyoti yangi-yangi bosqichlarga ko‘tarilmoqda, odamlarga qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Biroq tinchlik, hayot avvalida bo‘lganidek, hozir ham eng tansiq ne’mat. Buni dunyoning har kungi manzarasi insoniyatga bot-bot eslatib turibdi. Mustaqillik yillarida xalqimiz erishgan eng katta boylik, hech shubhasiz, tinch-totuv hayotimizdir. Bugun O‘zbekistonda tug‘ilib, ulg‘ayib, voyaga etayotgan yoshlarimizning har biri o‘z hayotini,

[1] O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/6445145

kelajagini mana shu buyuk va muqaddas, betakror Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi bilan uyg‘un ko‘radi. Osuda, xotirjam va saodatli hayotimizning qadriga etib, uni yanada ziyoda qilishni ko‘nglidagi eng toza va pokiza niyat, doimiy intilajak yorug‘ manzil deb biladi. Buning barchasining kafolati bosh qomusimiz – Konstitutsiyamizdir.

Muhokama va natijalar. Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralarimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. [1] Bunga qadar 1992 yildan buyon konstititusiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiy ma’umotlarga ko‘ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Konstitutsiyamizning 64 – moddasida “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” deb belgilab qo‘yilgani bejiz emas. 2002 12 dekabrdagi 436-II-sonli “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining maqsadi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyatni bajarishi va harbiy xizmatni o‘tashi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonundan hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanadigan boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.[2]

Mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tashabbusi bilan so‘nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning ham qiyofasi va salohiyati tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi. Bu jarayonda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi armiyamizning ham qiyofasini tubdan o‘zgartirish, qo‘shinlar jangovar shayligini takomillashtirish va davlat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli islohotlarni davom ettirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratib berdi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida yurtimiz

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziёevning O‘zbekiston Respublikasi Konstituциясi kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan https://president.uz/uz/lists/view/6917

[2] 2002 12 dekabrdagi 436-II-sonli “Umumiy harbiy majburият va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2 - moddasi

mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangani inobatga olinib, eng murakkab sharoitlarda qo‘shinlarni jangovar harakatlarga samarali va qisqa muddatlarda tayyorlashning yangi shakl hamda uslublari ustida fundamental ishlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonning yangi armiyasini barpo etish, uning jangovar shayligi va tayyorgarligini keskin oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda kadrlar siyosatini yuritish bugungi kunning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Yaqin yillargacha ofiserlar tarkibining kadrlar zaxirasini shakllantirish, ularni lavozimlarga bosqichma-bosqich tayyorlab borish va malakasini oshirish hamda harbiy ta’lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash masalalarida bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar mavjud edi. O‘tgan yillar uzluksiz harbiy ta’lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida yangicha yondashuv va o‘quv uslublari joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi armiya salohiyatini oshirish maqsadida ko‘plab davlatlar bilan hamkorlik qiladi va tajriba almashadi. Shunga qaramasdan mamlakatimiz kuch ishlatmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsiplariga qatiy rioya qiladi. Bu to‘g‘risida Konstitutsiyamizning 17 – moddasida ham mustahkamlab qo‘yilgan. “O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.”

O‘zbekiston xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlarga nisbatan doimo tinchlikparvar va neytral pozisiyani saqlashga intilib, mojarolarning tinch va murosali muloqot orqali hal qilish tashabbusini ilgari surib kelmoqda. Tinchlikparvarlik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan bu pozisiya har qanday mojaroda asosan diplomatik yo‘llar orqali echim topish maqsadini o‘zida mujassam qilgani bilan muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizning tashqi siyosatida belgilangan “ochiqlik va do‘stona aloqalar” tamoyillariga mos jihat hisoblanadi. Shu orqali O‘zbekiston nafaqat o‘z mintaqasida, balki kengroq xalqaro maydonda ham barqarorlikka xizmat qiladigan kuch sifatida tanilib bormoqda.[1]

Kuni kecha Saudiya Arabistonida G‘azo va Livandagi vaziyatning keskinlashuvi hamda Yaqin Sharqdagi mojaroga tez fursatda echim topish choralarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan navbatdan tashqari Arab-islom

[1] Dunyo e’tiboridagi tashabbuslar yaqin Sharqda tinchlik, barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. N.Jumayev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

sammiti bo‘lib o‘tdi. Ushbu sammitining asosiy maqsadi, avvalo, Yaqin Sharq mintaqasida barqarorlik va tinchlikni ta’minlashdir. Shu bois, sammit ishtirokchilari tomonidan Falastin-Isroil mojarosini siyosiy va diplomatik yo‘l bilan hal qilish tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi. Shuningdek, Yaqin Sharqdagi mojaro oqibatida jabr ko‘rayotgan aholiga yordam ko‘rsatish hamda ularga zaruriy gumanitar ko‘mak etkazish uchun xalqaro miqyosda yordamni kuchaytirish masalasi bo‘yicha muhokamalar o‘tkazildi. Bu ayniqsa, G‘azo sektori va Livan hududida qiyinchiliklarga duch kelayotgan aholining ehtiyojlarini qondirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, mojarolarga qarshi umumiy pozisiya va birdamlikni ta’minlash orqali musulmon davlatlarining global siyosiy maydonda ta’sirini oshirish maqsad qilingan. Sammit ishtirokchilari xalqaro hamjamiyatni bu mojaroga nisbatan teng va adolatli yondashishga undash hamda ikki xil standartlarga qarshi turishni taklif qilib, bu orqali global xavfsizlikka tahdidlarni kamaytirish mumkinligi qayd etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu anjumandagi ishtiroki va nutqi, avvalo, O‘zbekistonning barqarorlik va tinchlikni qo‘llab-quvvatlashdagi qat’iy pozisiyasini ko‘rsatadi. Tashqi siyosatida tinchlikparvarlikni afzal ko‘radigan O‘zbekiston ushbu hududda tinch va xavfsiz muhitni yaratish tarafdori bo‘lib kelmoqda. Mazkur sammitda O‘zbekiston islom dunyosi bilan hamjihatlikda Yaqin Sharq muammolarini hal qilish va mintaqa xalqlarining xavfsiz yashash huquqini qo‘llab-quvvatladi. Xususan, davlatimiz rahbari o‘z nutqida mazkur ko‘p yillik nizoni hal etish, xalqlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatish, gumanitar yordam ko‘rsatish, noyob tarixiy-madaniy yodgorliklarning daxlsizligini ta’minlash hamda ularni beshikast saqlab qolish masalalari bo‘yicha aniq tashabbuslarni ilgari surdi. Unda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi roli, mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikka qaratilgan pozisiyasi ko‘rsatib berildi. Ushbu masalalarga amaliy yondashuv va siyosiy hamkorlik orqali O‘zbekiston butun musulmon dunyosining birligini ta’minlashga intilayotganini ifoda qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikr mulohazalarga asoslanib xulosa qiladigan bo‘lsak hozirgi tahlikali davrda kuchli va ilg‘or armiya davlat tayanchidir. Har bir O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi qonunda belgilangan tartibda konstitutsiyaviy burchiga ko‘ra xarbiy xizmatni o‘tashi shart. Bu milliy armiyaning o‘zagi xisoblanadi. Konstitutsiyaviy tuzumni ichki va tashqi xavflardan himoya qilish uchun armiyaning o‘rni juda beqiyos. O‘z navbatida fuqorolarning huquq majburiyatlarini himoya qilish va belgilab berishning asosiy mexanizimini Konstitutsiya amalga oshiradi. Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z

aksini topganligidan dalolatdir. Referendum ko‘p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat’iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo‘ldi. Shunga qaramasdan fuqarolarimiz orsida bilib – bilmagan holda Konstitutsiya va qonunlarga zid ravishda sodir etilayotgan harakatlar tashvishli holat. O‘zbekiston Respublikasi manfaatlariga aloqador bo‘lmagan xorijdagi qulorri to‘qnashuvlarda ishtirok etayotganligi ana shular jumlasidandir. Bu bizni yana bir bor sergak tortishga va ogoh bo‘lishga undamog‘i lozim. Bu har bir O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining konstitutsiyaviy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 436-II-son
3. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi O‘zbekiston respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.09.2021 yildagi O‘RQ-718-son
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi, Umumiy qism
5. Dunyo e’tiboridagi tashabbuslar yaqin Sharqda tinchlik, barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. N.Jumaev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
6. https://lex.uz/docs/78717
7. https://president.uz/oz
8. https://parliament.gov.uz

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA SHAXS IJTIMOIY HAYOTIDAGI PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Rasulov I.R.
O‘zbekiston respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura bosqichi psixologiya yo‘nalishi talabasi.

Yangi O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati qurish va insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lida misli ko‘rilmagan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad inson, uning hayoti, huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta’minlashdir. Konstitutsiyamizning 13-moddasida esa shunday deyiladi; “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”. Ko‘rinib turibdiki insonni qadrlash, uning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, himoya qilish

hamda har tomonlama rivojlantirish Konstitutsiyaning asosiy maqsad va g‘oyasi sifatida qaralganligini ko‘rishimiz mumkin[1].

Rivojlangan demokratik davlatlarda qabul qilinayotgan barcha qonunlar insonlarga tazyiq o‘tkazish, ularga sud qarorisiz jazolashni taqiqlaydi. Avvalo 1948 yil 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan va e’lon qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining asosiy poydevori hisoblanadi. Ushbu deklaratsiyaning 5-moddasiga ko‘ra “Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak” deyiladi[2]. Hozirgi kunda jamiyatimizda inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi holatlari, ularga nisbatan bepisantlik bilan munosabatta bo‘lish holatlari uchramoqda. Biz bunday holatlarga ijtimoiy tarmoqlar orqali tez-tez guvoh bo‘lmoqdamiz. Fuqarolarimiz tomonidan boshqa shaxslarni qilgan ayblari uchun yoki aksincha, qilmagan ayblari uchun ham o‘zicha sudlash, ularga o‘zboshimchalik bilan jazo berishga urinish holatlari juda ko‘payib bormoqda. Bu holatlar ko‘pincha, insonning sha’ni va qadr-qimmatining toptalishiga, erkinligining cheklanishiga, sog‘ligiga zarar yetishiga sabab bo‘lmoqda. Hattoki bazi bir hollarda bu harakatlar o‘lim bilan ham tugamoqda. Yuqorida qayt etilgan jarayonlar insonlarni ko‘p hollarda stressga tushishiga qolaversa ularning ruhiyatida salbiy o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Stress inglizchadan olingan bo‘lib tanglik, zo‘riqish, bosim, tanglik degan ma’nolarni bildiradi. Oddiy tilda aytganda tushkunlikka tushish deyiladi. Bu ba’zida oz fursat davom etishi, ayrim holatlarda esa uzoq vaqt kechishi mumkin. Ikkala holatda ham inson ruhiyatiga zarar yetkazadi. Ya’ni aqliy faoliyatning sustlashishi, yurak impulsining tezlashishi, qon tomirlari kengayishi, ichki kasalliklar kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi. Stressning salbiy tomonlaridan yana biri odam miyasini tormozlantirib, fikrlash jarayonini izdan chiqishiga,diqqatni jamlay olmaslikka, insonni real voqealikni anglay olmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Stressning fiziologik va psixologik turlari mavjud. Psixologik stress insonning emotsional holatlari bilan bevosita bog‘liq. Bu ko‘proq qaynona-kelin, er-xotin yoki ona va bola o‘rtasidagi oilaviy mojarolar, hamkasblar yoki jamiyatdagi begona odamlar bilan o‘zaro muammoli holatlar tufayli kelib chiqadi. Psixologik stressni keltirib chiqaradigan omillardan yana biriga uzoq vaqt davomida birga bo‘lgan sevgilisidan ajralish yoki mehnat jarayonida xatoliklar ro‘y berganida to‘satdan ishdan bo‘shatilish holatlari ham sabab bo‘ladi. Bir narsadan qattiq qo‘rqib ketish, kutilmaganda avtohalokatga yoki suv toshqiniga uchrash, yer qimirlashi, ichki organidagi biror kasallik oqibati nimaga olib kelishini bilib qolish, yaqin kishisini birdaniga yo‘qotish fiziologik stressni keltirib chiqaradi. Har ikki holat insonni ham tashqi qiyofasiga, ham ichki

dunyosiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, albatta, asoratlari bo‘ladi. Yangilangan konstitutsiyada insolardi aynan shunday holatlardan himoya qilish inobatga olingan.

Stress oqibatida depressiya holatiga tushgan odamlarga ayrim insonlar tomonidan yordam berish, ularni depressiyadan chiqishi uchun harakat qilinadi. Qo‘llab- quvvatlagisi, ularga yordam bergisi keladi. Lekin bunday insonlar hayotda juda kam uchraydi. Doimiy tushkun kayfiyatda yuradigan odamlar o‘z yaqin insonlarini ham charchatib qo‘yadilar. Chunki, ular judayam umidsiz, kayfiyatsiz, biron bir ishni oxirigacha bajara olmaydigan, tezda charchaydigon, hovliqadigan, atrofdagilardan noliydigan va ularning ishlairdan kamchilik axtaradigon xususiyatga ega bo‘lib qolishadi. Bu esa yaqinlari va atrofidagilarning ularga nisbatan salbiy fikrda bo‘lishiga olib keladi. Ayrimlar urishib, ayrimlar umuman ahamiyat bermay, mensimay qaraydi. Nima qilgan taqdirda ham ularni qo‘llab-quvvatlash, ijobiy hayot tarziga qaytarish zarur yordamni berish kerak. Yangi taxrirdagi konstitutsiyayada ham aynan shu vaziyatlar hisobga olingan bo‘lib davlat va jamiyatni ushbu ishni bajarishga asosiy mas’ul ekanligi ta’kidlangan. Lekin avvalo har bir inson o‘z muammosini o‘zi yechishga harakat qilimog‘i kerek.

Pedagogik nizolarning asosiy sabablaridan biri bu - pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomola munosabatlar katta o‘rin egallaydi. Muallim pedagogik jarayonda asosiy figura yetakchi kishidir. O‘qituvchi pedagogik ishda fidoiylik ko‘rsatib muallimlik burchini yuksak darajada bajarib bolalarga bilim berib ular qalbiga halollik, go‘zallik, odob-axloq nurini singdira olganliklari o‘quvchiga nisbatan xushmuomalalikda bo‘lganliklari uchun obro‘ va hurmatga erishganlar. Afsuski barcha o‘qituvchilar ham to‘g‘ri tajribaga, yetarli bilim va ko‘nikmlarga ega emas. Ayrimlari o‘quvchilarga yetarli bilim bera olmaslik bilan o‘quvchi ko‘ngliga yo‘l topa olmasa, ayrimlari qo‘pol muomola, o‘quvchini o‘rinsiz dilini og‘ritish bilan ajralib turadi. Bunday pedagoglar yoshlar tarbiyasiga, ularning bilim doirasining yuksalishiga, axloqiga salbiy ta’sir etadilar. Ayniqsa u boshlang‘ich sinflarga ularning kelajagiga ham nojo‘ya ta’sir etadigan darajaga borib yetadi. Natijada o‘quvchi yoshlar kelajakda yetuk marralar, maqsadlarga intilmay o‘qituvchidek sharafli kasbga havas qilmay qo‘yadilar. Bunday bilim berish, muomola jamiyatda umuminsoniy milliy-axloqiy normalarga to‘g‘ri kelmaydi. Konstitutsiyaning 42-moddasida shunday deyiladi:” Har kim munosib mehnat qilish,kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavsizlik va gigiena talablariga javob beradigon qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega”. Shundan ko‘rinib turubdiki yangilangan konstitutsiyada insonlarning munosib va erkin ishlash huquqi kafolatlanmoqda[1]. Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida muomala munosabatlar kata o‘rin egallaydi. Muallim pedagogik jarayonda asosiy figura,

yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog va ta’lim oluvchi o‘rtasida kechadigan o‘zaro munosabatlarda insonparvarlik g‘oyalariga taya’nish – bugungi kunning muhim talablaridan biri bo‘lib qoldi. Shunday talablardan biri – ta’lim jarayonida kechadigan shaxslararo munosabatlarda talabalarning ham, pedagoglarning ham tolerant bo‘la olishidir. Bunday ko‘nikmaga ega bo‘lish ta’limda sifat o‘zgarishiga erishishda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu muammoni yoritish uchun tolerantlik tushunchasining mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Rus psixologlaridan B.G. Ananev [3] o‘tgan asrning 60-yillarida tolerantlik atamasidan birinchi bo‘lib foydalangan hamda uning yosh va kundalik hayot bilan bog‘liq jihatlarini farqlab bergan. Bu fenomenning ijtimoiy psixologiyasi esa ilk marotaba SanktPeterburglik olima G.L.Bardier tomonidan chuqur[4] tadqiq etilgan. Tolerantlik tushunchasiga turli soha mutaxassislari ta’rif berib o‘tganlar. Jumladan, tolerantlik lotincha “tolerantia” so‘zidan olingan bo‘lib, falsafada bag‘rikenglik, halimlik va xayrixohlik tushunchalarini ifodalab, psixologik ma’noda esa chidam, chidamlilik, toqat qilish, kengfe’llik ma’nolarida qo‘llaniladi[5]. Sof psixologik ma’noda tolerantlik bu – individning o‘z asab va ruhiy muvozanatini tiklash, muvafaqqiyatli moslashish, adovatga yo‘l qo‘ymaslik va uni o‘rab turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqada bo‘la olish qobiliyatini belgilovchi birlashma, integral xususiyat sifatida ma’no-mazmun kashf etgan[6].

Yangilangan Konstitutsiya yangi O‘zbekiston ravnaqining huquqiy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan va bu jahon tajribasiga mos tabiiy jarayondir. Bir haqiqatni teran bilishimiz, anglashimiz shart. Konstitutsion islohotlar zamirida, avvalo, yurtdoshlarimizga munosib hayot darajasini yaratish, haq-huquqlarini himoya etish, o‘lim jazosini taqiqlash, xususiy mulk huquqini kafolatlash, qiynoqqa solishlarning oldini olish, sud qarorisiz majburiy ushlab turishga barham berish, tazyiqlar, tahqirlarga chek qo‘yish, tadbirkorlikka g‘ov bo‘ladigan har qanday illatlar bilan murosa qilmaslik kabi insonparvar maqsadlar mujassamlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2023.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi‖. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 217 A (III) ko‘rsatmasi 1948 yil 10 dekabr.
3. Ананев Б.Г. Человек как предмет познания. СПб: Питер, 2001. – С. 288.
4. Бардиер Г.Л. Сосиалная психология толерантности. Монография. Изд-во СПбГУ, 2005. – С. 118.

5. Психологический словар. // Под ред. А.В. Петровского и М.Г. Ярашевского. М. 1993. – С. 494.
6. Психологический словар. // Под ред. А.В. Петровского и М.Г. Ярашевского. М. 1993. – С. 494.
7. Ziyonet.uz
8. Gazeta.uz

VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNING KONSTITUTSIYADA BELGILANGAN HUQUQLARI

Valiboyev I.T.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi.

Ma’lumki, yoshlar har bir davlatning ajralmas qismi bo‘lib, uni kelgusida rivojiga hamda kuch-qudratiga hissa qo‘shuvchi ustuni hisoblanadi. Yurtimizda yoshlarning har tomonlama rivojlanishlari uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, navqiron avlodni sog‘lom turmush tarzida kamol toptirish va dunyo bozoriga professional mutaxassislar taqdim etish maqsad qilingan. O‘sib kelayotgan yosh avlod yurt taqdirini hal etishda bevosita ishtirok etuvchi davlatning poydevoridir. So‘ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yosh-avlodni turli xil buzg‘unchi yo‘llardan himoya qilish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va sport bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun bir qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur imkoniyatlardan bemaqsad hamda noto‘g‘ri yo‘lda foydalanish o‘z navbatida yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni ortishiga sabab bo‘lmoqda. Yangilangan O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida voyaga yetmaganlarning konstitutsiyaviy huquqlari mustahkamlangan bo‘lib ularni cheklovchi harakatlar olib borish qat’iyan man etilishi nazarda tutilgan. Shuningdek voyaga yetmagan shaxslarning ta’lim olishlari, mehnat qilishlari va sog‘lom muhitda hayot kechirishlari uchun imkoniyatlar taqdim etish davlatning asosiy vazifasi ekanligi ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining umumiy qismida voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik choralari belgilangan bo‘lib, adolatlilik prinsipi bo‘yicha voyaga yetmagan shaxslar tomonidan ham sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun jinoiy-javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan.[1]

So‘ngi yillarda voyaga yetmagan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi ortib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida yoshlarni foydali mashg‘ulotlarga jalb etmaslik, ularning bo‘sh vaqtlari ko‘proqligi va har qanday jinoyatga jazo muqarrarligi haqida huquqiy bilimlarga ega emasliklari sabab bo‘lishi mumkin.

[1]Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 2024-yil 28-iyun kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida yoshlar haqida quyidagi jumlani aytib o‘tdilar. “Yoshlarimiz hayotda munosib o‘rnini topishi uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to‘liq ishga solamiz. Sizlar mamlakatimizning ishonchi va tayanchi, kelajagimiz bunyodkorlarisiz”.[1]

Muhokama va natijalar. Yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyamizda bola huquqlari to‘laqonli amalga oshirilishi va bolani har qanday sharoitda davlat tomonidan muhofaza qilinishi mustahkamlangan. Ushbu oliy yuridik normativ- huquqiy hujjatning 77-moddasida ota-onalar tomonidan o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar g‘amxo‘rlik qilishlari, asrab-avaylashlari, sog‘lom muhitda kamol topishi uchun zaruriy harakatlarni amalga oshirishlari nazarda tutilgan bo‘lib ota-onalarga nisbatan bolani voyaga yetish yoshiga qadar ulg‘aytirishi hamda rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib berishi ko‘zda tutilgan. Mazkur moddaning ikkinchi qismida davlat va jamiyat birgalikda yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni ulg‘aytirishi, tarbiyalashi, ularning ta’lim olishi va har tomonlama sog‘lom kamol topishlari uchun chora-tadbirlar amalga oshirishi va ushbu harakatlar davlat tomonidan ta’minlanishi belgilangan.[2]

Shu bilan birga, yangilangan Konstitutsiyaning 78-moddasida farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’iy nazar, qonun oldida teng hisoblanishlari, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish davlatning majburiyati ekanligi belgilangan. Shu bilan birga onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi va davlat hamda jamiyat bolalarda vatanga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirish bo‘yicha harakat olib borishi nazarda tutilgan.[2] Yuqorida muhokama qilib o‘tgan konstitutsiyamizda belgilangan qoidalardan tushunishimiz mumkinki, ot-onalar o‘z farzandlarini sog‘lom hayot tarzida ulg‘aytirishlari, voyaga yetguniga qadar boqishlari va vataniga xizmat qiladigan sadoqatli farzand shakllantirishlari ota-onalarning majburiyati ekanligi tushuniladi. Shuningdek, ota-onalar tomonidan mazkur majburiyatlar to‘laqonli bajarilmagan taqdirda turli xil ko‘ngilsiz holatlar sodir bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida; ota-onalar farzandlariga birgalikda e’tibor qaratmasalar, axloq nuqtayi nazaridan jamiyatga zarar yetkazuvchi shaxs yuzaga kelishiga va oila nomiga salbiy fikrlar olib kelishiga sabab bo‘ladi. Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asl sababi ham oilada e’tiborning kamligi, yetarlicha nazorat o‘rnatilmaganligi va oilada halovatning yo‘qligidan dalolat beradi. Voyaga

[1] ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari” ISSUE 11,Volume 2, November 2022 https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer

yetmagan yoshlar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi kishini taajjubga soladi.

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy javobgarligi va ularga nisbatan jazo choralarini qo‘llanilishi jinoyat qonunchiligining ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, mazkur javobgarlik belgilovchi huquqiy normalar adolat, insonparvarlik, qonuniylik va bu kabi boshqa prinsiplar harakatga kelishiga huquqiy asos bo‘ladi. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning ruhiy holatini va ularda ta’sirchanlik hamda taqlidchilik xususiyati yuqori bo‘lganligini hisobga olib, ularga nisbatan yengilroq turdagi jazo choralarini qo‘llanilishi jinoiy jazo maqsadlariga erishish imkonini berishi ko‘zda tutilgan. Har bir jinoyat o‘zining ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etish vaqti va uslubi hamda sharoiti bilan qolgan jinoyat turlaridan farq qiladi. Jinoyat qonunchiligiga ko‘ra, 14 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs voyaga yetmagan hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxs hisoblanishi uchun 18 yoshga to‘lmagan bo‘lishi kerak.[1]

Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq, jinoiy huquqiy munosabatlarda ishtirok etganlik uchun javobgarlik masalasining qo‘llanilishi umumiy subyekt yoshi sifatida 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxslarga tatbiq etilishi nazarda tutilgan. Mazkur normativ huquqiy hujjatga muvofiq, ayrim jinoyat turlari uchun subyekt yoshi 14 yosh etib belgilangan. Masalan: qasddan odam o‘ldirish (JK 97-m 1-q), qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi), qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 105-m), nomusga tegish (JK 118-m), bosqinchilik (JK 164-m), tovlamachilik (JK 165-m), talonchilik (JK 166-m), firibgarlik (JK 168-m), o‘g‘irlik (JK 169-m), bezorilik (JK 277-m.2-,3-q.)[1]

Ta’kidlash joizki, Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning miqdori so‘ngi vaqtlarda ortib borayotgani kishini taajjubga solmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda 3600 nafar voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir etgan. Mazkur ko‘rsatkich, oldingi besh yil davomidagi sodir etilgan jinoyatlar ko‘rsatkichidan 4.4 barobarga oshganini ko‘rsatmoqda. Yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan tovlamachilik 70%, bezorilik 60%, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish 40%, nomusga tegish va odam o‘ldirishga urinish jinoyatlari 20% ko‘paygani aniqlangan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar eng ko‘p 700 nafari Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Keyingi o‘rinlarda, Toshkent shahri – 545, Namangan viloyati – 451, va Toshkent viloyati – 345 kishi. Eng past ko‘rsatkichlar Jizzax – 54, Navoiy – 62, va Xorazm – 66 nafar voyaga yetmagan shaxs qayd etilgan.[2] Ushbu statistik ma’lumotlar orqali jamiyatdagi barcha insonlar voyaga

[1] ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari” ISSUE 11,Volume 2, November 2022 https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer

yetmagan yoshlarni jinoyat sodir etishdan qaytarishni, har bir jinoyat natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar va jinoyatga jazo muqarrarligi haqida muntazam ravishda fuqarolarga asosan yoshlarga ma’lumotlar berib borilishi lozim hisoblanadi. Rivojlangan texnologiyalar yordamida jinoyatning salbiy taraflari to‘g‘risida videorolik ishlab chiqilishi va ommaviy axborot vositalarida doimiy suratda ko‘rsatib turilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur harakatlar natijasi asosan maktabgacha hamda boshlang‘ich ta’lim darajasidagi bolalarda samarali namoyon bo‘ladi. Buning sababi sifatida, ushbu darajadagi bolalarda chuqur tafakkur xususiyatlari yuqori bo‘ladi. Bu o‘z navbatida yoshlarda jinoyatning salbiy taraflari hamda uning oqibatlari haqida tushunchalar ertaroq shakllanishiga olib keladi. Qolaversa, bosh qomusimizning 80-moddasida voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishga majburliklari belgilangan bo‘lib, farzandlar voyaga yetganlarida moliyaviy va ijtimoiy salohiyatga ega bo‘lgan vaqtda o‘zlarining ota-onalariga mehr-muruvvat ko‘rsatishlari lozimligini ta’kidlaydi.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va daxlsizliklari nazarda tutilgan bo‘lib, davlat tomonidan muhofaza etiladi. Ularning har tomonlama rivojlanishlari va komil inson sifatida shakllanishlari uchun sharoitlar yaratib berish davlatning majburiyati hisoblanadi. Shuningdek, davlat tomonidan yoshlarning huquqlari, erkinliklarini ta’minlash va davlat hamda jamiyat hayotida yoshlarning faol ishtirok etishi rag‘batlantirilishi konstitutsiyada mustahkamlangan. Shu bilan birga, davlat tomonidan yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi hukumatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqorida voyaga yetmagan shaxslarning konstitutsiyada belgilangan huquqlari va mazkur huquqlardan besamar foydalanish natijasida yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar haqida mulohazalarni muhokama qilib o‘tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
1. 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz
4. ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari” ISSUE 11,Volume 2, November 2022
5. http://lex.uz//docs/-6445145

6. https://president.uz/oz
7. info@stat.uz https://www.stat.uz/uz/
8. https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o‘ziga-xos-xususiyatlari/viewer

IJTIMOIY SOHANI RIVOJLANTIRISHDA YANGI KONSTITUTSIYANING O‘RNI

Rustamov A.B.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti magistratura talabasi.

“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniy e’tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 17-oktabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘ttiz ikki yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, Asosiy qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalar atrofida fuqarolarni jipslashtirish, “Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi!” degan bosh g‘oya’ni o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda.[1]

Aslida ham, mamlakatimizda 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz berdi. Bu, o‘z navbatida, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganidan yaqqol dalolatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston xalqi tomonidan “vakolatli vakillari timsolida”, ya’ni parlament a’zolari – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli ravishda, mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahririni “yagona O‘zbekiston xalqi” bevosita umumxalq referendumida – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo‘lib, unda mamlakatimizning huquqiy, demokratik jihatdan rivojlantirishning asosiy prinsiplari belgilangan.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi 30-apreldagi referendumda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi

konstitutsiyaviy qonuni 1-maydan kuchga kirdi. U 6 bo‘lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat bo‘ladi.

Shu ma’noda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o‘zidir. Fuqarolarning xohish-irodasi esa islohotlarning manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy islohot haqida fikr yuritganda, dastavval, Prezidentimiz tashabbusi bilan so‘nggi yillarda qabul qilingan uchta kompleks taraqqiyot strategiyasini alohida ta’kidlash lozim.

Birinchisi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari yanada takomillashtirildi.[2]

Ikkinchisi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida izchil konstitutsiyaviy islohot amalga oshirildi.[3]

Uchinchisi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini hayotga tatbiq etishda yangilangan Asosiy qonunimizning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijrosini ta’minlashga qaratilgan ta’sirchan choralar belgilandi. [4]

Ma’lumki, 2021 yilgi O‘zbekiston Prezidenti saylovi jarayonida barcha nomzodlarning elektorat vakillari bilan uchrashuvlari chog‘ida hayotiy talabdan kelib chiqqan va mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lgan muhim taklif ilgari surildi. Bu – konstitutsiyaviy islohotni amalga oshirish bilan bog‘liq edi.

O‘z navbatida, 2021 yil 6 noyabrdagi yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqida konstitutsiyaviy islohotning nazariy asosi sifatida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini belgilab berdi. Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida ham konstitutsiyaviy islohotga alohida bir fasl bag‘ishlangan.

Davlatimiz rahbarining 2022 yilda nashrdan chiqqan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobidagi alohida bir fasl aynan “Konstitutsiyaviy islohotlar – Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi obyektiv zarurat”, deb nomlangan. Unda saylovoldi uchrashuvlari paytida xalq bilan muloqot jarayonida o‘rtaga tashlangan muhim taklif va tashabbuslar, bugungi taraqqiyotimiz va istiqbol rejalariga oid xulosalar o‘z aksini topgan.

Shu ma’noda, O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotning bosh g‘oyaviy ilhomlantiruvchisi, shubhasiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hisoblanadi. Konstitutsiyaviy islohotning asosiy tashabbuskori esa mamlakatimiz aholisining keng qatlamidir.

Zamonga mos harakat va o‘zgarishlarni talab etayotgan bugungi shiddatli davr mezonlariga javob beradigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo‘lish – milliy davlatchilik an’analarimizga, xalqimiz manfaatlariga munosib ishdir. Dunyo mamlakatlarining rivojlanish amaliyoti ham konstitutsiyaviy qonunchilik izchil va muttasil takomillashib borishi zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyaning IX va XX boblaridagi moddalar, ya’ni:

43-moddasida. Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi.

Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag‘batlantiradi.

115-moddasida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

1) samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va budjet siyosati amalga oshirilishi, ilm-fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo‘ladi;

2) barqaror iqtisodiy o‘sishni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qulay investitsiyaviy muhitni yaratish, hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo‘yicha choralar ko‘radi;

3) aholini, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi;

4) atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

5) yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini ta’minlaydi, oilani qo‘llab-quvvatlash, mustahkamlash va himoya qilish, an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash bo‘yicha choralar ko‘radi;

6) fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta’minlaydi;

7) fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

8) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi;

9) ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi;

10) ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta’minlash, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha choralar ko‘radi;

11) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma’ruzalarni taqdim etadi;

12) ushbu Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.[5]

Ushbu moddalar davlatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartishga qaratilgan ustuvor vazifalarni o‘z ichiga olganini yaqqol dalilidir.

Xulosa qilib aytganda, yangi Konstitutsiya O‘zbekistonning ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Unda fuqarolarning ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, va ish bilan ta’minlanish kabi asosiy huquqlari kafolatlangan bo‘lib, bu huquqlarni amalga oshirishda davlatning majburiyatlari aniq belgilangan. Shu bilan birga, yangi Konstitutsiya ijtimoiy tenglik, adolat va fuqarolar o‘rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Fuqarolar faolligi va jamoatchilik nazoratining oshirilishi ijtimoiy masalalarni hal qilishda davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Davlatning ijtimoiy sohadagi javobgarligi oshirilishi ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga, inson kapitalini rivojlantirish esa iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Yangi Konstitutsiya orqali ijtimoiy soha va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va adolatli jamiyatni barpo etish imkoniyati kengayadi. Shu tariqa, yangi Konstitutsiya mamlakatning ijtimoiy rivojlanishidagi muhim va asosiy huquqiy hujjat sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 30.04.2023-yil https://lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 17.10.2024 yildagi F-53-son https://lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son https://lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son https://lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son https://lex.uz.

TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATIDA XAVOTIRLANISH NAMOYON BO‘LISHINING METODOLOGIK XUSUSIYATLARI YANGI KONSTITUTSIYA TALQINI OSTIDA

Boboxolova Sh.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi.

Ushbu tezisda O‘zbekistonning yangi konstitutsiyasi talqini ostida talabalarning o‘quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo‘lishining metodologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilindi. Barchamizga yaxshi ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi yangi konstitutsiyasining bosh g‘oyasi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangiliklar va imkoniyatlarni taqdim etishdan iborat. Talabalarda xavotirlanishning psixologik, sotsiologik va pedagogik jihatlari o‘rganilib, bu jarayonni yengish uchun qo‘llaniladigan strategiyalar va metodlarni ushbu ishimizda keltirib o‘tishga harakat qildik.

Tezisda, talabalarning o‘quv muhitida yuzaga keladigan xavotir manbalarini aniqlash, psixologik yordam va maslahat xizmatlari orqali xavotirni kamaytirish imkoniyatlarini muhokama qilishga, shuningdek, yangi Konstitutsiyaning talabalarga ta’siri va ularning huquqlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilishga harakat qildik.

Mavzu ostidagi ushbu tezisimizni bir qancha metodologik yondashuvlar orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasida talaba yoshlarga bo‘lgan e’tiborning qay darajada muhim ekanligini yoshlarga bo‘lgan e’tibor hamda ularning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi va ta’limiga bo‘lgan e’tibor asosida tahlil qilishimiz mumkin. “O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi ta’lim sohasiga oid bir nechta moddalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Xususan, Konstitutsiyaning 44-moddasi ikkinchi qismida bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi belgilangan.

Shuningdek:

- Har kim ta’lim olish huquqiga ega va Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir (50-modda).

- O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

- Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi (52-modda).

- Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi (57-modda).

- Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar (77-modda).

- Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi (79-modda)”.[1]

Yuqorida keltirilgan fikrlarimizning dalili sifatida quyidagilarni keltira olamiz:

- yoshlarni qo‘llab-quvvatlash: O‘zbekistonning yangi konstitutsiyasi yoshlar siyosatini rivojlantirish va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu hujjat yoshlar, shu jumladan talabalar orasida ruhiy salomatlikni yaxshilashga va ularning xavotirini kamaytirishga qaratilgan yangiliklar va imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi;

- ma’naviyat va ma’rifat: Konstitutsiya yoshlarni ma’naviy va ma’rifiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa albatta, talabalar orasida xavotirlanishni kamaytirishga va ularga kuchli ruhiy salomatlikni ta’minlashga yordam beradi.

Talabalarning o‘quv faoliyatida namoyon bo‘ladigan xavotirlanish tushunchasi aslida ularning psixologik, sotsiologik aspeklari hamda ta’lim jarayonidagi ijtimoiy, ichki va tashqi omillari bilan bevosita bog‘langan holda yuzaga kelishi barchamizga ma’lum. Shunday ekan, ta’lim jarayoni sifatiga keskin ta’sirini o‘tkazadigan bunday muammolar bilan quyidagi yechim va takliflarimiz asosida shakllantirilgan psixologik strategiyamiz orqali himoyalanishimiz mumkin.

[1] https://www.uzedu.uz/uz/news/1038.

- Mentorlik va maslahat xizmatlari: Talabalarga o‘quv jarayonida psixologik yordam ko‘rsatish va xavotir darajasini pasaytirishga yordam berish. O‘qituvchilar va ta’lim muassasasi psixologlari tomonidan ko‘rsatiladigan treninglar, suhbatlar kabi psixologik yordamlar.
- Stressni boshqarish dasturlari: Talabalarga stressni kamaytirish, o‘z vaqtida boshqarish va hissiy barqarorlikni oshirish bo‘yicha treninglar tashkil etish va ularni mavzuga aloqador bo‘lgan ilmiy seminarlarda ishtiroklarini ta’minlash.
- O‘zbekiston konstitutsiyasining ta’siri: Yangi Konstitutsiyaning talabalarga ta’sirini o‘rganish, talabalarning huquqlari va erkinliklaridan foydalanish imkoniyatlarini ularga anglatish va o‘rgatishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan dasturlar va xizmatlar orqali talabalardagi qo‘rquv va xavotirlanish omillari darajasini pasaytirishga erishish mumkin. Yanada samaraliroq natijaga erishish uchun esa, ta’lim muassasalarida psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishimiz, O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasi talabalarning huquqlarini himoya qilishini va ularga o‘zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan dastur ekanligi ularga anglatish, ta’lim muassasalarida psixologik yordam ko‘rsatish, stressni boshqarish dasturlarini joriy etish va yoshlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash orqali ularning xavotirini yo‘qotishga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uni moliyalashtirishning dolzarb masalalari- Urganch davlat universiteti dot.i.f.f.d (PHD) Bekberganov Alisher Sherov ilmiy maqolasining kirish qismidan olindi.

2. “Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies” konfrensiyasi “Talabalarning o‘quv jarayoniga moslashtirishning pedagogikpsixologik xususiyatlari” nomli maqola. Muallif: Raximov Osiyo xalqaro universiteti magistranti Zoyir Jumayevich.

3. MudrikA. V. Vospitanie starsheklassnikov. M.: Prosveщenie, 1976.

4. Semenova V. V. Sotsiologiya molodeji // Sotsiologiya v Rossii / pod red. V. A. YAdova. M., 1998. S. 140-141.

5. https://cyberleninka.ru.

6. https://www.uzedu.uz/uz/news/1038.

TA’LIM SOHASIGA YANGICHA NIGOH BILAN YONDASHUV

Anorboyev I.B.
Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus fakultet
401-guruh talabasi,

G‘ulomqodirova D.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus fakultet
103-guruh talabasi.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilyapti. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilyapti. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi.

Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta’minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori

2018-yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta’lim muassasasi o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi.

Oliy ta’limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingtaga yetkazilishi oliy ta’limga qamrab olish ko‘lamini yana-da kengaytirdi.

Ta’lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta’lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo‘ldi.

Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa

sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yana-da keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg‘unlashtirishga qaratganligi bejiz emas. Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko‘plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e’tiborning amaliy ifodasi edi.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, intellektual mulk ulushi Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. 2020-yilning 12-oktabr kuni Prezidentimiz raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish ham “Intellektual mulkni himoya qilish – Uchinchi uyg‘onish davri uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qiladi” mavzusiga bag‘ishlangan edi. O‘shanda davlatimiz rahbari patent egalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash zarurligiga alohida e’tibor qaratdi.

Shu ma’noda O‘zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo‘yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari va 2017-yil 7-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, “Yoshlarga oid Davlat dasturi”, yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi.

Shunga ko‘ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta’lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo‘ldi deyishimiz mumkin.

MAXSUS VOSITALARNI QO‘LLASHNING HUQUQIY ASOSLARIDA KONSTITUTSIYA OMILI

Rahimov Sh.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura fakulteti tinglovchisi, leytenant.

Yaqin yillar davomida yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan biri sifatida hech shubhasiz Konstitutsiyamizning yangi tahrirda chop etilganligi va unda erkin va ozod davlatchilik va inson qiyofasining yanada kuchli jonlanganligini ko‘rishimiz shubhasiz. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunlarning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” degan ezgu tamayilni ro‘yobga chiqatish, Konstutsiya va qonun ustivorligi, har bir fuqaroni tinch va xavfsiz yashash sharoitini ta’minlash amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatni tashkil etadi va davlatimiz siyosatining muhim siyosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Shu asosda huquq tartibot idoralari xodimlari fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdek mas’uliyatli vazifani bajarib kelishmoqda.

So‘ngi yillarda esa aynan huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini qonuniy jihatdan yanada mustahkamlaydigan bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi. Bunga misol, 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Milliy gvardiya to‘g‘risidagi” qonunni keltirsak. Har bir qonun huquqiy jihatdan konstitutsiyaga mos kelishi va uning har bir moddasini qo‘llab quvvatlash zamirida yaratiladi. Buning isboti sifatida “Milliy gvardiya to‘g‘risida” gi qonunning 5-moddasi. Qonuniylik prinsipi hisoblanadi. Unga

ko‘ra : “Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etishi hamda ularni bajarishi shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chetga chiqish, ularning sabablari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, qonuniylikni buzishdir va u belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi[1]”, deb aniq tarzda konstitutsiya ushbu qonun uchun ham yaratuvchi rolida ekanligini anglatadi.

Shuningdek, ushbu qonunning 6-moddasi Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish prinsipi hisoblanadi va “Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) o‘z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish asosida amalga oshiradi. Milliy gvardiya fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlaydi”[2]. Endi esa Konstitutsiyamizning ikkinchi bo‘lim. “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan V bobi Umumiy qoidalarining 19-moddasida aks etgan “O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart[3]” jumlalari ham aynan ushbu qonunda ham bosh qomusimizdan andoza olganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yana bir muhim jihatlardan biri aynan qonunning amaliy ahamiyati borasida. Masalan istirohat bog‘larida, sayilgohlarda, davlat idoralarining kiraverishida va boshqa joylarda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlarining xizmat olib borayotganligini va ularning yonida bir qancha maxsus vositalar (rezina tayoqlar, qo‘l kishanlari va aerozollarni ko‘rishimiz ham tayin. Ular o‘zi qachon va qanday vaqtlarda qo‘llanilishi esa barchamizda qiziqish uyg‘otishi tabiiy.

2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Milliy gvardiya to‘g‘risidagi” qonun ushbu savollarga javob beradi va aynan shu sohaning huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu qonunning 30-moddasi aynan “Maxsus vositalarni qo‘llash”

[1] 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Milliy gvardiya to‘g‘risidagi” qonun
[2] 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Milliy gvardiya to‘g‘risidagi” qonun
[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)*

deb nomlangan va quyidagi hollarda Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) maxsus vositalarni:

fuqaroga yoki Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qilingan hujumni qaytarishda;

jinoyatga yoki ma’muriy huquqbuzarlikka barham berishda;

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qarshilik ko‘rsatilishiga barham berishda;

jinoyatni sodir etishi chog‘ida yoki uni sodir etganidan keyin darhol ko‘rib qolingan, yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda;

qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushlashda;

ushlab turilgan shaxslarni olib borish va qo‘riqlashda, shuningdek qochishga urinishini, atrofdagilarga yoki o‘ziga zarar yetkazishini bartaraf etish maqsadida;

zo‘ravonlik ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga hamda boshqa g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarga chek qo‘yishda;

haydovchisi Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining (xodimining) to‘xtash to‘g‘risidagi talabini bajarmagan transport vositasini to‘xtatishda;

jinoyatlar yoki ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etayotgan yoxud sodir etgan shaxslarni aniqlashda;

muhofaza qilinadigan obyektlarni himoya qilishda, g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarni sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘sib qo‘yishda qo‘llash huquqiga ega.

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) quyidagi maxsus vositalarni:

a) rezina tayoqlarni, shikastlantiruvchi qurolni, qo‘lkishanlarni yoki boshqa bog‘lash vositalarini, elektroshok qurilmalarini, ta’sirlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan vositalarni, xizmat hayvonlarini quyidagi hollarda:

fuqaroga yoki Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qilingan hujumni qaytarishda;

jinoyatga barham berishda;

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisiga (xodimiga) qarshilik ko‘rsatilishiga barham berishda;

jinoyatni sodir etishi chog‘ida ko‘rib qolingan yoki uni sodir etganidan keyin darhol yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda;

qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushlashda;

zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘sishda;

b) maxsus bo‘yovchi va markirovka qiluvchi vositalar, muhofaza qilinadigan obyektlarni (hududlarni) va shaxslarni himoya qilish, g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘sish vositalarini quyidagi hollarda:

muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘sishda;

v) chalg‘itma ta’sir ko‘rsatuvchi nur-tovush moslamalarini quyidagi hollarda:

zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

muhofaza qilinadigan obyektlarni va shaxslarni himoya qilishda;

g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘sishda;

g) zirhli mashinalar, maxsus mashinalar, suv bilan zarba beruvchi mashinalar va katerlarni quyidagi hollarda:

qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushlashda;

zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

davlat hokimiyati va huquq-tartibot organlari vakillariga nisbatan kuch ishlatish bilan bog‘liq ommaviy tartibsizliklarga hamda ruxsat etilmagan mitinglarga chek qo‘yishda qo‘llash huquqiga ega.

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) ushbu Qonunda o‘qotar qurolni qo‘llash ruxsat etilgan barcha hollarda maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko‘rinib turgan shaxslarga hamda yoshi aniq ko‘rinib turgan yoki ma’lum bo‘lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan maxsus vositalarni, shu jumladan shikastlantiruvchi qurolni qo‘llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko‘rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) hayoti va sog‘lig‘iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo‘lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Odamning boshiga, bo‘yniga, o‘mrov suyagiga, qorniga, jinsiy a’zolariga, yurak sohasiga rezina tayoq bilan zarbalar berish taqiqlanadi, bundan odam qurolli qarshilik ko‘rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) hayoti va sog‘lig‘iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo‘lib hujum qilganligi hollari mustasno[1]-deb, aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Xulosa o‘rnida maxsus vositalrni qo‘llash nafaqat Konstitutsiyamizning qonundagi ifodasi, balki butun dunyo e’tirof etgan va tan olgan “Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasi”ning ham amaldagi aksi hisoblanadi. Misol uchun, Deklaratsiyaning 5-moddasida hech kimning qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerakligi belgilangan bo‘lsa, Konstitutsiyamizning 26-moddasida insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz ekani, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi qayd etilgan. Shu bilan birga, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi qat’iy belgilangan.

Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg‘in qilinishi mumkin emasligiga oid normalar Deklaratsiyaning 9-moddasida, Yangilangan Konstitutsiyamizning esa 27-moddasida mustahkamlangan.

Bosh qomusimizning 28-moddasiga ko‘ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz, deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi. Ushbu norma Deklaratsiyaning 11-moddasida belgilanganligini ma’lumot uchun aytib o‘tish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Milliy gvardiya to‘g‘risidagi” qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni (1991-yil 17-may)
4. Mirziyoyev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash -

yurt taraqiyoti va xalq farovonligini garovi”. Toshkent, O‘zbekiston
5. Lex.uz
6. uza.uz

[1] 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Milliy gvardiya to‘g‘risidagi” qonun

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYAMIZDA MILLIY MANFAATLARINI YUKSALTIRISH YO‘LIDA XALQARO HAMKORLIK VA HARBIY DIPLOMATIYA SIYOSATI AHAMIYATI

Toshmuxammatov A.Y.
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan,

Meliqo‘ziyev S.O‘.
Yakkasaroy tumani Qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘ining AK va QTVJQ bo‘yicha o‘rinbosari, kapitan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida xalqaro hamkorlik va harbiy diplomatiya yutuqlariga erishildi. Bugungi kunda 140 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, bu aloqalar ijtimoiy, iqtisodiy, iqtisodiy, ilmiy-ta’lim va harbiy sohalarni oladi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan tajribani chuqur o‘rganish va uni milliy manfaatlar asosida tatbiq etish davlat siyosatining mustahkam yo‘nalishiga aylandi.

Qadimdan O‘rta osiyo barcha xalqlar va milliy manfaatlar to‘qnashgan xalqaro chorraha bo‘lgan. Hozirgi rivojlanayotgan asrimizda ham mamlakatimiz jahondagi 140 ga yaqin davlatlar bilan diplomatik a’loqalarni o‘rnatgan. Bunday a’loqalar turli sohalarda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, fan-ta’lim, sport va albatta milliy haq-huquqlarimiz himoyasi yo‘lidagi harbiy sohani ham o‘z ichiga oladi. Xususan, lavozimga kirishgan ilk kunlaridanoq prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev har bir sohani rivojlantirishda avvalo xorij tajribasini chuqur o‘rganib, davlat siyosatini bevosita yuksaltirishga katta ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab o‘tgan edilar. Bu borada vazifalar Asosiy Qomusimizning 17-moddasida, “….. boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik yoki kuch bilan taxdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, shuningdek, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari va normalariga asoslanadi”. deya ta’kidlanganidek amalga oshirilmoqda. So‘ngi yillarda mamlakatimizning janubiy hududlarida bo‘layotgan harbiy-siyosiy mojarolar, yevropa mamlakatlarining doimiy tarzdagi siyosiy notinchligi bizga kelgusida tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishda qanday dolzarb masalalarni oldimizga qo‘yishi bizga noma’lum, shunday ekan bu tashqi siyosat borasida ma’lum bir darajada bee’tibor bo‘lish kelajakda asoratli bo‘lishi ehtimoli ham yo‘q emas. Shu kabi mulohazalarning amaliy yechimi sifatida quyidagi say-harakatlarni keltirish mumkin:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyekti sifatida o‘rni va rolini yana-da mustahkamlash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekiston

atrofida xavfsizlik, barqarorlik va do‘stona qo‘shnichilik munosabatlar mintaqasini yaratish;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, dunyo hamjamiyatiga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida obyektiv axborotni yetkazish;

- O‘zbekiston tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasini, shuningdek xalqaro hamkorlikning shartnoma-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- O‘zbekiston davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini tartibga solish.

Umuman, O‘zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, mamlakatning tashqi oshkoraligini ilgari surishga hamda regional va ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Shu munosabat bilan Turkiya, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Afg‘oniston, Qozog‘iston, Turkmaniston kabi dunyo mamlakatlari bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yana-da rivojlantirishga doir bir qator tegishli dasturiy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan, “yo‘l xaritalari” tasdiqlangan.

Oliy va yuqori darajalardagi tashriflar davomida mamlakatning milliy manfaatlariga javob beradigan hamda yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan faol, ochiq, pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosiy yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tashqi ishlar vazirligida yangi bo‘linmalar tashkil etildi, Belarus va Ummonda vakolatxonalar, Rossiya va Qozog‘istondagi shaharlarda bir qator bosh konsulliklar ochildi. Diplomatik faoliyatning iqtisodiy tarkibi kuchaytirildi.

Xalqaro maydondagi hamkorlik ilg‘or dunyo tajribasini o‘rganish, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni hal qilishga yordam berishi kerak, bu mamlakatda maksimal qulay amaliy va investitsion muhitni shakllantirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Respublika tashqi siyosiy strategiyasi xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni, ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish, mahalliy eksport geografiyasini kengaytirish sohasida yangi qirralarni ochdi.

Jahon banki “Biznes yuritish” reytingida mamlakat 7 ta pozitsiyaga ko‘tarildi va biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish ko‘rsatkichi bo‘yicha 190 ta davlat orasida 8-o‘rinni egalladi, eng yaxshi islohotchi mamlakatlar safiga kiritildi.

Dunyodagi eng obro‘li jurnallardan biri – “Economist” (Buyuk Britaniya) O‘zbekistonni yil mamlakati – 2017-yildan e’tiboran islohotlar eng jadal sur’atlar bilan amalga oshirilayotgan davlat sifatida e’tirof qildi.

O‘zbekiston 86 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz rejimni va 57 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan vizali rejimni joriy qildi. O‘tgan yilda mamlakatga 6,7 mln. xorijiy turist keldi — bu 2016-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,7 mln. yoki 3,3 baravar ko‘proqdir.

O‘zbekistonning amalga oshirilayotgan yangi tashqi siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, AQSHdagi Gudzon instituti Harbiy-siyosiy tadqiqotlar markazi direktori Richard Vays fikricha, O‘zbekistonning tashqi siyosiy tashabbuslari butun Markaziy Osiyo uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Respublika mavjud muammolarni birgalikda hal qilish g‘oyasidan iborat kun tartibini ilgari surmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan xorijiy tajribadan foydalanilgan holda fanni rivojlantirishga hamda xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga ham katta e’tibor qaratilgan.

Qolaversa, dastlab qo‘shni mamlakatlar bilan, keyinchalik esa Osiyoning rivojlangan davlatlari, Yevropa qit’asidaagi ko‘plab mamlakatlar bilan harbiy sohani rivojlantirish chora-tadbirlari ko‘rildi. Ushbu sohani rivojlantirishning huquqiy asoslari rivojlantirildi. Bu esa bevosita Konstitutsiyamizning 64-moddasidda belgilangan fuqarolik burchimizni dolzarbligini yanada oshirdi. Qurolli Kuchlarimizning har bir strukturasining umumiy manfaatlari mushtarakligini ta’minlab beruvchi qonun hujjati O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonuni ishlab chiqildi va qabul qilindi. Asosiy g‘oya esa Mudofaa doktrinasinig 2-moddasida aniq belgilab qo‘yildi. “O‘zbekiston Respublikasi Doktrinaning mudofaa xususiyatiga egaligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi hech bir davlatni o‘zining dushmani deb hisoblamaydi va barcha mamlakatlar bilan munosabatlarni mamlakat milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda, o‘zaro naf ko‘rish, teng huquqlilik hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch vositalar va muzokaralar yo‘li bilan hal qilish, davlatlararo shakllangan chegaralarning buzilmasligi va o‘zgarmasligini tan olish asosida quradi” deya ta’kidlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, Harbiy sohadagi mudofaa siyosatini ta’minlash, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmlarini rivojlantirish, Professional harbiy kadrlar xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasiga ko‘tarish, Harbiy-texnik sohadagi innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro hamkorliklar biz uchun juda muhim hisoblanadi, turli xil sohalarda katta tajribaga ega bo‘lsakkina turli xavflar bizni chetlab o‘tadi. Buning uchun asosiy talab nimalarda ekanligini aniqlab olish kerak.

Xalqaro hamkorlikni o‘rnatish, harbiy sohadagi mudofaa siyosatini yuksaltirish, mamlakatimizning xalqaro jinoyatchillikka qarshi kurash siyosatini yanada takomillashtirish, yetuk harbiy kadrlarni tayyorlash, Qurolli Kuchlarimizda kam sonli bo‘lgan harbiy-texnik ixtirochilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga bevosita chet elda malaka oshirish sharoitlarini yaratish. Bularning barchasiga o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlik va harbiy diplomatiya orqali yechim topish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida"gi Qonuni. №O‘RQ-458. 09.01.2018.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2021.
4. Jahon banki. “Biznes yuritish” hisoboti. 2021 yil.
5. “The Economist” jurnali. 2017-yil hisoboti.

KONSTITUTSIYA BOSH QOMUSIMIZ

Axmedov Y.Y.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura fakulteti tinglovchisi, mayor.

Konstitutsiya (lot. Consitutio –tuzilish, tuzuk) – davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya bu bizning faxr va iftixorimizdir. Konstitutsiya bu har bir davlatning asosiy ramzlaridan bo‘lib, uning jahon davlatlari o‘rtasida qadr-qimmatini bildiradi. Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o‘rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an’analardan kelib chiqib jahon andozalariga mos bo‘lib, xalqaro talablarga javob beradigan Mustaqil O‘zbekistonimizning bosh qomusi, yurtimiz istiqlolga erishgach, yangi mustaqil davlat maqomini qonuniy jihatdan mustahkamlash zarurati tug‘ilgach, 1992 yilning 8 dekabrida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan.

Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma’lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa – shunday munosabatlarning o‘zi, ya`ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o‘z shakliga ko‘ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo‘linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya — konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o‘sha masalalar

bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o‘z ichiga oladi, ya`ni qisman yozilgan bo‘ladi. O‘zgartirish kiritish usuli bo‘yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo‘linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo‘li bilan o‘zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a’zolari ovozining malakali ko‘pchiligi, ba`zan esa referendum o‘tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya subyektlari tomonidan ratifikatsiyalash va shahrik.) o‘zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo‘yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo‘linadi.

Davlat faoliyatining turli sohalarida konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. „Konstitutsiya“ atamasi Qadimgi Rimdayoq bor edi (imperator konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temurning „Temur tuzuklari“ Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda O‘rta Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta`sir o‘tkazgan. Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo‘lgan konstitutsiyalarning ikki guruhini vujudga keltirdi. Birinchi guruh — hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski konstitutsiyalar. Ikkinchi guruhga XX asrning ikkinchi yarmida qabul qilingan „yangi avlod“ konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining, Konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat qilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko‘payishi bilan farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil davlatimizning bosh qomusi bo‘lib, respublikamizda qabul qilinayotgan qonun va qonun osti hujjatlari Konstitutsiya asosida shakllantiriladi va hayotga tadbiq etiladi.

Diyorimiz mustaqillikka erishgach, milliy istiqlol haqidagi azaliy orzu-umidlarimiz amalga oshdi. Natijada asriy qadriyatlarimiz tiklandi va rivojlanib bormoqda. Madaniyatimiz, dinimiz o‘zining tabiiy-tarixiy, milliy, diniy asoslariga qaytmoqda. Ayniqsa ma’naviy merosni o‘rganish, ajdodlarimiz qoldirib ketgan turli sohalardagi asarlarni ommalashtirish, ona tili va dinimiz rivojlanishi uchun sharoit yaratildi.

Konstitutsiya – davlatning asosiy hujjati bo‘lib, davlat boshqaruvi, hukumat organlari faoliyatining tartibi va tamoyillari, davlat, jamiyat, fuqarolarning huquq hamda majburiyatlari u bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ushbu maqsadlarning barchasiga muvofiq, uyg‘un va hamohangdir. O‘zbekistonning asosiy qonuni ushbu muhim vazifalarni hayotga tatbiq etishda mustahkam asos bo‘lib xizmat qilayotir. Unda

inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qiymati, diniy e’tiqodi va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyamizda jinsi, millati, dini, irqi, yoshi, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, barcha fuqarolar teng huquqli deb e’lon qilingan bo‘lib, unda inson huquqlari va e’tiqod erkinligini kamsitadigan birorta ham modda yo‘qdir.

Asosiy qomusimiz hatto insoniyatni qamrab olgan ona tabiat, yer osti va yer usti tabiiy boyliklarigacha qonun himoyasida ekanligi, hozirgi kunda yer yuzida mavjud davlatlarning deyarli barchasi o‘zlarining Konstitutsiyasiga ega bo‘lmagan bir paytda, milliy ramzlar qatorida tilga olinadigan Konstitutsiyaga bizning mamlakatimiz ega ekanligi baxtimiz albatta. Asosiy qonunimizda demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatining qiyofasi, o‘ziga xos belgi va xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Asosiy bosh qomusimizda shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanishi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega ekanligi haqida ham bayon etilgan bo‘lib bu esa o‘z navbatida xalq ishonadigan va suyanadigan armiyasiga egaligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugun yurtimizda keng qamrovli xalqchil islohotlar kechmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan barcha sa’y-harakatlarning asl mohiyati har bir O‘zbekiston fuqarosining hayotdan rozi bo‘lib yashashiga qaratilgan. Mamlakatimizda inson qadr-qimmati va sha’ni yuksak darajaga ko‘tarilgan. Vatanimizda yashovchi barcha fuqarolar ushbu Qomusda belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklardan keng va to‘liq foydalanmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yilning 1 may kunidan kuchga kirdi. Yangi tahrirdagi konstitutsiya 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra qabul qilindi. 1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga jami 15 marta o‘zgartirish kiritilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 ta bo‘lim, 27 ta bob va 155 ta moddadan iborat. Bu yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalqimizning orzu-istaklarini jamlanmasi bo‘ldi. Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o‘rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an’analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi jahon andozalariga mos bo‘lib, xalqaro talablarga javob beradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yurtimizning bosh qomusi-Konstitutsiyamizni o‘rganish hamda o‘z huquq va burchlarini bilish, qonun-qoidalarga rioya qilish, uning davlatimiz siyosatida muhim o‘rin tutishini anglash va o‘rganish har bir fuqaro uchun suv va havodek zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrirdagi Toshkent 2023-yil;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F-53-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”. Toshkent shahri 2024-yil 17 oktabr

3. Konstitutsiyaviy huquq darslik. Jamoat xavfsizligi universiteti Toshkent 2021-yil;

4. https://uzmarkaz.uz/news/yangi-O‘zbekistonda-amalga oshirla-yotgan islohotlar

5. Lex.uz

YANGI KONSTITUTSIYA – FAROVON HAYOTIMIZ POYDEVORI

Mirvohidov B.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura fakulteti tinglovchisi, leytenant,

Akramov J.M.
Jamoat xavfsizligi universiteti Rejalashtirish va jangovar tayyorgarlik bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik.

Yurtimizda amalga oshirilayotkan keng qamrovlik islohotlar aholimizga yengilliklar yaratish va turmush tarzini yanada yaxshilash maqsadida olib borilmoqda. Yangi konstitutsiyamiz qabul qilinishi, undagi o‘zgarishlar ham albatta aholiga yanada yangi imkoniyatlar, keng qamrovlik ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy,shaxsiy huquq va erkinliklarni yanada mustahkamlandi, kafolatlandi.

Yangi Konstitutsiya – har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini tartibga soluvchi huquqiy asosdir. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasining mamlakat hayotidagi o‘rni, uning fuqarolarga taqdim etgan imkoniyatlari, farovon hayotni ta’minlashdagi roli, shuningdek, yangi Konstitutsiyaning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishdagi ta’siri tahlil qilinadi.

1. Metodologiya:

Ushbu maqola metodologik jihatdan huquqshunoslik, siyosatshunoslik va iqtisodiyotga oid tadqiqotlar asosida tayyorlangan. Maqolada o‘tkazilgan tadqiqotlar asosan quyidagi manbalarga tayanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi (2021-yilgi tahrir).
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisining rasmiy hujjatlari.
- Konstitutsiyaviy islohotlar bo‘yicha ilmiy maqolalar va monografiyalar.
- Davlat boshqaruvi, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy tizimlar haqida mavjud bo‘lgan ilmiy-tadqiqot materiallari.

Metodologik yondashuv huquqiy, siyosiy va iqtisodiy tahlilni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – yangi Konstitutsiyaning fuqarolar huquqlari, davlat boshqaruvi, ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini tahlil qilish.

2. Natijalar:

2.1. Yangi Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari va o‘zgarishlar

O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasi 2021-yilda mamlakatda amalga oshirilgan keng ko‘lamli konstitutsiyaviy islohotlar natijasida qabul qilindi. Ushbu Konstitutsiya davlat va jamiyatni yangicha qarashlar asosida tashkil etishga qaratilgan. Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Inson huquqlari va erkinliklari: Yangi Konstitutsiya odam huquqlarini yanada kengaytiradi, shu jumladan, shaxsiy xavfsizlik, ibodat erkinligi, fikrni erkin ifodalash va boshqa huquqlarni himoya qilishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, Konstitutsiya huquqni himoya qilish tizimini yanada mustahkamladi va sud tizimining mustaqilligini ta’minlashga e’tibor qaratdi.
2. Demokratik boshqaruv tizimi: Yangi Konstitutsiyada davlat hokimiyati organlarining taqsimlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Prezident, Oliy Majlis va sud hokimiyatining alohida mustaqilligi va o‘zaro bog‘liqligi ta’minlandi. Shuningdek, xalqning hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki yanada kengaytirildi.
3. Ijtimoiy adolat: Yangi Konstitutsiya jamiyatda adolatni ta’minlash, iqtisodiy tenglikni yaratish va fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishga katta urg‘u berdi. Fuqarolarni turli ijtimoiy xizmatlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, nafaqa va pensiya tizimlari orqali qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.
4. Huquqiy davlat: Yangi Konstitutsiya huquqiy davlat qurishni ta’minlaydi. Sudlar mustaqil, hukumat faoliyati qonuniy asosda amalga oshiriladi. Buning natijasida fuqarolarning huquqlari va erkinliklari yanada himoya qilinadi.

2.2. Yangi Konstitutsiyaning fuqarolar hayotiga ta’siri.

Yangi konstitutsiyaning eng muhim jihatlaridan biri fuqarolarning huquq va erkinliklarining kengaytirilganidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda fuqarolarni quyidagi asosiy huquqlar bilan ta’minlaydi:

1. Shaxsiy erkinlik va xavfsizlik: Konstitutsiya shaxsiy erkinlikni ta’minlaydi va odamning asossiz ravishda hibsga olinishi yoki erkinlikdan mahrum qilinishi mumkin emasligini kafolatlaydi.
2. Saylash va saylanish huquqi: Fuqarolar o‘z vakolatlarini amalga oshirishda, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish, davlatning boshqaruv tizimiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.
3. Mulk huquqi: Fuqarolar o‘z mulkini boshqarish, saqlash va ulardan foydalanish huquqiga ega. Mulkni davlat tomonidan noqonuniy ravishda tortib olish mumkin emas.
4. Ta’lim va sog‘liqni saqlash: Fuqarolar ta’lim olish va tibbiy yordamdan foydalanish huquqiga ega. Yangi Konstitutsiyada ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida davlatning mas’uliyati kuchaytirildi.
5. Ijtimoiy himoya: Yangi Konstitutsiya, ayniqsa, keksalar, nogironlar va muhtoj fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirdi. Davlat tomonidan barcha fuqarolarni teng huquqli va adolatli tarzda qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

2.3. Yangi Konstitutsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka ta’siri

Yangi Konstitutsiya O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Ushbu hujjat ijtimoiy adolatni, iqtisodiy tenglikni va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytiradi. Konstitutsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Iqtisodiy huquqlar: Yangi Konstitutsiya mulkchilik huquqini himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va bozor iqtisodiyotini yanada erkinlashtirishni ta’minlashga xizmat qiladi. Fuqarolar uchun iqtisodiy erkinliklar yaratildi, davlat aralashuvi esa faqat zarur hollarda amalga oshiriladi.
2. Mehnat huquqlari: Mehnat bozorida fuqarolarning erkinligi ta’minlanadi. Yangi Konstitutsiya ishchi huquqlarini, adolatli mehnat sharoitlarini kafolatlaydi. Bu esa o‘z navbatida fuqarolarning iqtisodiy farovonligini oshirishga yordam beradi.
3. Ijtimoiy adolat va tenglik: Yangi Konstitutsiya, fuqarolar o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga qaratilgan. Ijtimoiy himoya tizimi yanada kuchaytirilgan bo‘lib, barcha fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratish maqsadida ijtimoiy adolatning muhim tamoyillari belgilangan.

3. Muhokama

3.1. Yangi Konstitutsiyaning fuqarolar hayotidagi ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi fuqarolarning hayotini yanada erkin va farovon qilishga xizmat qiladi. Fuqarolarga taqdim

etilgan huquqlar va erkinliklar, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilashda muhim omil bo‘ladi. Shuningdek, Konstitutsiya jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish, adolatli va insonparvar tizimlarni rivojlantirishda asosiy huquqiy asosdir.

3.2. Yangi Konstitutsiyaning davlat boshqaruvidagi o‘rni

Yangi Konstitutsiya davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish va samarali qilishga xizmat qiladi. Davlat hokimiyati va fuqarolar o‘rtasidagi aloqalar qonuniy, adolatli va shaffof tarzda amalga oshiriladi. Buning natijasida fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki yanada kengayadi, davlat organlarining ish samaradorligi oshadi.

3.3. Yangi Konstitutsiyaning iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy tizimlar bilan bog‘liqligi

Yangi Konstitutsiya iqtisodiy islohotlar, davlat boshqaruvi va ijtimoiy tizimlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamladi. Iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolat ta’minlanishi, farovon hayotga yo‘l ochadi. Konstitutsiya, shuningdek, davlat va xususiy sektorda yangi hamkorliklar, investitsiyalarni jalb qilish va ish o‘rinlarini yaratishga imkon yaratadi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi, davlatning huquqiy asoslarini mustahkamlash, fuqarolar huquqlarini kengaytirish, adolatli jamiyat qurish va iqtisodiy rivojlanishning asosiy poydevorini yaratishda muhim hujjatdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik, inson huquqlarini himoya qilish va demokratik boshqaruvni ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi farovon hayotga olib boradigan mustahkam poydevor bo‘lib, jamiyatning har bir a’zosiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.04.2003 yildagi 470-II-son// https://www.lex.Uz2.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri 30.04.2023)// https://www.lex.Uz3.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.:O‘zbekiston, 2017.4.

4. 2022 –2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// https://www.lex.Uz

KONSTITUTSIYA ERKIN VA FARAVON HAYOT GAROVI

Tuxtaxunov D.Sh.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura fakulteti tinglovchisi, podpolkovnik.

Mamlakatimizda 1992-yil 8-dekabrda kuni konsitutsiya qabul qilingan kuni. Ushbu kun xalqimizda keng nishonlana boshlandi va tariximizda zarhal yozuvlar bilan yozildi. Eng quvonarligi shuki, yangi O‘zbekistonda yangicha qarash, yangicha huquq va erkinliklarni hayotda farovonlikni oshirish maqsadida 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi orqali aholining huquq va erkinliklari metindek mustahkamlab qo‘yildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024 yil 17-oktabr PF-53-son farmoyishiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘ttiz ikki yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, asosiy qonunimizda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalar atrofida fuqarolarni jipslashtirish, “Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi” degan bosh g‘oya’ni o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etilishi ko‘rsatib o‘tildi.

Unga ko‘ra barcha hududlarda aholining keng qatlamlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy anjumanlar, ochiq muloqot va suhbatlar, badiiy kechalar, festivallar, sayillar, madaniyat va sport tadbirlarini samarali o‘tkazish maqsadida atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san’at arboblari, keksa va yosh avlod vakillari, taniqli sportchilarni jalb etgan holda bayram tadbirlarini amalga oshirilishini belgilab berildi.

To‘la ishonch bilan aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o‘sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir.

Asosiy qonunimiz uch marta - 1992 yil sentabr va noyabr oylarida 2023-yil aprel oyida umumxalq muhokamasiga olib chiqildi. Loyihalar

muhokamasida keng jamoatchilik, butun xalqimiz faol ishtirok etib, mamlakatimizning taraqqiyot yo‘li, uning kelajagiga daxldor ko‘plab fikr-mulohazalar va takliflar bildirdi.

Shu kundan e’tiboran boshqa qonunlar va qonunosti hujjatlarida keltirilgan normalar konstitutsiyaga zid bo‘lsa, qonun va boshqa barcha normativ huquqiy hujjatlar konstitutsiyaga qarab o‘zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, Konsitiutsiyaning o‘zida bir qancha modda va boblar qo‘shildi, unga ko‘ra 6 bo‘lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat.

Shuni aytish joizki, I bob 2-moddasida “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”. Shuning o‘zida halq davlat uchun emas balki davlat xalq uchun xizmat qiladi degan ma’noda belgilab qo‘yildi.

“Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi” degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o‘tilganligini ochib berildi.

Shunga ko‘ra Konstitutsiya (lotincha “Constitution” - tuzilish, tuzuk) - davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab berdi.

2024-yil mamlakatimiz tarixiga siyosiy jarayonlarga boy yil sifatida kirib keldi. Bu yilning eng asosiy voqealaridan biri - O‘zbekiston konsitutsiyasining qabul qilinganiga 32 yil to‘lishidir. Ushbu buyuk ne’matga erishish yo‘li naqadar murakkab bo‘lgani, shunday dorilomon kunlarda yashayotganimizga shukronalar aytish, shu ma’noda, konsitutsiyasining qadriga yetishimiz har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Bugungi musaffo osmonimiz, dunyo hamjamiyatida o‘zimizga xos mavqega ega bo‘lishimiz, eng asosiysi, o‘zimizning konsitutsiyasini o‘rganib, o‘z taqdirimizni o‘zimiz belgilashimiz, ko‘hna tariximiz, boy merosimiz, qonunlarimiz, urf-odat va an’analarimizning qayta tiklanishi mustaqillikning eng katta inomlaridandir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Istiqlol yillarida iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, umuman, barcha sohalarda, ayniqsa, oxirgi o‘n yillikda mamlakat taraqqiyoti, xalq manfaati yo‘lida olib borilgan islohotlar va erishilgan yutuqlar nafaqat xalqimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan ham alohida e’tirof etilmoqda. Albatta, bunday yutuqlarga erishishimizning asosiy sababi barcha islohotlar zamirida xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerakligi, odamlarning ertaga emas, bugun y erkin va farovon hayot garovi bosh shior etib olinganidir. Eng asosiysi, xalqimiz ijobiy o‘zgarishlarni o‘z hayotlarida his qila boshladi va shu sababdan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarni

qo‘llab-quvvatlagan holda yagona maqsad yo‘lida mushtarak bo‘lib odimlashda davom etmoqda.

Inson uchun hamisha uning huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlaridan muhim qadriyat bo‘lmagan. Mamlakatimizda aynan bu borada keng ko‘lamli demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. Hech kimga sir emas, bir necha yillar muqaddam O‘zbekistonda inson huquqlari holati xalqaro hamjamiyat va tashkilotlar tomonidan qattiq tanqidga olinar, bu nafaqat yurtimiz nufuziga, balki mamlakatimiz iqtisodiy rivojiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatar edi.

Ta’kidlash lozimki, mazkur yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan chora tadbirlar, eng avvalo, O‘zbekistonning ochiqliq siyosati, inson huquqlari bo‘yicha faoliyat olib boradigan tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatish hamda mazkur sohada xalqaro hujjat me’yorlarini milliy qonunchilikka bosqichma bosqich implementatsiya qilinayotgani o‘z mevasini bera boshladi.

Mamlakatimizning barcha sohalarida erishilgan va erishilayotgan natijalar haqida davlatimiz konsitutsiyasining 32 yilligi arafasida uzoq gapirish mumkin. Eng muhimi, mamlakatimiz xalqi islohotlar natijalarini o‘tayotgan har bir kunida his qilib, tinch va osoyishta hayotiga shukrona keltirib yashamoqda. Zero, bosh maqsad odamlarni rozi qilishdir.

Bugungi kunda O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rni va mavqeyiga ega. Biz dunyodagi barcha davlatlar bilan yaqindan hamkorlik qilish va amaliy muloqot uchun ochiqmiz. Bo‘lib o‘tgan demokratik saylov jarayoni buning yana bir ishonchli va yaqqol tasdig‘i bo‘ldi.

Bu yo‘l - erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir.

Hozirgi vaqtda diyorimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o‘zaro hamjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Jamiyatimizda hukm surayotgan o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’iy nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta’minlash e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ularning o‘rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g‘oyalarni tarqatishga O‘zbekistonda mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi.

Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo‘lishni talab etmoqda. Shu borada O‘zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta’minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hech qanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo‘ladi.

Bugun prinsipial jihatdan g‘oyat muhim bo‘lgan bir fikrni yana ta’kidlab aytishni zarur deb bilaman: O‘zbekiston va uning bag‘rikeng xalqi tinchliksevar

siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida doimo mustahkam turib kelmoqda. Lekin, zarur bo‘lsa, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz. Shuning uchun prezidentimz, xalqimizga murojaat qilib, shuni aytgan edilar, “Bu masalada hech kimda hech qanday ikkilanish va shubha bo‘lmasligi lozim. Bunga bizning kuchimiz ham, qudratimiz ham yetarli”.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi konsitutsiyasining 32 yilligi va xalqimizning azaliy orzusi ushalgan kuni munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”- degan nutqlariga asoslanib konstitutsiya nafaqat hozirgi kundagi tinchligimizning asosi balki, kelajakimizning ham muhim yaratuvchisi ekanligini ta’kidlab o‘tishni joiz deb hisobladim

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil.
2. 2019-yil 18 fevral kunidagi 522 sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba’zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi qonuni;
4. https://uzmarkaz.uz/news/yangi-ozbekistonda-
5. https://www.uzairways.com/
6. https://www.lex.uz/.

KONSTITUTSIYAMIZDA IJTIMOIY DAVLAT TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

Baxtiyorov O.
Milliy gvardiya markaziy devoni kadrlar boshqarmasi katta ofitseri,

Omonov A.T.
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir. Ijtimoiy davlatning funksiyalari ancha keng. Bular aholi bandligini ta’minlash, jamiyat miqyosida moddiy boyliklarni budjet yo‘li bilan muvozanatlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash va muhofaza etish, ta’lim-tarbiya borasida g‘amxo‘rlik qilish, odamlarga tirikchilik uchun

eng kam me’yorni belgilash, oilani himoyalash, ijtimoiy ta’minot tizimini yo‘lga qo‘yish, sog‘liqni saqlash va sportni rivojlantirish kabi funksiyalardir. “Huquqiy davlat” va “ijtimoiy davlat” bir-biriga qarama-qarshi hodisa emas, balki inson manfaatlari va huquqlarini ustuvor biluvchi davlat rivojlanishining asoslaridir. Zero, huquqiy davlatning ham, ijtimoiy davlatning ham tub belgisi – inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash, inson qadrini munosib darajaga ko‘tarishdir. Ushbu masalaga ana shunday yondashish to‘g‘ri bo‘ladi. Sababi, ijtimoiy davlat – ham aholi farovonligi darajasiga, ham uning davlat huquqiy-siyosiy holatidagi mavqeyiga bog‘liq[1].

Ijtimoiy davlat insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi hisoblanadi. Ijtimoiy davlat g‘oyasi ancha oldin qaror topgan. Xususan, Qadimgi Rim imperiyasi zamonlarida “ijtimoiy yordam”, “jamoat ko‘magi” Nerva va Troya kabi imperatorlar davrida paydo bo‘lgan, ayniqsa Mark Avreli davrida keng yoyilgan. Faqat eramizning II asridan boshlab kambag‘allar va muhtojlarga tashkiliy yordam berish prinsipi umumbashariy e’tirofga sazovor bo‘ldi[2].

Hozirgi talqindagi **“**ijtimoiy davlat**”** tushunchasini ilmiy muomalaga ilk bor 1850-yilda nemis olimi Lorens fon Shteyn kiritgan. Uning fikricha, davlat o‘z fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi, barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o‘z hokimiyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta’minlashi lozim. Shu tariqa nemis huquqshunoslari L.fon Shteyn, R.fon Mol, F.Lassal ijtimoiy davlat nazariyasining asoschilari sanaladilar va bu ta’limot asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran shakllangan. “Ijtmoiy davlat” o‘z tarixiy rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o‘tgan[3]:

I bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining vujudga kelishi (1880-1914-yillar);

II bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining mujassamlashuvi va keng yoyilishi (1918-1940-yillar);

III bosqich – ijtimoiy davlat ta’limotining “oltin asri” (1945-1975-yillar);

IV bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining “tuzilmaviy takomillashuvi” (1990-yillardan hozirga qadar).

“Ijtimoiylik”ning asosiy sharti – inson shaxsiga, uning sha’ni, qadr-qimmati, erkiga asrab-avaylab munosabatda bo‘lishdan iborat. Davlatning mohiyati uning faoliyat yo‘nalishlarida mujassamlashadi. Ijtimoiy davlatning mohiyati esa, uning oqilona ijtimoiy siyosatni ishlab chiqib amalga oshirishda, ayniqsa, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil ado etishida namoyon bo‘ladi. Shu bois bunday davlat faoliyatining muhim qismini ijtimoiy vazifalarni bajarish tashkil etadi. Ana shunday vazifalar faoliyatining

[1] Ijtimoiy davlat. URL: http://www.meningkonstitutsiyam.uz

[2] Mavrulov A. Ijtimoiy davlat va yangi ma’naviy makon. –T.: “Yangi O‘zbekiston”, 2021-yil.

[3] X.T. Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. T.: “Yuridik adabiyorlar publish” 2022.

mazmunini tashkil etgan demokratik davlatlar – ijtimoiy davlat sanalishi mumkin. Ijtimoiylik, avvalo, bu adolat, ya'ni ko'pchilikning manfaatiga muvofiqlikdir, ikkinchidan, insonlarning hamjihatligi, o'zaro xayrixohligi ifodasidir. Shunga ko'ra, hayotni adolatliroq qiladigan har qanday qoida, har qanday qonun, har qanday tartib tom ma'noda ijtimoiydir[1].

Shu o'rinda, ijtimoiy davlat tushunchasiga ta'rif berishda o'zbekistonlik siyosatshunos olim K. Rabbimovning quyidagi fikrlarini ham keltirib o'tsak:

Ijtimoiy davlat – bu eng avvalo mas'uliyat, chunki davlat, hukumat o'z xalqini ijtimoiy himoya qilish borasida, konstitutsion majburiyatlar oladi. Qolaversa, bu – maqom, chunki dunyoning eng farovon davlatlari, aslida, ijtimoiy himoya tizimi ancha kuchli bo'lgan davlatlar hisoblanadi. "Ijtimoiy davlat" tushunchasining asosida, fundamentida "tenglik" qadriyati yotadi. Insonlar, tabiatan, boshqalarga qaraganda kamsitilganroq bo'lishni istashmaydi. Boshqalar tomonidan ekspluatatsiya qilinishni xohlamaydi.

O'tgan XX asr – bu tenglik uchun har xil modellarning kurashuv asri bo'ldi. Insonlarni teng qilish uchun, haybatli va totalitar davlatlar paydo bo'ldi. SSSR va uning atrofidagi sotsialistik lager, Xitoy Xalq Respublikasi, Shimoliy Koreya va hokazolar, insonlarni teng qilish uchun erkinlikni bekor qilishdi. Ikkinchi yirik va ancha muvaffaqiyatli model, bu g'arbiy Yevropa va boshqa qit'alarda kuzatildi. Bunda, jamiyat erkin bo'ladi, davlat huquqiy bo'ladi. Insonlar va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida mavjud tafovutlar – repressiyalar yordamida emas, davlatning ijtimoiy himoya dasturlari orqali pasaytiriladi. Misol uchun, Germaniya yoki Kanada, yuqori darajadagi ijtimoiy davlatlar hisoblanadi. Bu davlatlarda, hukumatlar yoki maxsus tashkilotlar, yig'ilgan soliqlardan juda ko'p qatlamlarga kerakli miqdorda yordam beradi: bu – kam ta'minlangan, ishsiz, boquvchisini yo'qotgan, talabalar, yangi emigrantlar va hokazo. Bolali oilalar uchun doimiy yordam tizimlari mavjud.

Qolaversa, ijtimoiy davlatlarda normal ishlab turgan odamlarni ham ijtimoiy himoya qilish dasturlari juda kuchli. Ish beruvchilar o'z ishchilarini istaganicha ekspluatatsiya qila olmaydi. Ish sharoitlari, ish vaqtlari juda aniq belgilangan. Ortiqcha har bir ish soatiga qo'shimcha haq to'lanadi. Misol uchun, g'arbiy Yevropa davlatlarida kechki soat 9 dan tongi 5 gacha – tungi ish vaqti hisoblanadi va bu vaqt uchun ish beruvchilar 60 foiz qo'shimcha haq to'lashga majbur. Yoki, ishlovchining avtomashinasi ishga kelayotib yo'lda buzilib qolsa, bu mashina ish vaqtida buzilgan hisoblanadi va unga ish beruvchi tomonidan ma'lum miqdorda kompensatsiya to'lanadi. Kimki bir soatlik uzoq masofadan ishga kelsa, uning oyligidan daromad solig'i kam olinadi yoki umuman olinmaydi. Ijtimoiy davlatlarda bunday ijtimoiy himoya dasturlari juda ko'p. Har bir davlatning o'z modeli, o'z an'analari bor. Lekin, ijtimoiy

[1] X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. To'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. –T.: Adolat 2021. 503-bet.

davlatning maqsadi bitta – xalq orasida kambag‘al, qashshoq qatlam bo‘lmasligi, kengayib bormasligi kerak. Aholi orasida qiynalgan oilalarga, shaxslarga davlat yordam berib, ularning o‘nglanib ketishiga ko‘maklashmasa, ushbu jamiyatda qashshoqlar qatlami kengayib borib, bir kuni davlatning o‘zini kambag‘al, nochor va ijtimoiy ziddiyatlarga boy qilib qo‘yadi. Shuning uchun ham, qaysi davlatda qanchalik kuchli ijtimoiy himoya mavjud bo‘lsa, odamlar shunchalik farovon, ular o‘rtasidagi birdamlik shunchalik mustahkam bo‘ladi[1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ijtimoiy davlat. URL: http://www.meningkonstitutsiyam.uz

2. Mavrulov A. Ijtimoiy davlat va yangi ma’naviy makon. –T.: “Yangi O‘zbekiston”, 2021-yil.

3. X.T. Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. T.: “Yuridik adabiyorlar publish” 2022.

4. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. –T.: Adolat 2021.

5. O‘zbekiston ijtimoiy davlat bo‘lishni eplay oladimi? URL: https://kun.uz/uz.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA IJTIMOIY DAVLAT TUSHUNCHASI

Po‘latov O.
Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi.

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi.

Yangilangan konstitutsiyamizning mazkur moddasida O‘zbekiston davlatining siyosiy-huquqiy maqomiga suveren va demokratik davlat tushunchalaridan tashqari yangi uchta, ya’ni “huquqiy davlat”, “ijtimoiy davlat” va “dunyoviy davlat” tushunchalari qo‘shimcha qilindi. Xo‘sh, ushbu yangi qo‘shimchalar qanday ma’noni anglatadi? Biz sodda va oddiy tilda ushbu moddada belgilangan ijtimoiy davlat tushunchasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli

[1] O‘zbekiston ijtimoiy davlat bo‘lishni eplay oladimi? URL: https://kun.uz/uz

taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir. Ijtimoiy davlatning funksiyalari ancha keng. Bular aholi bandligini ta’minlash, jamiyat miqyosida moddiy boyliklarni budjet yo‘li bilan muvozanatlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash va muhofaza etish, ta’lim-tarbiya borasida g‘amxo‘rlik qilish, odamlarga tirikchilik uchun eng kam me’yorni belgilash, oilani himoyalash, ijtimoiy ta’minot tizimini yo‘lga qo‘yish, sog‘liqni saqlash va sportni rivojlantirish kabi funksiyalardir. “Huquqiy davlat” va “ijtimoiy davlat” bir-biriga qarama-qarshi hodisa emas, balki inson manfaatlari va huquqlarini ustuvor biluvchi davlat rivojlanishining asoslaridir. Zero, huquqiy davlatning ham, ijtimoiy davlatning ham tub belgisi – inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash, inson qadrini munosib darajaga ko‘tarishdir. Ushbu masalaga ana shunday yondashish to‘g‘ri bo‘ladi. Sababi, ijtimoiy davlat – ham aholi farovonligi darajasiga, ham uning davlat huquqiy-siyosiy holatidagi mavqeyiga bog‘liq[1].

Ijtimoiy davlat insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi hisoblanadi. Ijtimoiy davlat g‘oyasi ancha oldin qaror topgan. Xususan, Qadimgi Rim imperiyasi zamonlarida “ijtimoiy yordam”, “jamoat ko‘magi” Nerva va Troya kabi imperatorlar davrida paydo bo‘lgan, ayniqsa Mark Avreli davrida keng yoyilgan. Faqat eramizning II asridan boshlab kambag‘allar va muhtojlarga tashkiliy yordam berish prinsipi umumbashariy e’tirofga sazovor bo‘ldi[2].

Hozirgi talqindagi **“**ijtimoiy davlat**”** tushunchasini ilmiy muomalaga ilk bor 1850-yilda nemis olimi Lorens fon Shteyn kiritgan. Uning fikricha, davlat o‘z fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi, barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o‘z hokimiyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta’minlashi lozim. Shu tariqa nemis huquqshunoslari L.fon Shteyn, R.fon Mol, F.Lassal ijtimoiy davlat nazariyasining asoschilari sanaladilar va bu ta’limot asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran shakllangan. “Ijtmoiy davlat” o‘z tarixiy rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o‘tgan[3]:

I bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining vujudga kelishi (1880-1914-yillar);

II bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining mujassamlashuvi va keng yoyilishi (1918-1940-yillar);

III bosqich – ijtimoiy davlat ta’limotining “oltin asri” (1945-1975-yillar);

IV bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining “tuzilmaviy takomillashuvi” (1990-yillardan hozirga qadar).

“Ijtimoiylik”ning asosiy sharti – inson shaxsiga, uning sha’ni, qadr-qimmati, erkiga asrab-avaylab munosabatda bo‘lishdan iborat. Davlatning mohiyati uning faoliyat yo‘nalishlarida mujassamlashadi. Ijtimoiy davlatning

[1] Ijtimoiy davlat. URL: http://www.meningkonstitutsiyam.uz
[2] Mavrulov A. Ijtimoiy davlat va yangi ma’naviy makon. –T.: “Yangi O‘zbekiston”, 2021-yil.
[3] X.T. Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. T.: “Yuridik adabiyorlar publish” 2022.

mohiyati esa, uning oqilona ijtimoiy siyosatni ishlab chiqib amalga oshirishda, ayniqsa, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil ado etishida namoyon bo‘ladi. Shu bois bunday davlat faoliyatining muhim qismini ijtimoiy vazifalarni bajarish tashkil etadi. Ana shunday vazifalar faoliyatining mazmunini tashkil etgan demokratik davlatlar – ijtimoiy davlat sanalishi mumkin. Ijtimoiylik, avvalo, bu adolat, ya’ni ko‘pchilikning manfaatiga muvofiqlikdir, ikkinchidan, insonlarning hamjihatligi, o‘zaro xayrixohligi ifodasidir. Shunga ko‘ra, hayotni adolatliroq qiladigan har qanday qoida, har qanday qonun, har qanday tartib tom ma’noda ijtimoiydir[1].

Shu o‘rinda, ijtimoiy davlat tushunchasiga ta’rif berishda o‘zbekistonlik siyosatshunos olim K. Rabbimovning quyidagi fikrlarini ham keltirib o‘tsak:

Ijtimoiy davlat – bu eng avvalo mas’uliyat, chunki davlat, hukumat o‘z xalqini ijtimoiy himoya qilish borasida, konstitutsion majburiyatlar oladi. Qolaversa, bu – maqom, chunki dunyoning eng farovon davlatlari, aslida, ijtimoiy himoya tizimi ancha kuchli bo‘lgan davlatlar hisoblanadi. “Ijtimoiy davlat” tushunchasining asosida, fundamentida “tenglik” qadriyati yotadi. Insonlar, tabiatan, boshqalarga qaraganda kamsitilganroq bo‘lishni istashmaydi. Boshqalar tomonidan ekspluatatsiya qilinishni xohlamaydi.

Qolaversa, ijtimoiy davlatlarda normal ishlab turgan odamlarni ham ijtimoiy himoya qilish dasturlari juda kuchli. Ish beruvchilar o‘z ishchilarini istaganicha ekspluatatsiya qila olmaydi. Ish sharoitlari, ish vaqtlari juda aniq belgilangan. Ortiqcha har bir ish soatiga qo‘shimcha haq to‘lanadi. Misol uchun, g‘arbiy Yevropa davlatlarida kechki soat 9 dan tongi 5 gacha – tungi ish vaqti hisoblanadi va bu vaqt uchun ish beruvchilar 60 foiz qo‘shimcha haq to‘lashga majbur. Yoki, ishlovchining avtomashinasi ishga kelayotib yo‘lda buzilib qolsa, bu mashina ish vaqtida buzilgan hisoblanadi va unga ish beruvchi tomonidan ma’lum miqdorda kompensatsiya to‘lanadi. Kimki bir soatlik uzoq masofadan ishga kelsa, uning oyligidan daromad solig‘i kam olinadi yoki umuman olinmaydi. Ijtimoiy davlatlarda bunday ijtimoiy himoya dasturlari juda ko‘p. Har bir davlatning o‘z modeli, o‘z an’analari bor. Lekin, ijtimoiy davlatning maqsadi bitta – xalq orasida kambag‘al, qashshoq qatlam bo‘lmasligi, kengayib bormasligi kerak. Aholi orasida qiynalgan oilalarga, shaxslarga davlat yordam berib, ularning o‘nglanib ketishiga ko‘maklashmasa, ushbu jamiyatda qashshoqlar qatlami kengayib borib, bir kuni davlatning o‘zini kambag‘al, nochor va ijtimoiy ziddiyatlarga boy qilib qo‘yadi. Shuning uchun ham, qaysi davlatda qanchalik kuchli ijtimoiy himoya mavjud bo‘lsa, odamlar shunchalik farovon, ular o‘rtasidagi birdamlik shunchalik mustahkam bo‘ladi[2].

[1] X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. –Toshkent., Adolat 2021. 503-bet.

[2] O‘zbekiston ijtimoiy davlat bo‘lishni eplay oladimi? URL: https://kun.uz/uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ijtimoiy davlat. URL: http://www.meningkonstitutsiyam.uz
2. Mavrulov A. Ijtimoiy davlat va yangi ma’naviy makon. –T.: “Yangi O‘zbekiston”, 2021-yil.
3. X.T. Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. T.: “Yuridik adabiyorlar publish” 2022.
4. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. –T.: Adolat 2021.
5. O‘zbekiston ijtimoiy davlat bo‘lishni eplay oladimi? URL: https://kun.uz/uz

VOYAGA YETMAGANLARNING FUQAROLIK, MEHNAT VA JINOYAT HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI ISHTIROKINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jańabayev D.T.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti yuridika fakulteti 3-bosqisch talabasi.

Voyaga yetmagan shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun zarur qonunchilik bazasini, shart-sharoitlarini yaratish, ularning huquqlari himoya qilinishini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyatga bevosita aloqador BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida” gi konvensiyasiga O‘zbekiston 1992-yil 9-dekabrda qo‘shildi va ushbu hujjat qoidalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni izchillik bilan bajarib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining huquqiy ahamiyatini ochib beruvchi 78-moddasida: [1]

“Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy me` rosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi" degan norma belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida voyaga yetmagan shaxslarni huquqiy munosabatlarda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ana shu kabi masalalarni inobatga olgan holda qonun chiqaruvchi organ eng avvalo Konstitutsiya va ung asoslanib qabul qilingan Kodekslarda ularga nisbatan har tomonlama imtiyozlar berdi va shu ishlarni hozirgi kunda ham muntazam amalga oshirib kelmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarning qonuniy huquqlari va manfaatlari Fuqarolik Kodeksida belgilab berildi. Shu qatorda voyaga yetmagan shaxslarni ham huquqiy munosabatlarda ishtirokini, ularning bozor munosabatlaridagi faoliyatini, ularning o‘qish bilan birgalikda olib boradigan tadbirkorlik, maishiy faoliyati kafilliklari alohida e’ tirof etildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida voyaga yetmaganlar ikki guruhda tasniflanadi: [2]

- olti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar;
- o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar.

Voyaga yetmaganlarning tabaqalashtirilgan holda qonunchilikdan joy olishi ularning muomala layoqatini tartibga solish uchun asos qilib olingan. Qonunchilikka asosan fuqaro 18 yoshdan muomalaga layoqatli hisoblanadi. Lekin, davlatimiz ularnig fuqarolik muomalasidagi ishtirokini kengaytirish masalasini ilgari suradi. Bunga ko‘ra 6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar:

1) mayda maishiy bitimlar;

2) tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;

3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligisiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

1) o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;

2) fan, adabiyot yoki san’ at asarining, ixtironing yoxud o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish.

Fuqarolik qonunchiligiga asosan fuqaro 18 yoshga to‘lganidan e’tiboran muomala layoqatiga ega bo‘ladi ya’ni o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish huquqiga ega bo‘ladilar. Biroq, Kodeks normalariga asos, voyaga yetmaganlar emansipatsiyalanish orqali yuridik harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Unga muvofiq, 16 yoshga to‘lgan shaxslar:

1) mehnat shartnomasi asosida ishlash;

2) ota-onasi roziligi bilan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga egadirlar.

18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarning xodim sifatida mehnat huquqiy munosabatlardagi ishtiroki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda

yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat Kodeksining Maxsus qismi VI bo‘limida [3] keng qamrovli normalar bilan mustahkamlab qo‘yilgan.

Jumladan Kodeksda, ularning mehnat sharoitlari, qisqartirilgan ish vaqtlari, asosiy xodimlarga nisbatan voyaga yetmaganlarga beriladigan imtiyozlar va majburiy tibbiy ko‘riklari xususida aytib o‘tilgan. Mehnat Kodeksining 412-moddasida:

"O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarning mehnatini mehnat sharoiti zararli va (yoki) xavfli bo‘lgan ishlarda, er osti ishlarida, shuningdek bajarilishi ularning hayotiga va sog‘lig‘iga, xavfsizligiga va ma’ naviy jihatidan kamol topishiga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan ishlarda (tungi kafe va klublarda, spirtli ichimliklarni, tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik va psixotrop moddalarni, toksik preparatlarni ishlab chiqarish, tashish hamda sotish va boshqalar) qo‘llash taqiqlanadi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlarning ular uchun belgilangan yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p normalardan ortiq bo‘lgan og‘irlikdagi yuklarni ko‘tarishi va tashishi taqiqlanadi" deb ko‘rsatilgan.

Albatta, bu normalarni belgilashda birinchi navbatda voyaga yetmagan shaxslarning sog‘lig‘ining xavfsizligi va aqliy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishi alohida e’tiborga olinadi.

Voyaga yetmaganlarning jinoyiy-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki Jinoyat kodeksi Umumiy qismining VI bo‘limida [4] o‘z aksini topgan. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmagan shaxsga jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik belgilashda qonun chiqaruvchi tomonidan uning yoshi, o‘ziga xos fiziologik va intellektual rivojlanishi, o‘z xatti-harakatlarining mohiyatini anglash qobiliyati va boshqa omillar hisobga olingan. Jinoyat kodeksining 17-moddasiga ko‘ra, umumiy jinoiy javobgarlik yoshi 16 yosh qilib belgilangan bo‘lsa-da, qasddan odam o‘ldirganlik uchun yoki og‘irlashtiriuvchi holatlarda jinoyat sodir etganlik uchun 14 yoshdan jinoyiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. [5] Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish, ularga nisbatan turli majburlov hamda jazo choralarini tayinlashda uning bu yo‘lga qayta kirmasligi, qilmishdan afsuslanish kabi jihatlariga alohida e’tibor qaratilib, bu holatni barataraf etishda jazolash emas, balki tarbiyalash, keyingi jinoyatlarning oldini olish, uning zararlangan ongini davolash muhimroq degan g‘oyaga amal qilinadi. Negaki voyaga yetmagan shaxs har doim ham o‘z harakatlarining ijtimoiy ahamiyatini anglamaydi, ba’ zan esa ularning haqiqiy xarakterini tushunib yetmaydi va bu harakatlarning oqibatini oldindan ko‘ra bilmaydi.

Xulosa: Demokratik yo‘ldan odimlayotgan mustaqil O‘zbekistonning qonunchiligida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan alohida qoidalar belgilanishi, davlatimiz rahbari tomonidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishi bu mamlakatimiz siyosatining xalqaro huquqiy hujjatlarda

belgilangan normalar va vazifalarining qat’ iy ta’ minlanish chora-tadbirlarining ko‘riliyotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. “O‘zbekiston” 2023-y. 30-bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 27-29-moddalar.

3. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Mehnat Kodeksi. T. “Yuridik adabiyotlar publish” 2024-y. 288, 300-304-betlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. IV bob. 17-modda (jismoniy shaxslarning javobgarligi).

5. Rustambayev M. H. “Jinoyat Kodeksiga sharhlar”. T. “Yuridik adabiyotlar publish” 2023-y. 101-104-betlar.

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI HISOBDORLIGIGA DOIR NORMALARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

Jo‘rabek A.R.

Urganch davlat universiteti, “Huquq” kafedrasi o‘qituvchisi
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquq va erkinliklarini ta’minlash davlat siyosatining asosini tashkil qilmoqda.

Bu borada fuqarolarning davlat organlari bilan siyosiy-huquqiy muloqotini kengaytirish, mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligini kuchaytirish hamda ijro hokimiyati idoralarining hisobdorligi samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mazkur yo’nalishda hurmatli Davlatimiz Rahbari Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlab o’tganlaridek, “Siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan davlatga xalq xoxish-irodasini ifoda etadigan organ” deb ta’rif beriladi. Davlatni kim shakllantiradi ? Xalq va uning muxtor vakillari. Binobarin, davlat va uning organlari avvalo kimga xizmat qilishi kerak ? Albatta, xalqqa turli mansab egalariga ovoz bergan va ishonch bildirgan fuqarolarga.

Shu ma’noda xalqimiz davlat xizmatidan rozi bo’lishga har tomonlama haqli va munosibdir[1].

Shu boisdan, ijro hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining hisobdorligi bilan bog’liq konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni nazariy-huquqiy tahlil qilish davlat boshqaruvini demokratlashtirish jarayonlarida muhim ilmiy-ahamiyatga molik bo’lib hisoblanadi.

Aytish lozimki, davlat boshqaruvining muhim demokratik tamoyili bo’lmish hisobdorlikni ta’minlashga davlat va huquq tarixining ilk davrlaridan alohida e’tibor berilgan.

Xususan, antik dunyo olimlaridan Platonning fikricha, ijtimoiy manfaatlar hisobga olingan qonunlarning va qonunlar oldida mas’ul bo’lgan davlat organlari tizimining mavjudligi farovonlik asosidir[2].

Davlatning mohiyati va uning jamiyat oldidagi siyosiy mas’ulligi Aristotel asarlarida ham keng tahlil qilingan.

Bu borada olimning fikricha, davlatning mohiyati insonlar o’rtasidagi siyosiy muloqotga asoslanadi. Shu boisdan, davlat ijtimoiy erkinlik va fuqarolar tengligini ta’minlagan holda, qarorlar qabul qilishda jamiyatdagi turli tabaqalar manfaatini hisobga olishi lozim bo’ladi [3].

Sharq olimlaridan Abu Nasr Forobiyning ilmiy ishlarida ham davlat boshqaruvida jamiyat oldidagi mas’ullik haqidagi qarashlarga alohida e’tibor berilgan.

Jumladan, olimning fikriga ko’ra, “Shahar boshlig’i shaharga taalluqli biror kichkinagina ishni amalga oshirsa ham butun shaharga bu ish o’z ta’sirini ko’rsatadi, boshliq mana shu ishni amalga oshirayotganda uning shahar aholisining bir qismiga nafi, bir qismiga ziyoni tegmasdan aholining hammasiga nafi tegishini o’ylashi kerak” [4].

Yuqoridagi olimlarning nazariy qarashlariga hurmat bilan yondoshgan holda aytish lozimki, davlat boshqaruvida ijro hokimiyati organlarining hisobdorligiga doir ilmiy munozaralar bugungi kunga qadar faol davom etib kelmoqda.

Ayniqsa, XIX asrning oxiriga kelib, siyosiy va huquqiy fanlar tizimida hisobdorlikka davlat hokimiyatini demokratik usulda tashkil qilishning tarkibiy qismi sifatida yondashuv muhim o’rin egalladi[5].

Xususan, bu borada davlat boshqaruvi sohasidagi taniqli olimlardan N.A.Antanovichning fikricha, davlat organlarining hisobdorligi ommaviy siyosatning tarkibiy qismi bo’lib, jamoatchilik ta’siri ostida ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qilishga asoslanadi[6].

Mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan G.Ismailovaning fikricha esa, hisobdorlik meritokratik boshqaruvning tarkibiy qismi bo’lib, hisobdorlik ta’minlangan mamlakatlarda yuqori iqtisodiy taraqqiyot, davlat xizmatchilari faoliyatining samaradorligi, fuqarolarning davlat organlariga ishonchi yuqoriligi, korruptsion holatlarning cheklanishi kuzatiladi[7].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, hisobdorlik davlat boshqaruvini demokratik tarzda tashkil qilish va amalga oshirishning ajralmas tarkibiy qismi bo’lib, davlatning jamiyat oldida siyosiy mas’ulligini hamda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o’rtasidagi muloqotni ifodalaydi.

Aytish lozimki, xalqimizning oliy xohish-irodasi sifatida 2023 yil 30 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida demokratik davlat boshqaruvini tashkil qilishda davlat organlarining hisobdorligiga alohida ahamiyat berilgan.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 20-moddasida davlatchilik tarixida ilk bor insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashiga doir normalar kiritildi.

Ushbu normaning ahamiyati shundaki, endilikda davlat organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga baho berishda eng asosiy mezon ularning inson huquq va erkinliklarini himoya qilishi va ta’minlashi orqali belgilanadi.

Ushbu vazifani amalga oshirish borasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda bir qator ustuvor yo’nalishlar belgilab olindi.

Xususan, Konstitutsiyamizga kiritilgan muhim o’zgartirishlardan biri sifatida 33-moddada davlat Internet jahon axborot tarmog’idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilab qo’yildi.

Aytish lozimki, kiritilgan ushbu norma davlat organlari. ayniqsa, ijro hokimiyati organlarining hisobdorligini ta’minlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 55-moddasiga kiritilgan har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo’lingan bo’lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli ekanligi haqidagi norma orqali inson huquqlariga doir xalqaro standartlar ijrosini ta’minlashda davlat organlarining mas’ulligi belgilab qo’yildi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida 2023 yil 30 aprelda bo’lib o’tgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yangi bosqichga ko’targan holda, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirish yuzasidan ustuvor yo’nalishlar bo’yicha xalqimizning xohish-irodasini ifoda etdi.

Shu bilan birga yangi konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda ijro hokimiyati organlarining hisobdorligi bilan bog’liq huquqni qo’llash amaliyotining samaradorligini oshirish dolzarb vazifa sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur jarayonda yuqorida qayd qilingan vazifalar ijrosini samarali ta’minlashda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo’ladi.

Birinchidan, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarida belgilangan davlat xizmatchilarining hisobdorligi tamoyilini ijro hokimiyati organlari faoliyatiga keng tadbiq qilish uchun davlat boshqaruvi organlarining ochiqligi va ma’muriy tartib-taomillar to’g’risidagi qonun hujjatlariga o’zgartirishlar kiritish;

Ikkinchidan, ijro hokimiyati organlari faoliyati ochiqligi va hisobdorligini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlari bilan doimiy muloqot va axborot almashinuviga imkon beradigan axborot tizimlarini kengroq joriy etish;

Uchinchidan, davlat xizmatchilariga qo’yiladigan malaka talablarini ((KPI) va hokazo) ishlab chiqishda Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarida belgilangan davlat xizmatchilarining hisobdorligi tamoyilini ro’yobga chiqarishga alohida e’tibor berish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.Yangi O‘zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. - Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2021 yil. 15-bet.
2. Platon.Zakonы. Pol.sobr. soch. v 15 t. – T. XIII. – Ptg.: Akademia, 1923. – 21-25.
3. Aristotel. Politika. – M.,1911. S.7
4. Turg‘unov M.T. Abu Nasr Forobiyning davlat boshlig‘i xislatlari haqidagi qarashlari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 5 (2023) B. 8-14.
5. *Wilson W. The study of administration //Political Science Quarterly. 1887. №2(2).P. 197-222.*
6. Antanovich N. A. Teoriya i metodы analiza gosudarstvennogo upravleniya v politicheskoy nauke [Elektronnыy resurs] : avtoreferat dis. ... d-ra polit.nauk : 23.00.01. Minsk, 2018. URL: http://elib.bsu.by.
7. Ismailova G.S i dr. Vnedrenie prinsipov effektivnogo gosudarstvennogo upravleniya v interesax ustoychivogo razvitiya v Uzbekistane //Pravo i upravlenie. XXI vek. №4(61)/2021.S.8

“DAVLAT – INSON UCHUN” TAMOYILI – DEMOKRATIK ISLOHOTLAR MEZONI

Sodiqov X.

“Maxsus-taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash” kafedrasi o‘qituvchisi, podpolkovnik.

Yurtimizda so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonni barpo etish, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq va mohiyatan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-huquqiy va ma’naviy islohotlar amalga

oshirilmoqda. Harakatlar strategiyasi va taraqqiyot strategiyasi doirasida asosiy qonunimiz hisoblangan Konstitutsiyamiz yangim tahrirda qabul qilindi. Har qanday demokratik islohot mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asosga ega bo‘lsagina, bardavom va samarali va uzoq vaqt tayanchga ega bo‘ladi. Konstitutsiya yoki qonun davr talabi, islohot va xalq ehtiyojidan kelib chiqib, doimiy ravishda takomillashtirib va rivojlantirilib boriladi. Dunyoda hech bir konstitutsiya ilk qabul qilingan tahririda saqlanib qolmagan. Misol qilib oladigan bo‘lsak, XXI asrda 80 dan oshiq davlatlarda qomusiy islohot muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, 57 tasida yangi hujjat qabul qilingan. Eng ko‘p o‘zgarish va qo‘shimcha Meksika, Yangi Zelandiya, Braziliya, Shveysariya, Avstriya, Isroil, Chili, Kolumbiya, Gruziya va Hindiston konstitutsiyalariga kiritilgan. “Inson qadri uchun” tamoyili bugun barcha islohotlarimizning bosh mezoni sifatida belgilandi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, milliy va jahon konstitutsiyaviy tajribasini chuqur va puxta o‘rganish lozim. Bu esa avvalo, senator va deputatlarimiz, keng jamoatchiligimiz, xalqimiz bilan yana bir bor maslahat qilib, jahon konstitutsiyaviy tajribasini o‘rganib, puxta o‘ylagan holda bugungi va kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan asosiy qonunimizni takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Konstitutsiyamiz mustaqillik yillarida erishgan barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qildi. Bir paytning o‘zida u yashayotgan davrimiz, xalqimiz va hayotning o‘zi, islohotlar talabi va ehtiyojidan kelib chiqib takomillashtirib boriladi. Zero, har qanday demokratik islohotlar mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asosga ega bo‘lsagina bardavom va samarali bo‘ladi.

Bugungi kun, globallashuv, raqamlashtirish, iqlim o‘zgarishi va jadal o‘zgarib borayotgan hayot mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish, tinchlik, barqarorlik va milliy mustaqillikni mustahkamlash borasida yangi va yangi yechimini kechiktirib bo‘lmaydigan, o‘ta dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Shu bois ham Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida o‘ta ahamiyatli va jiddiy vazifalar belgilangan. Mamlakatni modernizatsiya qilishning yetti yo‘nalishi bo‘yicha 50 dan ortiq kodekslar, qonunlar, strategiyalar, konsepsiya va dasturlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etish ko‘zda tutilgan, 100 dan ortiq boshqa tashabbuslar ilgari surilgan. Strategiya qonunchilik, huquqni anglash, huquqiy tafakkur va huquqni qo‘llash tizimini, jamiyatning siyosiy va huquqiy ongini umuminsoniy qadriyatlar hamda barqaror rivojlanish tamoyillariga yo‘naltiradi.

Jahon konstitutsiyaviy jarayoni va XXI asr tajribasi va jahon amaliyoti islohotlarni izchil amalga oshirishda aynan jamiyat va davlatni modernizatsiya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini rivojlantirish muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda.Bunda turli mamlakatlardagi konstitutsiyaviy

o‘zgarishlar asosan tashqi va ichki tahdid hamda xatarlarni inobatga olib, ularga javob berishga qaratilganligi bilan o‘zaro o‘xshashligini ta’kidlash joiz. Zamonaviy konstitutsiyalar bundan yuz yil oldin unchalik ko‘zga tashlanmagan yangidan-yangi — atrof-muhit, gender tengligi, inson, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kelajak avlod huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kabi masalalarni qamrab olgan. Ularda, shuningdek, axborotlashgan jamiyatni shakllantirish, shaxsiy raqamli ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, ilmiy-texnologik va innovatsion rivojlanish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron demokratiya va xalq qonunchilik tashabbusi elementlarini joriy etish kabi boshqa zamonaviy masalalar ham o‘rin olgan.

Konstitutsiyaviy islohotlar bugungi va istiqboldagi muvaffaqiyatli va barqaror taraqqiyotning zaruriy huquqiy sharti va asosidir. Xususan, u “samarali va yaxshi boshqaruv” tizimini joriy etishning muhim vositasi sifatida hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimini mustahkamlash, hisobdorlik, ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni oshirishga yordam beruvchi konstitutsiyaviy “qoidalar”ni o‘rnatadi. Boshqaruv sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ushbu o‘zgarishlar siyosiy tizim barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotni rivojlantirishga foyda keltirib, natijada sarmoya kiritish va taraqqiyotni ta’minlash uchun qulay va barqaror muhit yaratadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining hayotga tizimli va izchil tatbiq etilishi demokratik islohotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Bu, birinchi o‘rinda, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishni nazarda tutadi. Qayd etish lozimki, “inson qadri” — fuqarolarning tinch va xavfsiz hayotini, asosiy huquq va erkinliklarini, bosqichma-bosqich munosib turmush sharoitini ta’minlash va zamonaviy infratuzilmani yaratish, mamlakatning har bir fuqarosi uchun malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya va sog‘lom ekologik muhitni yaratish demakdir.

Bunga, eng avvalo, “Yangi O‘zbekiston — xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasi va “inson — jamiyat — davlat” tamoyilini hayotga faol tatbiq etish, Prezident, parlament va hukumat o‘rtasida vakolatlarni aniq taqsimlash, hokimiyatlar bo‘linishi tizimida o‘zaro tiyib turish va muvozanatni mustahkamlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, zamonaviy xalqaro hamjamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topish orqali erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi qabul qilinadigan qonunlar har bir qonuniy faoliyatlarning samaradorligini va nufuzini oshirishga, mustaqilligini mustahkamlashga, vakolatlarini kengaytirishga, uni shakllantirish tartibini yanada demokratlashtirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirishga qaratiladi, mazkur konstitutsiyaviy yangilanishlar, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya

qilish, Konstitutsiyaning ustunligini ta’minlashga oid faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishiga imkon yaratadi.

EKOLOGIK BURCHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Nurmatov M.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i, yu.f.d., professor,

Qurbonov S.S.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Ekologik burch – bu insonning atrof muhitga, tabiatga va undagi resurslariga nisbatan e’tibor va mas’uliyatni his qilish, ularni muhofaza qilish va kelajak avlodlarga tashvishsiz hayot uchun sharoitlar yaratish vazifasini bajarishdir. Insonning ekologik burchi, u o‘zining faoliyati orqali tabiatga zarar etkazmasligi, uning ichidagi resurslardan oqilona foydalanishi, tabiatni muhofaza qilishi va ekotizimlarning barqarorligini saqlashga hissa qo‘shishda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ekologik burch global darajada ham muhimdir, chunki zamonaviy muammolar ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, atrof muhitning ifloslanishi insonlarning umumiy javobgarligini talab qiladi.

Ekologik burchning konstitutsiyaviy asoslari har bir mamlakatning Konstitutsiyasidan o‘rin olgan normalar, eng muhim qoidalar va printsiplar orqali belgilanganligida namoyon bo‘ladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ekologik burch va uning qo‘llanilishiga oid qator normalar mustahkamlandi. Ushbu normalar esa insonning atrof tabiiy muhitga bo‘lgan mas’uliyatini, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uning barqarorligiga hissa qo‘shishni ta’minlaydi.

Bosh qomusimizdagi ekologik burchga oid asosiy normalarni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin. Konstitutsiyaning 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” degan mazmundagi normaning fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlaridan biri sifatida mustahkamlanishi ahamiyatli albatta. Ushbu burch orqali har bir insonga sog‘lom va xavfsiz atrof muhitda yashash huquqi kafolatlanadi, bu esa, o‘z navbatida, insonning ekologik burchini va uning atrof muhitni muhofaza qilishga bo‘lgan mas’uliyatini talab qiladi.

Ekologik burchning Konstitutsiyada mustahkamlanishi, quyidagi muhim jihatlarni ifoda etish orqali nomoyon bo‘ladi.

Birinchidan, ekologik huquqlar va burchlarning konstitutsiyaviy darajada huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Konstitutsiyada ekologik burchning belgilash,

insonning atrof tabiiy muhitga nisbatan huquqlari va burchlarini huquqiy jihatdan kafolatlashga imkoniyat yaratadi. Bu esa jamiyatda ekologik axloq va javobgarlikni shakllantiradi. Har bir fuqaro tabiatni muhofaza qilish, sog‘lom va qulay muhitda yashash, atrof muhitga zarar etkazmaslik uchun mas’ul hisoblanadi.

Ikkinchidan, ekologik muammolarga davlat tomonidan e’tibor qaratilishini va tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlaydi. Konstitutsiyada ekologik burchning belgilanishi davlatning tabiatni muhofaza qilish va ekologiyani yaxshilashga bo‘lgan mas’uliyatini belgilaydi. Davlat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ekologik nazoratni o‘rnatish, tabiiy resurslarni oqilona foydalanish va ularni tiklashga yo‘naltirilgan siyosatni amalga oshirish uchun zarur qonunchilik va ishlab chiqish choralarini ko‘rishga majbur bo‘ladi.

Uchinchidan, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash va kelajak avlodlarga sog‘lom muhit qoldirish maqsadida ekologik siyosatning olib borilishiga xizmat qiladi. Konstitutsiyada ekologik burchning belgilanishi, davlat siyosatida ekologik yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratishni ta’minlaydi. Bu ekologiya sohasidagi qonunlar, normativ hujjatlar va davlat dasturlarini ishlab chiqishga asos soladi. Davlatning ekologik siyosati insonlar uchun qulay, sog‘lom va xavfsiz muhit yaratishni maqsad qiladi.

To‘rtinchidan, hukumatning ekologik faoliyatini yo‘naltirishning muhimligi, ayniqsa, ekologik muammolarning global va mamlakat darajasidagi e’tiborga loyiqligi va ularni hal etish uchun muvozanatli strategiyalarni ishlab chiqish zarurligi bilan bog‘liq. Ekologik burchning Konstitutsiyada belgilash, maxsus ekologik organlarning ishini muvofiqlashtirish va ularning faoliyatiga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bu organlar tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror ekologik rivojlanish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari va me’yorlarni bajarishga mas’uldir.

Beshinchidan, ekologik burchning Konstitutsiyada belgilanishi jamiyatni barqaror rivojlanishga intilishga undaydi. Bu na faqat tabiatni muhofaza qilish, balki kelajak avlodlar uchun hayot sharoitlarini yaxshilashga, atrof muhitni saqlashga, iqlim o‘zgarishlari bilan kurashishga yo‘naltirilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Darhaqiqat, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga hurmat bilan qarashlari, ularning talablariga amal qilishlari lozim. Bu burch har bir fuqaroning davlat qonunchiligiga ishonchi va uning barqarorligiga bo‘lgan mas’uliyatini anglatadi. Konstitutsiyaviy ekologik burch fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini boshqa shaxslar hamda davlat manfaatlariga hurmat bilan amalga oshirishni talab qiladi. Ya’ni, har bir fuqaro o‘zini faqat huquqlar bilan emas, balki majburiyatlar bilan ham mas’ul sezishi kerak bo‘ladi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga ko‘ra “Davlat barqaror rivojlanish printsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi”. Albatta, davlat barqaror rivojlanish printsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi – bu davlatning ekologik siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir va atrof-muhitga bo‘lgan yondoshuvni barqaror ravishda rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy norma davlatning tabiat va inson faoliyati o‘rtasidagi ekologik muvozanatni ta’minlashga harakat qilishi ifodalaydi. Bu tabiiy resurslarning iste’molini ungga mos ravishda, ya’ni tabiatning tiklanish qobiliyatiga mos ravishda, ishlatishni nazarda tutadi. Shuning uchun tabiiy resurslardan foydalanishda ularning saqlanishi va tiklanishini ta’minlashga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ushbu norma barqaror rivojlanishning asosiy aspektlaridan biri – iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishga oid mas’uliyatni davlat zimmasiga yuklamoqda. Davlat parnik gazlari emissiyasini kamaytirish, yangi ekologik texnologiyalarni qo‘llash va ularni iqtisodiyotga joriy qilish orqali, global iqlim o‘zgarishlarining oldini olishga harakat qilishi lozim bo‘ladi.

Joriy yilning 12-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferentsiyasi (COP 29)dagi nutqida ta’kidlanganidek “Iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib bormoqda, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq- ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirmoqda”.

Agar insonlar ekologik burchini e’tiborga olib, iqlim o‘zgarishlariga qarshi birgalikda harakat qilmasalar, tabiatning ushbu o‘zgarishlarga qarshi tizimlarni o‘zgartirish va muvaffaqiyatli javob berish qobiliyati susayadi. Bu, o‘z navbatida, ekotizimlarning barqarorligini yo‘qotishga va iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Darhaqiqat, ekologik muammolar global xususiyatga ega, shuning uchun mamlakatlar o‘rtasida hamkorlik va qo‘shma tadbirlar zarur. Hukumatlar o‘zining ekologik faoliyatini xalqaro shartnomalar va kelishuvlarga muvofiq ravishda yo‘naltirishi, ayniqsa global ekologik muammolarga e’tibor berishga yo‘naltirishi lozim.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustahkamlangan muhim ekologik normalardan biri bu “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat

muhofazasidadir” deb belgilangan qoidalardir. Bugungi kunda inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarga katta ahamiyat berilmoqda. Davlat o‘z fuqarolari uchun farovon hayot kechirish, rivojlanish va kamol topishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratish majburiyatini o‘z zimasiga olgan.

Bosh qomusimizning 68-moddasida mustahkamlangan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurligiga oid qoida O‘zbekiston Respublikasining bir qancha qonunlarida ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart”ligi insonning insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi sifatida mustahkamlangandir. Qonun fuqarolar zimmasiga tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish uchun uni ko‘paytirish, qayta tiklash va muhofaza qilish bo‘yicha majburiyatlar ham yuklaydi. Boisi, atrofimizni o‘rab turgan tabiiy borliq - inson hayot kechirishi uchun zaruriy shartdir. Inson tabiatdan va tabiiy zahiralardan foydalanmay yashay olmaydi. Shunday ekan, har bir fuqaro tabiatga nisbatan ayovsiz, beparvo bo‘lishi kerak emas. Bu esa, kelgusi avlodning manfaatlarini ko‘zlab ish tutishni taqozo etadi.

Fuqarolarning ekologik burchlariga oid normalar bir qator xorijiy davlatlarning konstitutsiyalarida mustahkamlangan, jumladan:

- Germaniya Konstitutsiyasining 20a-moddasida “davlatning kelajak avlodlar uchun tabiiy hayot asoslarini muhofaza qilish burchi ko‘rsatilgan. Davlat tabiat va hayvonlarni qonuniy va ijroiy mexanizmlar orqali himoya qilishi lozimligi belgilangan”;
- Fransiya Konstitutsiyasiga qo‘shimcha sifatida qabul qilingan 2005-yilgi Atrof-muhit Xartiyasida ekologik burchlar belgilangan bo‘lib, “fuqarolar atrof-muhitni hurmat qilish, himoya qilish va yaxshilashda o‘z hissasini qo‘shishlari kerakligi ta'kidlangan”
- Hindiston Konstitutsiyasining 51A(g)-moddasida “har bir fuqaroga tabiiy muhitni muhofaza qilish, o‘rmonlarni va yovvoyi hayvonlarni himoya qilish majburiyati yuklatilgan”;
- Ekvador Konstitutsiyasida “tabiatga mustaqil huquq subekti sifatida qaraladi, va fuqarolar uning himoyasiga mas'uldirlar deb belgilangan”;
- Janubiy Koreya Konstitutsiyasining 35-moddasida “fuqarolarning sog‘lom va xavfsiz atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi kafolatlanadi, davlat va fuqarolar ekologik muvozanatni saqlashga majburdir”;
- Finlyandiya Konstitutsiyasining 20-moddasida “har bir kishiga tabiiy muhitni muhofaza qilishga hissa qo‘shish burchi yuklanadi. Atrof-muhitni saqlash davlat va fuqarolarning birgalikdagi majburiyati sifatida ko‘rsatiladi”;

- Ispaniya Konstitutsiyasining 45-moddasida “har bir kishining atrof-muhitni saqlash burchi borligi qayd etiladi. Davlat va jamiyat ekologik muammolarni hal qilishda birgalikda harakat qilishi kerakligi belgilangan”;

- Portugaliya Konstitutsiyasining 66-moddasida “fuqarolarning sog‘lom va muvozanatli ekologik muhitda yashash huquqi va atrof-muhitni himoya qilish burchlari haqida so‘z yuritiladi”.

Muxtasar qilib aytganda, ekologik burchning Konstitutsiyada belgilash insonlarning ekologik huquqlarini himoya qilishga va davlatni ekologiya sohasidagi mas’uliyatiga majbur qilishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, ekologik adolatni ta’minlash, tabiatni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhitni saqlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatini shakllantiradi.

AFV ETISH INSTITUTINI KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY JIHATDAN TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Beksariyev X.Q.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, dotsent.

Mustaqil O‘zbekiston tarixida jinoiy jazodan ozod qilishning muhim instituti sifatida namoyon bo‘lgan afv etish zamirida insonparvarlik, bag‘rikenglik, kechirimlilik va albatta adolat prinsiplarining mujassamlashganligi mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari ta’minlanishi davlat siyosati va Prezidentning kechirimlilik irodasi darajasidagi uzluksiz jarayon ekanligini ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yetti yildan ortiqroq vaqt davomida bilib-bilmay jinoyat sodir etgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan va ijobiy tavsifga ega bo‘lgan yetti mingdan ziyod mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan afv etildi.

O‘rta asrlar davri konstitutsiya deb nom olgan Sohibqiron Amir Temur «Temur Tuzuklari»da «Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko‘targanlar, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham, agar ular iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelsalar, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim» va «... Kimki menga dushmanlik qilsayu, keyin pushaymon bo‘lib, iltijo bilan himoya istab, tiz cho‘kib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do‘stlik ko‘rsatdim»[1] deb yozib qoldirganlar. Hattoki, «Buyuk Amir Temur afv etish masalasini davlat siyosati darajasida ko‘tarib,

[1] Sog‘uniy, A. Temur tuzuklari; tarixiy adabiyot / A.Sog‘uniy va H.Karomatov. – Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servic, 2018. – B. 71-73.

dushmanlarni afv etish orqali ulardan do‘st – davlat uchun xizmatchi to‘plash tadbirida alohida e’tibor berganlar»[1].

Darhaqiqat, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarni jazodan ozod qilinishi mumkinligi ya’ni ularni kechirish, uzrini qabul qilish, gunohidan o‘tish, insonparvarlik, kechirimlilik, bag‘rikenglik insonning ulug‘ sifatlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikga erishgach o‘zining Konstitutsiyasida o‘zbek xalqining kechirimlilik, rahmdillik va bag‘rikenglik kabi azaliy qadriyatlarining amaldagi yorqin ifodasi hamda xalqaro huquqning umumqabul qilingan ustunligini tan olgan holda afv etish institutini qo‘llash huquqini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolati sifatida belgiladi.

Bugungi kunda afv etishni qo‘llash davlat rahbari tomonidan qo‘llaniladigan insonparvarlik akti hisoblanib, jahonning deyarli barcha davlatlari Konstitutsiyalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti «amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnomalar kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi»[2] -deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 68-moddasida «Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin»ligi, 76-moddasida esa, «Hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo‘shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o‘talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin»[3]ligi belgilanganligini ko‘rish mumkin.

Respublikamizda afv etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonini qabul qilish tartibida, amnistiya akti esa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish to‘g‘risidagi taqdimnomasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarorini qabul qilish orqali amal oshiriladi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida «O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy

---

[1] 14. Qo‘shaev N.M. Jinoyat sodir etgan shaxsni kechirishning tarixiy asoslari va ijtimoiy zarurati xususida. «O‘zbekistonda afv etish instituti takomillashuvining huquqiy va ijtimoiy-gumanistik masalalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (to‘plami). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi MG HTI, 2020. – B. 36.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstituцияsi. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/

[3] O‘zbekiston Respublikasining Jinoят kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/

Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin»ligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqib, mustaqil ravishda amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilishni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

E’tiborli tomoni shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandidagi qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining amnistiya aktini qo‘llash vakolatiga boshqa davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan, keyinchalik jazo muddatini O‘zbekiston Respublikasida o‘tayotgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkinligini e’tirof etilsada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlaridan biri hisoblangan afv etish xorijiy davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan jazo muddatini O‘zbekiston Respublikasida o‘tayotgan o‘z qilmishining qonunga xilofligini anglab yetgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan shaxslarga nisbatan tadbiq etilmasligini ko‘rsatmoqda.

Bulardan tashqari, afv etish faqatgina sud hukmi qonuniy kuchga kirgan mahkumlarga nisbatan qo‘llanilish chegarasiga ega. Amnistiya akti bilan nafaqat «jinoiy jazo»dan balki, «jinoiy javobgarlik»dan ozod qilish mumkin.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining afv etish vakolati doirasini xorijiy davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etish va ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni ehtiyotsizlik oqibatida birinchi marta sodir etgan shaxslarni «jinoiy javobgarlik» dan ozod etish kabi shakllari bilan yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan insonparvarlik, inson sha’ni, hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa shu kabi huquqlarining oliy qadriyat sifatida tan olinishi kabi umuminsoniy prinsiplarni yanada takomillashtirish bilan birga Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yangitdan yaratilayotganligidadir.

Ana shunday islohotlar zamirida boshqa sohada amalga oshirilayotgan amaliy yangiliklar qatorida afv etish institutining ham konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Amaldagi konstitutsiviy normaga asosan afv etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirish zarurati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshqa davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etishining huquqiy mexanizmlarining mavjud emasligi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti «...O‘zbekiston

Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi»– deb belgilangan.

Xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida “boshqa davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etish” amaliyoti bo‘yicha tahlil qilinganda, afv etishni qo‘llash doirasi umumiy tartibda belgilanib, shaxs xorijiy davlatlar sudlari tomonidan hukm etilgan yoki boshqa sudlar tomonidanmi chegaralanmaganligini ko‘rish mumkin. Jumladan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 89-moddasida, Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasi 69-moddasida “afv etishni amalga oshiradi”, Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi 44-moddasida “fuqarolarni afv etadi”, Belorussiya Respublikasi Konstitutsiyasi 84-moddasida “mahkumlarni afv etishni amalga oshiradi”, Fransiya Konstitutsiyasi 17-moddasida “avf etish huquqidan foydalanadi”, mazmunidagi qoidalar bilan mustahkamlanganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Ushbu davlatlarda mamlakat rahbari tomonidan boshqa davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etishning huquqiy mexanizmlari konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bilib-bilmay jinoyat sodir etgan va qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, ishi tergov organlari tomonidan ko‘rilayotgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bo‘yicha afv etish vakolati konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan belgilanmagan.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yildagi 8 maydagi 5439-son Farmoni bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomning 2 bandida “Afv etish mahkumni jazodan to‘liq yoki qisman ozod etadigan yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik akti hisoblanadi”-deb belgilangan.

Vaholanki, rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligida afv etish asosida nafaqat “jinoiy jazo”dan balki, “jinoiy javobgarlik”, “ma’muriy javobgarlik va jazo”dan ozod qilish mustahkamlanganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Xususan, Belorussiya Respublikasi Prezidentining 1994 yildagi 250-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “Belorussiya Respublikasida mahkumlarni afv etish, jinoyatlarni ochish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga hissa qo‘shgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom[1]ning 25-bandiga asosan, “jinoiy javobgarlikdan ozod qilish”ni afv

[1] Указ Президента Республики Беларус № 250 от 3 декабря 1994 г. «Об утверждении Положения о порядке осуществления в Республике Беларус помилования осужденных, освобождения от уголовной ответственности лиц, способствовавших раскрытию и устранению последствий преступлений».

etishning shakllari sifatida qo‘llash tartibi joriy etilgan va amaliyotda qo‘llanilib kelinmoqda.

Ilg‘or xorijiy tajribalarni O‘zbekiston Respublikasining afv etishni amalga oshirish tartibida qo‘llanilishini joriy etish maqsadida “jinoiy javobgarlikdan ozod qilish”ni afv etishning shakllari sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlaridan biri sifatida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnosisiz” amnistiya aktini qabul qilish mexanizmini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan mustahkamlash.

Amaldagi tartibga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlaridan biri sifatida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish” belgilangan.

Xorijiy davlatlar parlamentar huquqida esa, jumladan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 103-moddasida “Davlat Dumasining yurisdiksiyasiga amnistiya e’lon qilish” vakolati, Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-moddasiga ko‘ra “amnistiya masalalarini hal qiladi”, Belorussiya Respublikasi Konstitutsiyasi 97-moddasiga ko‘ra, Vakillik palatasi “amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni ko‘rib chiqadi”, Fransiya Parlamenti Fransiya Konstitutsiyasi 34-moddasiga ko‘ra, “amnistiya to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish”, Armaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida Milliy Majlis “Hukumatning taklifiga binoan deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan amnistiya to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishi mumkin”, Qirg‘iziston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasiga ko‘ra, Jogorku Kenesh – Parlament “amnistiya aktlarini qabul qiladi” belgilangan.

Fikrimizcha, ilg‘or xorijiy tajribalar va milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurati O‘zbekiston Respublikasida afv etish institutini huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga quyidagi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishni taqozo etadi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlaridan biri sifatida “amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish”ni belgilash.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23 bandini “afv etishni amalga oshiradi” tartibida o‘zgartirish.

Mazkur mexanizmlarni Bosh qomusimizda belgilanishi eng avvalo afv etish institutining asl mazmun-mohiyatini ifodalash, jinoyat yo‘liga adashib, bilib-bilmay kirib qolgan hamda birinchi marotaba jinoyat sodir etgan shaxslarni ijtimoiy hayotga qaytarish, ularda qonunga hurmat va itoatkorlik ruhini tarbiyalash hamda qonunlarga rioya qilish madaniyatini shakllantirish

maqsadida jinoyatlarni oldini olishga, milliy qonunchilikda mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etishga, qonunchilikni takomillashtirish shuningdek, ushbu sohadagi munosabatlarni konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

KONSTITUTSIYAYA VA FUQAROLIK QONUNCHILIGIDA XUSUIY MULK DAXLSIZLIGI

Norboyev Sh.B.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, y.f.b.f.d. (PhD).

Barchamizga ma’lumki jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda fuqarolarning xususiy mulk bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Biz jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqi kafolatlarini ta’minlash maqsadida xalqaro andozalarga javob beradigan islohotlarimizni bundan buyon ham qat’iy davom ettiramiz”.[1] Har bir inson uchun avvalo xususiy mulkka egalik qilishning eng muhim omillardan biri bu o‘z mulkiga egalik qilish, o‘z mulkidan erkin foydalanish hamda uni tasarruf qilish hquqining kafolatlanishi hisoblanadi. Mulk huquqi nafaqat fuqarolik qonunchiligi me’yorlari bilan, balki jinoyat, ma’muriy, mehnat, yer va oila qonunchiligi me’yorlari bilan qo‘riqlanishi, har qaysi jamiyatni normal, madaniy mavjudlik sharti sifatida, har qaysi huquqiy tizimning muhim vazifalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyaya normalarida ham xususiy mulk daxlsizligining kafolati to‘g‘risida normalar mavjud bo‘lib, jumladan Konstitutsiyaning 47-moddasida “Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanadi”.[2] Ushbu konstitiutsiyaviy normaning qabul qilinishi natijasida birinchi marta yurtimizda har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga egaligi asosiy ijtimoiy huquqlar safida belgilab qo‘yildi.

Turar joyga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Darhaqiqat, uy-joy daxlsizligining qonuniy asoslarini konstitutsiyaya normalari bilan kafolatlash inson qadri uchun tamoyilining hayotdagi ijrosi ta’minlanayotganligining muhim ko‘rinishi sifatida baholashimizga imkon beradi. Turar joyga bo‘lgan mulk huquqi muddatsiz

[1] https://president.uz/uz/lists/view/4815
[2] https://lex.uz/docs/4674902

bo‘lib, fuqarolar va yuridik shaxslarning, davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmagan holda shaxsning o‘ziga tegishli turar joyga o‘z xohishi va manfaatlariga ko‘ra egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqi buzilishini bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Ya’ni ijaraga berishga, garovga qo‘yishga, butunligicha va qismlab sotish, shaklini o‘zgartirish, qayta qurish yoki buzish va boshqa huquqlarga ega. Xususiy mulkida uy, xonadonga ega bo‘lgan fuqarolar ulardan shaxsiy yashashi va o‘z oila a’zolarining yashashi uchun foydalanish hamda uy, xonadonga boshqa fuqarolarni joylashtirishga haqlidir. Mulkdor fuqarolarga, ijara shartnomasiga asosan, turar joylarni yashash uchun berishi mumkin. Shuningdek, mulkida uyga, xonadonga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, ularni ijaraga berish va uy-joy qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanishga haqli hisoblanadi. Bu holda, uyga ega bo‘lgan mulkdor, uyni yoki ularning bir qismini fuqarolar va yuridik shaxslarga, faqat u bilan birga yashovchi voyaga yetgan oila a’zolarining roziligi asosida, yuridik shaxslar esa yuridik shaxsning vakolat berilgan idorasining qarori bo‘yicha berishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan mazkur normalar uy-joy ham mulk huquqi obyekti sifatida samarali himoya qilinishi, ayniqsa, uy-joyga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi nizolarga oid ishlar sud tomonidan ko‘rilayotganda qonun hujjatlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi fuqarolarning xususiy mulkka bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini himoya etishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida turar joyga oid munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksi, “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-martdagi 114-sonli “O‘zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiylashtirishni davom ettirish to‘g‘risida” qarori, 1994-yil 4-apreldagi 180-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xususiylashtirilgan kvartiralar (kvartiralarning bir qismi), uylar (uylarning bir qismi) ni boshqalarga berish va meros qilib qoldirishda mulkchilik huquqining o‘tishi haqidagi shartnomalarni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom, “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi uy-joy fondini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomlar va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Uy-joy qonunchiligini noto‘g‘ri qo‘llash, ya’ni uy-joyga mulk huquqining vujudga kelish asoslari bo‘yicha tartiblarga rioya qilmaslik, uy-joyga oid bitimlar asosida uy-joyni egallash, yakka tartibda uy-joy qurish, davlat uy-joyini xususiylashtirish, uy-joyni meros qilib olish, egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida uy-joyga mulk huquqini qo‘lga kiritish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar sababli, shuningdek, bu boradagi amaldagi qonunchilikning yetarli huquqiy takomillashtirilmaganligi, qonunchilikda ochiq qolgan holatlar, bo‘shliqlar va kolliziyalar uy-joyga oid munosabatlarda huquqiy nizolarni,

ko‘plab sud ishlarini vujudga keltiradi. Masalan Fuqarolik ishlar bo‘yicha sudlar tomonidan birinchi instansiyada ko‘rilgan uy-joy munosabatlari bilan bog‘liq ishlar yuzasidan statistik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, 2015-yilda 13 111 ta, 2016-yilda 14 815 ta, 2017-yilda 14 534 ta, 2018-yilda 13 313 ta, 2019-yilda 10 005 ta, 2020-yilda 8 085 ta, 2021-yilda 20 913, 2022-yilda 19 915 ta, 2023-yil 1-choragi holatiga 4 226 ta ishlar ko‘rib tamomlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Fuqarolarning uy-joyga bo‘lgan huquqlari nafaqat konstitutsiyaya va milliy qonunchiligimizda qolaversa xalqaro huquq normalarida, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada, shuningdek, boshqa xalqaro hujjatlarda ham mustahkamlab qo‘yilgan, lekin uy-joy munosabatlarini huquqiy tartibga solishning yaxlit tizimi davlat tomonidan izchil uy-joy siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, uy-joy sohasidagi davlat boshqaruvini ta’minlashni, uy-joy siyosatini tartibga solishning samarali mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishni kafolatlaydi.

“Mulk daxlsizligi” tushunchasi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o‘zlarini tiyishlari va saqlashlaridan iborat bo‘lib, mulk davlat himoyasidadir. Mulkdor o‘zining mulk huquqi kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzilishini bartaraf etishni, shuningdek buzilgan huquqlarini tiklashni talab qilish huquqiga ega. Mulk daxlsizligiga oid konstitutsiyaviy normalar amaldagi qonunchiligimizda, jumladan, fuqaroviy-huquqiy, ma’muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy normalarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ushbu tamoyilning ijrosida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mulkdor mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina, ya’ni mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori yoki davlat hokimiyati organi qarori asosida mol-mulkni olib qo‘yish, sotib olish yo‘li bilan, qolaversa mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan mahrum etilishi mumkin.

Ta’kidlash muhimki, O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi, huquqiy jihatdan himoya qilinganligi, shuningdek xususiy mulk daxlsizligi konstitutsiyaviy va fuqaroviy huquqiy asoslarining qiyosiy tahlili, birinchidan, iqtisodiy makon birligi, ikkinchidan investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhiti, uchinchidan tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakati, to‘rtinchidan halol raqobat uchun shart-sharoit yaratilishi va monopol faoliyatga yo‘l qo‘yilmasligi kabi kafolatlari kesimida davlat tomonidan ishonchli mustahkamlangani va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliyotda qo‘llanilishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Konstitutsiya tamoyillarini hayotga bevosita joriy etishning moddiy va prosessual mexanizmlari sifatida O‘zbekistonning Fuqarolik, Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslari tegishli qoidalari, mulk va mulkchilikka oid bir qator qonun hujjatlari, jumladan “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi va boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida 2021-yil 14-iyulda qabul qilingan “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-tamoyillari to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘yilmaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-farmoni muhim ahamiyatga ega.[1]

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqilligimizning dastlabki yillarida qabul qilinib, amalga oshirilgan islohotlarning huquqiy poydevori sifatida xizmat qilib keldi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy munosabatlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda Konstitutsiya normalarini zamonaviy talablarga javob bera oladigan darajada takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Shu asosda mamlakatimizda xalqimiz erk-irodasini ifoda etgan keng qamrovli konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirildi. Yangi O‘zbekistonning yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi jumladan iqtisodiy negizlarining konstitutsiyaviy qoidalari to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va ular asosida qabul qilingan qonunlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining iqtisodiy negizlarini belgilab beradi, davlat iqtisodiyotning asosini tashkil qiluvchi xilma-xil mulk shakllari, jumladan xususiy mulk daxlsizligini to‘liq kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqaralik kodeksi;
3. “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonun;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-martdagi 114-sonli “O‘zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiylashtirishni davom ettirish to‘g‘risida” qarori;
5. “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi uy-joy fondini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.
6. “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun;
7. “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-tamoyillari to‘g‘risida”gi qonun;

[1] https://lex.uz/docs

8. https://president.uz/uz/lists/view/4815
9. https://lex.uz/docs/4674902
10. https://lex.uz/docs

MILLIY QONUNCHILIGIMIZDA FUQAROLARNING MITING, YIGILISH VA NAMOYISHLARDA ISHTIROK ETISHI YUZASIDAN HUQUQIY NORMALAR

Kamolov Z.I.
Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus-taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash kafedrasi katta o‘qituvchisi, polkovnik,

Saminjonov M.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus-taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash kafedrasi o‘qituvchisi, podpolkovnik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida, dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to‘qnashuv va nizolar davom etayotganligini inobatga olib, “Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o‘choqlari kamayish o‘rniga ko‘payib borayotganligi, ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shartligini ko‘rsatib bermoqda. Shunday ekan “Bu – zamon talabi”. Xususan, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar, diniy-axloqiy masalalar bo‘yicha maslahatchilar, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari faollari – barcha-barchamiz birgalikda ish olib borishimiz lozim. Ishni ana shunday tashkil etsak, har birimiz bu masalaga befarq bo‘lmasdan, o‘z bolamizni, o‘z uyimiz, o‘z mahallamizni o‘zimiz asraydigan bo‘lsak, men ishonaman, bunday balo-qazolar hayotimizdan, albatta yiroq bo‘ladi”, deb ta’kidlab o‘tgan edilar.

Ommaviy tartibsizliklar xususida so‘z ketganda, avvalo ko‘z oldimizga boshqarib bo‘lmas odamlar jamoasi, olomon keladi. Olomondagi barcha ishtirokchilarning tili, millati, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar inson hisoblanadi Rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyalarida ham O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida ham fuqarolarning ommaviy tadbirlarda erkin ishtirok etishi yuzasidan huquqiy normalar belgilab qo‘yilgan.

Bunday tadbirlarning tashkilotchilari va unda bevosita ishtirok etayotganlar ham o‘z oldiga qandaydir maqsadni belgilaydi. Lekin statistik ma’lumotlar va dunyo mamlakatlarida yuz bergan ommaviy tartibsizliklarni tahlil qilish jarayonida ma’lum bo‘lishicha ommaviy tartibsizliklar zamirida

javobini topmayotgan muammolar aholi ijtimoiy qatlamidagi o‘zaro tengsizlik, ichki ziddiyatlar, qonunchilik sohasidagi katta e’tirozlarga sababchi bo‘lgan shunga o‘xshash boshqa bugungi kundagi dolzarb muammolarni ko‘rishimiz mumkin.

Biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan muammolar natijasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ommaviy tartibsizliklar nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, balki harbiy jihatdan kuchli bo‘lgan davlatlarga ham o‘zining jiddiy ko‘ngilsiz muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o‘z navbatida, davlatning boshqaruv tizimini izdan chiqarishi, fuqarolar sog‘ligi va tinch hayotini xavf ostida qoldirishi, ularning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazishi, moddiy boyliklarni vayron bo‘lishi, qolaversa ushbu mamlakatning siyosiy tuzimi parokanda bo‘lib ketishigacha bo‘lgan hodisalarni olib kelishi mumkin.

Ommaviy tartibsizlik – uyushmagan bir guruh shaxslarning qonunda belgilangan va davlat hokimiyati tomonidan amal qilinadigan ijtimoiy tartibni buzish hisoblanadi. Ommaviy tartibsizliklar shaxs ustidan zo‘ravonlik, portlatishlar, o‘t qo‘yishlar va hokimiyatga qurol bilan qarshilik ko‘rsatishlar bilan bog‘lanib ketishi mumkin. Mazkur harakatlar barcha uchun xavflidir, chunki u tasodifan yig‘ilgan va boshqarib bo‘lmas olomon tomonidan sodir etiladi.

Ommaviy tartibsizliklar oshkora amalga oshirilganda ommaviy harakatlar aholi namoyishlari jarayonida vujudga kelishi va avj olishi mumkinligini inobatga olib, har bir davlat fuqarolarining mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilishiga doir huquq va erkinliklarini milliy davlat qonunchiligi asosida yetarli darajada aniq normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlovchi huquqiy asoslarini ko‘rib chiqish zarur.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya, Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyalarini tahlil qilganimizda mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazish erkin siyosiy huquq qilib berilganiga guvoh bo‘ldik. Bu o‘z navbatida, aholi o‘rtasida ommaviy tartibsizliklarni vujudga kelishining qisman oldini oladi.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishning tashkiliy huquqiy asoslariga murojaat qilishda birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga yuzlanamiz.

Jumladan, Konstitutsiyaning 38-moddasida “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega” deb qayd etilgan.

Bu norma, asosan ommaviy tartibsizliklar vujudga kelishini oldini olish shuningdek, uning ayanchli oqibatlari yuz bermasligini ta’minlash profilaktika

tarzida kiritilib fuqarolarning mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazish huquqini qonuniy asoslagan.

Qomusimizning 39-moddasida esa “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas deb ta’kidlangan.

Bu normaning mohiyati shundan iboratki, “O‘zbekiston xalqi:

inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali e’lon qilgani, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lida odimlagani demokratiyaning asosiy belgilaridan biri fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini erkin ifoda etishi” kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Biz yuqoridagi normalarni huquqiy asos deb ta’kidlashimizga asosiy sabab ommaviy tartibsizliklar vujudga kelishini oldini olishi mumkin bo‘lgan omillar mavjudligidir.

Bundan tashqari Bosh qomusimizning 93-moddasi 18-bandi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning mutlaq vakolatlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holatlar amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarni tasdiqlash kiradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini o‘z ichiga olgan 109-moddaning 19-bandida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti alohida hollarda (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi”deb belgilangan. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, ommaviy tartibsizliklar favqulodda holatlar joriy etilishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida favqulodda holatni joriy etish shartlari va tartibi, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabr kunidagi 737-sonli “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Konstitutsiyaviy Qonunda favqulodda holatga quyidagicha tushuncha berib o‘tilgan: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklariga, shuningdek yuridik shaxslarning huquqlariga nisbatan ushbu Konstitutsiyaviy Qonunda nazarda tutilgan ayrim cheklovlar belgilashga yo‘l

qo‘yadigan hamda ularning zimmasiga qo‘shimcha majburiyatlar yuklaydigan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida vaqtincha joriy qilinadigan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining alohida huquqiy rejimi.

Shuningdek, ushbu Qonunning 5 moddasida Favqulodda holatni joriy etish hollari quyidagicha belgilangan:

Favqulodda holat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayotiga, sog‘lig‘iga va xavfsizligiga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga va (yoki) hududiy yaxlitligiga bevosita tahdid soladigan hamda favqulodda choralar qo‘llamasdan bartaraf etish mumkin bo‘lmagan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, alohida hollarda joriy etiladi. Bunday holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

real tashqi xavf, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini va (yoki) hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga urinishlar, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik harakatlari, shuningdek zo‘ravonlik harakatlari bilan bir vaqtda yuz beradigan, fuqarolarning hayotiga, sog‘lig‘iga va xavfsizligiga, davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning kundalik faoliyatiga bevosita tahdid soluvchi o‘ta muhim hamda toifalangan obyektlarni yoki ayrim joylarni to‘sish yoki bosib olish, qonunga xilof qurolli tuzilmalarni tayyorlash (tashkil etish) va ularning faoliyati, millatlararo, konfessiyalararo va chegaraviy nizolar;

keng qamrovli avariya-qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar amalga oshirilishini talab etadigan yirik halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar, favqulodda ekologik vaziyatlardir.

Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurash fuqarolarimiz va shu qatorda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning qat’iy burchidir. Huquqni muhofaza qilish organlari, xususan ichki ishlar organlari va milliy gvardiya bo‘linmalari davlat manfaatlari, fuqarolarning hayoti va insoniy qadr-qimmati, konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ommaviy tartibsizlik kabi jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga doimo shay turishlari darkor.

Shunday qilib ommaviy tartibsizliklar davlat boshqaruv organlari faoliyati va fuqarolarning kundalik yashash turmush tarzini izdan chiqaruvchi ijtimoiy-xavfli jinoyatdir. Mazkur jinoyatni ogohlantirish, oldini olish va tezkor to‘xtatish chora-tadbirlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarblikka ega. Ommaviy tartibsizliklarni ogohlantirish, oldini olish va tezkor to‘xtatish huquqni muhofaza qiluvchi organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ommaviy tartibsizliklar kabi aholining ma’naviyatiga, yashash turmush tarziga, davlatning iqtisodiga ziyon yetkazadigan jinoyat turi bugungi kunda dunyo hamjamiyatining dolzarb masalalaridan bo‘lib qolmoqda. Ushbu jinoyatni ogohlantirish, oldini olish va tezkor to‘xtatishning mustahkam mexanizmini yaratish va davlat (huquqni muhofaza qilish) organlari amaliyotiga joriy etish – jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash sohasini yanada rivojlantirish, shaxsning huquqlari va erkinliklarini mustahkamlash, millat va davlatning xavfsizligini, aholining tinch-osoyishta hayotini ta’minlashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021 yil. - 317 bet
2. Dadaboyev X.V., Kamolov Z.I. Ommaviy tadbirlar, miting, yig‘ilish va namoyishlar davomida jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha milliy gvardiya bo‘linmalarining harakatlanish taktikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent., O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, 2020 yil
3. Ле Бон Гюстав. Психология народов и масс. - М., 2000. – С. 62.
4. Понятие, история и причины возникновения массовых беспорядков в Российской Федерасии Источник: ҳттпс:// www. библиофонд. ру/виеw. аспх?ид=654821© Библиофонд Опубликовано: 2013-12-06.
5. Raxmonov S.B. Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf ətishda Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan qo‘llaniladigan harakatlar taktikasini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati 2021 yil 7 bet.
6. Шарп Д.Ш. 25 От диктатуры к демократии: Стратегия и тактика освобождения / Пер. с англ. Н. Козловской М.: Новое издателство, 2005. – С. 84.
7. Ismoilov A.S., Raxmanov F.E., Akbarov L.I. Ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqiSh sabablari va bartaraf yetiSh yo‘llari. O‘quv qo‘llanma. T.:TOHTBYu, 2015 yil.

YANGI O‘ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI – MAMLAKAT TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGI KAFOLATI

Jo‘rayev J.R.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya
kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Ma’lumki, O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv taShqi siyosat olib bormoqda. Yangi

O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati dunyoda va mintaqada Shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko‘lamli o‘zgariShlarga asoslanib Shakllanmoqda.

O‘zbekiston – tinchliksevar yurt. Boshqa mamlakatlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli munosabatli aloqalarni o‘rnatiSh esa xalq farovonligi va mamlakat tinchligining eng muhim Shartlaridan biridir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muhim g‘oya va qoidalarni aks ettiruvchi qator asosiy o‘zgartiSh va qo‘Shimchalar kiritildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining taShqi siyosatidagi ayrim o‘zgariShlarni alohida ta’kidlaSh lozim. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning taShqi siyosatning asosiy tamoyillarini belgilovchi bir qator yangi normalar kiritildi. Ya’ni milliy davlatchilikni takomillaShtiriShning yangi bosqichida O‘zbekiston konstitutsiyaviy rivojlaniShining bir qator ustuvor yo‘naliShlari belgilab berildi. Shulardan biri bu O‘zbekiston jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘Shni davlatlar bilan hamkorlik, o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlaSh, tinchlik va totuvlik asosidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlaSh hamda rivojlantiriShga intiliShidir.

Bundan taShqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlatning taShqi siyosat bobida davlatning taShqi siyosati prinsiplari “davlatlarning hududiy yaxlitligi” qoidasi bilan to‘ldirildi va “tinchliksevar taShqi siyosat” uning asosiy vektori sifatida belgilangandi. Ya’ni Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subekti ekani ya’na bir bor ta’kidlab o‘tildi.

Shuningdek, Bosh qomusimizda O‘zbekistonning taShqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etiSh, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boShqa prinsip va normalariga asoslanishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, avvalgi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tashqi siyosat bobi faqatgina bitta moddadan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa ushbu bobga yana bir modda qo‘shildi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tashqi siyosat bobi 18-modda bilan to‘ldirilib, ushbu moddada O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oShiriShi belgilandi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda amalga oShirayotgan taShqi siyosat xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplariga asoslanuvchi, do‘stona va tinchliksevar taShqi siyosatdir.

Bugungi kunda mamlakatimiz jahon siyosatining markazlaridan biriga va global taShabbuslar muallifiga aylanmoqda. O‘zbekiston dunyoning 142 ta davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. ToShkentda 46 ta chet el elchixonalari, 3 ta boSh konsullik, 13 nafar faxriy konsullar, 24 ta xalqaro taShkilotlar vakolatxonalari, 26 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat taShkilotlari vakolatxonalari, 1 ta savdo vakolatxonasi samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro taShkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining 59 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro taShkilotlarning a’zosi bo‘lib, mamlakatimiz turli xil ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro Sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi. O‘zbekiston Respublikasiga fuqarolari vizasiz kiriShi mumkin bo‘lgan xorijiy mamlakatlar soni 90 taga etdi. Bugungi davr mazkur siyosatni izchillik bilan davom ettiriShni talab etmoqda.

O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro jarayonlardagi iShtiroki sezilarli darajada yuksaldi. Mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli o‘zgariSh va islohotlar taShqi siyosatimizda ham o‘z aksini topmoqda. O‘zbekiston oldingi davrlarga nisbatan ancha faol va pragmatik taShqi siyosat olib bormoqda. Bu siyosat o‘zining progressiv xarakteri va tinchlikparvarligi bilan xalqaro hamjamiyat e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

O‘zbekiston o‘z taShqi siyosatida nafaqat dunyoning etakchi davlatlari bilan, balki mintaqa davlatlari bilan ham o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantiriShga, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaShga harakat qilmoqda.

Eng avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari har qachongidan ko‘ra ancha kengaydi. Birgina 2022-2023 yillarda Markaziy Osiyo yo‘naliShida 150 dan ortiq oliy va yuqori darajadagi tadbirlar amalga oShirildi. Pirovard natijada Markaziy Osiyo xalqlarining bir-biriga yaqinligi ta’minlanmoqda, bordi-keldi aloqalari ko‘paydi, savdo-sotiq munosabatlarining salmog‘i ancha ortdi.

O‘zbekistonning izchil, konstruktiv va mutanosib siyosati tufayli Markaziy Osiyo davlatlari bilan iShonch va o‘zaro tuShuniSh ancha mustahkamlandi. Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantiriShning o‘ziga xos mexanizmi – mintaqa davlatlari rahbarlarining Maslahat uchraShuvlari joriy etildi.

Shuningdek, xalqaro munosabatlarda MDH, Shanxay hamkorlik taShkiloti, Turkiy davlatlar taShkiloti, Islom hamkorlik taShkiloti, Iqtisodiy hamkorlik taShkiloti kabi mintaqaviy taShkilotlarda O‘zbekiston tomonidan faol iShlar amalga oShirilmoqda. Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar bilan aloqalar izchil rivojlanmoqda. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari mamlakatimiz taShqi siyosatining muhim yo‘naliShi bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Kontitutsiyamizga taShqi siyosat sohasidagi kiritilgan o‘zgartiriShlar, aholining farovonligini oShiriShga va tadbirkorlik faoliyati bilan Shug‘ullanuvchilar uchun xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlar, o‘zaro manfaatli hamkorlik, ayniqsa savdo, investitsiya, transport-kommunikatsiya aloqalarini o‘rnatiSh va mustahkamlaSh imkoniyatlarini beradi. Jamiyat va davlat miqyosida amalga oShirilayotgan, olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oShiriSh uchun qulay taShqi siyosiy-diplomatik Sharoitlarni mustahkamlaShga zamin yaratadi. Jahonning etakchi va mintaqa davlatlari bilan ko‘p qirrali hamkorlik qiliShning tizimini rivojlantiriShga yangi imkoniyatlar beradi. Markaziy Osiyo va jahon siyosatidagi muhim yo‘naliShlar bo‘yicha xalqaro taShabbuslarini ilgari suriShga yangi huquqiy imkoniyatlar beradi. Mamlakatning xalqaro hamjamiyat oldida iShonchli Sherik sifatida maqomini kuchaytiriSh, obro‘ e’tiborini mustahkamlaShga kontseptual konstitutsiyaviy asos bo‘ladi.

KONSTITUTSIYADAGI O‘ZGARISHLARNING JAMIYATGA TADBIQ ETILISHINING TAHLILI

Quvvatov S.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi mamlakat hayotida muhim voqea bo‘lib, unda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiliShga qaratilgan qator yangiliklar amalga oShirildi. Bu o‘zgariShlar jamiyatning demokratik rivojlaniShi va har bir fuqaroning davlat hayotida faol iShtirok etiShini ta’minlaShga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Konstitutsiya islohoti haqida 2021-yil 6-noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kiriShiShi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marotaba ta’kidlab o‘tgan edi. Davlat rahbari o‘Sha yilning dekabr oyida, Konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo‘llagan tabrigida “Konstitutsiya’ni yangilaShdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etiShda etti marta emas, etmiSh marotaba o‘ylaSh”[1] zarurligini ta’kidlab o‘tgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga qadar 1992-yildan buyon Konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartiriSh kiritilgan edi. YangilaniSh natijasida BoSh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar 275 tadan 434 taga oShdi. Ya’ni, O‘zbekiston Konstitutsiyasi 65 foizga yangilanganligini ko‘riShimiz mumkin. Qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya hozirgi jamiyat, dunyodagi yangi qaraShlar zamonaviy

tendensiyalar, Shuningdek jamiyatdagi yangi o‘zgariShlar hamda inson qadri bilan bog‘liq barcha tamoyillarga asoslangan holda qabul qilindi.

Xususan, Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik Respublika”[2] jumlasi, “O‘zbekiston – boShqaruvning respublika Shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”[3] tarzida o‘zgartirilganligi davlatimizning dunyo davlatlari qatoriga kengroq kirib boriShi, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalarda keng ko‘lamli islohotlarning ochiliShiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlaSh, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qaraSh talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga buysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta’minlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb elon qiliniShi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmuSh kechiriShi uchun Shart-Sharoit yaratiSh majburiyatini oldi. Bu mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlaSh, jamiyatda kuchli tabaqalaniSh avj oliShiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta’lim va tibbiyot kafolatlaniShi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari iShlaShi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlaSh, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi, oddiy aytganda eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxShi ta’lim olib, farovonlikka eriShiSh imkoniyati bo‘liShi kerak.[4]

O‘zbekiston diniy e’tiqodidan qat’iy nazar barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiya’ni egallaydi. BoShqacha aytganda bu norma-O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasigini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini taShki etadi. Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiliShi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda iSh olib boriShga, xususan sudga murojaat qiliShga imkon beradi. Referundumda qabul qilingan qonunga binoan, oliy sud 3 oy ichida tegiShli Plenum qarorini qabul qildi. Bu qaror asosida sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan to‘ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo‘llaSh yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiliShi qonunchiligimizning yangi bosqichda inson qadri uchun tamoyillariga xizmat qiladi.

Eski Konstitutsiyada imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib, ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘liShi Shart edi. Yangi konstitutsiyada esa,

imtiyozlar faqat qonunga muofiq belgilaniShi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘liShi Shart ekanligi belgilandi. Bu bilan Konstitutsiyaning amalda iShlaShi qiyin bo‘lgan normalaridan biri real voqelikka moslaShtirildi. Bu bilan, turli jabhalardagi imtiyoz va preferensiyalarni ko‘p holatlarda qonunosti hujjatlar asosida beriSh amaliyotiga barham berildi.

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiliShi belgilandi. Shunga ko‘ra, endilikda qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalar yuzasidan o‘zaro munosabatlarda ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, aynan foydasiga hal etiladigan bo‘ldi etiladi. Bundan taShqari, turli hujjatlarni yuritiShda davlat organlari tomonidan xatoga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, masalan pensiya tayinlaShda tegiShli hujjatlar topilmay qolganda, bu tuShunmovchilik fuqaro foydasiga hal etiliShi kerak.

Xususan, 1992 – yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga ko‘ra, huquq va erkinliklarning cheklaniShi masalasi quyidagi ikki norma bilan tartibga solingan edi:

Birinchisi, insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanib qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etiShga yoki ularni cheklab quyiShga hech kim haqli emas.

Ikkinchisi, fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oShiriShda boShqa Shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini amalga oShiriShda boShqa Shaxslarning davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari Shart.[5]

UShbu ikkita norma deyarli saqlanib qolingan holda, qo‘Shimcha normalar bilan to‘ldirildi. Ya’ni, insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini axloqni, boShqa Shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qiliSh, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlaSh maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklaniShi mumkinligi nazarda tutildi. Yangi axborot izlaSh, oliSh va tarqatiSh huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boShqa Shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qiliSh, jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlaSh, davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boShqa sirning oShkor etiliShiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida cheklaniShi mumkin bo‘ldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya yana bir muhim norma bilan ajralib turadi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchilarning mehnati jamiyat va davlatni rivojlantiriSh, sog‘lom, barkamol avlodni ShakllantiriSh hamda tarbiyalaSh, xalqning ma’naviy va ma’daniy salohiyatini saqlaSh hamda boyitiShning asosi sifatida e’tirof etildi. Davlat o‘qituvchilarning Sha’ni va qadr-qimmatini himoya qiliSh, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy

jihatdan o‘siShi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiliShi amalda o‘ztasdig‘ini topdi.[6] Shu tariqa, o‘qituvchilar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin BoSh qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi.

Avvalgi Konstitutsiyaning “Ommaviy axborot vositalar” nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq iShlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar”, normasi mavjud edi xolos. Keyinchalik bu modda ikkita moddadan iborat tarzda qayta tahrirlandi. Ya’ni, ommaviy axborot vositalari erkin bo‘lib, qonunga muvofiq iSh olib boriShi, davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlaSh, oliSh, undan foydalaniSh va uni tarqatiShga bo‘lgan huquqlari amalga oShiriliShini kafolatlaShi, ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning iShonchliligi uchun javobgar bo‘liShi hamda senzuraga yo‘l qo‘yilmasligi mustahkamlandi. Endilikda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qiliSh yoki aralaShiSh qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘liShi to‘g‘risidagi yangi normaning kiritilganligi, mamlakatimizda ham zamonaviy ommaviy axborot vositalarining rivojlaniShiga zamin yaratganini ko‘riShimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlaniShi, ya’ni yangi qoidalarning amaliyotga joriy etiliShi fuqarolarning davlatga bo‘lgan iShonchini oShirdi. Teng imkoniyatlar yaratiliShi esa, jinsiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy holatidan qat’iy nazar, har bir fuqaroning huquqlari teng raviShda himoya qiliniShini ta’minladi. Xavfsizlik va huquqiy kafolatlarning mustahkamlaniShi huquqni muhofaza qiliSh tizimi yanada kuchayib, fuqarolarning Shaxsiy va iqtisodiy xavfsizligi iShonchli tarzda ta’minlaniShiga turtki berdi.

Umuman olganda, yangi Konstitutsiyaning qabul qiliniShi O‘zbekiston fuqarolari uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. U nafaqat jamiyatning barcha qatlamlarini huquqiy himoya qiliShga xizmat qildi, balki mamlakatni demokratik va ijtimoiy davlat sifatida rivojlantiriSh yo‘lida muhim asos yaratdi. Bu o‘zgariShlar har bir fuqaroning farovon hayot kechiriShi va o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqariShi uchun keng Sharoitlar yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yaxti:

1. Sh.M.Mirziyoyev “EtmiSh marta o‘ylab, qaror qiliSh kerak” // https://kun.uz/news/2021/12/07/etmiSh-marta-oylab-qaror-qiliSh-kerak-Shavkat-Mirziyoyev-asosiy-qomusni-yangilaSh-togrisida

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil // https://lex.uz/docs/-20596

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil // https://lex.uz/docs/-6445145

4. M.Dimovska “Farovonlikka eriShiSh uchun tajribalar o‘tkaziShimiz va hamkorlik qiliShimiz kerak” // https://www.gazeta.uz/oz/2022/09/16/human-development-un/
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil. 19-modda // https://lex.uz/docs/-20596
6. D.Zoirova “O‘qituvchilarning qadr-qimmatini himoya qiliSh konstitutsiyaviy qoidaga aylandi” // https://yuz.uz/uz/news/oqituvchilarning-qadr-qimmatini-himoya-qiliSh-konstitutsiyaviy-qoidaga-aylandi.

AHOLINING IJTIMOIY EHTIYOJMAND AYRIM TOIFALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA ULARNING BANDLIGIGA KO‘MAKLASHISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI (SUDLANGANLARNI XORIJ TILIGA O‘QITISH MISOLIDA)

Ikanova L.S.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rganiSh kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Odatda jamiyatning har bir a’zosi o‘zi yaShayotgan mamlakatning konstitutsiyasini, qonunlarini biliShi va ularga rioya qiliShi juda muhimdir. Chunki ko‘plab huquqbuzarliklar va jinoyatlar fuqarolarning qonunni bilmasliklari oqibatida kelib chiqadi. Zero, qonunni bilmaslik jinoyat uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Jamiyatimizdagi sudlangan va ozodlikdan mahrum etilgan Shahslarning huquqlari haqida gapirar ekanmiz, avvalo O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ularning haq-huquqlarini himoya qiluvchi bir necha normalarning mavjudligi va ularning ta’lim oliShga bo‘lgan huquqlarini ta’minlaniShi bilan bog‘liq huquqiy normalar amaldagi Jinoyat Kodeksi va Jinoyat-ijroiya Kodeksida mavjudligini ta’kidlaSh kerak.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 28-moddasida [1] “**Ozodlikdan mahrum etilgan Shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘liniShi hamda inson Shaxsiga xos bo‘lgan Sha’ni va qadr-qimmati hurmat qiliniShi huquqiga ega**” – deb belgilangan. Bunda, inson hatto jinoyat sodir etgan taqdirda ham uning huquqlari, jumladan ta’lim oliSh huquqi qonun tomonidan himoya qiliniShi va uning Sha’ni va qadr qimmati hurmat qiliniShi belgilab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyamizning 43-moddasida “**Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlaSh, ularni iShsizlikdan himoya qiliSh, Shuningdek kambag‘allikni qisqartiriSh choralarini ko‘radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlaniShini taShkil etadi hamda rag‘batlantiradi**” – deb qayd qilingan. Ya’ni har bir fuqaroning bandligini ta’minlaSh davlatning vazifasidir. Shu jumladan, davlat sudlangan

Shahslar va ozodlikdan mahrum etilgan Shahslarning ham bandligini ta’minlaSh, kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlaniShini taShkil qiliShga mas’ul hisoblanadi.

Shu bois, jazoni ijro etiSh muassasalarda (JIEM) sudlangan Shahslarning kasbga yo‘naltirilgan ta’limi taShkil qilingan bo‘lib, u erda mahkumlar duradgorlik, ustachilik, poyafzal tikiSh kabi kasblarga doir to‘garaklar taShkil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya Kodeksining 97^1-moddasida [2] mahkumlarning tuzaliSh yo‘liga o‘tganligini aniqlaSh mezonlari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, JIEMda jazoni o‘tayotgan mahkumlarning tuzaliSh yo‘liga o‘tganligi Jinoyat-ijroiya Kodeksining 102^1-moddasida nazarda tutilgan komissiya tomonidan har chorak yakunlariga ko‘ra quyidagi mezonlardan biri asosida belgilanadi:

mahkumning mehnatga vijdonan munosabatda bo‘liShi, belgilangan mehnat normalarini bajariShi, ongli raviShda mustaqil iShlaSh ko‘nikmalarining Shakllanganligi, o‘qiShga va kasb-hunar o‘rganiShga bo‘lgan qiziqiShi”

Mazkur moddadan anglaShiladiki, sudlangan, xususan, jazoni ijro etiSh muassasalarida jazoni o‘tayotgan mahkumlarning tuzaliSh yo‘liga o‘tganligi uning o‘qiShga va kasb-hunar o‘rganiShga bo‘lgan qiziqiShi mezoni bilan ham belgilanadi.

Bundan taShqari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga [3] 48^1-moddasiga (Ozodlikni cheklaSh) asosan, “Sud ozodlikni cheklaShga hukm qilingan Shaxsning zimmasiga o’zi etkazgan moddiy va ma’naviy zararning o‘rnini qoplaSh, iShga yoki o‘qiShga joylaShiSh majburiyatlarini, Shuningdek uning tuzaliShiga ko‘maklaShuvchi boShqa majburiyatlarni yuklaShi mumkin”.

Bundan ko‘rinib turibdiki, sud tomonidan sudlangan Shaxs, ya’ni ozodlikni cheklaShga hukm qilingan Shaxsning zimmasiga o‘qiShga joylaShiSh majburiyatini yuklaShi mumkin.

70-modda. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotiShi munosabati bilan uni jazodan ozod qiliSh

“Jinoyat sodir etgan Shaxs agar iSh sudda ko‘rilayotgan vaqtgacha Sharoit o‘zgardi yoki Shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o‘qiShga halol munosabati bilan o‘zini ko’rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo‘qotdi deb e’tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qiliShi mumkin”.

Mazkur moddaga ko‘ra, kiShining namunali xulqi, mehnatga yoki o‘qiShga halol munosabati Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotiShiga, buning natijasida uni jazodan ozod qiliniShiga sabab bo‘liShi mumkin.

Umuman olganda, ijtimoiy xavflilikning yo‘qolishi deganda, iShning sudda ko‘riliShi vaqtiga kelib, jinoyatni sodir etiSh va ijtimoiy xavfli bo‘lgan

oqibatlarning yuzaga keliShida tarkibiy qism bo’lgan, Shuningdek ijtimoiy xavfli qilmiSh sodir etganligi uchun jinoiy ta’qib etiSh uchun xizmat qilgan holatlar, sabablarning bartaraf etiliShi tuShuniladi.

O‘zbekiston Respublikasida amaliyotga tadbiq etilgan mahkumlar uchun ta’lim haqida gapirar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasi Respublikada istiqomat qiluvchi fuqarolarning ta’lim oliSh huquqi haqida ta’kidlaShimiz joiz. Chunki uShbu modda jarayonning asosi sifatida hizmat qiladi. Unda “Har kim ta’lim oliSh huquqiga ega” deya mustahkamlangan. UShbu moddada“…Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.…” deb davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limni ta’minlaShi keltirilgan.

UShbu moddalarning ta’minlaniShini asoslaSh uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 apreldagi “Ozodlikdan mahrum etilgan Shaxslarning umumiy o‘rta va kasb-hunar ta’limi tizimini takomillaShtiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 318-son qarorini [4] keltiriShimiz mumkin. Unga ko‘ra ayrim jazoni ijro etiSh koloniyalarida (bundan buyon matnda JIEK deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi umumta’lim maktablari filiallari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Jazoni ijro etiSh muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarni qiziqiShidan kelib chiqqan holda, to‘garaklar taShkil etiSh orqali ularni xorijiy tillarga o‘rgatiSh amaliyoti joriy etilgan. Xususan, voyaga etmaganlarning umumiy o‘rta ta’lim olShini ta’minlaShda fanlar o‘qitilganda uShbu fanlarning orasida xorijiy tillar ham mavjud.

Jumladan, jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarni imkoniyatidan unumli foydalangan holda, bugungi kunda ayrim mahkumlar xorijiy tillarga o‘rgatilmoqda. Xususan, mahkumlarga ingliz, koreys, rus, turk va xitoy tillari o‘rgatilmoqda. Shu bilan birga jazoni ijro etiSh koloniyalarida taShkil qilingan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi umumta’lim maktablari filiallarida tahsil olayotgan mahkumlarga rus va ingliz tillari bo‘yicha dars maShg‘ulotlari o‘tkazilib kelinmoqda. Umumta’lim maktabida tahsil olayotgan o‘quvchi mahkumlar hududiy xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan 3 668 ta (Shundan 227 tasi rus tili va 211 tasi ingliz tili) o‘quv darsliklari bilan ta’minlangan.

Mazkur o‘rganiShlar natijasida sudlangan Shahslarni ta’lim olShi, xususan xoririy tillarga o‘qitiliShi ularning JIEK va JIEMlardan ozod etilgandan so‘ng bandligiga ko‘maklaShiSh, kasb-hunarga tayyorlaSh, qayta tayyorlaSh va malakasini oShiriSh, Shunungdek, ularni qayta ijtimoiylaShuviga ko‘mak beriShda muhim hisoblanadi. Chunki, hozirgi zamonaviy dunyoda inson jamiyatda o‘z o‘rnini egallaShi, kasbga va ega bo‘liShi uchun xirijiy tillarnu, xususan, ingliz tilini biliShi muhimdir. Shu sababli, ularni masofaviy

ta’lim Shaklida, xorij tillariga, Shu jumladan, ingliz tili o‘quv kurslariga yuboriSh va ularga mos tarzda masofaviy ingliz tili to‘garaklari metodikasini iShlab chiqiSh taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. lex.uz›docs/6445147
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. https://lex.uz-/acts/163629
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. https://lex.uz/docs/-111453
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 apreldagi “Ozodlikdan mahrum etilgan Shaxslarning umumiy o‘rta va kasb-hunar ta’limi tizimini takomillaShtiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 318-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-4290695

KONSTITUTSIYA - INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA’MINLASHNING ASOSIY QOMUSI

Mirzayev G‘.R.
Jamoat xavfsizligi universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi boShlig‘i o‘rinbosari, tarix fanlari doktori, dotsent, mayor.

O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda keng qamrovda amalga oShirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini mamlakatda yaShayotgan har bir insonga munosib turmuSh-tarzini yaratiSh, har bir odamning huquq va erkinliklarini ta’minlanayotganligi bilan xarakterlanadi.

Boisi, insonga tug‘ilganidan boShlab tegiShli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, Sha'ni, qadr-qimmati, ozodligi, tengligi, erkin bo‘liShi, xavfsizligi, daxlsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat’i nazar, insonga azaliy tegiShlidir, deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Insonning qadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklari daxlsiz, ajralmasdir, ular har kimga tug‘ilganidan boShlab tegiShli bo‘ladi [3, 24.].

Huquqiy demokratik davlatda insonning qadr-qimmati, asosiyo huquq va erkinliklarining daxlsizligi, ajralmasligini belgilaSh bilan bir qatorda, ularni har kimga tug‘ilganidan boShlab tegiShli ekanligining tan oliniShi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19-moddasida inson huquq va erkinlari har kimga tug‘ilganidan boShlab tegiShli bo‘ladi, degan muhim qoida belgilanganligiga [3, 25.] alohida e’tibor qaratiSh joiz. Jumladan, 19-moddada Shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan

normalariga binoan hamda uShbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boShlab tegiShli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqiShi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo‘liShi Shart”.

UShbu qoida bilan insonning asosiy, tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlaSh davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasi sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi [1, 12.]. Mazkur huquqlarga yaShaSh huquqi, erkinlikka bo‘lgan huquq, Shaxsiy va uy-joy va boShqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta’minlaniShiga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, xalq bilan muloqot tizimining yo‘lga qo‘yilganligi, mantiqsiz “propiska” tizimining tubdan isloh qiliniShi, davlat xizmatlarini ko‘rsatiShda eksterritoriallik printsipining joriy etilganligi, mansabdorlarning doimiy hisobot berib boriShi, ular faoliyatining ochiqligi va Shaffofligini ta’minlaShga qaratilgan talablarning belgilanganligi, majburiy mehnatga barham berilganligi, inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan hurmatning yangi bosqichga ko‘tarilganligini alohida ta’kidlaSh joiz.

Xususan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasining I ustuvor yo‘naliShida belgilab berilganidek, “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqariShi uchun munosib Sharoitlarni yaratiSh” uchun 44 ta maqsaddan iborat vazifalar belgilab berilgan [2, 2-37.].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda yangilangan konstitutsiya asosida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda qadrini ulug‘lashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilganligi shubhasiz, Yangi O‘zbekistonda Inson huquq va erkinliklari - oliy qadriyat ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent. “O‘zbekiston”, 2023. – 112 b.

2. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi. ToShkent, 2023. –37 b.

3. Yangilanayotgan konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. – Toshkent. “Adolat”, 2023. – 180 b.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – IQTISODIY ISLOHOTLARNING MUSTAHKAM HUQUQIY ASOSI

Rizoqulov A.G‘.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-kurs talabasi.

Yangilangan Konstitutsiya – bu davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim o‘zgariShlarni belgilovchi hujjatdir. U inson huquqlari, jamiyat manfaatlari va davlat boShqaruvining asosiy tamoyillarini zamonaviy talablar asosida tartibga soladi [1.].

UShbu Konstitutsiyada iqtisodiyotga alohida e’tibor qaratilib, uning rivoji va barqarorligi davlat siyosatining asosiy yo‘naliShlaridan biri sifatida belgilangan.

Darhaqiqat, konstitutsiyaning IX bobi “iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar” deb nomlangan va uning 41-moddasida “har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. bank operasiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi” [2, 26.] deb kishilarning mulkdorligi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilganligini ko‘rish mumkin

Shuningdek, 42-moddasida esa, quyidagi iqtisodiy huquqlarning guvohi bo‘lamiz: “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq oliSh, Shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi” [2, 27.].

Natijada iqtisodiyot bilan bog‘liq asosiy tamoyillar va yo‘nalishlarning keltirilishi xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi; xususiy mulk himoyasi; xususiy mulk daxlsizligi kafolatlanadi. Har bir fuqaro va tadbirkor o‘z mulkidan qonun doirasida foydalanishi mumkinligi va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda davlatning bosh-qosh bo‘lishi mamlakat iqtisodiy ahvolininig yaxShilaniShiga xizamt qiladi.

Iqtisodiy faoliyatning barcha shakllariga davlat tomonidan kafolat va yordam berilishi belgilanganligini ham alohida ta’kidlash joiz. Xususan, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishni mustahkamlashi bilan birga davlatning asosiy vazifasi sifatida iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirilishi belgilanadi.

Yangilangan Konstitutsiyada belgilab qo‘yilganligidek, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish va bozor mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan qoidalar mustahkamlanganligini ko‘rish mumkin. Ijtimoiy adolat tamoyillari konstitutsiyada davlatning ijtimoiy mas’uliyati aniq belgilangan: aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlaSh, kambag‘allikni qisqartiriSh, aholiga munosib mehnat sharoitlarini yaratish majburiyati qayd etilgan. Tabiiy boyliklarni adolatli taqsimlash va jamiyat farovonligini oshirish tamoyillari ham e’tirof etiladi. Bu esa, barqaror rivojlaniSh va yaShil iqtisodiyotni qaror toptiriSh borasida galdagi muhim vazifalarni belgilab beradi.

Qayd etib o‘tiSh joizki, yangilangan Konstitutsiya asosida 2023 yil 11 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158 son farmoni qabul qilindi [3.].

Strategiyada 5 ustuvor yo‘naliSh bo‘yicha 100 ta muhim maqsad o‘z aksini topgan.

Eng muhimi, strategiya orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

Ta’kidlash joizki, strategiya o‘z ichiga barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash kabi asosiy g‘oyalarni o‘z ichiga olgan.

Mazkur yo‘naliShlar doirasida kelgusi etti yilda iqtisodiyot hajmini ikki barobarga oShiriSh, xususan, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollar, aholi jon boShiga daromadlarni 4 ming dollarga etkaziSh, makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlaniShni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta'minlaSh, mamlakatda qulay investitsiyaviy va iShbilarmonlik muhitini rivojlantiriSh maqsad qilingan [3.].

Xulosa qilib aytganda, Yangilangan Konstitutsiya asosida iqtisodiy islohotlar izchil amalga oShiriliShi natijasida mamlakatda mulkdorlar sonining ko‘payiShiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. - B.26.

3. https://lex.uz/docs/-6600413.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YANGI KONSTITUTSIYASIDA HUDUDIY YAXLITLIK: DAVLAT MUSTAQILLIGINING MUHIM GAROVI

Eshtilovov S.B.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Bakalaviriat fakulteti ofiseri,leytenant.

Yamanqulov S.S.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti.

O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 aprelda qabul qilingan yangi Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida tub o‘zgariShlarni amalga oShiriShga qaratilgan. Konstitutsiyaning muhim jihatlaridan biri ham O‘zbekistonning hududiy yaxlitligi masalasiga bag‘iShlangan bo‘lib, bu davlat mustaqilligini ta'minlaShning muhim g‘oyaviy va huquqiy asosini taShkil etadi.

Konstitutsiyaviy tahlil:

Yangi Konstitutsiyaning 11-moddasida "O‘zbekiston Respublikasining davlat chegaralari daxlsizdir. O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligi bo‘linmasdir" deb ta'kidlangan. Bu modda O‘zbekistonning hududiy butunligini himoya qiliShning asosiy qonuniy asosini belgilaydi va uning mustaqilligini ta'minlaShning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Yangi Konstitutsiya, Shuningdek, davlatning suverenitetini mustahkamlaShga va uni to‘liq amalga oShiriShni hududiy yaxlitlik bilan bog‘laShga qaratilgan. Konstitutsiyaning 12-moddasida "O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida o‘z suverenitetini to‘liq amalga oShiradi" deb ta'kidlangan. Bundan taShqari, 13-modda O‘zbekiston hududidagi tabiiy boyliklar va resurslarga to‘liq ega ekanligini ta'kidlaydi va xalqaro Shartnomalarga qat'iy rioya qiliShni ta'kidlaydi (14-modda). UShbu moddalar hududiy yaxlitlikni himoya qiliShning konstitutsiyaviy asosini mustahkamlaShga qaratilgan.

Hududiy yaxlitlikning zamonaviy talqinlari:

Yangi Konstitutsiyada hududiy yaxlitlik masalasiga zamonaviy talqin berilgan bo‘lib, uning doirasini kengaytiradi. Bu Shuni ko‘rsatadiki, hududiy yaxlitlik nafaqat geografik chegaralarni himoya qiliSh, balki mamlakatning madaniy va milliy birligini, tarixiy xotirasini saqlaSh, millatlararo totuvlikni mustahkamlaSh va barcha fuqarolar uchun teng huquq va erkinliklarni ta'minlaShni ham o‘z ichiga oladi.

Hududiy yaxlitlikni himoya qilish chora-tadbirlari:

Yangi Konstitutsiya hududiy yaxlitlikni himoya qiliSh uchun quyidagi chora-tadbirlarni belgilaydi:

• Qurolli Kuchlarni RivojlantiriSh: Davlat o‘z armiyasini mustahkamlaSh va zamonaviylaShtiriSh orqali xavfsizlikni ta'minlaydi.

• TaShqi Siyosat: O‘zbekiston xalqaro hamkorlikni rivojlantiriSh va xalqaro huquq normalariga rioya qiliSh orqali tinchlik va barqarorlikni ta'minlaShga intiladi.

• Ichki Siyosat: Davlat millatlararo totuvlikni mustahkamlaSh, vatanga muhabbatni tarbiyalaSh va barcha fuqarolar uchun teng huquq va erkinliklarni ta'minlaShga e'tibor qaratadi.

• Huquqiy Asoslarni MustahkamlaSh: Davlat hududiy yaxlitlikni himoya qiliShga qaratilgan qonunlar va boShqa huquqiy hujjatlarni qabul qiladi.

Xulosa:

O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida hududiy yaxlitlik masalasiga alohida e'tibor beriliShi mamlakatning mustaqilligini mustahkamlaSh va himoya qiliShning muhimligini ko‘rsatadi. Bu muhim g‘oya davlatning barcha siyosiy va ijtimoiy hayotini qamrab oladi va O‘zbekistonning mustaqilligini, xavfsizligini va barqarorligini ta'minlaShning asosiy Sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023 yil)

2. "O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi: Tahlil va Sharh" - ToShkent: "O‘zbekiston" naShriyoti,

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.

4.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlaSh – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.:O‘zbekiston, 2017.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.

– T.:O‘zbekiston, 2017.

6.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYAYASI - SAYLOV HUQUQINING KAFOLATLARI

Axmedov Sh.O.

Jamoat xavfsizligini ta’minlaSh kafedrasi o‘qituvchisi kapitan,

Najmutdinova M.F.

Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda barcha sohalarda amalga oShirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar avvalo inson qadrini ulug‘laSh, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiliShga qaratilgan bo‘lib,

bu borada qonun va qonunosti hujjatlari tobora takomillaShtirilib borilmoqda. Ayniqsa, aholining siyosiy va huquqiy madaniyati va savodxonligini oShiriSh, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini yanada mustahkamlaSh masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Saylov jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslarini muntazam o‘rganib boriSh va takomillaShtiriSh – bu jamiyatni demokratlaShtiriSh va yangilaSh, mamlakatni modernizatsiya va isloh etiSh davridagi o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda deyarli barcha davlatlarda konstitutsiya saylov qonunchiligining asosiy huquqiy poydevori hisoblanadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham asosiy qonun maqomida saylov qonunchiligining mustahkam huquqiy negizi sifatida namoyon bo‘ladi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumiga asosan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri mamlakatdagi demokratik islohotlarning muhim bosqichi hisoblanadi. UShbu Konstitutsiya O‘zbekistonning milliy va umumbaShariy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot yo‘lini mustahkamlaydi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartiriSh va qo‘Shimchalarga ko‘ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovi aralaSh saylov tizimi asosida o‘tkaziliShi belgilandi. Quyi palata deputatlarining 50 foizi, ya’ni 75 nafari odatdagidek mojaritar saylov tizimiga muvofiq bir mandatli saylov okruglaridan saylandi. Qolgan 50 foizi, ya’ni 75 nafari proporsional saylov tizimi asosida yagona saylov okrugida partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar ro‘yxati (partiya ro‘yxati) bo‘yicha saylandi. Demak, saylovchi saylovda ikkita byulleten orqali ovoz berdi: birinchisida aniq bir nomzodga ovoz bersa, boShqasida o‘zi iShongan siyosiy partiya’ni belgiladi[1].

Bu - mamlakatimizning milliy saylov tizimi tarixidagi g‘oyat muhim yangilik. AralaSh saylov tizimining afzalligi - o‘zida amaldagi mojaritar va proporsional saylov tizimlarining eng ilg‘or tamoyillarini uyg‘unlaShtirganida.

Amaliyotga joriy etilayotgan proporsional saylov tizimida saylovchi deputatlikka nomzodga emas, balki siyosiy partiyalarga ovoz beradi. Qonunchilik palatasidagi ellik foiz deputatlik o‘rinlari siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib raviShda siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlar ro‘yxatlari o‘rtasida taqsimlanadi.

Ma’lumki, amaldagi saylov qonunchiligiga ko‘ra, siyosiy partiyalar har bir saylov okrugi bo‘yicha aniq nomzodni ilgari surardi. Saylov okrugi bo‘yicha ovoz beriShda iShtirok etgan saylovchilarning ellik foizidan ortig‘i ularga yoqlab ovoz bergandagina deputat etib saylaniShi mumkin edi. Jumladan, Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkaziSh uchun bir yuz ellikta

[1]Milliy saylov tizimi: demokratik islohotlarning yangi davri” maqola. Zayniddin Nizamxodjaev, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi, O‘zbekiston Qahramoni

hududiy saylov okrugi tuzilib, ularning har biridan bir nafardan deputat saylanardi.

Mojaritar saylov tizimida siyosiy partiyalar faoliyatini samarali rivojlantiriSh, ularni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining qudratli vositasiga aylantiriShga monelik qiluvchi muayyan muammolar mavjudligi ham sir emas. Qolaversa, mojaritar tizimda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlarning hech biri saylovchilarning yarmidan ko‘pining ovozini ololmasligi mumkin. Bu esa takroriy ovoz beriShni o‘tkaziSh, qo‘Shimcha taShviSh va xarajat demakdir. Jumladan, 2019-yilda o‘tkazilgan parlament saylovlarida 25 ta saylov okrugida takroriy ovoz beriSh o‘tkazilgan[1].

Bundan taShqari, bo‘Shab qolgan deputatlar o‘rnini to‘ldiriSh uchun saylov komissiyalari faoliyatini qaytadan tiklaSh zarur. Bu esa minglab odamlarni yana saylov komissiyalari iShiga jalb etiSh, saylovchilarni yana ovoz beriShga da’vat etiSh bilan bog‘liqdir. Proporsional saylov tizimining afzalligi – bunday holatlarda partiya tomonidan ko‘rsatilgan ro‘yxat bo‘yicha navbatdagi nomzod deputatlik o‘rnini egallaydi. Partiyalar tomonidan Shakllantirilgan ro‘yxatlar keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilinadi.

Xalq deputatlari viloyatlar va ToShkent Shahar KengaShlaridagi deputatlik o‘rinlarida ham muayyan o‘zgariShlar yuz beradi. Endilikda deputatlik o‘rinlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda tegiShli mahalliy KengaSh tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- aholi soni 2 million nafargacha bo‘lgan hududlarda – 30 tadan 40 tagacha;
- aholi soni 2 milliondan 3 million nafargacha bo‘lgan hududlarda – 40 tadan 50 tagacha;
- aholi soni 3 million nafardan ortiq bo‘lgan hududlarda – 50 tadan 60 tagacha.

Xalq deputatlari tuman va Shahar KengaShlaridagi deputatlik o‘rinlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda tegiShli mahalliy KengaSh tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- aholi soni 30 ming nafargacha bo‘lgan hududlarda – 10 tadan 15 tagacha;
- aholi soni 30 mingdan 100 ming nafargacha bo‘lgan hududlarda – 15 tadan 20 tagacha;
- aholi soni 100 mingdan 300 ming nafargacha bo‘lgan hududlarda – 20 tadan 25 tagacha;
- aholi soni 300 ming nafardan ortiq bo‘lgan hududlarda – 25 tadan 30 tagacha[2].

[1] https://kun.uz

[2] Milliy saylov tizimi: demokratik islohotlarning yangi davri” maqola. Zayniddin Nizamxodjaev, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi, O‘zbekiston Qahramoni.

Ilgari xalq deputatlari viloyatlar va ToShkent Shahar KengaShlarida teng tartibda - oltmiSh nafargacha, tuman va Shahar KengaShlarida esa o‘ttiz nafargacha deputatlik o‘rni bo‘lgan.

Saylov kodeksiga kiritilgan o‘zgartiriSh va qo‘Shimchalarga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkaziShda O‘zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkaziSh uchun esa etmiSh beShta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi. Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkaziSh bo‘yicha bir mandatli saylov okruglari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i KenGESining, xalq deputatlari viloyatlar va ToShkent Shahar KengaShlarining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan har beSh yilda bir marta tuziladi[1].

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkaziSh uchun O‘zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Joriy yilda butun dunyo bo‘ylab, ta’bir joiz bo‘lsa, yirik saylov marafoni bo‘lib o‘tmoqda. Yil davomida dunyo aholisining yarmidan ko‘pini taShkil qiluvchi 70 ga yaqin davlatda Prezident va parlament saylovlari o‘tkaziladi. Evroparlamentga saylov va Fransiyaning muddatidan oldin parlament saylovi Shular jumlasidandir[2].

Konstitutsiyamizga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi 2024-yil 27-oktyabrda parlament saylovini o‘tkaziSh to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shu kuni mahalliy vakillik organlariga, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i KenGESi, Shuningdek, xalq deputatlari viloyatlar, ToShkent Shahar va tuman (Shahar) KengaShlari deputatligiga ham saylov o‘tkazildi[3].

Shu o‘rinda saylov Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan mutlaqo yangicha ijtimoiy-siyosiy Sharoitda o‘tganligi alohida ahamiyatga egaligini ta’kidlaSh lozim. Binobarin, keyingi yillarda demokratik islohotlarni yanada chuqurlaShtiriSh va mamlakatimizni modernizatsiya qiliSh maqsadida parlament va siyosiy partiyalarning rolini kuchaytiriSh, saylov va referendumlarni o‘tkaziSh tartibini yanada takomillaShtiriShga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oShirildi. Bu borada o‘tgan Saylov jamiyatimizning siyosiy etukligini, Yangi O‘zbekistonni quriSh yo‘lida amalga oShirilayotgan islohotlar qo‘llab-quvvatlanayotganini yana bir bor baralla namoyon etdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida katta vakolatlarga ega bo‘lgan holda taShkil

[1] Qonunchilik milliy ma’lumotlar bazasi lex.uz

[2] Akmal Saidov, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari axborotnomasi.

[3] Qonunchilik milliy ma’lumotlar bazasi lex.uz

etilgan va o‘tkazilgan parlament saylovi – bu borada navbatdagi muhim qadam hisoblanadi.

Konstitutsiya va saylov qonunchiligiga muvofiq, mamlakatimizda saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yaShirin ovoz beriSh yo‘li bilan o‘tkaziladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga ko‘ra, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, Shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etiSh joylarida saqlanayotgan Shaxslar saylaniShi mumkin emas. UShbu moddaning davomida sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, Shuningdek, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etiSh joylarida saqlanayotgan Shaxslar saylovda iShtirok etiSh huquqidan faqat qonunga muvofiq va sud qarori asosida mahrum etiliShi mumkinligi belgilangan.

BoShqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita cheklaShga yo‘l qo‘yilmaydi. Binobarin, O‘zbekiston Prezidenti qayd etganidek, “Yangi O‘zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib beriShdan iborat bo‘lgan davlatdir”.

Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralaSh saylov tizimi, ya’ni majoritar-proporsional tizim asosida o‘tkazildi, saylov jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar joriy qilindi. Xususan “E-Saylov” axborot tizimi, uning afzalliklari va imkoniyatlari, Shuningdek birinchi marotaba saylovlarda elektron ovoz beriSh qurilmasi sinovdan o‘tkazilganligi ham fuqarolarning saylov huquqini ta’minlaSh borasida amalga oShirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning yorqin namunasi deb aytiSh mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lib o‘tgan saylov mamlakatimizda demokratik davlatchilik amal qilayotganligining yorqin namunasi bo‘ldi. UShbu muhim ijtimoiy-siyosiy jarayon fuqarolarning saylaSh va saylaniSh bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oShiriShda, davlat organlarini milliy qonunchilik va xalqaro saylov standartlariga to‘la mos raviShda demokratik tarzda ShakllantiriShda hamyurtlarimizning yanada faol iShtirok etiShini ta’minlaShda muhim ahamiyatga ega.

РАЗВИТИЕ ДЕТСКОЙ РЕКРЕАТСИИ В УКРЕПЛЕНИИ КОНСТИТУЦИОННЫХ ОСНОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Казаков А.А.
Старший преподавател кафедры Военной и физической подготовки Таможенного института Государственного Таможенногокомитета Республики Узбекистан.

В условиях современного общества особое внимание уделяется вопросам воспитания и развития подрастающего поколения. Важным аспектом этого протсесса является детская рекреатсия, которая способствует не толко физическому, но и психоемотсионалному развитию детей. В контексте Республики Узбекистан, укрепление Конституционных основ и реализатсия прав ребенка играют ключевую рол в формировании здорового общества. Настоящая статя направлена на анализ развития детской рекреатсии как важного элемента в укреплении Конституционных основ Республики Узбекистан.

Конституционные основы защиты прав детей в Узбекистане. 30 апреля 2023 года Конституция Республики Узбекистан была обновлена путем всенародного голосования на референдуме. Во второй части 79 стати Конституции страны чётко прописано, что «Государство создает условия для интеллектуалного, творческого, физического и нравственного формирования и развития молодежи, реализатсии эе прав на образование, охрану здоровя, жиле, трудоустройство, занятост и отдых».[1] Это статя подчеркивают необходимост обеспечения доступа детей к образовательным и медитсинским услугам, что создает основу для далнейшего развития детской рекреатсии. Кроме того, Узбекистан является подписантом Конвенсии ООН о правах ребенка, что подтверждает эго обязателства по защите и обеспечению прав детей.[2]

Детская рекреатсия включает в себя различные формы досуга, такие как физические активности, игры, культурные мероприятия и образовательные программы. Она играет ключевую рол в:

✓ Формировании здоровя: Регулярные физические активности способствуют укреплению здоровя детей, их физическому развитию и профилактике заболеваний.[3]

✓ Развитии сотсиалных навыков: Игры и коллективные занятия помогают детям развиват навыки общения, сотрудничества и взаимопомощи.[4]

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2023.

[2] UNICEF. (2020). The Convention on the Rights of the Child: A Guide for Action. New York: UNICEF.

[3] Денисов, И. (2019). Физическая культура и здорове детей: Практическое руководство. Ташкент: Издателство.

[4] Петрова, М. (2021). Социалное развитие детей через игры и активные виды досуга. Журнал детской

✓ Психоемотсионалном развитии: Рекреатсионные мероприятия способствуют снижению уровня стресса и формированию позитивного мышления у детей.[1]

✓ Несмотря на значителный прогресс в развитии детской рекреатсии, существуют и проблемы. К основным из них можно отнести:

✓ Недостаток инфраструктуры: В некоторых регионах страны наблюдается нехватка спортивных и ресреатионал сентров для детей, что ограничивает их возможности для активного отдыха.[2]

✓ Ограниченный доступ к программам: Многие дети, особенно из семей с низким доходом, не имеют доступа к качественным рекреатсионным программам.[3]

Нужно отметит и положителные тенденсии в развитии детской рекреатсии в Республике Узбекистан. Так, в стране были реализованы несколко успешных инитсиатив, направленных на развитие детской рекреатсии:

➢ Проект «Здоровое поколение»: Этот проект включает в себя организатсию спортивных сексий, кружков по интересам и летних лагерей для детей. Он направлен на улучшение физического состояния и повышение интереса к активному образу жизни (Министерство здравоохранения РУз, 2023).[4]

➢ Культурные программы: В рамках празднования натсионалных праздников организуются различные мероприятия для детей, включая концерты, конкурсы и выставки, что способствует их культурному развитию (Государственный комитет по делам молодежи РУз, 2022).[5]

Для того чтобы детская рекреатсия в Узбекистане способствовала укреплению Конституционных основ, необходимо реализоват ряд рекомендатсий:

➢ Развитие инфраструктуры: Увеличение инвестиций в создание и модернизатсию спортивных и ресреатионал сентров.

➢ Доступност программ: Обеспечение доступности рекреатсионных программ для вцех детей, независимо от их сотсиалного статуса.[6]

психологии, 12(3), 22-30.

[1] Сидорова, Э. (2020). Психоэмоционалное развитие детей в условиях детской рекреации. Научный вестник, 9(4), 100-107.

[2] Ибрагимов, А. (2022). Современные проблемы детской рекреации в Узбекистане. Журнал социалных наук, 3(1), 45-52.

[3] Турганов, Р. (2021). Доступност рекреационных программ для детей в Узбекистане. Журнал социалной политики, 7(1), 34-41.

[4] Министерство здравоохранения РУз. (2023). Проект "Здоровое поколение" и эго резултаты. Ташкент.

[5] Государственный комитет по делам молодежи РУз. (2022). Отчет о проведении культурных мероприятий для детей. Ташкент.

[6] Курбанова, Л. (2023). Инклюзивные подходы в детской рекреации. Журнал педагогических исследований, 5(2), 78-85.

➢ Обучение спесиалистов: Подготовка квалифитсированных кадров в области детской рекреатсии, что поможет улучшит качество предоставляемых услуг.

В заключении нужно отметит, что детская рекреатсия играет ключевую рол в укреплении Конституционных основ Республики Узбекистан, способствуя физическому, психоемотсионалному и сотсиалному развитию подрастающего поколения. Важно продолжат развиват эту сферу, обеспечивая доступност и разнообразие рекреатсионных программ для вцех детей. Это, в свою очеред, будет способствоват созданию здорового и гармоничного общества, соответствующего принципам Конституции.

В результате проведённого анализа нами были разработаны следующие рекомендатсии:

1. Улучшение инфраструктуры:
2. Создат и модернизироват спортивные и рекреатсионные сентры в городах и селах, обеспечивая доступност для вцех детей.
3. Разработка инклюзивных программ:
4. Разработат рекреатсионные программы, которые учитывают потребности детей с ограниченными возможностями, обеспечивая их полнотсенное участие в мероприятиях.

Государственное финансирование:

➢ Увеличит финансирование государственных программ, направленных на развитие детской рекреатсии, включая субсидирование спортивных сексий и кружков.

1. Обучение кадров:

➢ Организоват курсы и тренинги для педагогов и организаторов досуга, обучая их современным методам работы с детми и подростками.

2. Создание партнерств:

➢ Налаживат сотрудничество с неправителственными организатсиями, частным сектором и международными фондами для реализатсии совместных программ по детской рекреатсии.

3. Повышение осведомленности:

➢ Проводит информатсионные кампании для родителей о важности рекреатсии для развития детей и доступных программах и услугах.

4. Мониторинг и отсенка:

➢ Внедрит систему мониторинга и отсенки качества рекреатсионных программ, собирая обратную связ от участников и родителей для далнейшего улучшения.

5. Развитие културных инитсиатив:

- Организовыват культурные и спортивные мероприятия, направленные на развитие творческих способностей детей, их сотсиалные навыки и укрепление межкультурного взаимодействия.

6. Стимулирование волонтерства:

- Поощрят участие студентов и молодежи в качестве волонтеров в детских рекреатсионных программах, что будет способствоват их личностному развитию и сотсиалному взаимодействию.

7. Поддержка родителских инитсиатив:

- Создат платформы для поддержки и развития родителских инитсиатив в области организатсии досуга и рекреатсии для детей.

Эти рекомендатсии помогут развит детскую рекреатсию в Узбекистане, способствуя укреплению Конституционных основ и улучшению качества жизни подрастающего поколения.

Список литературы:

1. УНИСЕФ. (2020). Тҳе Сонвентион он тҳе Ригҳтс оф тҳе Чилд: А Гуиде фор Астион. Hew Ёрк: УНИСЕФ.

2. Денисов, И. (2019). Физическая култура и здорове детей: Практическое руководство. Ташкент: Издателство.

3. Государственный комитет по делам молодежи РУз. (2022). Отчет о проведении культурных мероприятий для детей. Ташкент.

4. Ибрагимов, А. (2022). Современные проблемы детской рекреатсии в Узбекистане. Журнал сотсиалных наук, 3(1), 45-52.

5. Курбанова, Л. (2023). Инклюзивные подходы в детской рекреатсии. Журнал педагогических исследований, 5(2), 78-85.

6. Министерство здравоохранения РУз. (2023). Проект "Здоровое поколение" и эго резултаты. Ташкент.

7. Петрова, М. (2021). Сотсиалное развитие детей через игры и активные виды досуга. Журнал детской психологии, 12(3), 22-30.

8. Сидорова, Э. (2020). Психоемотсионалное развитие детей в условиях детской рекреатсии. Научный вестник, 9(4), 100-107.

9. Турганов, Р. (2021). Доступност рекреатсионных программ для детей в Узбекистане. Журнал сотсиалной политики, 7(1), 34-41.

HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY HIMOYASI BO‘YICHA DAVLAT SIYOSATI KONSTITUTSIYA BILAN KAFOLATLANADI

Djaydakbayev F.T.
Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus fakultet boShlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik.

Shu kunlarda davlat organlari va taShkilotlari mehnat jamoalarida **“Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi!”** degan boSh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tadbirlar taShkil etiliShi davom etmoqda.

Hususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi barcha sohalardagi islohotlarning siyosiy-huquqiy asoslari, davlat va jamiyatni yanada rivojlantiriShning ustuvor yo‘naliShlari belgilab berdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitsiyasiga monan iShlab chiqilgan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytiriSh, xususan davlat harbiy taShkilotini rivojlantiriShning asosiy yo‘naliShlaridan biri sifatida harbiy xizmatchilarni va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qiliSh sohasidagi davlat dasturlarini amalga oShiriShga doir yangi mexanizmlarni iShlab chiqiSh belgilangan.

Mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yuksaltiriSh va Qurolli Kuchlarimiz jangovar Shayligini yanada oShiriSh maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya bo‘linmalarini yoSh va salohiyatli kadrlar bilan to‘ldiriSh, harbiy xizmat o‘taSh uchun qulay Sharoitlar yaratiSh, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari ijtimoiy himoyasini ta’minlaSh masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyaning 41-moddasida har kim bilim oliSh huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan. Davlatimiz tomonidan bu borada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tizimida xizmat faoliyatini olib borayotgan harbiy xizmatchilarga ijtimoiy imtiyozlar belgilangan. Hususan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida namunali xizmat faoliyatini olib borayotgan harbiy xizmatchilar va xodimlarga oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘liShi uchun imkoniyat yaratilgan bo‘lib, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining sirtqi ta’limida “Xavfsizlikni huquqiy ta’minlaSh” va “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’milaSh” ta’lim yo‘naliShlarida oddiy askar va serjant tarkibidagi **363 nafar** harbiy xizmatchi va xodimlarning imtiyozli tarzda tahsil olib kelayotganligi buning yaqqol misolidir.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlaShga oid qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorga asosan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida xizmat faoliyati olib olib borayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun oliy ta’lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta’lim

yo‘naliShlariga davlat granti asosida belgilangan umumiy qabul kvotalarining ikki foizi miqdorida davlat granti asosidagi qo‘Shimcha qabul kvotalari ajratilmoqda. 2024 yilda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida namunali xizmat faoliyatini olib borgan **2671 harbiy xizmatchilarning** farzandlariga oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga o‘qiShga kiriSh uchun imtiyozli tavsiyanomalar berildi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila-a’zolari salomatligini ta’minlaSh bo‘yicha zarur Sharoitlar yaratildi. Uy-joyga muhtoj oilalar belgilangan tartibda uy-joy bilan ta’minlanmoqda. So‘nggi beSh yilda harbiy xizmatchilar uchun ipoteka krediti asosida **3500dan ortiq uy-joylar** ajratilgan, **185** nafariga xizmat xonadonlari xususiylaShtirilib berildi.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida xizmat qilayotgan **3851** nafar harbiy xizmatchiga turar joyni ijaraga olganlik uchun kompensatsiya pullari to‘lab kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 6 oktyabrdagi 531-sonli qaroriga “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining harbiy xizmatchilariga turar joyni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasi to‘laSh tartibi to‘g‘risida” 2005 yil 25 iyul 169-son qaroriga o‘zgartiriSh kiritiliShi Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning oila a’zolarining ham ijtimoiy himoyasi ta’minlaniShi tom ma’noda yangilangan konstitutsiyaning naqadar puxta iShlab chiqilganligini aks ettiradi.

Shuningdek, milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda oilada bitta o‘g‘il bo‘lib, qolganlari qiz farzand bo‘lsa ham bu yigitlarga ota-onasi yaShaydigan hududda xizmat qiliSh imtiyozi, ijobiy tavsiyaga ega, vakant lavozimlari yo‘qligi sababli berilgan harbiy unvonida xizmat muddatini kamida ikkitasini o‘tagan ofiserlarga lavozim bo‘yicha bir pog‘ona yuqori turuvchi harbiy unvon beriliShi, har yili harbiy xizmatchilarning navbatdagi ta’tiliga xizmat yillarining taqvim hisobiga ko‘ra qo‘Shimcha tarzda 5, 10, 15 sutkalik ta’tillar beriliShi kabi imtiyozlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya bilan belgilab qo‘yilgan huquq va kafolatlarning ta’minlaniShi, hususan davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lgan kuchli ijtimoiy himoya, Shu jumladan harbiylarning ijtimoiy himoyasi mustahkamalaShini o‘z navbatida, ofiser va askarlarimizning fidoyiligini, burchga sadoqat bilan xizmat qiliShiga, o‘zining professional tayyorgarligini oShirib boriShiga mustahkam zamin yaratmoqda. Ko‘rilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida Vatan himoyachilarining harbiy xizmatga bo‘lgan yondaShuvi tubdan o‘zgardi, harbiy qismlarda mas’uliyat va intizom mustahkamlandi, barcha harbiylar qalbida o‘z Vatani bilan faxrlaniSh va g‘ururlaniSh hissi yanada ortdi.

KONSTITUTSIYADA: FUQAROLARNING BUDJET JARAYONIDA ISHTIROK ETISHI VA JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHLARI HUQUQIY KAFOLATLANDI

Urmonov J.J.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi boShlig‘i, i.f.d.,professor,

Jaloldinov J.J.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus fakultet 203-guruh talabasi.

Ma’lumki, mamlakatimizda amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlar o‘z mazmun-mohiyati bilan **“inson – jamiyat – davlat”** degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlaShga, xalqparvar davlat barpo etiShga, inson huquq va manfaatlari himoyasini kuchaytiriShga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarga qadar davlat budjeti ochiqligi va uning ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatiSh haqida gap-so‘z bo‘liShi ham mumkin emas edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev amalga oshirgan islohotlar natijasida budjet ochiqligini ta’minlaShga qaratilgan amaliy iShlar qilindi. Bir qator hujjatlar qabul qilindi. Fuqarolar nafaqat davlat budjeti ustidan nazorat o‘rnatmoqda, balki mablag‘larni sarflaShda ham iShtirok etmoqda[1].

Yangilangan Konstitutsiya jamiyatimiz hayotining barcha yo‘naliShlarini kompleks tartibga soliSh hamda mamlakatimizni demokratik rivojlantiriSh yo‘lida eng muhim huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaga kiritilgan yangi normalar barcha sohalarni taraqqiy ettiriShga, Shu jumladan, davlat hokimiyatining yanada samarali taShkil qiliniShiga yordam beradi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan amaldagi Konstitutsiyaga **27 ta** yangi modda kiritilib, moddalar soni **128 tadan 155 taga** oShdi. Konstitutsiyamizning amaldagi **275 ta** normasi **434 taga** ko‘paydi, ya’ni amaldagi Konstitutsiya **65 foizga** yangilandi.

Yangilangan Konstitutsiyaning **148-moddasida** O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etiSh tartib-taomillari **ochiqlik va Shaffoflik** printsiplari asosida amalga oshirilishi, Shuningdek fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ShakllantiriliShi hamda ijro etiliShi ustidan **jamoatchilik nazoratini** amalga oShiriShi kabi yangi norma bilan huquqiy mustahkamlandi.

Konstitutsiyaga kiritilgan uShbu modda odamlar budjet qanday

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Mahallalarni obod qilish va yashil makon umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan videoselektr” yig‘ilishidagi nutqi;

ShakllaniShi, qanday sarflaniShi ustidan nazorat o‘rnata oliShlariga xizmat qiladi. Bu nimasi bilan muhim?

Ko‘pchilik odamlarda davlat yoki mahalliy budjetlar qanday ShakllaniShi haqida umumiy tasavvur ham yo‘q. «Davlatning puli» deb ataladigan uShbu mablag‘lar aslida xalqning o‘zi to‘lagan soliqlar evaziga yig‘ilgan pullardir. Tabiiyki, xalq o‘z puli qanday va qaerga sarflanayotgani ustidan nazorat qiliShga haqqi bor. Kiritilgan uShbu modda aynan mana Shu huquqni kafolatlaydi.

Hech kimga sir emas, mahallada mavjud bo‘lgan muammolarni hal etiSh bo‘yicha ayrim murojaatlarga tegiShli mansabdor Shaxslar tomonidan “rejaga kiritildi, moliyalaShtiriSh bo‘lsa bajaramiz” degan javoblar beriliShi hech kimga sir emas. UShbu javoblarni olgan fuqarolar mahalladagi muammolarni echimini yillab kutib turardi. Shunday holatlarni keskin raviShda oldini oliSh maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga budjetga oid **alohida yangi modda kiritildi**.

Eng avvalo, davlat budjetini ShakllantiriSh hamda ijro etiSh tartib-taomillari **ochiqlik va Shaffoflik** printsiplari asosida amalga oShiriliShi belgilandi. Xususan, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘naliShlari loyihalari, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar, Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosalarini joylaShtiriShni nazarda tutuvchi "**Ochiq budjet"** axborot portali iShga tuShirildi.

Ochiq budjet – bu fuqarolarning turli darajadagi budjetlar to‘g‘risida tuShuniShlari uchun mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni ShakllantiriShga qaratilgan davlat siyosati.

Ta’kidlaSh joizki, "Fuqarolar uchun budjet" axborot naShri doimiy raviShda naShr etilmoqda. Hozirgi kunga qadar 2019-2024 va 2025 yillar uchun mo‘ljallangan Davlat budjeti parametrlariga bag‘iShlangan "Fuqarolar uchun budjet" axborot naShri chop etilgan. Axborot naShrining Shakli budjet ma’lumotlarini infografika va jadvallar ko‘riniShida, keng auditoriya uchun qulay va tuShunarli taqdim etiShga mo‘ljallangan. Davlat budjetining ShakllantiriliShi hamda ijro etiliShi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oShiriShga oid normalar ham kiritildi.

Alohida qayd etiSh joizki, fuqarolarning budjet jarayonida iShtirok etiSh tartibi ham paydo bo‘ldi. Ya’ni taShabbusli budjet — aholining taShabbuslarini hisobga olgan holda budjet mablag‘larining muayyan bir qismini sarflaSh bo‘yicha ularning bevosita iShtirokida qarorlar qabul qiliSh hamda qabul qilingan qarorlarning amalga oShiriliShini kuzatiSh amaliyoti joriy etildi. UShbu amaliyot orqali aholi o‘zini qiynayotgan muammolar, Shu jumladan mahalladagi muammolar (yo‘llar, bolalar maydonchalar va h.k.) budjetga

kiritiSh va ularni tezlik bilan hal qiliSh imkon yaratildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oShirilayotgan **“Ochiq budjet”** davlat siyosati, budjet ustidan jamoatchilik nazoratini samarali amalga oShiriSh va bu borada to‘liq axborot oliSh uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi PQ-3917-son "Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol iShtirokini ta’minlaSh chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga ko‘ra, Davlat budjetiga oid axborotlarni joylaShtiriShni nazarda tutuvchi **“Ochiq budjet” portali** iShga tuShirildi. 2019 yildan boShlab budjet mablag‘larini taqsimlaShda fuqarolar iShtirokining tuman va Shaharlar budjetlari qo‘Shimcha manbalarining **kamida 10 foizini** jamoatchilik fikri asosida Shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltiriShni nazarda tutadigan mexanizm joriy etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son "Budjet jarayonida fuqarolarning faol iShtirokini ta’minlaSh bo‘yicha qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq, 2021 yil 1 iyuldan boShlab jamoatchilik fikri asosida Shakllantirilgan tadbirlarni moliyalaShtiriShga ajratiladigan tuman (Shahar)lar budjetlari qo‘Shimcha mablag‘larining eng kam miqdorini **10 foizdan 30 foizga** oShiriSh belgilandi.

Fuqarolar "**Ochiq budjet**" axborot portalida takliflarni kiritiSh va ovoz beriSh orqali o‘zlarining fikriga ko‘ra, mahalliy budjetlar mablag‘larining qo‘Shimcha manbalari hisobidan moliyalaShtiriShga yo‘naltiriSh kerak bo‘lgan tadbirlarni aniqlaydilar. Mazkur mexanizm fuqarolarni davlat moliyasini boShqariShga jalb qiliShda amaliy istrement hamda eng quyi bo‘g‘inda "Ochiq budjet" portali orqali ilgari surilgan g‘oyalarni amalga oShiriShda muhim hisoblanadi. Jamoatchilik fikri asosida Shakllantirilgan tadbirlarni amalga oShiriSh budjet to‘g‘risidagi ma’lumotlarga nafaqat milliy darajada, balki mahalliy darajada ham talab yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

TaShabbusli budjetlaShtiriSh yoki **partisipator** budjetlaShtiriSh - bu aholining budjet mablag‘larining aniq qismlarini sarflaSh maqsadida taShabbuslarni ilgari suriShi orqali mahalliy boShqaruvda to‘g‘ridan-to‘g‘ri iShtirok etiShidir[1].

TaShabbusli budjetlaShtiriSh - bu mahalliy ahamiyatdagi masalalarni budjetni jamoatchilik fikri asosida ShakllantiriShga asoslangan holda budjet mablag‘larini sarflaSh obektlarini aniqlaSh va tanlaShda, Shuningdek tanlangan loyihalarning amalga oShiriliShini bevosita fuqarolar iShtirokida nazorat qiliSh orqali hal qiliShning turli-tuman amaliyotlari jamlamasidir[2].

[1] Hope for Democracy. 30 Years of Participatory Budgeting Worldwide / Ed. by Nelson D.Epopeia Records,2018.638 p

[2] 25 вопросов об инициативном бюджетировании: учебное пособие / В.В.Вагин, Тимохина, и совет. – Москва: Издателские технологии, 2017.46 с.

TaShabbusli budjetlaShtiriSh - hududiy jamoatchilikning, fuqarolik jamiyati institutlarining va ayrim fuqarolarning o‘z aholi punktlarini rivojlantiriSh yo‘llarini belgilaShdagi iShtiroki miqyosining o‘siShining global tendentsiyaning bir qismi hisoblanadi. Har bir mamlakatda fuqarolarni jalb etiSh turli yo‘llar bilan amalga oShiriladi, ammo hamma joyda asosiy maqsad fuqarolarning budjet mablag‘larini sarflaSh bo‘yicha qaror qabul qiliSh jarayonida faol iShtirok etiShidir. Bu, ayniqsa, qabul qilinayotgan qarorlar bevosita hududiy jamoatchiliklarga aloqa bo‘lganida muhimdir.

Bundan taShqari, taShabbusli budjetlaShtiriSh loyihalari budjet xarajatlari ro‘yxatiga fuqarolarni o‘ylantirayotgan dolzarb muammolarni hal etiShga qaratilgan aniq loyihalarni tezkor kiritiSh imkonini beradi. Fuqarolar muammolarini budjet va boShqaruv jarayoni doirasida hal qiliShning an’anaviy yo‘li uch yildan kam bo‘lmagan muddatni talab etsa, taShabbusli budjetlaShtiriShda bu jarayon deyarli ikki barobarga qisqaradi.

2021 yilda **eksperiment** tariqasida boShlangan “TaShabbusli budjet” 2 yil ichida yirik loyihaga aylandi. Ilk marotaba o‘tkazilgan "TaShabbusli budjet" dasturida 2021-yilda 1149499 ta ovoz berilgan bo‘lsa, 2022-yilning 1-mavsumida 6718133 ta, 2-mavsumi uchun 7823439 ta ovoz to‘plandi. 2022 yilgi birinchi mavsumda 69700 ta, ikkinchi mavsumda esa 61000 ta taklif tuShdi. Loyiha ommalaShib, taShabbusli budjetdagi taShabbuslar O‘zbekistondagi mahallalarning 98 **foizini** qamrab oldi.



1-rasm. 2021-2023 yilarda taShabbusli budjet uchun ajratilgan mablag‘lar (mlrd.so‘m)[1]

2023 yil 1-mavsumda jamoatchilik fikri asosida, ovoz beriSh jarayoni natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan mazkur loyihada jami **33 680 ta** taShabbus uchun **16 mln.dan** ortiq ovoz berildi. Ovoz beriSh jarayoni yakunlariga ko‘ra,

[1] www.openbudget.uz – ochiq budjet portal ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

1 666 ta loyiha g‘olib deb topildi. 2023 yilda jamoatchilik fikri asosida Shakllantiriladigan loyihalarni moliyalaShtiriSh uchun Davlat budjetidan 8 trillion so‘m, Shundan «Obod qiShloq» va «Obod mahalla» dasturlari uchun 4 trillion so‘m yo‘naltirildi.

1-jadval

2021-2024 yillarda “TaShabbusli budjet” loyihasi iShtirokchilari soni va ajratilgan mablag‘ miqdori (mlrd.so‘m)[1]

№	Loyiha turi	Mavsum muddati	Tashabbus-lar soni	Budjetdan ajratilgan mab-lag‘ miqdori
1.	Tashabbusli budjet	2024 yil 2-mavsum	27 474	2 271,7
2.	Tashabbusli budjet	2024 yil 1-mavsum	35 575	3 390,5
3.	Tashabbusli budjet	2023 yil 2-mavsum	49 464	1 424,3
4.	Tashabbusli budjet	2023 yil 1-mavsum	55 970	2 882,8
5.	Tashabbusli budjet	2022 yil 2-mavsum	61 566	1 419,0
6.	Tashabbusli budjet	2022 yil 1-mavsum	69 699	1 201,2
7.	Tashabbusli budjet	2021 yil 1-mavsum	41 125	530,5

2023-yilda “TaShabbusli budjet” loyihasiga jami 4 000,0 mlrd so‘m yoki 2021-yilga nisbatan 8 barobar ko‘p mablag‘ ajratilgan bo‘lib, Shundan 2 300,0 mlrd. so‘m budjet mablag‘lari va 1 700,0 mlrd.so‘m mahalliy budjetning qo‘Shimcha mablag‘lari hisobiga amalga oShirilgan. Eng yuqori ko‘rsatkich 2024-yilda bo‘lib, “TaShabbusli budjet” loyihasiga jami 5 662,2 mlrd so‘m ya’ni, 2021-yilga nisbatan 10 barobar ko‘p mablag‘ ajratildi.

Jadval ma’lumotlarida ko‘rinib turibdiki, 2021-yilda taShabbuslar soni 41 125 tani taShkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda jami ikki mavsum natijasiga ko‘ra taShabbuslar soni 131 256 tani yoki 2021-yilga nisbatan uch barobarga ko‘paygan. 2024-yil 1-mavsumda taShabbuslar soni 35 575 tani taShkil etib, uShbu loyihalarga 3 390,5 mlrd so‘mni taShkil etgan hamda, 2024-yil 2-mavsumida esa, taShabbuslar soni 27 474 tani taShkil etib, uShbu loyihalarga 2 271,7 mlrd so‘m yo‘naltiriliShi ko‘zda tutilgan.

E’tirof etiSh joizki, uShbu jarayonlarda fuqarolarimiz faol bo‘lib, amalda ham odamlar Shaxsiy manfaatlar uchun emas, ichki yo‘llarni ta’mirlaSh, maktablar ta’miri, ichimlik suvi kabi jamiyat manfaati uchun muhim takliflarni qoldirdi. Demak, Konstitutsiya amalda hayotda iShlamoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan uShbu normalar yuqorida qayd etilgan iShlarning mantiqiy davomi sifatida davlat budjetini ShakllantiriSh, uni daromad va xarajat qismlarini belgilaSh, ijrosini ta’minlaShda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qiliSh, ularga bu jarayonda keng va faol qatnaShiSh, jamoatchilik nazoratini amalga oShiriSh

[1] https://openbudget.uz/boards/initiatives

uchun tegiShli taShkiliy va huquqiy Shart-Sharoitlar va kafolatlar yaratadi. Demak, Konstitutsiya amalda hayotda iShlamoqda.

“O‘zbekiston — 2030 strategiyasi”ga muvofiq, “Mahallaning mablag‘larini aholining ovoziga ko‘ra, infratuzilma loyihalariga yo‘naltiriSh amaliyotini joriy qilib, mahallalardagi muammolarni hal etiSh uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdorini kamida **3 barobar** ko‘paytiriSh. Aholi taShabbusi bilan infratuzilmani yaxShilaShga ajratiladigan mablag‘larni **24 trillion** so‘mga etkaziSh” vazifalari belgilangan[1]. Mazkur vazifalarning bajariliShi taShabbusli budjetlaShtiriSh jarayonini moliyalaShtiriShni kengaytiriSh va huquqiy jihatdan kafolatlaSh zaruratini ko‘rsatmoqda.

TaShabbusli budjetlaShtiriSh jarayonini takomillaShtiriSh maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

-xorijiy mamlakatlar tajribasi, xususan, Rossiya Federatsiyasi tajribasiga ko‘ra mamlakatimizda ham “Mening maktabim”, “Mening bog‘cham”, “Mening ko‘cham” va “Mening Shahrim” taShabbus loyihalarini joriy etiSh lozim.

- davlat budjetini ShakllantiriSh va ijro etiShdagi ochiqlik va Shaffoflik printsiplariga amal qiliSh, Shuningdek budjet jarayonida fuqarolarning faol iShtirok etiShi, davlat budjetining ShakllantiriliShi hamda ijro etiliShi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oShiriShni takomillaShtiriSh;

- xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minlaSh, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlaShga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillaShtiriSh;

Davlat budjetidan maqsadli foydalaniShni ta’minlaSh, aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatiSh, ta’lim oliSh imkoniyatlarini kengaytiriSh, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga zarur yordam ko‘rsatiSh, uy-joy bilan ta’minlaSh, tadbirkorlik va umuman, davlat va jamiyatni hayotining boShqa barcha sohalarida samaradorlikni ta’minlaShga xizmat qiladi. Eng asosiysi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun mustahqam huquqiy poydevor yaratiSh maqsadida amalga oShirilgan Konstitutsion islohotlar halq farovonligi va inson qadri uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023 yil;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Mahallalarni obod qiliSh va yaShil makon umummilliy loyihasi doirasida amalga oShirilgan iShlar yuzasidan videoselektr” yig‘iliShidagi nutqi;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g ‘risida”gi PF-158-son Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol iShtirokini ta’minlaSh bo‘yicha qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5072-son Qarori;

4. Hope for Democracy. 30 Ears of Participatory Budgeting Worldwide / Ed. by Nelson D. Epopeia Records, 2018. 638 p.

5. 25 вопросов об инисиативном бюджетировании: учебное пособие / В.В.Вагин, Тимохина, и совет. – Москва: Издателские технологии, 2017.46 с.

6. https://www.participatorybudgeting.org/what-is-pb/- GlobalPBHub xalqaro taShkiloti veb-sayti.

7. www.openbudget.uz – ochiq budjet portali.

KONSTITUTSIYADA AKS ETGAN EKOLOGIK QOIDALAR

Nurjanov A.Y.
Jamoat xavfsizligi universiteti Qayta tayyorlash va malaka oShiriSh fakulteti boShlig‘i o‘rinbosari,

Boboxonov S.R.
Jamoat xavfsizligi universiteti Tahririyat-noshirlik bo‘limi katta ofiseri, katta leytenant.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda ekologik muhitning yomonlaShuvi bilan bog‘liq turli xil kasalliklar, hayvonot va o‘simlik dunyosining kirilib ketayotganligi, ularning noyob turlarining yo‘qolib borayotganligi, odamlarning ommaviy kasallanishi, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining kamayishi, inson organizmida modda almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq yangidan-yangi kasalliklarning kelib chiqishi, yurak-qon, rak kabi kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda ekotizmdagi muvozanatning buzilishi Shu darajada og‘ir ko‘rinish olganki, buning natijasida insonlarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini amalda ta’minlash jiddiy muammoga aylanib qoldi.

Shundan kelib chiqib aytiSH mumkinki, ekologik xavf-xatarlar ta’siridan jamoat xavfsizligini ta’minlash atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirish, suvni ifloslantirmaslik, atmosfera havosi musaffoligini saqlash, chiqindilarni tashish, saqlash, utilizatsiya qilish va ko‘mib tashlash jarayonida ekologik talablarga rioya qilish, turli xil ekologik kasalliklar kelib chiqishining oldini olish, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlash dunyodagi barcha davlatlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligiga jiddiy xavf-xatar solayotgan ekologik tahdidlardan biri suv resurslarining taqchilligi, uning sanoat chiqindilari, oqova suvlar bilan ifloslanishidir. Ma’lumki, chuchuk suv tankisligining asosiy sababi undan

nooqilona foydalanish, sanoat korxonalari va aholining maishiy turmushidan chikayotgan oqova suvlarning etarlicha tozalanmasdan daryo va ko‘llarga tashlanishidadir. Ichimlik suvi epidemiologik va radiatsion jihatdan xavfsiz, kimyoviy tarkibiga ko‘ra zararsiz bo‘lishi va maqbul xossalarga ega bo‘liShi lozim. Ammo, O‘zbekiston Respublikasida toza ichimlik suvining past sifati aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Amudaryo quyi oqimi havzasida, qurib borayotgan Orol dengizi sohillarida ayniqsa og‘ir tibbiy-ekologik vaziyat yuzaga kelganligi bilan ajralib turadi.

Ekologik xavf-xatarlardan yana biri chiqindilarni tashish, saqlash, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish hamda ko‘mib tashlash bilan bog‘liq munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligidir. O‘zbekiston Respublikasi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonunining 21-moddasida belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasi hududiga chiqindilarni, Shu jumladan, chet elga mansub radioaktiv chiqindilarning har qanday turlarini saqlash va ko‘mib tashlash maqsadida olib kirish ta’qiqlanadi. Fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i, atrof tabiiy muhitning xavfsizligi ta’min etilishi sharti bilan chiqindilar faqat qayta ishlash va utillashtirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib kiriliShiga yo‘l qo‘yiladi. Chiqindilarni saqlash sanitariya normalari va qoidalariga, ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq hamda chiqindilardan oqilona foydalaniliShini yoki ularning boshqa shaxslarga berilishini ta’minlovchi usullarda amalga oShiriladi.

Harakatdagi qonunchilikda alohida ekologik talab sifatida radiatsiyaviy chiqindilarni ko‘mishning qattiq rejimi o‘rnatilgan. Chiqindilarni aholi punktlari erlarida, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik erlarda, suvni muhofaza qilish zonalari va suv ob’ektlarining sanitariya muhofazasi zonalari atrofida, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga, shuningdek, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hamda ob’ektlarga tahdid kelib chiqishi mumkin bo‘lgan boshqa joylarda saqlash va ko‘mib tashlash ta’qiqlanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar kimyoviy moddalarni, biologik vositalarni va materiallarni tashish, saqlash, qo‘llash, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish hamda ko‘mib tashlash paytida aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash maqsadida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etishlari talab etiladi. yuridik va jismoniy shaxslar radioaktiv moddalarni hamda boshqa ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini qazib olish, ishlab chiqarish, hosil qilish, qayta ishlash, ulardan foydalanish, ularni saqlash, ularga xizmat ko‘rsatish, ularni tashish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ko‘mib tashlash paytida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etiShi Shart.

Ekologiya qonunchiligida bu kabi talablar o‘rnatilishining asosiy sababini mamlakatimiz hudidida ko‘p miqdorda qattiq chiqindilar to‘planib qolganligi

sababli tuproq tarkibida yuqori miqdorda kimyoviy e’lementlar va radionuklidlar yig‘ilib qolganligi bilan izohlaSh mumkin. Ma’lumki, O‘zbekiston xududining markaziy va Sharqiy qismlari jahonda uran konlari bo‘yicha eng yirik xisoblangan tyan-shan uran-ruda megoprovinsiyasi tarkibiga kiradi, radioaktiv rudalarni qazib oliSh, harbiy, energetika, tibbiyot, ilm-fan va texnika sohalarida radionuklidlardan foydalanish jarayonida paydo bo‘ladigan radioaktiv chiqindilar, rudalarning ag‘darma handaqlari, qazilmalarni boyitiSh va saqlaSh joylari ma’lum darajada radiatsion xavfli o‘choqlar sanalib atrof tabiiy muhit sofligi, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun katta xavf tug‘diradi.

Garchand, o‘tgan yillar mobaynida yurtimizda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, bu borada o‘z echimini kutayotgan muammolar talaygina. Xususan, kimyoviy ashyolarni ishlatish hajmi sezilarli darajada qisqarganligiga qaramasdan tuproqni va suvni qoldiq toksik moddalar bilan ifloslantirish muammosi hali o‘z echimini topganicha yo‘q, mamlakatimiz hududida joylashgan 13 ta zaharli kimyoviy moddalarni ko‘madigan jarliklarda foydalaniShi man qilingan jami 9 ming tonna zaharli kimyoviy va radiatsiyaviy moddalar ko‘milgan, zaharli kimyoviy moddalar ko‘milgan joylarni saqlash sharoiti belgilangan talablarga to‘la javob bermaydi. Respublikamiz hududida uran qazib olish jarayonida ko‘plab uyumlar to‘planib qolgan, jumladan, bugungi kunda 150 ta uchastka radioaktiv ifloslangan bo‘lib, ular maxsus dastur asosida rejali tarzda dezaktivatsiya va rekultivasiya qiliShni talab etadi [8]. Bu o‘z navbatida, mamlakatimizda radioaktiv uran rudasini qazib olish ekologik xavfsizlikka ma’lum darajada xavf solayotganligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, inson tabiatni o‘ziga buysundira olmaydi va shu sababdan u o‘z faoliyatida tabiiy resurslardan oqilona foydalaniSh bilan bog‘liq qonuniyatlarni e’tiborga olishi hamda hozirgi va kelajak avlod manfaati yo‘lida tabiatga va uning biologik resurslariga zarar etkazmasligi talab etiladi. Ushbu talabni ta’minlaShni bugungi kunda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zaro mutanosib uyg‘un rivojlaniShini kafolatlovchi konstitutsiyaviy normalarsiz tasavvur etish qiyin. Demak, Konstitutsiya asosida tartibga solinadigan eng muhim ijtimoiy munosabatlar sirasiga atrof tabiiy muhitni muhofaza qiliSh, ya’ni ekologik munosabatlar ham taalluqlidir.

Ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarining kamchiligini shunda ko‘rish mumkinki, unda tabiiy resurslarni muhofaza qiliSh munosabatlariga tegishli bo‘lgan ekologik talablar, ekologik monitoring, ekologik nazorat, tabiiy resurslarga etkazilgan zararning o‘rnini qoplash, jinoiy javobgarlik masalasi to‘la o‘z ifodasini topmagan.

Shu sababdan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratiSh jarayonida bosh g‘oya sifatida, eng avvalo, jamoat xavfsizligi, atrof tabiiy muhitning sofligi, insonning hayoti va sog‘lig‘i uchun qulay atrof tabiiy

muhitga ega bo‘lish huquqini himoya qilishni ta’minlash yotishi kerak. Avvalo, ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qoidalar er, er osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan xususiy mulkchilik munosabatlarini tartibga solishga qaratiliShi kerak. Chunki, tabiat obyektlariga nisbatan xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim omillardan sanaladi.

Xususiy mulkchilik ba’zi tabiat ob’ektlari, masalan, tomorqa erlari, aholiga xizmat ko‘rsatadigan binolar (kafe, restoran, sartaroshxona, kichik ishlab chiqarish binolari, magazinlar joylashgan er uchastkalari) joylashgan er uchastkalari, chet el elchixonalari joylashgan er uchastkalari, yer ustiga yaqin joylashgan qazilma boyliklar, ba’zi turdagi suvlar (quduq suvlari), o‘simlik (uy SHaroitida o‘stiriladigan barcha o‘simlik dunyosi) va hayvonot dunyosi (uyda boqiladigan yovvoyi hayvon turlari) obyektlariga nisbatan o‘rnatiliShi lozim. Qolgan barcha sharoitlarda konstitutsiyada tabiat obyektlariga nisbatan davlat mulkchiligi belgilanishi lozim.

Yangi konstitutsiyadagi ekologik munosabatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan bobda alohida norma sifatida er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi ifloslaniShdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo‘lishdan, yo‘q bo‘lib ketishdan, oqilona foydalanmaslikdan muhofaza etiliShini davlat kafolatlaydi, mazmunidagi qoida o‘rin egallaShi lozim. Shuningdek, “davlat insonning yashash muhiti bo‘lmiSh biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qoliSh, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qiliShni ta’minlaydi” tahriridagi mustaqil qoida ham uShbu Asosiy qonunda o‘z ifodasini topiShi kerak.

Fuqarolar normal va sog‘lom hayot kechirishlari, sog‘lom turmush tarzini amalga oShiriShlari, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun ularni o‘rab turgan atrof tabiiy muhit - atmosfera havosi, suv, o‘simlik dunyosi, tuproq toza, inson sog‘lig‘iga zararli ta’sir etmaydigan sifat va holatda bo‘liShi lozim. Ma’lumki, mustabid tuzum davrida qabul qilingan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qonunlarida ekologik-iqtisodiy tizimda tabiiy resurslardan foydalanish bosh vazifa, ularni muhofaza qiliSh esa ikkinchi darajali sifatida qaralardi. Bunday sharoitda insonlar hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishning iqtisodiy faoliyatdan ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhit sharoitida yashash, mehnat qiliSh va dam oliSh huquqini kafolatlash ikkinchi darajaga surib qo‘yilgan edi.

Demak, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun ijodkorligi amaliyotida bosh g‘oya, eng avvalo, insonning hayoti va sog‘lig‘i uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘liSh huquqini himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan bo‘liShi lozim. Shunday qilib, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘liSh huquqi, atrof tabiiy muhitni muhofaza etiSh bilan bog‘liq

bo‘lgan majburiyatlari, davlat organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qiliSh sohasidagi vakolatlari bilan bog‘liq vazifalar Konstitutsiya asosida tartibga solinishi lozim bo‘lgan eng muhim ijtimoiy munosabatlar sirasiga kiradi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini belgilashga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limini fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘liSh huquqini tartibga soluvchi alohida norma bilan to‘ldiriSH maqsadga muvofiq.

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARDA OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIGA AKADEMIK ERKINLIK BERISHNING MOHIYATI

Xomidov E.O.
Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boShlig‘ining o‘rinbosari yu.f.b.f.d.(PhD), dotsent.

O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida jadal islohotlar davom etmoqdaki, bu o‘zgariShlar negizi inson, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlaShga qaratilgan. Inson kapitalini rivojlantiriShda investitsiyalar va yangi texnologiyalar iqtisodiy rivojlaniShning ustuvor yo‘naliShlaridan biri sifatida uning raqobatbardoShligini oShiriSh va mamlakatning barqaror rivojlaniSh Sharti ekanligiga e’tibor yanada kuchaytirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “keyingi yillarda masalaga mana Shunday yondaShuv bizning uShbu sohadagi faoliyatimiz mezoniga aylandi. Chindan ham, agar biz ta’limni o‘zgartirsak, ta’lim insonni o‘zgartiradi. Inson o‘zgarsa – butun jamiyatimiz o‘zgaradi.

Shu bois biz uzlyuksiz ta’limni takomillaShtiriSh, farzandlari-mizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalaSh, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlaShni tubdan yaxShilaShga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz” [1, – B. 7-8].

“Biz ta’lim, ilm-fan va inson kapitalini rivojlantiriShga ustuvor vazifa sifatida e’tibor beriShimiz lozim.

Chunki, bugungi Shiddatli raqobat zamonida faqat bilimli, ma’rifatli millat va davlat munosib taraqqiyotga eriSha oladi.

Yangi barkamol avlodini tarbiyalab voyaga etkazmoqchi ekanmiz, buning uchun bog‘cha, maktab, oliy ta’lim va ilm-fan sohalarini ustuvor taraqqiy ettiriShni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yiShimiz Shart”.

Jumladan, inson kapitalini rivojlantiriShning asosiy Sharti bu – ta’lim va aholini intellektual salohiyatini oShiriShdan iborat.

Ta’lim sohasining asosiy vazifalaridan biri bugungi kun uchun zarur

bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoShlarni tarbiyalaShdir.

Keng qamrovli islohotlar davrida aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o‘zgariShlar va islohotlarda faol qatnaShadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoShlar avlodini ShakllantiriSh vazifasi ta’lim sohasidagi davlat siyosatida muhim o‘rin egallaydi [2, – B. 4].

Ta’lim sohasida 2017-2023 yillar mobaynida mustahkam huquqiy asoslarini yaratiSh yo‘lida 2 ta O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 15 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 65 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 60 ortiq Vazirlar Mahkamasi Qarorlari qabul qilindi.

Jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilingan bo‘lsa, maktabgacha ta’lim sohasini isloh qiliSh asnosida O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi yangi Qonuni qabul qilindi.

Xalq ta’limi tizimini boShqariShning samarali mexanizmlarini joriy etiSh o‘sib kelayotgan yoSh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantiriShni sifat jihatidan yangi bosqichga oliSh chiqiSh bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boShqariSh tizimini takomillaShtiriSh bo‘yicha qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda oliy ta’limni tizimli isloh qiliShning ustuvor yo‘naliShlarini belgilaSh, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlaSh jarayonini sifat taShkil etiSh, oliy ta’limni modernizatsiya qiliSh maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boShqaruvni isloh qiliSh chora-tadbirlari to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantiriSh konsepsiyasini tasdiqlaSh to‘g‘risida”gi Farmonlari imzolandi.

Shuningdek, ta’lim sohasidagi boShqaruv mexanizmlarining samaradorligi va ahamiyatini oShiriSh maqsadida muhim huquqiy institutsional asoslari iShlab chiqilgan bo‘lsa, amalda mavjud bo‘lganlarining faoliyati va mazmuni tubdan takomillaShtirildi.

2017-2023 yillar davomida 100 dan ortiq turli Shakldagi normativ hamda idoraviy hujjatlar qabul qilindi. Maktabgacha ta’limning turli Shakllarini, jumladan, davlat-xususiy Sheriklik, oilaviy, muqobil kabi Shakllarini joriy etiliShi natijasida maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 2017 yilda 27 foizni taShkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich 70 foizga etdi. Ya’ni qamrov darajasi qariyb 3 barabarga oShdi. 2025 yilga borib bu ko‘rsatkichni 100 foizgacha oShiriSh rejalaShtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boShqariSh tizimini takomillaShtiriSh bo‘yicha qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

Farmoniga muvofiq Xalq ta’limi tizimi faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Uzlyuksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilaSh borasida xalqaro tajriba asosida Milliy o‘quv dasturi iShlab chiqildi.

2023 yil 26 mayda “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi taShkilotlar faoliyatini samarali taShkil etiSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-79-son Farmoni yoki 2023 yil 20 apreldagi “Ilmiy-metodik va tadqiqot iShlari sifatini oShiriSh orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantiriShni jadallaShtiriSh bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorining e’lon qilingani ta’lim tizimini yanada rivojlantiriShga harakat qilinayotganini anglatadi [3, – B. 15].

Maktablarga ko‘mak beriSh masalasi umummilliy harakatga aylaniShi natijasida, oxirgi beSh yil davomida umumta’lim maktablarning moddiy-texnika bazasini yaxShilaSh yo‘lida 139 ta maktab qurildi, 2965 ta maktab qayta rekonstruksiya qilindi va ta’mirlandi.

Bundan taShqari mamlakatimizning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yo‘lida yoSh iste’dodlarni aniqlaSh, iqtidorli bolalarni tanlab oliSh va o‘qitiSh tizimini taShkil qiliSh, o‘sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etiShga yordam beruvchi ko‘p tarmoqli ta’lim muhitini yaratiSh maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 fevraldagi PQ-4199-son qarori bilan Prezident maktablari taShkil etildi.

Prezident maktablarining taShkil etiliShi iqtidorli bolalarni aniqlaSh, ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitiSh va tarbiyalaSh bo‘yicha yaxlit tizim yaratiSh, iste’dodli yoShlarni yanada qo‘llab-quvvatlaSh va rag‘batlantiriSh, ma’nan etuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni ShakllantiriShga imkon yaratdi.

Shuningdek, soha xodimlarni malakasini oShiriSh bo‘yicha uzlyuksiz kasbiy rivojlantiriSh tizimi takomillaShtirilib, Xalqaro baholaSh tadqiqotlarida (PISA va PIRLS) iShtirok etiSh bo‘yicha taShkiliy iShlar amalga oShirildi.

Bugungi kunda xalq ta’limi xodimlarini qo‘Shimcha ijtimoiy rag‘batlantiriShni yo‘lga qo‘yiShda uy-joy bilan ta’minlaSh va moddiy qo‘llab-quvvatlaSh yuzasidan Sharoitlar yaratiSh maqsadida oliy malaka toifasiga ega o‘qituvchilariga kamaytirilgan foiz stavkalarda ipoteka kreditlarini taqdim etiSh hamda boShlang‘ich badal to‘lovlarini qoplab beriSh bo‘yicha yangi tizim amalga joriy etilmoqda.

Ayni paytda O‘zbekistonda umumiy, boShlang‘ich va o‘rta ta’limda qamrov darajasi 99 foizni taShkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlaniShning ustuvor yo‘naliShlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratiSh bo‘yicha harakatlar boShlandi.

Binobarin, so‘nggi beSh yilda Oliy ta’lim muassasalari soni 2,5 barobarga ortdi, ya’ni yangi 132 ta OTMlar taShkil etilib, hozirgi kelib, ularning soni 210 taga etkazildi. Respublikamizda 31 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari, 65 ta xorijiy va nodavlat OTMlar taShkil etildi. Oliy ta’limda raqobat muhitini yaratiSh, oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytiriSh maqsadida yangi oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallari taShkil etildi.

Oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 2016 yildagi 9 foizdan 2022 yilda 38 foizga etkazildi. 2026 yilda oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga etkaziSh maqsad qilingan.

Shuningdek, OTMlarda sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki ta’lim qabul kvotalari oxirgi uch yilda 3,5 barobarga ortdi. Hududlardagi oliy ta’lim muassasalari uchun ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini yaratiSh maqsadida tayanch oliy ta’lim muassasalarida magistraturaga maqsadli qabul kvotalari joriy etildi. Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-pedagogik zaxirasi ShakllantiriSh iShlari rivojlantirildi, magistratura qabul ko‘rsatkichlari 2,5 barobarga oShirildi.

Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlaSh sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlarning (jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Rossiya, Turkiya, Belorus, Latviya, Hindiston va b.) nufuzli oliy ta’lim muassasalari filiallari faoliyatini taShkil etiSh orqali oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oShiriSh hamda oliy ta’limda raqobat muhitini yaratiSh iShlari amalga oShirildi.

O‘zbekiston va 60 dan ortiq xorijiy oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro keliShuvi hamda qo‘Shma ta’lim dasturlari asosida talabalarni o‘qitiShni taShkil etiSh va ikki tomonlama tan olinadigan diplom beriSh amaliyoti joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantiriSh konsepsiyasi va Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini taShkil etiSh bilan bog‘liq tizimni takomillaShtiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan Oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazildi.

Bundan taShqari, “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va taShkiliy-boShqaruv mustaqilligini ta’minlaSh bo‘yicha qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qaroriga muvofiq, 41 ta oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi. Tizimga xalqaro standartlar va tamoyillar joriy etildi.

Oliy ta’lim tizimini raqamlaShtiriSh maqsadida “Oliy ta’lim jarayonlarini boShqariSh – HEMIS” axborot tizimi iShlab chiqildi hamda 2020/2021 o‘quv yilidan boShlab oliy ta’lim muassasa-larida foydalanila boShlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat grantlari asosida qabul parametrlarini O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qiShga qabul

qiliSh bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan, to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlarini Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan keliShuv asosida, to‘lov-kontrakt miqdorlarini bir talabani xarajatini hisobga olgan holda belgilaSh oliy ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil tasdiqlaSh amaliyotini joriy etiSh masalasini ko‘rib chiqiSh kerak.

YoShlarning oliy ma’lumot oliShga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olib, ularga o‘qiShga kiriSh uchun samarali tayyorgarlik ko‘riSh bo‘yicha ko‘maklaShiSh, Shuningdek kasbga yo‘naltiriSh va seleksiya iShlarini yanada samarali taShkil etiShni ko‘zda tutgan holda barcha davlat oliy ta’lim muassasalarida abiturientlar uchun yangicha tizimdagi maqsadli tayyorlov kurslar faoliyatini yo‘lga qo‘yiSh lozim.

Davlat oliy ta’lim muassasalarini moliyalaShtiriShning zamonaviy muqobil imkoniyatlarini yanada takomillaShtiriSh maqsadida har bir oliy ta’lim muassasasida nodavlat notijorat taShkiloti ko‘riniShida maqsadli kapital jamg‘armalari (endaument fond) taShkil etiliShi maqsadga muvofiq [4, – B. 11].

Ayni paytda mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlar davomida ta’lim sohasida olib borilayotgan o‘zgariShlarni, jumladan inson kapitalini rivojlantiriShda yoShlarni kasbga yo‘naltiriSh va seleksiya iShlarini yanada samarali taShkil etiSh bo‘yicha tizim yaratiSh kerak.

Shu jihatdan, Oliy ta’lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars beriSh emasligini anglagan holda, OTMlar ilm-fan sohasida ham faol iShlaShi, yoShlarni ilmiy iShlarga, yirik loyihalarga yanada ko‘proq jalb etiSh bo‘yicha normalarni Asosiy Qonun darajasida mustahkamlaSh zaruriyati mavjud edi.

2023 yil 1 maydan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oliy ta’limga oid quyidagi mazmundagi yangi modda kiritilgani alohida e’tiborga molik:

“51-modda.

Fuqarolar davlat ta’lim taShkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot oliShga haqli.

Oliy ta’lim taShkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boShqariSh, tadqiqotlar o‘tkaziSh va o‘qitiSh erkinligi huquqiga ega”.

Aholining keng qatlamlarini oliy ta’lim bilan qamrab oliSh masalasi Prezidentimiz tomonidan BMT minbarida ham ko‘tarilgan va 2030 yilgacha O‘zbekistonda 50% yoSh aholi oliy ma’lumotga ega bo‘liShi rejalaShtirilgan. Shu sababli oliy ta’limga oid norma Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Hamma ham kontraktda katta pul to‘lab o‘qiy olmasligi mumkin. Shu sababli Konstitutsiyada tanlov asosida davlat byudjeti hisobidan o‘qiSh imkoniyati qat’iy belgilandi.

Bundan taShqari, oliy ta’lim taShkilotlariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boShqariSh, tadqiqotlar o‘tkaziSh va o‘qitiSh erkinligi huquqi taqdim etildi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari ochilmoqda, xorijiy universitetlar filiallari soni ortmoqda, olis hududlarda ham universitet filiallari taShkil etilmoqda, davlat oliy o‘quv yurtlariga taShkiliy va moliyaviy mustaqillik berilmoqda [5, – B. 10-15].

Demak, oliy ta’lim taShkilotlari o‘z faoliyatining asosiy yo‘naliShlarini amalga oShiriSh erkinligi, ta’lim yo‘naliShining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta’lim tartibini belgilaSh bo‘yicha qarorlar qabul qiliShda mustaqil bo‘liSh huquqlari konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlangani ularga qo‘Shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu davlat organlari va ularning mansabdor Shaxslari oliy ta’lim muassasalarida o‘qiShni olib boriSh uchun turli Shartlar va ko‘rsatmalar bera olmasligini kafolatlaydi.

Bugungi kunga qadar O‘zbekistondagi 40 dan ortiq davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan hamda bu boradagi iShlar davom etmoqda.

Oliy ta’lim tizimi bilan bog‘liq masalalarning Konstitutsiya darajasida belgilanayotgani ta’lim islohotlarining o‘zgarmas va ortga qaytmas ko‘riniSh oliShini ta’minlaydi. Ayniqsa, ta’lim muassasalariga akademik erkinlik beriSh masalasi — dunyo tajribasi. UShbu huquqning kafolatlaniShi oliy ta’lim sifatini oShiriShga xizmat qiladi.

Mazkur o‘zgartiShlar tufayli oliy ta’limga alohida e’tibor qaratiSh davlat majburiyatiga aylanmoqda. Har bir fuqaro oliy ta’lim oliSh orqali farovon hayot kechiriShiga mustahkam asos yaratadi. Bundan taShqari Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur o‘zgariSh bir xil andozaga tuShib qolgan, eskicha qaraShlar bilan iShlayotgan institut va universitetlarni zamonaviy tendensiyalar orqali rivojlaniShiga turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Mirziyoyev Sh. Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi. “Xalq so‘zi” gazetasining rasmiy-veb sayti.** https://xs.uz**.**
2. Saloxo‘jaev R. Inson kapitali taraqqiyoti zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantiriShning yagona yo‘li. https: www.uzanalytics. som; Qodirova L. Inson kapitaliga e’tibor – asosiy vazifa. https://yuz.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.04.2023 y., 07/23/128/0224-son.
4. Xijnyak V, Novikova O. Razvitie endaument-fonda vыsShego uchebnogo zavedeniya // π-Economy. 2014. №1 (187). URL: https: //cyberleninka.ru/article/n/razvitie-endaument-fonda-vysShego-uchebnogo-zavedeniya (data obraщeniya: 08.06.2023).
5. Xakimov R. Oliy ta’lim muassasalariga akademik boshqaruv mustaqilligi berildi. “O‘zbekistonda oliy ta’lim” jurnali. 2022 y. № 1. –B. 10-15.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VA XAVFSIZLIGINING AHAMIYATI

Maxsadov M.I.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, y.f.d.(DSc), dotsent.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mudofaa va xavfsizligini ta’minlaShning ahamiyati, milliy xavfsizlik strategiyasi, uning asosiy tamoyillari hamda bu sohada amalga oShirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat xavfsizligini ta’minlaShdagi zamonaviy tahdid va muammolarga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Mudofaa, xavfsizlik, milliy strategiya, islohotlar, zamonaviy tahdidlar, davlat muhofazasi.

This article explores the importance of ensuring the defense and security of the Republic of Uzbekistan, analyzes the national security strategy, its key principles, and the reforms implemented in this area. Special attention is given to modern threats and challenGES in ensuring state security.

Keywords: Defense, security, national strategy, reforms, modern threats, state protection.

Milliy xavfsizlikni ta’minlaSh jarayonini tartibga soliSh turli tarmoqlar va institutlarga taalluqli bir turkum huquqiy normalar orqali amalga oShiriladi. Shu munosabat bilan milliy xavfsizlikni ta’minlaShning huquqiy asoslarining yaxlit tizimini hamda uning tarkibidagi maxsus tarmoqlar va tegiShli institutlarning rivojlaniSh jarayonlarini tahlil qiliSh maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Milliy xavfsizlikni ta’minlaSh faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuining vujudga keliShi jarayonini nazariy jihatdan chuqur idrok etiSh milliy huquq va qonunchilik tizimini ShakllantiriShning dolzarb masalasi hisoblanadi. BoShqa tomondan olib qaraganda, mazkur sohaga daxldor qonunchilikning ilmiy tahlili huquq tizimi to‘la va aniq namoyon bo‘liShida nazariy-metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Bugungi dunyoda jadal o‘zgarib borayotgan vaziyat va jarayonlar, mavjud mojarolarning keskinlaShuvi va yangi qarama-qarShiliklarning paydo bo‘liShi, ba’zi mintaqalarda etnik va konfessiyalararo tafovutlar negizida vujudga kelayotgan to‘qnaShuvlarning kuchayiShi jiddiy tahdid va xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Yadroviy texnologiyalar va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalib ketiSh xavfi, murosasizlik, radikalizm va ekstremizmning o‘siShi, yangi keskinlik o‘choqlarining paydo bo‘liShi jahon mamlakatlariga jiddiy taShviSh uyg‘otmoqda. Bugungi globallaShuv Sharoitida bunday jarayonlarning barchasi jahondagi yirik davlatlarning manfaatlari o‘zaro to‘qnaShadigan mintaqamizning xavfsizligi, barqarorligi va rivojlaniShiga salbiy ta’sir ko‘rsatiShi mumkinligi kundek ravShan.

Bugungi kunda milliy xavfsizlikni ta’minlaSh sohasida davlat oldida turgan vazifalar orasida ekstremizm va radikalizmning har qanday ko‘riniShlariga, xalqaro terrorizmga qarShi izchil kuraShiSh uchun butun kuchlarni safarbar etiShdek o‘ta muhim vazifa ham borligini alohida aytib o‘tiSh kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, «...biz notinch zamonda, notinch bir mintaqada yaShamoqdamiz. Shu sababli, Vatanimiz himoyasini iShonchli kafolatlayotgan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlayotgan va davlat chegaralarimiz daxlsizligini ta’minlayotgan tizimli chora-tiadbirlar kompleksini joriy etiShni qat’iyat bilan davom ettiriShimiz zarur»[1].

Darhaqiqat, “Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy Sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta’minlaSh, Shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyiShta hayotni saqlaSh kabi biri-biridan mas’uliyatli va keng ko‘lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana Shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etiShimizga bog‘liqdir”[2].

Davlatning milliy xavfsizlikni ta’minlaSh sohasidagi faoliyati vazifalari hamda yo‘naliShlari doirasi anchagina kengdir. Dunyoda narkotrafik muammolar jiddiy tus olmoqda, yadroviy va boShqa ommaviy qirg‘in qurollarining tarqaliSh xavfi bartaraf etilgani yo‘q. Ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar, ilmiy-texnikaviy, texnologik va axborot tarqatiSh hamda ekologik sohalarda ham ko‘pgina muammolar mavjudki, ular kuchayib, milliy xavfsizlikka tahdidga aylaniShi mumkin. Mamlakatning o‘z milliy xavfsizligini ta’minlaShga tayyorligi mezonlaridan biri etarli darajada qudratli siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatning mavjudligi bilan bir qatorda, Shunga batamom muvofiq keladigan tegiShli huquqiy bazaning takomillaShib boriShi hamdir. U O‘zbekiston Respublikasining eng muhim hayotiy manfaatlarini himoya qiliSh kafolatlarini mujassam etganligi uchun ham xavfsizlikni ta’minlaShning eng asosiy yo‘naliShlaridandir.

O‘zbekiston, avvalambor, mamlakatimiz taShqi siyosatida boSh qadriyat va tamoyil bo‘lgan o‘zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko‘zlagan holda:

turli harbiy-siyosiy blok va alyanslardan uzoq bo‘liShi haqida;

o‘zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qiliSh bo‘yicha qat’iy pozitsiyaga ega bo‘liShi haqida va o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylaShtiriliShiga yo‘l qo‘ymasligi haqida;

ochiq, izchil va faol taShqi siyosat olib boriShi haqidagi prinsiplarini aniq-ravShan bayon etadi.

Mabodo mintaqaviy yoki global xavfsizlikning huquqiy negizlari, asosan, xalqaro taomil va odatlar, ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama Shartnomalar, bitimlar hamda Shu kabi boShqa hujjatlarning natijalari asosida qaror topadigan bo‘lsa, milliy xavfsizlikni ta’minlaShning huquqiy asoslarini milliy qonun hujjatlari negizida Shakllantiriladi (lekin bu qonun hujjatlari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga zid bo‘lmasligi, ayrim hollarda esa umuman ularga asoslangan bo‘liShi lozim). O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlikni ta’minlaShga doir qonun hujjatlari tizimi bugungi kunda murakkab tuzilma sifatida

[1]Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutq. 2016 yil 8 sentyabr. 11 b.

[2]I.A.Karimov. Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizasiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. – Toshkent: “ O‘zbekiston”, 2010.– B.130.

Shakllanmoqda va u huquqiy normalarning tarmoqlararo majmuiga aylanmoqda. Bir tomondan, bu o‘rinda gap harbiy, ekologik, gumanitar, jinoyat qonunchiligi singari mustaqil tarmoqlarning va har biri o‘z sohasida xavfsizlikni ta’minlaSh bilan bog‘liq munosabatlar tizimini boShqaradigan boShqa tarmoqlarning rivojlanib boriShi ustida bormoqda.

Ikkinchi tomondan, terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga, giyohvandlik moddalarini tarqatiShga qarShi kuraSh olib boradigan tarmoq va tarmoqlararo taShkilotlar, siyosiy, iqtisodiy, oziq-ovqat, texnologik va axborot xavfsizligini ta’minlaydigan, Shuningdek, aholi sog‘lig‘igagina emas, balki bir vaqtning o‘zida iqtisodiyotga, jamiyatning ma’naviy asoslariga o‘nglab bo‘lmas darajada zarar etkazib, millatning jismoniy sog‘-omonligini xatar ostida qoldiradigan bir qator yuqumli kasalliklarning oldini oliSh va ularga qarShi kuraShiSh bilan Shug‘ullanadigan sohalar ham nazarda tutilmoqda.

Zotan, Prezidentimiz BMT BoSh Assambleyasining 72-sessiyasida ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining taShqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylaShgan O‘zbekiston uShbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxShi qo‘Shnichilik hududiga aylaniShidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyiShta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O‘zbekiston o‘zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxShi qo‘Shnichilikni mustahkamlaShning qat’iy tarafdoridir”[1].

O‘zbekiston Respublikasi mudofaa va xavfsizligi davlatning barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlaShda asosiy omil hisoblanadi. Milliy xavfsizlik strategiyasi va uning doirasida amalga oShirilayotgan islohotlar davlatning taShqi va ichki tahdidlarga barqaror javob qaytariShiga yordam beradi. Mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etiSh va xavfsizlik tizimini takomillaShtiriSh davlat mustaqilligi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlaShning asosiy kafolatidir.

Davlat xavfsizligini ta’minlaSh uchun zamonaviy tahdidlarni oldindan aniqlaSh, ularga qarShi samarali choralar ko‘riSh va xalqaro hamkorlikni kuchaytiriSh muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, harbiy va huquqiy sohalardagi mutaxassislar malakasini oShiriSh bu yo‘naliShdagi iShlarni yanada samarali qiladi.

O‘zbekiston mudofaa va xavfsizlik sohasidagi sa’y-harakatlari bilan mintaqaviy barqarorlik va tinchlikni ta’minlaShga hissa qo‘Shmoqda.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi / Xalq so‘zi. 2017 yil 20 sentyabr.

MILLIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY PRINSIPLARI VA NORMALARI

Maxmudov D.R.
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi professori,
yu.f.d.(DSc), dotsent.

Milliy xavfsizlikni, asosan davlat va jamiyat quriliShi sohasida ta’minlaShning tayanch prinsiplari hamda normalarini, Shuningdek, mafkuraviy qoidalarini belgilab beradigan konstitutsiyaviy huquq asoslari bu tizimda alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyasi oliy normativ-huquqiy manba sifatida milliy xavfsizlikni ta’minlaShning asosiy masalalari bo‘yicha muhim milliy manfaatlar hamda ustuvor prinsiplar va normalarni, Shuningdek, mafkuraviy qoidalarni belgilab beradi. Mohiyat e’tibori bilan, undagi ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu masalalariga doir har bir modda mazkur munosabatlarning asosiy subekti – inson, jamiyat, davlat himoyasiga qaratilgandir.

Mintaqamizda murakkab vaziyat vujudga kelayotgan Sharoitda, uzoq va yaqin atrofimizda turli qarama-qarShiliklar tobora kuchayib borayotgan bir paytda mamlakatimiz tinchligi va farovonligini saqlaSh, yon-atrofimizdagi davlatlar va xalqlar bilan o‘zaro bir-birini tuShuniSh va hamjihatlikda yaShaSh uchun Shart-Sharoitlarni ta’minlaShga qaratilgan ana Shunday taShqi siyosatgina xalqimizning asl orzu-umid va intiliShlariga mos keladi.

Jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida milliy xavfsizlikni muhofaza etiShning taShkiliy-huquqiy tizimini Shakllantiruvchi qonunlar va boShqa normativ hujjatlar Konstitutsiya asosida iShlab chiqiladi. Davlat va jamiyat quriliShi sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlaShning tayanch prinsiplari va normalarini, Shuningdek, mafkuraviy qoidalarini belgilab beradigan konstitutsiyaviy huquq asoslari alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan aytib bo‘lmaydigan murakkab Sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlaSh, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlaSh qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz chuqur anglaymiz. Bu esa o‘tgan davr mobaynida eriShgan yutuqlarimiz va yo‘l qo‘ygan kamchiliklarimiz, to‘planib qolgan muammolarni chuqur tahlil qiliSh, bugun hayotning o‘zi ilgari surayotgan talablarni hisobga oliShni taqozo etmoqda.

Biz ayni Shu asosda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlaShni **O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasining** ustuvor yo‘naliShlaridan biri sifatida belgilab oldik. Taraqqiyot strategiyasiga binoan 2022-2026-yillarda boShqa sohalar qatorida harbiy quriliSh borasida ham keng ko‘lamli o‘zgariShlar amalga oShirildi. Qisqa muddatda dastlabki aniq natijalarga eriShdik va yangilanayotgan Qurolli Kuchlarimiz bo‘yicha strategik yondaShuvni iShlab chiqdik.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari bevosita mudofaa maqsadlarida taShkil qilinib, uruShlar va qurolli mojarolarni bartaraf etiSh hamda ularning oldini oliSh, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy

yaxlitligi va aholining tinch hayotini himoya qiliSh uchun davlat tomonidan taShkil etilgan harbiy birlaShmalar, qo‘Shilmalar hamda qismlarni, Shuningdek, boShqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi.

Avvalambor, Konstitutsiya mamlakatni demokratik yo‘ldan rivojlantiriShning asosiy va mustahkam negizi – xalq hokimiyati prinsipi va tizimini kafolatlaydi hamda himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir, deyilgan va yana quyidagilar ta’kidlangan.

Shuningdek, Konstitutsiyada mamlakat va fuqarolar xavfsizligini ta’minlaShga da’vat etilgan organlar tizimi ham belgilab beriladi.

Mamlakat va fuqarolar xavfsizligini u yoki bu jihatdan ta’minlaShga da’vat etilgan organlar tizimini, xavfsizlik mezonlarini va boShqa masalalarni belgilar ekan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy xavfsizlik tuShunchasini aniq belgilaSh uchun zarur bo‘lgan asoslarni ham yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oShiriladi.Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlaShtiriSh, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yiSh yoki tugatiSh, hokimiyatning yangi va muqobil tarkiblarini tuziSh Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortiShga asos bo‘ladi.

Shunga mos tarzda jamiyatimizning siyosiy tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari ham uShbu konstitutsiyaviy prinsipdan kelib chiqqan holda yaratiladi.

Jamoat birlaShmalariga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tiSh tartib-tamoyilini majburiy qilib qo‘yuvchi norma ham Shundan kelib chiqadi. Davlat faoliyatida siyosiy fikrlar xilma-xilligini, demokratik huquqlar va erkinliklarni, inson va jamiyat manfaatlarini himoya qiliShga, ijtimoiy adolat va qonuniylikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va hokazolarni ta’minlaShga qaratilgan konstitutsiyaviy prinsiplar hamda normalarning barchasi siyosiy xavfsizlikni ta’minlaSh institutini taShkil etadi. Masalan, Asosiy Qonunning 12-moddasida siyosiy fikrlar xilma-xilligi kafolatlanadi va unda: “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatiliShi mumkin emas”, deb ta’kidlangan.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va siyosiy tizimning izchil rivojlaniShini ta’minlaSh Konstitutsiyaning eng asosiy vazifalaridan biridir. Yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan hodisalarning mohiyatini ifodalar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat hokimiyati va boShqaruvi organlari, jamoat birlaShmalari va fuqarolar amal qiliShlari lozim bo‘lgan xavfsizlik mezonlarini belgilab beradi. Masalan, Konstitutsiyaning 57-moddasida: “Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartiriShni maqsad qilib qo‘yuvchi, O‘zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarShi chiquvchi, uruShni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va

erkinliklariga, aholining sog‘lig‘iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boShqa nodavlat notijorat taShkilotlarining, Shuningdek milliy va diniy belgilariga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylaShtirilgan birlaShmalarning taShkil etiliShi va faoliyati taqiqlanadi”[1], deb ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi konsepsiyasida ekologik tanazzul hozirgi davrning o‘ziga xos xususiyati sifatida belgilangan. Orol dengizining muammolari ham qo‘Shilib chuqurlaShib borayotgan noxuSh ekologik vaziyat, Shuningdek, suv resurslari hamda qiShloq xo‘jaligi iShlab chiqariShi uchun yaroqli bo‘lgan erlarning cheklanganligi O‘zbekistonning jug‘rofiy siyosiy ahvoliga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatorida ko‘rsatib o‘tilgan.

Darhaqiqat, 2012-yil 11-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining TaShqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi”da ta’kidlab o‘tilganidek, tobora murakkablaShib borayotgan, atrof – muhitga, mintaqa mamlakatlari aholisining sog‘lig‘i va genofondiga ziyon etkazayotgan ekologik muammolar, xususan, Orol dengizi falokati oqibatlari, korxonalarning sanoat oqovalari hududlarni hamda suv resurslarini transchegaraviy ko‘lamda ifloslantirayotganligi Markaziy Osiyo farovonligi va barqaror taraqqiyoti uchun tobora xavfli tus olmoqda.

Ekologiya Shaxs, jamiyat va davlatning eng muhim hayotiy manfaatlarini belgilaSh mezonidir, inson hayoti va faoliyati uchun oqilona ekologik Sharoitlarni ta’minlaSh, kiShilar salomatligini saqlaSh hamda barqaror ekologik vaziyatni, Shu jumladan mintaqamizda barqaror ekologik vaziyatni yaratiSh uShbu manfaatlarning mazmunini taShkil etadi.

Milliy xavfsizlik konsepsiyasi ekologiya sohasida milliy xavfsizlikka tahdidlar mavjudligini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Avvalambor, bu:

Orol ekologik tanazzuli hamda uning atrof muhit va millat genofondi, o‘simliklar va hayvonot dunyosi uchun keltirib chiqaradigan oqibatlari;

iShlab chiqariShni rivojlantiriShga doir qarorlar qabul qilayotganda ekologik omillarni etarli darajada hisobga olmaslik;

aholi salomatligi va atrof muhit uchun zararli bo‘lgan iShlab chiqariShlarning faoliyat ko‘rsatiShi va kengaytiriliShini qo‘llab-quvvatlaSh;

suv resurslarining kamayib ketiShi va er resurslarining zavol topiShi, tuproq erroziyasi;

ekologik jihatdan zararli bo‘lgan texnologiyalar, moddalar, materiallarning hamda aholi salomatligi uchun xavfli bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va farmakologiya preparatlarining olib kiriliShini nazorat qilmaslik;

tabiatdagi va texnogen tusdagi keskin o‘zgariShlar (er silkiniShlari, suv toShqinlari, yong‘inlar, sel va boShqalar)dir.

TaShqi siyosiy faoliyat, chunonchi, davlatlararo tuzilmalarda iShtirok etiSh avvalo xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib borilmog‘i zarur. Mohiyatan olganda, Konstitutsiyaning har qanday prinsipial qoidasi, milliy manfaatlarning oliy siyosiy-huquqiy ifodasi bo‘lib, bundan “davlatning, xalqning oliy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 71-m. // https://lex.uz/docs/6445145.

manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi” – bu, avvalo, Konstitutsiyaning o‘zi, uning qoidalarini himoya qiliSh, uning ustuvorligi va mustahkamligi ekanligi kelib chiqadi.

TaShqi siyosat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat faoliyatining sohasi sifatida belgilangan bo‘lib, unga xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga sodiqlik, Shuningdek,, davlatlararo tuzilmalarda iShtirok etiSh nuqtayi nazaridan qaraladi hamda u oliy milliy manfaatlardan kelib chiqib amalga oShiriladi. O‘zbekiston Respublikasi ko‘p tomonlama hamkorligining asosiy yo‘naliShlari asosan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi ikkinchi qismida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda: “Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlaSh maqsadida ittifoqlar tuziShi, hamdo‘stliklarga va boShqa davlatlararo tuzilmalarga kiriShi va ulardan ajralib chiqiShi mumkin” deyiladi.

Xalqaro taShkilotlarga (ittifoqlar, hamdo‘stliklar va boShqa davlatlararo tuzilmalarga) a’zolikka nisbatan belgilangan bu norma-prinsip mamlakatimizning integratsiya jarayonida yanada faolroq iShtirok etiShini ta’minlaShga, boShqa davlatlarning huquqiy tizimlari bilan tegiShli Shartnoma munosabatlarini yo‘lga qo‘yiSh va o‘zaro uyg‘un hamkorlik qiliSh uchun keng istiqbollar yaratiShga da’vat etilgandir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-moddasining ikkinchi qismidagi tuShunchadan Shu narsa kelib chiqadiki, respublika, agar milliy manfaatlarga zid bo‘lsa, xalq farovonligi va xavfsizligiga zarar etkazadigan bo‘lsa, davlatlararo tuzilmalarda iShtirok etmaydi.

2012-yil 11 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining TaShqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi”ga muvofiq, “O‘zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy – siyosiy bloklarda iShtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy – siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqiSh huquqini saqlab qoladi.O‘zbekiston Respublikasi qo‘Shni davlatlardagi qurolli mojarolarga va keskinlik o‘choqlariga tortiliShining oldini oliSh yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boShqa chora – tadbirlarni ko‘radi, Shuningdek,o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va ob’ektlari joylaShtiriliShiga yo‘l qo‘ymaydi”[1].

Shuningdek, Konstitutsiya ikki tomonlama munosabatlarning ham asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Garchi ikki tomonlama davlatlararo munosabatlar masalalari xalqaro huquq doirasida va asosan tegiShli Shartnomalar negizida hal etilsada, Shunga qaramay, xalqaro Shartnomalarni tuziSh va ularning bajariliShini ta’minlaShning davlatimiz ichkarisidagi tartibini Konstitutsiya belgilab beradi. Aynan Konstitutsiya xalqaro Shartnomalarning milliy qonun hujjatlari tizimidagi maqomi va o‘rnini belgilaydi hamda vakolatlar bermagan holda xalqaro Shartnomalarni tuziSh va ularni ratifikatsiya qiliSh huquqiga ega bo‘lgan subektlar doirasini belgilaydi. Bundan taShqari, Konstitutsiyada ikki tomonlama davlatlararo munosabatlarning mazmuni va yo‘naliShini belgilaShga da’vat etilgan fundamental yo‘l-yo‘riqlar hamda normativ qoidalar aks etadi.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012 yil 9/1 (1437) –son, 233 – modda.

Bundan taShqari, Konstitutsiya muhofaza qiluvchi vazifasini bajaradi, masalan, davlatning taShqi siyosatini yo‘lga qo‘yiShga aralaShuvga yo‘l qo‘ymagan holda fuqarolar va davlat manfaatlariga zid bo‘lmagan xususiy yoki guruh manfaatlarini ham himoya qiladi; taShqi siyosiy faoliyatning “siyosat – siyosat uchun” degan birdan-bir maqsadga aylanib ketiShiga yo‘l qo‘ymaydi. Bunda Konstitutsiya nisbatan kuchli davlat bilan o‘ta qulay iqtisodiy aloqalarni ham, agar bunday davlat salmoqli moliyaviy iqtisodiy yordam (hatto beg‘araz bo‘lsada) evaziga O‘zbekistonning suverenitetiga xilof bo‘lgan turli xil yon beriShlarga eriShiShga harakat qiladigan bo‘lsa, rivojlantiriShga yo‘l qo‘ymaydi va hokazo.

Konstitutsiyaga binoan davlatning taShqi siyosiy harakatlari Asosiy Qonunimizning muqaddimasida belgilab qo‘yilgan O‘zbekiston eriShiShga intilayotgan insonparvar demokratik huquqiy davlat maqomi talab etadigan darajada oqilona va huquqiy bo‘lmog‘i darkor. Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga konstitutsiyaviy maqom berib, Asosiy Qonun Shu ma’noda xalqaro munosabatlarda huquqni muhofaza qiliSh samarali mexanizmining yo‘qligi o‘rnini to‘ldiradi, chunki u o‘z davlatining taShqi siyosiy harakatlariga nisbatan oliy hokimiyat yo‘l-yo‘riqlarini beriSh xususiyatiga egadir. O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatning qaror topiShi va rivojlaniShi Sharoitlarida Konstitutsiyaning davlat taShqi siyosatining, Shu jumladan ikki tomonlama munosabatlarning asosiy yo‘naliShlarini belgilaShdagi roli o‘ta muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil dekabr oyida qabul qilingan “Terrorizmga qarShi kuraSh to‘g‘risida”gi Qonuni milliy xavfsizlikni ta’minlaShda katta ahamiyatga egadir. Mazkur Qonunda tegiShli qilmiShlarni kriminallaShtiriSh to‘g‘risidagi normalar, terrorchilik harakatlarining oldini oliSh hamda terrorchilar va ularning Sheriklarini jinoiy ta’qib etiSh bo‘yicha protsessual choralar nazarda tutilgan.

Terrorchilik faoliyati uchun jinoiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining quyidagi moddalarida ko‘zda tutilgan:

155-modda. Terrorizm;

245-modda. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka oliSh;

264-modda. Temir yo‘lning harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochiSh yoki egallab oliSh;

152-modda Xalqaro himoyaga olingan Shaxsga yoki muassasaga hujum qiliSh.

2004-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaShtiriShga va terrorizmni moliyalaShtiriShga qarShi kuraShiSh to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi (u 2006-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritildi). Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaShtiriShga va terrorizmni moliyalaShtiriShga qarShi kuraShiSh maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo‘yiladigan maxsus vakolatli davlat organi pul mablag‘lari yoki o‘zga mol-mulk bilan operasiyalarning amalga oShiriliShi ustidan nazorat qiladi. Qonunda asosiy normalar qatorida tegiShli axborotdan erkin foydalaniShni majburiy tarzda nazorat qiliSh va cheklaSh choralari belgilab qo‘yilgan. Shunga muvofiq taShkilotlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaShtiriShga va terrorizmni moliyalaShtiriShga qarShi kuraShiSh

bilan bog‘liq o‘z faoliyatlarida yuridik va jismoniy Shaxslarni ularga nisbatan olib borilayotgan majburiy nazoratdan xabardor qiliShga haqli emaslar. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaShtiriShga va terrorizmni moliyalaShtiriShga qarShi kuraShiSh bilan bog‘liq axborotlarni beriSh tartibi uShbu Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bundan taShqari, Qonunda maxsus vakolatli organning vakolatlari ochib beriladi, pul mablag‘lari yoki o‘zga mol-mulk bilan operasiyalarni amalga oShiruvchi taShkilotlarning majburiyatlari belgilanadi, Shuningdek, uShbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalariga doir bir qator blanket normalar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallaShtiriShga va terrorizmni moliyalaShtiriShga qarShi kuraShiSh sohasidagi nizolar hamda tegiShli qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Terrorizmga qarShi kuraShiSh sohasidagi qonun hujjatlari konstitutsiyaviy prinsiplar va normalarga, Shu jumladan fuqarolarning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qiliShga qaratilgan konstitutsiyaviy prinsiplar va normalarga qat’iy tarzda muvofiqdir.

Biroq O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida faqat davlat hokimiyati va boShqaruvi organlarining milliy xavfsizlikni ta’minlaSh borasidagi faoliyatigina emas, balki fuqarolarning o‘z mamlakatini himoya qiliSh majburiyatlari ham belgilangan. Chunonchi, 64-moddaga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasini himoya qiliSh – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘taShlari Shart”.

Milliy xavfsizlikni ta’minlaSh maqsadida xalqaro tuzilmalarda iShtirok etiSh prinsipini konstitutsiyaviy mustahkamlaSh quyidagi qat’iy (nazariy) nuqtayi nazarlarga asoslanadi. Birinchidan, bu – xavfsizlik yaxlitligi, uzlyuksiz holatligi va hadsiz-hududsiz ekanligini tuShuniShdan iboratdir[1]. Ikkinchidan, har bir mustaqil mamlakatning o‘z milliy manfaatlariga muvofiq, o‘z mustaqilligi va barqarorligini ta’minlaSh maqsadi bo‘liShi lozim. U yoki bu xalqaro tuzilmalarda va kollektiv xavfsizlik Shartnomalarida qay darajada qatnaShiShini ularning o‘zi belgilaSh huquqi nazarda tutiliShi zarur[2]. Uchinchidan, “Hozirgi Sharoitda xavfsizlik faqat kollektiv bo‘liShi mumkin. U hamfikr davlatlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan, ularning imkoniyatlarini birlaShtiriSh bilan ta’minlanadi”[3].

Milliy xavfsizlikni ta’minlaSh maqsadida xalqaro tuzilmalarda iShtirok etiSh konstitutsiyaviy prinsipi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 22-mayda qabul qilingan “Mudofaa to‘g‘risida”gi, 2012-yil 11-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining TaShqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi”da, 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan “Terrorizmga qarShi kuraSh to‘g‘risida”gi, 2018-yil 9-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”[4] qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasida yanada rivojlantirildi. Chunonchi, etiSh, Shuningdek, mudofaa

[1] Qarang: I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.– T. 6. Toshkent. “O‘zbekiston”, 1998. – B.37.

[2] O‘sha joyda 38-39-betlar.

[3] O‘sha joyda: B.147.

[4] O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018 y., 03/18/458/0537-son

vazifalarini hal etiSh uchun taShqi siyosiy xarakterdagi choralarni ko‘riShdan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, Qonunda “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning yakka tartibda va kollektiv tarzda mudofaalaniShdan iborat bo‘lgan huquqni mustahkamlovchi umume’tirof etilgan normalari va prinsiplariga asoslanib, harbiy quriliSh, tinchlik va xavfsizlikni saqlab turiSh sohasida boShqa davlatlar bilan hamkorlikni amalga oShiradi” deb aytilgan norma ham bor. Shu bilan birga, bu faollik mafkuraviy jihatdan fikrini o‘zgartiriShlarga asoslanmasligi lozim. Bunday yo‘l bugungi kunda ham kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, “milliy xavfsizlik”ning qamrov doirasidagi asosiy vazifasi uning ob’ekti va subekti tuShunchasini belgilaShdan iboratdir. Binobarin, har bir davlat o‘zi duch kelayotgan xavf-xatarni engib o‘tiShga mintaqaviy va dunyo miqyosidagi omillar ta’siri doirasida va o‘z imkoniyati darajasidagi mavjud barcha resurslarni yo‘naltiradi. Darhaqiqat, “Har bir mintaqada xavfsizlikni ta’minlaSh muammolari muayyan mohiyatga ega. Shuningdek, har bir mintaqaning o‘z xususiyatlari, o‘z tahdid manbalari va xavfsizlikni saqlaSh omillari bor”[2]. Bundan taShqari, “milliy xavfsizlik” tuShunchasi o‘z ichiga taShqi siyosatda milliy manfaatlarni himoya qiliSh, texnogen va ekologik xavfsizlikni ta’minlaSh, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotida Shaxs kamoloti va jamiyatning barqaror rivoji singari bir qator sohalarni ham qamrab oladi.

Mazkur masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’kidlanganidek, “Oldimizda turgan navbatdagi muhim vazifa – yaratib berilagn imkoniyat va vakolatlardan to‘liq foydalanib, fuqarolarimiz, jamiyat va davlatimiz xavfsizligini hamda konstitutsiyaviy tuzum himoyasini ta’minlaShdan iborat”[3].

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI – MILLIY XAVFSIZLIK KONSEPSIYASINING ASOSI SIFATIDA

Maxsadov M.I.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yu.f.f.d.(PhD), dotsent.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy xavfsizlik konsepsiyasining huquqiy va siyosiy asosi sifatida o‘rganiladi. Konstitutsiyaning davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, inson huquqlari va xavfsizligini ta'minlaShdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, Konstitutsiya asosida milliy xavfsizlik strategiyasini ShakllantiriSh tamoyillari hamda xalqaro huquqiy tajribani qo‘llaSh masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Konstitutsiyasi, milliy xavfsizlik, huquqiy asos, davlat mustaqilligi, xavfsizlik strategiyasi, xalqaro tajriba.

This article examines the Constitution of the Republic of Uzbekistan as the legal and political foundation of the national security concept. The role of the

[2] I.A.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6.-Toshkent.: “O‘zbekiston”, 1998.-B.37.

Constitution in ensuring state independence, territorial integrity, human rights, and security is analyzed. The principles of forming a national security strategy based on the Constitution and the application of international legal practices are also explored.

Keywords: Uzbekistan Constitution, national security, legal foundation, state independence, security strategy, international experience.

O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi 1997-yilning 29-avgustida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlaSh to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan amal qilib kelmoqda. U siyosiy yo‘naliShdagi masalalarni hamda tegiShli qonunlar, qonunosti hujjatlarini tayyorlaShda asos bo‘ladigan normativ-huquqiy atamalar, prinsiplarni o‘z ichiga oladi. Mazkur Konsepsiya yana Shu ma’noda siyosiy-huquqiy hujjat hisoblanadiki, unda davlatimizning milliy xavfsizlikni ta’minlaSh masalasiga doir rasmiy qaraShlari o‘z ifodasini topgan va Shunga binoan bu Konsepsiya xavfsizlik muammosi, uni hal etiShning strategiyasi va taktikasiga doir, jumladan, qonunchilik sohasiga taalluqli yaxlit, umumdavlat qaraShlari tizimini o‘zida mujassam etgan hujjatdir.Konsepsiyaning birinchi qismida hozirgi davrning xususiyatlari, O‘zbekistonning geopolitik holati, Shu jumladan Markaziy Osiyodagi mavqei bilan bog‘liq omillar, xalqaro hamkorlik sohasidagi vazifalar bayon qilinadi. Konsepsiyaning ikkinchi qismida Shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari mazmuni ochilgan; uchinchi qismida sohalar bo‘yicha milliy xavfsizlik ta’riflab o‘tilgan. To‘rtinchi qismda milliy xavfsizlikni ta’minlaShning asosiy yo‘naliShlari bayon qilingan. BeShinchi qismda milliy xavfsizlikni ta’minlaShning tizimi va prinsiplari haqida so‘z boradi.

Konsepsiya o‘zida milliy xavfsizlikning maqsadga muvofiq tizimini yaratiShning asosiy g‘oyasini, amaliy prinsiplarini ochib bergan. Unga tayangan holda tegiShli taShkiliy-huquqiy mexanizm Shakllantiriladi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, jamoat taShkilotlari va fuqarolar o‘rtasida hamkorlik tizimiga asos solinadi.

Eng muhimi, uShbu Konsepsiya, bamisoli Konstitutsiya singari, muammoni tuShuniSh va echimini topiShga bir xil yondaShiShga imkoniyat yaratadi. Masalan, unda “milliy xavfsizlik”, “milliy manfaat”, “tahdid” singari tuShunchalarning mazmun-mohiyati O‘zbekiston Respublikasiga tatbiqan atroflicha talqin etiladi.

Unda davlatchilik manfaatlari millatning o‘ziga xos holati hamda millat yaShaydigan va o‘z manfaatlarini amalga oShiradigan Shakl – himoya etiliShi va rivojlantiriliShi zarur bo‘lgan Shakl sifatida talqin etiladi.

Xalq manfaati Shaxs va jamiyat manfaatlarining o‘zaro uyg‘un va bir-birlarini taqozo etadigan birlaShmasidir.

Shunday qilib, “davlat, xalqning oliy manfaatlari, ularning farovonligi va xavfsizligi” yaxlit olganda hayotiy muhim milliy manfaatlardir. Konsepsiyada boShqa darajadagi milliy manfaatlar ko‘rsatilmaganligi sababli, ta’kidlaShimiz kerakki, milliy manfaatlar, eng avvalo, hayotiy muhim manfaatlardir. AQShda bunday tabaqalaShtiriSh (hayotiy muhim, Shunchaki muhim, torroq doiradagi va boShqa darajadagi manfaatlar) qo‘llaniladigan chora-tadbirning mutanosibligini aniqlaShga xizmat qiladi: masalan, yadro qurolini qo‘llaShdan tortib vazirlik yoki

Shtat miqyosida ma’muriy qarorlar qabul qiliShgacha bo‘lgan choralar ko‘riShga asos bo‘ladi.

Shuni ta’kidlaSh kerakki, Konsepsiyada Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari ham, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar, harbiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy, texnologik va axborot sohalarida tug‘iladigan milliy xavfsizlikka tahdidlar ham batafsil ta’riflab berilgan. Shu asosda milliy xavfsizlikning asosiy yo‘naliShlari ham belgilab berilgan. Davlatning faoliyati xuddi ana Shu qoidalar bilan muvofiqlaShtiriliShi, qonunchilik esa tegiShli tarzda rivojlantirilib boriliShi kerak.

Bu faqat milliy manfaatlar mazmunining tuzilmaviy bayonigina emas, balki xavfsizlik, tahdid ob’ektlarini belgilaSh va manfaatlarni amalga oShiriShning asosiy yo‘naliShlari ifodasi hamdir. Xavfsizlikning har bir turi o‘z navbatida tarkibiy turlarga ega bo‘lib, ular zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning yuksak integratsiyasi Sharoitida xavfsizlikning boShqa tur hamda tarkibiy turlari bilan kesiShuvi mumkin. Masalan, oziq-ovqat xavfsizligi, bu faqat iqtisodiy masala emas, ayni paytda, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, tibbiy sanitariya va ekologik masala hamdir. Shu sababli xavfsizlikning turlarga bo‘liniShi Shartli ekanligini doimo nazarda tutiSh zarur.

Biroq, bu masalada qonunchilik uchun va davlat boShqaruvini to‘g‘ri taShkil etiSh uchun xavfsizlikning bunday bo‘liniShi o‘zini to‘la oqlaydi. Xususan, milliy xavfsizlikka tahdidlarni tabaqalaShtiriSh va milliy xavfsizlikni ta’minlaShning sohalar bo‘yicha asosiy yo‘naliShlari (siyosiy va taShqi siyosiy, iqtisodiy, jamiyat va davlat quriliShi, ijtimoiy, gumanitar, harbiy, ilmiy-texnika, texnologiya, axborot, ekologiya sohalari), ko‘p jihatdan, qonunchilikning tegiShli tarmoqlarini o‘zida ifoda etadi. BoShqa jihatdan, mazkur sohalar tarmoqlararo normalar majmuining torroq doiradagi o‘rganiSh yo‘naliShini belgilaydi va maxsus institutlar ShakllantiriliShini taqozo etadi.

Masalan, siyosiy sohadagi xavfsizlikni ta’minlaShning huquqiy normalari asosan kafolat, himoya yoki muhofaza xususiyatida bo‘lib, mohiyat e’tibori bilan murakkab tarmoqlararo institut hosil qiladi. Jumladan, siyosiy xavfsizlikni ta’minlaSh sohasida vujudga keladigan munosabatlar quyidagi normalar bilan nazorat qilinadi:

- xalqaro huquq (bular – ikkitomonlama, mintaqaviy hamda universal Shartnomalar va bitimlar), normalar, milliy qonun hujjatlarining taShqi siyosat sohasida amal qiluvchi va O‘zbekiston Respublikasining ichki iShlariga aralaShiShdan, uning suverenitetiga tajovuz qiliShdan himoya etadigan va umuman xalqaro munosabatlar tizimida milliy manfaatlarni himoyalaShga qaratilgan normalari;
- terrorizmga qarShi kuraShga doir qonun hujjatlari;
- konstitutsiyaviy tuzumni himoya qiliSh to‘g‘risidagi, nodavlat notijorat taShkilotlari, siyosiy partiyalar to‘g‘risidagi, OAV to‘g‘risidagi, so‘z erkinligini himoyalaSh bo‘yicha qonunlar, inson huquqlari va erkinligini himoya etuvchi, demokratik institutlarning takomillaShuvini ta’minlovchi va kafolatlovchi gumanitar, saylovga oid va boShqa qonun hujjatlari;
- agressiv millatchilik va millatlararo nizo kuchayiShining oldini oluvchi normalar;

- diniy ekstremizm tarqaliShiningoldini oluvchi qonunlar;
- davlat hokimiyati va boShqaruvida korrupsiya, to‘rachilik, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik munosabatlari vujudga keliShining oldini oliSh va ularga qarShi kuraShga yo‘naltirilgan normalar;
- jinoyatchilikning, ayniqsa, uyuShgan jinoyatchilikning o‘siShini oldini oliShga qaratilgan, qurol-yarog‘ bilan noqonuniy savdo qiliShga va giyohvandlikning tarqaliShiga qarShi kuraShga oid qonunlar.

TegiShli huquq normalari vositasida oldi olinadigan Shunday tahdidlar borki, ular turli mohiyatga va har xil predmetga ega. Biroq, ularning subektlari siyosiy munosabatlar jabhasida harakat qiladi, o‘z siyosiy maqsadlariga ega yoki uShbu tahdidlarni amalga oShiriSh orqali siyosiy tizimga va konstitutsiyaviy tuzumga jiddiy zarar etkazadi. BoShqa tomondan, yuqorida sanab o‘tilgan har bir yo‘naliSh o‘ziga xos jihatlarga ega va ta’bir joiz bo‘lsa, “sub-institutlar” Shaklida (masalan, terrorizmga qarShi kuraSh instituti, OAVda so‘z erkinligini himoyalaSh va kafolatlaSh instituti kabilar) namoyon bo‘liShi mumkin.

Milliy xavfsizlikni ta’minlaShga taalluqli qonunchilik tizimida qator tarmoqlar borki, ularning o‘rnini aniqlaSh ancha murakkab. Chunki ular o‘z huquqiy mohiyatiga ko‘ra ma’lum bir sohada xavfsizlikni ta’minlaShga qaratilganligidan taShqari boShqa masalalarni ham tartibga soladi. Masalan, tabiatni muhofaza qiliSh to‘g‘risidagi qonun hujjatlari tabiiy muhit Sharoitlarini saqlaSh hamda tabiat boyliklaridan oqilona foydalaniShning huquqiy, iqtisodiy va taShkiliy asoslarini belgilar ekan, inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlar muvozanatli tarzda uyg‘un rivojlantiriliShini ta’minlaShga, ekologik tizimlarni, tabiat majmualarini va ayrim ob’ektlarni muhofaza qiliSh, fuqaroning qulay tabiiy muhitga bo‘lgan huquqini kafolatlaSh maqsadlariga ham qaratilgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qiliSh va tabiiy boyliklardan oqilona foydalaniSh nafaqat “Tabiatni muhofaza qiliSh to‘g‘risida”gi Qonun vositasida, ayni paytda, er, suv, o‘rmon xo‘jaligi, er osti boyliklari to‘g‘risidagi, atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qiliSh va ulardan foydalaniSh to‘g‘risidagi qonunlar misolida ayon bo‘lib turibdiki, bunday qonunlar majmui o‘z doirasiga murakkab tarmoqlararo tizimni oladi, ular ekologik xavfsizlikni ta’minlaSh bilan bir qatorda boShqa vazifalarni ham ado etadilar. Ana Shu bois, qonunchilik tizimlarini tarmoqlar bo‘yicha bo‘lib qaraShga asoslangan mumtoz usulni bu o‘rinda tatbiq qiliSh muShkul. Harbiy huquq tarmog‘i bundan mustasno, negaki, mazkur qonunchilik amalda batamom harbiy xavfsizlikni ta’minlaSh masalalariga bag‘iShlangan.

Milliy armiyamizni barpo etiSh va uni zamon talablariga mos keltiriSh bo‘yicha amalga oShirilgan islohotlarni uch bosqichga bo‘liSh mumkin:

Birinchi bosqich– 1998 -2000-yillar bo‘lib davlatni harbiy-ma’muriy bo‘liniSh tizimini yaratiSh va Qurolli Kuchlar tuziliShini takomillaShtiriShdan iborat edi.

Buning natijasida:

–harbiy okruglar taShkil topdi;

–qo‘Shinlar asosiy strategik yo‘naliShlar bo‘yicha qayta joylaShtirildi;

–chegara qo‘Shinlari takomillaShtirilib, chegara rayonlari taShkil etildi;

–maxsus operasiyalar kuchlari taShkil etildi;

–harbiy havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa qo‘Shinlari birlaShtirildi;

–qism va bo‘linmalarning yangi taShkiliy-Shtat tuziliShi iShlab chiqildi va u taktik o‘quvlar jarayonida tekShirilib xayotga tatbiq etildi.

Shu o‘rinda harbiy okrug haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tmoqchiman. Harbiy okrug – bu asosiy harbiy – ma’muriy birlik va hududiy umumqo‘Shin operativ-strategik birlaShma bo‘lib, operasion yo‘naliShlarda O‘zbekiston Respublikasi xavfsizligini himoya qiliSh va hududiy daxlsizligini ta’minlaSh vazafasini bajaradi.

Hozirgi kunda respublikamizda beShta harbiy okruglar taShkil etilgan. Bular Shimoliy-g‘arbiy harbiy okrug, boShqaruv Shtabi Nukus Shahrida, janubiy-g‘arbiy maxsus harbiy okrug boShqaruv Shtabi QarShi Shahrida, Markaziy harbiy okrug boShqaruv Shtabi Jizzax Shahrida, ToShkent harbiy okrug boShqaruv Shtabi ToShkent Shahrida va Sharqiy harbiy okrug boShqaruv Shtabi Farg‘ona Shahrida.

Ikkinchi bosqich – 2000-2002-yillar bo‘lib bunda Qurolli Kuchlar boShqaruv tizimi isloh etildi.

Buning natijasida:

–Qurolli Kuchlar BirlaShgan Shtabi taShkil etildi;

–Qurolli Kuchlar BirlaShgan Shtabi va Mudofaa vazirligi vakolatlari belgilandi;

–qism va bo‘linmalarning yangi taShkiliy-Shtat tuziliShi tatbiq etildi;

–jangovar harakatlar olib boriSh va ularni ta’minlaSh bo‘yicha jangovar nizomlar, yo‘riqnoma va qo‘llanmalar iShlab chiqildi va tatbiq etildi;

–har bir harbiy okruglarda serjantlar tayyorlaSh maktablari ochildi.

Uchinchi bosqich – 2003 va keyingi yillarni qamrab olgan bo‘lib, bunda qo‘Shinlarning tarkibi, to‘ldiriliShi va ta’minlaniShi sifat jihatidan o‘zgartiriliShdan iborat bo‘ldi. UShbu jarayonlar hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Buning natijasida:

–jangovar tayyorgarlikninig samaradorligi oShirildi;

–Qurolli Kuchlar tuziliShi optimallaShtirildi;

–Qurolli Kuchlarda xizmatni Shartnoma asosiga bosqichma-bosqich o‘tkaziSh iShlari olib borildi;

–muddatli xizmatni muddati 12 oygacha qisqartirildi;

–qo‘Shinlarning zamonaviy qurol-aslaha va jangovar texnikalar bilan bosqichma-bosqich ta’minlaSh davom ettirilmoqda;

–harbiy xizmatchilarning pul ta’minoti oShirildi.

O‘tgan davr mobaynida hayotga tatbiq etilgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli mamlakatimiz xavfsizligi va barkarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini iShonchli himoya qiliShga, aholimizning tinch va osuda hayotiga qarShi qaratilgan har qanday tajovuz hamda g‘arazli uriniShlarning oldini oliShga qodir bo‘lgan, ixcham, tezkor, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlangan, jangovar qobiliyat va tayyorgarlikka ega milliy armiyamiz Shakllantirildi. Qurolli Kuchlarimizni taShkil etiSh hamda boShqariShning mutlaqo yangi tizimi vujudga keldi.

O‘tkazilgan islohotlar natijasida Qurolli Kuchlarimiz hozirgi kunda quyidagi tuziliShga ega bo‘ldi:

–quruqlikdagi qo‘Shinlar;

–harbiy-havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa qo‘Shinlari;

–maxsus qo‘Shinlar;

–Milliy gvardiya, Mudofaa vazirligi, Ichki iShlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy tuzilma va bo‘linmalari.

Qurolli Kuchlarning asosini quruqlikdagi qo‘Shinlar taShkil etadi.

Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

– motoo‘qchi qo‘Shinlar;

– tank qo‘Shinlari;

– xavo-desant qo‘Shinlari;

– xavo xujumidan mudofaa qo‘Shinlari;

– artilleriya;

– maxsus operasiyalar kuchlari;

– terrorizmga qarShi kuraSh korpusi.

Hayotga tatbiq etilgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini iShonchli himoya qiliShga,aholimizning tinch va osuda hayotiga qarShi qaratilgan har qanday tajovuz hamda g‘arazli uriniShlarning oldini oliShga qodir bo‘lgan, ixcham, tezkor, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlangan, jangovar qobiliyat va tayyorgarlikka ega milliy armiyamiz Shakllantirildi. Qurolli Kuchlarimizni taShkil etiSh hamda boShqariShning mutlaqo yangi tizimi vujudga keldi.

Harbiy sohadagi islohotlarimizning samarasini oShiriSh maqsadida yangidan qabul qilingan **Mudofaa doktrinasi** muhim rol o‘ynaydi. UShbu doktrina O‘zbekiston taShqi siyosatining ochiqlik tamoyilini, yaqin qo‘Shnilar bilan do‘stona va amaliy munosabatlarni rivojlantiriShni ifoda etadi. Unda davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlaSh ustuvor vazifa sifatida aniq belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimiz geostrategik joylaShuvining o‘ziga xosligi, Shuningdek, mintaqada vujudga kelayotgan harbiy-siyosiy holatni hisobga olgan holda, Qurolli Kuchlar birlaShmalarining vazifa va tuzilmalari qayta ko‘rib chiqildi. **Milliy gvardiya barpo etildi,** armiyani yangi qurol-aslaha va zamonaviy harbiy texnika bilan ta’minlaSh bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oShirilmoqda. **Mudofaa sanoati bo‘yicha davlat qo‘mitasi tuzildi.** Harbiy kadrlar tayyorlaSh sohasida olib borilayotgan tizimli o‘zgariShlar asosida Qurolli Kuchlar akademiyasining faoliyati tubdan qayta taShkil etildi.

Shu qatorda hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tasarrufida bir nechta oliy harbiy institut, bilim yurtlar va bitta maxsus fakultet faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular: Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muxandislik bilim yurti, ToShkent axborot-texnologiyalari universiteti maxsus fakulteti va Shular qatorida **O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti** kabilardir. Ta’kidlaSh joizki, 1993-yildan e’tiboran oliy harbiy o‘quv muassasalarida ofiser kadrlar tayyorlaShning ko‘p sohali tizimiga o‘tildi.

Harbiy o‘quv yurtlarimizda ta’lim tizimi tubdan o‘zgarmoqda, ularda bo‘lg‘usi ofiserlarni tayyorlaSh va tarbiyalaSh hozirgi zamon talablariga to‘la mos keladigan, prinsipial jihatdan mutlaqo yangi bo‘lgan o‘quv-texnik va ma’naviy-ahloqiy asosda yo‘lga qo‘yilgan.

HARBIY XIZMATCHILARNING INTIZOMIY JAVOBGARLIGINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMALARNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

Rizoyev F.F.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Kamolov A.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi — inson Sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati bo‘lib, konstitutsiya davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud- huquq sohalarini yanada takomillaShtiriShning mustahkam zaminini yaratmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda qator sohalarda inson huquqlarini ta’minlaShga qaratilgan normalarni yanada takomillaShtiriSh, “Inson qadri uchun” tamoyilini chin ma’noda hayotimizda aks ettiriSh eng asosiy maqsad sifatida belgilangan bo‘lib, Shu qatorda harbiy qonunchilik tizimini ham takomillaShtiriShga alohida e’tibor qaratilgan.

Fikrimiz tasdig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-sonli “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oShiriSh bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oShiriSh bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning 4-bandida “Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlaSh, Qurolli Kuchlarning jangovar Shayligini, uning imkoniyatlari va salohiyatini kuchaytiriSh” vazifasi yuklatilgan bo‘lib, uni amalga oShiriShning dastlabki mexanizmi sifatida esa “Mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlaSh va mudofaa salohiyatini mustahkamlaSh borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillaShtiriSh” [2] lozimligi ta’kidlangan.

Bundan taShqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonining 90-maqsadi: “Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlaSh, Qurolli Kuchlarning jangovar Shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytiriSh” hisoblanib, 3- ustuvor vazifasi sifatida “Mamlakat harbiy xavfsizligini

ta’minlaSh va mudofaa salohiyatini mustahkamlaSh borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillaShtiriSh”[2] lozimligi belgilangan.

Bu esa amalda “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oShiriShning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantiriShning ustuvor yo‘naliShlarini belgilab berganligining”[3] isbotidir.

Bundan kelib chiqadiki, davlat organlarining eng birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi amaldagi qonunchilik hujjatlarini Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan asosiy prinsiplarga hamda normalarga moslaShtiriSh va faoliyatini Shu asosda olib boriSh sanaladi.

Yuqoridagi vazifalarni ijrosini ta’minlaSh hamda harbiy qonunchilik tizimini Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari va normalariga asoslangan holda takomillaShtiriSh maqsadida amalda harbiy xizmatchilarning intizomiy javobgarligiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normalarimizda mavjud bo‘lgan bir qator kamchiliklarga to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchidan, amaldagi qonunchilik hujjatlarimizda jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlarining Intizom nizomiga ko‘ra harbiy xizmatchilarning komandir (boShliq)lariga harbiy xizmatchining nojo‘ya xatti-harakati uchun (intizomiy huquqbuzarligi uchun) intizomiy jazo choralari qo‘llaSh vakolati yuklatilgan bo‘lib uShbu vakolatlar ierarxik tartibda belgilab berilgan. Lekin uShbu nizom talablariga ko‘ra harbiy xizmatchilarning ayrim yuqori turuvchi boShliqlariga harbiy xizmatchiga nisbatan gaupvaxta (intizomiy qamoqqa oliSh) intizomiy ta’zir chorasini (3 sutkadan 10 sutkagacha bo‘lgan muddatda) qo‘llaSh huquqi berilgan.

Bu esa amalda Konstitutsiyamizning 20-moddasida belgilangan “Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etiShga yoki ularni cheklab qo‘yiShga hech kim haqli emas”[l|ligi to‘g‘risidagi norma qoidalariga zid hisoblanadi. Chunki gaupvaxtaga bandi qiliSh intizomiy jazo chorasi amalda harbiy xizmatchining konstitutsiyada belgilangan huquqlarining (erkin harakatlaniSh, erkinlik va Shaxsiy daxlsizlik huquqi) ma’lum muddatga cheklaniShi sanaladi.

Bundan taShqari uShbu intizomiy ta’zir chorasi Intizom nizomiga ko‘ra “eng og‘ir ta’zir choralaridan hisoblanadi va harbiy xizmatchi tomonidan qo‘pol intizomiy xatti-harakat sodir etilganda yoki komandir (boShliq)ning

boShqa choralari samarasiz bo‘lganda qo‘llaniladi”[4] deb belgilangan bo‘lsa-da, amalda vakolatli Shaxslarning Shaxsiy ziddiyatlari natijasida hamda harbiy xizmatchilarning kam ahamiyatli qilmiShlari uchun ham (masalan: safda kulib qo‘yganligi, kiyim kiyiSh rusumining ehtiyotsizlik natijasida buzilganligi va hokazo) bunday turdagi intizomiy jazo chorasining qo‘llaniliSh holatlari kuzatilmoqda. Bu esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 20-moddasida belgilangan “oltin qoida” “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslaniShi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga eriShiSh uchun etarli bo‘liShi kerak”[l] ligi to‘g‘risidagi normaga zid sanaladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda amaldagi qonunchilik hujjatlarimizga harbiy xizmatchilarga nisbatan gauptvaxta intizomiy ta’zir chorasini qo‘llaSh vakolatini sudlarga (harbiy sudlarga) o‘tkaziShga oid bo‘lgan o‘zgartiriShlarni kiritiSh maqsadga muvofiq sanaladi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-iyuldagi O‘RQ-703-sonli “Sudlar to‘g‘risida” gi qonuning 45-modasini l-qismini[5] quyidagicha: "O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlari quyidagi iShlarni ko‘radi: O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyasining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki iShlar vazirligi qo‘Shinlarining va qonunchilikka muvofiq taShkil etiladigan boShqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, Shuningdek o‘quv yig‘inlarida bo‘lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan qo‘pol intizomiy huquqbuzarliklarga oid hamda jinoyatlar to‘g‘risidagi iShlarni” tahrirda bayon qiliSh hamda Intizom nizomiga harbiy sudlarning harbiy xizmatchilarga nisbatan gauptvaxta (intizomiy qamoqqa oliSh) intizomiy ta’zir chorasini qo‘llaSh vakolatini yuklovchi norma kiritiliShi maqsadga muvofiq sanaladi.

Bir qator xorijiy davlatlar harbiy qonunchiligiga nazar taShlaydigan bo‘lsak bunday intizomiy ta’zir chorasini qo‘llaSh sudlarning vakolatiga kiritilganligini kuzatiShimiz mumkin.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2007-yil 10-noyabrdagi 1495- sonli “Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining Umumiy harbiy nizomlarini tasdiqlaSh to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan Qurolli Kuchlarning Intizom nizomiga ko‘ra “harbiy xizmatchiga nisbatan intizomiy qamoqqa oliSh faqat alohida hollarda va faqat u tomonidan sodir etilgan qo‘pol

intizomiy huquqbuzarlik uchun qo‘llaniladi hamda qo‘pol intizomiy huquqbuzarliklar ro‘yxati va garnizon harbiy sudi sudyasi tomonidan intizomiy qamoqqa oliShni amalga oShiriSh tartibiga binoan amalga oShiriladi”[6] deb belgilab qo‘yilgan.

Qirg‘iziston Respublikasining 1998-yil 7-avgustdagi 116-sonli qonuni bilan tasdiqlangan “Qirg‘iziston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Intizom Ustavi”ga ko‘ra esa “harbiy xizmatchilarga nisbatan intizomiy qamoqqa oliSh sud qarori bilan qo‘llaniladi”[7] deb belgilangan.

Qozog‘iston Respublikasida esa bunday turdagi intizomiy jazo chorasini qo‘llaSh vakolati Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 27-noyabrdagi 4156-sonli farmoni bilan tasdiqlangan Intizom nizomiga ko‘ra tegiShli komandir (boShliqlar)ga berilgan bo‘lsa-da, hozirda uShbu intizomiy ta’zir chorasi Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-iyuldagi 364-sonli “Qozog‘iston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boShqa qo‘Shinlari va harbiy tuzilmalarining Umumiy harbiy nizomlarini tasdiqlaSh to‘g‘risida” farmoniga binoan intizomiy jazo choralari ro‘yxatidan chiqarib taShlangan.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilik hujjatlarimiz talablariga ko‘ra harbiy xizmatchilar nafaqat intizomiy no‘jo‘ya xatti- harakatlari uchun balki ma’muriy huquqbuzarliklari uchun ham intizomiy javobgarlikka tortiliShi belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’rnuriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 16-moddasiga ko‘ra "Harbiy xizmatchilar va yig‘inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, Shuningdek ichki iShlar organlarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining oddiy askarlar va boSh- liqlar tarkibiga mansub Shaxslar ma’muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar. Mazkur Shaxslar ijro hujjatini ijro etmaganligi, sud hujjatlari va boShqa organlar hujjatlarini ijro etiSh to‘g‘risidagi qonunchilikni, yo‘l harakati qoidalarini, ov qiliSh, baliq tutiSh va baliq zaxiralarini saqlaSh qoidalarini, bojxona qoidalarini buzganligi uchun umumiy asoslarda ma’muriy javobgar bo‘ladi”[9] deb belgilangan. Bu esa amalda harbiy xizmatchilar faqatgina yuqorida belgilangan 7 ta holatdagina ma’rnuriy javobgarlikka tortiliShini, qolgan ma’muriy huquqbuzarliklar uchun esa intizomiy javobgarlikka tortiliShini anglatadi.

UShbu holat harbiy xizmatchilarning ma’muriy va intizomiy javobgarligi o‘rtasidagi oqibatlarda ma’lum bir ma’noda tafovutlarni keltirib chiqariShiga sabab bo‘liShi mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, ayrim ma’muriy huquqbuzarliklar uchun intizomiy jazo choralarining qo‘llaniliShi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 20-moddasida belgilangan “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslaniShi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga eriShiSh uchun etarli bo‘liShi kerak’’[l] ligi to‘g‘risidagi normaga zid sanaladi.

Bundan taShqari harbiy xizmatchilarni intizomiy javobgarlikka tortiSh bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi normalarda harbiy xizmatchilar tomonidan sodir qilingan ma’muriy huquqbuzarliklar uchun mos raviShdagi qanday turdagi intizomiy jazo choralarining qo‘llaniliShiga oid normalar kiritilmaganligini ko‘riShimiz mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning kundan-kunga rivojlaniShi ta’siri ostida ma’muriy huquqbuzarliklarning ham tarkibida o‘zgariShlar kiritilayotganligini kuzatiShimiz mumkin. Bu esa ayrim turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar uchun harbiy xizmatchilarga nisbatan intizomiy jazo choralarining qo‘llaniliShi maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun harbiy xizmatchilarning intizomiy javobgarlikka tortiliShi ma’muriy jazodan ko‘zlangan maqsadga eriSha olmasligiga sabab bo‘liShi mumkin.

Uchinchidan, Shunday turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar mavjudki, ularning ma’lum bir muddat ichida ikkinchi marotaba sodir qiliniShi jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Lekin Shunday mazmundagi ma’muriy huquqbuzarliklar harbiy xizmatchilar tomonidan sodir qilinadigan bo‘lsa, ularga nisbatan qanday turdagi javobgarlik belgilaniShiga oid normalar mavjud emasligini kuzatiShimiz mumkin. Jumladan, Jinoyat kodeksining 126^1 - moddasi (Oilaviy (maiShiy) zo‘ravonlik) “Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), umumiy ro‘zg‘or asosida birgalikda yaShayotgan Shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan Shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta’lim oliSh, sog‘liqni saqlaSh va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oShiriShga to‘sqinlik qiliSh, mol-mulkiga va Shaxsiy aShyolariga qasddan Shikast etkaziSh, xuddi Shuningdek uShbu Shaxslar sog‘lig‘ining yomonlaShuviga olib kelgan tarzda ularning Sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlaSh, ularni qo‘rqitiSh, yaqin qarindoShlaridan ajratib qo‘yiSh, Shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa”[10].

Masalan: amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra harbiy xizmatchi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 59^2-moddasida (Oilaviy (maiShiy)

zo‘ravonlik) belgilangan huquqbuzarlikni sodir qilganligi uchun unga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 16-moddasiga binoan intizomiy jazo chorasi qo‘llaniladi hamda harbiy xizmatchi 1 yil ichida Shunday mazmundagi huquqbuzarlikni qayta sodir qilsa normativ huquqiy hujjatlar talablariga ko‘ra harbiy xizmatchi yana intizomiy javobgarlikka tortiliShi kerak. Lekin xuddi Shu huquqbuzarlikni boShqa Shaxslar tomonidan sodir qiliniShi esa unga nisbatan jinoiy javobgarlik qo‘llaniliShiga sabab bo‘liShini kuzatiShimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,\\"Qonunchilik ma’lumotlari milliy ba- zasi”\\ https://lex.uz/uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-sonli "Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini amalga oShiriSh bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, \\"Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” \\ https://lex.uz/docs/-5841063.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida" farmoni \\"Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”\\ https://lex.uz/docs/-5841063
4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari: - ToShkent: "Sharq” naShriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boSh tahririyati, 2007.- 493 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-iyuldagi O‘RQ-703-sonli "Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni \\"Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi" \\ https://lex.uz/docs/- 5534923
6. Ukaz Prezidenta RF ot 10.11.2007 N 1495 (red. ot 31.07.2022) "Ob utverjdenii obщevoinskix ustavov Voorujennыx Sil Rossiyskoy Federatsii" (vmeste s "Ustavom vnutrenney slujbы Voorujennыx Sil Rossiyskoy Federatsii", "Dissiplinarnыm ustavom Voorujennыx Sil Rossiyskoy Federatsii", "Ustavom garnizonnoy i karaulnoy slujb Voorujennыx Sil Rossiyskoy Federatsii") https://wvvw.consultant.ru.
7. Prinyat Zakonom Kыrgыzskoy Respubliki ot 7 avgusta 1998 goda № 116 "Dissiplinarnыy ustav Voorujennыx Sil Kыrgыzskoy Respubliki” http://cbd.minjust.gov.kg
8. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi\\ "O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”\\ https://lex.uz/docs/- 97664.
9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi\\ "O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi"\\ https://lex.uz/docs/-111453 .

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI - MUNOSIB MEHNAT QILISH KAFOLATIDIR

Usmanova M.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi professori.

Mamlakatni modernizatsiya qiliSh, jamiyatni yangilaSh asosida davlatchiligimizni rivojlantiriSh, uning huquqiy asoslarini takomillaShtiriSh sari yo‘l tutar ekanmiz, fuqarolarimiz uchun munosib turmuSh darajasini ta’minlaSh, inson huquq va erkinliklari eng oliy qadriyatdir degan Shiorni ro‘yobga chiqariSh, hech kimdan kam bo‘lmagan hayot darajasiga eriShiShda konstitutsiyamiz bizga mayoq bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlatimiz va jamiyatimizning huquqiy asoslari, boSh maqsad va vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan bo‘lib, insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyat barpo etiShga kiriShilganligi e’lon qilingan.

Baxtimiz qomusi bo‘lgan Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 32 yilligini tantanali niShonlaShga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Konstitutsiya - bugungi va kelajak hayotimizning huquqiy poydevori, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarimiz mujassamlaShuvi, ularning kafolatlari o‘z aksini topgan oliy yuridik hujjat ekani bilan e’tiborga loyiqdir.

Bugungi kunda mehnat bozorida kamsitiShlarga barham beriSh va iSh haqi tengligini ta’minlaSh butun dunyoda dolzarb muammolardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida har kimning mehnati uchun hech qanday kamsitiShlarsiz hamda mehnatga haq to‘laShning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq oliSh huquqi kafolatlangan. Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanganligi fuqarolarning iSh haqlari miqdori Shunchaki emas, aynan ularning munosib turmuSh kechiriShini ta’minlaShda, pirovard natijada aholi turmuSh darajasini yaxShilaSh va mamlakatimizda ijtimoiy adolatni ustuvor qadriyatga aylantiriShda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyamizdagi uShbu huquq “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning 23-moddasida belgilangan: “Har bir inson hech bir kamsitiShsiz teng mehnat uchun teng haq oliSh huquqiga ega. Har bir iShlovchi kiShi o‘zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta’minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad oliShga, zarur bo‘lganda ijtimoiy ta’minotning boShqa vositalari bilan to‘ldiriluvchi daromad oliSh huquqiga ega” degan prinsipga to‘la mos keladi.

Asosiy maqsadi fuqarolar uchun munosib va farovon turmuSh Sharoiti yaratiShdan iborat bo‘lgan davlatimiz bozor munosabatlariga o‘tiSh Sharoitida iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarni to‘la kafolatlaShga qaratilgan zarur chora-

tadbirlarni ko‘rib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi “Kambag‘allikni qisqartiriSh va aholi turmuSh faravonligini oShiriSh borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqiSh to‘g‘risida”gi PF-143-son Farmoni qabul qilinganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktyabrdagi “Kambag‘allikni qisqartiriSh va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillaShtiriSh va samaradorlikni oShiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-347-son qaroriga ko‘ra, mehnat bozorini, tahlil qiliSh, munosib mehnat Sharoitlarini yaratiSh maqsadida 2025-yil 1-martdan boShlab Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo‘linmalari mansabdor Shaxslariga mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qiliSh, iSh beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qiliSh, aholi bandligi to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganligi uchun kameral nazorat o‘tkaziSh vakolati beriliShi, mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qiliSh to‘g‘risidagi qonunchilikni buzgan, Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo‘linmalari mansabdor Shaxslarining qonuniy faoliyatiga aralaShgan to‘sqinlik qilgan yoki ta’sir o‘tkazgan Shaxslarga nisbatan jarima qo‘llaSh tartibi joriy etildi.

2025-yil 1-apreldan Milliy vakansiyalar bazasi iShga tuShiriliShi, 2025-yil 1- yanvardan boShlab xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qiliSh va mehnatni muhofaza qiliShni kuchaytiriSh, iSh beruvchilar bilan xodimlar o‘rtasidagi muvozanatli mehnat munosabatlarini yanada qo‘llab-quvvatlaSh hamda mehnat sohasidagi nizolarni hal etiShni meditatsiya usulida videokonferensaloqa Shaklida amalga oShiriSh tizimi joriy etiliShi, 2025-yil 1-martdan boShlab mulkchilik Shaklidan qat’iy nazar barcha taShkilotlarda mehnat huquqlari va mehnat muhofazasi ta’minlanganlik holati onlayn reyting asosida baholaniShi qarorda belgilandi.

Munosib mehnat qiliSh, mehnatning miqdoriga va sifatiga mutanosib, kamsitiShlarsiz iSh haqi oliSh har bir Shaxsning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri sifatida e’tirof etiladi hamda amalda ta’minlanadi.

Yollanib iShlovchi xodimlarga iSh haqi to‘laSh tartiblarini qonunda qat’iy belgilab qo‘yilganligi va ularga amal qiliSh mulkchilik Shakli, taShkiliy xo‘jalik usulidan qat’iy nazar barcha korxona, taShkilot iSh beruvchilariga huquqiy majburiyat sifatida yuklatilganligi xodimlar uchun mehnat huquqlari kafolatlaridan biridir.

ISh haqi to‘laSh sohasida kamsitiShga yo‘l qo‘yilmasligi, ya’ni jinsi, yoShi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqiShi, mulkiy holati va mansab mavqei, dinga bo‘lgan munosabati, e’tiqodi, jamoat birlaShmalariga mansubligi, Shuningdek, xodimlarning iShchanlik qobiliyatlariga va ular mehnatining natijalariga aloqador bo‘lmagan boShqa jihatlariga qarab mehnatga haq to‘laSh sohasida har qanday cheklaShlar yoki asossiz raviShda

imtiyozlar belgilaSh mumkin emasligi mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan muhim qoidalardan sanaladi.

Eng avvalo Shuni ta’kidlaSh lozimki, iSh beruvchi o‘zining moliyaviy holatidan qat’iy nazar xodimlarga bajargan iShlari uchun mehnat Shartlariga muvofiq haq to‘laShga majbur.

Mehnat haqining miqdori iSh beruvchi bilan xodim o‘rtasidagi keliShuvga binoan belgilanadi. Mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan oz bo‘liShi mumkin emas va uning eng ko‘p miqdori biron bir tarzda cheklanmaydi.

Mehnat haqi Shakli va tizimlari, mukofotlar, qo‘Shimcha to‘lovlar, ustamalar, rag‘batlantiriSh tarzidagi to‘lovlar jamoa Shartnomalarida, Shuningdek iSh beruvchi tomonidan kasaba uyuShmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boShqa vakillik organi bilan keliShib qabul qilinadigan boShqa lokal hujjatlarda belgilanadi. Ayrim olingan korxonadagi xodimlar uchun iSh haqining eng kam miqdori jamoa Shartnomasi yoki jamoa keliShuvida belgilab qo‘yiladi.

Byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta’minlanadigan muassasalar va taShkilotlarning, Shuningdek davlat korxonalarining xodimlari mehnatiga haq to‘laSh Shartlarining eng kam darajasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Mehnatga to‘lanadigan haq xodim belgilangan vaqt va ishlab chiqariSh normalarini bajargan yoki o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bilan bajara olmagan hollarda belgilangan eng kam iSh haqidan kam bo‘lmasligi lozim.

Mehnatga haq to‘laSh Shartlari qaysi tartibda o‘rnatilgan bo‘lsa, o‘Sha tartibda o‘zgartiriladi.

Bir necha kasbda (lavozimda) iShlaganlik, xizmat ko‘rsatiSh doirasi kengayganligi, bajariladigan iShlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy iShi bilan bir qatorda iShda vaqtincha bo‘lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun, Shuningdek o‘rindoShlik asosida iSh bajarilganida, xodimlarning mehnat haqi miqdori mehnat Shartnomasining taraflari o‘rtasidagi keliShuvga binoan amalda bajarilgan iSh yuzasidan belgilanadi.

Mehnatga haq to‘laShning yakka Shartlarini xodim uchun noqulay tomonga o‘zgartiriShga uning roziligisiz yo‘l qo‘yilmaydi.

Mehnat Shartnomasi bekor qilinganda iSh beruvchidan xodimga beriliShi kerak bo‘lgan barcha summalarni to‘laSh xodim bilan tuzilgan mehnat Shartnomasi bekor qilingan kuni amalga oShiriladi. Agar xodim mehnat Shartnomasi bekor qilingan kuni iShlamagan bo‘lsa, tegiShli summalar uShbu xodim tomonidan hisob-kitob qiliSh to‘g‘risidagi talab taqdim etilganidan keyin uch kundan kechiktirmay to‘laniShi kerak.

IShdan bo‘ShatiSh nafaqasi, foydalanilmagan ta’til vaqti uchun kompensatsiya puli va boShqa to‘lovlar (masalan. mukofot) ham yuqoridagi muddatlarda xodimga to‘laniShi Shart.

Xodim vafot etgan kunga qadar olinmagan iSh haqi uning oila a’zolariga yoki xodim vafot etgan kunda marhumning qaramog‘ida bo‘lgan Shaxsga beriladi.

Xodimlar iSh haqidan uShlab qoliSh cheklangan bo‘lib, umumiy qoidaga ko‘ra, xodimning yozma roziligi bilan, bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda esa, sudning qaroriga binoan iSh haqidan uShlab qoliSh mumkin.

Xodimning sog‘lig‘iga, Sha’ni va qadr-qimmatiga (ma’naviy zarar) etkazilgan zarar uchun, Shuningdek xodim vafot etganida uning qaramog‘ida bo‘lgan Shaxslarga tovon puli to‘laSh bilan bog‘liq bo‘lgan talablarga da’vo muddati qo‘llanilmaydi (xoxlagan paytda bunday talablar bildiriliShi mumkin), lekin zarar o‘tgan uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddat uchun undirib beriladi.

Mehnatga haq to‘laShga oid qonunchilik tizimi ancha mukammal va xalqaro huquqiy normalarga mos bo‘lsada, biroq ayni paytda bozor munosabatlari qaror topiShi bilan bog‘liq jarayonlar natijasida muayyan muammo va vazifalar paydo bo‘lmoqda va ular bu sohadagi qonunchilik normalarini chuqurroq tahlil qiliSh, mavjud muammolarni aniqlaSh hamda bartaraf qiliSh, qonun hujjatlari takomillaShtiriliShi yuzasidan dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda.

Amaliyotni o‘rganiSh Shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda moliya qonunchiligidagi nomukammalliklar, ularning mehnat qonunchiligi bilan uyg‘unlaShtirilmaganligi, moliya idoralarining mansabdor Shaxslari sovuqqonligi va qonun talablarini chuqur bilmasliklari oqibatida bir qator muammo va qiyinchiliklar yuz bermoqda, korxona va taShkilotlarda qonun talablari buziliShiga, xodimlarning konstitutsiya va mehnat qonunchiligi bilan kafolatlangan huquq va manfaatlari poymol etiliShiga olib kelmoqda. Masalan, joriy yilning 10 oyi davomida Kambag‘allikni qisqartiriSh va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan xodimlarning huquqlarini himoya qiliSh va ular uchun yaratilgan Shart-Sharoitlar yuzasidan 5 ta kompleks o‘rganiSh va 1 ming 68 ta monitoring o‘tkazilib, aniqlangan qonunbuziliSh holatlari bo‘yicha kiritilgan ta’sir choralari natijasida 358 nafar xodimning mehnatiga haq to‘laShga oid buzilgan huquqlari tiklangan.[3].

O‘zbekistonda raqamlaShtiriSh jarayonlarining mehnat sohasini qamrab oliShi munosabati bilan yollanma mehnat amaliyotida yangicha yondoShuv va mexanizmlar, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘lllab-quvvatlaSh uchun Sharoit yaratiSh, Shuningdek, mehnatkaShlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qiliShning zamonaviy muammolari mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga soliShni davr talabiga moslaShtiriSh vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda.

Yuqoridagi taxlillarga ko‘ra, bozor talablari va tamoyillarining ijtimoiy hayotimizga tobora chuqurroq singib borayotgani tufayli taraqqiyotimiz sur’atlarini kerakli darajada bo‘liShini ta’minlaSh uchun o‘zgartiriSh va

yangilaSh jarayonlarini uzlyuksiz davom ettiriSh, oldimizda paydo bo‘layotgan muammo va vazifalarni o‘z vaqtida hal etiShimiz, Yangi O‘zbekistonga hamda uning taraqqiyotiga javob beradigan yangi qoidalarni kiritiSh kerakligini ob’ektiv zarurat sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

ISh haqi to‘laSh bilan bog‘liq qonunchilik talablariga og‘iShmay amal qiliSh xodimlar huquq va erkinliklarini ta’minlaSh, korxona va taShkilotlarda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlaShning muhim Shartlaridan hisoblanadi.

Xullas, mehnat qonunchiligini takomillaShtiriShning boSh maqsadi bu sohada ijtimoiy adolatni yana ham mustahkamlaSh, har bir fuqaroning davlat va jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti va mamlakatimiz iqtisodiy potensialini mustahkamlaShga qo‘Shgan hissasiga mutanosib iSh haqi oliSh huquqlarini yana ham kengroq kafolatlaShga qaratilmog‘i lozim.

Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratiShdek ezgu maqsad yo‘lida birlaShib harakat qiliShgina bizni nurli manzillarga etkazadi. Bu intiliShlar ulkan amaliy iShlarga aylanib, Yangi O‘zbekistonni barpo etiShda har birimizning faol iShtirokimiz, chuqur mas’uliyat tuyg‘usi bilan yaShaSh bugun davr talabiga aylandi”. [1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz. [1].

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. www.xs.uz rasmiy sayti. 20.12.2022.

3. https://www.my. mehnat. uz.

4. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/disabled.Shtml.

KONSTITUTSIYA – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI

Abdusattarova F.
TDYuU 2-kurs talabasi.

O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimining negizida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yotadi. Mamlakatimizning asosiy qonuni davlat, jamiyat, ijtimoiy va siyosiy xayot, iqtisodiy tizim, barcha jabxalarni tartibga soliShga qaratilgan barcha normalarni o‘zida mujassamlaShtiradi. Konstitutsiya bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etiShda mustahkam poydevor bo‘lib kelmoqda. Konstitutsiyamiz

tufayli mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko‘lamlik islohotlar amalga oShirilib kelinmoqda. Konstitutsiya xalqimizning manfaatlariga, davlatimizning strategik maqsadlariga to‘la javob beradigan, har tomonlama puxta iShlangan muxim siyosiy hujjat hisoblanadi.

Fikrimizning dalili sifatida Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligining 25 yilligiga bag‘iShlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga quyidagicha “To‘la iShonch bilan aytiSh mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyiShta, farovon yaShaShning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etiSh borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Asosiy qonunimizning mazmun-mohiyatiga, birinchi navbatda, inson huquqlari oliy qadriyat ekanligi singdirilgan. Uning asosiy mantiqiy yo‘naliShi quyidagicha: inson – jamiyat – davlat manfaatlarini ta’minlaShga qaratilgandir.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning eng muhim jihati, unda ko‘p millatli mamlakatimiz aholisining maqsadi, hoxiSh-irodasi aniq ravShan aks etilganligidadir.

Birgina Konstitutsiyamizning muqaddimasida inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali raviShda e’lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, Sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etiSh borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, Shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘Shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytiriShga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylaShga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlaShga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘Shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlaSh, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlaSh hamda rivojlantiriShga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechiriShini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yaShnaShini ta’minlaShni

maqsad qilgan holda qabul qilingani[1] konstitutsiyamizning qanchalik demokratiyaviyligini, xalqchilligini ko‘rsatadi.

Konstitutsiya asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari Shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oShirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqaraShi tobora o‘sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, BoSh Qomusimizning hayotbaxSh kuch-qudrati natijasidir”[2] degan fikrlarini alohida keltirib o‘tiSh joiz bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - insonlarning ozod va obod yaShaSh, mehnat qiliSh, ilm oliSh, fikrlaSh, so‘zlaSh, saylaSh va saylaniSh, nikoh tuziSh, tibbiy xizmat turlaridan, turar joy daxlsizligidan, til va din erkinliklaridan foydalaniSh huquqlarining asosiy kafolatini ta’minlovchi BoSh Qonun sifatida inson huquq va erkinliklarini oliy darajaga ko‘tardi. Unda davlat ham, jamiyat ham, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qiliShi, uning haq-huquqlarini himoya etiShi ustuvor tamoyil sifatida belgilab qo‘yildi. Konstitutsiya – uzoq yillarga mo‘ljallangan muhim siyosiy-huquqiy hujjat sifatida jahon sivilizatsiyaning muhim yutug‘idir. Asosiy Qonun fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlaydi va himoya qiladi, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo‘naliShlarini, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy madaniy rivojlaniSh jihatlarini o‘zida mujassam etgan muhim huquqiy hujjatdir.

Konstitutsiyada O‘zbekiston xalqining demokratiya, inson huquqlari va ijtimoiy adolat g‘oyalariga sodiqligi e’lon qilindi va u demokratiyaning umuminsoniy prinsiplariga asoslanadi.

Konstitutsiyamizning eng xalqchil, eng demokratik va o‘ta nufuzli konstitutsiya tariqasida jahondagi barcha ilg‘or va taraqqiy topgan davlatlar tomonidan tan oliniShi, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Bill va boShqa Konvensiyalarga muvofiq, deb e’tirof etiliShi, uning yanada xalqchilligidan dalolat beradi. Kezi kelganda aytiSh joizki, asosiy Qomusimizga berilgan baho har birimizdan, O‘zbekiston fuqarosi - degan yuksak nomni Sharaf bilan oqlaShlikni taqozo etadi, mas’uliyat hissini uyg‘otadi. Ozod va obod Vatanimizning porloq kelajagi yo‘lida fidokorona mehnat qiliShga chorlaydi.

Mamlakatimizda Shiddat bilan olib borilayotgan islohotlardan Shuni anglaSh mumkinki. albatta huquqiy davlatda har bir sohaga demokratik tamoyillar asosida teng huquqiy yondaShiladi, Shundagina har bir davlatda rivojlaniSh hamda yuksaklikka eriShiShda natija paydo bo‘ladi. Bularni amalga oShiriShda esa birinchi navbatda xalq manfaatlaridan kelib chiqib yondaShiladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B.3.
[2] Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.-T. 2018.-B.4-5.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat hokimiyati tizimi yangicha bir institut – Prezident Virtual qabulxonasi taShkil etildi. Bu orqali davlat bilan xalq o‘rtasida yaqindan ochiq hamkorlik o‘rnatilib xalq ichiga davlat organlari kirib xalqning dardi tinglandi hamda eng dolzarb bo‘lgan muammolarni echimini topiShni samarali tizimi Shakllantirildi. Bu ham mamlkatimizning erkin taraqqiy etiShida mustahkam poydevor sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson hayotiga, uning qadr-qimmatiga alohida e’tibor qaratilgan. Unga asosan: «O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, Sha’ni, qadr-qimmati va boShqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi». Darhaqiqat insonni ulug‘laSh, uni muhofaza qiliSh va har tomonlama kamol toptiriSh Konstitutsiyaning asosiy g‘oyasiga aylangan.

Inson huquqlarini mensimaslik, yaShaSh huquqiga, Shaxs daxlsizligiga rioya etmaslik, qiynoqqa soliSh va boShqa Shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala usullaridan foydalaniSh kabi zo‘ravonliklar mustabidlik davrining yurtimiz tarixida qolgan minglab «qatag‘on davri» va «paxta iShi» qurbonlari va jabrdiydalari misollarida yodimizdan chiqqan emas.

Bizning Konstitutsiyamiz umuminsoniy g‘oyalar, tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do‘stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi eng ulug‘ g‘oyalarga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamizda qonun ustuvorligi, uning barcha fuqarolar uchun tengligi, Shuningdek davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘lininShining huquqiy prinsiplari belgilab berilgan. Asosiy qonunimiz fuqarolik jamiyati institutlarining ShakllaniShi va rivojlaniShi uchun muhim huquqiy asos bo‘lib, fuqarolarimizning davlat va jamiyat iShlarini boShqariShda iShtirok etiSh huquqini mustahkamlab kelmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyamiz erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tiSh uchun zarur Shart-Sharoit yaratib, huquqiy mulkning ustuvorligini o‘rnatgandir.

Umuman olganda, mamlakatimizda amalga oShirilayotgan har qanday islohotlar mamlakatimiz qomusi hisoblangan Konstitutsiyaga asoslanadi. Zero, qabul qilinayotgan qonunlarning barchasi aynan Konstitutsiyaga zid bo‘lmagan holda, faqat u asosida qabul qilinadi. O‘zbekiston izchil raviShda bosqichma-bosqich rivojlaniSh davridan o‘tar ekan, davlatimizda yangi qonunlarning qabul qiliniShi va amaldagi qonunchilikka o‘zgartiriShlar kiritiliShi ham davr talabidir. Shunga muvofiq, Konstitutsiyamizningrivojlanib borayotgan ijtimoiy munosabatlarga moslaShtirib boriSh muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, Konstitutsiyani yoShidan qat’iy nazar, barcha fuqarolarimiz chuqur o‘rganiShlari lozim. Shundagina, mamlakatimizda yuz berayotgan izchil huquqiy islohotlarning ma’no va mazmuni xalqimizga to‘la-to‘kis tuShunarli bo‘ladi.

Konstitutsiyada belgilangan hayotiy qoidalar hayotimizga, kundalik turmuSh tarzimiga singib bormoqda. Yillar o‘tiShi bilan Konstitutsiya qoidalarining nechog‘li ahamiyatli ekanligi, unda belgilangan qoidalar hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib boraveriShi uning ahamiyatini yanada oShib boradi. Zero, Konstitutsiyani o‘rganiSh, uning ma’no-mazmunini tuShuniSh butun O‘zbekiston xalqining yuksak va mas’uliyatli burchidir.

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON: KONSTITUTSIYA, QONUN VA FUQAROLIK

Rafikova M.R.
Bojxona instituti Umumhuquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori(PhD), podpolkovnik.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, u mamlakat mustaqillikka eriShganidan so‘ng yaratilgan eng asosiy huquqiy hujjatdir. UShbu Konstitutsiya xalqning davlat tuziliShi, inson huquqlari va davlatning asosiy majburiyatlarini aniq belgilab berdi. Mamlakatning huquqiy tizimini Shakllantirgan uShbu hujjat O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘zini ko‘rsatiShida, ichki va taShqi siyosatining barqarorligini ta’minlaShda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi. [1]

Konstitutsiyaning qabul qiliniShi o‘zining tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi, chunki bu hujjat O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida qabul qiliniShining poydevori bo‘lib xizmat qildi va ijtimoiy asoslarni yaratiShda muhim rol o‘ynadi. Bu hujjat O‘zbekistonni sobiq ittifoq qonunchiligidan mustaqil qilib, milliy huquqiy tizimini yaratiSh imkonini berdi. Mustaqillik e’lon qilingach, mamlakat yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizim, davlat boShqaruvi va demokratik institutlarni barpo etiSh zarurati oldida turdi. Konstitutsiya qabul qiliniShi O‘zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida mamlakatning kelgusidagi rivojlaniSh yo‘lini belgilab berdi.

Konstitutsiya xalqning xohiSh-irodasini aks ettiruvchi huquqiy hujjat bo‘lib, O‘zbekiston fuqarolariga teng huquqlarni kafolatlaydi. Davlat boShqaruvi tizimi, siyosiy partiyalar, ijtimoiy himoya va inson huquqlari uShbu hujjat orqali tartibga solinadi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning qabul qiliniShi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholangan, O‘zbekistonning demokratik davlat sifatida tan oliniShi jarayoniga xizmat qilgan.

32 yil davomida Konstitutsiya mamlakat ichki siyosati va xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soliShda muhim o‘rin tutdi. Zamonaviy O‘zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolar huquqlarini himoya qiliSh va ijtimoiy adolatni ta’minlaShda, davlatning demokratik tamoyillariga asoslangan boShqaruv tizimini ShakllantiriShda asosiy hujjat bo‘lib qolmoqda. Bu erda kelajakda qabul qiliniShi mumkin bo‘lgan yangi qonunlar va islohotlar o‘z

ahamiyatiga ega bo‘ladi, chunki ular fuqarolar hayotida sezilarli o‘zgariShlar yaratiShi mumkin.

Bugungi kunda, 2024-yilda, O‘zbekiston Konstitutsiyasi o‘zining 32 yilligini niShonlamoqda. Bu yil ichida ijtimoiy tarmoqlar va raqamlaShtiriSh jarayonlari fuqarolarni ma'lumotlarga erkin kiriShga imkoniyat yaratmoqda, bu esa demokratik jarayonlarni yanada kuchaytiradi. O‘tgan yillar davomida bu hujjat mamlakatning huquqiy tizimini takomillaShtiriShda, inson huquqlarini ta’minlaShda va ijtimoiy mustahkamlikni yaratiShdagi o‘rni juda ham katta. Shu yillar ichida Konstitutsiyaga bir necha bor o‘zgartiriShlar kiritildi, va har safar uShbu o‘zgartiriShlar mamlakatning zamonaviy ehtiyojlariga moslaShtirildi.

Konstitutsiyaning tarixiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1991-yil 31-avgustda mustaqillik e'lon qiliniShi bilan yangi davlat huquqiy poydevoriga ehtiyoj tug‘ildi. Konstitutsiyani qabul qiliSh jarayoni xalqaro va milliy huquqiy tamoyillarni uyg‘unlaShtiriShga asoslangan edi. Shuni alohida ta'kidlaSh kerakki, o‘Sha paytda O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida o‘zining ichki va taShqi siyosatini belgilaShga kiriShdi va bu jarayonda Konstitutsiyaning qabul qiliniShi huquqiy tizimni ShakllantiriShda asosiy qadam bo‘ldi.

Bu davrda xalqaro hamjamiyat ham mustaqil O‘zbekistonni e’tirof etib, uning xalqaro huquq doirasidagi o‘rnini mustahkamlaShda yordam berdi. Bu, ayniqsa, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro taShkilotlarga qo‘ShiliSh jarayonida sezildi. Jumladan, BirlaShgan Millatlar TaShkiloti (BMT) tomonidan inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro me'yorlarga rioya qiliSh O‘zbekistonning ichki siyosati va qonunchiligiga katta ta'sir ko‘rsatdi.[2]

Konstitutsiyadagi muhim o‘zgartirishlar

32 yil davomida O‘zbekiston Konstitutsiyasiga bir necha bor o‘zgartiriShlar kiritildi. UShbu o‘zgartiriShlar mamlakatni huquqiy va ijtimoiy jihatdan yangilaSh, fuqarolarni himoya qiliSh mexanizmlarini kuchaytiriShga qaratilgan edi. Xususan, inson huquqlari, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni ta’minlaSh bo‘yicha yangi qonunchilik taShabbuslari kiritildi.

1. **Demokratik tamoyillarni rivojlantirish**:
   - 2019-yilda qabul qilingan yangi saylov kodeksi saylov jarayonlarining ochiqligini ta’minlaShda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Elektron saylov tizimlarining joriy qiliniShi orqali fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi iShtiroki kengaydi. [3]
   - **Fuqarolarning siyosiy faolligi**: Fuqarolar endi nafaqat saylovlarda, balki qonunlar muhokamasida ham faol qatnaShmoqda, bu esa ijtimoiy mas'uliyatni oShiriShda muhim ahamiyatga ega. Masalan, fuqarolar taShkilotlari va jamiyatlar bu jarayonda faol iShtirok etmoqda. Bu esa jamiyat va davlat o‘rtasidagi iShonchni mustahkamlaShda muhim rol o‘ynaydi.[4]

2. **Inson huquqlarining kengaytiriliShi**:

- Xotin-qizlar va yoShlar huquqlarini kengaytiriShga qaratilgan qator islohotlar amalga oShirildi. Masalan, 2022-yilda qabul qilingan “Ayollarning huquqlarini himoya qiliSh” qonuni doirasida, ayollarga siyosiy va iqtisodiy sohalarda yangi imkoniyatlar yaratildi. BMTning ayollar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyalariga qo‘ShiliSh orqali O‘zbekiston uShbu sohada katta yutuqlarga eriShdi, buni o‘zining xalqaro hamjamiyatdagi obro‘sini oShiriShda ko‘riShimiz mumkin. Bu jarayon insonning asosiy huquqlari xalqaro darajada tan oliniShi va milliy qonunchilikda aks etiShini ta’minladi.[5]

3. **Ekologik barqarorlik va yaShil iqtisodiyot**:

- 2023-yilda O‘zbekiston ekologik xavfsizlikni mustahkamlaSh va yaShil iqtisodiyotni rivojlantiriSh bo‘yicha qonunlar qabul qildi. Tabiiy resurslardan foydalaniShni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va ekologik xavfsizlikni ta’minlaShga qaratilgan dasturlar amalga oShirilmoqda. Bu o‘zgariShlar ekologik barqarorlikni ta’minlaShda muhim qadam hisoblanadi. [6]

Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlari, davlat boShqaruvi va ijtimoiy adolatni ta’minlaShga qaratilgan asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bular nafaqat huquqiy asoslar, balki ijtimoiy Sharoitlarni yaxShilaShga, fuqarolarning hayot sifatini oShiriShga ham xizmat qiladi. Bu tamoyillar fuqarolar huquqlarini himoya qiliShda asosiy rol o‘ynaydi.[7]

1. **Inson huquqlari va erkinliklari**: Har bir fuqaroning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Shu bilan birga, Konstitutsiya inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyalarga mos keladigan qoidalarni o‘z ichiga oladi, bu esa davlatning xalqaro huquq doirasidagi majburiyatlarini ta’minlaydi. [8]

2. **Davlat boShqaruvi va qonun ustuvorligi**: O‘zbekiston davlat boShqaruvi tizimi hokimiyatning bo‘liniShi tamoyiliga asoslangan. Bu davlatning demokratik rivojlaniShiga zamin yaratib, hokimiyatlar o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini saqlaShni ta’minlaydi.

3. **Ijtimoiy adolat va fuqarolik jamiyati**: Xalq iShtirokini rivojlantiriSh va ijtimoiy adolatni ta’minlaSh uchun Konstitutsiya milliy va xalqaro me’yorlarga mos qoidalarni belgilab bergan. Ijtimoiy tenglik va adolat davlat siyosatining asosiy yo‘naliShlaridan biri bo‘lib, fuqarolar jamiyat hayotida faol iShtirok etadi. [9]

2024-yildagi yangilaniShlar va talablar

Bugungi kunda O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqaro huquqiy talablar va zamonaviy islohotlarga mos raviShda yangilanmoqda. 2024-yildagi eng muhim o‘zgariShlardan biri raqamlaShtiriSh jarayonlari va davlat boShqaruvining Shaffofligi bo‘ldi.

1. **Davlat boShqaruvi Shaffofligi**: 2023-yilda elektron davlat xizmatlari joriy qilinib, davlat boShqaruvining Shaffofligini ta’minlaSh maqsadida keng ko‘lamli raqamlaShtiriSh islohotlari amalga oShirildi. Bu jarayon, davlat boShqaruvini fuqarolarga yaqinlaShtiriShni maqsad qilib qo‘ygan holda, davlat organlari faoliyatining oShkoraligini ta'minlaShda muhim ahamiyatga ega. [10]

2. **Korrupsiyaga qarShi kuraSh**: O‘zbekiston korrupsiyaga qarShi kuraShda milliy dasturlarni kuchaytirib, xalqaro hamkorlik orqali korrupsiyani bartaraf etiShga katta e’tibor qaratdi. Bu borada, mavjud muammolarni aniqlaSh va ularning echimlarini taklif etiSh orqali ijtimoiy adolatni ta'minlaSh zarur. Yangi qonunchilik taShabbuslari bu borada ijobiy natijalarga olib kelmoqda. [11].

KONSTITUTSIYA – FAROVON HAYOTIMIZNING ASOSIY MEZONI!

Fayziyeva G.U.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririda birinchi marta mamlakatni rivojlantiriShning ustuvor yo‘naliShlari belgilab berildi. Inson, uning huquq va erkinliklari, Sha’ni va qadr-qimmati eng oliy qadriyat bo‘lgan ko‘p millatli xalqning irodasi demokratiya va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sodiqlikni tasdiqlaydi. Maqsad insonparvar, demokratik, jadal rivojlanayotgan davlat, keng va jozibali bozorga ega iShonchli va baShorat qilinadigan xalqaro Sherik bo‘lgan ochiq va adolatli jamiyat quriSh bilan izohlanadi. Asosiy qonunda O‘zbekiston va jahon hamjamiyati, birinchi navbatda, qo‘Shni davlatlar bilan hamkorlik va bir-birini qo‘llab-quvvatlaSh, tinchlik va totuvlik asosida do‘stona munosabatlarni mustahkamlaSh hamda rivojlantiriSh ilk bor aniq-ravShan mustahkamlab qo‘yildi. Mamlakatimizda amalga oShirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, katta bunyodkorlik va obodonlaShtiriSh iShlarida yuzaga kelayotgan o‘zgariShlar va yangiliklarning asosi, milliy qonun hujjatlarimizning asosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir.

Muhtaram Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘iShlangan tantanali marosimdagi “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir” nomli ma’ruzalarida ta’kidlaganlaridek, har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta’minlaShga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining Konstitutsiyasi – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o‘z xalqining xohiSh-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo‘lgan

mamlakat o‘zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og‘iShmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Shaxsiy sa’y-harakatlari tufayli mintaqaviy quriliShning yangi konsepsiyasini ShakllantiriSh va Markaziy Osiyoning o‘ziga xos siyosiy va ijtimoiy jihatlarga ega bo‘lgan yagona geoiqtisodiy makonini yaratiSh borasida salmoqli natijalarga eriShilgani alohida, yaqin vaqtgacha bir-biridan juda uzoq bo‘lgan davlatlar tobora yaqinlaShuv va keliShuvlarga intilmoqda.

Tarixga nazar solsak, asrlar davomida Shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va insonning tabiiy huquqlari sivilizatsiya jarayonlari natijasida Konstitutsiya Shakliga kelganini ko‘ramiz. Konstitutsiya baShariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yaShaSh, mulkka ega bo‘liSh, ta’lim oliSh, mehnat qiliSh, saylaSh va saylaniSh kabi huquqlarini, so‘z hamda e’tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi. Ko‘hna zaminimiz odamlari ko‘nglida ustuvor bo‘lgan adolat, haqiqat, iymon, olijanoblik, bag‘rikenglik, mardlik, tantilik kabi ulug‘ xislatlar Konstitutsiyamizdan munosib o‘rin olgan. U umuminsoniy g‘oyalar - tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do‘stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi eng ulug‘ g‘oyalarga xizmat qiladi.

Uzoq asrlar davomida baShariyat ming-minglab qoidalar va nizomlardan jamiyat uchun asosiylarini va o‘ta muhimlarini tanlab oldi. Aynan ana Shu tanlab olingan qoidalar Konstitutsiyamiz yaratiliShiga poydevor bo‘ldi. Konstitutsiyada bayon etilgan tuShunchalar Shu qadar ahamiyatliki, hech bir odam ularsiz yaShay olmaydi, negaki insonning har kuni duch keladigan muammolarni hal etiShga qaratilgan faoliyati ko‘pincha mamlakat asosiy qonuniga kiritilgan qoidalar va moddalarga bog‘liqdir.

O‘zbekiston mustaqillikka eriShgach, o‘z oldiga adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etiSh, huquqiy demokratik davlat quriSh va xalqni farovon hayot sari olib boriSh kabi buyuk maqsadlarni qo‘ydi.

BoSh qomusimiz muqaddimasida inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqlik tantanali raviShda e’lon qilinib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyat anglangan holda, o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga taya’nilib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat namoyon etilib, xalqaro huquqning umume’tirof qilingan qoidalari ustunligi tan olingan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechiriShini ta’minlaShga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etiSh ko‘zlanib, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlaSh maqsadida qabul qilingan.

Shu maqsadlarni ko‘zlab qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bugungi kunda mamlakatimizda suveren demokratik davlat barpo etiSh, inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta’minlaSh,

iqtisodiyotimiz rivoji va turmuShimiz farovonligini yuksaltiriShning asosiy huquqiy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bugun kunda mamlakatimizda amalga oShirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, ulkan bunyodkorlik va obodonlaShtiriSh iShlari, ro‘y berayotgan barcha o‘zgariSh va yangilaniShlar asosi, milliy qonunchiligimiz poydevori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jahon hamjamiyatida zamonaviy demokratik qonunchilik namunasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda davlatni jamiyatga, xalqqa xizmat qiluvchi institutga aylantiriSh, uning faoliyatini qonunlarga taya’nib quriShga qattiq kiriShilgan, desak xato bo‘lmaydi. Fuqaro - jamiyat - davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona va adolatli huquqiy echimi Konstitutsiyadir.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi.

Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylaniShi qat’iy talab sifatida belgilandi. Bu hol davlat organlari hamda mansabdor Shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatiShiga asos bo‘ladi.

Binobarin, qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo‘liShi Shart va zarur. Bunga ko‘ra, inson va davlat o‘rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tuShunmovchiliklar bartaraf etiladi.

Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartiriSh, bandlikni ta’minlaSh, iShsizlikdan himoya qiliSh bo‘yicha normalar belgilandi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘liSh huquqi belgilandi. Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxShilaShning zaruriy Sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qiliSh bo‘yicha kompleks choralar belgilandi. Shu munosabat bilan, davlat atrof-muhitni yaxShilaSh, tiklaSh va muhofaza qiliSh, ekologik muvozanatni saqlaSh bo‘yicha choralarni amalga oShiradi, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlaSh va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatiliShiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oShiriSh uchun Shart-Sharoitlar yaratadi, degan norma belgilandi. Shaharlarning boSh rejalarini jamoatchilik muhokamasidan majburiy o‘tkaziliShi Shartligi qayd etildi.

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi iShonchli axborotga ega bo‘liSh huquqiga egaligi belgilandi. Ta’lim oliSh huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ladi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qiSh huquqi qat’iy belgilab qo‘yildi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boShlang‘ich kasb-hunarga o‘qitiliShi ham belgilandi.

Konstitutsiyada davlatning o‘qituvchilar Sha’ni va qadr-qimmatini himoya qiliSh, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘siShi

to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiliSh majburiyati qayd etildi. Oliy ta’lim taShkilotlariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boShqariSh, tadqiqotlar o‘tkaziSh va o‘qitiSh erkinligi huquqi taqdim etildi.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirilmoqdi. Xususan, O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlandi. O‘lim jazosini taqiqlaShni konstitutsiyaviy darajada belgilaniShi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etiShga haqli emasligini kafolatlaydi.

Har kimning yoziShmalari, telefon orqali so‘zlaShuvlari, pochta, elektron va boShqa xabarlari sir saqlaniSh huquqiga ega ekanligi belgilandi. Bunday huquqlarning cheklaniShiga yoki uy-joyda tintuv o‘tkaziShga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiliShi belgilab qo‘yildi.

YoShlar huquqlari himoyalaniShi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol iShtirokini rag‘batlantiriSh kafolatlandi.

Jumladan,

– davlat yoShlarning Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qiliniShini ta’minlaydi;

– davlat yoShlarning jamiyat va davlat hayotida faol iShtirok etiShini rag‘batlantiradi;

– davlat yoShlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan ShakllaniShi hamda rivojlaniShi uchun Shart-Sharoitlar yaratadi;

– davlat yoShlarning ta’lim oliShga, sog‘lig‘ini saqlaShga, uy-joyga, iShga joylaShiShga, bandlik va dam oliShga bo‘lgan huquqlarini amalga oShiriSh uchun Shart-Sharoitlar yaratadi;

– davlat va jamiyat yoShlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlaniShni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini ShakllantiriSh to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Hulosa o‘rnida aytiSh joyiz, Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaSh, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma’naviy salohiyatini va mudofaa qudratini yuksaltiriSh, demokratik islohotlarni chuqurlaShtiriSh, davlatimiz sarhadlari daxlsizligini ta’minlaSh, jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlikni, millatlararo do‘stlik va totuvlikni asraSh, Asosiy qonunimizning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini keng targ‘ib etiShda barcha soha vakillari hamqadam bo‘liShimiz kerak. YoSh avlod qalbida ona Vatanga mehr va sadoqat tuyg‘ularini jo‘Sh urdiriSh, Konstitutsiyamiz va boShqa qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalaSh asosiy burchimizdir.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARINING MUSTAHKAMLANISHI

Akmalov H.A.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti, mustaqilligimiz asoschisi I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir. Shu ma’noda Asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni iShlab chiqiSh va muhokama etiShda butun xalq iShtirok etdi. Bir so‘z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz tom ma’noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir” [1,93-b.].

Yangi tahrirdagi qomusimiz zamon talablariga muvofiq takomillaShtiriliShi kerakligi alohida ta’kidlangan. 2022-yil 20-may kuni Konstitutsiyaviy islohotlar bo‘yicha komissiya tarkibi tasdiqlangan edi. Shu yilning 20-iyun sanasida esa yurtboShimiz tomonidan O‘zbekiston konstitutsiyasiga o‘zgartiriSh kiritiSh va taShkiliy chora-tadbirlarni amalga oShiriSh yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchraShuv o‘tkazilgan. UShbu uchraShuvda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan quyidagi taklif ilgari surildi:

“Albatta, xalqimizdan Komissiyaga kelib tuShgan barcha muhim va dolzarb takliflarni bugun Sizlar bilan batafsil muhokama qiliSh imkoniyatiga ega emasmiz. Men ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tdim, xolos. Komissiya taklifi asosida Parlament tomonidan iShlab chiqilgan loyihani umumxalq muhokamasida ko‘rib chiqiShni hamda referendum o‘tkaziSh yo‘li bilan qabul qiliShni taklif etaman.

Bu “Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi – xalqdir” degan tamoyilga to‘la mos keladi. Shunda har bir vatandoShimiz “Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi – mening Konstitutsiyam” deb yuksak g‘urur bilan ayta oladi", deb ta’kidlandi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel sanasida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi to‘g‘risidagi qonunni qabul qiliSh bo‘yicha o‘tkazilgan referendumda iShtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz beriSh orqali qabul qilinganligi xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etiSh bo‘yicha orzu-umidlari va intiliShlari o‘z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Referendum ko‘p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat quriShga qat’iy qaror qilganligining iShonchli ifodasi bo‘ldi. Yangi tahrirdagi

Konstitutsiya joriy yilning 1-may sanasidan kuchga kirganligi e’lon qilindi. Yangilangan konstitutsiya VI bo‘lim, XXVII bob va 155 moddani o‘z ichiga qamrab oladi.

BoSh Qomusimizda bo‘lgan o‘zgariShlar haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, undagi moddalar 128 tadan 155 taga o‘zgardi, normalar soni esa 275 tadan 434 taga oShgan. Asosiy qonunning 65 foiz matni yangilandi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda o‘zgariShlar asosan quyidagi yo‘naliShlarda aks etgan: inson huquq va erkinliklari sohasi; tadbirkorlik va xususiy mulk sohasi; axborot sohasi; ijtimoiy soha; tibbiyot va ekologiya sohalari; ilm-fan, ta’lim-tarbiya va yoShlar sohasi; sud-huquq sohalari. Konstitutsiyamizga o‘zgartiriSh va qo‘Shimchalar kiritiSh maqsadida xalqimizdan ko‘plab takliflar kelib tuShdi. Kelib tuShgan takliflar soni 222,715 tani taShkil etgan bo‘lib, ularning 25 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan. Takliflar statistik tahlil etilganda 60 foizi yoShlar tomonidan bildirilganligi ma’lum bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yoShlarga oid alohida bob va moddalar kiritilib, XIV bob “Oila, bolalar va yoShlar” deya nomlandi. Bu esa mamlakatimizda yoShlarga qaratilayotgan davlat siyosati darajasidagi e’tiborning yanada ortib borayotganligidan dalolatdir.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda suriShtiruv, tergov va sud jarayonida inson huquqlarini himoya qiliShga oid quyidagi 9ta eng muhim normalar kiritildi va Qomusimizda quyidagi Shakllarda mustahkamlab qo‘yildi:

1) Shaxsni uShlaSh chog‘ida unga tuShunarli tilda uning huquqlari va uShlab turiliShi asoslari tuShuntiriliShi Shart;

2) Shaxs o‘zining aybsizligini isbotlaShi Shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlaSh huquqidan foydalaniShi mumkin;

3) aybdorlikka oid barcha Shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qiliniShi kerak;

4) agar Shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarShi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topiliShi yoki jazoga tortiliShi mumkin emas;

5) Shaxs o‘ziga va yaqin qarindoShlariga qarShi guvohlik beriShga majbur emas;

6) Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat uShlab turiliShi mumkin emas;

7) hibsga oliSh, qamoqqa oliSh va qamoqda saqlaShga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi;

8) yoziShmalar, telefon orqali so‘zlaShuvlar, pochta, elektron va boShqa xabarlar sir saqlaniShini cheklaShga hamda uy-joyda tintuv o‘tkaziShga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi;

9) har kimga malakali yuridik yordam oliSh huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi [2, 59-60-b.].

Shaxsiy huquq va erkinliklar – tabiiy huquq va erkinliklar bo‘lib, insonning hayoti, sog‘lig‘i, or-nomusi, Sha’ni, qadr-qimmatini ta’minlaShga qaratilgan huquqlar guruhi hisoblanadi [3, 28-b.].

Yangilangan Konstitutsiyamizga kiritilgan inson huquq va erkinliklari, sud-huquq sohasidagi o‘zgariShlar haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, inson huquq va erkinliklari sohasida ko‘plab normalar kiritildi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 25-moddasiga ko‘ra O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanadi. YaShaSh huquqi har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqi hisoblanadi. Mamlakatimizda 2008-yildan barcha jinoyatlar uchun o‘lim jazosi bekor qilingan, lekin konstitutsiyada emas balki jinoyat qonunchiligida o‘z aksini topgan edi.

O‘lim jazosi taqiqlaniShining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaniShi insonni hayotdan xatto davlat ham mahrum etiShga haqli emasligini kafolatlaydi. UShbu norma bilan davlatimiz bu jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligini, insonparvarlik g‘oyalariga sodiq ekanligini butun dunyoga namoyon qiladi. Misol sifatida bugungi kunda 106 ta davlatda o‘lim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan. Ayrim davlatlar o‘z tajribalarida o‘lim jazosini qonunlari bilan bekor qilsa-da, konstitutsiyada bo‘lmaganligi bois uni jazo sifatida qayta tiklaSh holatlari ham kuzatilgan. Shuningdek, sudlar ham xatolarga yo‘l qo‘yiSh xavfini inkor etib bo‘lmaydi. Shunday ekan o‘lim jazosi tayinlangan Shaxsga sud kelgusida oqlov hukmi chiqaradigan bo‘lsa, nohaq ayblangan inson hayotini ortga qaytariShning hech qanday iloji yo‘q. Shu nuqtayi nazardan Qomusimizga kiritilayotgan O‘zbekistonning qat’iy pozitsiyasi mamlakatimizda inson hayoti, uning qadri yuqori darajada himoya qiliniShini yana bir bor tasdiqlaydi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotimizda mazkur jazo turini qaytariSh va qo‘llaSh bo‘yicha har qanday taShabbuslarni qat’iy raviShda cheklaydi. Pirovardida har bir inson xatto u jinoyat sodir etgan bo‘lsa ham uning yaShaSh huquqi kafolatlaniShiga xizmat qiladi [4].

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida har bir Shaxsning Sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo‘liShga yo‘naltirilgan bir necha eng muhim tamoyillar mustahkamlanmoqda. Unda, xususan, insoning Sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanligi va hech bir narsa ularni kamsitiSh uchun asos bo‘la olmasligi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 26-moddada qiynoqqa soliSh, zo‘ravonlik, Shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boShqa tarzdagi tazyiqqa duchor etiSh, Shaxsning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkaziliShi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan.

Tarix Shundan guvohlik beradiki, uzoq vaqt davomida ko‘p davlatlarda qiynoqlar amalda qo‘llanilgan. Odatda, qiynoqlar so‘roq qilinayotgan Shaxs saqlayotgan muhim ma’lumotni qo‘lga kiritiSh, Shuningdek o‘lim jazosini amalga oShiriSh jarayonida og‘riqni kuchaytiriSh va azoblaSh maqsadida

qo‘llanilgan. Hozirgi paytda qiynoqlarning taqiqlaniShi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda, Qiynoqlarga hamda muomala va jazolaShning boShqa Shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarShi konvensiyada, Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasida, Inson va xalqlar huquqlari Afrika xartiyasida va boShqa hujjatlarda mustahkamlanib qo‘yilgan.

Insoning Sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanligi, qiynoqqa soliSh, zo‘ravonlik, Shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boShqa tarzdagi tazyiqqa duchor etiSh, Shaxsning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkaziliShiga yo‘l qo‘yilmasligining Konstitutsiyada belgilaniShi jazoni o‘taSh joylarida saqlanayotgan Shaxslarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaShga, xalqaro maydonda O‘zbekiston obro‘yini yanada oShiriShga, Shuningdek insonparvarlik, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini amalga oShiriShga xizmat qiladi [5].

Erkinlik va Shaxsiy daxlsizlik huquqi bu – har bir inson tug‘iliShi bilan qo‘lga kiritadigan, har kim erkin, o‘z ixtiyori bo‘yicha harakat qiliShi, o‘zganing Shaxsiy erkinligi va daxlsizligiga ziyon etmaydigan tarzda yuriSh-turiShni tanlaSh imkonini beruvchi huquqdir. Shaxsning erkinligi jamiyatdagi axloq me’yorlari doirasidan chiqmasligi va qonun asosida bo‘liShi kerak, ya’ni Shaxs har qanday harakatni qonun va qonun hujjatlarida man etilmagan va huquqiy ko‘rsatmalarga zid kelmagan taqdirda amalga oShiriShi mumkin [6, 137-b.].

Inson huquqlarini sud orqali himoya qiliSh bo‘yicha muhim institutlardan biri – “Xabeas korpus” Shaxs erkinligini cheklaSh bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sudning qarori asosida amalga oShiriliShi Shartligi talabidir. Bu qoida Shaxsiy erkinlik daxlsizligini kafolatlab, tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga oliSh, asossiz qamoqqa oliSh va saqlaShga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Bu yangi normaning ahamiyati Shundaki, sud-tergov jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turiShga, Shaxsni asossiz hibsga oliSh holatlarini bartaraf etiShga, natijada tergov davomida insonning ozodligini cheklaSh bilan bog‘liq bo‘lgan xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi. Shuningdek, uShbu moddadagi yana bir muhim jihatni ta’kidlab o‘tadigan bo‘lsak, aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqadigan muhim kafolat, Shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat uShlab turiliShi mumkin emas. Shaxs uShlab turilgan vaqtdan e’tiboran 48 soat o‘tgunga qadar sudga uShlab turiShning qonuniyligi va asosliligi to‘g‘risida masalani hal qiliSh uchun olib boriliShi kerak. Agar uShlab turiShning qonuniyligi va asosliligi sudga isbotlanmasa Shaxs darhol ozod qiliniShi kerak degan norma belgilandi. UShbu modda Shaxs erkinligi va daxlsizlik huquqining

konstitutsiyaviy kafolati sifatida xizmat qiladi. Mazkur norma mamlakatimiz konstitutsiyasida ham “Xabeas korpus” tizimi joriy etilganligini anglatadi.

Yangilangan Konstitutsiyaning 28-moddasida qayd etiliShicha, “Ozodlikdan mahrum etilgan Shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘liniShi hamda inson Shaxsiga xos bo‘lgan Sha’ni va qadr-qimmati hurmat qiliniShi huquqiga ega. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan Shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oShkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qiliSh uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi” deb belgilab qo‘yildi. UShbu normani kiritiShda birinchi o‘rinda xalqimizdan kelib tuShgan takliflar va Shu bilan birga xalqaro normalar ham hisobga olingan. Ya’ni, uShbu modda “Miranda qoidasi”ni o‘zida aks ettirgan. Miranda qoidasining mazmuni Shundan iboratki, jinoyatda gumon qilinib uShlangan Shaxsga nisbatan tegiShli idora xodimlari tomonidan bosim o‘tkaziliShini istisno qiladi. Bu esa inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari – oliy qadriyat degan ezgu tamoyilni amaliyotda keng tadbiq etiShga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom. –T.: O‘zbekiston, 1996. -170b.

2. Konstitutsiyadagi yangi normalar va ularning tahlili. F.Q.Qutlimuratov, H.A.Akmalov. (Metodik qo‘llanma) -Nukus; 2023. -84b.

3. Inson huquqlari. A.R.Mo‘minov, M.A.Tillaboev. Darslik. Ikkinchi naShr. –T.: Adolat, 2013. -290b.

4. Akmalov Hamid Akmal o‘g‘li. (2023, Aprel). Yangilanayotgan konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, sud-huquq sohasidagi islohotlar. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali. UIF-2023: 8.2|2181-3035|№22.

5. L.Yugay. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qiynoqlarning taqiqlaniShi kafolatlari mustahkamlanmoqda. “Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi” yagona milliy portali. URL: https://meningkonstitutsiyam.uz (ko‘rilgan sana: 21.11.2023-y.)

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga Sharh. Qayta iShlangan va to‘ldirilgan ikkinchi naShri. -T.: “O‘zbekiston” 2013. -590 b.

ER-XOTINNING MULKINI TAQSIMLASHDAGI AYRIM MUAMMOLAR

Egamberdiyeva N.K.
Toshkent davlat transport universiteti.

Oila muqaddasligi, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaniShi, ajrimlarning oldini oliSh maqsadida yoShlar o‘rtasida suhbatlar uyuShtiriliShi,

yaraShtiriSh komissiyalarining mavjudligi hammamizga ayon. Biroq, ayrim vaziyatlarda taqdirning o‘zi nikohning bekor bo‘liShiga sabab bo‘ladi. Zero, oilani saqlab qoliSh uchun barcha uruniShlar bo‘lgan bo‘lsa ham. Tomonlar oila quriShda avvalo yaxShi niyatlar ila o‘zaro sulh tuzadilar. Nikohni umuman saqlab qoliSh imkoniyati mavjud bo‘lmagan taqdirdagina sud nikohni bekor qiliShga majbur bo‘ladi. Nikoh tugatilganda er-xotin o‘rtasida munosabatlar tugaydi (aliment majburiyatlaridan taShqari). Lekin farzandlar oldidagi ota-onalik huquq va majburiyatlari saqlab qolinadi. Biz etiborimizni qaratmoqchi bo‘lgan holat, bu mulkiy munosabatlarning nechog‘liq hal etiliShidir. Umumiy birgalikdagi mulk O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 216-moddasiga muvofiq, ikki yoki undan ortiq Shaxsning egaligida bo‘lgan mol-mulk tuShuniladi. Mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi uluShi aniqlab qo‘yilgan yoki uluShlar aniqlab qo‘yilgan bo‘lmasa birgalikdagi mulk tuShuniladi. Mazkur moddaning 6-bandida birgalikdagi mulk iShtirokchilarining keliShuviga muvofiq, keliShuvga eriShilmagan taqdirda esa, sudning qaroriga muvofiq Shaxslarning uluShlari belgilab qo‘yiliShi mumkin. Er va xotinning birgalikda olingan mol-mulklari birgalikdagi mulk sanaladi. Qonun nikohga kiriShiShdan oldin yoxud keyin ham “Nikoh Shartnomasi” yoki “Er-xotin umumiy birgalikdagi mulk uluShlarini belgilab oliSh to‘g‘risidagi keliShuv” asosida mulkiy huquqlarini belgilab oliShlari mumkin.

Oila instituti tizimida mulkiy munosabatlarni tartibga soliShga qaratilgan Shartnomalar sirasiga, er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘liSh (27-modda), nikoh Shartnomasi (29-modda), ota-ona va voyaga etmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujudga keltiriSh to‘g‘risida keliShuv (92-modda), aliment to‘laSh to‘g‘risidagi keliShuv (100, 118-moddalar, 17-bob)lar kiradi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi Shartnomalar sifatida esa, ota-onaning keliShuviga binoan bolaga ism, ota ismi beriSh (69, 208-moddalar), ota-onaning keliShuviga binoan ota-ona alohida yaShaganda bolalarning qaerda yaShaSh joyini belgilaSh (75-modda), ota-ona boladan alohida yaShaydigan ota(ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oShiriSh tartibi to‘g‘risida keliShuv (76-modda), bolalarni oilaga tarbiyaga oliSh to‘g‘risidagi keliShuv (195-modda) belgilangan. Shu o‘rinda fuqarolar tomonidan oilaviy munosabatlarni Shartnoma orqali tartibga soliSh usulidan deyarli oz foydalanilayotganligini, Shuningdek, bu borada qonunchilikda ham bir qator o‘zgariShlarni amalga oShiriSh lozimligini ta’kidlaSh o‘rinli. Misol uchun, nikoh Shartnomasi bilan faqat mulkiy munosabatlar tartibga solinadi. Mazkur Shartnomani tuziSh imkoniyatlarini kengaytiriSh maqsadida u orqali Shartnomaviy munosabatlarni ham tartibga soliSh imkoniyatini belgilaSh maqsadga muvofiq. Bunday amaliyot AQSh va Evropa davlatlarida mavjud bo‘lib, ularda er-xotin o‘rtasida nikoh Shartnomasini tuziSh holatlari ko‘plab uchraydi. AQShda (27 Shtatda qabul qilingan) “Nikohgacha va nikoh davridagi

nikoh Shartnomalari to‘g‘risida”gi Yagona qonunida Shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soliSh o‘z aksini topgan. Belorus davlatining Nikoh va oila kodeksining 13-moddasida Shaxsiy nomulkiy munosabatlar va mulkiy munosabatlarni tartibga soliShi belgilangan. Shaxsiy nomulkiy munosabatlarni kiritiSh, Shartnoma taraflariga oilaviy munosabatlarni Shartnoma orqali tartibga soliShda erkinlikni yaratadi.[1] Respublikamizda nikoh Shartnomasining aksariyati avtomobil va ko‘chmas mulk oldi-sotdi Shartnomasi bilan Shug‘ullanuvchilar o‘rtasida keng tarqalgan. Notarius huzuriga turmuSh o‘rtog‘ini har oldi-sotdi Shartnomasini tuziSh jarayoniga olib kelmaslik maqsadida nikoh Shartnomasini tuzib oliSh holatlari ko‘p uchraydi. Odatda nikohlanuvchilar (er-xotin) o‘rtasida bunday keliShuv kam uchraydi. Bunday keliShuv mavjud bo‘lmaganda, nikoh tugatilganda taraflar o‘rtasida nikohda orttirilgan mulkni adolatli taqsimlaSh o‘zaro keliShuvga eriShilmaganda sud orqali hal etiladi. Sud nikohdan ajratiSh iShini ko‘rganda er-xotinning mulkini bo‘liSh masalasini ham umumiy asoslarda ko‘rib chiqadi. Agar er-xotin o‘rtasida bu masala yuzasidan keliShuv bo‘lsa sudga taqdim etadi. Nikohdan ajratiSh to‘g‘risidagi da’vo bilan bir vaqtda er-xotin o‘rtasidagi umumiy mulkni bo‘liSh to‘g‘risidagi nizoni ko‘riShda, sudlar bunday nizo uchinchi Shaxslar huquqlariga daxl qiliSh-qilmasligini aniqlaShlari lozim.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 47-moddasiga binoan nikoh FHDYo organida nikohdan ajratiSh qayd etilgan kundan boShlab tugatiladi. Bunda FHDYo organi sud qarori asosida er-xotinlardan birining Markaz orqali bergan so‘rovnomasiga binoan nikohdan ajratiSh to‘g‘risidagi dalolatnoma yozuvini qayd etadi va nikohdan ajratiSh to‘g‘risidagi guvohnomani beradi. Bunda nikohdan ajratiShni qayd etiShgacha FHDYo organi er yoki xotindan birining nikohdan ajratilganlik fakti rasmiylaShtirilganligini «FHDYoning yagona elektron arxivi» axborot tizimi orqali tekShiradi. Agar nikohdan ajratiSh FHDYo organida tomonlardan birining arizasiga ko‘ra qayd etilgan bo‘lsa, u holda dalolatnoma yozuvi ikkinchi tomon to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi va nikohdan ajratganlik to‘g‘risida guvohnoma beriladi. Nikohdan ajralganlik to‘g‘risidagi dalolatnoma yozuvini qayd etiSh, nikohdan ajralganlik to‘g‘risidagi dalolatnomadagi yozuvlarga qo‘Shimchalar kiritiSh va nikohdan ajralganlik to‘g‘risidagi guvohnomani beriSh, Shuningdek tomonlardan birining iShonchnoma asosida harakat qiluvchi vakilning so‘rovnomasi bo‘yicha ham amalga oShiriliShi mumkin.[2]

Xorijiy mamlakatlar oila qonunchiligini o‘rganiSh Shuni ko‘rsatadiki, uShbu mamlakatlarda oilaviy-huquqiy Shartnomalar er va xotin orasidagi ham mulkiy, ham Shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soliSh imkoniyatini beradi. Xususan, 2001 yil 16 fevraldagi “Ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolik Sherik to‘g‘risida”gi Germaniya Federal qonuniga ko‘ra, “ro‘yxatdan o‘tkaziliShi

kerak bo‘lgan nikoh va oilaviy munosabatlar Shartnomadan kelib chiqiShi mumkinligi belgilangan. Germaniya Fuqarolik Kodeksining 1409–1563-normalari bilan tartibga solinadi. 1955 yilda London Oliy sudi tomonidan qabul qilingan sud presedentida ham: “er va xotin tomonidan birgalikda ularning bolalarga g‘amxo‘rlik qiliSh va ular bilan muloqot qiliSh, Shu jumladan, farzandga ism qo‘yiSh bilan bog‘liq bo‘lgan va boShqa har qanday masala bo‘yicha tuziliShi mumkin”, deb qayd etilgan.[3] Shu o‘rinda muallifning fikri bilan qo‘Shilmaslikka, Oila kodeksiga «Nikoh Shartnomasi»ni kiritiShda xalqimizning tarixiy va milliy an’analari (mentaliteti)dan kelib chiqqan xolda ya’ni faqat mulkiy munosabatlarnigina qamrab oliniShi belgilangan. Balkim vaqt o‘tiShi bilan oilada vazifalarning taqsimoti belgilaniShi ajrimlarning kamayiShiga olib keliShi mumkin degan xulosaga kelingandir. Nazarimizda, Shaxsiy nomulkiy huquqlarning kiritiliShiga ruxsat beriliShi oila quriShdagi asl maqsadning yo‘qolishi, o‘zaro iShonchning sustlaShiShiga olib keliShi mumkin. Oila Shunday maskanki unda oila a’zolari o‘z vazifalarini keliShilgan xolda belgilaShlari kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 47-moddasiga muvofiq, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etiSh organida nikohdan ajratilganlik ro‘yxatga olingan kundan boShlab tugatiladi. RR-2547-FHDYo yo‘riqnomaning 82-bandida FHDYo organlarida nikohdan ajraliShni qayd etiSh bo‘yicha ikkita ro‘yxatga oliSh elektron daftari yuritiladi deb belgilangan. 97-bandida, barcha holatlarda nikohdan ajraliShni qayd etgan FHDYo organi tomonidan nikoh tuzilganligini qayd etgan FHDYo organiga va tegiShli FHDYo arxiviga bu haqda ikki iSh kuni ichida elektron axborot tizimi orqali xabarnoma yuboriladi, dalolatnoma yozuvi bir nusxada qayd etilgan holatlar bundan mustasno. UShbu xabarnoma asosida FHDYo organi va FHDYo arxivi tomonidan nikoh tuzilganligi haqidagi dalolatnoma yozuviga belgi kiritiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, er-xotinning ajrimi qayd etilganligini guvohnomasi bor yoki yo‘qligidan emas, balki ularning nikohdan ajralganligi FHDYo bo‘limida registrasiya qilinganligidan hisoblanadi. Xulosa qilib, er yoki xotin nikohdan ajralganlikni FHDYo bo‘limida qayd ettirib, dalolatnoma yozuvini ro‘yxatga oldirgan bo‘lsa, bu nikoh o‘Sha kuni tugatilgan hisoblanadi va undan keyin olingan mol-mulklarni alohida o‘zining mulki sifatida tasarruf etiSh mumkin bo‘ladi. Amaliyotda nikohdan ajratiSh to‘g‘risidagi sudning qarorini olib FHDYodan o‘tkazmay kelsa va bu orada mulk xarid qilinsa, uShbu mulk sobiq er-xotinlarning mulki bo‘lib qoladi. Sobiq er yoki xotin mulkni tasarruf eta olmaydi. Notarius ikkinchi tarafning roziligini talab etadi. Orada sarsongarchilik yuzaga keladi. To‘g‘ri qonunda o‘z mulki deb e’tirof etiSh imkoniyatini sud orqali isbotlaSh imkoniyatini beradi. Lekin bu orada qo‘Shimcha noqulaylikni yuzaga keltiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 20.07.2011 yil 06 sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratiShga

oid iShlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llaSh amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 32-bandida OKning 47-moddasiga muvofiq, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etiSh organida nikohdan ajratilagnalik ro‘yxatga olingan kundan boShlab tugatiladi. Mazkur qoida nikoh tugatiliShi payti qonunga ko‘ra sudning hal qiluv qarori kuchga kirgan paytdan boShlaniShi tan olingan (1998 yil 30 apreldan 2010 yil 15 sentyabrgacha) davrga nisbatan tatbiq etilmaydi. Umumiy mol-mulkni bo‘liShda sud er va xotinning har biriga mulkning qaysi qismi beriliShi lozimligini aniqlaydi. Er (xotin)ga unga qaraShli uluShdan oShiq qiymatga ega bo‘lgan mol-mulk beriladigan hollarda, xotin (er)ga tegiShli pul yoki o‘zga kompensasiya belgilaniShi mumkin.

Oilaviy munosabatlar tugatilganda, sud er va xotin alohida yaShagan davrda orttirgan mol-mulkni ulardan har birining o‘z mulki deb topiShi mumkin. Er va xotinning umumiy mol-mulki ular nikohda turgan davrda bo‘lingan taqdirda, er va xotin mol-mulkining bo‘linmay qolgan qismi, Shuningdek er va xotin tomonidan ular nikohda turgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birgalikdagi umumiy mulkini taShkil qiladi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo‘liSh to‘g‘risidagi talablariga nisbatan uch yillik da’vo muddati qo‘llaniladi (OKning 27-moddasi). FKning 150-moddasiga muvofiq, uch yillik da’vo muddati belgilangan.

Xulosa o‘rnida er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga soliSh doim bahs-muzokaralarga sabab bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 01.09.1998
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 01.03.1997
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 20.07.2011 yil 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratiShga oid iShlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llaSh amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori.
5. X.X.Saydivalieva. Oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni tartibga soliSh masalalari. O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. Obzor zakonodatelstva Uzbekistana. Uzbek Law Review. UDK 347.61; 347.440.82 akbarova1982@inbox.ru
6. F. Muxitdinova, M. Xamidova, O‘. Islomov. Yangi O‘zbekistonda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlaSh hamda huquqiy xizmat. 6–TOM 2 –ON/2023-YIL /15 - FEVRALwww.bestpublication. 544 b.
7. Saydivaliyeva X.X. Oilaviy-huquqiy Shartnoma oilaviy munosabatlarni tartibga soliSh vositasi sifatida // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawer herald. No 6 (2022) B. 36-41.

JAMIYAT XAVFSILIGINI TA’MINLASHDA, “INSON, JAMIYAT VA DAVLAT” TAMOYILINING KONSTITUTSIYAVIY – HUQUQIY ASOSLARI

Haydarov A.U.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Ijtimoiy – gumanitar fanlar” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, mayor.

Mamlakatimizda 2017-2021 yillar davomida “O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlariga asoslangan harakatlar strategiyasi”[1] asosida islohotlarning barcha yo‘nalishlarida keng ko‘lamli amaliy ishlar amalga oshirilda. Ushbu yillar davomida barcha sohalardagi qonunchilik asoslari takomillashtirildi. “Harakalar strategiyasi” asosda turli sohalarga doir to‘rt yuzga yaqin qonun va uch mingdan ortiq qonun osti hujjatlari qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”[2] qabul qilinib, islohotlarning yettita yo‘nalishiga qaratilgan 100 ta maqsad belgilandi. Mamlakatimizda 2023-yil Yangilangan Konstitutsiya xzalqimiz muhokamasidan o‘tib tasdiqlandi. 2023-yil 9-iyul kuni Prezidentlik saylovlari barcha saylov qonunchiligi talablari asosida o‘tib, xalqimizning yana bir karra demokratik, huquqiy islohotlarga hayrihohligini tasdiqladi.

2023-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №158-son Farmoni[3] bilan xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Ta’kidlash joizki, xavfsizlikni ta’minlash barcha davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik, jamoat tuzilmalari, shuningdek fuqarolar bilan munosabatlari hamda ijtimoiy faoliyatning natijasi sifatida ularning xatti-harakatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Siyosiy tizim (davlat, jamoat birlashmalari) jamoat tartibini shakllantiradi, ijtimoiy xatti-harakatlar qoidalarini o‘rnatish, ularning ijrolari va ularga rioya etilishini ta’minlash orqali ijtimoiy munosabatlarga faol ta’sir ko‘rsatadi[4].

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi 2017-yil 8-fevral. № 28 (6722)-son.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”., // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2022-yil 1-fevral. №-544. – B. 1-3.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni. №-158-son. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-togrisida_519158

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bir qator demokratik qarashlar va yondashuvlarga tayangan holda, o‘z faoliyatini quyidagi ustuvor **tamoyillar** asosida tashkil etgani va olib borayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Milliy gvardiya faoliyatining asosiy tamoyillari qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etish, yagonalik, mustaqillikdan iboratdir.

Prinsiplar nafaqat bitta fan yoki soha, balki butun mamlakatda amalda bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini belgilashda, mamlakat istiqboli yo‘lida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda rahbariy ko‘rsatmalar vazifasini o‘taydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa jamoat xavsizligini tam’minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 noyabr 2021 yildagi PF-27-sonli O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida[1] Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek Respublika hududida fuqarolarimizni tinchligini va xavsizligini ta’minlash, huquqiy yordam berish, ularning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini taminlash shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashish va xuquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy va vazifalari hisoblanadi. Amaliyot tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda Milliy gvardiyaiga biriktirilgan ma’muriy hududlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligiga tahdid hamda tajovuzlar sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta’minlash maqsadida aniq belgilangan yo‘nalishlarda faoliyat olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Milliy gvardiyaining xizmat hududida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Jamaot xavfsizligi” konsepsiyasida belgilangan quyidagi ko‘rsatilgan o‘nta yo‘nalishlarda amalga oshiradi.

Birinchi yo‘nalish: jamiyatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta’minlash, shu jumladan bunday tajovuzlarning barvaqt oldini olish, ularning asosiy omillarini aniqlash va bartaraf etish; a) mamuriy xududda joylashgan qurib bitkazilmagan, qarovsiz va nazoratsiz qoldirilgan qurilish obektlarini muntazam nazoratga olish. Chunki bunday hudud va binolar aniq yashash joyiga ega bo‘lmagan, muqaddam sudlangan, spirtli ichimliklarni iste’mol qilishga ruju qo‘ygan, giyohvanlik vositalari va psixitrom moddalarni is’temol qiluvchi shaxslar, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar to‘planishiga qulay sharoit bo‘lib xizmat qiladi. b) amaliyotgan bunday joylar nazoratsiz qolgan vaqtlarda jamoat joyida spirtli ichimlik iste’mol qilish(MJtK 187-m.)[2], nomusga tegish(JK 118-m.), bezorilik, bosqinchilik (O‘z.Res.JKning 164-moddasi) va talochilik

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son https://lex.uz-/uz/docs/5749291.
[2] O‘z.Res.Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun. https://lex.uz/acts/97664

(O‘z.Res.JKning 165-modda)[1]larida ko‘rsatilib o‘tilgan normalari buzilishiga va mazkur belgilab o‘tilgan xatt-xarakatlar sodir etilishiga olib keladi.

Ikkinchi yo‘nalish: ijtimoiy va millatlararo nizolarning profilaktikasini amalga oshirish; a) profilaktika inspektoriga biriktirilgan ma’muriy xududida yashovchi turli millat va elatlarning tilli, dini, irqi va itiqodidan qa’tiy nazar barcha shaxslarni xavfsizligini va qonuniy manfaatlarini ta’minlash xamda ularni bir biridan ajratmaslik; b) mazkur toifadagi shaxslar tomonidan kelib chiqadigan nizolarning asosiy manbayi itiqodi va qonunlar haqida tushunchaga ega bo‘lmaganligi sabab bo‘lib kelinayotganligi xamda ularga O‘zbekiston Respulikasida amal qilayotgan qonunlarning qa’tiyligini tushuntirish kerakligi va qonunlarga itoatkorlik ruxida tarbiyalash maqsadida yakka tartibdagi profilaktika chora tadbirlarini amalga oshirilish kerak;

Uchinchi yo‘nalish: har qanday ko‘rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek qo‘yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o‘q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish; a) profilaktika inspektori tomonidan xizmat xududida yashovchi diniy etiqodiga juda chuqur kirib ketgan fuqarolarni aniqlash shuningdek uzoq muddatga chet elga ketgan va qaytib kelgan shaxslarni ruyxatini yuritilib, tegishli sohaviy xizmat xodimlari bilan xamkorlikdan ular bilan yakka tartibdagi profilaktika choratadbirlarini amalshga oshirish, shuningdek, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklar qurboni bo‘lib qolishlariga qarshi kurashish maqsadida Ommaviy axborot vosilari bilan xamkorlikni o‘rnatish va tarbiyaviy ahamiyatga oida videoroliklar namoyish etish; s) korrupsiya muxitini va ushbu ellatga moyilligi mavjud shaxslarni shuningdek tamagirlik va poroxo‘rlik jinoyatlari xaqida ma’lumotlarga ega bo‘lgan taqdirda, zudlik bilan xabar berish va fuqarolarga shu kabi jinoyatlar qurboni bo‘lib qolinishi oldini olish yuzasidan umumiy tartibdagi profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish zurur; xodimlarning korrupsiya, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, jinoyatlarni qasddan yashirish va boshqa salbiy holatlar sodir etishining oldini olinishi xaqida xam O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 21 oktabrdagi 400-son buyrug‘ida ko‘rsatilib quyilgan[2]; e) giyoxvandlik va psixotrop moddalar bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni aniqlash va bartaraf etish jarayonida profilaktika inspektori Norgalogiya despanseri ruyxatida turuvchi shaxslarni yig‘ma jildlarini shakllantiriladilar va “xonadonbay” uyma-uy yurib, posport rejimini maqsadli olib borish vaqtida fuqarolarning yashash joylari, xovlilari va ularga tegishli bo‘lgan yerlarni umumiy ko‘zdan kechirish jarayonida noqonuniy ekilgan va saqlangan giyoxvandlik moddalarini aniqlaydilar va tegishli xujjatlarni rasmiylashtiradilar; k) mavsumiy fasllarda ayniqsa “Yangi yil” bayramlarida bozorlarga bir gurux shasxlar tomonidan noqonuniy tartibda Davlatimiz xududiga aylanma yo‘llar orqali qurol-yarog‘, o‘q-dori, portlovchi moddalarni va

[1] O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonun. https://lex.uz/acts/111453

[2] Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida nizom. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 21 oktabrdagi 400-son buyrug‘i.

pirotexnika vositalari olib kelinishi va buning oqibatida fuqarolar tomonidan noto‘g‘ri qullanilishi oqibatida sog‘lig‘iga, xayotiga va jamaot xavfsiziliga zarar yetishli mumkinligini, shuningdek Milliy gvardiyai tomonidan mazkur qonunbuzarliklarni profilaktikasini amalga oshirishda nazorat letsenziya chora-tadbirlarini amalga oshirilishi; noqonuniy vositalar yurtimizga kirib kelinishini oldini olish maqsadida bozor xududlariga qo‘shimcha kuch vositalarni o‘rnatish choralarini ko‘rish va Bojxona qo‘mitasi bilan xamkorlikni doimiy tarzda o‘rnatish.

To‘rtinchi yo‘nalish: ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan turizm ob’ektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash; madaniy meros bo‘lib kelayotgan shuningdek Yunesko tashkiloti tomonidan ruyxatga olingan madaniy meros xisoblangan turizm ob’ektlarni shuningdek chet-eldan kelgan fuqarolarning xavsizligini uzluksiz ta’minlash maqsadida, tunu-kun navbat joriy etilib, potrul yo‘nalishlarini sohaviy xizmat xodimlari bilan ta’minlash; fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida iski va yaroqsiz xolga kelib qolgan madaniy meros hisoblangan binolar xaqida zudlik bilan tegishli organlarga xabar berish va fuqarolarni mazkur xududlarga yaqinlashtirmaslik; profilaktika inspektori tomonidan tmazkur xududda yashovchi fuqarolar tomonidan jinoyat sodir etilishini oldini olish maqsadida jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash va ruyxatini yurish, shuningdek ularni doimiy nazoratga olish.

Beshinchi yo‘nalish: transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo‘l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o‘lim bilan bog‘liq holatlarning oldini olish;

a) fuqarolar o‘ziga tegishli bo‘lgan avtotrransport vositalari ertlabki soat 08:00dan 09:00 ga qadar va kechki 18:00dan 21:00 ga qadar yo‘llarda uzun tirbandliklar mavjud bo‘lishiga sabab yuo‘lmoqda. Shuningdek buning oqibatida yo‘l avtotrransport xodisalari sodir bo‘lmoqda. Ko‘ngilsizliklarning asosiy sabablarini quyidagida keltirib o‘tamiz: svetaforlarning yaroqsiz holga kelishligi; avtotransport vositalarining kupayib ketganligi; xaydovchilar yo‘l qoidasiga amal qilmaslik va qonunlarni mensimaslik; xaydovchilik guvoxnomasini olishda korrupsiya xolatlari mavjudligi; yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha yetarlicha bilimlarning yo‘qligi; avtotransport vositasini xaydashda sabrsizlikka yo‘l quyish; qonunlarga itoatkorlik ruxida mavjud emasligi va jazo choralarining yuqori emasligi va x.k;) profilaktika isnektori o‘ziga biriktirilgan ma’muriy xududida yo‘l transport xodisasi profilaktikasini quyidagicha amalga oshiradi: piyodalar uchun o‘tish belgisi ob-xavo sharoitda o‘chib ketganligini aniqlaydi va o‘rnini buyab quyish maqsadida tegishli xokimyat organlariga xabar beradi; maktabdar, bog‘chalar va boshqa joylarda fuqarolar serqatnov joylarida qo‘shimcha svetaforlar o‘rnatish bo‘yicha takliflar beradi; yo‘llar yoqasiga belgilanmagan joyga noqonuniy tarzda avtoulovni quyib ketgan xaydovchilarni aniqlaydilar va vakolati doirasida qonuniy chora ko‘radilar xamda yo‘llarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan tirbandliklarni bartaraf qiladilar.

Oltinchi yo‘nalish: jinoyat sodir etishga moyil, ma’muriy va probatsiya nazoratiga olingan hamda yot bo‘lgan g‘oyalar ta’siriga tushib adashgan shaxslarning ijtimoiylashuvi, shu jumladan ularni kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikka keng

jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik: a) profilaktika inspektori jazoni ijro etish muassasalaridan bushatilganlarni, muqaddam sudlanganlarni, probatsiya xizmati ruyxatida turuvchi (ozodlikdan cheklash va axloq tuzatish ishlariga jalb qilingan) shaxslarni normal muxitga va jamiyatga moslashuvini ta’minlash maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshiradilar; profilaktika xisobda turuvchi va ma’muriy va probatsiya nazoratiga olingan va ushbu ruyxatlarida turuvchi shaxslarni bandligini ta’minlash maqsadida xududiylik bandlikka kumaklashish markazilari xodimlari bilan xamkorlik o‘rnatadilar va bo‘sh ish o‘rinlari xaqida ma’lumotlar; “xavfsiz mahalla va xavfsiz xonadon” dasturidan kelib chiqqan xolda Milliy gvardiyai jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlaydilar va ularning kelgusida g‘ayri ijtimoyi xatti-xarakat sodir etishlarini oldini olish maqsadida ular bilan yakka tartibda profilaktika suxbatlari olib borilishi shuningdek kasb-hunarga, o‘qitishga va biron bir tadbirkorlik faoliyat yuritishi xamda o‘zini o‘zi band qilish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi xaqida xuquqiy maslaxatlar berilishi zarur.

Yettitinchi yo‘nalish: aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda aholining ko‘nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish; Milliy gvardiyai ularga xamkorlik sifatida biriktirilgan kuch va vositalar yordamida fuqarolarga tajovuz va taxdidlar bo‘lishligini oldini olish maqsadida mamuriy hududida yorug‘lik bilan ta’minlanmagan joylarni, yangi qurilish ketayotgan obektlari atrofini, fuqarolar kam qatnaydigan tor kucha yo‘llarini, krimenogin vaziyat va jinoyat ko‘p sodir bo‘ladigan va bo‘lishi kutilayotgan xududlarda, jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar yig‘iladigan joylarda hamda qizil xudud etib belgilangan xududlarda muntazam ravishda potrullik qilishligi va nazoratga olish shartligi; ma’muriy hududni ko‘zdan kechirish jarayonida fuqarolar yordamida yong‘in kelib chiqishi mumkin bo‘lgan elektr tarmoqlari, yaroqsiz suv quvurlarini va shu kabi tabiy va texnogen vaziyatlarni aniqlaydilar xamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘radilar.

Sakkizinchi yo‘nalish: voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish; a) profilaktika inspektori o‘ziga biriktirilgan xududda joylashgan ta’lim muassasalarida trrorizm va ekstremistik faoliyatining maqsadi va vazifalari yuzasidan ushbu soha bo‘yicha diniy bilimga ega bo‘lgan din vakillari va o‘qituvchilar tomonidan xamkorlikda o‘quvchilarga ongiga sof islom dini xaqida din xaqida tushunchaga ega bo‘lmagan, aldanib ketishga moyish bo‘lishi kutilayotgan voyaga yetmagan shaxslarga maruzalar va tushuntirish ishlarini olib borishni tashkillashtirish; profilaktika inspektori eng avvalam bor o‘ziga biriktirilgan xizmat xududida yashovchi “Yoshlar daftari”ga kirgan fuqarolar bilan ishlash zarurligi va maktab o‘quvchilari bilan doimiy tarzda davomad, tig‘, o‘smir va diqqat piyoda maxsus profilaktika tabbirlarini doimiy tarzda olib borishi va ularga vatanga xizmat oliy burch ekanligini, tashqi va ichki yod g‘oyalarga ergashmaslik kerakligi xamda

ularning huquqiy oqibatlari xaqida umimiy profilaktika tushuntirish ishlarini olib borishlari zurur.

To‘qqizinchi yo‘nalish: jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish; qo‘shimcha kuch va vositalar yani Post-potrul xizmati va Milliy gvardiya xodimlari bilan Milliy gvardiyai xamkorlikda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida doimiy aloqada bo‘lgan xolda aniqlangan barcha malumotlarni ratsiya aloqasi orqali navbatchilik qismiga va o‘z raxbarlarini muntazam ravishda xabardor qilib turadi; mamuriy xududda fuqarolarni xavsizligiga taxdid va tajovuzlar asosan yolg‘iz ayollarga, voyaga yetmaganlarga, nogironlarga, qariyalarga, jismonan ojiz fuqarolarga, viktimlik xolati yuqori bo‘lgan shaxslarga, xuquqiy madaniyati past darajadagi insonlarga va boshqa bir qancha shu toifadagi fuqarolarga nisbatan taxdid va tajovuzlar qiyinchiliksiz bilan amalga oshiriladi; shuningdek jamoat joylari shubxali ko‘ringan shaxslarni profilaktika inspektori o‘ziga biriktirilgan planshet yordamida shaxsiga oydinlik kiritadi va qidiruvda bor yoki yo‘qligi xaqida ma’lumot oladi xamda yakka tartibda profilaktika ishlari olib borilishi zarur.

O‘ninchi yo‘nalish: jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’minlash, tezkorligini oshirish, moddiytexnik ta’minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 noyabr 2021 yildagi PF-27-sonli O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida[1] Farmoni alohida belgilab berilgan. qabul qilingan qarorlar ijrosini taminlash maqsadida nizomlar ishlab chiqilganligini shuningdek jamoat xavsiziligin tartibini saqlash va fuqarolar xavsizligini taminlash maqsadida Milliy gvardiya, Yo‘l harakat xavsizligini xodimlari, Post-potrul xodimlari va Milliy gvardiya xodimlari bilan xamkorlikda xuquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida doimiy aloqada bo‘ladilar va xizmatga chiqish oldi ularga yangi qabul qilingan normati-huquqiy xujjatlar ma’no mazmuni xaqida tegishli ko‘rsatmalar berib kelinishi, shuningdek ularga o‘zlarini va fuqarolarning xafvsizligini ta’minlash maqsadida moddiy-texnik ta’minotini ya’ni tasir chorasi sifatida zamonaviy texnika vositalari, planshetlar, qurol-yarog‘, qo‘l kishani, dubinka va avtotransport vositalari bilan ta’minlandilar.

Yuqoridagilarni inobatga olib **xulosa** qiladigan bo‘lsak, Milliy gvardiya xizmat faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga asosangan holda, shuningdek ularga xizmat majburiyatlarini bajarish uchun biriktirilgan ma’muriy hududning xususiyatlarini hisobga olgan holda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligiga tahdid hamda tajovuzlarni keltirib chiqaruvchi manbalarni aniqlash hamda ularning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son https://lex.uz/uz/docs/5749291

KONSTITUTSIYA – VOYAGA ETMAGANLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINING HUQUQIY KAFOLATI

Mirzatillayev U.I.
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti etakchi ilmiy xodimi, Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

O‘zbekistonda bolalar va yoShlarga ko‘rsatilayotgan tizimli g‘amxo‘rlik, hurmat va mehr, Shuningdek o‘sib kelayotgan avlodning ravnaqiga, kamol topiShiga qaratilayotgan alohida e’tibor bolalar va yoShlar masalalarining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Voyaga etmaganlar jamiyatning eng nozik va muhim qatlami hisoblanadi. Ularning huquq va erkinliklarini himoya qiliSh davlatning muhim vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari voyaga etmaganlarning huquqiy himoyasini ta’minlaShda muhim asos hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoShlar” deb nomlangan XIV bobiga oilani, onalik, otalik va bolalikni davlat tomonidan muhofaza qiliShni, Shuningdek ular huquqlarining kafolatlarini ta’minlaShga qaratilgan mutlaqo yangi normalar kiritildi. Xususan:

– davlat oilaning to‘laqonli rivojlaniShi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boShqa Shart-Sharoitlar yaratadi;

– ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi Shaxslar o‘z farzandlarini voyaga etguniga qadar boqiShi, ularning tarbiyasi, ta’lim oliShi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topiShi xususida g‘amxo‘rlik qiliShga majburdirlar;

– davlat va jamiyat etim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqiShni, tarbiyalaShni, ularning ta’lim oliShini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topiShini ta’minlaydi, Shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi;

– bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlaSh hamda himoya qiliSh, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlaniShi uchun eng yaxShi Shart-Sharoitlarni yaratiSh davlatning majburiyatidir;

– davlat va jamiyat bolalarda hamda yoShlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy

merosidan faxrlaniShni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini ShakllantiriSh to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi;

– davlat yoShlarning Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qiliniShini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol iShtirok etiShini rag‘batlantiradi;

– davlat yoShlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan ShakllaniShi hamda rivojlaniShi uchun, ularning ta’lim oliShga, sog‘lig‘ini saqlaShga, uy-joyga, iShga joylaShiShga, bandlik va dam oliShga bo‘lgan huquqlarini amalga oShiriSh uchun Shart-Sharoitlar yaratadi[1] degan qoidalarning mustahkamlab qo‘yilganligi jamiyatda noqobil va muammoli oilalarning, Shuningdek ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan bolalar ShakllaniShining barvaqt oldini oliSh, ularni taqozo etuvchi omillarni esa bartaraf etiSh imkonini beradi.

O‘zbekistonda bola huquqlarining kafolatlarini amalda ta’minlaSh mexanizmlarini takomillaShtiriSh, sohaga ilg‘or tajribalarni joriy etiSh maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: 2019 yil 22 apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytiriShga oid qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4296-son; 2020 yil 29 maydagi “Bola huquqlarini himoya qiliSh tizimini takomillaShtiriSh bo‘yicha qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4736-son; 2021 yil 9 avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlaSh tizimini yanada takomillaShtiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining[2] ijroga kiritiliShi natijasida bolalar, Shu jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarini himoya qiliSh, Shuningdek jamiyatda voyaga etmaganlar orasida jinoyatlar sodir etiliShini barvaqt oldini oliSh bo‘yicha milliy tizimi Shakllandi.

Bundan taShqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining:

– 2018 yil 2 iyulidagi “Ijtimoiy reabilitasiya qiliSh va moslaShtiriSh, Shuningdek, oilaviy-maiShiy zo‘rlik iShlatiShning oldini oliSh tizimini takomillaShtiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3827-son farmoni;

– 2019 yil 29 maydagi “IxtisoslaShtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillaShtiriSh to‘g‘risida”gi PF-4342-son farmoni;

[1]O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/6445145.

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: 2019 yil 22 apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4296-son qarori // https://lex.uz/docs/4302023; 2020 yil 29 maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4736-son qarori // https://lex.uz/ docs/4831107; 2021 yil 9 avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori https://lex.uz/docs/5570490#5580399.

– 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlaSh va jinoyatchilikka qarShi kuraShiSh sohasida ichki iShlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni;

– 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlaSh va uni amalga oShiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni;

– 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan iShlaSh, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlaSh tizimini takomillaShtiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-86-son farmoni;

– 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni;

– 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son farmoni;

– 2017 yil 14 martidagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarShi kuraShiSh tizimini yanada takomillaShtiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-son qarori;

– 2019 yil 11 fevraldagi “Etim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qiliShni kuchaytiriShga oid qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4185-son qarori;

– 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlaShtiriSh, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlaSh hamda oila va xotin-qizlar bilan iShlaSh tizimini yangi darajaga olib chiqiSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5938-son qarori;

– 2020 yil 11 avgustdagi “Kambag‘al va iShsiz aholini tadbirkorlikka jalb qiliSh, ularning mehnat faolligini oShiriSh va kasb-hunarga o‘qitiShga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlaShga oid qo‘Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4808-son qarori;

– 2023 yil 28 sentyabrdagi “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatiSh tizimini yanada takomillaShtiriSh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-319-son qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko‘rsatilgan qonunchilik hujjatlarining ijrosi bo‘yicha qabul qilgan tegiShli normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan zamonaviy mexanizm va tartiblar hamda kompleks chora-tadbirlar jamiyatda huquqbuzarliklar, Shu jumladan jinoyatlarning barvaqt oldini oliSh bo‘yicha Shakllangan mutlaq yangi milliy

tizimning oilalarda, ta’lim muassasalarida va mahallalarda noqobil va muammoli oilalar bilan iShlaSh sohasidagi imkoniyatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqiShga xizmat qilmoqda.

Mazkur qaror hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Milliy gvardiyasining 2024 yil 26 fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni ta’limga jalb etiSh, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaSh, qonunbuzarliklarning oldini oliSh, psixologik qo‘llab-quvvatlaSh hamda xavfsizlikni ta’minlaSh yuzasidan hamkorlik qiliSh to‘g‘risida”gi 4/5-son qaroriga muvofiq, respublika umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining katta inspektor-psixologlari va inspektor-psixologlari faoliyat ko‘rsatiShining taShkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

Inspektor-psixologlar jinoyat sodir etgan voyaga etmaganlarga xos bo‘lgan antisosial (jamiyatga zid) xulq-atvorning kelib chiqiShining barvaqt oldini oliShga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oShiriSh bo‘yicha maktablarda asosiy subyekt hisoblanadi.

Bularning barchasi inspektor-psixologlarning mazkur masalalarda yuqori malakali bo‘liShini talab qiladi, bu ularning kasbiy kompetensiyalarini va mahoratini oShiriSh uchun ilmiy-asoslangan nazariy yondaShuvlarni va amaliy tavsiyalarni iShlab chiqiShni taqozo etadi.

Inspektor-psixologlarning voyaga etmaganlar orasida jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasini ta’minlaSh maqsadida ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalar bilan iShlaSh, xususan ularga nisbatan ijtimoiy moslaShuv va kompleks tarbiyaviy-profilaktik ta’sir choralarini samarali amalga oShiriSh uchun quyidagilarga alohida e’tibor beriShni taqozo qiladi:

birinchidan, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning bugungi ahvoli tahlili va o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qiliSh;

ikkinchidan, ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalar ShakllaniShini taqozo etuvchi omillarni o‘rganiSh va ularni bartaraf etiSh choralarini iShlab chiqiSh;

uchinchidan, mahallalarda ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalar bilan “Fuqarobay”, “Oilabay” va “Mahallabay” iShlaSh mexanizmlarini iShlab chiqiSh;

to‘rtinchidan, mahallalarda “Obod va xavfsiz mahalla” va “Xavfsiz ta’lim” tamoyillari asosida ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘lgan voyaga etmaganlar

va oilalar bilan iShlaSh bo‘yicha inspektor-psixologlarning funksional majburiyatlarini amalga oShiriSh mexanizmlarini iShlab chiqiSh;

beShinchidan, respublika ixtisoslaShgan o‘quv-tarbiya muassasalari va tarbiya koloniyasidan qaytgan voyaga etmaganlar bilan ijtimoiy moslaShuv va profilaktik chora-tadbirlarni inspektor-psixologlar tomonidan amalga oShiriSh hamda bu borada hamkorlik mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yiSh;

oltinchidan, jamiyatda ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalar ShakllaniShining barvaqt oldini oliShga, Shuningdek ularga nisbatan kompleks ijtimoiy moslaShuv hamda tarbiyaviy-profilaktik ta’sir ko‘rsatiShning mexanizmlarini hamkorlikda maqsadli ta’minlaSh haqida ilmiy asoslangan bilimlarni ShakllantiriSh.

Shunday qilib, ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘lgan voyaga etmaganlar va oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy moslaShuv hamda tarbiyaviy-profilaktik iShlar tizimini optimallaShtiriSh, uni yangi sifat darajasiga ko‘tariSh, inspektor psixologlarning bu boradagi faoliyatini oila, ta’lim muassasalari va o‘zini o‘zi boShqariSh organlari bilan o‘zaro hamkorlik va ijtimoiy Sherikchilik asosida ta’minlaSh muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda voyaga etmaganlar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati ularning to‘liq rivojlaniShi va jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘liShi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

IQTISODIY RIVOJLANISHLARNING KONSTITUTSIYAVIY - HUQUQIY ASOSLARI

Abdurasulov A.A.
JXU UTva OS kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent.

O‘zbekiston bugungi kunda o‘zi tanlagan taraqqiyot yo‘lini jadal rivojlantirish maqsadida dadil qadamlar tashlamoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-huquqiy islohotlarning amaliy ifodasi o‘laroq, Asosiy qonunimiz bo‘lgan konstitutsiyamizning yangi tahriri qabul qilindi. Bu shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy islohotlar erishilayotgan taraqqiyot natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun juda muhimdir, ya’ni, adolatli jamiyat va ijtimoiy-huquqiy davlat qurish yo‘lidagi ulkan qadamlardir.

Konstitutsiya har bir taraqqiy etgan davlatning negizi bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjati – mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi.

Fuqarolarning barcha orzu-niyatlari, kafolatlangan huquqlari va hayotdagi oliy maqsadlari Konstitutsiyada to‘liq o‘zining ifodasini topmog‘i lozimdir.

Yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyamizga qadar ham fuqarolarimizning asosiy huquq va erkinliklari va mustaqil demokratik davlatimiznig mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilib kelgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida inson qadrini ulug‘laydigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli islohotlar, bosqichma-bosqich yangilanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu borada boy milliy va xalqaro tajribalar to‘plandi.

Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar odamlarimizning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon jamikiy sohalarda ustuvor ekanligini davlatimizning qat’iy qoidasiga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri barcha narsadan ulug‘dir” deb atalayotgan ezgu g‘oyasini hamda bunday ulkan ishlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson-jamiyat-davlat” degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangilangan Konstitutsiyada mulkchilik munosabatlarining shakllanishi bilan bog‘liq masalalarning ochiqlanishi, xususan mulkka egalik qilish huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi va aniq belgilab qo‘yilishi xalqimizning o‘z mulkini erkin tasarruf etishdagi duch kelayotgan mavjud muammolarning qonuniy bartaraf etilishiga zamin yaratdi. Jumladan, mulkdor o‘z mulki ishonchli himoya qilishini bilsa va his qilsagina investitsiya kiritadi, tadbirkor biznesini rivojlantirishga bor imkoniyatini safarbar qiladi. Chunki, mol mulkka egalik qilish fuqarolarning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari moddiy va ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi.

Lekin yaqin tariximizda ayrim mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning uy-joylarni buzish holatlari xalqimiz tilida “snos” deb nom oldi. Mazkur holatlar inson huquqlari va erkinliklarini qo‘pol ravishda buzib, O‘zbekistonning xalqaro imidjiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bunday muammolarning mavjudligi natijasida “Huquq ustuvorligi” xalqaro reytingining “Hukumat sud qarorisiz va adolatli tovon pulisiz mulkni musodara qilmasligi” subindikatorida (2021 yil hisobotida) O‘zbekiston

maksimal 1 balldan 0.25 ball bilan 139 ta mamlakat ichida 138-o‘rinni egallagan.

Shuning uchun qonunchilikda huquqlardan foydalanish amaliyotidagi xususiy mulkni himoya qilish bilan bog‘liq mazkur muammoli vaziyatlar va bo‘shliqlarni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish va qonunchilikni takomillashtirish lozim hisoblanmoqda. Sababi, mulkiy-huquqiy munosabatlarni hamda mulkdorlar manfaatlarini samarali himoya qilish mexanizmlarini yaratmay turib, huquqiy demokratik jamiyat va barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan faoliyatni amalga oshirish mushkuldir.

Shunday ekan, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyatini himoyalash maqsadida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 65-moddasi quyidagi tahrirda qabul qilindi:

“Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas”.

Fuqarolarning mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etish mumkin emasligi bo‘yicha konstitutsiyaviy norma mulkchilik munosabatlarini huquqiy jihatdan kafolatlash, xususiy mulkning daxlsizligini kuchaytirishga katta turtki bo‘ldi.

Shak-shubhasiz, yangilanayotgan Konstitutsiyada fuqarolarning mulki bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, aholining uy-joyga bo‘lgan huquqlari daxlsizligini kafolatlash bilan bog‘liq normalarning mustahkamlanishi ham xalqimiz, ham hayot zarurati hisoblanadi.

Xususiy mulk daxlsizligi hamda undan sud qarorisiz mahrum etilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi normalar Fransiya, Germaniya, Daniya, Indoneziya, Gruziya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham aks ettirilgan.

Xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, uni turli tajovuzlardan himoya qilish, xususiy mulkni saqlash va ko‘paytirish uchun barcha zarur shart-

sharoitlarni yaratish, mulkdorlarni qo‘llab-quvvatlashning eng muhim mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatimizda xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan yoki yaratgan o‘z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta’minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy negizlaridan biri hisoblanadi.

Bundan ko‘rinadiki, mulkdor qonun doirasida o‘z mulkiga o‘zi egalik qiladi, o‘zi foydalanadi va o‘zi tasarruf etadi. Bu mulkdorning konstitutsiyaviy huquqidir. Unga tashqi tomondan taziyq o‘tkazishga, uning ichki ishlariga aralashishga, mulkini olib qo‘yishga hech kim haqli emas. Bu esa tadbirkorlarga o‘z biznesi uchun bexavotir investitsiya kiritish, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko‘paytirish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyasining 65-moddasi mamlakatimizning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini belgilab beruvchi muhim jihat hisoblanib, mulkning daxlsizligi – xususiy mulkda ham, ommaviy mulkda ham mulkdorning o‘ziga tegishli mulkni faqat o‘zining manfaatlari yo‘lida xech qanday tashqi ta’sirlarsiz foydalanishi mumkinligi bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni 2023 yil 1 may, O‘RQ-837.

2. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrdagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ni qabul qilish haqidagi 217 A (III) Rezolyutsiyasi.

3. https://yuz.uz/uz/news/referendum-nima

4. https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/27/referendum/

5. https://advice.uz/oz/document/2899

6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Referendum.

KONSTITUTSIYA - MAMLAKAT XAVFSIZLIGI VA JAMIYAT FAROVONLIGINING HUQUQIY ASOSI

Ernazarov A.A.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
UT va OS kafedrasi o‘qituvchisi, p.f.b.f.d., (PhD),

Sodiqov M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
UTva OS o‘qituvchisi.

Ma’lumki, har qanday davlatning asosiy qomusi, bosh qonuni Konstitutsiya hisoblanadi. Konstitutsiya lotincha “constitutio” so‘zidan olingan bo‘lib, “tuzilish”, “o‘rnatish” degan ma’nolarni bildiradi. Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo‘lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo‘lib unda shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari o‘rnatiladi. Davlat hokimiyatining tuzilishi, sub’ektlari, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi belgilanadi. Jamiyat, inson va fuqarolarning davlat tomonidan qo‘riqlanadigan huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

2023 yil 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida xalqimiz o‘zining yuksak siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashini namoyon etib, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadamdir.

Konstituцияda O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat эkani qat’iy belgilab qo‘yildi. Inson huquq va эrkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliяtining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida belgilandi. Bu hol davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab faoliяt ko‘rsatishiga asos bo‘ladi.

Binobarin, qonunlardagi ziddiятlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo‘lishi shart va zarur. Bunga ko‘ra, inson va davlat o‘rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi. Konstitusiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha normalar belgilandi. Xususan, Konstitusiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi. Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitusiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar belgilandi.

Ta’lim olish huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, o‘qituvchilar konstitusiyaviy maqomga ega bo‘ladi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat’iy belgilab qo‘yildi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi ham belgilandi.

Konstitusiyada davlatning o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish majburiyati qayd etildi. Oliy ta’lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqi taqdim etildi.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlandi. O‘lim jazosini taqiqlashni konstitusiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Ya’ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Bu orqali xalqaro e’tirof etilgan «Xabeas korpus» institutini qo‘llanish ko‘lami yanada kengaydi.

Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik (xalqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukut saqlash huquqi berildi.

Konstitusiya mamlakat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki u davlatning harbiy tashkilotlari, xavfsizlik organlari va ularning vazifalarini belgilaydi. Unda fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ham muhofaza qilingan bo‘lib, bu ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorligini ta’minlaydi.

Shuningdek konstitusiyaning 64-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi ekanligi, Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majbur. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilganligi, Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanishi esa 152-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun etarli darajada Qurolli Kuchlariga ega ekanligi esa 153-moddasida keltirib o‘tilgan.

Xulosa qilib aytganda, Konstitusiya mamlakatning huquqiy asosi sifatida xavfsizlikni ta’minlashda katta ahamiyatga egadir. Unda belgilangan normalar va prinsiplar davlat organlarining faoliyatini tartibga solib, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni maqsad qilgan. Yangilangan tahrirdagi konstitusiya xavfsizlik, huquqiy adolat va demokratiyani yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq va to‘g‘ri mexanizmlarni ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda Konstitusiya mamlakat xavfsizligini mustahkamlash va jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent., O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi Qonuni. №O‘RQ-458. 09.01.2018.

3. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent., O‘zbekiston, 2021.

ISTE’MOLCHI HUQUQLARI USTUNLIGIGA OID KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARINING AMALDA IFODALANISHI

Abdurasulov A.A.
JXU UTva OS kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 65-moddsida, davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlashligi qat’iy beliglab

qo‘yilgan. Oxirgi yillarda ham olib borilayotgan iiqtisodiy islohotlarning tub mohiyatida ham iste’molchilar huquqlarining ustuvorligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonida iste’molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki iste’molchi mahsulot sotib olar ekan, uning qanday sifatga ega ekanligi ushbu mahsulot xarid qilinguncha qanday sharoitda saqlanganligidan xabarsiz bo‘ladi. Bu holni faqatgina ushbu mahsulot turi sotuvchisigina biladi. Shu ma’noda iste’molchi bunday hollarda aldanib qolishi, uning iste’molchi sifatidagi huquqlari buzilishiga olib keladi. E’tirof etish lozimki, O‘zbekistonda iste’molchi huquqlarini himoya qilish borasidagi qonunchilik bazasi yaratilgan.

1996 yil 26 aprelda ―Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish 81 to‘g‘risidagi qonun qabul qilingan bo‘lib, mazkur qonun hujjati bevosita iste’molchining tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi, ijrochi, sotuvchi haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot olish, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo‘lishi, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xavfsiz bo‘lishi, hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shuningdek ishlab chiqaruvchi, ijrochi, sotuvchining g‘ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma’naviy zararning to‘liq hajmda qoplanishi, buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so‘rab, sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish, iste’molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish kabi huquq va manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan bo‘lib, mazkur jarayon mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish – bozor munosabatlari sharoitida eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iste’molchilarning huquqlari va manfaatlarini kafolatlaydigan qonunchilik bazasi yaratilganiga qaramasdan, hanuzgacha sifati past tovarlarni sotish, talabga javob bermaydigan xizmatlarni ko‘rsatish ko‘rsatish kabi holatlar uchramoqda.

Buning sabablaridan biri – iste’molchilarning o‘z huquqlarini yetarli darajada bilmasligidir. Chakana savdo sohasi aholini zarur tovar bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Chakana savdodan tovar sotib olgan fuqarolar iste’molchi maqomiga ega bo‘ladi. Iste’molchi sifatida esa fuqarolar chakana savdo sohasida bir qator huquqlarga ega bo‘ladilar. Bu holat ―iste’molchi doimo haq qoidasidan kelib chiqadi. Chunki, zaruriy tovarlar ham aynan aholi iste’moli uchun ishlab chiqariladi. Har qanday holatda ham iste’mol bozori, iste’molchi mavjud bo‘lmas ekan, tovarlar ishlab chiqarish va savdo faoliyati ham mavjud bo‘lmaydi. Shunday ekan, chakana savdo sohasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish zarurati yuzaga keladi. Zero, mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, chakana savdo 82 munosabatlarining zaif

tomonidan bu iste’molchidir. Tovar sotib olish yoki uni buyurtma qilish jarayonida iste’molchi o‘z huquqlari doirasi va hajmini bilmasligi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu bois uning huquqlari buzilishi holatilari ko‘p uchraydi. Shu bois iste’molchi huquqlarini himoya qilish davlat va jamiyat ahamiyatga ega bo‘lgan muhim masaladir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida belgilanishicha, davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. O‘zbekistonda iste’molchilar huquqlarini himoya qilish borasida qonunchilik bazasi yaratilgan va institutsional tuzilmalar (turli davlat va nodavlat tashkilotlari) faoliyat olib boradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi, Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunlari va Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13 fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari bevosita chakana savdo sohasida iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga oid qoidalarni nazarda tutadi. O‘zbekiston iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyalari bevosita iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga ko‘maklashadi.

Iste’molchilarni himoya qilishga oid xalqaro-huquqiy hujjat sifatida BMTning Bosh assambleyasining 1985 yil 9 apreldagi 83 39/248- son Iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha rahbariy tamoyillari rezolyusiyasi qabul qilingan va unda iste’molchilarning 8 ta asosiy huquqi sanab o‘tilgan. Xorijiy mamlakatlarda ham iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus qonunchilik tizimi qabul qilingan va davlat organlari faoliyat yuritadi. Qolaversa, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi loyihasi e’lon qilindi. Dasturning III bobi Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, deb nomlangan.

Uning iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish bo‘limida amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan quyidagi chora-tadbirlar belgilab olinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 apreldagi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuning 4-moddasida, iste’molchilarning asosiy huquqlari sanab o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra, iste’molchilar quyidagi huquqlarga ega: tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek,

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot olish; tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo‘lishi; tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi; 84 hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo‘lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g‘ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma’naviy zararning to‘liq hajmda qoplanishi; buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so‘rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish; iste’molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste’molchi chakana savdo orqali tovar xarid qilayotganda tovarni ishlab chiqaruvchi, chakana savdoni amalga oshiruvchi xususida ma’lumot olishga hamda tovarning nomi, uning sifati, xususiyatlari, ishlash tavsifi va boshqa shunga o‘xshash ma’lumotlarni so‘rab olishga haqli hisoblanadi. Uning mazkur talablarini bajarmaslik esa javobgarlikni yuzaga keltiradi. Iste’molchining asosiy huquqlaridan biri hisoblangan sifati lozim darajada bo‘lgan tovarga nisbatan huquqlari BMTning Bosh assambleyasi tomonidan chiqarilgan Iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha rahbariy tamoyillar, deb nomlangan (1985 yil 9 apreldagi 39/248 sonli Rezolyusiyasi)da, Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining qonunchilik dasturida, O‘zbekiston Respublikasining Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Qonunida (qonunning 4-moddasi) o‘z aksini topgan. Mazkur huquq iste’molchining har qanday tovar sifati va xavsizligiga nisbatan muayyan talablarni ifodalashi imkon beradi. Boshqacha aytganda, iste’molchi tovar sifatiga oid ma’lumotlar bilan tanishishga, tovarning xavfsiz ekanligini tekshirishga haqli ekanligi va uning bu talabi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi tomonidan bajarilishi lozimligini anglatadi. Shu bois tovar ishlab chiqaruvchilar tovar sifatini belgilaydigan muayyan qoidalar, talablar va shartlarga rioya etishlari lozim bo‘ladi. Amaliyotda tovar sifatida aniqlash va belgilash ko‘rsatkichlari va mezonlari mavjudki, tovarning bunday mezonlar, ko‘rsatkchilar va talablarga rioya etilgan holda ishlab chiqilganligi uning sifati darajasini aniqlaydi [1]. Qoidaga ko‘ra, tovar sifatiga oid ma’lumotlarning har bir tovarning sifat sertifikatida ifodalanadi. Sifat sertifikati tovarning tarkibiy tuzilishini ifodalaydi va uning shu turdagi tovarlarga quyiladigan talablarga mos yoki mos emasligini aniqlash imkonini beradi.

Sifat sertifikatida tovar to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar: tovarni ishlab chiqaruvchi, zarur holatlarda murojaat etish manzili, tovarning standartlashtirish talablaridan o‘tganligi, ayrim holatlarda undan foydalanishga oid ayrim ko‘rsatmalar bo‘ladi. Ayrim turdagi tovarlarning sifati sertifikatida esa tovardan foydalanish muddati (yaroqlilik muddati) haqidagi ma’lumot ham mavjud bo‘lishi mumkin. Amaldagi Fuqarolik kodeksida tovarning sifati xususida bir qator qoidalar belgilangan. Jumladan, FKning tovar sifati deb

nomlangan 402-moddasi 1-qismida belgilanishicha, Sotuvchi sotib oluvchiga sifati oldi-sotdi shartnomasiga mos keladigan tovarni topshirishi shart. Boshqacha aytganda, sotib oluvchi – xaridor va ayni paytda iste'molchiga topshirilayotgan tovar taraflar o‘rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasida nazarda tutilgan tovar sifatiga mos bo‘lishi kerak.

Bu esa o‘z-o‘zidan tovarning sifati shartnoma shartlaridan ham anglashilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Har qanday holatda ham sotuvchining iste'molchiga topshirgan tovari sifatli bo‘lishi va uning sifati taraflarning o‘zaro kelishuvidan anglashilishi lozim. Agar sotuvchi va iste'molchi o‘rtasidagi kelishuvi sifati yuqori bo‘lmagan, muayyan kamchilik va nuqsonlarga ega bo‘lgan tovarni past bahoda sotishga kelishilgan bo‘lsa-yu, keyinchali iste'molchi o‘ziga sifati lozim darajada bo‘lgan tovarni topshirishni talab qilsa, bu holatda iste'molchi nohaq hisoblanadi. Chunki, bu holatda sotuvchi iste'molchiga FKning 402-moddasi 1- qismi qoidalaridan kelib chiqib, sifati oldi-sotdi shartnomasiga mos bo‘lgan tovarni topshirgan va unga shu holatdan kelib chiqib narx belgilagan bo‘ladi. Qoidaga ko‘ra, oldi-sotdi shartnomasida tovarning sifati to‘g‘risidagi shartlar ko‘rsatilmaganda, sotuvchi sotib oluvchiga belgilangan maqsadlar uchun yaroqli bo‘lgan tovarni topshirishi shart 86 (FKning 402-moddasi 2-qismi). Mutaxassislarning fikricha, agarda sotib oluvchi shartnomada tovarning maxsus sifati to‘g‘risida shart qo‘yilgan bo‘lsa, ayni holda tovarning sifati bu turdagi tovarlar odatda qaysi maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallansa, ayni shu maqsadlarda foydalanishga yaroqli bo‘lishi lozim. Bunda tovarni tayinlanish maqsadi bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lgan umumiy sifatga ega bo‘lishi kifoya [2].

Xaridor nooziq-ovqat tovar unga berilgan paytdan boshlab 10 kun mobaynida, agar bundan uzoqroq muddat sotuvchi tomonidan e'lon qilinmagan bo‘lsa, sotib olingan tovarni aynan shunday o‘lcham, shakl, gabarit, fason, rangdagi yoki komplektatsiyadagi boshqa tovarga xarid qilingan joyda va sotuvchi tomonidan e'lon qilingan boshqa joylarda narxida tafovut bo‘lgan taqdirda sotuvchi bilan zarur hisob-kitob qilgan holda almashtirishga haqlidir. Xulosa sifatida aytgan, Konstitutsiyamizda belgilangan iste'molchi huquqlarining ustunligi qoidasi amaldagi qonun hujjatlarida to‘liq o‘z ifodasini topgan va mazkur Konstitutsiyaviy qoida huquqni qo‘llash amaliyotida ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Dmitriev M.A. K voprosu o sposobax zaщiты prav pokupatelya po dogovoru roznichnoy kupli-prodaji. //Yurist. - 2013. - №9;

2.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 2-jild. –T.:Baktria press, 2013

TABIIY RESURSLARNING KONSTITUTSIYAVIY MUHOFAZASI

Qurbonov S.S.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Inson, uning hayot faoliyati, umuman insoniyat uchun asosiy va muhim unsurlardan biri bu albatta tabiiy resurslar hisoblanib, ular inson hayotining barqarorligi, ekologik muvozanat va iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, tabiiy resurslar faqat iqtisodiy manba bo‘lib qolmay, ekologik va ijtimoiy samaradorlikni ta’minlaydi. Bugungi kunda tabiiy resurslarni muhofaza qilish global ahamiyatga ega bo‘lgan masalaga aylandi, chunki ularning konstitutsiyaviy-huquqiy himoyasi mamlakatning barqaror taraqqiyotiga yordam beradi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda 2023 yil 30 aprelda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiiy resurslarimizning muhofazasiga oid eng muhim qoidalar qabul qilindi. Jumladan, konstitutsiya muqaddimasida “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi, ... mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, ... ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz” degan mazmundagi eng muhim qoidalar o‘z ifodasini topdi. Ushbu rahbariy qoida mazmun-mohiyatiga ko‘ra, xalqning tabiat oldidagi, uning bebaho resurslarini asrab-avaylash, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishdagi konstitutsiyaviy mas’ulligi va agar ta’bir joiz bo‘lsa “majburligini” aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga muvofiq, “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish printsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi”.

Ushbu modda tabiiy resurslarni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asosini yanada rivojlantirdi. Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bilan bog‘liqligi belgilandi. Shunday qilib, tabiiy resurslarni muhofaza qilish mamlakatning strategik maqsadi va inson huquqlari uchun muhim elementga aylandi. Shuningdek, konstitutsiyada davlatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha mas’uliyati belgilab berildi.

Tabiiy resurslar, jumladan, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi va ularning ekosistemalari mamlakatning ekologik xavfsizligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Yangi Konstitutsiyada tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, barqaror rivojlanish va kelajak avlodlar uchun ushbu manbalarni saqlab qolish vazifasi davlatga yuklatilgan. Bu maqsadga erishish uchun davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish muhimdir.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘z ifodasini topgan ushbu norma “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish”ni asosiy g‘oyalardan biri sifatida belgilanib, uni amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Albatta fuqarolarning qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqini amalga oshirish uchun insonning ekologik huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Tabiiy resurslar inson hayotining asosiy manbalari bo‘lib, ular insonning hayot daromadi, aholini ta’minlash, iqtisodiy rivojlanish va ekologik muvozanatning saqlanishida muhim rol o‘ynaydi. Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik normalari mamlakatning huquqiy tizimida muhim o‘rin tutadi. Konstitutsiyaviy huquq ham tabiiy resurslarning muhofazasida muhim vosita bo‘lib, bu huquqlarning qonuniy ravishda himoya qilinishi inson huquqlari va ekologik tenglikka asoslangan.

Ta’kidlash joizki, Bosh qomusimizning 62-moddasida fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlaridan biri sifatida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” deb mustahkamlanganligi har bir insondan tabiiy resurslarni muhofaza qilishni, atrof tabiiy muhitni asrab-avaylash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish lozimligini talab etadi. Albatta, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar, chunki tabiiy muhitning saqlanishi va barqarorligi insonning

hayoti va sog‘lig‘i uchun muhimdir. Bunday munosabatning bir necha sabablari mavjud:

Birinchidan, ekologik barqarorlikni saqlash uchun. Tabiiy muhitdagi resurslar (suv, havo, er, bioxilma-xillik) inson hayoti uchun asosiy shartlardan hisoblanadi. Ularning nobud bo‘lishi yoki yaroqsiz holatga keltirilishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Agar tabiiy muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabat bo‘linmasa, bu atrof muhitning zararlanishiga, resurslarning isrof qilinishiga va ularning zamonaviy talablarga javob berish imkoniyati yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, konstitutsiya, qonunlar va xalqaro shartnomalar insonlardan tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Masalan, ekologik huquqlar va burchlar fuqarolarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini, ularni muhofaza qilishini va kelgusidagi avlodlar uchun safarbar qilinishini talab etadi. Bu huquqiy yondashuv atrof muhitga oid javobgarlikni shakllantiradi.

Uchinchidan, tabiiy muhitning holati insonning sog‘lig‘iga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, havo va suvning ifloslanishi, erning ishdan chiqarilishi yoki biologik xilma-xillikning yo‘qolishi insonlar uchun turli xil kasalliklar va xavfli infektsiyalar tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, fuqarolar atrof muhitni muhofaza qilishga majbur bo‘lishadi, chunki bu ularning o‘z sog‘lig‘i uchun ham muhimdir.

To‘rtinchidan, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish iqtisodiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tabiiy resurslar, shu jumladan, suv, er, er osti boyliklari mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan manbalardir. Agar ular etishmasligi yoki isrof bo‘lsa, iqtisodiy rivojlanishga jiddiy to‘siqlar kelib chiqishi mumkin.

Beshinchidan, tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabat, shuningdek, global ekologik muammolarga, masalan, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va atrof muhitdagi ifloslanish bilan kurashishga ko‘maklashadi. Bu muammolar faqat bir mamlakatga emas, balki butun jahonga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, fuqarolar va davlatlar atrof muhitga munosabatda ehtiyotkorlik va javobgarlikni o‘z zimiga olishlari lozim.

Oltinchidan, har bir davlat va fuqaro atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga majbur, chunki bu barqaror rivojlanishni ta’minlashga yordam beradi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish – bu har bir fuqaroning eng asosiy burchi hisoblanadi.

Shu sababli, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabat fuqarolarning nafaqat huquqi, balki ularning ekologik va ijtimoiy javobgarligi bo‘lib, atrof muhitni muhofaza qilish orqali insoniyatning kelajagi va barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Darhaqiqat, konstitutsiya mamlakatning asosiy qonuni bo‘lib, unda tabiiy resurslarning muhofazasiga oid asosiy printsiplar ko‘rsatiladi. Tabiiy resurslar faqat iqtisodiy manba bo‘lib qolmay, ular ekosistemaning barqarorligini ta’minlaydi. Shuning uchun, ularning samarali boshqarilishi va himoyasi har bir mamlakatning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorligini saqlash uchun ahamiyatlidir. Konstitutsiyada ekologik huquqlar va tabiiy resurslardan foydalanishning asosiy printsiplari belgilab qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida “Er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Er qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin”ligiga oid qoidalar tabiiy resurslar konstitutsiyaviy muhofazasini yanada mustahkamlagan. Albatta, tabiiy resurslar davlat muhofazasida bo‘lishi kerak, chunki ular mamlakatning ekologiyasi, iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Davlat tomonidan tabiiy resurslarning muhofazasi, ularni barqaror boshqarish va adolatli taqsimlashning kafolatidir. Bu, o‘z navbatida, ekologik barqarorlikni saqlash, kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga yordam beradi.

Xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida ham tabiiy resurslarni muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Shveytsariya Konstitutsiyasida “Atrof-muhit va fazoviy rejalashtirish” deb nomlangan alohida bo‘lim (4-bo‘lim) ajratilgan. Germaniya Federativ Respublikasining asosiy Qonuni 20-a (20)-moddasiga ko‘ra “Davlat kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatini anglagan holda, qonun va huquqqa muvofiq ijro etuvchi hokimiyat va odilsud yordamida konstitutsiyaviy tuzum doirasida er yuzidagi hayotning asosi sifatida atrof-muhitni muhofaza qiladi”.

Braziliya va Kanada kabi davlatlarda ham tabiiy resurslar Konstitutsiya bilan himoya qilinadi. Masalan, Kanadada tabiiy resurslarning muhofazasi, federativ tizimdagi huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Hindistonda ham ekologik huquqlar Konstitutsiyaga kiritilgan va ekologik huquqlar yuzasidan qarorlar qabul qilishda Sud hokimiyati muhim rol o‘ynaydi.

AQShda ekologik huquqlar, asosan, 1970-yillarda qabul qilingan Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunga asoslanadi. AQSh Konstitutsiyasida aniq ekologik huquqlar mavjud emas, lekin Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) va boshqa organlar mamlakatda ekologik normativlar va standartlarni belgilash va ularni amalga oshirishda markaziy rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda mamlakatlar global ekologiya muammolarini hal qilishda birgalikda harakat qilish va ekologik huquqlarni himoya qilishdagi milliy strategiyalarni qayta ko‘rib chiqmoqdalar. Xalqaro konventsiyalar va shartnomalar tabiiy resurslarni himoya qilishning muhim huquqiy asoslari bo‘lib, mamlakatlarning konstitutsiyaviy va qonunchilik tizimlariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning Konstitutsiyaviy asoslari jahonning ko‘plab mamlakatlarida mustahkamlangan va ularning huquqiy asoslari har tomonlama takomillashtirilgan. Milliy va xorijiy tajriba ko‘rsatganidek, tabiiy resurslar muhofazasi va ekologik huquqlar faqat Konstitutsiyadagi huquqiy normalar bilan cheklanmasdan, davlatning barcha organlari va jamiyatning turli qatlamlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatimizda ekologik huquqlar va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilikning rivojlanishi, jamiyatning ekologik ongi va davlat organlarining faoliyati bu sohadagi zamonaviy muammolarga echim topishga qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, barqaror rivojlanish va umumjahon ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekistonda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun yangi konstitutsiyaviy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidagi tabiiy resurslarni muhofaza qilishga oid normalarning mustahkamlanganligi ekologik qonunchilikni yanada rivojlantirish va ekologik huquqlarning amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, ayniqsa, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilish uchun zarurdir.

O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSIONALIZMNING YANGI TENDENSIYALARI: MUROJAAT INSTITUTINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Qodirov E.
Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori,

Ochildiyev F.
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi.

O‘zbekistonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun mohiyatini konstitutsionalizm nuqtai nazaridan o‘rganish nafaqat uning rivojlanishi balki amaliy faoliyatining samaradorligini yetarli darajada yoritishga asos bo‘ladi. Chunki **konstitiutsionalizm** *tushunchasi va uning mazmuniga* nisbatan bir qancha *yondashuvlar* mavjud.

Konstitutsionalizm tor ma’noda demokratik davlat qurishning konstitutsiyaga asoslangan tasavvur va g‘oyalari tizimini anglatadi. Keng ma’noda konstitutsionalizm: *konstitutsiyaviy g‘oyalar; konstitutsiyaviy qonunchilik; konstitutsiyaviy amaliyot; konstitutsiyani himoya qilish va amalga oshirish* kabi bir qator o‘zaro bog‘liq elementlarni o‘zida mujassam etadi.

Buning ma’nosi shuki, ***konstitutsiyaviy g‘oyalar konstitutsionlazmning asosini tashkil etadi***. Konstitutsiyaviy g‘oya to‘g‘risida bugungi axborot asrida bir qancha ilmiy nazariy qarashlar mavjud. Biroq konstitutsiyaviy g‘oyaning tub mohiyatida **adolatli jamiyat g‘oyasi** ustuvor ahamiyat kasb etadi. Adolatli jamiyat modeli: xalq hokimiyatchiligi va shaxsning huquq va erkinligi oliy qadriyat, degan ikki muhim mezonga asoslanishi lozim.

Konstitutsiyaviy qonunchilik (normativ-huquqiy asos) quyidagi qismlardan iborat:

1) Konstitutsiya bir vaqtning o‘zida barcha huquq sohalari uchun asosiy manba sanaladi va adolatli jamiyatni tashkil etishda: siyosiy, huquqiy ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy kabi asosiy prinsiplarga tayanadi;

2) konstitutsiyada mustahkamlanishi mumkin bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqiy institutlar va shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlar yoxud sud qarorlarini o‘zida mujassam etadi;

3) mamlakatning konstitutsiyasiga muvofiq tashkil etilgan va qo‘llaniladigan uning butun hududida milliy huquqiy tizimni ham o‘zi ichiga oladi.

Konstitutsiyaviy amaliyot. Konstitutsionalizmning siyosiy rejim vositasida Konstitutsiya normalarining bevosita hayotda amalda qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi. Agar konstitutsiyada mustahkamlangan davlat hokimiyatini amalga oshirishning usul va vositalari demokratik prinsiplarga muvofiq bo‘lmasa, jamiyat bunday tartibni qo‘llab-quvvatlamaydi va tabiiyki mazkur vaziyatda konstitutsionalizm yuzaga kelmaydi.

Konstitutsiyani himoya qilish mexanizmi. Konstitutsionalizm konstitutsiyaning inson – jamiyat – davlatning o‘zaro huquq va majburiyatlari bilan bog‘liqligiga asoslanadi. Asosiy qonun o‘zining oliy yuridik kuchini barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari va barcha fuqarolarga namoyon etadi. Konstitutsiyaning asosiy va muhim ahamiyati uning jamiyatda yuqori darajada himoya qilinishida ko‘rinadi. Mazkur himoya qilish bilan bevosita davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari shug‘ullanadi. Xalqdan tashqari birorta subyekt davlat hokimiyatining manbai bo‘lish masalasini hal etishi mumkin emasligi Konstitutsiya doirasida mustahkamlangan.

Shuningdek, konstitutsionalizm: g‘oyalar tizimi; konstitutsiyaviy masalalar bo‘yicha siyosiy jarayonlar; maqsadi davlat hokimiyatining muayyan mexanizmini belgilashga qaratilgan harakat; siyosiy va yuridik voqelik; yuridik natija; siyosiy tanazzulni hal etish omili; mamlakat huquqiy tizimning turlari

yoxud konstitutsiyaviy tuzumning davlat va liberal ko‘rinishi tarzida ham talqin etilishi mumkin.

Shunday qilib, **konstitutsionalizm**: *g‘oyaviy-nazariy; normativ-huquqiy; funksional (amaliy, himoya qiluvchi); ma’naviy-axloqiy* xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan kompleks tuzulma sanaladi.

O‘zbekistonda konstitutsionalizmning yangi tendensiyalari quyidagi holalarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 1-moddasi birinchi qismida “ O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat...” tarzida belgilangani har tomonlama konstitutsionalizmning talablariga to‘liq mos keladi. Sababi mazkur konstitutsiyaviy norma konstitutsiyaning yadrosi sanalib, konstitutsionalizmning barcha talablari ya’ni davlat boshqaruvining asosiy g‘oyasi, davlat hokimiyatining mexanizmi, siyosiy bahamjihatlik, inson qadrining ulug‘ligi ham siyosiy ham yuridik voqelik ekanligi xususiyatlari yuridik jihatdan mustahkamlanganida ko‘rinadi.

Ikkinchidan, Asosiy qonunimizning 15-moddasi ikkinchi qismida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”, deb belgilanlangan. Ushbu konstitutsiyaviy norma ham konstitutsionalizmning konstitutsiyaviy amaliyot va normativ-huquqiy prinsipi bilan mantiqan bog‘liq sanaladi. Voqean, konstitutsiyaviy amaliyot - konstitutsionalizmning siyosiy rejim vositasida Konstitutsiya normalarining bevosita hayotda amalda qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur konstitutsiyaviy norma unda mustahkamlangan davlat hokimiyatini amalga oshirishning usul va vositalari demokratik prinsiplarga to‘liq muvofiq bo‘lgani bois ham jamiyat bunday tartibni qo‘llab-quvvatladi va tabiiyki mazkur vaziyatda mamlakatimizda konstitutsionalizmning yangi tendensiyasi yuzaga keldi.

Uchinchidan, Konstitutsiyamizning 20-moddasi beshinchi qismida “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi” degan norma mustahkamlangan. Demak, ushbu konstitutsiyaviy norma konstitutsionalizmning yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda inson – jamiyat – davlatning o‘zaro huquq va majburiyatlari bilan bog‘liqligiga asoslangani bilan ahamiyatli hisoblanadi. Inson mazkur qoidaga ko‘ra ustuvor ahamiyat kasb etadi. Asosiy qonun har qanday qonundagi kolliziyani to‘g‘ri hal etish masalasini o‘zining oliy yuridik kuchidan foydalanib, barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslarning zimmasiga yuklaydi. Konstitutsiyaning asosiy va muhim ahamiyati uning jamiyatda inson huquq va

erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini yuqori darajada himoya qilinishida ko‘rinadi.

Konstitutsimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyalanishi hamda ularning davlat organlari yoxud mansabdor shaxslari bilan munosabatlari ya’ni muhim konstitutsiyaviy institut sanalgan murojaat institutiga yetarli e’tibor qaratilgan. Asosiy qonunning 20-moddasi uchinchi qismida “Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi” tarzida mustahkamlangan. Demak, fuqaro va davlat organlari yoxud fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ularning mansabdor shaxslari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat murojaat instituti orqali amalga oshiriladi. Murojaat institutining konstitutsiyaviy asoslari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, Konstitutsiyamizning 23-moddasi birinchi qismida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi” degan norma mavjud. Bunday himoya va homiylik tabiiyki murojaat mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Ya’ni davlat fuqarolarning belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga murojaati orqali vaziyatdan xabardor bo‘ladi va o‘zining tegishli mas’ul organ hamda tashkilotlari orqali muammoni bartaraf etadi. Mazkur holat davlatning bevosita o‘zida yoxud unining tashqarisida bo‘lishidan qat’iy nazar bartaraf etilishi belgilangani e’tiborga molik hisoblanadi.

Ikkinchidan, asosiy qonunimizning 34-moddasida ham bevosita fuqarolarning murojaati bilan bog‘liq “Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarningi o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o‘z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi shart”, degan konstitutsiyaviy asos ham belgilangan. Mazkur murojaatda fuqarolarning nafaqat davlat organlari va mansabdor shaxslari balki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ularning mansabdor shaxslari ham bevosita murojaat mexanizmida ishtirokchi sifatida belgilangani ushbu institut ko‘lamining kengayganligini ko‘rsatadi. Va jismoniy va yuridik shaxslarga murojaat imkoniyatining ortganligini anglatadi.

Uchinchidan, siyosiy huquq sifatida belgilangan “Har kim bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega” degan konstitutsiyaning 40-moddasidagi norma ham murojaat institutining muhim konstitutsiyaviy asosi sanaladi. Ushbu normada ham murojaat qillinadigan subyektlar qatoriga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

kiritilgani ahamiyatli hisoblanadi. Mahalla mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining eng asosiysidir. Chunki u mazmun va mohiyati hamda ahamiyatiga ko‘ra davlat boshqaruvida xalqqa yaqin tuzilma ekanligini real hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Jismoniy va yuridik shaxslarga bevosita murojaat qilishning turlari va vositalari aniq ko‘rsatilgani ham ularning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi zamin yaratadi. Ayniqsa, unda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hamda chet el fuqarolarning ham bunday siyosiy huquqdan foydalanish imkoniyati yaratilgani murojaat institutining konstitutsiyaviy ahamiyatini yanada huquqiy jihatdan oshirgan.

To‘rtinchidan, “Fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lgan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli” degan konstitutsiyaviy norma Konstitutsiyaning 133-moddasining o‘ninchi qismiga kiritilgani ham muhim konstitutsiyaviy asos va yangilik bo‘ldi. Bu dastlab murojaat instituti ko‘lami kengayib uning institutsional darajasi mustahkamlanib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq hamda imkoniyat doirasi kengaygani bilan izohlanadi. Keyingi o‘rinda, mamlakatimizda Konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirish jarayonida Konstitutsiyaviy sud zimmasiga inson huquqlarini himoyasi yuzasidan zalvorli vazifa yuklanganida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarni yuqori sud insttansiyasi doirasida mustahkamlab, sud tizimining yanada demokratlashuviga asos bo‘ladi.

Beshinchidan, asosiy qonunimizning 55-moddasi to‘rtinchi qismida “Har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli” ekanligining belgilangani ham konstitutsionalizmnining prinsiplariga mos keladi. Muhimi, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishning usul va vositalari demokratik prinsiplarga muvofiqligi bois jamiyat bunday tartibni qo‘llab-quvvatlashi natijasida tabiiyki konstitutsionalizm yuzaga keladi. Binobarin, Yangi O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash yoxud murojaat instituti o‘zining takomillashuv bosqichiga chiqqanligini nazardan qochirmaslik kerak. Zero, mazkur murojaat mexanizmi milliy huquqiy tizimning mantiqan umume’tirof etilgan xalqaro huquq normalariga integratsiyalashayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqning xohish irodasiga tayanib, umumxalq refyerendumi asosida yangi tahrirda qabul qilingan davlatimiz konstitutsiyasi konstitutsionalizmning g‘oyaviy-nazariy, normativ-huquqiy, funksional (amaliy, himoya qiluvchi), ma’naviy-axloqiy xususiyatlarni o‘zida mujassam

etgan kompleks tuzulmasi talablariga mohiyatan mos tushadi. Natijada yangi konstitutsiyaviy tendensiyalar asos solindi. Murojaat institutining konstitutsiyaviy asoslari takomillashtirildi. Asosiy vazifa konstitutsionalizm asosida yaratilgan mazkur huquqiy mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat sanaladi.

O‘ZBEK TILINING KONSTITUTSIYAVIY IFODASI

Sharipova N.M.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi.

Davlat suverenitetining muhim belgilaridan biri bu tildir. Darhaqiqat, davlat “o‘z tili” bilan mustaqildir. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda 1989 yil 21 oktyabrda xalqimiz uzoq yillar kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligining “huquqiy poydevori” sari qo‘yilgan ilk qadamlarimizdan biri edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga asosan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining 1989 yil 21 oktyabrdagi 3561-XI-son “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”[1]gi qonuni (Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrdagi 167-I-son “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan) muqaddimasidanoq “Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir, O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublikada yashovchi boshqa millat va elatlarning o‘z ona tillarini qo‘llashdan iborat konstitutsion huquqlariga monelik qilmaydi” mazmundagi muhim qoidalar belgilangan bo‘lsa, ushbu qonunning 1-moddasida esa “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir, O‘zbekiston Respublikasi o‘zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida amal qilishini ta’minlaydi, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida yashab turgan barcha millat va elatlar tillarining erkin amal qilishini ta’minlaydi, ushbu tillar ravnaq topishi, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘linishi uchun tegishli sharoit yaratadi” deb belgilab qo‘yilgan edi.

Ushbu qonunda belgilangan qoidalar 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan mamlakatimizning Bosh qomusi hisoblanadigan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha

[1] O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni. https://lex.uz/uz/docs/109394.

millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” degan mazmundagi konstitutsiyaviy normalarda o‘z ifodasini topdi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yurtimizda 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (4-modda) ham o‘zbek tili bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalar o‘zgartirishlarsiz, qo‘shimchalarsiz barqaror normalardan biri sifatida qoldirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, asosiy qonunimizning 139-moddasida esa “O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda yoxud qonunga muvofiq boshqa tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi” degan mazmundagi konstitutsiyaviy normalar mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigida e’tirof etilganidek, “milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o‘zligini, ruhiy-ma’naviy dunyosini o‘zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiy tariximizning eng og‘ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug‘lasak arziydi”[1].

Davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga mukammal o‘tishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining 1989 yil 21 oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritib, uning yangi tahriri tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrda PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, unda O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va keng jamoatchilikning o‘zbek

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi. https://president.uz/uz/lists/view/7628.

tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21 oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi taklif berilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 10 apreldagi O‘RQ-615-son “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 21 oktabr O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” tasdiqlanib, unda o‘zbek tilini uzoq muddatli rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab hamda quyidagi maqsadli vazifalarga erishishni nazarda tutilgan:

- o‘zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirish;
- o‘zbek tili ta’limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an’ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan g‘ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash;
- jamiyatda o‘zbek tiliga (davlat tiliga) hurmat-e’tibor va mehr-muhabbat muhitini shakllantirish;
- mamlakatimizda har bir fuqaroning davlat tilini bilishiga va buni burch va majburiyat sifatida his etishiga erishish;
- o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida mamlakat taraqqiyotining yangi davrida davlat tilini rivojlantirishni yuksak bosqichga ko‘tarish;
- respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining to‘liq joriy etilishini ta’minlash, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish.

Xorijiy davlatlar tajribasini kuzatadigan bo‘lsak, bir qator davlatlarning konstitutsiyalarida davlat tiliga oid normalar konstitutsiya darajasida mustahkamlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga binoan, rus tili davlat tili sifatida belgilangan. Shu bilan birga, milliy respublikalar o‘z hududida o‘z tillarini davlat tili sifatida belgilash huquqiga ega.

Fransiya Konstitutsiyasining 2-moddasida fransuz tili davlat tili sifatida belgilangan. Davlat tili maqomi Fransiyada madaniy birlikni saqlash vositasi hisoblanadi.

Hindiston Konstitutsiyasining 343-moddasiga binoan, hind tili (Devanagari yozuvida) davlat tili sifatida belgilangan. Ingliz tili esa ko‘prik til sifatida saqlanib qolgan. Shuningdek, Hindistonda 22 ta hududiy til konstitutsion maqomga ega.

Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasida xitoy (mandarin) tili davlat tili sifatida belgilangan. Milliy ozchiliklar o‘z tillaridan foydalanishda erkinlikka ega.

Kanada Konstitutsiyasiga binoan, ingliz va fransuz tillari teng maqomga ega bo‘lgan davlat tillari hisoblanadi. Bu qoidalar asosan 16-22-moddalarda aks etgan.

Janubiy Afrika Respublikasining Konstitutsiyasida 11 ta til davlat tili sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, boshqa tillarni himoya qilish va rivojlantirish zarurligi ham qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlar natijasida o‘zbek tilini izchil rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlash borasida davlat o‘z zimmamizga bir qator mas’uliyatli vazifalar olgani bejiz emas. Binobarin, o‘zbek tilining millatning ruhi, xalqimiz birligi, davlat timsoli sifatida ulug‘lagan holda, uni asrash va rivojlantirish lozimdir.

Muxtasar qilib aytganda, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomiz naql etganlaridek, “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz!” bo‘lmaslik har bir fuqaroning insoniylik burchidir.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA GLOBAL TARMOQ

Xoliqov Sh.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik.

Bugungi kunda dunyo axborot makoniga aylanganligi O‘zbekistonda axborot, undan foydalanishning huquqiy asoslarini rivojlantirish, Konstitutsiyaga xalqimiz manfaatlarini ta’minlaydigan o‘zgartirishlar kiritilishi zarurligidan darak berardi. Jumladan, avvalgi konstitutsiyamizning 29-moddasida har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga egaligi, fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkinligi belgilangan. Shu o‘rinda amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnoligi ham qayd etilgan.

Asosiy qomusimizda axborot olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Lekin o‘ttiz yil oldin qabul qilingan bu norma jamiyat hayotida ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlarni, axborot texnologiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta’sirini har jihatdan qamrab ololmasligi ko‘rinib turardi.

O‘zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Bugungi shiddatli davr bizdan zamonga mos harakat va o‘zgarishlarni talab etmoqda. Ana shunday talabga javob beradigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo‘lish uchun Asosiy qonunimizning yangi loyihasini tayyorlashimiz, uni umumxalq muhokamasiga qo‘yib, bildirilgan takliflar asosida takomillashtirish, ushbu muhim siyosiy hujjatni qabul qilish, o‘ylaymanki, milliy davlatchilik an’analarimizga, xalqimiz manfaatlariga munosib ish bo‘ladi” degan edi [2].

XXI-asrda, insonlarning, ayniqsa yoshlarning fikr va so‘z erkinligi, o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish singari huquqlarini qanday amalga oshirilishi ularning axborot resurslari, kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internetdan erkin foydalanishlariga bevosita bog‘liq.

Shunday ekan, hayot tarzimizning, kasbiy faoliyatimizning salmoqli bir bo‘lagi, komil inson shakllanishining asosiy omillaridan biri bo‘layotgan Global internet tarmog‘idan erkin foydalanish huquqining asosiy qomusimiz – Konstitutsiyaga kirilgani ayni muddao hisoblanadi. Bu xalqaro huquq normalarida, rivojlangan davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan va o‘zining samarasini ko‘rsatayapti.

Masalan, BMTning 2016 yil 5 iyuldagi rezolyusiyasida Internetdan foydalanish asosiy inson huquqlaridan biri ekani ta’kidlangan [3]. Ushbu rezolyutsiya Internetda o‘z fikrini erkin bildirish uchun muhim bosqichdir, dedi Miyatovich. Bu ochiq-oydin ko‘rsatib turibdiki, inson huquqlari bo‘yicha dunyodagi eng oliy organ bo‘lgan BMT Inson huquqlari kengashining barcha a’zolari odamlarning oflayn rejimda bo‘lgan huquqlari ham onlayn tarzda himoya qilinishi kerakligiga ko‘pchilikning roziligini bildiradi.

2022 yilning aprel oyida AQSh, Yevropa ittifoqiga a’zo davlatlar va boshqa 32 mamlakatlar tomonidan «Internet kelajagi Deklaratsiyasi»da qabul qilindi. Unda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, Internetning «ochiq, ishonchli va xavfsiz»ligini ta’minlash masalalarga katta e’tibor qaratilgan. Bu, eng avvalo, Internetning jamiyat va insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni va roli naqadar yuksalayotganidan dalolatdir. Internet kelajagi to‘g‘risidagi deklaratsiya ushbu siyosat tamoyillarini shunchaki qayta bayon qilish o‘rniga, ushbu umidvor qarashga “jiddiy muammolarni” keltirib chiqaradigan global bo‘linishni belgilaydi. Xususan, u “global internetni parchalash harakatlari” va “ba’zi avtoritar hukumatlar”, shuningdek, repressiya, kuzatuv va dezinformatsiya uchun platformalar va texnologiyalardan foydalanishga chaqiradi. Shuningdek, u ushbu ro‘yxatga bozor kuchining kontsentratsiyasini, “yig‘ilgan shaxsiy ma’lumotlarning miqdori va xavfsizligini” hamda dezinformatsiya va boshqa zararli kontentni tarqatishda platformalarning rolini qo‘shadi [4].

Finlandiya, Estoniya, Ispaniya singari davlatlarda zamonaviy axborot texnologiyalardan erkin foydalanish davlat tomonidan kafolatlanishi

belgilangan. Fransiya Konstitutsiyaviy kengashi 2009 yili internet va axborotdan foydalanishni inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida e’tirof etgan.

Bugun jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan, o‘z jamiyati, iqtisodiyoti, umuman barcha sohalarni raqamlashtirishga kirishgan Yangi O‘zbekiston bu siyosiy jarayonlardan chetda qolmaslik uchun faol harakat qilmoqda. Bu – hozirgi davr talabi.

Masalaning yana bir diqqatga sazovor jihati bor. Axborot va aloqa texnologiyalarining doimiy, uzluksiz rivojlanishib borishi, ulardan foydalanishning yangi shakl va vositalarining doimo paydo bo‘lishi kibermakonda huquqbuzarliklar, jinoyatlar sonini ko‘payishiga olib kelishi mumkin va bu vaziyat ularga qarshi kurashning yangi, zamonaviy, nihoyatda takomillashgan usullarini yaratishni, tartibga solishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qilishi tabiiy. Ya’ni milliy qonunchiligimizda axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik masalalariga oid normalarni tizimli ravishda axborot texnologiyalari rivojiga parallel ravishda takomillashtirishib borishimiz kerakligini davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Buning uchun huquqiy asos yaratilishi kerak. Yangi konstitutsiyada internetdan erkin foydalanish huquqining mustahkamlanishi milliy qonunchiligimizdagi shu sohadagi munosabatlarni tartibga solishi, ya’ni barcha munosabatlar qonun doirasida bo‘lishini ta’minlash uchun zarur platforma bo‘ladi.

Bundan tashqari Internet tarmog‘idan axbrorot olish va uni tarqatishdagi suiiste’molliklarni, inson huquqlarining poymol bo‘lishi, yoshlarimizning noan’anaviy tahdidlar ta’siriga tushish hollarining oldini olish, boshqa shaxslarning barcha konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish maqsadida, shaxsiy sir, davlat siri yoki boshqa sohalarga taalluqli sir deb e’tirof etilgan axborotlarni olish va tarqatishni qonunga muvofiq cheklash lozim. Boshqa barcha xolatlarda har bir fuqaro axborot resurslari, kommunikatsiya texnologiyalari, internetdan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Konstitutsiyaga kiritilgan yangi o‘zgartishlar qatorida “Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi” degan jumlalarni yodga olish darkor [1].

Shuni e’tirof etish kerakki, 2023 yil yanvar holatiga ko‘ra Dunyoda internet foydalanuvchilari soni 5,16 mlrd.dan oshdi, bu dunyo aholisining 67 % ni tashkil qiladi. Ushbu ko‘rsatgich O‘zbekiston Respublikasida 31 milliondan oshdi, bu esa 86 % (O‘zbekistonda aholi soni 36 milliondan ortiq)ni tashkil qiladi[6].

Internet ijtimoiy tarmoqlari faol foydalanuvchilari soni 2023 yil fevral holatiga ko‘ra dunyoda 4.74 mlrdan oshdi, bu dunyo aholisining 59 %ni tashkil qiladi. Ushbu ko‘rsatgich O‘zbekiston Respublikasida 7 million oshdi, bu esa aholi sonining 19 %ni tashkil qiladi [7].

Internetda axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida axborot resursining egasi va blogerlarga quyidagilar taqiqlaninishi ko‘zda tutulishi lozim:

konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, ommaviy tartibsizliklarga da’vat etish;

davlat sirlarini oshkor etish;

adovat qo‘zg‘ash, fuqarolarning sha’niga yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘yuvchi axborotni tarqatish;

jamiyatga, davlatga, davlat ramzlariga hurmatsizlikni namoyon etuvchi va beodoblik bilan ifodalangan axborotni tarqatish;

pornografiya’ni, zo‘ravonlikni va shafqatsizlik, bir jinslilar o‘rtasidagi g‘ayritabiiy aloqalarni targ‘ib qilish, shuningdek o‘z joniga qasd qilishga da’vat etish;

shuningdek, qonunga muvofiq jinoiy va boshqa javobgarlikka sabab bo‘ladigan o‘zga harakatlarni sodir etish maqsadlarida foydalanilishiga yo‘l qo‘ymasligi shart.

Veb-sayt, axborot resursining egasi yoki blogerlarning axborotida yuqoridagi taqiqlangan materiallar bo‘lsa, uni darhol o‘chirib choralari ko‘rilishi lozim.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan faktlar, Yangi Konstitutsiyaga keltirilgan o‘zgarishlarga ehtiyoj mavjudligini va ular shaxs manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari konfidensial ma’lumotlarni global tarmoqda tarqalishi bu shaxshiy daxsizlikni buzilishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida internet va ijtimoiy tarmoq resurslaridan oqilona foydalanmaslikka va keyinchalik shaxsga va davlat manfaatlariga tajovvuzga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 33 modda.

2. https://www.gazeta.uz/uz/2021/12/24/amendments/

3. https://www.osce.org/fom/250656#:~:text=VIYENNA%2C%205%20July%202016%20%YE2%80%93%20OSCE,consensus%2C%20supporting%20human%20rights%20online

4. https://www.brookings.yedu/articles/battle-lines-for-the-future-of-the-internet/
5. https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide/
6. https://stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3.
7. https://www.statista.com/statistics/278414/number-of-worldwide-social-network-users/

OLIY HARBIY VA HARBIYLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMIGA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING TAKOMILLASHUVI

Vaxidov F.R.
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

So'nggi yillarda dunyoda kechayotgan geosiysiy voqealar va tahdidlarning avj olishi jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini har tomonlama takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu borada xalqaro tajribalarni faol o'rgangan holda mavjud qonunchilik hujjatlarini takomilashtirish, shuningdek sohadagi kadrlar tayyorlash tizimini zamon shart-sharoitlari ruhida tarbiyalash va ta'lim berish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash tizimi tubdan isloh qilinib, sohadagi huquqiy asoslar mustahkamlandi va sohadagi tub islohotlar natijasida yangicha tartib-taomillar yuzaga keldi va tobora mustahkamlanib bormoqda.

Avvalo ta'kidlash joizki shu vaqtga qadar "jamoat xavfsizligi", "jamoat xavfsizligini ta'minlash" tushunchalariga turli manba va adabiyotlarda turlicha ta'rif va tavsiflar berilib, uning huquqiy asoslari aniq belgilab qo'yilmagan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni asosida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi"da ushbu iboralarga huquqiy ta'riflar berildi[1].

Mazkur hujjatda jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chaqarilishi ta'minlaydi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash esa davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizimdir.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqadiki aynan mazkur sohada tayyorlanadigan professional kadrlar keltirilgan talablarga to‘laqonli mos kelishi va zamonaviy shart-sharoitlarga tayyor bo‘lishi lozim bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda birinchi navbatda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga professional kadrlar tayyorlanadigan oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatida tub islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga [2] muvofiq, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida 2017-yil 16-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [3]. Mazkur hujjatga asosan 8 ta alohida yo‘nalishlar bo‘yicha IIV zimmasiga muhim vazifalar yuklatilib, xususan, xodimlarni, shu jumladan ularni xizmat faoliyatidan ajratmagan holda o‘qitish va maxsus kasbiy tayyorlash, hududiy ichki ishlar organlariga bevosita chiqishni va tergov-tezkor tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etishni nazarda tutgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishni o‘z ichiga olgan yangilangan ta’lim standartlar va o‘quv dasturlarni ishlab chiqish va kiritish hamda idoraviy ta’lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini amaliyot ehtiyojini hamda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish istiqbollarini inobatga olgan holda tizimli ravishda maqbullashtirishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir kunda, ya’ni 2021-yil 15-aprelda qabul qilingan tarixiy qarorlari jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga kadrlar tayyorlash sohasida tub o‘zgarishlardan biri bo‘ldi.

Xususan, ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida 2021-yil 15-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni

tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori asosida 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etildi [4].

Ma’lumki mazkur akademiya bundan o‘ttiz yil ilgari tashkil etilgan bo‘lib, shundan buyon birinchi marta akademiyadagi ta’lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratilib, birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o‘qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda amalga oshirila boshlandi. Shu bilan birga mazkur harbiylashtirilgan ta’lim muassasasida bakalavriat dasturi bo‘yicha o‘qitish kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida tashkil etilib, ularga o‘qishga qabul qilish ichki ishlar vazirining o‘rinbosari raisligida tashkil etiladigan maxsus kasbiy tanlov va ochiqlik mezonlari asosida yakka tartibdagi suhbat orqali olib boriladigan tizim joriy etildi.

Ushbu qarorning yana bir muhim jihatlaridan biri bu magistratura tizimining isloh qilingani bo‘lib, unga ko‘ra magistratura dasturining har bir yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish muddati bir yilni tashkil etib, o‘qishga kirgan xodimlar egallab turgan lavozimlaridan ozod etilishi va magistraturaning tinglovchilar safiga qabul qilinib, ularga oxirgi egallab turgan lavozimi uchun belgilangan pul ta’minoti saqlanishi va muvaffaqiyatli bitirganda oliy ta’limning ikkinchi bosqichini tamomlaganligini tasdiqlovchi diplom berilishi amaliyotga kiritildi.

Shuningdek mazkur qaror asosida quyidagi muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi:

o‘quv jarayoni eng zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilinib, professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy-pedagogik salohiyati oshirildi, magistraturaga qabul jarayonini o‘rnatilgan mezonlarga javob beradigan va o‘qish istagini bildirgan ichki ishlar organlari xodimlari orasidan, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatiga asosan nomzodlarni ochiq va xolisona tanlab olish orqali tashkil etilmoqda;

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berilib, uning zimmasiga IIO sohaviy xizmatlarining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash, safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida o‘qitish, barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda, shu jumladan turdosh yo‘nalishdagi respublika oliy ta’lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish hamda xodimlarni boshlang‘ich tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari

tugatilib, ularning shtat birliklari va moddiy-texnika bazasi Malaka oshirish institutiga o‘tkazildi;

IIVning Malaka oshirish instituti tarkibiga Akademiyaning kasbiy tayyorgarlik fakulьtetini o‘tkazilib, besh oylik dastur bo‘yicha ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlariga nomzodlarni maxsus kasbiy tayyorlash amalga oshirilishi hamda kasbiy tayyorgarlik fakulьtetini tamomlagan xodimlarga “kichik serjant” maxsus unvoni hamda belgilangan namunadagi diplom berilishi yo‘lga qo‘yildi.

IIV akademik litseylarining huquqshunoslik fani bo‘yicha idoraviy fan olimpiadasi g‘olibi bo‘lgan bitiruvchilarining Akademiyaga o‘qishga qabul qilinishi uchun faqat maxsus kasbiy tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tishlari yetarli hisoblanadigan bo‘ldi.

Bir so‘z bilan aytganda jamoat xavfsizligi tizimiga professional xodimlarni tayyorlashda yetakchi muassasalardan biriga aylanib, akademiya faoliyati bugungi kunda ham tobora takomillashib bormoqda.

Mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Qurolli Kuchlarning kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [5].

Agar tarixga murojaat qilinadigan bo‘lsa, 1990-yil 15-oktyabrda Ichki ishlar vazirligining Oliy kurslari bazasida malakali ofitser kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun tashkil etilib, Toshkent oliy harbiy texnik bilim yurti deb nomlangan [6]. Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 10-yanvardagi Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi yurisdiktsiyasiga olinib, Ichki ishlar vazirligi tizimiga kiritilgan. Bilim yurti 1991 yili ilk kursantlarni qabul qilib, 1995-yilda dastlabki bitiruvchilarni tayyorlab chiqargan. O‘zbekiston Respublikasi IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti: IIV qo‘shinlari va idoralari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun yuqori kasb mahoratiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug‘ullanadigan, mamlakat xavfsizligi vazifalarini samarali bajarishga qodir bo‘lgan oliy harbiy ta’lim muassasasi hisoblangan.

Keyinchalik 2017 yil aprelь oyida O‘zbekiston Respublikasi IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Harbiy-texnik instituti etib qayta tashkil qilingan. 2017-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilganidan so‘ng, sohaga malakali va professional kadrlarni tayyorlash zaruriyatidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil noyabridagi Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi IIV Harbiy-texnik instituti, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tasarrufiga o‘tkazildi.

2021-yil 15-apreldagi Prezident qarori asosida Jamoat xavfsizligi universiteti aynan jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga malakali kadrlarni maqsadli tayyorlashni amalga oshiruvchi bazaviy oliy harbiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya uchun jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining tegishincha jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligi va pasport tizimi talablarini amalga oshirish yo‘nalishlarida, Qurolli Kuchlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun harbiy diplomatiya, yurisprudentsiya va iqtisodiyot hamda muhandislik-texnik, tarbiyaviy-psixologik va qo‘mondonlik-taktik faoliyat sohasida hamda o‘z qo‘riqlash tuzilmalariga ega bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari uchun qo‘riqlash faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish sohasining barcha yo‘nalishlarida professional kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Yuqorida keltirilgan qaror assosida yana quyidagi ustuvor masalalar ham o‘zining huquqiy asosini topdi:

jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatni samarali tashkil etishga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislarni tegishli ixtisoslik va huquqshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan holda o‘qitish hamda ularni jangovar va jismoniy tayyorgarlikdan o‘tkazish orqali maqsadli tayyorlash;

Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun kadrlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali tizimini joriy etish, ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda vatanparvarlik va yuksak odob-axloq sifatlarini kamol toptirish orqali chuqurlashtirilgan holda tayyorlash;

harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash yo‘nalishida o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyachilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

o‘quv jarayonini o‘qitishning zamonaviy shakl va uslublari, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda nazariya va amaliyot uzviyligini ta’minlash orqali tashkil etish;

oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, jamoat xavfsizligini ta’minlashning eng dolzarb muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy

tadqiqotlarni, shu jumladan mahalliy va xalqaro grantlarni jalb etgan holda, o‘tkazish;

o‘quv jarayoniga xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining malakali mutaxassislarini jalb etish, shuningdek, qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va pedagogik tajriba almashish sohasida doimiy xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan iborat.

Ma’lumki 2024-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Jamoat xavfsizligi universitetiga tashrif buyurib, yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi [7].

Universitetga 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab talabalar qabul qilina boshlagan. Bakalavriatda 15, magistraturada 8 yo‘nalish bor. Bugungi kunda bakalavriatda mingdan ortiq kursant, maxsus yo‘nalish, sirtqi ta’lim va magistraturada yana shuncha yoshlar tahsil olyapti. Ularga jami 209 nafar o‘qituvchi, professor va fan doktorlari saboq bermoqda. O‘quv tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda umumfuqaroviy asosda o‘qishga ruxsat berilgan bo‘lib, bugungi kunda yurisprudentsiya, iqtisodiyot va psixologiya ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha talabalar tahsil olishmoqda. Universitet bitiruvchilari Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarida samarali xizmat qilmoqda. Shuningdek, o‘z qo‘riqlash tuzilmasiga ega davlat va xo‘jalik organlari uchun shu bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

So‘nggi yillarda universitetning o‘quv binolari kapital ta’mirlanib, barcha sharoit yaratildi. Sport majmuasi va o‘quv-uslubiy situatsion markazi yangidan qurildi. Har biri 300 o‘ringa mo‘ljallangan 6 ta yotoqxona zamonaviy holatga keltirildi.

O‘quv xonalari keng va yorug‘, zamonaviy texnikalar bilan ta’minlangan. Axborot-resurs markazida 90 mingdan ziyod adabiyot va o‘quv qo‘llanmasi, 10 mingdan ortiq elektron adabiyot mavjud.

Ilmiy salohiyatning oshishi 2018-2023-yillarda universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan 245 ta yangi avlod darsliklari, 550 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, 62 ta monografiyalar tayyorlanishiga hamda 14 ta davlat granti loyihalari va 3 ta patent olinishiga imkoniyat yaratdi. Universitet faoliyati bugungi kunda ham tobora takomillashib bormoqda va hamkorlik aloqalar yanada rivojlanmoqda.

Xulosa o‘rnida qayd etish lozimki jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishiga oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida professional kadrlarni tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bu nafaqat IIV va Milliy gvardiya balki Qurolli Kuchlarning barcha kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga salohiyatli mutaxassislarning yetkazib berilishiga zamin hozirlaydi. Bu o‘z navbatida

mard, jasur va Vatanga sadoqatli yoshlarga ta’lim tarbiya berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash” va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5749291.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.04.2017 yildagi PF-5005-son. Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/3159827.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 16.08.2017 yildagi PQ-3216-son Qarori. Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/3313218.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 15.04.2021 yildagi PQ-5076-son. Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. https://lex.uz/ru/docs/5377619?ONDATE=02.08.2022&action=compare

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.04.2021 yildagi PQ-5077-son. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/5377545.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jamoat xavfsizligi universiteti haqida: kecha va bugun! https://milliygvardiya.uz/uz/news/o‘zbek-89547.

BOLALARNI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Baratova M.
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Bolalar har bir oila, millat va har qanday jamiyat kelajagining egalaridir. Shunday ekan, ularning jismonan va ruhan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, intelektual salohiyati va dunyoqarashining kengligi har qanday davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda 1992 yil 9 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi bolalarning huquqiy va ijtimoiy maqomini shakllantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Ushbu hujjat orqali O‘zbekiston xalqaro konvensiya qoidalari va prinsiplariga rioya etish,

bola huquqlarini himoya qilishning milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish bo‘yicha majburiyatlarni hamda jahon hamjamiyati oldida javobgarlik masalasini o‘z zimmasiga oldi.

Shu bilan bir qatorda, milliy qonunchilik bola huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlarga muvofiqlashtirildi. O‘tkan davr ichida “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi va mazkur qonun bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatini belgilab berdi.

Mamlakatimizda bu yo‘nalishda o‘tgan yillarda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda jamiyatimizning boshqa sohalari kabi bu jabhadagi ishlar ham yangi bosqichga ko‘tarildi.

Xususan, mamlakatimizda bolalar huquq va manfaatlarini to‘laqonli himoya qilish, ularning taklif va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga munosib sharoit yaratish borasida ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirilishi, vasiylikni belgilash tizimining isloh qilinishi, bolalar mehnatining barcha shakllaridan voz kechilishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va qamrov darajasining o‘sishi, inklyuziv ta’lim va unga infrastrukturaning moslashtirilishi, bolalar jamoat tashkilotlari va liderlik qobiliyatlarining qo‘llab-quvvatlanishi buning yaqqol misolidir.

Mazkur islohotlarni tizimli amalga oshirish, bolalarning qonuniy manfaatlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normalarni ishlab chiqishda Konstitutsiyamiz asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qator normalari bolaning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning manfaatlarini himoyalashga qaratilganligini e’tirof etish lozim. Xususan, bosh qomusimizning 44-moddasida Bolalar mehnatining bolaning sog‘ligiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta’lim olishiga to‘siqlik qiluvchi har qanday shakllari ta’qiqlanishi belgilangan.

Mamlakatimiz rahbarining siyosiy irodalari va uzoqni ko‘zlab qilingan adolatli qarorlari natijasida avvalo bolalarning xavfsiz va sifatli hayot kechirishiga erishildi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muvozanati ta’minlandi, ta’lim, tibbiyot, davlat xizmatlarida sifat oshdi, mamlakatga invenstitsiyalarni jalb qilishda va O‘zbekistonnning xalqaro miqiyosidagi imijining ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mazkur normaning Konstitutsiya darajasida belgilanishi hamda salbiy holatlarga yo‘l qo‘yganlik uchun Jinoyat Kodeksidagi javobgarlikning kuchaytirilishi davlatning bu boradagi qat’iy siyosati va ortga qaytmas pozitsiyasini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning “Oila, bolalar va yoshlar”ga oid alohida bobining 77-hamda 78-moddalarida bolaning eng ustun manfaatlarini ta’minlashda ota-ona va davlatning majburiyatlari belgilab berildi.

Xususan, 77-moddada ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandalarini voyaga yetkuniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanliklari konstitutsion norma sifatida belgilandi.

Mazkur normaning qat’iylashtirilish zarurati shundan iboratki, bugungi kunda ayrim ota-onalar tomonidan o‘z farzandlarini tashlab ketish, ularning holidan xabar olmaslik va ota-onalikning boshqa majburiyatlarini bajarmaslik holatlari uchramoqda. Bunday hollar bolaning ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarida bo‘shliqning paydo bo‘lishiga olib keladi va bu bolaning butun umri davomida o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Mazkur norma orqali ota-onalarning oila va farzandlar oldidagi daxldorlik asosi kuchaytirildi.

78-moddada esa davlatning bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart sharoitlarni yaratish borasidagi majburiyatlari belgilangan. Bu esa, bolalar uchun zarur infratuzilma, xavfsiz va zamonaviy muhit yaratilishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2020 yil 29 maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlariga asosan mamlakatimizda bola huquqlari himoyasining tashkiliy va institutsional asoslari yanada mustahkamlandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari — Bola huquqlari bo‘yicha vakil, uning huquqiy maqomi, asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari belgilandi.

Bugungi kunda dunyoning 80 ga yaqin mamlakatlarida Bolalar ombudsmani faoliyat yuritadi. Ularning asosiy vazifasi “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya qoidalarini qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha’ni, qadr-qimmati, huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlari himoyasiga butun jamiyat va davlatni faol jalb etishdan iborat.

Bolalar huquqlari bo‘yicha Ombudsman yoki vakil lavozimi birinchi bo‘lib Norvegiyada 1982 yilda ta’sis etilgan. Shvesiyada esa bunday institut 1993 yilda faoliyat boshlagan. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bolalar bo‘yicha Ombudsman instituti faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan Yevropada (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Luksemburg, Rossiya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvesiya) va Lotin Amerikasida (Gvatemala, Kolumbiya, Kosta-Rika, Peru), shuningdek Kanada, Isroil va Yangi Zelandiyada. Bolalar uchun ombudsman instituti va uning

yaratilishi mamlakatimizning BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishini nazorat qilishning ajralmas qismidir.

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda Bolalar ombudsmani faoliyati maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi (Polsha - 2000 yil 6 yanvardagi “Bola huquqlari bo‘yicha ombudsman to‘g‘risida”; Irlandiya – “Bolalar bo‘yicha ombudsman to‘g‘risida” (2002); Fransiya – “Bola himoyachisi to‘g‘risida” 2000 yil 6 mart; Shvesiya - 1993 yil 1 iyuldagi “Bolalar ombudsmani to‘g‘risida”gi qonun; Litva - 2000 yil 25 maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish nazorati to‘g‘risida”gi qonunlar).

Mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombutsmani) to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan bo‘lib, mazkur qonunga asosan hozirda Bola huquqlari bo‘yicha vakil (Bolalar ombutsmani) tomonidan bolalarning shaxsiy va ijtimoiy huquqlarini ta’minlash borasidagi tashkiliy-huquqiy choralar ko‘rib kelinmoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra, turli xil zo‘ravonliklar kelgusida bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoyalanishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bolalar manfaatlarini ta’minlash borasidagi O‘zbekiston islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Ayrim hollalarda ijtimoiy tarmoqlar orqali bevosita bolalarning tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan “kattalar” tomonidan ularning hayotiga, xavfsizligiga, jismoniy va ruhiy olamiga tazyiqlar va zo‘ravonliklar sodir etayotganlaridan xabar topamiz. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun ta’lim dargohlari xodimlari va o‘qituvchilari, o‘z-o‘zini boshqarish organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining rolinini samarali tashkil etish lozim.

Bu borada, zo‘ravonlikka uchrashi ehtimoli bo‘lgan “xavf guruhi”ga mansub bolalar hayotini alohida kuzatib borish, ta’lim muassasalarida bolalar bilan bevosita ish olib boruvchi xodimlarning psixo-emotsional holatini tekshirib, ishga tavsiya etish, bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik uchun javobgarlikning qat’iy ekanligini ommalashtirishga e’tibor qaratish lozim.

Bolalar huquqlariga oid mazkur qonunchilik hujjatlari farzandlarimizning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy farovonligi, jismoniy va ruhiy sog‘lom bo‘lib rivojlanishi uchun davlat va jamiyat rolini mustahkamlashda, shuningdek, ularning boy va tarixiy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar asosida kamol topishi uchun huquqiy zamin yaratadi.

FAVQULODDA HOLATLARDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmatov M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi, podpolkovnik.

Barchamizga ma’lumki hozirgi kunda ekologiya buzilishi oqibatida dunyoda ro‘y berayotgan favqulodda holatlar, davlatlar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik tufayli urush holatlarini davom etayotganligi va buning oqibatida insonlarning huquqlari kamsitilayotganligi, davlat tomonidan fuqarolarining huquqlarini himoya qilish uchun xech qanday chora tadbirlar amalga oshirilmayotganligi, buning natijasida odamlar o‘z davlatlarini tashlab boshqa davlatlardan boshpana so‘rab ketib qoliyotganligi hech kimga sir emas.

O‘zbekiston Respublikasini yangi taxrirdagi konstitutsiyasining 7-moddasida *“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi”* [1], deb takidlab o‘tilgan.

Hozirgi kunda dunyoda yuzaga kelgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, halqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o‘rtasida xalqimizga yot g‘oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi davlatlarning bu sohada vakolatli organlari oldiga o‘z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo‘yicha yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Muxtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabr kungi halqqa va Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham shu masalaga to‘xtalar ekan quyidagi so‘zlarni aytib o‘tdi: *“Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog‘onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o‘zgarishi kerak. Agar shunday qilmasak, muammolarni ko‘rib, ko‘rmaslikka olsak, zamondan orqada qolamiz. Xalqimiz, yosh avlodimiz bizdan rozi bo‘lmaydi. Shu bois, “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat” degan g‘oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo‘lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o‘tishga qodir bo‘lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur”*.[2]

[1] O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 dekabr kungi halqqa va Oliy majlisga murojaatnomasi.https://qalampir.uz/news/ Web20/12/2022 y.

Shu bois ham mamlakatimizda yangi tahrirdagi konstitutsiyaga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarning hammasi inson qadrini ulug‘lashga, huquqiy demokratik yangi O‘zbekistonni barpo qilishga qaratilgan.

Bungan misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasida Milliy gvardiya qo‘mondonligini tashkil etilishi, ushbu davlat organining vazifasi to‘g‘ridan – to‘g‘ri jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilganligi, o‘z vazifalarini to‘laqonli amalga oshirish uchun ularga keyinchalik ko‘plab vakolatlar berilganligi va ular jamoat xavfsizligini turli yo‘nalishlarda nazorat qiluvchi boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotganligini alohida e’tirof etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasini **71-moddasida** “Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta’qiqlanadi.”[1] deb belgilab qo‘yilgan.

Ushbu normalar talablari davlat oldiga jamiyatda barqaror jamoat xavfsizligini ta’minlashni eng dolzarb vazifalardan biri qilib belgilaydi. Afsuski, shunday qonun ustivor bo‘lgan mustaqil davlatmizni tinchligiga rahna soluvchi, konstitutsion tuzimimizga qarshi boruvchi kuchlar xarakati bizni yurtimizni ham chetlab o‘tmadi. Misol tariqasida 2005 yildagi Andijon voqealari, 2022 yildagi Qoraqalpog‘istonda bo‘lib o‘tgan konstitutsion tuzimimizga qarshi harakatlarni aytish mumkin.

Favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini huquqiy ta’minlashni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish hamda jamoat xavfsizligini doimiy yuqori darajada taminlash maqsadida, 2017 yil Muhtaram yurtboshimizning tashabbuslari bilan Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti etib qayta tashkil etildi va universitet quyidagi sohalar uchun malakali kadrlarni maqsadli tayyorlashni amalga oshiruvchi bazaviy oliy harbiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasida Favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini huquqiy ta’minlashga qaratilgan ko‘plab milliy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ularning yuridik kuchi va qabul qilgan subyektlari maqomidan kelib chiqqan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi yangi taxrirdagi konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va kodekslari;

[1] O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining qarorlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlari;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining normativ-huquqiy xujjatlari;

- Mahalliy davlat xokimiyat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari;

- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning normativ-huquqiy hujjatlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining normativ-huquqiy xujjatlari.

Hozirgi kunda yurtimizda favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlanishini huquqiy asoslarini takomillashtirish va uni amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi davlat organlarining ayrim xodimlarini bu sohada malakasini yetishmasligi, o‘z xizmat vazifasiga befarqlik bilan qarashi ko‘plab fuqarolarning e’tiroziga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar, mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda. Shunday ekan favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashga huquqiy asos bo‘lib xizmat qiluvchi qonun va qonunosti xujjatlariga davlatimizda amal qilinishini nazorat qiluvchi davlat organlarida kadrlar masalasiga alohida e’tibor qaratish, har tomonlama yetuk kadrlarni saralab olish va ularni yangicha jahon standartlari talablariga mos keladigan ko‘rinishini shakllantirish lozim degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 5077-son qarori 15.04.2021y. https://lex.uz/docs/5377545
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligini konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 27- sonli farmoni. https://ssv.uz/-uz/documentation/.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabrda qabul qilingan 737-sonli “Favqulodda holat to‘g‘risi”dagi konstitutsiyaviy qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 dekabr kungi halqqa va Oliy majlisga murojaatnomasi. https://qalampir.uz/news/ Web20/12/2022 y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga

nomzodlarni saralab olish va o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” gi 500-sonli qarori.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA XALQARO HUQUQ NORMALARIGA MUNOSABAT

Ravshanov U.M.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Toshbekov N.N.
Tahririyat-noshirlik bo‘limi texnigi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda inson, uning huquqlari, manfaatlari, erkinliklari yo‘lida tub o‘zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Yaratilayotgan barcha imkoniyatlar avvalombor inson manfaatlariga xizmat qilishi hech kimga sir emas. Ayniqsa, Taraqqiyot strategiyasida belgilab qo‘yilgan vazifalar “**Shaxs-jamiyat-davlat”** tamoyili asosida ijrosi qaratilib kelinayotganligiga guvoh bo‘lamiz.

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Resublikasi xalqaro huquqning to‘la huquqli subyekti sifatida sobitqadamlik harakat qilayotganligining tub zamirida ham inson manfaatlari yotibdi. Davlatimiz tashqi siyosatini amalga oshirib bugungi kunda dunyoning 131 ta davlati bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatgan, 38 ta davlatda elchixonalar, 17 ta shaharda bosh konsulxonalar, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda doimiy vakolatxonalarimiz faoliyat yuritmoqda [1]

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning IV bobi (17-18-moddalar)da yangi kiritilayotgan normalarga to‘xtalib o‘tsak. 17-moddaning 2-qismi “O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.” deb mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu qoidalar amaldagi Konstitutsiyada ham mavjud, ammo hozirgi globallashuv, oldindan aytib bo‘lmaydigan tahlikali davrda faqat ushbu normalar bilan kifoyalanishning o‘zi kamlik qiladi, albatta. “Kuch ishlatmaslik” yoki “kuch bilan tahdid qilmaslik” prinsiplari BMT Nizomi holatlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unga ko‘ra “BMTning hamma a’zolari o‘zlarining xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshu kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan, shuningdek, Birlashgan Millatlat Tashkiloti maqsadlariga to‘g‘ri kelmaydigan boshqa biron-bir tarzdagi harakatlardan o‘zlarini tiyadilar” deya

belgilangan. O‘z navbatida bu norma xalqaro huquq tamoyillari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi.

BMT Nizomida “urush” atamasi o‘rniga “kuch atamasini qo‘llash kuch ishlatishni taqiqlashga tegishli bo‘lgan mazmunni sezilarli darajada kengaytirdi. Nizomning 2-modda 4-bandi qoidalari Bosh Assambleya deklaratsiyasida rivojlantirilgan va aniqlashtirilgan. Nizom “kuch” deyilganda faqat Qurolli Kuchlar qo‘llanilishini emas, balki majburlovning iqtisodiy, siyosiy va boshqa shakllari tushunilishiga ham asos bo‘ldi.

Yangi kiritilayotgan 18-modda esa alohida diqqatga sazovor. 18-moddaning 1-qismi “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.”

O‘zbekiston Respublikasi o‘z tashqi siyosatini konstitutsiyaviy va boshqa huquqiy normalar asosida vakolat bergan davlat oganlari orqali amalga oshiradi. Ushbu bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, tashqi aloqalar orqali birlashgan vazifalar avvalombor yuqorida aytib o‘tilgan normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquq normalarini bajarishga mas’ul bo‘lgan davlat organlarining huquqiy va amaliy faoliyatini tahlil qilish orqali biz aniq ishonch bilan ayta olamizki, xalqaro huquq normalarini davlatimiz qonunchiligiga implementatsiya qilishning qonunchilik mexanizmi alohida ahamiyatga molik.

Mudofaa Doktrinasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Doktrinaning mudofaa xususiyatiga egaligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi hech qaysi bir davlatni o‘ziga dushman deb hisoblamaydi va barcha mamlakatlar bilan munosabatlarni mamlakat milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda o‘zaro naf ko‘rish, teng huquqlilik hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch vositalar va muzokaralar yo‘li bilan hal qilish, davlatlararo shakllangan chegaralarning buzilmasligi va o‘zgarmasligini tan olish asosida quradi. [2]

18-moddaning 2-qismiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning faravonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin.

Tarixdan bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tashabbusi bilan KXSHT tashkilotiga a’zolikni boshlab bergan bo‘lsada, ammo 2012-yil 28-iyun kuni Toshkent O‘zbekistonning KXSHTga a’zoligi to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma bilan nota yubordi. O‘sha yilning 19-dekabrida rasman to‘xtatilgan. Chunki ushbu tashkilotga a’zo davlatlar agar vaziyat taqozo etsa, o‘zining Qurolli Kuchlarini mamlakat tashqarisida ham ma’lum bir

operatsiyalarga jalb qilishga majbur bo‘lib qolishi belgilangan edi. Bu esa, mamlakat Mudofaa Doktrinasiga zid edi.

Xalqaro gumanitar huquq normalari davlatning milliy qonunchiligiga qorishib ketmaydi, u alohida o‘rin tutadi. Mamlakat huquq tizimining bir qismi hisoblanib, o‘rnatilgan protsessual tartib asosida o‘z maqsad va tamoyillari doirasida qo‘llanilib kelinadi. Ular xalqaro gumanitar huquq bilan aloqalarni saqlab qolgan holda alohida tartib asosida qabul qilinadi va o‘zgartirish kiritiladi. Shubhasiz, bularning barchasiga funksional maxsus implementatsiya huquq tizimi kerak. P.N.Arsibasov “transformatsiya” terminini qo‘llab aytadiki: “Xalqaro huquq normalarini mamlakat qonunchiligiga transformatsiya qilish mexanizmi davlat o‘z hududida xalqaro majburiyatlarini o‘zida aks etgan milliy qonunlarni bajarilishini ta’minlash orqali ta’minlanadi” [3]. Bunga qo‘shimcha qilib bunday normalarning realizatsiya qilish chora-tadbirlarini o‘rnatishni kiritsak bo‘ladi.

Xalqaro va davlatning ichki qonunlarining implementatsiya qilish vositalarining turli xil qarashlarini tahlil qilish asosida davlatning ichki qonunchiligi eng ishonchli va samarali vosita degan xulosaga kelamiz. Bu shularda namoyon bo‘ladiki: a) davlatning ichki huquqi yordamida ko‘pchilik xalqaro huquqiy hujjatlarning ijrosi ta’minlanadi; b) davlatning ichki huquqi vositasi yordamida ta’minlanadigan kelishuv normalari samarali bajariladi, ya’ni har bir davlat o‘z zimmasiga mavjud qonunchiligiga zid bo‘lmagan tarzda xalqaro huquq normalarini bajarish majburiyatini oladi; davlatning ichki huquqi o‘z ichiga xalqaro gumanitar huquq normalarini bajara oladigan aniq tashkiliy tizim va mexanizmlarni oladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimi va ulardagi o‘rnatilgan faoliyat protsedurasi xalqaro gumanitar huquq normalarini realizatsiya qilinishini ta’minlaydi. Bunda ularning barcha faoliyati butunligicha imkoni bor, haqiqiy, ikkilanishlarsiz ma’nolarini anglatuvchi “ta’minlash” termini bilan qamrab olinadi [4]. Implementatsiya mexanizmining quyidagi elementlarini belgilaymiz: 1) xalqaro huquq normalarini butunligicha va xalqaro gumanitar huquq normalarini qisman konstitutsiyaviy ta’minlanishini bajarish; 2) xalqaro gumanitar huquq normalari bajarilishining huquqiy ta’minoti; 3) xalqaro gumanitar huquq bajarilishining ma’muriy ta’minoti; 4) xalqaro gumanitar huquq normalarini bajarishning sud ta’minoti.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasida xalqaro gumanitar huquq normalari bajarilishining konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlari joriy qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining 15-moddasi 3-qismi “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonunining 2-moddasi 3-qismida “Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi

qoidalari qo‘llaniladi” va 3- moddasida “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir” [5]. Xuddi shunday normalar yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada ham mustahkamlab qo‘yilgan. 15-moddaning 3-qismi milliy qonunchilikka normalarning iyerarxiyasi masalasini o‘rtaga qo‘yadi. Bunda, albatta, xalqaro huquq normalarining ustunligini ko‘rishimiz mumkin.

Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish degan vakolat mamlakat Konstitutsiyalarda uchramasligi juda kamdan-kam holatdir. Bu yerda ikki xil variant mavjud: 1) imzolangan shartnoma davlat qonunchiligiga o‘zgartirish kiritish, qoidalarini almashtirish kabi muhim o‘zgarishlarga olib keladi; 2) shartnoma mavjud qonunchilikka o‘zgartirish kiritmagan holda faqatgina ayrim holatlar uchun istisno tarzida amal qiladigan boshqa qoidalarni kiritadi. Ikkinchi holatda shartnoma Qonundan ustun ko‘rilmaydi, aniq holatlar uchun qo‘llanilishi muhim ekanligi inobatga olinadi. Bir tomondan ushbu holatda mavjud qonunchilikning turg‘unligi hamda ijro hokimiyatiga hurmat ta’minlanadi, boshqa tomondan esa davlat manfaatlaarining aniq sharoitlarda ta’minlanish imkoniyatini kengaytiradi.

Ratifikatsiya qilingan shartnomalar konstitutsiyaviy qonunlardan tashqari har qanday huquq normasini bekor qilishi yoki yangi huquq normasi kiritishi mumkin. O‘zbekiston hukumati tomonidan imzolangan shartnomalar barcha boshqaruv va unga bo‘ysunuvchi idoralar uchun ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan teng maqomga ega.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, xorijiy mamlakatlarning inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlari bian hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda.

2022 yilda inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish doirasida 95 ta normativ-huquqiy hujjat, jumladan, 58 ta qonun, Prezidentning 10 ta farmoni va 5 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 20 ta qarori loyihalari inson huquqlari bo‘yicha normalarga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazilgan [6].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yangilanayotgan Konstitutsiya mamlakatimizning strategik maqsadlari, inson va fuqarolarning farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uzlidep.uz/news-of-party/13735 (murojaat sanasi 15.04.2023y.)

2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa Doktrinasi” to‘g‘risidagi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018 y., 458-son.

3. Arsibasov I.N., Yegorov S A Voorujennыy konflikt: pravo, politika, diplomatiya. M, 1989, s.176.

4. Ojegov S.I. Slovar russkogo yazыka. M., 1968, s 413.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida” gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.02.2019 y., 518-son.

6. https://insonhuquqlari.uz/oz/news/m10411 (murojaat sanasi 15.04.2023y.)

7. Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. – Toshkent., “Konsauditinform-Nashr” nashriyoti, 2006.

8. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi // https://mening-konstitutsiyam.uz/.

KONSTITUTSIYA - HUQUQ VA ERKINLIKLAR KAFOLATI

Alimov M.I.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, dotsenti,

Jumayev A.G‘.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus Fakultet 2-bosqich talabasi.

“Konstitutsiya” (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. Konstitutsiya davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim jihati shundaki, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlaridir.

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendumdan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga juda ko‘plab o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, quyidagi o‘zgarishlarni misol keltirishimiz mumkin:

Konstitutsiyamizning **1-moddasida:** ***“O‘zbekiston – huquqiy davlat”***, deb mustahkamlangan. Konstitutsiyada O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini alohida belgilash – davlat o‘z faoliyatini, jamiyat va fuqarolarning yashash tarzini faqat Konstitutsiya va qonunlar asosidagina amalga oshirilishini ta’minlaydi. Natijada davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun ustuvorligi asosida inson manfaatlari va fukarolar uchun xizmat qiladi.

“Ijtimoiy davlat” har bir inson uchun farovon turmush darajasi, ya’ni, sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, ijtimoiy karama-karshiliklar bartaraf yetilgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

Konstitutsiyamizning 19-moddasida: “Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi”, ya’ni insonga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha’ni, qadr-qimmati, ozodligi, tengligi, erkin bo‘lishi, xavfsizligi, daxlsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat’i nazar, insonga tegishli xisoblanadi.

Inson huquq va erkinliklarini Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlash, xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash huquqiy demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan BMTning 7 ta asosiy shartnomalari va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma’ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Konstitutsiyamizning 20-moddasida ilk bor “Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi”, degan norma katiy belgilangan. Insonning asosiy huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi bu - shaxsning Konstitutsiyaga bevosita asoslanib, barcha qonuniy vositalardan foydalangan holda ularni himoya qilish imkoniyatini anglatadi.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi deganda, avvalo, insonning huquqlari qonunchilik hujjatlarida to‘liq belgilanishi, shu asnoda huquqni qo‘llovchi vakolatli organlar va mansabdor shaxslar o‘z faoliyatini tashkil etishi hamda sudlar odil sudlovni amalga oshirishda qonun talablaridan kelib chiqqan holda inson huquqlarini himoya qilishini anglatadi.

Konstitutsiyamizning **26-moddasida “insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir”** deb belgilanishi insonparvar norma yekanligidan darak beradi.

“Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi”, degan norma xam mustaxkamlangan.

Inson sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi oliy qadriyat bo‘lib, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida uni amalda ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Inson sha’ni – bu insonning boshqa odamlar oldida o‘z ahamiyatini anglashi yoki insonning ma’naviy obro‘sidir.

Inson qadr-qimmati – bu shaxsning o‘zini o‘zi hurmat qilishi, jamiyat a’zosi sifatida o‘z mavqei va ahamiyatini anglashidir.

Konstitutsiyamizning 20-moddasida “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak”, degan norma qat’iy belgilangan.

Qonunlar kimgadir ortiqcha majburiyat yoki xarajat yuklashi mumkin emas. Aksincha, qonunlar orkali jamiyat huquqiy jihatdan tartibga solinadi, insonlar hayoti barqarorlashtiriladi va bir maromda davom etishi ta’minlanadi.

Konstitutsiyamizning 51-moddasida: “Oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi xukukiga yega”.

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi tubdan isloh etilmoqda. Xususan, xususiy oliy o‘quv yurtlari ochilmoqda, xorijiy universitetlar filiallari soni ortmoqda, olis hududlarda ham universitet filiallari tashkil etilmoqda, 41 ta davlat oliy o‘quv yurtlariga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

Konstitutsiyamizning 133-moddasiga “fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli” ekanligi mustaxkamlangan. Konstitutsiyaga kiritilayotgan mazkur normaning fuqarolar hamda yuridik shaxslarga konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muayyan ishda qo‘llanilgan va Konstitutsiyaga muvofiq bo‘lmagan qonunda buzilgan deb hisoblanganda, agar sudda himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, Konstitutsiyaviy sudga shikoyat bilan murojaat qilish huquqini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yeng avvalo inson, jamiyat va davlat manfaatlariga, respublikamizdagi barcha fukarolarning xukuk va yerkinliklariga amal kilinishiga xizmat kiladi. Bundan tashkari, Konstitutsiyaiizdagi barcha inson xukuk va yerkinliklari oid normalar xalkaro xukuk normalariga muvofik yekanligini kurishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. Huquqiy axborot.
4. “Yangilanayotgan konstitutsiya 100 savolga 100 javob”. Adolat milliy huquqiy axborot markazi, 2023 yil, ISBN 978-9943-8166-3-3

Шамсиддин Турдалиев
Олтиариқ туман ҳокими

ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯ - ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР АМАЛГА ОШИШИНИНГ ЗАРУРИЙ КАФОЛАТИ

Мамлакатда фуқаролар олиб борилаётган ислоҳотларга ўз қарашларини, фикр ва мулоҳазаларини эркин билдиришлари табиий. Қайд этиш лозимки, Конституциявий янгиланишларга ҳам ҳамма бирдайин муносабатда бўлишмайди, баъзилар хайрихох, баъзилар эса эътирозли фикрларини илгари суришмоқчи бўлишади. Дарҳақиқат, ҳамманинг зикри, фикри ўзгача. Ҳозирги куннинг долзарб масаласи ҳам янги таҳрирдаги конституциянинг келгусидаги амалда ижроси қандай бўлар экан, деган турли фикрлар майдони билан бойиган десак янгилишмаган бўламиз. Конституция нима учун керак, табиий савол?- Конституция орқали давлат ўз бошқарувини енгиллаштиради, яъниким инсон, жамият, давлат ўртасидаги ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлар умумлашади ҳамда ҳуқуқий тартибга солинади.

Назаримизда, Конституция доимий ўзгаришда, янгиланишда бўлиши лозим. Агарда у ҳаётий муносабатлардан ортда қоладиган бўлса, ўзининг юридик кучи ва таъсирини ҳам йўқотади. Дарҳақиқат, ҳар бир фуқаромиз билиши лозимки конституция унинг ҳаётида тўсиқ бўладиган муаммоларни тўғридан - тўғри ҳал қиладиган, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаб берадиган, унинг ҳақиқий маънода ҳуқуқий ҳимоячиси бўладиган Асосий қонун эканлигини англашлари лозим. Конституциядан энг аввало, ҳар бир фуқаронинг ўзи бевосита манфаатдор эканлиги, унинг ҳар бир қоидасини билиши ва тушуниши келажакда ҳар қандай юзага келиши мумкин бўлган тўсиқларни енгиб чиқишида асосий кўмакчи бўлишини ҳис қилишлари лозим.

Таъкидлаш жоизки, Конституция 1992 йилда қабул қилинганидан буён унга киритилган ўзгартиш ва қўшимчаларнинг қарийб барчаси асосан давлат ва жамият қурилиши, жумладан Парламент, Президент, Ҳукумат фаолияти, сайлов тизими, маҳаллий бошқарув, суд ва бошқа органлар фаолиятига тааллуқли бўлган.

Бир нарсани алоҳида таъкидлаш лозимки, янги таҳрирда қабул қилиниши кутилаётган конституция Ўзбекистон тарихида илк бора референдум йўли билан қабул қилиниши назарда тутилияпти. Яъни, демократиянинг энг юқори кўриниши бўлмиш халқнинг давлат ва жамият бошқарувида иштирок этиши, фуқароларнинг ўз овозини эркин билдириш орқали амалга оширилади.

Янги таҳрирдаги конституциянинг 1-моддасида, давлатнинг асосий мақсадий йўналишини кўрсатиб берадиган норма келтирилди, яъни давлатнинг ҳуқуқий давлат эканлиги[1][1]. Ҳуқуқий давлат дегани бу – Конституция ва қонун устуворлигига асосланган давлатдир. Ҳуқуқий давлатда мансабдор шахслар ҳокимиятни хоҳлаганича ўзлаштира олмайди, ўзи билганича қарорлар қабул қила олмайди. Бунда барча давлат органлари фақат қонунда белгиланган ваколатлардан келиб чиқиб ҳаракатланади.

Ҳуқуқий давлатда барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенглиги таъминланади. Кўплаб хорижий мамлакатлар конституцияларида ҳуқуқий давлат тушунчасининг бевосита мустаҳкамланганини кузатишимиз мумкин. Хусусан, Россия, Озарбайжон, Португалия, Қозоғистон, Франция, Туркия каби давлатлар конституцияларида ҳуқуқий давлат, қонун устуворлигига риоя этиш каби қоидалар бевосита мустаҳкамланган.

Ҳуқуқий давлатнинг шаклланганини қуйидаги белгилар билан изоҳлашимиз мумкин:

биринчидан, конституция ва қонуннинг устунлиги; *иккинчидан,* инсон ҳуқуқ ва эркинликларига риоя этиш, уларни ҳимоя қилиш ва таъминлаш; *учинчидан,* фуқаро ва давлатнинг ўзаро масъуллиги; *тўртинчидан,* жамиятда ҳокимиятлар бўлиниш прниципининг устуворлиги; *бешинчидан,* судларнинг мустақиллиги; *олтинчидан,* ҳуқуқий маданиятнинг юқори даражада экани ва бошқа белгиларни кўрсатиб ўтиш мумкин.

Таъкидлаш лозимки, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари билан кўплаб нормалар мустаҳкамлаш мумкиндир, аммо мазкур ҳуқуларни таъминлаш ҳамда кафолатлаш албатта давлат органларининг зиммасига катта масъулия ва жавобгарликни юклайди. Шу мақсадда, шунга мос тарзда давлат органларининг ваколат ва функцияларини мувофиқлаштириш масаласи ҳам муҳим аҳамият касб этади. Янги таҳрирдаги Конституциянинг бешинчи бўлимида ҳам янги нормалар билан уйғунлашган ўзгаришларни қуйидагиларда изоҳлашимиз мумкин:

Биринчидан, Янги Ўзбекистонда олиб борилаётган маъмурий ислоҳотларнинг мақсади ва вазифаларидан келиб чиқиб, парламентнинг юқори палатаси – Сенат модернизация қилинди, шунингдек парламентнинг қуйи палатаси – Қонунчилик палатасининг ваколатлари

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 й. – Б.4.

кучайтирилди. Таъкидлаш лозимки, бу нормалар, Қонунчилик палатаси ва Сенатининг масъулияти соҳаларини ажратиш, уларнинг фаолиятидаги параллелликни ва бир-бирини такрорлашни истисно этиш мақсадида киритилди. Амалдаги Конституцияда Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари 5 та ваколатдан иборат бўлса, янги таҳрирдаги тузатишларга кўра уларнинг сони 12 тага ошди. Сенатнинг мутлақ ваколатлари амалдаги 14 тадан 18 тага кўпайди (94, 95-моддалар). Мазкур ўзгаришларни қуйидаги баъзи бир мисолларда кўриб ўтишимиз мумкин:

Бош вазир номзодини кўриб чиқиш ва маъқуллаш Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколати сифатида мустаҳкамланмоқда; Давлат бюджети ижросини назорат қилиш; Вазирлар Маҳкамасининг ҳар йилги маърузасини эшитиш; Бош вазирнинг мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш тўғрисидаги ҳисоботини эшитиш ва бошқа ваколатлар Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари сифатида белгиланди. Сенатнинг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат органлари, махсус хизматлар фаолияти устидан назорат функцияси кучайтирилди. Хусусан, Бош прокурор ва Ҳисоб палатаси раиси Сенат маъқуллаганидан кейин, Давлат хавфсизлик хизмати раиси эса, Сенат билан маслаҳатлашилгандан кейингина Президент томонидан тайинланиши тартиби жорий этилди. Сенат аъзолари сони 100 нафардан 65 нафаргача оптималлаштирилиб, улар 14 та ҳудуддан тенг миқдорда 4 нафардан Жўқорги Кенгес ва маҳаллий Кенгашлар мажлисларида депутатлар орасидан сайланади, Сенатнинг 9 та аъзоси бевосита Президент томонидан тайинланиши ва бошқа янги қоидалар шулар жумласидандир.

Иккинчидан, Ҳукуматнинг Олий Мажлис ва Президент олдидаги масъулиятини кучайтириш ҳисобига Вазирлар Маҳкамасининг масъулият ва жавобгарлиги сезиларли даражада кучайтирилди, Ҳукуматнинг мақоми ўзгарди, парламент қуйи палатасининг Ҳукуматни шакллантиришдаги иштироки кенгайтирилди. Эндиликда, Бош вазир номзоди Президент кўриб чиқиши учун парламентга сайловда энг кўп депутатлик ўринларини олган сиёсий партия томонидан таклиф этилиши тўғрисидаги конституциявий норма бекор қилинди ҳамда мазкур қоида ўрнига илғор хорижий амалиётни инобатга олган ҳолда, Бош вазир ва Ҳукумат аъзоларини Қонунчилик палатаси маъқуллаганидан кейин Президент томонидан тайинлаш тартиби ўрнатилди.

Бу ерда, Бош вазир номзоди Президент томонидан қуйи палатадаги барча сиёсий партиялар фракциялари билан маслаҳатлашувлар ўтказилганидан сўнг таклиф этилиши*(109 ва 118*-моддалар) белгиланди.

Шунингдек, Ҳукумат зиммасига ижро этувчи ҳокимият органлари ишида очиқлик ва шаффофликни, қонунийлик ва самарадорликни таъминлаш, давлат хизматларининг сифати ва қулайлигини ошириш,

аҳолини, шу жумладан ногиронлиги бўлган шахсларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг самарали фаолият кўрсатишини таъминлаш, фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлаш вазифалари конституциявий жиҳатдан мустаҳкамланди*(115-модда)*.

Конституциявий ислоҳотларда муҳим бир концептуал ўзгаришга эътиборимизни қаратадиган бўлсак, эндиликда вилоят, туман, шаҳар ҳокими лавозимини эгаллаб турган шахс бир вақтнинг ўзида халқ депутатлари маҳаллий Кенгашининг раиси лавозимини эгаллаши мумкин эмаслиги(120-модда) тўғрисидаги норма қатъий белгилаб қўйилди. Эндиликда, маҳаллий ҳудудларда иккита алоҳида мустақил тузилмага битта шахснинг раҳбарлик қилишига конституциявий жиҳатдан чек қўйилди.

Учинчидан, янги таҳрирдаги Конституция судьялар мустақиллиги, одил судлов тизимини демократлаштиришнинг конституциявий асослари Конституция ва қонун устуворлигини таъминлашнинг муҳим шартлари сифатида сезиларли даражада мустаҳкамланди. Судьялар дахлсиз ва муайян ишлар бўйича ҳисобдор бўлмаслиги, давлат судьянинг ва унинг оила аъзоларининг хавфсизлиги таъминланиши белгиланди *(136-модда).*

Алоҳида қайд этиш лозимкки судларнинг фаолиятини молиялаштириш фақат давлат бюджетидан амалга оширилиши ҳамда у одил судловни тўлиқ ва мустақил амалга ошириш имкониятини таъминлаши кераклиги тўғрисидаги норма *(140-модда)* ва бошқа муҳим бўлган қоидалар мустаҳкамлаб қўйилди. Шунингдек, Конституциявий суднинг ваколатига тааллуқли масалалар доираси кенгайтирилмоқда ва аниқлаштирилмоқда, унинг судьялари фаолиятининг кафолатлари кучайтирилди. Эндиликда, Конституциявий судга референдумга чиқарилаётган масалаларнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқлиги тўғрисида хулоса бериши ваколати белгиланди. Бу албатта, Конституциявий суд фаолиятидаги масъулиятнинг ошаётганлигидан далолат беради.

Тўртинчидан, Конституцияга адвокатура институтига бағишланган ва адвокатлар фаолиятининг кафолатларини мустаҳкамловчи алоҳида боб киритилди *(XXIV боб)*. Келгусида адвокатлар фаолиятини мустақил ва эркин тарзада фаолият олиб боришини янада мустаҳкамлаш борасида қуйидагилар назарда тутилди: Адвокатура фаолияти қонунийлик, мустақиллик ва ўзини ўзи бошқариш принципларига асосланиши *(141-модда)*; адвокат ўз касбий вазифаларини амалга ошираётганда унинг фаолиятига аралашишга йўл қўйилмаслиги; адвокатга ўз ҳимоясидаги шахс билан монеликсиз ва холи учрашиш, маслаҳатлар бериш учун шарт-шароитлар таъминланиши; адвокат, унинг шаъни, қадр-қиммати ва касбий фаолияти давлат ҳимоясида бўлади ва қонун билан муҳофаза

қилиниши *(142-модда)*. каби муҳим қоидалардир. Албатта, мазкур янги кафолатловчи нормалар адвокатлар фаолиятини янги босқичга олиб чиқади десак, янгилишмаган бўламиз.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, бу конституциявий ўзгаришлар олиб борилаётган ислоҳотларнинг бошланиши, энг муҳими бу янги қоидалар инсон, жамият ва давлат ўртасидаги ўзаро муносабатларни тўғридан- тўғри тартибга солишда ўз кучи ва салмоғини кўрсатади.

Қолаверса, халқимизнинг конституциявий ислоҳотларга бўлган ишончини янада орттириб бориш зарур. Демакки, конституциямизнинг тегишли нормаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиши, бу конституциямизнинг мажозий маънода кучсизланишига эмас, аксинча, конституциямизнинг янада такомиллашувига, халқ манфаатларининг кафолатланишига ҳамда инсонларнинг ҳаётий зарурати акс этишига хизмат қилади.

MUNDARIJA

KIRISH……..…….……3
Mamayusupov S.D. Yoshlarning axborot madaniyatini oshirish – davr taqozosi……..…….....6
Ganiyev M.J. Yangi O‘zbekistonning yangi konstitutsiyasi – mol-mulk daxlsizligining mustahkam kafolati……..……...9
Rustambayev M.X. Inson huquqini takomillashtirishning konstitutsiyaviy asoslari……..……12
Turg‘unov O.K. Konstitutsiya meniki-seniki-barchamizniki……..…17
Zulfiqarov Sh.X. Yangi tahrirdagi konstitutsiya: inson-jamiyat-davlat o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlovchi asosiy manba!.....24
Eshmatova F.F. Konstitutsiya – inson huquqlari va erkinliklarining kafolatidir……...32
Шаганян А.М. Право на жизн как конституционная сенност демократических государств……..…….…...36
Nuridullayev A.A. Konstitutsiya – jamiyat va tabiat himoyasi yo‘lidagi huquqiy asos…….…….….38
Xolmamatov X.Sh. O‘zbekiston Respublikasining bola huquqlariga oid xalqaro majburiyatlarining bajarilishi masalalari……..……43
Usmonov M.B. Yoshlar ekologik huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari…...48
Mirazov D.M. Yangilangan konstitutsiyada jinoyat protsessi ishtirokchilarini huquqlarini kafolatlanishi……...……53
Usmanova M.A. Insonparvar tamoyillar asosida mehnat huquqini takomillashtirish: Yangi O‘zbekiston yo‘nalishlari……..……...57
Пулатов Ю.С. Конституционные основы прав и свободребенка в Узбекистане …….60
Turayeva S.R. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ilm- fan taraqqiyoti garovidir……..……...64
Tajiboyev M.M. Yangi O‘zbekistonning –Yangi konstitutsiyasi- yangi sud hokimiyati qarorlarida inson huquqlari himoyasi……..…..…..69
Shadmanov E.Sh. O‘zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlarning tarixiy mazmuni va yangi konstitutsiyadagi o‘zgarishlarning ahamiyati……..…76
Махмудов Н.М. Развитие туризма как фактор укрепления конституционных основ Республики Узбекистан…….79

Utegenov O. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishining huquqiy poydevoridir…….81
Кытайбекова М.С. Обновленная конституция – основной закон, регулирующий отношения человек – общество – государство: научный анализ и практические решения…….....85
Ishmuratov E.I., Zakurllayev A.K. Konstitutsiyada malakali yuridik yordam olish huquqining kafolatlanashi……...…...88
Inagamdjanova Z.F., Qo‘shayev N.M. Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligining konstitutsiyaviy tamoyili: tarixi va huquqiy tartiboti……..…..93
Qo‘shayev N.M., Nurullayeva A.N. Tijorat sirining muhofazasi haqidagi konstitutsiyaviy qoidalarning jinoyat protsessida ta’minlanishi xususida…....96
Xayriyev N.I., Achilov A.T. Advokatura faoliyatining huquqiy asoslari va konstitutsiyaviy kafolatlari……...101
Ismoilov A. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining konstitutsiyaviy ta’minlanishi…….105
Shadmanov E.Sh., Irgashev D.I. Mulkka egalik qilish huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi…….……108
Yuldashov S.O. Murojaat qilish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari…...110
Nurmuhammedova G.B., Kamilov M.A. Konstitutsiya - korrupsiyaga qarshi kurashishda mustahkam huquqiy asos……..…...115
Ashurova N.O‘. Bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilishda konstitutsiyaviy qoidalarning ahamiyati……..121
Yuldashev Sh.N. Bola savdosi – jamoat xavfsizligiga tahdid…….....125
Baxranov Sh.T. “Yangilangan konstitutsiya” raqobatbardosh ta’lim tizimining poydevori……...……...129
Jumanov A. Suv boyliklarini muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari.131
Rasulova N.S. O‘zbekistonda konstitutsiyaning shakllanish tarixi…….....135
Olimjonov X.M., Rahmataliyev M.M.. Konstitutsiyasi – inson huquqlarining kafolati…….…….....……..…138
Irgashev D.I. Xususiy mulk daxlsizligining huquqiy kafolati……..….143
Alimov G‘.A. Yangi tahrirdagi konstitutsiyada favqulodda holat rejim sharoitida ichki ishlar va milliy gvardiya organlarining inson huquq va erkinliklarni cheklash vazifalarining amalga oshirishning ayrim xususiyatlari……..146

Xotamov Sh.N., Xudoyqulov Y.A. Inson qadr-qimmati hamda huquq va erkinliklarini aks ettirgan konstitutsiya…….……...……...153
Sattorov A.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – amaliy tashqi siyosat va xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asosi……..156
Xotamov SH.N. Yangi tahrirdagi konstutisiyamizda inson huquqlari va qadri-qimmati to‘liq kafolatlangan……...….159
Anarkulov A.D. Yangi konstitutsiyada O‘zbekiston ijtimoiy davlat deb belgilanishining asosiy ko‘rinishlari……..…..162
Davletov O‘.M. Konstitutsiya – eng yuksak insoniy qadriyatlar qomusi…...165
Sirliyev E.N. Yoshlarda harbiy vatanparvarik tuyg‘usini shakllantirishda yangilangan konstitutsiyaning ahamiyati…….....168
Payziyev A.M., Kamilov M.A. Inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlashda tezkor qidiruv faoliyatining o‘rni…….....172
Payziyev A.M., Nazarova L.G. Konstitutsiya-shaxsning protsessual huquqlarini ta’minlashning huquqiy kafolati……..….178
Alimov M.I. Yangilangan konstitutsiyada himoyalanish huquqini kafolati…182
Ikanov A.A. Profayling texnologiyasini qo‘llashning konstitutsiyaviy asoslari……..186
Elov A.A. Global iqlim o‘zgarishlari va konstitutsiya: xorijiy davlatlar tajribasi…….189
Zurapov A.U. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri……..……192
Алимова Г.А. Развитие военной рекреатсии в контексте укрепления конституционных основ страны……...……....198
Amaniyazova S.B. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari……...….200
Inagamova M.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlashning huquqiy poydevori…….…...203
Qodirov T. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarini qo‘llashning siyosiy-huquqiy jihatlari hamda konstitutsiyaviy asoslari……...……...208
Shayzakov Sh. Fuqarolik sud hujjatlarini kassatsiya instansiyasida qayta ko‘rishning konstitutsiyaviy asoslari……211
Yusupova F.O‘. Insonning sog‘liqqa bo‘lgan huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari……...……...216
Otayev O‘.M. Konstitutsiyani yangilashning ijtimoiy zaruriyati……....218

Beysenov K.S. Konstitutsiya — mamlakat farovonligining huquqiy kafolati……..222
Beysenov K.S., Xojibekov Z.N. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi–mahkumlarning erkinliklari va huquqlarining kafolati……226
Shoimov N.B. O‘zbekiston Respublikasining yangilangan konstitutsiyasida inson – tabiat –jamiyat munosabatlarining aks etishi……..….231
Xojibekov Z.N., Raximov Sh.K. Yangi konstitutsiya — inson huquqlari va erkinliklarining asosiy kafolati…….....236
Raximov Sh.K. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi ta’lim olishning boshlang‘ich asosi……..……..238
G‘iyosov B.H. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlash borasidagi ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha kostitutsiya va milliy qonunchilik tizimi……241
Badalboyev F.Y. Constitutional foundations for ensuring the rights of witnesses in pretrial proceedings……...……...244
Atamirzayev I.X. Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda konstitutsiyaning o‘rni…….247
Ikramov A.A. Yangi tahrirdagi konstitutsiya — fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolati……...252
Odilkhujayev I. The concept of a comprehensive information protection system in notarial activities……..……255
Yarashev B.Ch. Konstitutsiyada mehnat huquqlari masalasi……...…..260
Ergashev J.U., Yuldasheva M.U. Yangi tahrirdagi konstitutsiyadagi o‘zgarishlar va imkoniyatlar…….....……...264
Khursandov A.S. The constitution is a unified legal space of democratic rights and freedoms……268
Raxmonov S.B., Gaziyev R.A. Mudofaa va xavfsizlik masalasining konstitutsiyadagi ifodasi……..……....272
Xaydarov K.A. Konstitutsiyamizda axborot huquqiy mavqeyi mustahkamlangan…….277
Maxamatov M.M. Mehnat qilish huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari……..281
Murodov B.M., Xalilov Sh.X. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning burchidir…….……..284
Mamasoliyev S. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi-ijtimoiy-huquqiy davlat tayanchi……..287
Ochilov D. Yangilangan konstitutsiyada ijtimoiy davlat tushunchasi……....290

Ergasheva Sh.E. O‘zbekiston konstitutsiyasining chet tillari o‘rganishdagi ahamiyati……...……...293
Zoirova I.F. Distinctive features of interrogating juvenile victims during investigation processes…….....296
Казаков А.А. Развитие детской рекреации как фактор укрепления конституционных основ Республики Узбекистан……...…299
Zurapova N.M. Huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishda yangi konstitutsiyaning o‘rni va roli…….....301
Елизаров М.Г. Конституция Республики Узбекистан на защите здоровья военнослужащих……...……..304
Ergashev J.X. Yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasida bola huquqlari: qiyosiy tahlil……..……...306
Abdumutalibov A.I. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining konstitutsiyaviy burchidir……..308
Rasulov I.R. Yangilangan konstitutsiya shaxs ijtimoiy hayotidagi psixologik ahamiyati……...……...312
Valiboyev I.T. Voyaga yetmagan shaxslarning konstitutsiyada belgilangan huquqlari ……...……...316
Rustamov A.B. Ijtimoiy sohani rivojlantirishda yangi konstitutsiyaning o‘rni……..320
Boboxolova Sh.A. Talabalarning o‘quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo‘lishining metodologik xususiyatlari yangi konstitutsiya talqini ostida…...324
Anorboyev I.B., G‘ulomqodirova D.A.. Ta’lim sohasiga yangicha nigoh bilan yondashuv……...……..327
Rahimov Sh.A. Maxsus vositalarni qo‘llashning huquqiy asoslarida konstitutsiya omili…….……...330
Toshmuxammatov A.Y., Meliqo‘ziyev S.O‘. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda milliy manfaatlarini yuksaltirish yo‘lida xalqaro hamkorlik va harbiy diplomatiya siyosati ahamiyati…….....…..335
Axmedov Y.Y. Konstitutsiya bosh qomusimiz……...…338
Mirvohidov B.M., Akramov J.M. Yangi konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori……...……...341
Tuxtaxunov D.Sh. Konstitutsiya erkin va faravon xayot garovi……...345
Baxtiyorov O., Omonov A.T. Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat tushunchasi va ahamiyati……..……...348
Po‘latov O. Yangilangan konstitutsiyada ijtimoiy davlat tushunchasi……....351

Jańabayev D.T. Voyaga yetmaganlarning fuqarolik, mehnat va jinoyat huquqiy munosabatlardagi ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari……..354
Jo‘rabek A.R. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ijro hokimiyati organlari hisobdorligiga doir normalarning nazariy-huquqiy tahlili…….357
Sodiqov X. “Davlat – inson uchun” tamoyili – demokratik islohotlar mezoni……..360
Nurmatov M.M., Qurbonov S.S. Ekologik burchning konstitutsiyaviy asoslari……..363
Beksariyev X.Q. Afv etish institutini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan takomillashtirishning ayrim masalalari……..….367
Norboyev Sh.B. Konstitutsiya va fuqarolik qonunchiligida xususiy mulk daxlsizligi……..……...372
Kamolov Z.I., Saminjonov M.A. Milliy qonunchiligimizda fuqarolarning miting, yigilish va namoyishlarda ishtirok etishi yuzasidan huquqiy normalar……....376
Jo‘rayev J.R. Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosati – mamlakat taraqqiyoti va farovonligi kafolati……...…380
Quvvatov S. Konstitutsiyadagi o‘zgarishlarning jamiyatga tadbiq etilishining tahlili……..……..383
Ikanova L.S. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko‘maklashishning konstitutsiyaviy asoslari (Sudlanganlarni xorij tiliga o‘qitish misolida)……..……..387
Mirzayev G‘.R. Konstitutsiya - inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning asosiy qomusi……...390
Rizoqulov A.G‘. Yangilangan konstitutsiya – iqtisodiy islohotlarning mustahkam huquqiy asosi……....392
Eshtilovov S.B., Yamanqulov S.S. O‘zbekiston Respublikasi Yangi konstitutsiyasida hududiy yaxlitlik: davlat mustaqilligining muhim garovi....394
Axmedov Sh.O., Najmutdinova M.F. Yangi O‘zbekiston konstitutsiyayasi - saylov huquqining kafolatlari…….……..395
Казаков А.А. Развитие детской рекреатсии в укреплении конституционных основ Республики Узбекистан …….....400
Djaydakbayev F.T. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi bo‘yicha davlat siyosati konstitutsiya bilan kafolatlanadi……..……...404

Urmonov J.J., Jaloldinov J.J. Konstitutsiyada: Fuqarolarning budjet jarayonida ishtirok etishi va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari huquqiy kafolatlandi……...406
Nurjanov A.Y., Boboxonov S.R. Konstitutsiyada aks etgan ekologik qoidalar…….412
Xomidov E.O. Konstitutsiyaviy islohotlarda oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berishning mohiyati……..…..416
Maxsadov M.I. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa va xavfsizligining ahamiyati……..422
Maxmudov D.R. Milliy xavfsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy prinsiplari va normalari……..……425
Maxsadov M.I. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – milliy xavfsizlik konsepsiyasining asosi sifatida……...431
Rizoyev F.F., Kamolov A.A. Harbiy xizmatchilarning intizomiy javobgarligini tartibga soluvchi normalarning konstitutsiyaviy asoslar: muammo va yechimlar……..437
Usmanova M.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - munosib mehnat qilish kafolatidir……...443
Abdusattarova F. Konstitutsiya – mamlakat taraqqiyotining mustahkam poydevori……...…...447
Rafikova M.R. Zamonaviy O'zbekiston: Konstitutsiya, qonun va fuqarolik……...451
Fayziyeva G.U. Konstitutsiya – farovon hayotimizning asosiy mezoni!.....454
Akmalov H.A. Yangilangan konstitutsiyada inson huquqlarining mustahkamlanishi……...…….458
Egamberdiyeva N.K. Er-xotinning mulkini taqsimlashdagi ayrim muammolar.....462
Haydarov A.U. Jamiyat xavfsizligini ta'minlashda, "inson, jamiyat va davlat" tamoyilining konstitutsiyaviy – huquqiy asoslari……...…..467
Mirzatillayev U.I. Konstitutsiya – voyaga yetmaganlar huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati……..473
Abdurasulov A.A. Iqtisodiy rivojlanishlarning konstitutsiyaviy - huquqiy asoslari……...……...477
Ernazarov A.A., Sodiqov M. Konstitutsiya - mamlakat xavfsizligi va jamiyat farovonligining huquqiy asosi……..481

Abdurasulov A.A. Iste’molchi huquqlari ustunligiga oid konstitutsiyaviy kafolatlarining amalda ifodalanishi…….……..…483
Qurbonov S.S. Tabiiy resurslarning konstitutsiyaviy muhofazasi……..488
Qodirov E., Ochildiyev F. O‘zbekistonda konstitutsionalizmning yangi tendensiyalari: murojaat institutining konstitutsiyaviy asoslari……...…492
Sharipova N.M. O‘zbek tilining konstitutsiyaviy ifodasi……...497
Xoliqov Sh.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida global tarmoq....500
Vaxidov F.R. Oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi……..504
Baratova M. Bolalarni himoya qilishning huquqiy asoslari……...510
Raxmatov M. Favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish…….514
Ravshanov U.M., Toshbekov N.N. Yangi tahrirdagi konstitutsiyada xalqaro huquq normalariga munosabat…….517
Alimov M.I., Jumayev A.G‘. Konstitutsiya - huquq va erkinliklar kafolati..521
Турдалиев Ш. Янги таҳрирдаги конституция - давлат бошқарувидаги ислоҳотлар амалга ошишининг зарурий кафолати.....524

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - INSON – JAMIYAT – DAVLAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLUVCHI ASOSIY QONUN: ILMIY TAHLIL VA AMALIY YECHIMLAR

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

2024-yil 6-dekabr

Texnik muharrir: Boboxonov S.R.

Bosishga ruxsat etildi: 27.11.24 y. Buyurtma: № 272. Format 60x90/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hajmi: 33,25 sh.b.t., 34,83 t.-h.t. Adadi: 5 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi